O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VAZIRLAR MAHKAMASINING
DAVLAT TILINI RIVOJLANTIRISH
DEPARTAMENTI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

Abduvahob Madvaliyev, Ne’mat Mahkamov,
Zuhra Mirahmedova, Akmalxo‘ja Saidno‘monov

XALQARO TERMINELEMENTLARNING IZOHLI-ILLYUSTRATIV LUG‘ATI

TOSHKENT
2023

UO‘K 001(038)(084.1)
KBK 81.2-4
X-22

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining
Davlat tilini rivojlantirish departamenti

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

Mas’ul muharrir:
Nizomiddin Mahmudov, filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:
Yorqinjon Odilov, filologiya fanlari doktori, professor
Shuhrat Ko‘chimov, filologiya fanlari doktori, dotsent

A. Madvaliyev va boshq.
Xalqaro terminelementlarning izohli-illyustrativ lug‘ati [Matn]: lug‘at / A.Madvaliyev [va boshq.]. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2023. – 432 b.

Fan va texnika, madaniyat va san’at sohalariga oid o‘zlashma terminlar va ular tarkibidagi terminelementlar ilmiy adabiyotlardan va turli sohaviy terminologik lug‘atlardan borgan sari mustahkam joy olmoqda. Asosan, yunon va lotin tillari elementlaridan tarkib topgan bunday terminlar keyingi davrlarda xalqaro nufuzga ega bo‘lgan ba’zi zamonaviy yevropa tillaridan ham o‘zlashmoqda.

Xalqaro miqyosda qo‘llanuvchi ana shunday minglab so‘z va terminlar har doim ham keng ommaga, ba’zan hatto mutaxassislarga ham tushunarli bo‘lavermaydi. Shu nuqtayi nazardan hozirgi davrda xalqaro terminlarni hosil qiluvchi so‘z va elementlarning ma’nosini ochib beruvchi, ularning turli xil xususiyatlarini to‘laroq aks ettiruvchi maxsus qo‘llanmaga ehtiyoj bor edi. 2020-yilda o‘zbek-kirill yozuvida nashr etilgan “Халқаро терминэлементларнинг изоҳли-иллюстратив луғати” ana shu ehtiyojni ma’lum darajada qondirib keldi.

Qo‘lingizdagi lug‘at O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi PF–6084-sonli “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga ilova qilingan Konsepsiya va Dasturga binoan nashrga tayyorlandi. Ushbu kitob avvalgi nashr asosida o‘zbek-lotin yozuvida kengaytirilgan holda tayyorlangan va 1100 dan ortiq xalqaro terminelementlarni o‘z ichiga olgan lug‘at bo‘lib, mavjud ehtiyojlarni to‘la qondiradi deb o‘ylaymiz.

Xalqaro terminelementlarni bir butun holda tasvirlovchi bunday lug‘at o‘zbek leksikografiyasidagina emas, balki turkiy xalqlar lug‘atchiligida ham dastlabki tajribadir.

Lug‘at turli fan sohalari mutaxassislariga, keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ilmiy kengashining 2023-yil 10-noyabrdagi majlisida (6-bayonnoma) nashrga tavsiya etilgan.

Ushbu lug‘at O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti buyurtmasiga binoan Davlat tilini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan nashr etildi.

© A.Madvaliyev va boshq., 2023
© “Donishmand ziyosi”, 2023

ISBN 978-9910-9642-3-7

SO‘ZBOSHI

Dunyoda o‘zga tildan so‘z o‘zlashtirmagan birorta sof til mavjud emas, binobarin, o‘zbek tili ham o‘z taraqqiyotida bu jarayonni boshdan kechirgan. Ayniqsa, bugungi kunda, tez o‘zgarayotgan globallashuv davrida fan va texnika taraqqiyoti tufayli juda ko‘plab yangi tushunchalar kirib kelmoqda. Ko‘pincha yangi tushunchalar o‘z nomlari, ya’ni tegishli terminlar bilan kirib keladi. Turli sohalarda qo‘llanuvchi o‘zlashma terminlar va ular tarkibidagi xalqaro terminelementlar lug‘atlarimizdan mustahkam joy olmoqda. Asosan, yunon va lotin tillari elementlaridan tarkib topgan bunday terminlar keyingi davrlarda xalqaro nufuzga ega bo‘lgan ba’zi zamonaviy yevropa tillaridan ham o‘zlashmoqda.

Qayd etish kerakki, ular qadimiy tillarda aynan shu tarkibda va ma’noda mavjud bo‘lgan emas. Xalqaro terminelementlarning aksariyati fanning rivojlanishi jarayonida ilm ahllari, ayrim olimlar tomonidan qadimiy yunon va lotin tillarining so‘z va elementlarini o‘zaro biriktirish orqali hosil qilingan. Shunga qaramasdan, xalqaro miqyosda qo‘llanuvchi ana shunday minglab so‘z va terminlar muayyan til tomonidan o‘zlashtirilar ekan, har doim ham keng ommaga, ba’zan hatto mutaxassislarga ham tushunarli bo‘lavermaydi. Shu nuqtayi nazardan hozirgi davrda xalqaro terminlarni hosil qiluvchi so‘z va elementlarning ma’nosini ochib beruvchi, ularning so‘z yasash va funksional xususiyatlarini to‘laroq aks ettiruvchi maxsus qo‘llanmaga katta ehtiyoj bor edi. O‘ylaymizki, ushbu “Xalqaro terminelementlarning izohli-illyustrativ lug‘ati” ana shu ehtiyojni to‘liq darajada qondira oladi.

Xalqaro terminelementlarni bir butun holda tasvirlovchi bunday lug‘at o‘zbek leksikografiyasidagina emas, balki turkiy xalqlar lug‘atchiligida ham dastlabki tajribadir. Lug‘atga material bo‘lgan so‘z va elementlar deyarli barcha xalqlar tillari uchun umumiy bo‘lganligidan ushbu lug‘at ular uchun ham namuna, nusxa vazifasini bajarishi mumkin.

Keng doiradagi o‘zbek kitobxoni uchun mo‘ljallangan bu lug‘atning asosiy maqsadi va vazifasi o‘zbek tiliga kirib kelgan, o‘zlashayotgan xalqaro terminlarning ajraluvchi tarkibiy qismlari, ya’ni terminelementlarning ma’nolarini ochib berish, ularning so‘z yasash imkoniyatlarini ko‘rsatish, ular ishtirokida yasalgan terminlarga izoh berishdir.

Kitobdagi lug‘at maqolalari quyidagicha tuzilgan:

1. Terminelementlar alifbo tartibida joylashtirildi va ularning har biri yangi satrdan yozildi.

2. Terminelement so‘z boshida kelsa, o‘zidan keyingi so‘z-terminga yoki terminelementga qo‘shilishi sababli undan keyin uch nuqta, so‘z so‘ngida kelsa, o‘zidan oldingi termin yoki terminelementga qo‘shilishi sababli undan oldin uch nuqta qo‘yildi va u qora harflar bilan berildi. Tegishli terminelementlardan tuzilgan va illyustratsiya sifatida berilgan izohlanmagan va izohlangan terminlar ham qora harflar bilan ajratildi.

3. Terminelementdan keyin uning qaysi tilga mansubligi, uning lotin yozuvidagi shakli va tegishli tildagi dastlabki asosiy ma’nosi ko‘rsatildi. Keyin uning hozirgi ma’nosi (ma’nolari) keltirildi.

4. Illyustratsiya sifatida keltirilgan, lekin izohlanmagan so‘z-terminlar, o‘zaro vergul bilan, izohlangan so‘z-terminlardan esa nuqtali vergul (;) bilan ajratildi.

5. Illyustrativ misollarning tarkibiy qismlari bo‘lgan terminelementlar, xoh prepozitiv, xoh postpozitiv holatda bo‘lsin, agar ular alohida bosh so‘z sifatida berilgan va izohlangan bo‘lsa, illyustrativ misolning tarkibiy qismlari sifatida asl lotin yozuvidagi shaklida emas, balki bosh so‘z shaklida o‘zbek-lotin yozuvida berildi. Agar misolning oxirgi tarkibiy terminelementi lug‘atda alohida izohlanmagan bo‘lsa, uning lotin yozuvidagi shakli va ma’nosi ko‘rsatildi.

6. Qisqartmalar (*a., fr., ingl., ital., lot., yun.*) kursiv bilan yozildi.

7. Terminelementlar yordamida hosil qilingan terminlarni izohlashda ikki xil yo‘l tutildi. Berilgan ikki va undan ortiq illyustrativ misollar ba’zi o‘rinlarda to‘liq izohlangan bo‘lsa, ba’zan uch-to‘rtta illyustrativ misollardan faqat bittasi yoki ikkitasigina to‘liq izohlandi.

Aytilganlarning dalili sifatida, lug‘at maqolalarining tuzilishi va izohlanishi haqida yanada aniqroq, yaxlit tasavvur hosil qilish uchun quyidagi izohlarga nazar tashlash kifoya qiladi:

AKV(A)... [*lot.* aqua – suv] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, suv, suvga aloqadorlik ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **akvadag, akvagel, akvakultura, akvamarin, akvanavt, akvatipiya, akvatropizm, akvilegiya; akvalang** [akva...+ *ingl.* lung – o‘pka] – odamning suv ostida bemalol nafas olib suzishiga hamda ishlashiga imkon beruvchi apparat; **akvametriya** [akva...+...metriya] – anorganik va organik moddalar tarkibidagi suv miqdorini bevosita aniqlash (o‘lchash) usuli; **akvarel** [*fr.* aquarelle < *ital.* aquerello < *lot*. aqua – suv] – 1) suvli tiniq, shaffof bo‘yoq; 2) shunday bo‘yoq bilan ishlangan rasm, tasvir; **akvarium** [*lot*. aquarium – hovuz, hav-

za < akv(a)…+…arium] – 1) baliq yoki boshqa suv jonivorlari va o‘simliklari parvarish qilinadigan shisha idish yoki sun’iy havza; 2) baliq yoki boshqa suv jonivorlari va o‘simliklarini asrash, ko‘paytirish, o‘rganish va xalqqa ko‘rsatish uchun xizmat qiladigan maxsus muassasa; **akvatoriya** [akva...+ (terri) toriya] – suv sathining, havzasining chekli bir qismi; **akveduk** [akv(e)...+ *lot.* ducere – olib borish, o‘tkazish] – osmaquvur; jar, dara, daryo, yo‘l ustidan o‘tkaziladigan nov yoki quvurdan iborat ko‘priksimon suvo‘tkazgich inshoot.

...DROM [*yun.* dromos – yo‘l, yo‘lka; yugurish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning yo‘l, yo‘lak, yugurish ma’nolari bilan aloqadorligini bildiradi. Mas.: **aerodrom, avtomotodrom, deltadrom, raketodrom, tankodrom, velodrom; avtodrom** [avto...+ ...drom] – avtomobillar yoki avtomobil va mototsikllarni sinash, ular ishtirokida kimo‘zarga musobaqalar o‘tkazishga mo‘ljallangan, maxsus jihozlangan hudud, maydon; **ippodrom** [(g)ippo...+...drom] – ot sporti musobaqalarini o‘tkazish, otlarning musobaqalarga tayyorligini sinab ko‘rish uchun mo‘ljallangan, maxsus jihozlangan inshootlar majmuyi; **kosmodrom** [kosmo...+ ...drom] – kosmik raketalarni butlash-yig‘ish, uchishga tayyorlash va uchirishga mo‘ljallangan inshootlar, uskuna-jihozlar va yer maydonlari majmuyi.

FON(O)... [*yun.* phone – tovush, ovoz] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning ovozga, tovushga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **fonasteniya, fonatsiya, fonema, fonematizm, fonika, foniya, fonofotografiya, fonografiya, fonokard, fonokardiografiya, fonokardiogramma, fonolog, fonomaniya, fonometriya, fonomorfologiya, fonopsiya, fonoretseptorlar, fonostilistika; fonema** [fon...+...ema] – biror tilda so‘z yoki morfemalarning ma’no farqini belgilovchi, ularni bir-biridan farqlashga xizmat qiluvchi tovush birligi; **fonendoskop** [fon...+ endo...+...skop] – stetoskop (odam va hayvonlar ichki a’zolarini eshitib ko‘rishga mo‘ljallangan trubka) ning hozirgi ko‘rinishi; **fonetika** [*yun.* phonetike (phonetikos) – ovozga, tovushga oid] – 1) tilshunoslikning nutq tovushlarining hosil bo‘lish usullarini va ularning akustik tavsifini o‘rganuvchi sohasi; 2) muayyan tilning tovush tarkibi; **foniatriya** [fon...+...iatriya] – otorinolaringologiyaning tovush (ovoz) ning buzilish sabablarini o‘rganuvchi va ularni davolash usullarini ishlab chiquvchi sohasi; **fonograf** [fono...+...graf] – tovush, ovozlar (musiqa, ashula, nutq kabilar) ni yozib olish va qayta eshittirish uchun xizmat qiluvchi apparat; **fonografik** [fono...+ *yun*. graphe – yozaman]: ***fonografik yozuv*** – tovush yozuvi (ideografik yozuvdan farqli ravishda); tilning u yoki bu tovush birliklari (tovush, bo‘g‘in) ni bildiruvchi belgilar yordamida yuzaga keladigan yozuv; **fonogramma** [fono...+...gramma] – gramplastinka, kino- va videoplyonka, kompakt-disk, disketa kabilarga yozib olingan ovoz; **fonolo-**

giya [fono...+...logiya] – tilshunoslikning fonemalar tizimini va ularning o‘zgarish qonuniyatlarini o‘rganuvchi bo‘limi; **fonometr** [fono...+...metr] – tovush kuchini (balandligini, o‘tkirligini) o‘lchovchi asbob; **fonopatiya** [fono…+...patiya] – nutq a’zolarining ba’zi kasalliklari tufayli nutqning buzilishi; **fonoskop** [fono...+...skop] – nutq va artikulyatsiyaning fonetik xususiyatlarini o‘rganishda ishlatiladigan asbob; **fonoteka** [fono...+...teka] – 1) uy, kutubxona, arxiv va boshqa joylardagi ovoz yozuvlari, fonogrammalar to‘plami; 2) shunday yozuvlar to‘plangan va saqlanadigan muassasa.

...ONIM [*yun.* onyma – nom, ism] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi qismi bo‘lib, o‘zi qo‘shilgan so‘zlar bilan nom, ismlarga aloqador til hodisalarini anglatadi. Mas.: **agionim** (avliyolar nomi)**, agoronim** (maydon va bozorlar nomi), **allonim** (o‘zgacha nom), **anonim, antonim** (qarama-qarshi nom), **antroponim** (kishi nomi)**, astionim** (shaharlar nomi), **astronim** (alohida osmon jismi nomi), **dromonim** (har qanday yo‘l nomi), **eponim** (boshqa nom uchun asos nom), **etnonim** (har qanday etnos nomi), **fitonim** (har qanday o‘simlik nomi), **gidronim** (har qanday suv obyekti nomi), **godonim** (shahar, ko‘cha va yo‘lkalar nomi), **kosmonim** (kosmik fazo hududi, galaktika, burjlar nomi), **limnonim** (ko‘l va hovuzlar nomi), **omonim** (bir xil nom), **oronim** (relyef elementlari nomi), **oykonim** (turarjoylar nomi), **pelagonim** (har qanday dengiz nomi), **potamonim** (har qanday daryo nomi), **psevdonim** (har qanday soxta, o‘ylab topilgan nom), **sinonim** (bir xil nom, ma’no), **toponim** (har qanday joy, geografik obyekt nomi), **xoronim** (har qanday hudud, viloyat, tuman nomi), **zoonim** (har qanday hayvon nomi, laqabi) va hokazo.

SPELE(O)... [*yun.* spelaion – g‘or, ungur] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning g‘or, ungurga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **speleofauna** [speleo...+ *lot.* Fauna – hayvonot olami] – g‘orlarda, tog‘ jinslari yoriqlarida yashovchi hayvonlar majmuyi; **speleolog** [speleo...+...log] –g‘orshunos, speleologiya mutaxassisi; **speleologiya** [speleo...+...logiya] – g‘orshunoslik; g‘orlarning kelib chiqishi, morfologiyasi, mikroiqlimi, suvlari, organik dunyosi, moddiy madaniyat qoldiqlari, hozirgi foydalanilishi kabi masalalarni o‘rganadigan fan; **speleonim** [spele…+ …onim] – oronimlarning bir turi, har qanday yerosti tuzilmasi, xususan, g‘or, ungur, jarlik, quduq, labirint, yerosti daryosi, jilg‘a, sharshara, ko‘l kabilarning atoqli nomi; **speleonimiya** – speleonimlar yig‘indisi; **speleoterapiya** [speleo...+...terapiya] – bemorlarni g‘orlar va ishlanib bo‘lgan konlarning mikroiqlimi ta’sirida uzoq vaqt davolash.

Ushbu lug‘atda o‘zbek adabiy tilida iste’molda bo‘lgan yoki uning ilmiy terminologiyasiga mansub qo‘shma va sodda yasama so‘zlarning tarkibiy qismlari, ya’ni terminelementlar bosh so‘z sifatida berildi va izohlandi (Ko‘plab

xalqaro terminlar va ularning komponentlari – terminelementlar o‘zbek tiliga rus va boshqa yevropa tillaridan tayyor holda kirib kelgan hamda o‘zlarining o‘sha tillardagi shakl-u shamoyili va ma’nolarini aynan saqlab qolgan. Binobarin, ularning yasama, qo‘shma ekanligi o‘zbek tili uchun shartlidir). Lug‘atda umumterminologik tizimda, xususan, o‘zbek terminologiyasida u yoki bu fan sohasida faol ishlatilayotgan 1100 dan ortiq xalqaro terminelement qamrab olingan.

Lug‘atda terminelementlarni hamda ularni dalillovchi illyustrativ misollarni izohlashda bir qator ilmiy adabiyotlardan, ma’lum va mashhur izohli lug‘atlar va ensiklopediyalardan, shuningdek, turli fan sohalari bo‘yicha nashr etilgan maxsus terminologik lug‘atlardan foydalanildi. Ular “*Lug‘at materiallarini to‘plash va izohlashda foydalanilgan manbalar*” ro‘yxatida alohida keltirildi.

Lug‘atni nashrga tayyorlash jarayonida xalqaro terminelementlarni yig‘ish, ularni sistemaga solish, etimologik ma’lumotlarni tegishli manbalar bilan solishtirish ishlari, lug‘atni o‘zbek-kirill alifbosidan o‘zbek-lotin alifbosiga o‘tkazish va alifbo tartibiga solish, tayyor material qo‘lyozmasini kompyuterlashtirish va boshqa texnik ishlar kichik ilmiy xodimlar N.Eshnazarova, X.Mustafoyeva va Z.Sobirxonovalar tomonidan bajarildi.

Ushbu lug‘at nafaqat o‘zbek tilshunosligida, balki turkiyshunoslikda ham birinchi marta tuzilganligi va o‘zbek-lotin yozuvida nashrga tayyorlanganligi sababli unda ayrim kamchilik va nuqsonlar, munozarali o‘rinlar bo‘lishi tabiiy, albatta. Shu bois mualliflar lug‘at yuzasidan bildiriladigan har qanday tanqidiy yoki taklif mazmunidagi fikr va mulohazalarni samimiyat bilan qabul qiladilar.

Manzilimiz: 100060, Toshkent shahar Mirobod tumani
Shahrisabz tor ko‘chasi, 5-uy. O‘zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti.

Lug‘at materiallarini to‘plash va izohlashda foydalanilgan manbalar:

1. Акуленко В.В. Вопросы интернационализации словарного состава языка. – Харьков: Изд. Харьковского университета, 1972. – 216 с.

2. Бельчиков Ю.А. Интернациональная терминология в русском языке. – М.: Учпедгиз, 1959. – 78 с.

3. Большой иллюстрированный словарь иностранных слов. 17000 слов. – М.: Русские словари. Астрель. АСТ, 2004. – 960 с.

4. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии. // Труды Московского института истории, философии и литературы. Т. 5. – М.: 1939. – С. 3 – 54.

5. Воронков А.Н., Поняева Л.П., Попова Л.М. Латинское наследие в русском языке. Словарь-справочник. – М.: Флинта. Наука, 2002. – 432 с.

6. Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977. – 248 с.

7. Iqtisodiyot atamalarining izohli lug‘ati. 4200 dan ortiq atama / Tuzuvchilar: I.Norqulov, O. Mahmudov. – Toshkent: Sahhof, 2023. – 392 b.

8. Краткое методическое пособие по разработке и упорядочению научно-технической терминологии. – М.: Наука, 1979. – 126 с.

9. Латинско-русский словарь. Около 50000 слов. Изд. 2-е, испр. и доп. / Сост. И.Х. Дворецкий. – М.: Русский язык, 1976. – 1096 с.

10. Латинско-русский словарь. Около 24000 словарных статей / Авт. сост. К.Т. Тананушко. – М.: Изд АСТ; Минск: Харвест, 2002. – 1040 с.

11. Лингвистические проблемы научно-технической терминологии. – М.: Наука, 1970. – 232 с.

12. Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. – М.: Изд. АН СССР, 1961. – 158 с.

13. Лотте Д.С. Вопросы заимствования и упорядочения иностранных терминов и терминоэлементов. – М.: Наука, 1982. – 149 с.

14. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. – 384 б.

15. Новейший словарь иностранных слов и выражений. Более 25000 словарных статей. – Минск: Современный литератор, 2003. – 976 с.

16. Популярный энциклопедический словарь. – М.: Науч. изд. “Большая Российская энциклопедия”, 2001. – 1584 с.

17. Проблематика определений терминов в словарях разных типов. – Л.: Наука, 1978. – 268 с.

18. Русча-лотинча-ўзбекча тиббий терминлар изоҳли луғати / Акад. Ё.Х.Тўрақулов таҳрири остида. – Тошкент: Абу Али ибн Сино, 1996. – 528 б.

19. Русча-ўзбекча луғат. 2 жилдли. / Масъул муҳаррир: А.Мадвалиев. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013 (I жилд – 896 б.; II жилд – 888 б.).

20. Русча-ўзбекча медицина луғати. 2 томли. /Акад. Ё.Х.Тўрақулов таҳрири остида. – Тошкент: Ўздавмеднашр: I том, 1962. – 368 б.; II том, 1971. – 456 б.

21. Словарь иностранных слов. 17000 слов. Изд. 16-е. – М.: Русский язык, 1988. – 682 с.

22. Словарь правильной русской речи. Около 85000 слов / Сост. Н.В. Соловьев. – М.: Астрель. АСТ. Транзиткнига, 2004. – 848 с.

23. Словарь русского языка в 4-х томах. Изд. 2-е, испр. и доп. / Под ред. А.П.Евгеньевой. – М.: Русский язык, 1981 – 1984.

24. Современный словарь иностранных слов. Около 7000 слов: толкование, словоупотребление, словообразование, этимология / Л.М. Баш, А.В.Боброва и др. 2-е изд. – М.: Цитадель, 2001. – 928 б.

25. Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология. Вопросы теории. – М.: Наука, 1989. – 246 с.

26. Терминология и норма. О языке терминологических стандартов. – М.: Наука, 1972. – 120 с.

27. Толковый словарь русского языка конца XX века. Языковые изменения. / Под ред. Г.Н. Скляревской. – Санкт-Петербург: Фолио-Пресс, 1998. – 700 с.

28. Усмон О., Дониёров Р. Русча-интернационал сўзлар изоҳли луғати. / Масъул муҳаррирлар: С.Ф. Акобиров, С.Э. Азимов. – Тошкент: Фан, 1965. – 580 б. (Тузатилган ва тўлдирилган 2-нашри: Тошкент: Ўзбекистон, 1972. – 424 б.).

29. Usmonxo‘jayev A., Bositxonova E.I., Nazirov P.X., To‘raxonova M.S. Tibbiy terminlar ensiklopedik lug‘ati. 2 jildli. – Toshkent: “Optimal light” MChJ, 2010 (I jild – 948 b.; II jild – 1136 b.).

30. Usmonxo‘jayev A., Bositxonova E.I., Avakov V.E., To‘raxonova M.S. Katta tibbiyot o‘quv lug‘ati (ruscha-o‘zbekcha). – Toshkent: Noshir, 2011. – 584 b.

31. Юридик атамалар қомусий луғати. / Масъул муҳаррир: Ҳ.Р.Раҳмонқулов. – Тошкент: “Шарқ” НМАК, 2003. – 432 б.

32. Ўзбек терминологиясида лексик вариантлар. – Тошкент: Фан, 1986. – 152 б.

33. Ўзбек тили илмий-техникавий терминологиясини тартибга солиш принциплари. – Тошкент: Фан, 1991. – 172 б.

34. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. / А.Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006 – 2008 (тузатилган 2-нашри, 2020).

35. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. / A.Madvaliyev va D.Xudayberganova tahriri ostida. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2022.

36. O‘zbek tilining katta imlo lug‘ati. / Tuzuvchilar: E.A.Begmatov, A.P.Madvaliyev, Y.R.Odilov. – Toshkent: Kafolat print company, 2023. – 648 b.

37. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 жилдли. 1 – 11-жилдлар. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2000 – 2005.

38. Ўзбекистон юридик энциклопедияси. / Масъул муҳаррир: Н.Тойчиев. – Тошкент: Адолат, 2010. – 704 б.

39. Қурбонов Т., Қурбонов Қ. Тиббий атамалар луғати. – Тошкент: Муҳаррир, 2011. – 396 б.

40. Ҳожиев А. Термин танлаш мезонлари. – Тошкент: Фан, 1996. – 48 б.

LOTIN YOZUVIGA ASOSLANGAN
O‘ZBEK ALIFBOSI

Aa	**Bb**	**Dd**	**Ee**	**Ff**	**Gg**	**Hh**
Ii	**Jj**	**Kk**	**Ll**	**Mm**	**Nn**	**Oo**
Pp	**Qq**	**Rr**	**Ss**	**Tt**	**Uu**	**Vv**
Xx	**Yy**	**Zz**	**O‘o‘**	**G‘g‘**	**Sh sh**	**Ch ch**
Ng ng	**(’) (tutuq belgisi)**					

Lug‘atda qo‘llangan shartli qisqartmalar ro‘yxati

a. – arab tiliga mansub so‘z
ayn. – aynan
esk. – eskirgan so‘z
fr. – fransuz tiliga mansub so‘z
goll. – golland tiliga mansub so‘z
ingl. – ingliz tiliga mansub so‘z
isp. – ispan tiliga mansub so‘z
ital. – italyan tiliga mansub so‘z
lot. – lotin tiliga mansub so‘z
mas. – masalan
nem. – nemis tiliga mansub so‘z
polyak. – polyak tiliga mansub so‘z
q. – qarang
rus. – rus tiliga mansub so‘z
yun. – yunon (grek) tiliga mansub so‘z

XALQARO TERMINELEMENTLARNING AYRIM XUSUSIYATLARIGA DOIR

Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb e'lon qilingan bugungi kunda ona tilimiz, xususan, terminologiyamizdagi muammolarni aniqlash va uning asosli ilmiy yechimlarini topish har qachongidan ham dolzarb bo'lib qoldi.

Ma'lumki, har qanday amaldagi til doim rivojlanib, takomillashib boradi. Bu, o'z navbatida, terminologik tizimga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi, yangi tushunchalar, terminlar vujudga keladi.

O'zbek tili leksikasining eng boy, eng harakatchan va o'ta o'zgaruvchan qatlamlaridan biri bo'lgan terminlarning bosh vazifasi tushuncha mohiyatini, mazmunini to'laqonli anglatishdir.

Ma'lumki, fikrni to'liq va o'ta aniq ifodalash uchun unga mutanosib ravishda turli til birliklari ham ko'p qo'llanadi. Til doim maksimal aniqlikka intilar ekan, ortiqchalikning vujudga kelishi tabiiy. Fikrning qisqa, lo'nda ifodalanishi esa, o'z navbatida, tejamlilikni talab qiladi. So'zning tarkibi uzaygan sayin uning qisqalikka intilish tamoyili terminlarda ham aniq seziladi[1], chunki tejamlilik tilshunoslikning boshqa bo'limlariga qaraganda terminologiyada ancha faol va yetakchi hodisadir. Bunga asosiy sabab terminlarga qo'yilgan muhim talablardan biri – terminlarning aniq va qisqa bo'lishi talabidir.

Termin tushuncha mohiyatini qanchalik aniq va to'liq ifodalasa, u shakl jihatdan murakkab, ya'ni bir necha komponentli qo'shma terminlarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

"Qo'shma so'zlar, – deb yozgan edi G.O.Vinokur, – faqat yangi so'zlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchungina emas, balki ko'proq haqiqatan ham, ikki tushunchani bir so'z orqali ifoda etish zarurati bo'lgani uchun ham zarurdir"[2]. Hozirgi kunda fan va texnikaning turli sohalarida yuzaga kelayotgan ko'plab qo'shma terminlar ayni ana shu maqsad – bir so'zda ikki tushunchani ifodalash uchun xizmat qilmoqda.

---

[1] Гальперин И.Р. Информативность единиц языка. – М., 1974. – С. 84.

[2] Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии // Труды МИФЛИ. Т. V. – М., 1939. – С. 46.

Keyingi davrda tilimizda qo‘shma so‘zlarning yangi tip va modellari paydo bo‘lib, bular, asosan, yangi-yangi tushunchalarni ifodalovchi qo‘shma terminlardir.

Qo‘shma terminlar ham qo‘shma so‘zlar kabi o‘z so‘zlarimizdan, boshqa til materiallaridan hamda har ikkala manba til elementlarining o‘zaro kombinatsiyasidan tug‘iladi. O‘zbek tili materiallari asosida yuzaga kelgan qo‘shma terminlar, asosan, umumiste’moldagi tayyor qo‘shma so‘zlarning ilmiy termin yoki nomen sifatida terminologik sistemalarga qabul qilinishi mahsulidir.

Har qanday sohada ham yangi bir tushunchaning paydo bo‘lishi va uni tilda ifodalash zarurati oqibatida muayyan terminologik tizim shakllanishining ilk bosqichida sinonimiyaning vujudga kelishi muqarrar va bu tabiiy bir hol hisoblanadi. Mutaxassislar sinonimiyani terminologiyadagi eng asosiy nuqsonlardan biri sifatida alohida ta’kidlaydilar. Terminlarni tartibga solishda tushuncha yoki predmetning eng xarakterli tomonini, vazifasini, ijtimoiy mohiyati va qimmatini ifodalagan terminni tanlab olish eng yetakchi tamoyil bo‘lmog‘i kerak. Xuddi shuning singari, sinonimik qatordan terminologik talablarga har tomonlama javob beradigan terminni tanlashda aniqlik, qisqalik mezonlari asosiy o‘rinni egallamog‘i lozim.

O‘zbek tiliga chetdan o‘zlashgan so‘zlar semantikasini yoki ular tarkibidagi terminelementlar ma’nosini hisobga olmaslik ko‘p hollarda terminlardagi aniqlik, qisqalik mezonlarining buzilishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, terminlar yasashda so‘zning derivatorlik xususiyatini hisobga olmaslik ham mantiqsiz, noto‘g‘ri terminlarning vujudga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Masalan, tibbiyotda ishlatiladigan *fonendoskop* asbobining o‘zbekcha muqobili sifatida o‘z vaqtida *tomirgich* so‘zi ishlatilgan holatlar ham paydo bo‘lgan. Haqiqatda esa, ***-gich*** qo‘shimchasi texnika sohasida turli xil narsa-qurol nomlarini yasashda faol qo‘shimcha bo‘lib, ilmiy-texnikaviy terminologiyada terminelement darajasiga yetgan. Biroq bu qo‘shimcha faqat fe’l asoslarga qo‘shilib, terminlar yasaydi: *buragich, ko‘sakchuvgich, yashinqaytargich* kabi. Ko‘rinib turibdiki, ***-gich*** affiksi otlarga (*tomir+gich* tarzida) qo‘shilmaydi. *Oliygoh* (institut) atamasi ham ***-goh*** qo‘shimchasining faqat otlarga qo‘shilib, o‘rinni bildiruvchi otlar yasashini *(janggoh, qarorgoh, sayilgoh),* sifatlarga esa bu qo‘shimcha qo‘shila olmasligini anglamaslik oqibatida vujudga kelgan.

Demak, har bir sohada terminlarni tartibga solib turish uzluksiz jarayon ekan, bunda terminologik tamoyillar va me’yorlarga amal qilish bosh mezon bo‘lmog‘i kerak.

Terminologiyamizdagi muammoli masalalardan yana biri turli sohalarga oid, o‘zga tilga tegishli terminlarning tarjima qilinib, keng ko‘lamda ishla-

tilayotganligidir. Har qanday boshqa tildagi terminni o‘zbek tiliga kalkalash orqali yangi termin hosil qilish mumkin deb qarash to‘g‘ri emas. O‘zbek tiliga tarjima qilinayotgan yoki muqobili topilayotgan har qanday terminni yaratishda tilimizning boy ifoda imkoniyatlaridan, so‘z yasash qoidalaridan to‘g‘ri va unumli foydalanish zarur.

Fan va texnikaning turli sohalariga oid xalqaro terminlarning aksariyati jahon tillarining ko‘pchiligida ancha ustuvor holda qo‘llanib kelayotgan bo‘lishiga qaramay, ularning har biriga o‘zbekcha muqobil topishga harakat qilishni ijobiy hodisa deb bo‘lmaydi. Buni ikki holat bilan izohlash mumkin. Birinchidan, har qanday termin ma’lum bir sohadagi tushunchani ifodalash uchun qo‘llanar ekan, u o‘sha fanning kommunikativ birligi hisoblanadi. Ikkinchidan, bugungi kunda har qanday fan jahoniy, dunyoviy sifatga ega bo‘lib, fanni to‘liq milliylashtirishga harakat qilish mantiqsizlikdir va buning imkoni ham yo‘q. Ma’lumki, biron-bir xalqaro terminni almashtirishda uning muayyan tildagi muqobili shu so‘z anglatayotgan barcha ma’nolarni qoplay olishi va terminologik talablarga javob bera olishi eng muhim mezon bo‘lishi kerak.

O‘zbek tilining terminologik tizimlarini shakllantirish va boyitishda o‘zlashma so‘zlar muhim o‘rin egallaydi. Bu jarayon boshqa tillardan terminlarni aynan o‘zlashtirish yoki chet til terminlarini kalkalash orqali ham amalga oshirilmoqda. Bu borada gibrid terminlarning o‘ziga xos o‘rni bor. Ayniqsa, xalqaro terminelementlar asosida o‘zbek tilida yangi lug‘aviy birliklar hosil qilish ancha faollashdi. Ko‘pgina tillarda xalqaro terminelementlar sifatida e’tirof etilib, keng qo‘llanayotgan mingdan ortiq terminelement, asosan, lotincha va yunoncha morfemalardan, so‘zlardan iborat. Ularning ba’zilari turli soha terminlarini hosil qilishda ishtirok etsa, ayrimlari ma’lum sohalardagina termin yasaydi. Boshqa tillar terminologiyasida bo‘lganidek, o‘zbek terminologiyasida ham ilmiy-texnik tushunchalarni ifodalash uchun yuzlab xalqaro terminelementlardan foydalanib kelinmoqda. Xalqaro terminelementlarning asosiy qismi *aero-, agro-, avto-, bio-, makro-, mikro-, ultra-* singari genetik jihatdan mustaqil so‘zlarni qisqartirishdan hosil qilingan termin yasovchilar bo‘lsa, bir qismi *-bus, -fob, -log, -logiya, -izm, -skop* kabi o‘z semantikasiga ega bo‘lgan faol termin yasovchi morfemalardir. Birorta fan sohasi yo‘qki, bunday morfemalar bilan termin yasalmagan bo‘lsin.

Xalqaro terminelementlar fan va texnika tilida muhim rol o‘ynaydi hamda mamlakatlararo ilmiy-texnikaviy aloqalarning rivojlanishini osonlashtiradi va mustahkamlaydi. Xalqaro terminelementlarni qo‘llash holati yo biron fan sohasida bir tipdagi tushunchalar uchun bir qolipli terminlar

yaratish zarurati (talabi) tufayli, yoki biron-bir sabab bilan milliy terminelementlardan aniq va qisqa termin yaratish mumkin bo‘lmaganligidan kelib chiqadi. Xalqaro terminelementlardan xiyla osonlik bilan (qo‘shma) terminlar hosil qilish mumkin, chunki ular o‘zaro oson birikadi va yanada ko‘proq terminlar yaratish imkonini beradi.

Bugungi kunda tarkibida xalqaro terminelementlar mavjud bo‘lgan minglab so‘zlar o‘zbek tili lug‘at tarkibini va uning terminologik tizimini boyitmoqda. Bunday terminelementlar o‘zbekcha so‘zlarga ham qo‘shilib, yangi terminlar yasashi, yasama terminning qisqaligi, tushunchani aniq ifodalay olishi, qo‘shib yozilishi jihatidan terminologik talablarga mos kelganligi sababli ularning miqdori oshib bormoqda.

O‘tgan asrning 90-yillari boshlarida o‘zbek terminologiyasidagi gibrid qo‘shma terminlarni tadqiq qilgan A.Madvaliyev o‘zbek tili terminologik tizimlarida gibrid terminlarni hosil qiluvchi xalqaro terminelementlar miqdori 50 dan ortiq ekanligini ta’kidlagan bo‘lsa[3], bugungi kunda o‘zbek tilida ularning soni 100 dan oshib ketdi. Masalan, keyingi o‘n yillikda terminologiyamizda qo‘llana boshlagan ***eko-*** (*ekologiya* so‘zining qisqargan shakli) terminelementi vositasida *ekoharakat, ekomadaniyat, ekonazorat, ekosayyohlik, ekotizim* kabi o‘nlab gibrid terminlar yasaldiki, ular umumiste’molda ham keng qo‘llanmoqda. Ayni shunday fikr-mulohazalarni *kiber-, media-, veb-* kabi yangidan paydo bo‘lgan terminelementlar va ular ishtirokida hosil qilingan gibrid terminlar haqida ham aytish mumkin.

Umuman, dunyoning yetakchi tillari ilmiy leksikasi 1000 dan ortiq ana shunday yunon, lotin, qisman ingliz, fransuz va boshqa tillarning o‘zak va morfemalaridan foydalanadi. Chunonchi, V.Flud o‘zining “Terminlar. Ularning strukturasi va ma’nosi” lug‘atida ingliz tili uchun 1150 ga yaqin shunday terminelementlarni keltiradi. N.V.Yushmanov o‘zining “Xalqaro terminologiya elementlari” lug‘at-ma’lumotnomasida rus tili uchun 1100 dan ortiqroq terminelementni qayd etadi. D.Xeller va D.Svensonlar “Texnika terminologiyasi elementlari” kitobida inglizcha texnikaviy terminlarni yaratishda terminelement sifatida qo‘llanuvchi 1129 ta fe’l, sifat va ot o‘zaklarni ko‘rsatadilar.[4]

Ana shunday katta miqdordagi xalqaro prepozitiv (asosiy terminning birinchi tarkibiy qismi bo‘lgan) terminelementlardan 75 tasi yangi 5 jildli

---

[3] Мадвалиев А. Қўшма терминларнинг хусусиятлари ва уларни тартибга солиш масалалари / Ўзбек тили илмий-техникавий терминологиясини тартибга солиш принциплари. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 58.

[4] Юшманов Н. В. Элементы международной терминологии. Словарь-справочник. – Москва: Наука, 1968. – С. 3-4.

“Ўзбек тилининг изоҳли луғати”ga[5] (2006 – 2008) ham kiritilib, ular bosh so‘z maqomidagi boshqa terminlar singari rasmiylashtirildi, ya’ni bosh so‘z, uning etimologiyasi berilib, ma’nosi (yoki ma’nolari) izohlandi va shu element ishtirokida shakllantirilgan terminlardan namunalar keltirildi. Masalan:

АВИА- [*лот.* avis – қуш] Ўзлашма қўшма сўзлар таркибида “авиация” сўзи ўрнида, шу сўзга алоқадор маъноларда қўлланади: *авиабаза* (авиация базаси), *авиаразведка* (авиация разведкаси), *авиапочта* (авиация почтаси) ва б.

БИО- [*юн.* bios – ҳаёт] Байналмилал ясама (қўшма) сўзларнинг биринчи таркибий қисми бўлиб, шу сўзнинг ҳаётга, ҳаётий жараёнларга ҳамда биологияга алоқадорлигини билдиради.

ВИДЕО- [*лот.* video – кўряпман] Ўзлашма байналмилал сўзларнинг биринчи қисми бўлиб, сўзнинг тасвирни элекрон сигналлар асосида етказиб беришга, кўришга, видеоёзувларга алоқадорлигини билдиради: *видеомагнитофон*, *видеотелефон*.

ДИ- [*юн.* di – икки] Икки, иккилик, жуфтликни ифодаловчи олд қўшимча.

ДИА- [*юн.* dia – орасида, аро; орқали] Тўғридан-тўғри ҳаракатни, кириб боришни, бўлинишни, ўзаро яқинликни ифодаловчи олд қўшимча.

ГЕМО-, ГЕМАТО- [*юн.* haima, haimatos – қон] Ўзлашма байналмилал сўзлар таркибида келиб, қонга алоқадорликни билдиради.

ЗОО- [*юн.* zoon – ҳайвон, жонивор] Ўзлашма қўшма сўзларнинг биринчи қисми: ҳайвонларга, ҳайвонот оламига алоқадорликни билдиради.

КИНО- [*юн.* kineo – ҳаракатга келтираман] Ўзлашма қўшма сўзларнинг таркибий қисми бўлиб, кинематографияга, кинофильмга алоқадорлик маъносини ифодалайди.

ПОЛИ- [*юн.* poli – кўп, анча, кўпгина] Байналмилал ўзлашма қўшма сўзларнинг биринчи қисми: бирор нарсанинг кўплигини, хилма-хил, мураккаб таркибли эканини кўрсатади (мас., *полиартрит*, *полигон*).

РЕ- [*лот. re..*] Байналмилал ўзлашма сўзларда сўзнинг олдидан қўшиладиган ва 1) ҳаракатни янгидан (қайтадан) бошлаш, тиклаш ёки унинг такрорланиши (мас., *реабилитация*); 2) иш-ҳаракатнинг қарама-қаршилиги (мас., *реактор*) каби маъноларни билдиради.

---

[5] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. / А.Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006 – 2008 (тузатилган 2-нашри, 2020).

ТЕЛЕ- [*юн.* теле – узоқ, олис; узоққа, олисга] Байналмилал ўзлашма қўшма сўзларнинг биринчи таркибий қисми: 1) узоқ масофадан туриб ҳаракат қилувчи ёки амалга оширувчи; 2) "телевизион" маъносига мувофиқ келувчи маъноларини билдиради. Мас.: *телеалоқа*, *теледастур*, *телекўрсатув*, *телеминора* каби.

ТЕТР-, ТЕТРА- [*юн.* tetra – тўрт] Байналмилал ўзлашма қўшма сўзларнинг биринчи қисми бўлиб, муайян сўз (тушунча) нинг "4" рақами билан боғлиқлигини билдиради, мас., *тетралогия*, *тетрод*.

Mazkur terminelementlar bevosita yoki interfiks (asosan, biriktiruvchi **o**, ba'zan **i** unlisi) yordamida boshqa so'zlar bilan osongina birika oladi. "Bu so'zlarning o'ta agglyutinativlik xususiyati ularning turli-tuman so'zlar bilan favqulodda keng ravishda qo'shila olishiga imkon beradiki, bunda hosil bo'lgan birikmalarning turli qismlari orasida qat'iy birma'nolilik munosabatlari paydo bo'ladi. Ayni mahalda ular ixcham hamda qo'llanishda juda qulaydir".[6]

Yuqoridagi singari xalqaro prepozitiv terminelementlar lingvistik adabiyotda, xususan, leksikologiya va terminologiyaga oid asarlarda turlicha nomlanib keladi. Masalan, ularning "sifat morfema" (V.V.Vinogradov), "prefiks", "pristavka", "prefiksoid" (V.P.Danilenko), "prepozitiv блоклар" yoki "analitik аниқловчилар" (V.V.Akulenko), "analitik сифатлар" va "prepozitsion юкламалар" (L.A.Kapanadze) kabi turlicha nomlanishini[7] mazkur terminelementlarning turli xil ma'nolarni ifodalay olishi bilan izohlash mumkin.

Prepozitiv terminelementlarning aksariyati qo'llanish doirasiga ko'ra ancha maxsuslashgandir, ya'ni ular muayyan fanlar sohasidagina ishlatiladi. Masalan*, atset-, azo-, ferro-, flavo-, form-, fos-, karb(on)-, nitro-, oksi-, sulfo-, tio-, xalko-, xemo-* kabi elementlar asosan kimyoda ishlatilsa*, angio-, artro-, balneo-, blasto-, blefaro-, bradi-, gastro-, gemo-, kardio-, laringo-, leyko-, mio-, nefro-, trombo-* kabilar ko'pincha tibbiy terminlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Sonlarning ma'nosini ifodalovchi elementlar (*bi-, deka-, di-, geksa-, gepta-, kvint-, kvart-, mono-, non(a)-, sept-, tetra-, uni-*) hamda *a-, anti-, avto-,*

---

[6] Лексика современного русского литературного языка. – М.: Наука, 1968. – С. 155 – 156.

[7] Виноградов В. В. Современный русский язык. – М., 1938. – С. 45; Даниленко В.П. Об особенностях морфологического словообразования в языке науки / Русский язык. Вопросы его истории и современного состояния. – М., 1978; Акуленко В.В. Вопросы интернационализации словарного состава языка. – Харьков, 1972. – С. 36; Капанадзе Л.А. Взаимодействие терминологической и общеупотребительной лексики / Развитие лексики современного русского языка. – М., 1965. – С. 98.

gelio-, geo-, gidro-, giper-, inter-, izo-, makro-, mikro-, neytro-, poli-, super-, tele-, trans-, video- kabi terminelementlar qo‘llanishda universal bo‘lib, bir necha fan sohalarini qamrab oladi.

Keltirilgan xalqaro terminelementlardan ko‘rinadiki, ular prefiksal (prepozitiv) va postfiksal (postpozitiv) ko‘rinishlarga ega ekan. Agar *allo-*, *anti-, avto-, azo-, bio-, gelio-, geo-, kontr-, makro-, mikro, moto-, okso-, oligo-, poli-, proto-, super-, tele-, ultra-* singari o‘zaklar; sonlarni ifodalovchi *bi-, di-, mono-, non(a)-, okt(o)-, tetra-, tri-, uni-* kabi elementlar faqat prepozitiv qo‘llanishga ega bo‘lsa, *-bioz, -bol, -bus, -drom, -fob, -for, -izm, -krat(iya), -navt, -od, -oma, -oza, -pnoe, -ptoz, -skop, -teka, -tron, -xton* kabi terminelementlar asosan postpozitiv holda qo‘llanadi.

Qadimgi yunon va lotin tillariga mansub shunday terminelementlar borki, ular, o‘rniga qarab, yo prepozitiv holatda, yo postpozitiv holatda kela oladi. Har ikki holatda ham terminelementning asl, dastlabki ma’nosi saqlanib qoladi yoki asl ma’no aniq sezilib turadi. Bunga misol sifatida quyidagilarni keltirish mimkin: **andr** – yunoncha andros – erkak, erkak kishi ma’nosidagi so‘z: *Ixtiandr* (“Odam-amfibiya” kitobining qahramoni) – baliq-odam demakdir. Bu o‘rinda **andr** terminelementi postpozitiv holatda, *androfobiya, androgenlar, andrologiya* kabi tibbiy terminelementlarda esa prepozitiv qo‘llangan.

Xuddi shu kabi, yunoncha **anthropos** (odam) so‘zi *filantrop, pitekantrop, sinantrop* kabi terminlarda postpozitiv terminelement sifatida qo‘llangan bo‘lsa, *antropofagiya, antropofobiya, antropogenez, antropologiya, antroponimika, antroposfera, antropotsentrizm, antropoxoriya* kabi terminlarda prepozitiv holatda keladi. Yana quyidagi terminlarni qiyoslab ko‘rish mumkin:

fon < *yun.* phone (ma’nosi: tovush, ovoz): *fonasteniya, fonetika, fonograf, fonogramma, fonologiya, fonoteka; diktofon, gidrofon, grammofon, mikrofon, patefon, saksofon, telefon* va boshqalar.

gen < *yun.* genos (ma’nosi: avlod, tug‘ilish, paydo bo‘lish): *genealogiya, generator, genetika, genofond, genotsid; allergen, antigen, gidrogen, kanserogen, oksigen, patogen* va boshqalar.

gramma < *yun.* gramma (ma’nosi: yozuv, yozish): *grammatika, grammatologiya, grammema, grammofon; epigramma, fonogramma, kardiogramma, kartogramma, piktogramma, rentgenogramma, seysmogramma, stenogramma, telegramma* va boshqalar.

lit < *yun.* lithos (ma’nosi: tosh): *litogenez, litografiya, litologiya, litosfera, litotripsiya; eneolit, gipsolit, kaprolit, ksenolit, monolit, odontolit, xrizolit* va boshqalar.

Turli terminologik tizimlarda qo‘llanadigan *derma* (teri), *fag* (yeyish, yeyuvchi), *fil* (sevgi, sevish), *fill* (barg, yaproq), *fit* (o‘simlik), *(g)emat* (qon), *gloss* / *glot* (til), *gonia* (burchak), *graf* (yozmoq; nashr qilmoq), *iatr* (davolash, shifokor), *kard* (yurak), *kefal* (kalla, bosh), *liz* (parchalanish, yemirilish, erish), *log* (so‘z, tushuncha; fan, ta’limot), *mer* (ulush, hissa, qism), *morf* (shakl), *nom* (qonun), *pat* (azob, dard), *pitek* (maymun), *pod* (oyoq), *skaf* (qayiq), *stat* (qo‘zg‘almas, harakatsiz), *stom* (tish), *tip* (iz; nusxa, shakl; qolip; tasvir), *tom* (kesish, qirquvchi), *top* (joy, o‘rin), *trof* (oziq-ovqat, oziqlanish), *trop* (burilish, o‘zgarish) kabi boshqa bir qancha terminelementlar ham ikki xil pozitsiyada bo‘la oladi.

Prepozitiv terminelementlar postpozitiv terminelementlar bilan, shuningdek, xalqaro, baynalmilal terminlar bilan birlikda yangi-yangi terminlar hosil qiladi. Xuddi shu xususiyat postpozitiv elementlarga ham tegishlidir. Ularning farqli tomoni shundaki, bir qator milliy tillarda, xususan, o‘zbek tilida prepozitiv elementlar o‘zbekcha so‘zlar bilan qo‘shilib kela oladi, lekin postpozitiv elelmentlar bu jihatdan ancha cheklangandir.

Xalqaro terminelementlar ishtirokida tuzilgan terminlarning yildan yilga ko‘payib borayotganligining sababi shundaki, “bunday maxsuslashgan terminelementlardan tuzilgan terminlar nisbatan to‘la aniqlikka ega bo‘ladi. Ular… o‘zlari bildirgan tushunchalarning belgilari haqida ko‘proq ma’lumot bera oladi. Bunday terminlarning ma’noviy tushunarliligi va nisbatan aniqligi ularning qiyosan qisqaligi bilan birga uyg‘unlashib ketadiki, bu narsa ko‘pincha u yoki bu terminning yashovchanligini oldindan belgilab beradi. Yunoncha va lotincha qisqa o‘zaklar aksar hollarda rus tilida xiyla cho‘ziq so‘z va so‘z birikmalari orqali ifodalangan belgilarni bildirib keladi”[8].

Xalqaro terminelementlarning muhim xususiyatlaridan biri ularning umumlashtirish qobiliyatidir. Bu xususiyat, ayniqsa, postpozitiv terminelementlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Chunonchi, **-drom, -emiya, -fil, -fobiya, -graf, -grafiya, -izm, -log, -logiya, -maniya, -skop, -stat, -teka, -tron, -tropiya** kabi terminelementlar ishtirokida muntazam, bir ma’noli terminlar hosil qilinadi. Bunda mazkur terminelementlar o‘zlari ishtirok etgan terminlarning umumlashtiruvchi-turkumlovchi qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, **-teka** terminelementi ishtirokida tarkib topgan terminlar doimo bir xil ma’noni, ya’ni biror narsaning to‘plami va ular saqlanadigan maxsus joy, idish, ombor degan ma’noni bildirib keladi: *biblioteka, diskoteka, gliptoteka, filmoteka, fonoteka, ikonoteka, kartoteka, pinakoteka, sinemateka, videoteka* kabi.

---

[8] Юшманов Н.В. Элементы международной терминологии. Словарь-справочник. – М.: Наука, 1968. – С. 6-7.

Ko‘rinib turibdiki, postpozitiv, ya’ni suffiksal xarakterdagi terminelementlar to‘la abstraktlik natijasini namoyon qilib, turdosh va turkumdosh ma’nolarni, tasavvurlarni terminlarda konkretlashtiradi. Xuddi shunga o‘xshash prepozitiv terminelementlar ham umumlashtirish xususiyatiga ega, biroq ularning umumlashtiruvchilik xossasi avvalgilarga nisbatan kamroq, pastroq darajada bo‘ladi, ya’ni ularning umumlashtirish xususiyati kichik tur va turkumlar ichida, yanada aniqroq belgilar doirasida bo‘ladi. Masalan, **poli-** (ko‘p) terminelementi deyarli barcha terminologik tizimlarda faol termin yasovchi sifatida ko‘zga tashlanadi va barcha o‘rinlarda qat’iy bir ma’noda (“ko‘p, bir qancha” ma’nosida) qo‘llanadi:

poli-	*poliedr, poligonal, polinom* (matematikada)
	poliefirlar, polimer, polisaxaridlar (kimyoda)
	poliartrit, polinevrit, poliuriya (tibbiyotda)
	polifoniya, polimetriya, politonal (musiqada)
	poliftong, poliglot, polisemiya (tilshunoslikda)
	poligenlar, poligibrid, polimorfizm (biologiyada)
	poligrafiya, polixromiya (matbaa sohasida)
	poliandriya, poligamiya, poliginiya (huquqda)
	poligon (harbiy termin) va hokazo.

Shuningdek, **mikro-** terminelementini ham deyarli barcha fan sohalarida uchratish mumkin. **makro-** ga nisbatan ancha faollashgan ushbu terminelement, **poli-** bilan qiyoslanganda, ko‘p ma’nolidir. (juda kichik; kichik predmetlarni o‘rganishga aloqadorlik; muayyan o‘lchov birligining millionidan bir ulushi):

mikro-	*mikrodentizm, mikroinfarkt, mikroinsult, mikrokardiya, mikrokefaliya, mikrotom, mikroxirurgiya* (tibbiyotda);
	mikroelektrod, mikrofarada, mikrofizika, mikrokyuri, mikrometr, mikroqattiqlik, mikrozarra (fizikada);
	mikroanaliz, mikroelementlar, mikrokimyo, mikrokristallik, mikroorganik, mikroyadro (kimyoda);
	mikrodastur, mikrokalkulyator, mikrometriya, mikromodul, mikroprogrammalash (matematikada);
	mikrofill, mikroflora, mikrogameta, mikrosporalar, mikrosporangiy, mikroo‘g‘itlar (botanikada);
	mikroblog, mikrodisk, mikrohujjat, mikronusxa, mikroprotsessor, mikrosayt (komyuter texnikasida);
	mikroavtobus, mikrofilm, mikrofirma, mikrofon, mikrogramm, mikroiqlim, mikroiqtisodiyot, mikromuhit, mikroolam, mikroqurilma, mikrorelyef, mikrosistema, mikroskop, mikrotoponim, mikroshahar va hokazo.

Bunday terminlarning aksariyati jonli tilda keng qo‘llanadigan, hamma uchun tushunarli bo‘lib qolgan terminlardir.

Shuni alohida qayd etish kerakki, xalqaro terminelementlarning terminologiyadagi imkoniyati juda keng, ular sohalar terminologiyasini boyitishda, tartibga solishda, sistemalashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Agar xalqaro qo‘shma terminning har ikkala (yoki uch) komponenti o‘zbek tilida mustaqil termin yoki terminelement sifatida qo‘llansa, bunday terminlar o‘zbek tilida ham qo‘shma sanaladi. Masalan: *butilkauchuk, elektrlampa, elektrmotor, elektrstansiya, fotosintez, karbonvodorod, kinofilm, kinokomediya, kristallgidrat, kvarsgenerator, radiolampa, radiostansiya, tomasshlak, vakuummetr* kabilarning har ikkala komponenti ham o‘zbek tili terminologik sistemalarida mustaqil termin bo‘la oladi, shuning uchun bu tipdagi so‘zlar o‘zbek tilida qo‘shma terminlar sanaladi.

Birinchi qismi xalqaro terminelementdan yoki mustaqil qo‘llanuvchi atributiv elementning qisqartmasidan, ikkinchi qismi esa mustaqil terminlardan tuzilgan terminlar ham o‘zbek tilida qo‘shma hisoblanmog‘i kerak. Masalan, ***anti-*** terminelementi bilan matematikada *antikosinus, antioktava, antiparallel, antiradikal, antisimmetriya, antisimvol* singari o‘ndan ortiq qo‘shma terminlar hosil qilingan. Texnikada *avtomatik, avtomobil* so‘zlarining qisqartmasi bo‘lgan ***avto-*** ishtirokida bir necha o‘nlab qo‘shma terminlar yasalgan: *avtobaza, avtobenzin, avtogreyder, avtokataliz, avtokran, avtomashina, avto-*

pritsep, avtorentgen va boshqalar. Bu tipdagi qo‘shma terminlarning yasalishi va materiali, komponentlarining ma’nosi tegishli sohalarning mutaxassislari uchun tushunarlidir. Yuqoridagi har ikki ko‘rinishdagi qo‘shma terminlar o‘zbek tilida *o‘zlashtirma qo‘shma terminlar* deyiladi. Shu tipdagi ayrim ruscha qo‘shma terminlarning ikkinchi qismidagi yasovchi qo‘shimchalarni tegishli o‘zbekcha affikslarga almashtirish bilan qaytadan qo‘shma termin hosil qilinadi: ***автозаправитель*** – *avtozapravkalagich*, ***автоморфность*** – *avtomorflik*, ***антиокислитель*** – *antioksidlovchi* va boshqalar.

Turli tillarga mansub so‘z birliklaridan hosil bo‘lgan (gibrid) qo‘shma terminlar keyingi paytlarda *duragay qo‘shma so‘zlar*[9] *yoki gibrid terminlar* nomi bilan yuritilmoqda. Biroq *gibrid terminlar* atamasi o‘zbek tilidagi tarkibida xalqaro terminelementlar bo‘lgan qo‘shma terminlarga nisbatangina qo‘llanmoqda.

Gibrid terminlar o‘zbek ilmiy-texnikaviy terminologiyasida keyingi yillarda paydo bo‘lgan yangi tipdagi qo‘shma terminlardir. Gibrid so‘z keng ma’noda “turli til elementlaridan tuzilgan “duragay” so‘zdir”[10]. Masalan, fizikadagi *kvazizarralar* termini gibrid so‘z bo‘lib, u lotincha *quasi* (soxta, yolg‘on) so‘z shakli hamda o‘zbek tilidagi *zarra* so‘zining qo‘shilishidan yasalgan. Demak, o‘zbek terminologiyasidagi gibrid qo‘shma terminlar, asosan, *xalqaro terminelementlar* deb ataluvchi so‘z-o‘zaklar bilan o‘zbekcha so‘zlarning qo‘shilishidan yasalib, bunda xalqaro terminelementlar sifatida yunoncha va lotincha prefiksal xarakterdagi bog‘liq morfemalar ishtirok etadi. Masalan, *aerofotosurat, aviasanoat, gidrotuzlar, ultratovush* singari gibrid qo‘shma terminlarning birinchi komponentlari (***aero-, avia-, gidro-, ultra-***) ana shunday xalqaro terminelementlar, ikkinchi komponentlari esa o‘zbekcha so‘zlardir.

Ba’zan birgina prepozitiv terminelement bilan hosil qilingan bunday gibridlarning o‘zi butun bir terminologik maydonni tashkil etadi. Chunonchi, fizika lug‘atida keltirilgan, ***radio-*** elementi ishtirokida yasalgan 140 ta qo‘shma termindan 20 tasi gibrid qo‘shma termindir. Bularga yana kundalik hayotdagi *radioeshittirish, radiohavaskor, radiohikoya, radiokarnay, radiokitob, radiomunozara, radioquloq, radiosuhbat, radiotarmoq, radiotinglovchi, radioustaxona, radioyo‘qlama, radio‘yin* singari qo‘shma so‘z-terminlarni kiritish mumkin.

Yuqoridagilardan tashqari, ilmiy-texnikaviy terminologik sistemalarda, xususan, kimyo terminologiyasida gibrid qo‘shma terminlar hosil qiluvchi

---

[9] Маматов Н. Ўзбек тилида қўшма сўзлар. – Тошкент: Фан, 1982. – Б. 33.

[10] Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. Изд. 2-е, стереотип. – М.: Советская энциклопедия, 1969. – С. 98.

yunoncha ***allo-*** (allodolchin kislota), ***eritro-*** (eritrotuzlar), ***ksanto-*** (ksantotuzlar), ***leyko-*** (leykobirikmalar), ***meta-*** (metaholat), ***piro-*** (pirouzum kislota), ***proto-*** (protoyulduz), ***rodo-*** (rodotuzlar), ***stereo-*** (stereotuzilish), ***tio-*** (tiotuzlar) va lotincha ***atseto-*** (atsetosirka kislota), ***flavo-*** (flavotuzlar), ***karbo-*** (karbozanjirli), ***multi-*** (multiturg‘unlik), ***sulfo-*** (sulfohosila) kabi ko‘plab terminelementlar ham faol qo‘llanmoqda.

Bunday gibrid terminlarning qisqaligi va semantik hajmdorligi terminga bo‘lgan asosiy talablarga ayni mos keladi. Gibrid terminlarning bu xususiyatlari ularning tegishli birikma terminlardan va tavsifiy terminlardan afzalligini belgilaydi.

Xalqaro terminelementlar ishtirokida hosil qilingan sohaviy terminlarning afzalliklari, asosan, quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Ma’lumki, terminologik tamoyillarga ko‘ra, termin shaklan qisqa va ixcham bo‘lishi kerak. Shu nuqtayi nazardan xalqaro terminelementlarni tarjima qilish natijasida hosil qilingan birikmali yoki tavsifiy terminlar bilan ularning yarimkalkalash orqali yasalgan shaklini qiyoslab ko‘raylik: *tabiatni muhofaza qilish harakati – ekologiya harakati; chegaralar orqali o‘tuvchi daryolar – transchegaraviy daryolar.* Ushbu sinonimik juftliklarning yarimkalkalangan shakllaridagi *ekologiya, trans-* so‘zlarini qisqargan shaklda *eko-harakat, transchegaraviy (daryolar)* tarzida qo‘llash ikki tushunchani bir so‘z orqali ifodalash mumkinligini ko‘rsatadi.

2. Biror tushunchani ifodalovchi, o‘zga tilga xos terminga o‘zbekcha muqobil topishda yangidan hosil qilinayotgan lug‘aviy birlikning axborot qabul qilish va uzatishda imkon qadar aniq ifodaga, ya’ni semantikaga ega bo‘lishi eng muhim omil sanaladi. Shu sababli ham har doim xalqaro terminelementlar semantikasini to‘liq qamrab oluvchi muqobil so‘z tanlab olish ancha qiyin kechadi. Masalan, harbiy terminologiyada faol qo‘llanuvchi *kontrataka* termini o‘zbek tilida *qarshi hujum* tarzida qo‘llanmoqda. Tashqi jihatdan qaraganda bunday qo‘llanish shaklan me’yoriy holga o‘xshaydi. Holbuki, ***kontr-*** terminelementi semantikasida “*javoban*” semasi mavjud (dushman hujumiga javoban qarshi hujum). O‘zbekcha muqobilida esa mazkur sema ifodalanmagan. Bu yerda *kontrhujum* tarzida qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

3. Ba’zi xalqaro terminelementlar semantik ko‘lamining kengligi o‘zbek tilida ularni barcha holatlarda muqobili bilan almashtirishga imkon bermaydi. Masalan, ***makro-*** terminelementini *makrosurat, makrozarra* so‘zlarida *yirik, katta* so‘zlari bilan almashtirish mumkin, biroq *makroiqlim, makroiqtisodiyot* terminlarida ularni sinonim sifatida ishlatib bo‘lmaydi.

4. Xalqaro terminelementlarning so‘z tarkibida turli o‘rinlarda, ya’ni so‘z oldida, so‘z o‘rtasida, so‘z oxirida joylasha olishi, shuningdek, bir termin tarkibida ikki va undan ortiq terminelementlarning ketma-ket kela olishi ularning sohaviy terminlar yasashdagi imkoniyati kengligini ko‘rsatib turibdi.

Xalqaro terminelementlar yordamida yasalgan terminlar, asosan, monosemantik xususiyatga ega ekanligi bilan ham ajralib turadi. Bu hol, o‘z navbatida, terminelementlarni maxsuslashtirishda qo‘l keladi. O‘zbek tilidagi ***-gich*** (texnika terminologiyasida), ***-simon, -doshlar*** (botanika terminologiyasida), ***-lash, -lashtirish, -shunos, -shunoslik*** kabi morfemalarning terminelementlarga aylanib borishida xalqaro terminelementlarning ta’siri katta.

Terminlar imlosi standartlashtirilayotgan terminlarni til nuqtayi nazaridan shakllantirishning muhim bir jihati ekanligini terminshunoslar alohida ta’kidlashadi[11]. O‘zbek tili terminologiyasida qo‘shma terminlar imlosini kuzatar ekanmiz, ularda bir qator chalkashliklar ko‘zga tashlanadi. Terminelementlar vositasida hosil qilingan qo‘shma terminlarning barchasi, ya’ni o‘zbek tiliga tayyor holda o‘zlashtirilgan *avtobenzin, fotosintez, radioapparatura* kabi qo‘shma terminlar, xalqaro terminelementlar yordamida yasalgan *aerofotosurat, aviayo‘nalish, kinoyulduz, radiolavha* kabi gibrid terminlarning qo‘shib yozilishi birmuncha me’yorlashgan bo‘lsa-da, xalqaro terminelementlar o‘zbekcha muqobillar bilan ifodalangan hollarda, ularning imlosi qat’iy emas. Masalan, ***ultraqisqa*** – *o‘ta qisqa // o‘taqisqa,* ***avtoag‘dargich –*** *o‘ziag‘dargich // o‘zi ag‘dargich* kabi komponentlarni maxsus lug‘atlarda, ilmiy matnlarda o‘zaro qo‘shib yozish hamda ajratib yozish hollari uchrab turibdi. Ma’lumki, qo‘shma terminlarni hosil qiluvchi lisoniy birliklarni qaysi hollarda qo‘shib, qaysi hollarda ajratib yozishning ilmiy asoslari o‘z tadqiqini kutmoqda. Biroq xalqaro terminelementlar yordamida yasalgan har qanday terminni – u xoh aynan o‘zlashtirilgan bo‘lsin, xoh yarimkalka qilingan bo‘lsin, asliga ko‘ra qo‘shib yozish maqsadga muvofiqdir.

Demak, sohaviy terminologiyalarda xalqaro terminelementlardan unumli foydalanish, bir tomondan, terminlar ma’nosiga aniqlik kiritib, shakliy ixchamlikka va o‘xshashlikka olib kelsa, ikkinchi tomondan, terminologiyamizda so‘z yasash imkoniyatini oshirib, terminlarni tartibga solishda muhim ijobiy ahamiyat kasb etadi.

Xullas, barcha fan sohalarida mavjud bo‘lgan va faol qo‘llanayotgan, xalqaro terminelementlar ishtirokida hosil qilingan terminlarning afzallik tomoni shundaki, ular terminga qo‘yilgan asosiy talablarga (aniqlik, qis-

[11] Қаранг: Даниленко В.П. Лингвистические требования к стандартизуемой терминологии / Терминология и норма. – М.: Наука, 1972. – С. 28.

qalik, bir ma’nolilik) nisbatan to‘laroq javob beradi va o‘zbek ilmiy terminologik tizimlarini boyituvchi asosiy omillardan biri sifatida tobora ko‘payib bormoqda. Yangi, besh jildli “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”ga[12] 75 ta, yaqinda o‘zbek-lotin yozuvida nashr etilgan olti jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga[13] 200 ga yaqin (to‘g‘rirog‘i 194 ta) asosiy xalqaro termin-elementlarning tanlab olib kiritilishi va tegishli ravishda izohlanishining sababi ham shundadir.

Abduvahob Madvaliyev, Ne’mat Mahkamov,
Akmalxo‘ja Saidno’monov

[12] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. / А.Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006 – 2008 (тузатилган 2-нашри, 2020).

[13] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. / A.Madvaliyev va D.Xudayberganova tahriri ostida. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2022.

A

A..., unlilar oldidan **AN...** [*yun.* a-, an-] – o‘zi qo‘shilgan so‘z asosidan anglashilgan ma’noni inkor etish yoki qaysidir sifat, xususiyatning mavjud emasligini ifodalaydigan old qo‘shimcha. Mas.: **adentiya, adipsiya, agalaktiya, akineziya, akraniya, amastiya**; **anensefaliya, anesteziya, anorxizm, angidremiya; adermiya** [a…+…dermiya] – teri o‘sishidagi anomaliya: teri ma’lum qavatining bo‘lmasligi; **agnoziya** [a...+...gnoziya] – bosh miya po‘stining zararlanishi natijasida narsa, hodisalarni fahmlash, tushunish qobiliyatiga ega bo‘lmaslik; **aleksiya** [a…+…*yun.* lexis – so‘z, ibora] – orttirilgan o‘qiy olmaslik holati; o‘qish qobiliyatining yo‘qolishi; **anaerobioz** [an...+ aero...+ ...bioz] – organizmlarning erkin kislorod bo‘lmagan muhitda hayot kechira olishi; **analgiya** [an...+...algiya] – ayrim kasalliklarda, ba’zan tug‘ma holda og‘riq hissining bo‘lmasligi; og‘riqni sezmaslik; **anarxiya** [an...+...arxiya] – bosh-boshdoqlik, tartibsizlik, xo‘jasizlik; hokimiyatni, tartib-qoidani tan olmaslik; **anemiya** [an…+…emiya] – kamqonlik – qonda eritrotsitlar va gemoglobin miqdorining kamayib ketishi va ularning sifatiy o‘zgarishi bilan kechadigan kasallik; **anonim** [an...+...onim] – xat yoki asarning nomi ma’lum bo‘lmagan muallifi; muallifi ko‘rsatilmagan asar; **anonixiya** [an…+ *yun.* onychos – tirnoq] – bir yoki bir necha tirnoqning bo‘lmasligi; **anormal** [a...+ normal] – me’yorga, normaga zid bo‘lgan, me’yoriy bo‘lmagan; **asimmetriya** [a...+ simmetriya] – simmetriyasizlik, simmetriyaning buzilishi; **avitaminoz** [a...+ vitamin +...oz] – organizmda tegishli vitamin(lar) yetishmasligi natijasida paydo bo‘ladigan kasallik.

AD... [*lot.* ad- – old, oldiga, oldida; yonida] – lotin tilidagi old qo‘shimcha bo‘lib, ko‘pincha o‘zi qo‘shilgan o‘zakning bosh tovushiga moslashib (assimilyatsiyaga uchrab), *ag-, ak-, al-, ap-, as-, at-* kabi ko‘rinishlarda ham bo‘ladi. Mas.: **adduktor, aggravatsiya, aggregatsiya, akklimatizatsiya, akkomodatsiya, akkompanement, akkompaniator, akkumulyator, alliteratsiya, appersepsiya, applikatsiya, assimilyatsiya, assotsiatsiya, attestatsiya, attraksion, attraktantlar** singari so‘zlardagi birinchi bo‘g‘inlar lotincha **ad-** qo‘shimchasining shakl o‘zgarishlaridir.

...AD, ...ADA [*fr.* -ade, *isp.* -ada] – so‘z yasovchi suffiks bo‘lib, o‘zi qo‘shilgan so‘z bilan birgalikda: 1) biror narsaning ko‘pligini, jamlikni (**arkada, ar-**

mada, balyustrada, kolonnada); 2) muayyan vaqt davom etadigan jarayonni (**blokada, kanonada, serenada, tamponada**) bildiradi. Mas.: **arkada** [*fr.* arcade] – kolonnalar yoki ustunlar ustiga o‘rnatilgan bir xil arkalar qatori; **serenada** [*fr.* serenade < *ital.* sera – oqshom, kechki payt] – Yevropada odatda oqshom payti va kechalari eshik ortida yoki deraza ostida turib, ma’shuqaga bo‘lgan his-tuyg‘ularni musiqiy qo‘shiq orqali ifodalash.

ADEN... [*yun.* aden – bez] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, bez ma’nosini ifodalaydi. Mas.: **adenektomiya, adenit, adenoidlar, adenokarsinoma, adenomiyoma, adenopatiya, adenosteronlar, adenotom, adenotomiya, adenotsitlar, adenoviruslar; adenologiya** [aden(o)...+...logiya] – bezlar haqidagi ta’limot; **adenoma** [aden...+...oma] – bir qator bez to‘qimalarida paydo bo‘ladigan xavfsiz o‘sma; **adenonekroz** [aden(o)...+ *yun.* nekros – o‘lik] – bez hujayralarining halok bo‘lishi; **adenoz** [aden...+...oz] – 1) bezlarning haddan tashqari o‘sib yoki rivojlanib ketishi; 2) bez va bezsimon tuzilmalarning har qanday kasalligi.

ADIP(O)... [*lot.* adeps – yog‘, moy] – o‘zlashma qoshma va yasama so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, yog‘, moy ma’nosini bildiradi. Mas.: **adipofibroma, adipokinin, adipoma, adipozogigantizm; adipektomiya** [adip...+...ektomiya] – yog‘ to‘qimalarini jarrohlik yo‘li bilan kesib olish; **adipozuriya** [adip(oz)...+...uriya] – siydikda yog‘ paydo bo‘lishi.

ADREN(O)... [*lot.* adrenalis – buyrakusti bezi < ad...+ renes – buyrak] – o‘zlashma qo‘shma va yasama so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning buyrakusti bezlariga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **adrenalin, adrenoblokatorlar – adrenolitiklar – adrenomimetiklar – adrenoretseptorlar** (dori vositalari), **adrenokortikotrop, adrenosteron; adrenalektomiya** [adrenal...+ ektomiya] – buyrakusti bezini jarrohlik yo‘li bilan kesib tashlash; **adrenomegaliya** [adren(o)...+ *yun.* megale – katta] – buyrakusti bezining kattalashib ketishi; **adrenotropizm** [adren(o)...+...tropizm] – gipofizdan chiqadigan gormonning buyrakusti beziga ta’siri; ichki sekretsiya bezlari orasida buyrakusti bezlari.

AERO... [*yun.* aēr – havo] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu qo‘shma so‘zlarning: 1) aviatsiyaga aloqadorligini anglatadi. Mas.: **aeroflot, aerokarta, aeroklub, aerokosmik, aerolotsiya, aeromayak, aeronavtika, aeroplan, aeroport; aerodrom** [aero...+...drom] – samolyotlarning joylashishi, uchishi, qo‘nishini hamda ularga texnik xizmat

koʻrsatishni ta’minlaydigan muhandislik inshootlari, umumtexnik vositalar bilan jihozlangan hudud, maydon; **aeronavigatsiya** [aero…+ *lot.* navigatio – dengizda suzish] – uchish apparatlarini xaritalar, kompas, radio va boshqa asboblar yordamida belgilangan yoʻl boʻyicha boshqarish haqidagi fan; **aerovokzal** [aero...+ vokzal] – aeroportlarda havo transporti yoʻlovchilariga xizmat koʻrsatadigan va yuk operatsiyalari oʻtkazadigan bino yoki binolar majmuyi; 2) havoda uchishga, havoda uchish apparatlariga oidligini, havoda uchish bilan bogʻliqligini bildiradi. Mas.: **aeronavt, aeronavtika, aeroplan, aerotransport; aerobus** [aero…+…bus] – koʻplab yoʻlovchilarni, katta miqdordagi hajmdor yuklarni tashishga moʻljallangan koʻp oʻrinli ulkan samolyot; **aeronevroz** [aero…+ nevroz] – yuqori balandliklarda uchishga moslashmagan samolyotlarda uchadigan uchuvchilarda gipoksiya sababli rivojlanadigan oʻta xavotirlik, qoʻrquvli asabiylashish va uyqusizlik sindromi; **aerostat** [aero...+...stat] – havodan yengil uchish apparati; qobigʻiga toʻldirilgan gaz (vodorod yoki geliy)ning koʻtarish kuchi yordamida havoga koʻtariladi; 3) gaz va havoga, ulardan turli maqsadlarda foydalanishga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **aeratsiya, aerobiontlar, aerobioz, aerodinamika, aerofiltr, aerograf, aerografiya, aeroionizator, aeroponika, aerotaksis, aeroterapiya, aerotoriya, aerozollar, aerozolterapiya; aerariy** [aer(o)…+ …ariy] – havo vannalarini qabul qilish uchun quyosh nurlari va shamoldan himoyalangan ochiq ayvon yoki maydoncha; **aerofagiya** [aero…+…fagiya] – havo yutish; ba’zan ovqatsiz yutish harakati bajarilganda havo yutib, soʻngra kekirish; **aerofobiya** [aero…+…fobiya] – havodan qoʻrqish; quturish kasalligida kuzatiladi; **aerogelioterapiya** [aero...+ gelio...+...terapiya] – havo va quyosh vannasidan davolash maqsadida foydalanish; **aeroiqlimshunoslik** – iqlimshunoslikning troposfera va quyi stratosferadagi iqlim sharoitlarini oʻrganuvchi boʻlimi; **aerologiya** [aero...+...logiya] – meteorologiyaning erkin atmosferadagi fizik jarayonlarni oʻrganuvchi, ularni oʻrganish usullarini ishlab chiquvchi sohasi; **aerosolyariy** [aero…+ solyariy] – bemorlarni quyosh va havo vannalari bilan davolaydigan maxsus ochiq maydoncha.

AGIO... [*yun.* hagios – muqaddas, tabarruk] – oʻzlashma qoʻshma soʻzlarning birinchi tarkibiy qismi boʻlib, muqaddas; avliyo ma’nolarini bildiradi. Mas.: **agiologiya, agiotoponim; agiografiya** [agio…+…grafiya] – cherkov adabiyotining bir turi: cherkov tomonidan tabarruk, muqaddas deb topilgan shaxslarning tarjimayi holi, ular haqidagi rivoyatlar; **agionim** [agio…+ …onim] – cherkov taqvimida qayd etilgan ism; taqvimda muqaddaslashtirilgan avliyolarning ismlari ular nishonlanadigan oy va kunlar boʻyicha sanab oʻtilgan. Keyingi vaqtlarda bunday terminlar musulmon manbalariga nisbatan ham qoʻllanmoqda (“manoqib” ma’nosida).

AGOR(O)... [*yun.* agora – maydon; bozor] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, xalq to‘planadigan joy, bozor maydoni ma’nolarini bildiradi. Mas.: **agorafobiya** [agora…+…fobiya] – ruhiy kasallik vasvasasi: odamsiz keng ko‘chalardan, ochiq bo‘sh maydonlardan o‘tishdan qo‘rqish; **agoronim** [agoro…+…onim] – shaharlardagi maydonlar, bozorlar nomi.

AGRO... [*yun.* agros – dala; qishloq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, agronomiya, dehqonchilik ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **agrobakteriyalar, agrobiologiya, agrobiotsenoz, agrofirma, agrofizika, agroiqlimshunoslik, agrokimyo, agromelioratsiya, agrometeorologiya, agrominimum, agronom, agroonim, agrosayyohlik = agroturizm; agrariy** [agr(o)…+…ariy] – 1) yirik yer egasi; 2) agrar partiyalar va birlashmalar a’zosi; 3) qishloq xo‘jaligi, dehqonchilik bilan professional darajada shug‘ullanuvchi kishi; **agrobiznes** [agro…+ biznes] – bozor iqtisodiyotining qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi, uning mahsulotlarini saqlash, taqsimlash, ishlov berish jarayonlari bilan bog‘liq tarmog‘i; **agromaniya** [agro…+…maniya] – tabiat qo‘ynida yolg‘izlikda yashashga bo‘lgan patologik intilish; **agronomiya** [agro...+...nomiya] – dehqonchilik qonun-qoidalari haqidagi fan; qishloq xo‘jaligi ishlabchiqarishining ilmiy asosi; **agrosanoat** [agro...+ sanoat] – qishloq xo‘jaligi sanoati.

...AJ [*fr.* -age] – so‘z yasovchi suffiks bo‘lib, o‘zi qo‘shilgan so‘z bilan birgalikda: 1) turli xil jarayonlar, harakat-holatlarni va ularni amalga oshirish usullarini (**abordaj, arbitraj, barraj, karotaj, patronaj, peyzaj, tamponaj**); 2) uchish apparatlarini boshqarish usullarini (**pilotaj, viraj**); 3) san’at bilan bog‘liq tushuncha nomlarini (**kollaj, plyumaj, vernisaj, vitraj**); 4) joy, narsa-predmetlar nomlarini (**bandaj, ekipaj, passaj**); 5) narsa-predmetlarni o‘lchash birliklarini (**listaj, litraj, metraj, tonnaj**) ifodalaydi.

AKANT(O)... [*yun.* akantha – tikanak, tikanli o‘t; ayiqtovon] – o‘zlashma qo‘shma va yasama so‘zlarning birinchi tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, tikanakli, tikanaksimon ma’nolarini bildiradi. Mas.: **akant, akantamyoba, akantoma, akantospora, akantotsefalyoz, akantoz; akantodlar** [*yun.* akanthodus – tikanakli, sanchiluvchan] – qadimgi akulasimon baliqlar guruhi bo‘lib, ularning deyarli barcha suzgichlari tikanaksimon bo‘lgan; **akantokefallar // akantotsefallar** [akanto…+ *yun.* kephale – bosh, kalla] – tikanakboshlilar; baliqlar, qushlar va sutemizuvchilarning parazitlari bo‘lmish alohida qurtlar sinfi.

AKARI..., AKARO... [*yun.* akari – kana] – o‘zlashma qo‘shma va yasama so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, kana, bo‘g‘imoyoqli hasharot ma’nolarini anglatadi. Mas.: **akariaz, akarit, akarifaglar, akariform** (kanalar), **akarinlar, akariotsid, akaroz; akarapidoz** [akari…+ *lot.* apis – asalari +…oz] – asalarilarning bo‘g‘zida yoki qanotlari ostida parazitlik qiluvchi kanalar keltirib chiqaradigan surunkali kasalligi; **akaritsidlar** [*yun.* akari...+ ...sid] – turli xil kanalarga qarshi qo‘llanadigan kimyoviy moddalar; **akarofobiya** [akar(o)…+…fobiya] – ruhiy kasallik turi: kanadan qo‘rqish; bunda bemorning nazarida butun badaniga kanalar yopishib olganday tuyuladi; **akarologiya** [akar(o)...+...logiya] – zoologiyaning kanalarni o‘rganuvchi bo‘limi.

AKRO... I [*yun.* akron – oyoq-qo‘l] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, oyoq-qo‘l, odam a’zosi ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **akroanesteziya, akroartrit, akrodermatit, akrodiniya, akromelanoz, akromikriya, akrotsianoz; akroalgiya** [akro…+…algiya] – oyoq-qo‘llarda og‘riq huruji; **akroesteziya** [akro…+ *yun.* esthesis – sezish, his qilish] – oyoq va qo‘llarda sezuvchanlikning ortishi, zo‘rayishi; **akrogidroz** [akro…+ *yun*. hidros – ter] – oyoq-qo‘l, ayniqsa, kaft va tovonning ortiqcha terlashi; **akrogipotermiya** [akro…+ gipo…+ *yun.* therme – issiqlik] – qo‘l-oyoqlarning haddan tashqari sovib ketishi, muzlashi; **akromegaliya** [akro...+ *yun.* megas, megale – katta] – gipofiz funksiyasining buzilishi va gormonning ortiqcha ishlab chiqarilishi natijasida paydo bo‘ladigan kasallik; bunda oyoq-qo‘l va bir qator tana a’zolarining g‘oyat kattalashib ketishi kuzatiladi.

AKRO... II [*yun.* akros – yuqori, baland; cho‘qqi] – o‘zlashma qo‘shma va yasama so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, yuqori, baland, cho‘qqi ma’nolarini bildiradi. Mas.: **akrobat, akrobatika, akroparesteziya, akropetal** (rivojlanish), **akroteriy, akrotsentrik; akrofobiya** [akro…+…fobiya] – balandliklardan, baland joylarga chiqishdan qo‘rqish; **akrokefaliya // akrotsefaliya** [akro...+...kefaliya] – bosh suyagining cho‘qqisimon (minorasimon) shaklda bo‘lishi; **akropol** [akro...+ *yun.* polis – shahar] – yunon shaharlarining muhofazalangan va balandlikda joylashgan qismi; **akrosoma** [akro...+ *yun.* soma – tana] – spermatozoid boshchasi ustidagi g‘ilofcha.

AKRO... III [*yun.* akros – chekka] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, chet, chekka ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **akronim** [akro…+…onim] – nom-so‘z birikmasini tashkil etuvchi so‘zlarning birinchi harflarini qo‘shish yo‘li bilan hosil qilingan nom; **akrostix** [akro...+ *yun.* stichos – qator, satr] – tepadan pastga qarab o‘qilganda, har bir satr bosh (birin-

chi) harflaridan biror ism yoki so‘z kelib chiqadigan she’r turi; mumtoz adabiyotimizda: muvashshah.

AKSELERO... [*lot.* accelero – tezlataman] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarning tezlikka, tezlanishga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **akselerat, akselerator**, **akselerograf; akseleratsiya** [akseler(o)…+…atsiya] – bolalar va o‘smirlarning o‘sishi hamda jismoniy rivojlanishining tezlashishi; **akselerometr** [akselero...+...metr] – mashinalar, kosmik uchish apparatlari, raketalar, samolyotlar va boshqa yuqori tezlikda harakatlanuvchi obyektlarda hamda mashinalarni sinash paytida paydo bo‘ladigan tezlanishni o‘lchaydigan asbob.

AKSIO... [*yun.* axia – qimmat, qadr] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, qadriyatga aloqadorlikni bildiradi. Mas.: **aksiologiya** [aksio...+...logiya] – qadriyatlar to‘g‘risidagi fan.

AKSON(O)... [*yun.* axon – o‘q] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning proyeksiya (o‘q) ga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **aksolemma, akson, aksonograf, aksonometr, aksoplazma; aksonometriya** [aksono...+...metriya] – 1) chizmada predmetlarni parallel proyeksiyalar yordamida tasvirlash usuli; 2) ko‘z astigmatizmi (ko‘rish nuqsoni) o‘qini aniqlash usuli.

AKTINO... [*yun.* aktinos – nur] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, nur, nurli, nur energiyasi ma’nolarini bildiradi. Mas.: **aktinidiya, aktiniyalar, aktinodermatoz, aktinofaglar, aktinofotometr, aktinograf, aktinoidlar, aktinometr, aktinometriya, aktinomitsetlar, aktinoskop, aktinoskopiya, aktinotoksemiya; aktiniy** [*lot*. Aktinium < *yun.* aktis (aktinos) – nur] – Mendeleyev davriy sistemasining III guruhiga mansub kumushrang-oq radioaktiv metall; **aktinograf** [aktino…+…graf] – quyosh nurlanishini avtomatik tarzda yozib olishga (qayd etishga) mo‘ljallangan asbob; **aktinolit** [aktino...+...lit] – nur sochuvchi tosh; **aktinomikoz** [aktino…+ mik(o)...+...oz] – turli nursimon zamburug‘lar – aktinomitsetlar keltirib chiqaradigan yuqumli kasallik; **aktinoterapiya** [aktino…+…terapiya] – turli kasalliklarni infraqizil yoki ultrabinafsha nurlar bilan davolash.

AKU... I [*yun.* akuō – eshitaman] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning eshitishga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **akumetr, akustika, akustikon, akustimetr, akustooptika; akumet-**

riya [aku...+...metriya] – eshitishning qay darajada o‘tkirligini inson qulog‘i qabul qiladigan eng past tovush kuchini aniqlash orqali o‘lchash; **akusfera** [aku…+…sfera] – bemor tovushning yo‘nalishini (qaysi tomondan eshitilayotganini) aniqlay olishini tekshiruvchi asbob; **akuzalgiya** [aku(z)…+…algiya] – ovoz ta’sirida og‘riq sezish (odatdagi ovoz sog‘lom kishilarda og‘riq paydo qilmaydi).

AKU... II [*lot.* akus – nina, igna] – ayrim o‘zlashma tibbiy terminlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, nina, igna ma’nosini bildiradi. Mas.: **akupunktura** [aku…+ *lot.* punktura – sanchish, ukol] – ko‘plab kasalliklarni igna sanchib davolash usuli; **akuterapiya** [aku…+…terapiya] – nina sanchish yo‘li bilan turli kasalliklarni davolash.

AKV(A)... [*lot.* aqua – suv] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, suv, suvga aloqadorlik ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **akvadag, akvagel, akvakultura, akvamarin, akvanavt, akvatipiya, akvatropizm, akvilegiya; akvalang** [akva...+ *ingl.* lung – o‘pka] – odamning suv ostida bemalol nafas olib suzishiga hamda ishlashiga imkon beruvchi apparat; **akvametriya** [akva...+...metriya] – anorganik va organik moddalar tarkibidagi suv miqdorini bevosita aniqlash (o‘lchash) usuli; **akvarel** [*fr.* aquarelle < *ital.* aquerello < *lot.* aqua – suv] – 1) suvli tiniq, shaffof bo‘yoq; 2) shunday bo‘yoq bilan ishlangan rasm, tasvir; **akvarium** [*lot.* aquarium – hovuz, havza < akv(a)…+…arium] – 1) baliq yoki boshqa suv jonivorlari va o‘simliklari parvarish qilinadigan shisha idish yoki sun’iy havza; 2) baliq yoki boshqa suv jonivorlari va o‘simliklarini asrash, ko‘paytirish, o‘rganishva xalqqa ko‘rsatish uchun xizmat qiladigan mxsus muassasa; **akvatoriya** [akva...+ (terri) toriya] – suv sathining, havzasining chekli bir qismi; **akveduk** [akv(e)...+ *lot.* ducere – olib borish, o‘tkazish] – osmaquvur; jar, dara, daryo, yo‘l ustidan o‘tkaziladigan nov yoki quvurdan iborat ko‘priksimon suvo‘tkazgich inshoot.

AL... I [*lot.* ad- – old, -ga, -da] – **AD...** terminelementining izohiga qarang. Mas.: **alliteratsiya** [ad...+ *lot.* littera – harf] – badiiy adabiyotda misralar, undagi so‘zlar boshida bir xil yoki ohangdosh undosh tovushlarning, ba’zan so‘zlarning takror qo‘llanishi.

AL II [*a.* أل – al] – aniqlik artikli; arab tilidan bir qator sharq xalqlari tillariga o‘zlashgan so‘zlarda otlar oldidan kelib, aniqlik ma’nosini beradi. Agar bu artikl *b, f, h, j, k, q* kabi qamariya harflari bilan boshlanuvchi so‘zlarga qo‘shilsa, aslidagiday ***al*** tarzida o‘qiladi. Mas.: **al-Kitob, al-Qur’on, al-Xorazmiy.**

Agar ***al*** artikli *d, n, r, s, t, z, sh* kabi shamsiya harflari bilan boshlanuvchi so‘zlarga qo‘shilsa, undagi ***l*** tovushi o‘zakdagi bosh tovushlarga moslashtirib, ikkilantirib o‘qiladi: **al-shamsu** > **ash-shamsu**, **al-rahmon** > **ar-rahmon**, **al-nabi** > **an-nabi** kabi. **Al** aniqlik artikli bilan kelgan bir qancha arabcha so‘zlar turli fonetik o‘zgarishlar bilan bir butun holda yevropa tillariga ham o‘tib, xalqaro terminlarga aylangan: **alkogol** [*a.* الكحل al-kuhl – mayin kukun; الكحول spirt] – spirtli ichimliklar; **azimut** [*fr.* azimut < *a.* السموت as-sumut – yo‘llar, yo‘nalishlar] – geodeziya va astronomiyada: kuzatish nuqtasi meridiani tekisligi bilan ushbu nuqta va kuzatilayotgan obyekt orqali o‘tuvchi vertikal (tik) tekislik o‘rtasidagi burchak; **eliksir** [*fr.* elixir < *a.* إلكسير al-iksir – falsafa toshi] – 1) o‘rta asr kimyogarlari fikricha, abadiy yoshlik baxsh etuvchi tiriklik suvi; 2) o‘simlik moddalardan alohida usulda olinadigan suyuqlik; kuchli damlama; kosmetika va tibbiyotda ishlatiladi.

ALBI... [*lot.* albus – oq] – o‘zlashma yasama so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, oqimtir tusga aloqadorlik ma’nosini ifodalaydi. Mas.: **albidum, albinoslar, albuminlar; albinizm** [albi(n)...+...izm] – odam va hayvonlar terisida va ko‘zining rangdor pardasida pigmentning bo‘lmasligi; **albit** [albi...+...it] – dala shpatlari guruhiga mansub, jins hosil qiluvchi oq rangli mineral; natriy alyumosilikat; **albom** [*fr.* album < *lot.* albus – oq] – kitob shaklida muqovalangan va rasm chizishga, turli kolleksiyalarni saqlashga mo‘ljallangan oq, toza varaqlar.

ALFA... [*yun.* alpha – yunon alifbosidagi birinchi harf (α) ning nomi] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib: 1) moddaning muayyan holatini bildiruvchi, 2) tushunchaning alfa-zarralarga aloqadorligini ko‘rsatuvchi fizik terminlar hosil qiladi. Mas.: **alfametr, alfa-radioaktivlik, alfa-spektrometr, alfatip, alfatron, alfa-yemirilish**; **alfa-nurlar** – alfa-yemirilish jarayonida radioaktiv moddalar chiqaradigan alfa-zarralar oqimi; **alfa-temir** – temirning 769° gacha temperaturada bo‘lgan holati; **alfaterapiya** [alfa...+...terapiya] – nur bilan davolash usullaridan biri; alfa-zarralardan (radonli vannalar, radioaktiv bog‘lamlar va b.) davolash maqsadlarida foydalanish; **alfa-zarra(lar)** – geliy atomining yadrosi; ikkita proton va ikkita neytrondan iborat.

...ALGIYA [*yun.* algos – og‘riq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarning og‘riqqa, og‘riqli kasallikka aloqadorligini bildiradi. Mas.: **akroalgiya, akuzalgiya, angialgiya, aortalgiya, daktilalgiya, dermalgiya, frenalgiya, gemialgiya, gepatalgiya, gipalgiya, giperalgiya,**

gipnalgiya, glossalgiya, kardialgiya, laringalgiya, lyumbalgiya, mastalgiya, meralgiya, nefralgiya, nevralgiya, odontalgiya, onixalgiya, orxialgiya, paralgiya, podalgiya, psixalgiya, raxialgiya, termalgiya, topalgiya, trixalgiya, uretralgiya; artralgiya [artr...+...algiya] – bo‘g‘imlar og‘rig‘i; **kauzalgiya** [*yun.* kausis – kuydirish, lovullatish +…algiya] – periferik nerv tolalari lat yeb jarohatlanganda kuzatiladigan kuchli darajadagi lovullatuvchi og‘riq; **mialgiya** [mi(o)...+...algiya] – turli xarakterdagi mushak og‘riqlari xuruji.

ALG(O)... I [*lot.* alga – suvo‘t] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarning suvo‘tlarga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **algitsidlar** [algo…+…sid] – sholipoyalarda, baliqchilik hovuzlarida, kanal va suv omborlarida suvo‘tlar, suv o‘simliklarini yo‘q qilish uchun qo‘llanadigan kimyoviy vositalar; gerbitsidlar guruhiga kiradi; **algologiya** [algo...+...logiya] – botanikaning suvo‘tlarni o‘rganadigan bo‘limi.

ALGO... II [*yun.* algos – og‘riq, azob, dard] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, og‘riq, azob ma’nolarini bildiradi. Mas.: **algezimetriya, algeziya, algodismenoreya; algezimetr** [alge(zi)…+…metr] – og‘riq sezgilarini o‘lchaydigan asbob; **algolagniya** [algo…+ *yun.* lagnos – shahvoniy ehtiros] – og‘riqdan lazzatlanish, birovga yoki o‘ziga og‘riq, azob berishdan huzur qilish; ba’zi ruhiy kasalliklar (sadizm, mazoxizm) da kuzatiladi.

ALLO... [*yun.* allos – boshqa; har xil] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, o‘zga, begona, boshqa ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **allegoriya, allergiya, allofon, allogamiya, allogenez, alloleksa, allometriya, allopsixozlar, allosomalar, alloxoriya, alloxromatizm, alloxtonlar; alloesteziya** [allo…+ *yun.* esthesis – sezish, his qilish] – sezuvchanlikning (og‘riqning) buzilishi – ta’sir qilingan joydan boshqa joyda og‘riq sezish; **allonim** [allo...+...onim] – birovning taxallus, laqab sifatida foydalanilgan haqiqiy ismi; **allopatiya** [allo…+…patiya] – tibbiyotda davolashning to‘g‘ri sistemasidan boshqacha davoni belgilash; kasallikka sababchi bo‘lgan ta’sirga qarshi o‘zgacha ta’sirlar ko‘rsatadi; **alloplastika** [allo...+...plastika] – a’zo va to‘qimalar nuqsonlarini jonli mavjudotlarga aloqador bo‘lmagan materiallardan foydalanib bartaraf etish (jarrohlik usuli); **allotropiya** [allo...+...tropiya] – kimyoviy elementning tuzilishi va xossalari turlicha bo‘lgan ikki yoki undan ortiq oddiy modda holida mavjud bo‘la olishi (mas., uglerodning grafit yoki olmos holida bo‘lishi).

ALT(I)... [*lot.* altum – balandlik] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarning balandlik ma’nosiga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.; **alt** (musiqada), **altigraf, altituda; altazimut** [alt(i)…+ azimut] – astronomiyada osmon yoritqichlarining balandlik va azimutlarini aniqlashda qo‘llanadigan universal asbob; **altimetr** [alti...+...metr] – balandlik o‘lchagich (uchish apparatlarida).

ALYUM(O)..., ALYUMIN(O)... [*lot.* alumen (aluminis) – achchiqtosh] – o‘zlashma qo‘shma va yasama so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning alyumiy va uning birikmalariga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **alyuminatlar, alyumofosfat, alyumogel, alyumogidridlar, alyumolit, alyumosilikatlar, alyumotol; alyumel** [alym(o)…+…(nik)el] – nikelning alyuminiy, marganes va kremniy bilan qotishmasi; **alyuminiy** [*lot.* alumen (aluminis) – achchiqtosh] – Mendeleyev davriy sistemasining III guruhiga mansub kumushrang-oq, yengil, bo‘lg‘alanuvchan, korroziyabardosh metall; **alyuminotermiya // alyumotermiya** [alyum(in)o…+ *yun.* therme – issiqlik] –metallar oksidlarini alyuminiy bilan qaytarib, kuchli issiqlik ajralishi evaziga metall va qotishmalar olish usuli.

AMBI(O)..., AMBO... [*lot.* ambi < *yun.* amphi – atrofida, ikkala tomonidan] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, ikki tomonlamalik, ikki qarama-qarshi xususiyatga yoki holatga egalik kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **ambiofonik** (sistema), **ambipolyar** (diffuziya), **ambistomalar, amboretseptor // ambotseptor; ambidekstriya** [ambi…+ *yun.* dexter – o‘ng tomon] – o‘ng va chap qo‘llar bilan bir xil (bab-baravar) ishlay olish, ulardan foydalanishda bir xil imkoniyatga ega bo‘lish; tug‘ma yoki tinimsiz mashqlar samarasi bo‘lishi mumkin; **ambivalentlik** [ambi...+ *lot.* valentia – kuch] – kishida bir paytning o‘zida bir-biriga qarama-qarshi hissiyotning yuzaga kelishi; chunonchi, ba’zan kishida ayni bir narsaga nisbatan ham mehr, ham nafrat uyg‘onishi (simpatiya va antipatiya).

AMBLI(O)... [*yun.* amblys – o‘tmas] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, o‘tmas, kuchsiz, zaif ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **ambligonit; ambliopiya** [ambli...+...opiya] – ko‘rish qobiliyati (o‘tkirligi) ning yorug‘ (yoritilgan) paytda ham, g‘ira-shira paytda ham birday pasayishi; **amblioskop** [amblio…+…skop] – ko‘zning ko‘rish quvvatini aniqlovchi asbob.

AMFI..., AMFO... [*yun.* amphi – atrofi, yoni, har ikki tomoni; ampho – har ikkalasi; aylanasiga] – old qo‘shimcha bo‘lib, o‘zi qo‘shilgan so‘zda quyidagi ma’nolarni ifodalaydi: 1) har ikki tomondan; aylanasiga; tevarak-

atrof. Mas.: **amfiartroz, amfibraxiy, amfidiploid, amfimakr, amfora; amfikarpiy** [amfi…+ *yun.* karpos – meva] – o‘simlikda ham yerusti, ham yerosti mevalarning hosil bo‘lishi; **amfiteatr** [amfi...+ teatr] – tomoshalar uchun mo‘ljallangan, aylana yoki oval shaklidagi inshoot bo‘lib, unda o‘rinlar tomosha maydoni atrofida pastdan yuqoriga zina shaklida joylashadi; **amfodontoz** [amf(o)...+odont(o)...+...oz] – tish atrofidagi to‘qimalar kasalligi; **amfolitlar** [amfo...+...lit] – bir paytning o‘zida musbat va manfiy ionlarini almashtira oladigan ionitlar; 2) har ikkalasi; ikki yoqlama. Mas.: **amfibiontlar, amfiblastula, amfiboliya, amfibollar, amfidiploid, amfimiksis, amfipodlar; amfibiyalar** [amfi...+ *yun.* bios – hayot] – ikki xil hayot kechiruvchi, suvda va quruqlikda yashay oladigan jonivorlar; **amfoterlik** [*yun.* amphoteros – ham unisi, ham bunisi] – ayrim moddalarning sharoitga qarab ham kislotaviy, ham ishqoriy xossalarga ega bo‘lish qobiliyati; **amfotoniya** [amfo…+ *yun.* tonos – taranglik, tanglik] – bir vaqtda ham simpatik, ham parasimpatik nervlarning o‘rta darajada qo‘zg‘aluvchanligi.

AMIL(O)... [*yun.* amylon – kraxmal] – muayyan o‘zlashma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, kraxmalga aloqadorlik ma’nosini ifodalaydi. Mas.: **amilazalar, amilnitridlar, amiloidlar, amiloplastlar, amiloza; amilatsetat** [amil(o)...+ *lot.* acetum – sirka] – organik birikma; sirka kislotaning amil efiri; **amilodekstrin** [amilo...+ *lot.* dextri – o‘ng tomondagi +...in] – kraxmal gidroliz yo‘li bilan parchalanganda hosil bo‘ladigan dastlabki mahsulot; **amiloidoz** [amilo...+...oid +...oz] – hujayradan tashqarida oqsillar almashinuvining buzilishi: to‘qimalarda o‘ziga xos murakkab oqsillar (amiloid) hosil bo‘lishi va to‘planib qolishi; **amiloreya** [amilo...+...reya] – hazm bo‘lmagan kraxmalning ko‘p miqdorda axlat bilan ajralib chiqishi (oshqozon peristaltikasi tezlashganda kuzatiladi); **amilopektin** [amilo...+ *yun.* pektos – muzlagan, quyulgan] – glyukoza qoldiqlaridan hosil bo‘lgan tarmoqlangan polisaxarid.

AMPELO... [*yun.* ampelos – uzum] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, uzum ma’nosini anglatadi. Mas.: **ampelologiya; ampelografiya** [ampelo...+...grafiya] – uzum turlari va navlarini o‘rganadigan fan; **ampeloterapiya** [ampelo...+...terapiya] – turli xil kasalliklarni uzum yoki uning sharbati bilan davolash.

ANA... [*yun.* ana – yana, qayta; qarshi, orqaga, ortga, teskari; yuqori, ustiga] – ushbu ko‘p ma’noli old qo‘shimcha muayyan so‘zlarga qo‘shilganda, quyidagi ma’nolarni bildiradi: 1) qayta, yana: **anabaptistlar, anabioz, anafilaksiya, anagramma, analeptiklar, anamnez, anaplazmoz**; 2) -ga, ustiga, yuqoriga:

anaboliya, anafora, anafront, anamorfoz, anastomoz; 3) ortga, teskari: **anapest, anagramma, anaplaziya, anatoksin, anaxronizm;** 4) o‘xshash, singari: **analogiya, anatoksin;** 5) tashqari: **anagalaktik**; 6) qarshi: **anafaza**. Mas.: **anafront** [ana...+ *fr.* front – old, peshona] – issiq havoning yuqoriga ko‘tarilib borishidan iborat atmosfera fronti; **anagalaktik** [ana...+ galaktika]: ***anagalaktik yulduz sistemalari*** – galaktikamizdan tashqarida joylashgan boshqa yulduz sistemalari; **anagramma** [ana...+...gramma] – boshqa biror so‘z yoki so‘z birikmasi harflarining o‘rnini almashtirish bilan hosil qilingan so‘z yoki so‘z birikmasi (*qalay – qayla, osmon – somon*); **anatoksin** [ana...+ *yun.* toxikon – zahar, toksin] – maxsus ishlov berish yo‘li bilan zararsizlantirilgan, lekin o‘zining antigen xossalarini saqlab qolgan bakterial toksin; **anaxronizm** [ana...+ *yun.* chronos – vaqt, davr] – 1) xronologiyaga zid bo‘lgan xatolik: biron-bir voqea, hodisaning boshqa davrga, zamonga nisbat berilishi; 2) muayyan davr tasviriga shu zamonga xos bo‘lmagan xususiyatlarni ataylab kiritib qo‘yish.

ANDRO... [*yun.* aner (andros) – erkak, er kishi] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, erkaklarga, er kishiga xos, aloqador ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **androfiliya, androgenez, androginiya, andromaniya, androspora, androsteroma, androsteronlar, androtsey; androfobiya** [andro...+...fobiya] – erni, erkaklarni yoqtirmaslik, ulardan qo‘rqish; **androgenlar** [andro...+...gen] – umurtqali hayvonlar hamda odamning erkak jinsiy gormonlari; **android** [andro...+…oid] – inson shakli va qiyofasiga o‘xshatib yaratilgan robot; **andrologiya** [andro...+...logiya] – urologiyaning erkaklar siydik-tanosil a’zolari kasalliklarini o‘rganuvchi sohasi; **androsteronlar** [andro...+ *yun.* stereo – kuchli qilaman] – siydik bilan tashqariga chiqadigan erkak jinsiy gormonining o‘zgarishi natijasida hosil bo‘ladigan organik moddalar.

ANEMO... [*yun.* anemos – shamol] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibida shamol ma’nosini ifodalaydi. Mas.: **anemofiliya, anemometriya, anemona, anemonim; anemograf** [anema...+...graf] – shamol tezligi va yo‘nalishini qayd etuvchi o‘ziyozar asbob; **anemometr** [anemo...+...metr] – shamolning, gaz-havo oqimining tezligini (ba’zan yo‘nalishini ham) o‘lchaydigan asbob; **anemoxoriya** [anemo...+...xoriya] – o‘simlik mevalari va urug‘larining shamol yordamida tarqalishi; shamol orqali changlanish.

ANGIO... [*yun.* angeion – tomir] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, tomirga aloqadorlikni bildiradi. Mas.: **angioblast, an-**

giodisplaziya, angiokardiopatiya, angiokeratoma, angioliz, angiologiya, angiomatoz, angiometr, angiopatiya, angioplastika, angiosarkoma, angiostenoz, angiostomiya, angiotenzin; angiektaziya [angi(o)...+...ektaziya] – qon tomirining doimiy kengayishi; **angiogenez** [angio...+...genez] – yangi qon tomirlarining paydo bo‘lishi; **angiografiya** [angi(o)...+...grafiya] – qon tomirlariga maxsus kontrast moddalar yuborib, ularning rentgenologik tasvirini olish; **angiokardiografiya** [angio...+ kardio...+...grafiya] – rentgenologik tekshirishda yurak va yirik tomirlar ichiga kontrast modda yuborib, ularning soya tasvirini olishga imkon beradigan usul; **angioma** [angio...+...oma] – qon yoki limfa tomirlarida paydo bo‘ladigan xavfsiz o‘sma; **angiomegaliya** [angio... + *yun.* megale – katta] – qon tomirlarining, ayniqsa, venalarning kengayib, kattalashib ketishi; **angionevroz** [angio...+ nevr(o)...+...oz] – qon tomirlari nevrozi; qon tomirlarining funksional kasalligi; **angiospazm** [angio...+ ...spazm] – mayda arteriyalarning, kapillyarlarning a’zo va to‘qimalardagi qon ta’minotini izdan chiqaradigan, vaqti-vaqti bilan sodir bo‘ladigan tortishib qisqarishi.

ANIM(AL)... [*lot.* anima, animalis – jon, ruh; jonivor, jonli, tirik mavjudot] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, shu so‘zlarning tirik(lik), jonli(lik), jonli mavjudot; ruh ma’nolariga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **animalistika, animatizm, animato, animatsion** (film), **animatsiya, animizm; animal** [*lot.* animal – hayvon, jonivor] – hayvonlarga, tirik mavjudotga oid, xos: ***animal funksiyalar*** – faqat hayvonlargagina xos (odamga emas) funksiyalar; ***animal qutb*** – hayvonlar tuxumhujayrasining urug‘lantirishga qadar yadro joylashgan qismi; **animalist** [animal...+...ist] – hayvonlarni tasvirlovchi rassom yoki haykaltarosh; **animalizm** [animal...+...izm] – ba’zi dinlarda: muayyan hayvon(lar)ni hurmat qilish, muqaddas deb bilish, ilohiylashtirish; zoolatriya; **animator** [*lot.* animator – hayot baxsh etuvchi, “tiriltiruvchi”] – multiplikatsion film ijodkori, multfilmlar yaratuvchi kinematograf.

ANIZO... [*yun.* anisos (an…+…izos) – bir xil bo‘lmagan, teng bo‘lmagan] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, bir xil emaslik, harxillik ma’nosini ifodalashga xizmat qiladi. Mas.: **anizomeliya, anizometropiya, anizorefleksiya, anizotrop** (materiallar), **anizotsitoz; anizogamiya** [anizo...+...gamiya] – kattaligi, shakli va xatti-harakati bo‘yicha bir-biridan farq qiladigan gametalarning qo‘shilishi; **anizokoriya** [anizo...+ *yun.* kore – qorachiq] –ko‘z qorachiqlarining bir xil kattalikda bo‘lmasligi; **anizotropiya** [anizo...+...tropiya] – modda fizik xossalarining turli yo‘nalish va kesimlarda har xil bo‘lishi; **anizoxromiya** [anizo...+ *yun.* chroma – rang, tus] – gemoglobinning turli miqdorda bo‘lishi tufayli eritrotsitlarning bir xil rangda bo‘lmasligi.

ANKILO... [*yun.* ankylos – bukilgan, egilgan; bukik] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, ikkinchi qismdagi predmetning egik, qayrilma holatini bildiradi. Mas.: **ankiloblefaron, ankilostomatidlar // ankilostomidlar, ankilostomoz, ankilozavrlar; ankiloglossiya** [ankilo...+ *yun.* glossa – til] – til yuganchasining me’yordagiga nisbatan juda qisqaligi bilan xarakterlanadigan bolalar kasalligi; **ankilostoma** [ankilo...+ *yun.* stoma – og‘iz] – odam va ba’zi sutemizuvchilarning ingichka ichagida parazitlik qilib yashovchi juda kichkina pushti gijja; **ankiloz** [ankilo...+...oz] – bo‘g‘imlar orasida chandiqli tog‘ay yoki suyak to‘qimasi hosil bo‘lishi natijasida suyaklarning qotib, qimirlamay harakatdan qolishi.

...ANT, ...ENT [*lot.* -ant(is), -ent(is)] – ot yasovchi qo‘shimcha bo‘lib: 1) muayyan amal, mansab egalari (**intendant, komendant, prezident, rezident**); 2) turli ta’lim bosqichida o‘qiyotgan, ilmiy muassasalarda ishlayotgan shaxslar (**aspirant, dissertant, doktorant, dotsent, magistrant, student**); 3) xabar, maslahat, yordam beruvchi, biror narsani namoyish qiluvchi shaxslar (**akseptant, assistent, informant, konsultant, laborant, opponent, referent, respondent; sekundant; diplomant, konsertant, prezentant**); 4) ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faoliyatga aloqador shaxslar (**dissident, diversant, emigrant kommersant, konkurent**); 5) kimyoviy va dorivor moddalar (**desikant, dezinfektant, dezodorant, liniment**) nomlarini hosil qiladi.

ANTI... [*yun.* anti – qarshi, zid] – muayyan so‘zlarda old qo‘shimcha vazifasini bajarib, o‘zi qo‘shilgan so‘zning antonimini, qarama-qarshisini hosil qiladi. Mas.: **antidepressantlar, antidetonator, antidunyo, antifashizm, antigormonlar, antineytron, antinomiya, antiperistaltika, antipiretiklar, antiproton, antisemitizm, antiseptika, antiterror, antitezis, antitoksinlar, antitsiklon, antivitaminlar, antizarralar, antonim; antibiotiklar** [anti...+ bio(tik)] – ba’zi mikroorganizmlar, hayvonlar va o‘simliklardan ishlab chiqariladigan va turli xil mikroblarning o‘sishi, rivojlanishini to‘xtatib qo‘yadigan moddalar; **antidotlar** [*yun.* antidoton – zaharga qarshi] – ziddizaharlar – organizmga har turli yo‘llar bilan kirgan zaharli moddalarni zaharsizlantiruvchi kimyoviy moddalar; **antifon** [anti...+...fon] – quloqni berkitish, shovqindan himoya qilish moslamasi; **antifrizlar** [anti...+ *ingl.* freeze – muzlamoq] – ancha past temperaturada ham muzlamaydigan suyuqliklar; **antigenlar** [anti...+ ...gen] – organizmga yuborilganda antitanalar ishlanib chiqishi va immunitet vujudga kelishiga sabab bo‘la oladigan moddalar (yot oqsillar); **antimonopol** [anti...+ monopol] – monopoliyaga qarshi; **antipatiya** [anti...+ *yun.* pathos – azoblanish; kasallik] – biron-bir kimsani yoki narsani xush ko‘rmaslik, yoqtir-

maslik, yomon ko‘rish, unga nisbatan salbiy munosabatda, sovuq muomalada bo‘lish; **antipiretiklar** [anti...+ *yun.* pyretos – issiqlik, isitma] – isitmaga qarshi, issiqlik tushiruvchi dori vositalari; **antipodlar** [anti...+...pod] – 1) Yer kurrasining bir-biriga tamoman qarama-qarshi nuqtalarida yashaydigan odamlar va jonivorlar; 2) urug‘li o‘simliklarning murtak xaltachasida jinsiy apparatning qarama-qarshi tomonida joylashgan hujayralar; 3) qarashlari yoki mijozlari qarama-qarshi bo‘lgan, bir-biridan tubdan farq qiladigan kishilar; **antivirus** [anti...+ virus] – kompyuterga kirib qolgan viruslarni bloklovchi (o‘rab oluvchi) va zararlangan apparatni viruslardan tozalovchi kompyuter dasturi; **antonimlar** [anti...+...onim] – o‘zaro zid, qarama-qarshi ma’noli so‘zlar.

ANTIK(V)... [*lot.* antiques – qadimgi] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, qadimgi, qadim zamonga oid; nodir, qimmatbaho kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **antik** (adabiyot, davr, teatr), **antikva, antikvar** (buyum, kitob, magazin); **antikvar** [*lot.* antiquarius – qadimgi buyumlar ishqibozi, bilimdoni < antikv...+...arius] – qadimgi buyumlar – mebel, surat, kitob, zeb-ziynat, taqinchoqlar bilimdoni, to‘plovchi va sotuvchisi; **antikvariat** [antikvar(i)...+...at] – 1) qadimgi qimmatbaho buyumlar oldi-sotdisi; 2) shunday buyumlar to‘plami, majmuyi.

...ANTROP [*yun.* anthropos – odam] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi qismi bo‘lib, o‘zi qo‘shilgan so‘z bilan birgalikda eng qadim zamonlarda yashab o‘tgan va keyinchalik skeletlari qazib topilgan odamlarning shartli nomlarini bildiradi. Mas.: **afrikantroplar, atlantroplar, megantroplar, miksantroplar, neoantroplar, parantroplar, pitekantroplar, pleziantroplar, sinantroplar, zinjantroplar; arxantroplar** [arx(o)...+...antrop] – taraqqiyot va madaniyat darajasi bo‘yicha bir-biriga yaqin, suyaklari qazib topilgan odamlar; ularning aksariyati topilgan joy nomiga qarab (**afrikantrop, sinantrop, zinjantrop**) yoki o‘xshashligiga qarab (**pitekantrop**) nomlangan. Hozirgi terminlar orasida ham shu qolipda yasalganlari uchraydi: **filantrop** [fil(o)...+...antrop] – odamsevar, odamlarga yaxshilik, muruvvat qiluvchi shaxs.

...ANTROPIYA [*yun.* anthropos – odam +...iya] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, odamning o‘zini biror hayvonday, jonivorday his qilishi, o‘xshashday sezishi kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **ginantropiya, kinantropiya, mizantropiya; galeantropiya** [*yun.* gale – mushuk + ...antropiya] – zoantropiyning bir turi – kasalning o‘zini mushukka aylanib qolgani haqidagi vasvasali fikri; **likantropiya** [*yun.* lykos – bo‘ri +...antropiya] – zoantropiyaning bir turi – kasalning o‘zini bo‘riga aylanib qolgani haqida-

gi vasvasali ishonchi va bo‘ri singari xatti-harakatlar qilishi; **zo(o)antropiya** [zoo…+…antropiya] – metamorfoz vasvasa xillaridan biri: odam (kasal) o‘zini birorta hayvonga aylanganiga ishonadi va shunga yarasha xatti-harakatlar qiladi.

ANTROPO... [*yun.* anthropos – odam] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning odamga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **antropogen, antropogenetika, antropografiya, antropolog, antropologizm, antropometriya, antropomorfizm, antroponim, antroponimika, antroposfera, antroposofiya, antropotsentrizm, antropozoonozlar; antropofagiya** [antropo...+...fagiya] – odamxo‘rlik, kannibalizm; **antropofobiya** [antropo...+...fobiya] – odamlardan, ayniqsa, ularning katta guruhlaridan, ular bilan yaqin muloqotda bo‘lishdan qo‘rqish, vahimaga tushish; **antropogenez** [antropo...+...genez] – 1) insonning tadrijiy-tarixiy shakllanish jarayoni; 2) antropologiya bo‘limi – odamning paydo bo‘lishi haqidagi ta’limot; **antropoidlar** [antropo...+...oid] – odamsimon maymunlar; **antropologiya** [antropo...+...logiya] – odamning kelib chiqishi va uning jismoniy shakllanish evolyutsiyasi haqidagi fan; **antropometr** [antropo...+...metr] – inson tanasi va uning a’zolari uzunligi, bo‘yi, eni va boshqa o‘lchamlarini ilmiy o‘lchash uchun mo‘ljallangan asbob; **antroponimika** [antropo...+...onim...+...ika] – 1) onomasiologiyaning atoqli kishi nomlarini o‘rganuvchi bo‘limi; 2) muayyan tildagi atoqli kishi nomlari majmuyi; **antroponozlar** [antropo...+ *yun.* nosos – kasallik] – qo‘zg‘atuvchilari faqat insongagina zarar yetkaza oladigan yuqumli kasalliklar guruhi; **antropoxoriya** [antropo...+...xoriya] – o‘simliklarning inson tomonidan g‘ayriixtiyoriy harakat qilish oqibatida tarqalishi (mas., narsa-buyumlar tashishda).

AORT(O)... [*yun.* aorte – sho(h)tomir] – o‘zlashma qo‘shma va yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, eng katta arteriya, shohtomir ma’nosini bildiradi. Mas.: **aortofemiya, aortografiya; aortalgiya** [aort(o)...+...algiya] – uzoq surunkali davom etuvchi ko‘krak og‘rig‘i; aorta shikastlanishining dastlabki belgilaridan biri; **aortit** [aort(o)...+...it] – aorta devorining yallig‘lanishi; **aortostenoz** [aort(o)...+ *yun.* stenos – tor; zich, tig‘iz] – shohtomir (aorta) ning torayishi yoki qisilishi.

APO... [*yun.* apo – -siz; **-**dan tashqari] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib: I. Biror narsa yo‘qligini, inkorni, uzoqlashishni ifodalash uchun qo‘llanadi. Mas.: **apomarkaz, aposeleniy, apostrof, apostrofa, apoxromat; apoastr** [apo...+ *yun.* astron – yulduz] – qo‘shaloq yulduz yo‘ldoshi-

ning orbita nuqtasi bo‘lib, u yulduzning bosh komponentidan ancha uzoqlashgan bo‘ladi; **apogey** [apo...+ *yun.* ge – Yer] – Yer yo‘ldoshi (Oy yoki sun’iy yo‘ldosh) ning Yer markazidan eng uzoqda joylashgan nuqtasi; **apomiksis** [apo...+ *yun.* mixis – aralashtirish, aralashma] – organizmlarning jinsiy jarayon sodir bo‘lmasdan ko‘payishi; tor ma’noda – murtakning urug‘lanmagan jinsiy hujayradan hosil bo‘lishidir. II. Biror narsadan paydo bo‘lganlikni bildiradi. Mas.: **apoferment, apofiza, apofoniya, apopleksiya; apofiz** [*yun.* apophizis – o‘simta; novda, butoq] – epifiz yonidagi suyak o‘sig‘i; mushak boshlanadigan yoki tutashadigan joy; **apogamiya** [apo...+...gamiya] – gametofitning urug‘lanmagan hujayrasidan o‘simlik hosil bo‘lishi; **aponevroz** [apo...+ *yun.* neuron – pay] – serbar va yaltiroq mushaklarni suyaklar va boshqa to‘qimalar bilan tutashtiradigan biriktiruvchi to‘qima qavati; **aposporiya** [apo...+ *yun.* spora – urug‘] – o‘simliklarda gametofitning sporalardan emas, sporofitning boshqa (vegetativ) hujayralaridan rivojlanishi, nasl hosil qilishi.

ARAXN(O)... [*yun.* arachne – o‘rgimchak] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, o‘rgimchakka aloqadorlik, o‘xshashlik ma’nolarini bildiradi. Mas.: **araxnidizm, araxnidlar, araxnodaktiliya; araxnofobiya** [araxno...+...fobiya] – o‘rgimchaklardan haddan tashqari, azobli tarzda qo‘rqish; **araxnoidit** [araxn(o)...+...oid +...it] – bosh miya va orqa miyadagi o‘rgimchak to‘risimon pardaning yallig‘lanishi; **araxnologiya** [araxno...+...logiya] – zoologiyaning o‘rgimchaksimonlar sinfini o‘rganuvchi sohasi; **araxnozlar** [araxn(o)...+...oz] – hayvonlarda parazit kanalar keltirib chiqaradigan kasalliklar.

ARBO(RO)... [*lot.* arbor – daraxt] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning daraxtga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **arbolit** [arbo...+...lit] – yog‘och, qamishning maydalangan chiqitlaridan va organik aralashmalardan tayyorlanadigan yengil beton turi; **arboretum** [*lot.* arboretum – daraxt ko‘chatlari] – *ayn.* **dendrariy; arboritsidlar** [arboro...+ ...sid] – keraksiz, begona daraxt va butalarni yo‘qotishda qo‘llanadigan kimyoviy moddalar.

AREO... [*yun.* araios – uqalanuvchan, sochiluvchan; zich bo‘lmagan, suyuq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, suyuq, sochiluvchan kabi ma’nolarni ifodalaydi. Mas.: **areometriya; areometr** [areo...+ ...metr] – suyuqlik va sochiluvchan qattiq jismlarning zichligini o‘lchaydigan asbob.

ARGENT(O)... [*lot.* argentum – kumush] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning kumushga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **argentit, argiriya, argiroz; argentometriya** [argento...+...metriya] – miqdoriy analizning kumush nitratning titrlangan eritmasidan foydalanishga asoslangan titrlash usuli; **argentum** [*lot.* argentum – kumush] – kimyoviy formulalarni o‘qishda kumushning simvoli [Ag] shunday o‘qiladi.

ARGILL(O)... [*yun.* argillos – loy, gil] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, gil, loy ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **argillofillar; argillitlar** [argill...+...it] – gil va gilsimon cho‘kindilarning zichlanishi, suvsizlanishi, sementlanishi natijasida hosil bo‘lgan, toshqotganligi va suvda bo‘kmasligi bilan gildan ajralib turadigan cho‘kma tog‘ jinslari.

ARIFMO... [*yun.* arithmos – son] – ba’zi o‘zlashma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning son, raqamga oidligini ko‘rsatadi. Mas.: **arifmetika; arifmomaniya** [arifmo...+...maniya] – ruhiy kasallik holati; ko‘zga tashlangan har bir narsani sanayverishdan iborat miyaga o‘rnashib qolgan fikr; raqam va hisoblarning miyadan ketmay doimo esda saqlanib qolishi; **arifmometr** [arifmo...+...metr] – to‘rt arifmetik amal bajariladigan mexanik hisoblash mashinasi.

...ARIUM, ...ARIY [*lot.* ari(um)] – asosan, jamlovchi ma’nodagi o‘rin-joy otlarini yasaydigan qo‘shimcha. Bunday nomlarning ayrimlari davolash bilan bog‘liq (**aerariy, fotariy, solyariy**), aksariyati esa hayvon, jonivorlar va o‘simliklarni asrash, ko‘paytirish va parvarishlash bilan bog‘liq (**akvarium, delfinariy, dendrariy, gerbariy, insektariy, okeanarium // okeanariy, rozariy, serpentariy, terrarium // terrariy, vivariy**); shuningdek, narsa, buyumlar saqlanadigan joyni, idishni ifodalovchi (**depozitariy, kolumbariy, ossuariy, relikvariy**) nomlardir. Shuningdek, **planetariy, ssenariy** kabi ilmiy-ma’rifiy muassasa va adabiy asar (janr) nomlari ham shu qo‘shimcha bilan yasalgan.

...ARIUS, ...ARIY [*lot.* ari(us)] – turli kasb egalari va ijtimoiy vazifa bajaruvchi shaxs otlarini yasovchi qo‘shimcha. Mas.: **agrariy, aktuarius, aktuariy, arxivarius, mandatariy, notarius, parlamentariy, proletariy.**

ARK... [*lot.* arcus – yoy] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib: 1) yoyga, yoysimon predmetlarga aloqadorlikni ifodalaydi: **arkatura, arkbutan; arkada** [ark...+...ada] – ustunlarga, kolonnalarga tayanib turgan arkalar qatori; 2) matematikada to‘g‘ri trigonometrik funksiyalar nomlariga

qo‘shilib, teskari trigonometrik funksiyalar nomlarini hosil qiladi. Mas.: **arksinus, arkkosinus, arksekans, arkkosekans, arkkotangens; arkkosinus** – kosinusga teskari funksiya; **arktangens** [ark...+ tangens] – tangensga teskari funksiya.

ARM... [*lot.* armare – qurollantirmoq; mustahkamlamoq, ta’minlamoq] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, qurollanish; mustahkamlash; qurol-aslaha kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **armatollar, armator; armada** [*isp.* armada – flot, eskadra < arm...+...ada] – kelishgan holda bir yo‘nalishda harakatlanayotgan kema, samolyot yoki tanklarning uncha ko‘p bo‘lmagan miqdori; **armatura** [*lot.* armature – qurol-aslaha, yarog‘-aslaha; jihoz, uskuna] – 1) apparat, mashina, inshoot va shu kabilarning asosiy qismi hisoblanmaydigan, lekin ularning normal ishlashini ta’minlaydigan yordamchi qismlari majmuyi; 2) temir-betonning metall karkasi (sinchi), chiviq sinchlari va umuman turli qurilmalar karkasi, sinchi, qobirg‘alari; **armiya** [*fr.* armee < *lot.* armo – qurollantiraman] – 1) davlat qurolli kuchlari majmuyi; torroq ma’noda – quruqlikdagi qo‘shinlar; 2) har xil qo‘shin turlaridan birining bir necha qo‘shilmasidan tuzilgan va harbiy harakatlar olib borishga mo‘ljallangan yirik operativ harbiy birlashma; 3) biron-bir umumiy belgisi bilan o‘zaro birlashgan kishilarning katta guruhi (masalan, ishsizlar armiyasi).

ARRENO... [*yun.* arrhen – erkakka xos] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, erkak, erkakka xos ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **arrenoblastoma** [arreno...+ blasto...+...oma] – tuxumdon o‘smasi; bunda ayollarga xos belgilar namoyon bo‘ladi; **arrenotokiya** [arreno...+ *yun.* tokos – urug‘, avlod, nasl] – ba’zi hasharotlarda urug‘lanmagan tuxumlardan faqat erkak zotlar paydo bo‘lishi.

ARSEN(O)... [*lot.* arsenikum – margimush, mishyak] – o‘zlashma qo‘shma va yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, ularning margimushga margimush birikmalariga aloqadorligini anglatadi. Mas.: **arsenatlar, arsenidlar, arsenitlar, arsenoferrit, arsenolit; arsenikum** [*lot.* arsenikum – margimush] – kimyoviy formulalarni o‘qishda margimush simvoli (As) aynan shunday aytiladi; **arsenopirit** [arseno...+ pirit] – margimush kolchedani – kumushrang-oq-kulrang, metallsimon yaltiroq, mo‘rt, donador mineral, asosan, margimush olishda foydalaniladi; **arsin** [ars(en)...+...in] – margimushning vodorod (gidrogen) bilan hosil qilgan birikmasi, zaharli gaz.

ARTERI(O)... [*yun.* arteria – havo kanali; qon tomiri] – o‘zlashma qo‘shma va yasama so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning arteriyalarga – yurakdan a’zo va to‘qimalarga qon tashuvchi tomirlarga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **arteriektomiya, arteriogramma, arteriolit, arterioliz, arteriometr, arterioplastika, arteriosklerоz; arteriektaziya** [arteri...+...ektaziya] – arteriyalarning kengayishi; **arteriit** [arteri...+...it] – arteriya devorining yallig‘lanishi; **arteriografiya** [arterio...+...grafiya] – arteriyalarni rentgen nurlari yordamida rasmga olish; **arteriolalar** [arterio...+ ...ola] – arteriyalarning ingichka, so‘nggi tarmoqlari; **arteriomalyatsiya** [arterio...+ *yun.* malakia – yumshoqlik, bo‘shlik] – arteriya devorlarining yumshab qolishi; **arteriospazm** [arterio...+...spazm] – arteriyalarning turli ta’sirlar natijasida qisilib torayishi; **arteriotomiya** [arterio...+...tomiya] – arteriya tomiri devorini yorib ochish.

ARTR(O)... [*yun.* arthron – bo‘g‘im] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, ularning bo‘g‘imlarga aloqadorligini anglatadi. Mas.: **artrektomiya, artritizm, artroendoskopiya, artrodez, artrografiya, artrogripoz, artroliz, artromalyatsiya, artropatiya, artroplastika, artrosinovit, artroxondrit, artroz(lar); artralgiya** [artr...+...algiya] – bir yoki bir necha bo‘g‘imlarda og‘riq sezish; **artrit** [artr...+...it] – bo‘g‘imlarning yallig‘lanishi; **artrologiya** [artro...+...logiya] – tibbiyotning bo‘g‘im tuzilishi va uning kasalliklarini o‘rganuvchi bo‘limi; **artrometr** [artro...+...metr] – bo‘g‘imlarning egilib-bukilish darajasini o‘lchash uchun ishlatiladigan asbob; **artropodlar** [artro...+...pod] – bo‘g‘imoyoqlilar – umurtqasiz hayvonlarning kichik turkumi; **artroskop** [artro...+...skop] – bo‘g‘imda operatsiya o‘tkazish yoki biopsiya oldidan uni tekshirish uchun bo‘g‘im bo‘shlig‘iga qo‘yiladigan asbob; **artrotomiya** [artro...+...tomiya] – jarrohlikda bo‘g‘imni kesib ochish.

ARX(E)..., ARXEO... [*yun.* archaios – qadimiy] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, narsa, voqea va hodisalarning qadimiy, ko‘hna ekanligini ko‘rsatadi. Mas.: **arxaika, arxaistika, arxaizatsiya, arxeologizm, arxeopteriks, arxeopteris, arxeornis, arxeozavrlar; arxaizm** [*yun.* archaios...+...izm] – eskirib, iste’moldan chiqib qolgan so‘z yoki ibora; **arxantroplar** [arx(eo)...+...antrop] – evolyutsion taraqqiyoti darajasi va madaniyati xarakteriga ko‘ra o‘zaro yaqin bo‘lgan qadimgi qazilma odamlar (pitekantrop, sinantrop va b.); **arxeografiya** [arxeo...+...grafiya] – yordamchi tarix fani: tarixiy qo‘lyozma manbalarni nashr etish usullarini ishlab chiqish va ularni tavsiflash, nashrga tayyorlash bilan shug‘ullanadi; **arxeologiya** [arxeo...+...logiya] – kishilik jamiyatining tarixiy o‘tmishini qazib

olish jarayonida topilgan moddiy yodgorliklar (mehnat qurollari, qurol-aslaha, turarjoylar, qo‘rg‘onlar, ro‘zg‘or buyumlari) asosida o‘rganadigan fan; **arxeozoy** [arxeo...+...zoy] – arxey – Yer geologik tarixidagi eng qadimgi era; tokembriyning eng yirik ikki bo‘linmasidan quyisi.

ARXE..., ARXI..., ARXO... [*yun.* arche – boshlanish, ibtido, boshlang‘ich; archi – boshlang‘ich, bosh, katta; archo – dastlabki, qadimiy] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismlari bo‘lib: 1) o‘zi qo‘shilgan so‘zdagi belgining kuchli, yuqori darajasini ko‘rsatadi. Mas.: **arxireaksion** – o‘ta reaksion; 2) boshlanish, ibtido, dastlabki, birinchi ma’nolarini bildiradi. Mas.: **arxallaksis, arxegoniy, arxenteron, arxesporiy, arxetip, arxikarp, arxinefron, arxitrav; arxespora** [arxe...+ *yun.* spora – urug‘, dona] – bir qator tuban o‘simliklarda mikro- va megasporalar rivojlanadigan hujayralar guruhi; **arximitsetlar** [arxi...+ *yun.* myketos – zamburug‘] – kam rivojlangan yoki umuman rivojlanmagan tuban mikroskopik zamburug‘lar sinfi; **arxipelag** [arxi...+ *yun.* pelagos – dengiz] – bir-biridan unchalik uzoq bo‘lmagan va, odatda, bir butun deb hisoblanadigan orollar to‘dasi; **arxozavrlar** [arxo...+ ...zavr] – mezozoy erasida juda ko‘plab yashagan umurtqali sudralib yuruvchilar kenja sinfi; 3) cherkov mansablarida birinchilik, kattalik, yuqori mavqega, lavozimga egalik ma’nolarini anglatadi. Mas.: **arxidiakon, arximandrit, arxiyerey; arxiyepiskop** [arxi...+ yepiskop] – xristianlikda oliy ruhoniylik unvonlaridan biri; katta, bosh yepiskop.

...ARXIYA [*yun.* arche – boshlanish, ibtido; ustunlik, hokimiyat] – o‘zlashgan yasama va qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, ularning hokimiyatga, boshqaruv shakliga mansubligini ko‘rsatadi. Mas.: **anarxiya, iyerarxiya, tetrarxiya; monarxiya** [mon(o)...+...arxiya] – yakkahokimlik; davlat boshqaruvi shakli; **oligarxiya** [olig(o)...+...arxiya] – 1) siyosiy hokimiyat tor doiradagi shaxslarga tegishli bo‘lgan davlat tuzumi; 2) tor doiradagi shaxslar boshqaradigan davlatning o‘zi.

ASBO..., ASBESTO... [*yun.* asbestos – so‘nmas, o‘chmas] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismlari bo‘lib, shu so‘zlarning asbestga, asbestli qo‘shilmalarga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **asbestotsement, asbokarton, asbolit, asboqog‘oz, asbotekstolit, asbotsement; asbestoz** [asbesto...+...oz] – o‘pka kasalligi – asbest bilan ishlashda odam organizmiga tushadigan asbest changi keltirib chiqaradigan pnevmokoniozning bir turi; **asboplastiklar** [asbo...+ *yun.* plastos – yasalgan] – to‘ldirgich sifatida asbest tolali materiallar qo‘shilgan plastmassalar; **asbopo‘lat** [asbo...+ po‘lat]: ***asbo-***

po'lat listlar – ikkita maxsus asbest-latek qog'ozi orasiga teshik-teshik karkas qo'yib hosil qilingan mahsulot; **asboshifer** [asbo...+ *nem.* Schiefer – shifer] – sementning asbest tolalari bilan qorishmasidan presslab tayyorlangan taxta shaklidagi tom yopish materiali.

ASKO... [*yun.* askos – qopcha, xaltacha] – o'zlashma qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, xaltacha ma'nosini ifodalaydi. Mas.: **askosporalar, askoxitozlar; askomitsetlar** [asko...+ *yun.* mykes, myketos – zamburug'] – maxsus xaltachalarda rivojlanib yetiladigan sporalar orqali ko'payuvchi zamburug'lar sinfi; xaltachali zamburug'lar.

...AST *q.* **...IST**.

ASTEN(O)... [*yun.* asthenes – kuchsiz, darmonsiz] – o'zlashma qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, bo'sh, kuchsiz kabi ma'nolarni bildiradi. Mas.: **asteniya, astenosfera, astenospermiya; astenopiya** [asten(o)...+ ...opiya] – ko'rish qobiliyatining kuchsizligi, ko'zning tez charchashi.

ASTER(O)... [*yun.* aster – yulduz, yulduzga o'xshagan] – o'zlashma yasama so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, shu so'zlarning yulduzga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **aster, asterizm, asteroteka; asteroidlar** [aster(o)...+...oid] – Quyosh atrofida elliptik orbitalar bo'ylab harakatlanuvchi, ko'pchiligi Mars va Yupiter orbitalari oralig'ida joylashgan kichik jismlar; kichik sayyoralar.

...ASTIKA *q.* **...ISTIKA**

ASTRO... [*yun.* astron – yulduz] – o'zlashma qo'shma so'zlarning birinchi qismi bo'lib, shu so'zlarning koinot va osmon jismlariga, xususan, yulduzlarga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **astra, astral, astrobiologiya, astroblastoma, astrodinamika,astrofizika,astrofotografiya,astrofotometr,astrognoziya, astroida, astroiqlim, astrokalorimetr, astrolog, astrometriya, astronavigatsiya, astronavt, astronom, astrooriyentatsiya, astroskop, astroskopiya, astrospektrograf, astrospektroskopiya; astrofobiya** [astro...+ ...fobiya] – ruhiy holat: yulduzli osmonga qarashdan, momaqaldiroq, chaqmoq kabi samoviy hodisalardan g'ayritabiiy tarzda o'lguday qo'rqish; **astrograf** [astro...+...graf] – osmon jismlarini suratga olish uchun mo'ljallangan astronomik asbob, teleskop; **astrolatriya** [astro...+ *yun.* latreia – hurmatlash, xizmat qilish] – ko'plab qadimgi xalqlarda: yulduzlarga, sayyoralarga va boshqa osmon jismlariga sig'inish; **astrologiya** [astro...+...logiya] – osmon yoritqichlarining Yerga, mamlakatlarga, jamoaga yoki ayrim kishilarga ta'sir

qilishi haqidagi ta’limot; munajjimlik; **astronavtika** [astro...+...navtika] – ba’zi g‘arb mamlakatlarida, xususan, inglizzabon davlatlarda: kosmonavtika; **astronim** [astro...+...onim] – alohida osmon jismlari – yulduzlar, sayyoralar, kometalar, asteroidlarning atoqli nomlari; **astronomiya** [astro...+...nomiya] – koinot jismlari va ular hosil qiladigan sistemalarning, umuman, koinotning paydo bo‘lishi, tuzilishi va rivojlanishi (taraqqiyoti) ni o‘rganuvchi fan.

...AT [*nem., ingl.* -at] – so‘z yasovchi qo‘shimcha: ibtidoiy jamiyatdagi boshqaruv tizimi nomlarini (**matriarxat, patriarxat**), ibtidoiy urf-odatlar nomlarini (**avunkulat, levirat, sororat**), hozirgi boshqaruv tizimiga oid nomlarni (**dekanat, direktorat, rektorat**) va boshqa turli ma’nodagi otlarni (**elektorat, plagiat, chempionat**) hosil qiladi. Kimyodagi kislotalar va ularning tuzlari nomlarini hosil qilishda ham shu qo‘shimchadan foydalaniladi: ***sulfat kislota – magniy sulfat, karbonat kislota – kaliy karbonat*** kabi.

ATERO... [*yun.* athera – bo‘tqa] – asosan, o‘zlashma tibbiy terminlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning bo‘tqa holiga kelganlik, quyuqlashish ma’nolariga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **ateromatoz**; **ateroma** [atero...+ ...oma] – terining yog‘ bezlari chiqish teshigining dimlanib, bekilib qolishi natijasida paydo bo‘ladigan xavfsiz o‘sma; **ateroskleroz** [atero...+ *yun.* sklerosis – qotish] – yog‘simon moddalar almashinuvi buzilib, ularning arteriya ichki qavatida to‘planishi va biriktiruvchi to‘qimaning o‘sib ketishi natijasida kelib chiqadigan surunkali kasallik.

...ATLON [*yun.* athlon – bellashuv, musobaqa, kurash] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi qismi bo‘lib, o‘zi qo‘shilgan so‘z (asosan, sonlar) bilan birga ayni bir paytning o‘zida bir necha sport turi bo‘yicha o‘tkaziladigan musobaqalar nomini bildiradi. Mas.: **biatlon, triatlon, tetratlon, pentatlon** (bu terminlar o‘zbek tilida tegishli ravishda *ikkikurash, uchkurash, to‘rtkurash, beshkurash* deb ham ataladi).

ATMO... [*yun.* atmos – nafas olish; bug‘lanish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, havoga, nafas olishga aloqadorlik ma’nosini anglatadi. Mas.: **atmogeokimyo; atmiatriya** [atm(o)...+...iatriya] – sof havodan nafas olish (oldirish) bilan davolash; **atmofil** [atmo(sfera)...+...fil]: ***atmofil elementlar*** – Yer atmosferasida erkin atomlar yoki molekulalar ko‘rinishida mavjud bo‘lgan kimyoviy elementlar (azot, vodorod, kislorod va inert gazlar); **atmosfera** [atmo...+...sfera] – Yer sharini o‘rab olgan va u bilan birga aylanadigan havo qobig‘i.

ATSET(O)... [*lot.* acetum – sirka] – o‘zlashma qo‘shma kimyoviy terminlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning sirka kislotaga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **atsetamid, atsetanilid, atsetil, atsetilxolin, atseton, atsetonitril; atsetaldegid** [atset...+ aldegid – vodorodsiz spirt] – suyuq, rangsiz organik birikma, sirka kislota aldegidi; **atsetatlar** [atset...+...at] – sirka kislotaning tuzlari va murakkab efirlari; **atsetilsellyuloza** [atset(il)...+ sellyuloza] – sellyulozaning murakkab atsetat efiri; sirka angidridni sellyulozaga ta’sir ettirish yo‘li bilan olinadi.

ATSID(O)... [*lot.* acidus – nordon] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, nordon, kislotali kabi ma’nolarni ifodalaydi. Mas.: **atsidofilin, atsidofillar, atsidoz; atsidimetriya** [atsid(i)...+...metriya] – kislota miqdorini aniqlashda hajmiy analizning neytrallanish reaksiyasiga asoslangan usuli; **atsidofiliya** [atsido...+...filiya] – hujayra protoplazmasi va ba’zi tuzilmalarning kislotali bo‘yoqlar bilan bo‘yalish xususiyati; **atsidofoblar** [atsido...+...fob] – yuqori kislotalilikni ko‘tara olmaydigan (yoqtirmaydigan) organizmlar; **atsidum** [*lot.* acidum] – kislota .

...ATSIYA [*fr.* -ation < *lot.* -atio] – o‘zlashma yasama so‘zlar tarkibidagi suffiks – so‘z yasovchi qo‘shimcha bo‘lib, o‘zakdan anglashilgan tushunchaga aloqador jarayon otlarini hosil qiladi. O‘zbek tilidagi **-lash, -lashish, -lanish** kabi murakkab suffikslarga to‘g‘ri keladi. Mas.: **adaptatsiya, adyektivatsiya, affiksatsiya, akkreditatsiya, alliteratsiya, amalgamatsiya, argumentatsiya, attestatsiya, defloratsiya, deformatsiya, degazatsiya, degeneratsiya, degradatsiya, dekapitatsiya, demarkatsiya, demonstratsiya, dezodoratsiya, fermentatsiya, gidratatsiya, guttatsiya, illyuminatsiya, indeksatsiya, konsentratsiya, limitatsiya, melioratsiya, motivatsiya, nominatsiya, ornamentatsiya, reabilitatsiya, registratsiya, reglamentatsiya, repatriatsiya, restavratsiya, suffiksatsiya, transliteratsiya, vaksinatsiya, vegetatsiya.**

AUDI(O)... [*lot.* audio – eshitaman] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning eshitishga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **audifon, audiokasseta, audiomagnitofon, audiometriya, audioplata, audiovizual** (ta’lim vositalari), **audiyensiya; audiogramma** [audio...+ ...gramma] – eshitish qobiliyatini audiometrda tadqiq etish natijalarining grafik tasviri; **audiologiya** [audio...+...logiya] – otorinolaringologiyaning eshitish va uning buzilishlari bilan bog‘liq holatlarni o‘rganadigan, bunday buzilishlarning diagnostikasi, oldini olish hamda ularni davolash usullarini ishlab chiqadigan sohasi; **audiometr** [audio...+...metr] – eshitish darajasini (o‘tkirligini)

aniqlaydigan asbob; **auditoriya** [audi...+ (terri)toriya] – eshitish joyi: 1) ma'ruzalar o'qiladigan, seminar va yig'ilishlar o'tkaziladigan xona; 2) ma'ruza tinglovchilar; konsert, film, radioeshittirish va teleko'rsatuvlarning tinglovchilari va tomoshabinlari.

AUKSO... AUKSANO... [*yun.* auxo – o'stiraman, auxano – o'saman] – o'zlashma qo'shma, yasama so'zlarning birinchi tarkibiy qismi bo'lib, o'sish, o'stirish ma'nolarini bildiradi. Mas.: **auksanograf, auksokardiya, auksospora, auksotroflar, auksoxromatizm; auksanometr** [auksano...+ ...metr] – o'simliklarning uzunasiga o'sishini o'lchaydigan asbob; **auksinlar** [auks(o)...+...in] – o'simliklar ishlab chiqaradigan, o'sish jarayonlarini tezlashtiradigan fitogormonlar guruhi; **auksoxromlar** [aukso...+ *yun.* chroma – rang, bo'yoq] – bo'yoqlarning bo'yalish xususiyatini kuchaytiruvchi, ya'ni ularning mato va gazlamalarga singish xususiyatini oshiruvchi kimyoviy guruhlar.

AUTO... [*yun.* authos – o'zim] – izohi haqida *q.* **avto...** Mas.: **autofagiya, autofobiya, autogen, autografizm, autoimmunitet, autoinfeksiya, autokataliz, autoliz, autorelaksatsiya, autoreproduksiya, autosadizm, autoseroterapiya, autosintez, autosomalar, autotomiya, autotopagnoziya, autotransplantatsiya, autovaksina; autizm** [aut(o)... +...izm] – kishi ruhiyatida ichki kechinmalarga g'arq bo'lib, mahdudlikning kuchayishi hamda tashqi dunyodan uzoqlashish holati; **autoekologiya // autekologiya** [auto...+ ekologiya] – ekologiyaning har xil tashqi muhit omillarining alohida turlarga va populyatsiyalarga ta'sirini o'rganadigan bo'limi; **autofagiya** [auto...+ ...fagiya] – o'z-o'zini yeyish; mas., xavfli o'sma hujayralarining o'z atrofidagi normal to'qima hujayralarini yemirib, yo'q qilib yuborishi; **autofoniya** [auto...+...foniya] – kishi ovozining o'z qulog'iga qattiq eshitilishi, kuchli rezonansi; **autogemoterapiya** [auto...+ gemo...+...terapiya] – bemorning venasidan olingan qonni uning mushaklari orasiga yoki teri ostiga yuborib, ayrim kasalliklarni davolash usuli; **autointoksikatsiya** [auto...+ *lot.* in- – ichga + *yun.* toxikon – zahar] – normal hayot faoliyatida, shuningdek, organizmning o'zida ishlab chiqarilgan zaharli moddalar bilan zaharlanish; **autoinvaziya** [auto...+ *lot.* invasio – hujum] – odam yoki hayvonlardagi gijja kasalligining uning o'ziga qayta yuqishi; **autoplastika** [auto...+...plastika] – to'qimalarni bir organizm doirasida ko'chirib o'tkazishdan iborat jarrohlik usuli; **autoskopiya** [auto...+...skopiya] – optik va aks ettiruvchi asboblar ishlatmay, tomoqni va nafas yo'llarining pastki qismlarini tekshirish; **autotransfuziya** [auto...+ transfuziya] – bemorning o'z qonini o'ziga quyish; **autotrening** [auto...+ *ingl.*

training – mashg‘ulot, mashq] – kishining o‘zini o‘zi ishontirish yordamida o‘z jismoniy va ruhiy holatiga ta’sir ko‘rsatishidan iborat psixoterapevtik usullar majmuyi.

AVAN... [*fr.* avant – oldinda; old tomon] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, old, oldingi, oldinda kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **avangardizm, avankamera, avanloja, avanport; avangard** [avan...+ *fr.* garde – qo‘riqchi] – harbiy safar vaqtida asosiy kuchlarni dushmanning to‘satdan bo‘ladigan hujumidan saqlash uchun oldinda boruvchi harbiy bo‘linma; **avanpost** [avan...+ *fr.* poste – qo‘riqlanadigan obyekt] – oldindagi qorovullik posti, dushmanga eng yaqin harbiy post; **avans** [*fr.* avance] – bo‘lajak to‘lovlar hisobidan oldindan beriladigan pul summasi; **avanssena** [avan...+ *lot.* scena < *yun.* skene – chodir, palatka] – peshsahna; sahnaning parda oldi bilan orkestr o‘rni orasidagi qismi; **avantitul** [avan...+ titul] – kitobning titul varag‘idan oldin joylashuvchi sarvarag‘i; unda nashriyot nomi, uning markasi, kitobning muallifi, nomi va boshqa ma’lumotlar beriladi; **avanzal** [avan...+ zal] – oldingi zal, asosiy zal oldidagi xona.

AVIA... [*lot.* avis – qush] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib: 1) qushlar bilan bog‘liq so‘zlar yasaydi. Mas.: **avifauna** [avi(a)...+ *lot.* Fauna – u yoki bu hayvonot majmuyi] – muayyan hududda va muhitda yoki Yer tarixining ma’lum bir davrida mavjud bo‘lgan qushlar; 2) aviatsiyaga aloqador qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi. Mas.: **aviabomba, aviadesant, aviakompas, avialiniya, aviameteostansiya, aviamodel, aviamodelizm, aviatexnika, aviatsiya, aviayo‘nalish, avionika; avial** [avia...+ al (yuminiy)] – aviatsiya alyuminiysi; alyuminiyning ba’zi metallar va metallmaslar bilan qotishmasi: undan samolyot va vertolyot qismlari tayyorlangan; **aviamayoq** [avia...+ mayoq] – uchuvchiga kechasi va tuman vaqtlarida aerodromni ko‘rsatib turuvchi signal qurilmasi; **aviapochta** [avia...+ pochta] – pochta yuklari samolyotda tashiladigan aloqa tarmog‘i; **aviasalon** [avia...+ salon] – aviatsiya texnikasining yangi namunalarini namoyish etish va sotish bilan bog‘liq tadbir; **aviashou** [avia...+ *ingl.* shou – namoyish; tomosha] – uchish apparatlari, asosan, samolyotlar ishtirokidagi bayram tomoshasi.

AVTO... [*yun.* autos – o‘zi, o‘zim] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, quyidagi ma’nolarni anglatadi: 1) o‘zim, o‘zimniki, o‘z qo‘lim bilan. Mas.: **avtofiliya, avtogenez, avtogravyura, avtokratiya, avtomatizm, avtonomiya, avtoportret, avtoreferat; avtobiografiya** [avto...+ biografiya] – biror shaxsning o‘z qo‘li bilan yozgan tarjimayi holi; **avtograf** [avto...+... graf]

– a) asarning muallif qo‘li bilan yozilgan nusxasi, asl qo‘lyozma; b) o‘z qo‘li bilan yozilgan yozuv va imzo; dastxat; 2) avtomatik, o‘zi harakatlanadigan. Mas.: **avtoblokirovka, avtodrezina, avtogreyder, avtomotrisa, avtostop, avtosug‘orgich, avtoyuklagich, avtoshturman; avtodispetcher** [avto...+ dispetcher] – boshqarilayotgan obyektning eng maqbul (optimal) ish rejimlarini hisobga olib avtomatlashtirishga imkon beruvchi yalpi boshqarish tizimi; **avtokar** [avto...+ *ingl.* car – aravacha] – o‘ziyurar aravacha; **avtopilot** [avto...+ *fr.* pilote – uchuvchi] – uchish apparatlarini avtomatik tarzda (uchuvchi ishtirokisiz) boshqarish mexanizmi; 3) o‘z-o‘zidan. Mas.: **avtoliz, avtotomiya, avtotropizm; avtogamiya** [avto...+...gamiya] – a) yuksak o‘simliklarning o‘z-o‘zidan changlanishi va urug‘lanishi; b) bir hujayrali organizmlarda ikki yadroning qo‘shilishi natijasida o‘z-o‘zidan urug‘lanish jarayoni; **avtomiksis** [avto...+ *yun.* mixis – surilish, qo‘shilish] – bir individga mansub jinsiy hujayralar (gametalar)ning qo‘shilishi, urug‘lanishi; **avtoxoriya** [avto...+...xoriya] – meva, urug‘larning tashqi omillar ta’sirisiz o‘z-o‘zidan to‘kilishi, sochilishi va tarqalishi; 4) avtomobilga oid. Mas.: **avtoban, avtobaza, avtobus, avtodrom, avtodo‘kon, avtoelektronika, avtokorxona, avtomobil, avtomotoklub, avtopark, avtopoyezd, avtopoyga, avtotransport, avtoturizm, avtozavod, avtochana; avtokolonna** [avto...+ kolonna] – a) avtomobillar kolonnasi, ketma-ket tizilib kelayotgan avtomobillar qatori; b) avtobazalarning filiali, bir necha avtomobili bo‘lgan bo‘limi; **avtokran** [avto...+ kran] – avtomobilga o‘rnatilgan ko‘targich kran; **avtol** [avto(mobil) + *lot.* ol(eum)] – avtomobil, traktor va boshqa mashinalarni moylash uchun ishlatiladigan, neftdan olinadigan mahsulot; **avtomagistral** [avto...+ *lot.* magistralis – bosh, asosiy] – o‘tkazish qobiliyati yuqori bo‘lgan katta avtomobil yo‘li; **avtoralli** [avto...+ *ingl.* rally – yig‘in, to‘planish] – maxsus tayyorlangan avtomobillarda yoki mototsikllarda ularni haydash mahorati bo‘yicha musobaqalar; **avtostrada** [avto...+ *ital.* strada – ko‘cha] – avtomobillar qatnovi uchun maxsus qurilgan va jihozlangan katta yo‘l; avtomagistral; **avtovokzal** [avto...+ vokzal] – shaharlararo avtobuslar qatnovi yo‘llarining oxirgi va oraliq nuqtalarida yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatadigan inshootlar majmuyi.

...AZA [*ingl.* -ase] – bir qator so‘zlar tarkibida so‘z yasovchi suffiks sifatida ajralib, o‘zi qo‘shilgan so‘z bilan birgalikda biologik kimyodagi jarayonlarda faol ishtirok etuvchi moddalar – fermentlar, enzimlar nomlarini bildiradi. Mas.: **amidazalar, amilazalar, degidrazalar, desmolazalar, enterokinazalar, esterazalar, fosfoferazalar, fosfolipazalar, fosforilazalar, gidrolazalar, invertazalar, izomerazalar, katalazalar, liazalar, ligazalar, nukleazalar, oksidazalar, oksidoreduktazalar, proteazalar, saxarazalar, sintetazalar, transferazalar** va hokazo.

...AZM *q.* **...IZM**

AZO..., AZOT(O)... [“azot” so‘zidan < a...+ *yun.* zoos – tirik, jonli] – kimyoviy birikmalar nomlarining tarkibiy qismlari bo‘lib, azot va uning birikmalariga tegishli degan ma’noni anglatadi. Mas.: **azobirikmalar, azobo‘yoqlar, azoguruh, azoksibirikmalar, azotfiksatorlar, azotfiksatsiya, azotogen, azoturiya; azobenzol** [azo...+ benzol] – sodda aromatik azobirikma, suvda erimaydigan sarg‘ish-qizil rangli kristall; **azotemiya** [azot...+...emiya] – qonda oqsil almashinuvi natijasida azotli mahsulotlarning ortiqcha konsentratsiyasi; **azotobakterin** [azot(o)...+ bakteriya] – tarkibida mikroorganizmlar (azotobakterlar) bo‘lgan o‘g‘it; **azotollar** [azot...+ *lot*. ol(eum)] – azobo‘yoqlar olishda, gazlamalarni bo‘yashda ishlatiladigan qattiq, rangsiz moddalar; **azotoreya** [azot(o)...+...reya] – azotli birikmalarning najas va siydik bilan ko‘p miqdorda ajralishi.

B

BAKTERI(O)... [*yun.* bacterion – tayoqcha] – o‘zlashma qo‘shma va yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning faqat mikroskop bilan ko‘rish mumkin bo‘lgan, bir hujayrali mikroorganizmlarga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **bakterial, bakteriofagiya, bakterioliz, bakteriolizin, bakterioskopiya, bakteriostaz, bakterioxlorofillar, bakteroidlar; bakteriofaglar** [bakterio...+...fag] – bakteriyalarni yutib, yemirib, yo‘q qilib yuboruvchi viruslar; **bakteriofobiya** [bakterio...+...fobiya] – qo‘rquv holati; bunda bemor o‘zini go‘yo mikroblar bilan zararlanib qolayotgandek yoki ular ta’sirida turli kasalliklarga duchor bo‘layotgandek sezadi; **bakteriologiya** [bakterio...+...logiya] – mikrobiologiyaning bakteriyalarni va ular bilan bog‘liq jarayonlarni o‘rganuvchi sohasi; **bakteriozlar** [bakterio...+...oz] – o‘simliklarda bakteriyalar tufayli paydo bo‘ladigan yuqumli kasalliklar; **bakterioo‘g‘itlar** [bakterio...+ o‘g‘it] – qishloq xo‘jalik ekinlari uchun foydali mikroorganizmlari bo‘lgan preparatlar; **bakteritsidlik** [bakteri…+…sid] – fizik, kimyoviy va biologik omillarning mikroorganizmlarni o‘ldira olish xususiyatlari; **bakteriuriya** [bakteri...+...uriya] – siydikda mikroorganizm (bakteriya) larning mavjudligi; **bakteriyemiya** [bakteri...+...emiya] – bakteriyalarning turli yo‘llar bilan odam organizmiga kirib, qonga o‘tishi.

BALAN(O)... [*yun.* balanos – jinsiy olat boshchasi] – ba’zi o‘zlashma tibbiy terminlar tarkibida jinsiy olat boshchasi ma’nosini bildiradi. Mas.: **balanoglasslar, balanopostit, balanorragiya, balanotsele; balanit** [balan(o)...+ ...it] – jinsiy olat boshchasi terisining yallig‘lanishi (fimozda kuzatiladi); **balanoblenoreya** [balano...+ blenoreya] – so‘zak (gonoreya) natijasida paydo bo‘luvchi balanit; **balanoforalar** [balano...+ *yun.* phoros – eltuvchi, tashuvchi] – ikki pallali o‘simliklar ildizida parazitlik qiladigan, mevasi yong‘oqsimon yoki danaksimon etdor o‘tlar.

BALLIST(O)... [*lot.* ballista < *yun.* ballo – otaman, tashlayman] – o‘zlashma yasama so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, tashlamoq, otmoq, irg‘itib yubormoq kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **ballistika** [ballist...+...ika] – artilleriya snaryadlari, boshqarilmaydigan raketalar, mina, bomba, o‘q va shu

kabilarning harakatini o‘rganadigan fan; **ballistitlar** [ballist...+...it] – tutunsiz alangalanuvchi, nitroglitserinli poroxlar; **ballistofobiya** [ballisto...+...fobiya] – bomba, snaryad yoki o‘q tegib shikastlanishdan qo‘rqish; **ballistokardiografiya** [ballisto...+ kardio...+...grafiya] – yurakning gemodinamik faoliyatini tekshirish usuli; **ballistokardiogramma** [ballisto...+ kardio...+...gramma] – yurakning qisqarishi va yirik tomirlarda qonning harakatlanishi natijasida odam tanasida hosil bo‘ladigan mexanik harakatni qayd qiladigan egri chiziq.

BALNEO... [*lot.* balneum – vanna, hammom; cho‘milish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning shifobaxsh mineral suvlarga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **balneoreaksiya, balneoshifoxona; balneologiya** [balneo...+...logiya] – kurortologiyaning tabiiy va sun’iy mineral suvlar hamda shifobaxsh balchiqlarning paydo bo‘lishi va fizik-kimyoviy xossalarini, ularning organizmga ta’sirini o‘rganadigan, ulardan davolash-profilaktika maqsadida foydalanish usullarini ishlab chiqadigan bo‘limi; **balneoterapiya** [balneo...+...terapiya] – bemorlarni tabiiy yoki sun’iy tayyorlangan mineral suvlar va balchiqlar bilan, shuningdek, mineral suvli vanna va basseynlarda cho‘miltirish bilan davolash; **balneotexnika** [balneo...+ texnika] – sanitariya texnikasining balneologik ma’lumotlarga asoslanib, mineral suvlarni tugab qolish hamda ifloslanishdan saqlash uchun zarur sharoit tug‘dirish va ulardan davolash-profilaktika maqsadida samarali foydalanish usullarini ishlab chiquvchi bo‘limi.

BARI... [*yun.* barys – og‘ir] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning bosimga, og‘irlikka aloqadorligini bildiradi. Mas.: **barionlar** [bari…+ *fr.* on – kichraytiruvchi qo‘shimcha] – og‘ir elementar zarralar guruhi; **barisfera** [bari…+…sfera] – Yer sharining taxminan 3400 – 3500 kilometr radiusli og‘ir markaziy yadrosi; **baristeziya** [bari…+...ezteziya] – o‘zini vazmin, og‘ir his etish; **barit** [bari...+...it] – tabiatda har xil (tiniq, sariq, qo‘ng‘ir, kulrang, qora) rangda uchraydigan, sulfatlar sinfiga mansub mineral; **bariton** [bari…+…ton] – erkak xonandalarning balandligi jihatidan bas bilan tenor oralig‘idagi ovoz turi; **baritsentr** [bari…+…sentr] – og‘ir jismlarning geometrik markazi; **bariy** [*lot.* Baryum < *yun.* barus – og‘ir] – Mendeleyev davriy sistemasining II guruhiga mansub kimyoviy element, kumushrang-oq metall.

BARO... [*yun.* baros – og‘irlik; bosim] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning bosim, og‘irlik ma’nolarida qo‘llanuvchi birinchi qismi. Mas.: **barogramma, barolit, barometriya, baroretseptorlar, baroskop, barotermograf, baro-**

tit; barofobiya [baro...+...fobiya] – miyaga o‘rnashib qolgan qo‘rquv; og‘ir yuk ko‘tarishdan qo‘rqish; **barograf** [baro...+...graf] – atmosfera bosimi o‘zgarishlarini avtomatik tarzda yozib boruvchi asbob; **barokamera** [baro...+ *lot.* camera – gumbaz; xona] – barometrik bosimni sun’iy ravishda o‘zgartirishga imkon beruvchi germetik kamera; **barometr** [baro...+...metr] – atmosfera bosimini o‘lchashda ishlatiladigan asbob; **baroterapiya** [baro...+...terapiya] – davolash maqsadida (odatdagiga nisbatan) yuqori yoki past havo bosimidan foydalanish; **barotravma** [baro...+ *yun.* trauma – yara, shikastlanish] – atmosfera bosimining keskin o‘zgarishi (pasayishi yoki ko‘tarilishi) natijasida quloq, o‘pka va boshqa ba’zi a’zolarning shikastlanishi; **baroxoriya** [baro...+ ...xoriya] – meva va urug‘larning o‘z og‘irligi ta’sirida to‘kilishi, tarqalishi.

BATI..., **BATO...** [*yun.* bathys – chuqur] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning chuqurlikka aloqadorligini bildiradi. Mas.: **batial, batigramma, batiplan, batiplankton, batitermograf, batitermometr; batibiontlar** [bati...+...biont(lar)] – ulkan chuqurliklarda yashovchi suv jonivorlari; **batimetriya** [bati...+...metriya] – xilma-xil qurilmali maxsus asboblar yordamida suv havzalari chuqurligini o‘lchash; **batisfera** [bati...+ ...sfera] – dengizning chuqur yerlarida tadqiqot ishlari olib borishda ishlatiladigan sharsimon po‘lat kamera; **batiskaf** [bati...+...skaf] – dengiz va okeanlar tubida okeanografik va boshqa tadqiqotlar olib borish uchun mo‘ljallangan o‘ziyurar apparat; **batofobiya** [bato...+...fobiya] – chuqurliklarga tushib ketish yoki suvga cho‘kib ketishdan qo‘rqish; **batolit** [bato...+...lit] – chuqurlikda yotuvchi ulkan magmatik tog‘ jinslari majmuyi; **batometr** [bato...+ ...metr] – suvning kimyoviy va fizikaviy xossalarini tekshirish, undagi organik hamda noorganik qo‘shilmalarni aniqlash maqsadida tabiiy suv havzalaridan muayyan chuqurlikda namuna oladigan asbob.

BATSILL(O)... [*lot.* bacillum – tayoqcha] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, tayoqchasimon mikroorganizm (bakteriya) ma’nosini bildiradi. Mas.: **batsilloterapiya** [batsillo...+...terapiya] – o‘ldirilgan va yarim jonsizlantirilgan bakteriyalarni inyeksiya qilib, ba’zi bir kasalliklarni davolash; **batsilluriya** [batsill...+...uriya] – siydikda mikroorganizmlarning bo‘lishi.

BAZI..., BAZO... [*yun.* basis – asos; yurish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib: I. Asos, negiz ma’nolarini bildiradi. Mas.: **bazidiya, bazipetal** (rivojlanish), **bazis, bazitlar; bazigamiya** [baz(i)...+...gamiya] – a’zoning tub qismida urug‘lanish, otalanish; **bazofiliya** [bazo...+...filiya] –

1) organizm hujayra va to‘qimalarining ishqoriy bo‘yoqlarda bo‘yalish xususiyati; 2) qonda bazofillarning ko‘payib ketishi; **bazofillar** [bazo...+...fil] – donador leykotsitlarning bir shakli bo‘lib, ularning hujayralari sitoplazmasida ishqoriy xossali bo‘yovchilar bilan bo‘yalishga moyil donalar bo‘ladi. II. Yurishga oidlikni bildiradi. Mas.: **bazofobiya** [bazo...+...fobiya] – yurishdan, oyoqda turishdan qo‘rqish.

BEL..., BELL... [*fr.* belles – go‘zal yoki *fr., ital.* bel – go‘zal, ko‘rkam < *lot.* bellus – go‘zal] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning go‘zallikka oidligini bildiradi. Mas.: **belletrist, belveder; belflyor** [bel...+ *fr*. fleur – gul, chechak] – kechpishar olma navi; **belkanto** [*ital.* bel canto – go‘zal kuylash] – italyan opera san’atida vokal ijrochilikning yengil va nafis kuylash uslubi; **belladonna** [*ital.* bella donna – go‘zal xonim] – ituzumdoshlar oilasiga mansub, tarkibida atropin va boshqa alkaloidlar bo‘lgan zaharli ko‘p yillik dorivor o‘t o‘simlik; **belletristika** [*fr.* belles – go‘zal, nafis + lettres – ijodiyot +...istika] – 1) badiiy adabiyot; 2) yuksak san’at namunalariga zid ravishda aysh-ishratni aks ettiruvchi, vaqtichog‘lik, ermak uchun yozilgan yengil-yelpi adabiyot mahsuli; **belyetaj** [bel...+ *fr.* etage – qavat] – teatrlarda amfiteatr bilan parter ustiga quriladigan, o‘rindiqlar qo‘yilgan aylana peshayvon.

BENE... [*lot.* bene – yaxshi, durust; yaxshilik, manfaat] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, biror kimsa yoki narsa uchun naf, manfaat, imtiyoz degan ma’nolarni bildiradi. Mas.: **benemitsin; benefis** [*fr.* benefice – foyda, daromad < *lot.* bene] – tushumi to‘la yoki qisman teatr jamoasi yoki ayrim aktyorga to‘lanadigan spektakl; **benefitsiant** [benefis +...ant] – foydasi, manfaati uchun yoki sharafiga benefis uyushtiriladigan artist yoki teatr xodimi; **benefitsiar** [*lot.* beneficiarius – imtiyozlardan foydalanuvchi < bene – manfaat, foyda] – bankka pul qo‘ygan omonat egasi yoki uning merosxo‘ri, depozit yoki omonat sertifikati egasi; **benefitsiy** [*lot.* beneficium – yaxshilik, xayr-saxovat] – 1) ilk o‘rta asrlarda G‘arbiy Yevropada qirol yoki yirik feodal tomonidan vassalga muayyan ishni bajarish, ko‘pincha harbiy xizmatni o‘tash sharti bilan umrbod in’om qilingan yer; 2) katolik cherkovida ruhoniy tomonidan mukofot sifatida olingan daromadli lavozim yoki yer-mulk.

BENZO... [*fr.* benzine < *a*. لبان جاوی (lubon joviy) – Yava xushbo‘y shirasi] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, benzin ma’nosida ishlatiladi (“benzo...” elementli terminlarning deyarli barchasi rus tili negizida yasalgan, ular faqat MDH davlatlaridagina xalqaro deb hisob-

lanishi mumkin). Mas.: **benzofiltr, benzomer, benzomotor, benzonasos, benzotsisterna; benzobak** [benzo...+ bak] – benzin baki – texnika va transport vositalarining benzin bilan to‘ldiriladigan qismi; benzin quyiladigan bak; **benzokolonka** [benzo...+ *lot.* columna – ustun(cha)] – avtotransport vositalariga benzin quyishga mo‘ljallangan ustunsimon qurilma; nasosli stansiya; **benzovoz** [benzo...+ *rus.* воз(ить) – tashimoq] – benzin tashishga moslangan, benzin tashuvchi mashina.

BETA... [*yun*. beta – yunon alifbosidagi ikkinchi harf (β) ning nomi] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib: 1) moddaning muayyan holatini bildiruvchi, 2) ma’lum so‘zning, tushunchaning beta-zarralarga yoki beta-nurlarga aloqadorligini bildiradigan fizik terminlar hosil qiladi. Mas.: **beta-defektoskopiya, beta-spektrometr, beta-spektroskopiya, beta-temir; beta-nurlar** – beta-yemirilishda radioaktiv moddalar chiqaradigan beta-zarralar oqimi; **betaterapiya** [beta...+...terapiya] – kasallik tufayli organizmning o‘zgargan to‘qimalarini beta-nurlar yordamida davolash usuli; **betatron** [beta...+...tron] – elektronlar (beta-zarralar) ning siklik tezlatkichi; bunda elektronlar o‘zgaruvchan magnit maydoni hosil qiladigan uyurmaviy elektr maydoni tomonidan tezlashtiriladi; **beta-yemirilish** – atom yadrolarining elementar zarralar – elektron yoki pozitron chiqarib, radioaktiv yemirilishi, parchalanishi; **beta-zarralar** – beta-yemirilishda radioaktiv yadrolardan ajralib chiqadigan elementar zarralar – elektronlar va pozitronlar.

BI... [*lot.* bi – ikki, bis – ikki marta] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, ikkita predmet yoki ikki xil belgi ma’nolarini bildiradi. Mas.: **bikameralizm, bikarbonatlar, bilabial** (undosh), **bilateral** (undosh), **bimetallizm, bipedalizm, bipolyar** (hujayralar), **biseksualizm, bisulfatlar, bisulfitlar, bitseps, bivalentlar, bixromatlar; biatlon** [bi...+...atlon] – qishki sport turi: chang‘ida yugurish va ma’lum marralarga yetib kelib, miltiqdan otish, ya’ni ikki xil sport turida (chang‘i poygasi va otishda) musobaqalashish; **bigamiya** [bi...+...gamiya] – ikkixotinlilik, ikkinikohlilik; **bilingvizm** [bi...+ *lot.* lingua – til +...izm] – ikkitillilik; ikki tildan baravar foydalanish, ikki tilni yaxshi bilish; **bimetall** [bi...+ metall] – turli xil metallar yoki qotishmalar (mas., po‘lat bilan alyuminiy) ning ikki qatlamidan iborat material, buyum; **binom** [bi...+ *lot.* nomen – nom] – ikkihad; ikki algebraik ifodaning yig‘indisi yoki ayirmasi; **bipatrid** [bi...+ *yun.* patris – vatan] – ayni bir paytda ikki yoki undan ortiq davlat fuqarosi bo‘lgan shaxs; **biplan** [bi...+...plan) – ikkita ustma-ust joylashgan qanotga ega bo‘lgan samolyot.

BIBLIO... [*yun.* biblion – kitobcha < biblos – kitob] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning kitobga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **bibliofiliya, bibliograf, bibliolog, biblioman, biblionim, bibliya; bibliobus** [biblio...+...bus] – avtobusdagi ko‘chma kutubxona; kitob tashuvchi avtobus; **bibliofil** [biblio...+...fil] – kitoblar shinavandasi, kitoblarni qadrlovchi; nodir va kamyob kitoblarni to‘plovchi; **bibliografiya** [biblio...+...grafiya] – 1) bosma va qo‘lyozma asarlarni hisobga olish, targ‘ib qilish, ularning batartib ko‘rsatkichlarini tuzish, ular haqida axborotnomalar tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi ilmiy va amaliy faoliyat sohasi; 2) biror mavzu yoki sohaga oid ilmiy asarlar, manbalar, kitoblarning to‘liq yoki tanlama ro‘yxati; **bibliologiya** [biblio...+...logiya] – kitobshunoslik – madaniyat hodisasi hisoblangan kitoblar, bosma asarlar haqidagi kompleks fan; **bibliomaniya** [biblio...+...maniya] – yaxshi-yomonining farqiga bormasdan, har qanday kitobni to‘playverishga ishqibozlik; **biblioteka** [biblio...+...teka] – 1) kitoblar to‘plami; 2) kitoblar saqlanadigan joy; kutubxona; **biblioterapiya** [biblio...+...terapiya] – kitob (o‘qish) bilan davolash, kitob terapiyasi; bunda kasalni unga kitoblar, she’rlar va shu kabi bosma matnlarni o‘qitish, o‘qib berish (eshittirish) yordamida davolash ko‘zda tutiladi.

BILI... [*lot.* bilis – o‘t, safro] – o‘zlashma yasama so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarning o‘t (safro) ga aloqadorligini anglatadi. Mas.: **biliotoraks** [bili(o)...+ *yun.* thorax – ko‘krak; ko‘krak qafasi] – plevra bo‘shlig‘ida o‘t (safro) bo‘lishi; **bilirubin** [bili...+ *lot.* ruber – qizil +...in] – o‘t (safro) ning gemoglobin parchalanishidan vujudga keladigan qizil-qo‘ng‘ir pigmenti; **biliverdin** [bili...+ *fr.* vert (verd) – yashil] – inson va go‘shtxo‘r hayvonlar o‘ti (safrosi) ning yashil pigmenti.

BIN(I)... [*lot.* bini – juft, ikkita] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, qo‘shaloq, ya’ni ikkita qismdan iborat degan ma’noni bildiradi. Mas.: **binar** [*lot.* binarius – ikki, qo‘sh, qo‘shaloq] – ikki qismdan iborat: ***binar nomenklatura*** – hayvonlar, o‘simliklar va mikroorganizmlarning ikkita lotincha so‘z bilan ifodalanishi; bunda birinchi so‘z turkumni, ikkinchi so‘z turni bildiradi; chunonchi, Tulipa ferganica – Farg‘ona lolasi; ***binar qotishmalar*** – ikki jinsdagi metall va qotishmalarning birikishidan hosil bo‘lgan qotishmalar; **binaural** [bin(i)...+ *lot.* auris – quloq]: ***binaural effekt*** – odam yoki hayvonlarning tovush chiqqan tomonni har ikkala qulog‘i bilan aniqlay olish qobiliyati; **binokl** [bin(i)...+ *lot.* oculus – ko‘z] – uzoqdagi narsalarni ikkala ko‘z bilan ko‘rish imkonini beradigan optik asbob; **binokulyar** [*fr*. binocu-

laire < *lot.* bini – ikki + oculus – ko‘z] – ikki ko‘zli: ***binokulyar lupa*** – mayda obyektlarni bir vaqtning o‘zida har ikkala ko‘z bilan ko‘rish uchun mo‘ljallangan optik moslama.

BIO... [*yun.* bios – hayot] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning hayotga, hayotiy jarayonlarga hamda biologiyaga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **bioakustika, biodoza, bioenergetika, biofizika, biogenez, biogeotsenologiya, biograf, bioindikator, biokataliz, biokatalizator, biolaboratoriya, biomassa, biometriya, biomexanika, bionavigatsiya, bionika, biooptika, biopolimerlar, bioritmlar, biotexniya, biotexnologiya, biotsenoz, bioxinol; biobibliografiya** [bio...+ bibliografiya] – shaxsiy bibliografiya: bosma asarlar haqidagi ma’lumotlar ularning mualliflari biografiyasi va muallifga bag‘ishlangan adabiyotlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan birgalikda beriladi; **bioetika** [bio...+ *lot.* ethica < *yun.* ethos – urf-odat] – hozirgi zamon etikasining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u inson hayotiga eng oliy axloqiy qadriyat sifatida qaraydi; **biofiltr** [bio…+ *fr.* filtre < *lot.* filtrum – kigiz, namat] – oqova suvlarni biologik yo‘l bilan tozalaydigan inshoot; **biogeografiya** [bio...+ geografiya] – tirik organizmlar jamoasi va ular komponentlarining Yer yuzida tarqalishi qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan; **biografiya** [bio…+…grafiya] – biror kishining hayotiy yo‘li va uning tavsifi; **bioiqlimshunoslik** [bio…+ iqlimshunoslik] – iqlimshunoslikning odam faoliyati va sog‘ligiga, hayvonlar va o‘simliklar rivojiga iqlimning ta’sirini o‘rganuvchi sohasi; **biokibernetika** [bio…+ kibernetika] – tirik organizmlarda axborotlarni boshqarish va uzatish (tarqatish) ning umumiy qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan sohasi; **biokimyo** [bio...+ kimyo] – tirik organizmlarning kimyoviy tarkibi va ularda sodir bo‘ladigan kimyoviy jarayonlar haqidagi fan; **biokompyuter** [bio...+ kompyuter] – o‘ta tezkor va katta integratsiya koeffitsiyentiga ega bo‘lgan biomikrosxemalar asosida yaratilgan elektron-hisoblash mashinasi; **biolitlar** [bio...+...lit] – minerallar va tog‘ jinslari: asosan, hayvon va o‘simliklar qoldiqlaridan iborat; **biologiya** [bio...+...logiya] – tirik tabiat haqidagi fanlar majmuyi; **biolokatsiya** [bio...+ *lot.* location – joylashish, o‘rnashish] – hayvonlarning biror-bir obyekt yoki muayyan makondagi o‘z holatini aniqlay olish qobiliyati; **biomaydon** [bio...+ maydon] – biologik ta’sir o‘tkazish doirasi, maydoni; **biometriya** [bio…+ …metriya] – biologiyaning miqdoriy biologik tajribalarni rejalashtiruvchi va ularning natijalarini matematik statistika usullari bilan ishlab tayyorlash; **biopreparatlar** [bio…+ preparat] – yuqumli kasalliklarga qarshi emlash uchun qo‘llanadigan biologik preparatlar; **biopsiya** [bio...+...opsiya] – davolash va kasallikni aniqlash maqsadida tirik odamning biror kasallangan

to‘qima yoki a’zosidan bir qismini kesib olib, mikroskopda tekshirish; **bioqurol** [bio...+ qurol] – mikroorganizmlar, hasharotlar vositasida yuqumli kasalliklar tarqatadigan yalpi qirg‘in quroli; **bioquvvat** [bio...+ quvvat] – ta’sir etish kuchiga ega bo‘lgan biologik energiya; **biosfera** [bio...+...sfera] – Yerning tirik organizmlar tarqalgan qobig‘i (qismi); **biosintez** [bio...+ *yun.* synthesis – birikish, biriktirish, qo‘shish] – tirik organizmda yoki undan tashqarida fermentlar ta’sirida birmuncha sodda birikmalardan organik birikmalar hosil bo‘lishi; **biotexnologiya** [bio...+ texnologiya] – qishloq xo‘jaligi, sanoat va tibbiyotning turli sohalarida tirik organizm va biologik jarayonlardan foydalanadigan sanoat usullari majmuyi; **biotop** [bio…+…top] – quruqlik yoki suv havzasining hayvonlar, o‘simliklar va mikroorganizmlar yashashi uchun bir xil, teng sharoitlar bo‘lgan maydoni; **bioo‘g‘it** [bio...+ o‘g‘it] – yerning kuchini, hosildorligini orttirish uchun solinadigan, tarkibida o‘simliklar uchun zarur biologik elementlar bo‘lgan moddalar.

...BIONT(LAR) [*yun.* bion (biontos) – yashovchan, yashovchi; tirik] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi qismi bo‘lib, o‘zi qo‘shilgan so‘z bilan “evolyutsiya jarayonida muayyan muhitda yashay olishga o‘rganib (moslashib) qolgan organizmlar” degan ma’nodagi so‘zlar hosil qiladi va bu so‘zlar asosan ko‘plik shaklida qo‘llanadi. Mas.: **aerobiont, batobiont, evribiont, gidrobiont, gnotobiont, katarobiont, oksibiont, reobiont, saprobiont, stenobiont; amfibiont** [amfi...+...biont] – ikki xil muhitda (yerda va suvda) yashashga o‘rgangan organizm; **galobiont** [galo...+...biont] – o‘ta sho‘r suv havzalarida yashaydigan tirik organizm; **potamobiont** [potamo...+...biont] – chuchuk oqar suvlarda – daryo va jilg‘alarda yashovchi organizm; **troglobiontlar** [*yun.* trogle – in, uya; g‘or +...biont] – inlarda, g‘orlarda, tog‘ jinslari yoriqlarida doimiy yashovchi ko‘plab sutemizuvchilar, umurtqasiz hayvonlar, g‘or baliqlari, dumli amfibiyalar.

...BIOZ [*yun.* bios – hayot] – o‘zlashma yasama so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, hayotga, hayotiy jarayonlarga aloqadorlikni bildiradi. Mas.: **anabioz** [ana...+...bioz] – ba’zi bir tirik organizmlarda hayotiy jarayonlarning noqulay sharoitlarda sekinlashish yoki deyarli to‘xtab qolish holati (mas.: ba’zi hasharot va jonivorlarning qishda uxlashi); **metabioz** [meta...+...bioz] – o‘zaro yashovchi mikroorganizm (simbioz) larning bir turi; bunda bir turning hayotiy faoliyat mahsulotlari ikkinchisi uchun oziq manbayi bo‘lib xizmat qiladi; **parabioz** [para...+...bioz] – 1) tirik to‘qimani haddan ziyod qo‘zg‘atish natijasida unda qo‘zg‘aluvchanlik va o‘tkazuvchanlikning pasayishi; 2) ikki, ba’zan uchta hayvonni qon aylanish va limfa sistemalari

orqali bir-biriga sun’iy ulash, chatishtirish: biologik tajribalarda ulangan organizmlar a’zo va to‘qimalarining bir-biriga ta’sirini o‘rganish maqsadida qo‘llanadi; **simbioz** [*yun.* sym – birga, birgalikda +...bioz] – har xil turga mansub ikki organizmning bir-biriga foyda keltirib birga yashash shakli.

BLAST(O)... [*yun.* blastos – o‘simta, murtak, novda] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, biologiya va tibbiyot sohalarida pusht (embrion) ga aloqadorlikni bildiradi. Mas.: **blastema, blastoma, blastomatoz, blastomitsetlar, blastopor, blastotsel, blastotsista, blastotsit, blastula, blastulyatsiya; blastoderma** [blasto...+...derma] – blastula (murtak) devorini hosil qiluvchi va blastotselni (birlamchi tana bo‘shlig‘ini) o‘rab turuvchi, bir yoki bir necha qavat bo‘lib joylashgan hujayralar yoki maydalanmasdan qolgan sariq modda; **blastogenez** [blastoma...+...genez] – organizmning vujudga kelishi, o‘sishi, taraqqiy etishi, rivojlanishi; **blastoliz** [blasto...+...liz] – pusht moddalarining erib ketishi; **blastoma** [blastoma...+...oma] – haqiqiy o‘sma, mustaqil rivojlanish xususiyatiga ega o‘sma; **blastomerlar** [blasto...+ ...mer] – ko‘p hujayrali hayvonlarda urug‘langan tuxumhujayralarning bo‘linib maydalanishi jarayonida hosil bo‘ladigan hujayralar; **blastomikoz** [blasto...+...miko(z)] – hayvonlar terisi va ichki a’zolarida uchraydigan, achitqisimon parazit zamburug‘lar – blastomitsetlar qo‘zg‘atadigan surunkali yuqumli kasallik; **blastosporalar** [blasto...+ *yun.* spora – urug‘, murtak] – blastomitsetlarning (kurtaklanuvchi zamburug‘larning) kurtaklari.

...BLAST [*yun.* blastos – o‘simta, murtak, hujayra] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, o‘simta, murtak; otalanish hujayrasi, pusht qatlami kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **angioblast, gistioblast, granuloblast, karioblast, limfoblast, makroblast, mezoblast, mioblast, miyeloblast, monoblast, nevroblast, oligoblast, plazmoblast, poliblast, protoblast, sideroblast, spermatoblast, trofoblast; fibroblast** [fibro...+ ...blast] – umurtqali hayvonlar va odamda biriktiruvchi to‘qimaning kollagen hosil qiluvchi hujayrasi; **galaktoblastlar** [galakto...+...blast] – sut bezi bo‘lakchalarining sut ishlovchi tanachalari; **idioblastlar** [idio...+...blast] – ayni bir to‘qimaning boshqa hujayralaridan o‘zining shakli, tuzilishi yoki tarkibi jihatdan farqlanuvchi o‘simlik hujayralari; **megaloblast** [megalo...+ ...blast] – homilaning ona qornidagi boshlang‘ich rivojlanish davrida paydo bo‘ladigan yosh eritrotsit; **melanoblast** [melano...+...blast] – terining epidermis qavatidagi pigment (melanin) ishlab chiqadigan hujayra; **nematoblastlar** [nemat(o)...+...blast] – spermatozoidlarning boshlang‘ich hujayralari; **ooblast** [oo...+...blast] – tuxumdonni hosil qiluvchi hujayra; **osteoblast** [os-

teo…+…blast] – suyak to‘qimasini hosil qiluvchi boshlang‘ich suyak hujayra; **sarkoblastlar** [sarko…+…blast] – yosh mushak hujayralari; yangi mushak tolalari shulardan hosil bo‘ladi; **xondroblast** [xondro…+…blast] – tog‘ay moddasini hosil qiladigan embrional hujayra.

BLEFAR(O)... [*yun.* blepharon – qovoq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning ko‘z qovog‘iga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **blefaroateroma, blefarofimoz, blefarokonyunktivit, blefaropioreya, blefaroplast, blefarorafiya, blefarostenoz, blefaroxalazis; blefaradenit** [blefar(o)...+ aden...+…it] – ko‘z qovog‘i milki bezlarining yallig‘lanishi; **blefarit** [blefar...+...it] – ko‘z qovoqlari cheti (qirg‘og‘i) ning yallig‘lanishi; **blefaroplastika** [blefaro...+...plastika] – ko‘z qovog‘i va uning ayrim qismlaridagi nuqson yoki chandiqlarni yo‘qotish maqsadida o‘tkaziladigan operatsiya; **blefaroplegiya** [blefaro...+...plegiya] – ko‘z qovog‘i falajlanishining bir turi; **blefaroptoz** [blefaro...+...ptoz] – ko‘z qovog‘ining osilib qolishi; **blefarospazm** [blefaro...+...spazm] – ko‘z aylana mushaklarining – qovoqlarning spastik qisqarishi, tortishishi; **blefarostat** [blefaro...+...stat] – qovoqlarni qimirlatmay ochib turadigan asbob; **blefarotomiya** [blefaro...+...tomiya] – qovoqlarning chekka birikmasini kesib, ular o‘rtasidagi oraliqni kengaytirish.

BLENN(O)... [*yun.* blennos – shilliq, shilimshiq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning shilimshiq moddaga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **blennoreya** [blenno...+...reya] – ko‘z shilliq pardasi (konyunktiva) ga gonokokklar tushishi natijasida uning o‘tkir yiringli yallig‘lanishi; **blennorragiya** [blenno...+...rragiya] – ba’zi a’zolardan shilliq aralash yiring ajralishi; **blennotoraks** [blenno...+ *yun.* thorax, thorakos – ko‘krak] – nafas yo‘llari shilliq qavatining kataral yallig‘lanishi.

BLITS... [*nem.* Blitz – chaqmoq, yashin] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, kuchli tezlik, tez o‘tadigan, bir on kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **blitsintervyu** [blits...+ *ingl.* interview – uchrashuv] – qisqa, bir onli, qiziqarli suhbat; **blitskrig** [blits...+ *nem.* Krieg – urush] – yashin tezligidagi urush; **blitssavol** [blits...+ savol] – uzoq o‘ylashga vaqt berilmaydigan savol; **blitsturnir** [blits...+ *nem.* Turnier – sport musobaqasi] – tez o‘tkaziladigan shaxsiy yoki jamoaviy sport musobaqasi (mas.: tez muddatda, qoidaga binoan, 5 minutda o‘tkaziladigan shaxmat musobaqasi).

BLOK... [*ingl.* block – blokirovka] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, to‘sish, to‘xtatish, ya’ni blokirovka ma’nolarini bildira-

di. Mas.: **blok-apparat** [blok...+ apparat] – temir yo‘l stansiyasida yoki stansiyalararo blokirovka sistemasini boshqaradigan apparat; **blok-kontakt** [blok...+ *lot.* contactus – tutashish] – avtomatik boshqarish tizimi elektr apparatlari, relelari va kontaktlarida qo‘llanadigan va kichik qiymatli boshqarish toklariga mo‘ljallangan elektr kontakt; **blokpost** [blok...+ post] – 1) temir yo‘l uchastkasida stansiyalararo blokirovka uskunalari bilan jihozlangan alohida punkt: semafor va svetoforlarni boshqarib turadi; 2) chegara hududlarida, alohida joylarda hujjatlarni va transport vositalarini yoppasiga tekshirish uchun tashkil etiladigan politsiya, armiya nazorat-o‘tkazish maskani (punkti).

...BOL [*ingl.* ball – to‘p, koptok] – asosan, ingliz tilidan o‘zlashgan qo‘shma so‘zlarning ikkinchi qismi bo‘lib, to‘p, koptok ma’nolarini bildiradi. Mas.: **beysbol, gandbol, motobol, softbol, stritbol; basketbol** [*ingl.* basket – savat, to‘r +...bol] – ikki jamoa a’zolarining (6 kishidan iborat) to‘pni bir-biriga qo‘lma-qo‘l oshirib, maydonning ikki tarafida muayyan balandlikdagi taxtaga o‘rnashtirilgan to‘rli halqaga tushirish o‘yini; **futbol** [*ingl.* foot – oyoq +...bol] – har biri 11 kishidan iborat ikki jamoaning bir-birining darvozasiga oyoq, bosh, yelka (qo‘ldan tashqari) zarbasi bilan ko‘proq to‘p kiritishga asoslangan sport o‘yini; **voleybol** [*ingl.* volley – (qo‘l bilan) urib qaytarmoq +...bol] – jamoaviy o‘ynaladigan sport turi – o‘yinchilar to‘pni qo‘l bilan urib, o‘rtadagi to‘r to‘siqdan oshirib, raqib maydoniga tushirishga harakat qiladilar.

BOLO... [*yun.* bole – nur] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning nurga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **bolometr** [bolo...+...metr] – elektromagnit nurlanish energiyasini o‘lchash uchun mo‘ljallangan asbob; **boloskop** [bolo...+...skop] – organizmdagi yot jismlarni jarrohlik yo‘li bilan olib tashlash maqsadida ularning turgan joyini aniqlaydigan asbob.

BONI... [*lot.* bonus – sifatli, yaxshi] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, sifat jihatidan talabga javob beradigan, sifati yaxshi degan ma’nolarni bildiradi. Mas.: **bonalar, bonistika, bonus; bonitet** [boni...+ ...itet] – o‘rmon unumdorligi ko‘rsatkichi: asosan, o‘sishning (unishning) tuproq-iqlim sharoitlariga bog‘liq bo‘ladi; **bonifikatsiya** [boni...+...fikatsiya] – 1) tovarning sifati shartnomadagidan yuqori bo‘lgan hollarda tovar narxiga qo‘yiladigan qo‘shimcha narx; aksincha hollarda esa tovar narxini pasaytirish; 2) sotilgan tovarlar miqdoriga qarab savdo xizmatchilarini mukofotlash; **bonitirovka** [*lot.* bonitas – yaxshi sifatlilik < bonus] – 1) zotli hayvonlarni nasldorlik va mahsuldorlik xususiyatlari bo‘yicha baholash; 2) tuproq unumdorligini qiyosiy baholash.

BOTAN... [*yun.* botane – o‘t, o‘simlik] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning o‘simlikka aloqadorligini bildiradi. Mas.: **botanika** [*yun.* botanikos – o‘simlikka tegishli] – o‘simliklar, ularning yashash va rivojlanish qonuniyatlari haqidagi fanlar majmuyi; **botanizirka** [< botanika] – botanik ekskursiyalarga borganda yig‘ilgan o‘simliklar solinadigan metall quticha.

BOTRI(O)... [*yun.* botrys – shingil] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, biror narsaning qismi, bo‘lagi ma’nosini bildiradi. Mas.: **botriomitsetlar; botriomikoma** [botrio...+ mik(o)...+...oma] – teri va shilliq qavatdan shingil va zamburyg‘ga o‘xshab osilib turadigan xavfsiz o‘sma; **botriomikoz** [botrio...+ mik(o)...+...oz] – hayvonlarda uchraydigan, ayrim zamburug‘lar qo‘zg‘atadigan surunkali yuqumli kasallik.

BRADI... [*yun.* bradys – sekin] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning harakatning qisqarishiga, sekinlashishiga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **bradiartriya, bradibaziya, bradifagiya, bradifaziya, bradikineziya, bradikininlar, bradipepsiya, bradipraksiya, bradipsixizm, braditeliya; bradifreniya** [bradi...+ *yun.* phren – aql, fikrlash] – barcha ruhiy jarayonlar (fikrlash, nutq, hissiyot) ning umumiy susayishi; **bradikardiya** [bradi...+...kardiya] – yurak qisqarishlarining sekinlashishi, yurakning sekin (minutiga 60 martadan kam) urishi; **bradilaliya** [bradi...+ *yun.* lalia – nutq] – nutqning sekinlashishi; bunda kasal ko‘pincha so‘z bo‘g‘inlarini ajratib talaffuz qiladi; **bradileksiya** [bradi...+ *yun.* lexis – so‘z boyligi] – o‘qish qobiliyatining sekinlashishi; har bir so‘zni hijjalab, to‘xtab-to‘xtab, cho‘zib o‘qish; **bradipnoe** [bradi...+...pnoe] – nafas olishning haddan tashqari sekinlashishi, susayishi (minutiga 10–12 va bundan ham kamroq marta).

BRAND... [*nem.* Brand – yong‘in] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, yong‘in, yong‘inga qarshi ma’nolarini bildiradi. Mas.: **brander, brandkugel, brandmayor, brandmeyster; brandmauer** [brand...+ *nem.* Mauer – devor] – yong‘in binoning boshqa qismlariga tarqalmasligi uchun bino qismlarini bir-biridan ajratib turadigan, tomdan baland g‘isht devor; **brandspoyt** [*goll.* brandspuit] – 1) yong‘in stvoli – suv oqimini yonayotgan obyektga yo‘naltirish uchun egiluvchan shlangga o‘rnatilgan metall uchlik; 2) kemada palubalarni yuvish, suvni tortib olish, yong‘inni o‘chirish kabi maqsadlarda foydalaniladigan ko‘chma qo‘lnasos; **brandvaxta** [*goll.* brandwacht] – port hududida yong‘in xavfsizligini nazorat qilib turish uchun qirg‘oq bo‘yida yoki kemada joylashgan post.

BRAXI... [*yun.* brachys – qisqa, kalta] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, kalta, qisqa ma’nolarini bildiradi. Mas.: **braxialgiya, braxibaziya, braxignatiya, braxikefallar, braximetakarpiya, braximorflik, braxiskeliya, braxispondiliya, braxistoxrona; braxidaktiliya** [braxi...+ *yun.* daktylos – barmoq] – rivojlanish nuqsoni; qo‘l yoki oyoq barmoqlarining tug‘ma kalta bo‘lishi; **braxifalangiya** [braxi...+ *yun.* phalanx (phalangos) – bo‘g‘im] – barmoqlarning son jihatidan tug‘ma kam bo‘lishi; **braxigrafiya** [braxi...+...grafiya] – tez yozish, qisqartirilgan yozuv tizimi; stenografiya; **braxikardiya** [braxi...+...kardiya] – yurakning sekinlashgan ritmik qisqarishi; **braxikefaliya // braxitsefaliya** [braxi...+...kefaliya] – dumaloqboshlik, kaltaboshlik; kalla shaklining ko‘ndalangiga kattaroq bo‘lishi.

BRI(O)... [*yun.* bryon – mox, yo‘sin] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning yo‘sin, moxga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **briofitlar; briolog** [brio...+...log] – briologiya mutaxassisi, yo‘sinshunos; **briologiya** [brio...+...logiya] – botanika fanining moxlarni (yo‘sinlarni) o‘rganuvchi bo‘limi.

BROM(O)... [*yun.* bromos – qo‘lansa, sassiq] – o‘zlashma qo‘shma va yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, qo‘lansa, sassiq hid ma’nolarini hamda brom elementini bildiradi. Mas.: **bromargirit, bromatlar, bromatseton, bromazepam** (dori modda), **brombenzol, bromgeksin** (dori modda); **brom** [*lot.* Bromum < *yun.* bromos – sassiq] – Mendeleyev davriy sistemasining VII guruhiga mansub kimyoviy element; yoqimsiz hidli, qizg‘ish-qo‘ng‘ir zaharli suyuqlik; **bromidlar** [brom...+...id] – metallar va metallmaslarning brom bilan hosil qilgan birikmalari, bromid kislota tuzlari; **bromidroz** [bromo...+ *yun.* hidros – ter] – qo‘lansa hidli ter chiqishi; **bromindigo** [brom...+ *lot.* indiges – ko‘k] – indigo molekulasidagi vodorod atomlari o‘rniga brom atomlari kiritib hosil qilingan, qizil-binafsha rangdan och yashil-ko‘k ranggacha bo‘lgan mahsulot; gazlamalarni bo‘yashda keng qo‘llanadi; **bromizm** [brom...+...izm] – brom tuzlarini uzoq vaqt qabul qilish tufayli zaharlanish; **bromoderma** [bromo...+...derma] – brom tuzlarini uzoq vaqt iste’mol qilish natijasida teri ustida (ko‘kraklarda) qizil toshmalar paydo bo‘lishi; **bromofos** [bromo...+ fos(for)] – bog‘lar va sabzavot ekinlarining zararkunanda hasharotlarini yo‘qotishda ishlatiladigan preparat.

BRON(E)... [*nem.* Brunja – zirh, qoplama, sovut] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning bron (zirh) ga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **bronedrezina, bronekater, bronekorpus, bronemashina,**

bronepoyezd; broneavtomobil [brone...+ avtomobil] – pulemyot, ba'zan to'p bilan jihozlangan, zirh bilan qoplangan harbiy avtomobil; **bronetransportyor** [brone...+ transportyor] – jang maydoniga askarlar tashiydigan va razvedka qiladigan zirhli mashina; **bronteshar** – bron (zirh) ni teshib o'tadigan qurol turi.

BRONT(O)... [*yun.* bronte – momaqaldiroq; gulduragan ovoz] – o'zlashma yasama so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, gulduragan ovoz ma'nosini bildiradi. Mas.: **brontoteriylar; brontidlar** [bront(o)...+...id] – yuqori seysmik faol hududlarda eshitiladigan gulduragan past tovushlar; **brontozavr** [bronto...+ ...zavr] – kaltakesaksimon o'simlikxo'r dinozavrlarning bir turi; apatozavrning eski nomi.

BRONX(O)... [*yun.* bronchos – tomoq; kekirdak, traxeya] – o'zlashma qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, kekirdak, traxeyaga oidlik ma'nosini bildiradi. Mas.: **bronxial, bronxiolalar, bronxoadenit, bronxoektaziya, bronxoektomiya, bronxolitiaz, bronxomikozlar, bronxopatiya, bronxopnevmoniya, bronxoreya, bronxoskop, bronxospazm, bronxostenoz, bronxotomiya; bronxit** [bronx...+...it] – bronxlar shilliq pardalarining yallig'lanishi; **bronxofoniya** [bronxo...+...foniya] – ko'krak qafasi eshitib ko'rilganda bronxlardan o'tayotgan havo tovushini eshitish; **bronxografiya** [bronxo...+...grafiya] – bronxlarga avval nur o'tkazmaydigan kontrast modda yuborib, so'ng ularni rentgen nurlari yordami bilan suratga olib tekshirish; **bronxolitlar** [bronxo...+...lit] – bronx ichida paydo bo'ladigan toshlar; **bronxologiya** [bronxo...+...logiya] – pulmonologiyaning bronx kasalliklarini o'rganadigan bo'limi; **bronxoskopiya** [bronxo...+...skopiya] – traxeya va bronxlarning ichki yuzasini bronxoskop yordamida ko'rib tekshirish usuli; **bronxospazm** [bronxo...+...spazm] – bronxning qisqarishi, siqilishi, mayda bronxlar va bronxiolalar teshigining torayishi.

BRUKS(O)... [*yun.* brycho – g'ichirlatmoq] – o'zlashma yasama so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, shu so'zlarning tish g'ichirlatishga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **bruksizm** [bruks...+...izm] – uxlab yotganda tishni g'ichirlatish odati; **bruksomaniya** [brukso...+...maniya] – uyg'oqlikda dam-badam tishni g'ichirlatishga o'rganib qolish.

BUL... [*ingl.* bull – buqa, ho'kiz < *yun.* bus – ho'kiz] – o'zlashma yasama so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, ho'kiz, ho'kizday, ho'kiz kuchi kabi ma'nolarni bildiradi. Mas.: **buldenej; buldog** [*ingl.* bulldog – ho'kiz-it] – 1) tumshug'i

to‘mtoq, bo‘yin va oyoqlari kalta, jag‘i kuchli it; 2) kalta stvolli pistolet; **buldozer** [*ingl.* bulldozer < *yun.* bus – ho‘kiz] – 1) yerni surish va tekislash uchun maxsus keskich bilan uskunalangan gusenitsali traktor; 2) mashinasozlikda: metallni qizdirib yoki sovuqlayin bukish, to‘g‘rilash, turli shakldagi detallar tayyorlash uchun mo‘ljallangan kuchli press-dastgoh; **bulimiya** [bul...+ *yun.* limos – ochlik] – endokrin va boshqa ba’zi kasalliklarda xuruj holida ro‘y beradigan benihoya ochlik, ochko‘zlik, yebto‘ymaslik; “moldek ovqat yeyish”.

BULB... [*lot.* bulbus – piyoz] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, piyozcha, kichkina piyoz ma’nolarini bildiradi. Mas.: **bulbokarnin** (dori modda), **bulbus; bulbila** [bulb...+...illa] – piyoz, sarimsoq kabilarning to‘pgulida va piyoznamolarga mansub boshqa o‘simliklarning barg qo‘ltig‘ida o‘sadigan mayda piyozchalar; **bulbit** [bulb...+...it] – o‘n ikki barmoq ichak piyozchasining yallig‘lanishi; duodenitning bir turi.

...BULIYA [*yun.* bul – iroda, kuch] – o‘zlashma yasama so‘zlarning ikkinchi (oxirgi) tarkibiy qismi bo‘lib, iroda, xohish, istak, ishtiyoq ma’nolarini bildiradi. Mas.: **giperbuliya** [giper...+...buliya] – ishtahaning ortiqcha darajada zo‘r bo‘lishi; **gipobuliya** [gipo...+...buliya] – ish-faoliyatga istak va ishtiyoqning pasayishidan iborat hissiy holat; **parabuliya** [para...+...buliya] – havas, intilish va moyillikning buzilishi.

BULL... [*lot.* bulla – shar, pufakcha] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shar, pufakcha degan ma’nolarni bildiradi. Mas.: **bullit** [*ingl.* bullet – o‘q, yadro < *lot.* bulla – metall sharcha] – shaybali xokkeyda raqib darvozasi tomon belgilangan jarima zarbasi; penalti; **bullyoz** [bull(a)...+...oz] – teridan ko‘tarilib chiqqan, pufakchali, pufakchadan iborat kasallik.

BURS... [*lot.* bursa – hamyon; xaltacha] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, xaltacha, xaltachaga o‘xshash ma’nolarini bildiradi. Mas.: **bursektomiya** [burs...+...ektomiya] – yallig‘langan bo‘g‘im xaltachasini kesib olib tashlash; **bursit** [burs...+...it] – bo‘g‘im shilliq xaltachasining o‘tkir yoki surunkali yallig‘lanishi.

...BUS [*lot.* (omni) bus – hamma uchun] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning oxirgi tarkibiy qismi bo‘lib, hamma, hamma uchun degan ma’nolarni bildiradi. Mas.: **bibliobus, omnibus, trolleybus; aerobus** [aero...+...bus] – yo‘lovchi tashiydigan, ko‘p o‘rinli ulkan havo transporti; **avtobus** [avto...+...bus] – yo‘lovchi tashiydigan, to‘qqiz va undan ortiq o‘rindig‘i bo‘lgan avtomobil.

BUTIR... [*nem.* Butter < *yun.* butyron – yog‘, moy] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning yog‘ga, moyga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **butiraldegid, butiratlar, butirometriya; buterbrod** [*nem.* Butter – yog‘ + Brot – non] – ustiga sariyog‘ surtilgan yoki pishloq, kolbasa yaprog‘i qo‘yilgan bir kesim non; **butirometr** [butiro...+...metr] – sut tarkibidagi yog‘ miqdorini aniqlaydigan asbob.

D

DAKRIO... [*yun.* dakryon – koʻz yoshi] – oʻzlashma qoʻshma soʻzlarning tarkibiy qismi boʻlib, shu soʻzlarning koʻz yoshiga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **dakriotsistektomiya, dakriotsistorinostomiya; dakrioadenit** [dakrio...+ aden...+...it] – koʻz yoshi bezining yallig'lanishi; **dakriotsistit** [dakrio...+ sist...+...it] – koʻz yoshi xaltachasining oʻtkir yoki surunkali yallig'lanishi; **dakriuriya** [dakri...+...uriya] – tutqanoq xuruj qilgan paytda beixtiyor siyib qoʻyish.

DAKTILO... [*yun.* daktylos – barmoq] – oʻzlashma qoʻshma soʻzlarning tarkibiy qismi boʻlib, shu soʻzlarning qoʻlga, barmoqqa aloqadorligini bildiradi. Mas.: **daktil** (she'r vazni)**; daktilalgiya** [daktil(o)...+...algiya] – barmoqlarda og'riq sezish, barmoqlar og'rishi; **daktilit** [daktil(o)...+...it] – biron-bir infeksiya tufayli barmoqlarning yallig'lanishi; **daktilografiya** [daktilo...+ ...grafiya] – yozish uchun qulay boʻlgan har qanday tekis yuzada barmoqlar bilan amalga oshirilgan yozuv (karlar yoki kar-koʻrlar bilan muloqotda); **daktilologiya** [daktilo...+...logiya] – kar-soqovlarning qoʻl barmoqlari yordamida oʻziga xos tarzda gaplashish usuli; **daktilomegaliya** [daktilo...+ *yun.* megas, megalus – katta] – rivojlanish nuqsoni: oyoq va qoʻl barmoqlarining haddan ortiq kattalashib ketishi; **daktiloskopiya** [daktilo...+...skopiya] – odamning qoʻl barmoqlaridagi teri izlarini oʻrganish asosida uning shaxsini aniqlash.

DE... [*lot.* de- – ajratish] – old qoʻshimcha; oʻzlashma yasama soʻzlarning tarkibiy qismi boʻlib: 1. Ajratish, chiqarish, yoʻqotish, bekor qilish ma'nolarini bildiradi. Mas.: **deaerator, deaeratsiya, deetimologizatsiya, deflyatsiya, defloratsiya, defoliantlar, deformatsiya, degidrator, degidroz, dekalsinatsiya, dekoloratsiya, dekompensatsiya, dekortikatsiya, delisting, demilitarizatsiya, demobilizatsiya, demonopolizatsiya, denervatsiya, denominatsiya, depigmentatsiya, depilyatsiya, depolyarizator, depolyarizatsiya, deratizatsiya, desensibilizatsiya, desikatsiya, detoksikatsiya, devirginizatsiya; defibrator** [de...+ fibr(o)...+...or] – qog'oz ishlab chiqarish sanoatida yog'och masssasi tayyorlash uchun mo'ljallangan apparat; **defoliatsiya** [de...+ *lot.* folium – yaproq, barg +...atsiya] – hosilni mashinalar

yordamida yig‘ib-terib olishni osonlashtirish maqsadida o‘simlik barglarini maxsus kimyoviy moddalar – defoliantlar yordamida sun’iy ravishda to‘kish; **degazatsiya** [de...+ *fr.* gaz – gaz +...atsiya] – zararli gazlardan, zaharlovchi moddalardan tozalash, zararsizlantirish; **degidratatsiya** [de...+ gidrat...+ ...atsiya] – anorganik yoki organik moddalardan suv ajralishi; **delaktatsiya** [de...+ lakt(o)...+…atsiya] – 1) bolani ko‘krakdan ajratish; 2) sut bezidan sut ajralishining to‘xtab qolishi; **demensiya** [de...+ *lot*. mens, ment – aql, fahm, zehn] – epilepsiya (tutqanoq), miya tomirlari aterosklerozi va boshqa kasalliklarda miya o‘zgarishlarining natijasi o‘laroq orttirilgan aqlzaiflik, aqlpastlik; **demontaj** [de...+ *fr.* montage – to‘plash, yig‘ish; o‘rnatish, montaj] – mashina, apparat, inshootni ayrim qismlarga ajratish, o‘rnatilgan joyidan ko‘chirib olish; **denaturatsiya** [de...+ *lot.* nature – tabiiy xususiyat +...atsiya] – turli xil fizik yoki kimyoviy omillar ta’sirida oqsillar, nuklein kislotalar va boshqa biopolimerlar molekulalarida o‘ziga xos tabiiy xususiyatlarning yo‘qolishi. 2. Pasayish, pastga qarab harakatlanish, tanazzul ma’nolarini bildiradi. Mas.: **degeneratsiya, dekompressiya, denutritsiya; degradatsiya** [de...+ *lot.* gradatio – asta-sekin yuksalish] – biror narsa yoki holatning tobora yomonlashib borishi, aynishi; tanazzulga uchrashi; **destruksiya** [de…+ *lot.* structum – joylashish, tartib, tuzilish] – buzish, buzilish: 1) biron-bir a’zo yoki to‘qima, hujayra tuzilishining buzilishi; 2) makromolekulalardagi kimyoviy bog‘larning uzilishi natijasida ularning polimerlanish darajasining yoki molekulyar massasining kamayishi; **devalvatsiya** [de...+ *fr.* evaluation – qiymat; baho, baholash] – milliy pul birligi kursining chet el valyutalariga nisbatan pasayib ketishi, pasaytirilishi.

DE... [*lot.* deus – xudo] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, xudo ma’nosini bildiradi. Mas.: **deist** [de...+...ist] – deizm tarafdori; **deizm** [de...+...izm] – xudoni olamning yaratuvchisi sifatida tan oluvchi, lekin uning tabiat va jamiyatning keyingi hayotidagi ishtirokini inkor etuvchi falsafiy ta’limot.

DEB(IT)... [*lot.* debet – qarz] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, qarz, qarzdorlik ma’nolarini bildiradi. Mas.: **debentura** [*lot*. debere – qarzdor bo‘lmoq] – bojni qaytarish haqidagi bojxona guvohnomasi; **debitor** [*lot*. debitor – qarzdor < debitum – qarz] – biror idora, tashkilot yoki muassasadan qarzdor bo‘lgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

DEFEKT(O)... [*lot.* defectus – nuqson, kamchilik] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi (asos) qismi bo‘lib, kamchilik, nuqson, illat ma’nolarini bildiradi. Mas.: **defekt, defektolog, defektoskop; defektologiya** [defekto...+...logiya] – jismoniy va ruhiy nuqsonlari bor bolalar rivojlanishi-

ning psixofizik xususiyatlarini o‘rganish, ularga maxsus ta’lim-tarbiya berish, ulardagi nuqsonlarni yo‘qota borish qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan; pedagogikaning bir bo‘limi; **defektoskopiya** [defekto...+...skopiya] – material va mahsulotning nuqsonlari bor-yo‘qligini aniqlash uchun (defektoskop bilan) bajariladigan tekshirish usullari va vositalari majmuyi.

DEKA... [*yun.* deka – o‘n] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, 10 soniga oidlikni, o‘ntalikni bildiradi. Mas.: **dekagramm, dekalin, dekalitr, dekalog, dekanat, dekapodlar, dekatonna; dekabr** [*lot.* december – o‘ninchi < decem – o‘n < *yun.* deka – o‘n] – yilning o‘n ikkinchi oyi nomi: yuliy taqvimi joriy qilingunga qadar o‘ninchi oy bo‘lgan; **dekada** [dek(a)...+ ...ada] – 1) o‘n kunlik vaqt; qadimgi Misrda vaqt o‘lchovi birligi; 2) biror narsaga bag‘ishlangan, o‘n kun davomida o‘tkaziladigan (o‘n kunlik) tadbir; **dekaedr** [deka... + ...edr] – o‘nyoqlik; **dekametr** [deka...+...metr] – o‘n metrga teng uzunlik o‘lchovi; **dekan** [*yun.* dekanus – o‘nboshi; o‘n askar boshlig‘i] – oliy o‘quv yurtida fakultet rahbari; **dekatron** [deka...+...tron] – hisoblash va o‘lchash texnikasida qo‘llanadigan, o‘nta katod guruhi bo‘lgan ion asbob.

DEKSTR(O)... [*yun.* dexter – o‘ng] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, o‘ng, o‘ng tomon ma’nolarini bildiradi. Mas.: **dekstrinlar, dekstropozitsiya; dekstrokardiya** [dekstro...+...kardiya] – yurakning tug‘ma ravishda ko‘krak qafasi o‘ng tomonida joylashgan bo‘lishi; **dekstroza** [dekstr(o)...+...oza] – monosaxaridlar guruhiga mansub, oddiy karbonsuv (uglevod) dan iborat rangsiz kristall; glyukozaning eskirgan nomi.

DELTA... [*yun.* delta – yunon alifbosidagi to‘rtinchi harf (Δ) ning nomi] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib: 1) tushunchaning delta-zarralarga aloqadorligini, 2) moddaning muayyan holatini, 3) mazkur harfning shakliga o‘xshashlikni bildiruvchi so‘z-terminlar hosil qiladi. Mas.: **delta-metall, delta-nurlar, deltaplanerizm, deltasimon, delta-virus, delta-zarralar; delta** [delta – Δ harfi shakli] – daryoning dengiz yoki ko‘lga quyilish joyi (mansabi) da suvda oqib kelgan jinslardan hosil bo‘lgan, ko‘pincha delta harfi shaklidagi tekislik; **deltadrom** [delta...+...drom] – deltaplanerizm bilan shug‘ullanish, deltaplanda uchish mashqlari o‘tkaziladigan maxsus maydon; **deltaplan** [delta...+...plan] – deltasimon qanotga ega bo‘lgan motorsiz uchish apparati; **delta-temir** – temirning 1401° – 1528° oralig‘idagi temperaturada bo‘lgan holatlaridan biri; **delta-yog‘och** – qayin daraxtidan yo‘nib olingan yupqa tasmalardan presslab va yelimlab tayyorlanadigan qatqat yog‘och.

DEMO... [*yun.* demos – xalq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, xalq, aholi ma’nolarini bildiradi. Mas.: **demagog, demagogiya, demograf, demokrat, demokratizatsiya, demokratizm, demos; demofobiya** [demo...+...fobiya] – miyaga o‘rnashib qolgan qo‘rquv holati: odamlar to‘dasidan, olomondan qo‘rqish, vahimaga tushish; **demografiya** [demo...+ ...grafiya] – aholishunoslik; biror hudud, mamlakat, birdan ortiq mamlakatlar yoki dunyo aholisi o‘zgarishlarini ilmiy-statistik o‘rganuvchi fan tarmog‘i; **demokratiya** [demo...+...kratiya] – 1) fuqarolar erkinligi va tengligi qonunlarda mustahkamlangan, xalq hokimiyatining vosita va shakllari amalda o‘rnatilgan hamda yuzaga chiqarilgan siyosiy tuzum; 2) jamoa barcha a’zolarining ijtimoiy tashkilotlar hayoti va ish jarayonida faol ishtirok etishi.

DENDR(O)... [*yun.* dendron – daraxt] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, daraxt, daraxtzor ma’nolarini bildiradi. Mas.: **dendrobatsillin, dendrograf, dendroiqlimshunoslik, dendrolit, dendrolog, dendrometriya; dendrariy** [dendr(o)...+...ariy] – faqat daraxt va butalar o‘stiriladigan botanika bog‘i; **dendrit** [dendr(o)...+...it] – 1) nerv hujayralarining daraxtsimon tarmoqlangan sezuvchi o‘simtalari; 2) biror-bir mineralning to‘liq rivojlangan, daraxtsimon tarmoqlangan kristallari; **dendrologiya** [dendro...+...logiya] – botanikaning daraxt va butalarning turlarini o‘rganadigan bo‘limi, sohasi; **dendrometr** [dendro...+...metr] – daraxt o‘lchash asbobi; **dendropark** [dendro...+ *ingl.* park – katta bog‘] – dendrologiya bog‘i – tabiiy sharoitda o‘sadigan daraxt-buta o‘simliklar to‘plamidan iborat, landshaftli park; **dendroxronologiya** [dendro...+ xronologiya] – daraxtlarning tarixiga (mas., yoshini belgilashga) oid holatlarni o‘rganuvchi fan.

DENSI..., DENSIT(O)... [*lot.* densi – zich, qalin, densitas – zichlik] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning zichlikka aloqadorligini bildiradi. Mas.: **densimetr; densimetriya** [densi...+...metriya] – suyuq va qattiq jismlarning nisbiy zichligini o‘lchash usuli; **densitometr** [densito...+...metr] – ochiltirilgan fotomaterialning optik zichligini aniqlaydigan asbob; **densitometriya** [densito...+...metriya] – ilmiy fotografiya bo‘limi bo‘lib, kimyoviy fotografik yo‘l bilan boshqacha ishlangan fotografik qatlamning yorug‘lik nurini yutishi va sochishini o‘lchash bilan shug‘ullanadi.

DENT(O)... [*lot.* dentis – tish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning tishga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **dental, dentifikatsiya, dentikulalar, dentinogenez, dentologiya; dentiatriya** [dent...+ ...iatriya] – tish kasalliklari va ularni davolash usullari haqidagi ta’limot; **den-**

tin [dent...+...in] – tishning mineral tuzlar va organik moddalardan tarkib topgan asosiy qattiq qismi.

DERM(O)..., DERMAT(O)... [*yun.* derma, dermatos – teri] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismlari bo‘lib, shu so‘zlarning teri, teri kasalliklariga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **dermatofibroma, dermatoglifika, dermatogramma, dermatol, dermatoliz, dermatolog, dermatomaniya, dermatomikozlar, dermatomioma, dermatomiozit, dermatomitsetlar, dermatonevroz, dermatoplastika, dermatoskleroz, dermatostomatit, dermatovenerolog, dermatozoonozlar, dermograf, dermografizm, dermosensibilizatsiya, dermoskopiya; dermalgiya** [derm(o)…+…algiya] – terining og‘rishi; nerv sistemasining ba’zi kasalliklarida og‘riq paydo bo‘lishi; **dermatin** [dermat(o)...+...in] – ip gazlamadan elastik modda qoplab tayyorlanadigan sun’iy charm; **dermatit** [dermat(o)...+...it] – terining yallig‘lanishi; **dermatologiya** [dermato...+...logiya] – tibbiyotning teri kasalliklarini o‘rganuvchi va ularni davolash bilan shug‘ullanuvchi sohasi; **dermatom** [derma...+...tom] – terini kesishda qo‘llanadigan jarrohlik asbobi; **dermatomalar** [dermat(o)...+...oma] – terida paydo bo‘ladigan har xil shishlar**; dermatopatofobiya** [dermato...+ pato...+...fobiya] – teri kasalliklari bilan og‘rishdan qo‘rqish vasvasasi; **dermatoplastika** [dermato...+...plastika] – terining kemtik joylariga o‘zining boshqa joyidan (plastik operatsiya yo‘li bilan) teri ko‘chirib ulash; **dermatozlar** [dermat(o)...+...oz] – terining tug‘ma yoki orttirilgan patologik holatlari: terida turlicha yallig‘lanish, distrofik, atrofik o‘zgarishlar, shishlar paydo bo‘lishi; **dermoidlar** [derm(o)...+...oid] – terida paydo bo‘ladigan no‘xat yoki yong‘oqdek va undan kattaroq, yumshoq xamirsimon, og‘rimaydigan o‘smalar; **dermoskopiya** [dermo...+...skopiya] – teri kasalliklarini aniqlash uchun qo‘llanadigan usul.

...DERMA, ...DERMIYA [*yun.* derma – teri; qobiq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismlari bo‘lib, shu so‘zlarning umuman teri, kasallangan teri, muayyan teri kasalliklarining umumiy nomi kabi ma’nolarga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **blastoderma, ektoderma, entoderma, epiderma, felloderma, gipoderma, kserodermiya, leykoderma, mezoderma, sianodermiya, sideroderma, sklerodermiya, stearodermiya; bromoderma** [bromo...+...derma] – teriga toshmalar toshishi; asosan, tarkibida brom bo‘lgan dorilarni uzoq vaqt iste’mol qilganda yoki shu dorilarni organizm qabul qila olmay qolganda kuzatiladi; **ekzoderma** [ekzo...+...derma] – o‘simliklar ildizi birlamchi qobig‘ining po‘kaklangan hujayralari tashqi qava-

ti; ildiz tukchalari qurib qolganda himoya vazifasini bajaradi; **epiderma // epidermis** [epi...+...derma] – umurtqali hayvonlar va odam terisining tashqi, eng ustki yupqa qavati; **gerodermiya** [gero...+...dermiya] – terining patologik atrofiyasi – qari odamning terisini eslatadi; **melanodermiya** [melano...+ ...dermiya] – terida melanin (qora, qo‘ng‘ir rang) pigmentining ko‘payib ketishi; **paxidermiya** [paxi...+...dermiya] – surunkali yallig‘lanish yoki davomli qo‘zg‘alish (asabiylashish) lar natijasida terining yoki shilliq pardaning qalinlashishi; **piodermiya** [pio...+...dermiya] – terining yiring hosil qiluvchi bakteriyalar qo‘zg‘atadigan yiringli kasalliklari.

DESM(O)... [*yun.* desmos – bog‘lama, bog‘lovchi; aloqa] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, bog‘lam, bog‘lovchi, aloqa ma’nolarini bildiradi. Mas.: **desmoid, desmolazalar, desmosomalar; desmoliz** [desmo...+...liz] – hayvon va o‘simlik organizmlarida organik birikmalarning fermentlar – desmolazalar ta’sirida parchalanish jarayonlari; **desmologiya** [desmo...+...logiya] – tibbiyotning biriktiruvchi to‘qimalarni o‘rganuvchi sohasi; **desmotsit** [desmo...+...sit] – biriktiruvchi to‘qima tolalarini bir-biriga bog‘lab turuvchi hujayra; **desmurgiya** [desm(o)...+...urgiya] – jarrohlik bog‘lamalarini qo‘yish usullari haqidagi ta’limot.

DETSI... [*lot.* decem – o‘n] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, fizik birliklar nomlarining o‘ndan bir ulushi ma’nosini bildiradi. Mas.: **detsillion, detsimal, detsimatsiya; detsibel** [detsi...+ *ingl.* bel – ikkita bir jinsli fizik kattaliklar nisbatining logarifmik birligi] – tovush yoki elektromagnit to‘lqinlari bosimining birligi – “bel” ning o‘ndan bir ulushi; **detsilitr** [detsi...+ litr] – litrning o‘ndan bir ulushiga teng hajm o‘lchovi birligi; **detsimetr** [detsi...+...metr] – metrning o‘ndan bir ulushiga teng uzunlik o‘lchovi birligi.

DEYTER... [*yun.* deuteros – ikkinchi] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning “ikkinchi” tartib soniga, o‘zga, boshqa kabi ma’nolarga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **deyteranomaliya, deytron; deyteranopiya** [deyter...+ an...+...opiya] – ko‘zning ko‘r bo‘lmagani holda, ma’lum ranglarni, asosan, yashil rangni ko‘rmaslik; **deyteriy** – vodorod elementining atom massasi 2 ga teng bo‘lgan barqaror izotopi; **deyteroskopiya** [deytero...+...skopiya] – ba’zi ruhiy kasalliklarda va isitma paytida juda kamdan kam hollarda uchraydigan, bemorning ko‘ziga uning o‘zi ko‘rinadigan alahlash hodisasi.

DEZ... [*lot., fr.* des – -dan, -dan ajratish, xoli qilish] – old qo‘shimcha; o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, biror narsani yo‘q qilishni yoki uning yo‘qligini, shuningdek, aks harakatni bildiradi. Mas.: **dezaktivator, dezaktivatsiya, dezarxivatsiya, dezinformator, dezintegrator, dezintoksikatsiya, dezodorantlar, dezodorator, dezorganizator, dezoriyentatsiya, dezurbanizm; dezaktivatsiya** [dez...+ *lot.* actives – ta’sirchan, faol + ...atsiya] – radioaktiv zarralar bilan zaharlangan obyektlarni (suv, tuproq, oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqalarni) radioaktiv iflosliklardan tozalash, zararsiz holga keltirish; **dezinfeksiya** [dez...+ *lot.* infectio – yuqtirish, zararlash] – yuqumli kasalliklarni qo‘zg‘atuvchi mikroorganizmlar (bakteriyalar, viruslar) ni yo‘q qilish, yuqumsiz holga keltirish; **dezinformatsiya** [dez...+ *lot.* informatio – xabardor qilish, xabar berish] – yolg‘on xabarlarni tarqatish, yolg‘on xabarlar bilan chalg‘itish; **dezinseksiya** [dez...+ *lot.* insectum – hasharot] – zararli hasharotlarni maxsus yo‘llar, vositalar bilan yo‘qotish, qirish; **dezintegratsiya** [dez...+ *lot.* integratio – qayta tiklash, to‘ldirish, butlash] – butunni tarkibiy qismlarga bo‘lish, ajratish; **dezinvaziya** [dez...+ *lot.* invazio – hujum, hamla] – odamlar va hayvonlarning invazion kasalliklari qo‘zg‘atuvchilarini tashqi muhitda yo‘qotish, zarazsizlantirish (yuvish, qaynatish, kuydirish, termoishlash, kimyoviy vositalar, quyosh nurlari yordamida); **dezodoratsiya** [dez...+ *lot.* odor – hid, bo‘y +...atsiya] – qo‘lansa, sassiq hidlarni maxsus asboblar va kimyoviy moddalar bilan yo‘qotish.

DI... [*yun.* di(s) – ikkita, juft] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, ikkilik, juftlik ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **diazollar, diazotipiya, diammofos, dibutilftalat, didodekaedr, difenil, difosgen, diftong, digraf, digramma, dikarion, dimetilamin, dimorfizm, dinitronaftalin, dioksin, dipol, dipter, dixromatlar; diglossiya** [di...+ *yun.* glossa – til, lahja] – ikkitillilikning bir turi yoki varianti; biron tilning ikki hududiy lahjasini bilish; **digramma** [di...+...gramma] – ikkiharflilik – ikki, ba’zan uch harfning qo‘shilishi natijasida ayrim tovushlarning hosil bo‘lishi (mas., hozirgi o‘zbek alifbosida – sh, ch; nemis tilida – sch); **dilemma** [di...+ *yun.* lemma – asos, hukm] – bir-biriga zid bo‘lgan ikki imkoniyatdan birini tanlab olishga majbur bo‘lish; **dilogiya** [di...+...logiya] – bir muallifning yagona mazmun bilan birlashtirilgan ikki badiiy asari; **diod** [di...+...od] – ikki elektrodli lampa; **diptix** [*yun.* diptychos – qo‘shaloq, ikki buklangan] – umumiy g‘oya, mavzu va mazmun bilan bog‘langan ikkita tasviriy san’at asari; **disaxaridlar** [di...+ *yun.* sakchar – qand +...id] – molekulalari ikki qoldiq monosaxariddan hosil bo‘lgan karbonsuvlar (uglevodlar).

DIA... [*yun.* dia – orasida, aro, orqali] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, to‘g‘ridan to‘g‘ri harakat, kirib borish, bo‘linish, o‘zaro yaqinlik, tugallanganlik ma’nolarini bildiradi. Mas.: **diabet, diafoniya, diafragma, diagenez, diagnoz, diagonal, dializ, dialog, diamagnetizm, diapauza, diapazon, diaproyektor, diareya, diaskopiya, diastaz, diastereometriya, diatermokoagulyatsiya, dioptriya; diafilm** [dia...+ *ingl.* film – parda] – umumiy mavzu asosida birlashgan va kinolentada muayyan ketma-ketlikda joylashtirilgan oq-qora yoki rangli fototasvirlar; **diametr** [dia...+...metr] – aylana va doiraning markazdan o‘tuvchi vatari; **diapozitiv** [dia...+ *lot.* positivus – musbat] – proyeksion fonar yordamida ko‘rsatish uchun shaffof plastinka yoki shishaga, plyonkaga tushirilgan rangli yoki oq-qora fotosurat; **diaskop** [dia...+...skop] – shaffof tasvirni ko‘rish yoki uni kattalashtirib ekranga tushirish uchun ishlatiladigan optik-mexanik asbob; **diatermiya** [dia…+ *yun.* therme – issiq, harorat] – elektr bilan davolash usullaridan biri: bunda gavda ichkarisidagi to‘qima va a’zolar yuqori chastotali va kuchli o‘zgaruvchan tok bilan isitiladi; **diaxroniya** [dia...+ *yun.* chronos – vaqt, davr] – til evolyutsiyasi, til holati (hodisalari) ning davrlararo almashinishi; til taraqqiyotini vaqt nuqtayi nazaridan o‘rganish; **diorama** [dia...+ *yun.* horama – manzara, ko‘rinish] – 1) maxsus yoritiladigan materialga ishlanadigan rasm, tasvir turi; 2) old qismiga turli narsalar, maketlar, odam shakllari qo‘yilgan va orqa tomonda yarim doirasimon yuzaga ishlangan va sun’iy yoritiladigan kompozitsiya.

DIAFAN(O)... [*yun.* diaphanes – tiniq, shaffof; yorqin] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, yoritish, yorug‘lantirish ma’nolarini bildiradi. Mas.: **diafan, diafanoskop; diafanometr** [diafano...+ ...metr] – moddalarning turli agregat holatlarda shaffoflik, tiniqlik darajasini aniqlaydigan asbob; **diafanoskopiya** [diafano...+...skopiya] – burunning qo‘shimcha bo‘shliqlarini maxsus asbob – lampochkali diafanoskop yordamida yoritish yo‘li bilan tekshirish.

DIDAKT... [*yun.* didaktikos – ibratli; ta’lim berish] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, ta’lim berish, pand-nasihat ma’nolarini bildiradi. Mas.: **didaktika** [didakt...+…ika] – pedagogikaning ta’lim va o‘qitish nazariyasi asoslarini o‘rganuvchi sohasi; **didaktizm** [didakt...+...izm] – o‘git-nasihatga egalik, ibratlilik, nasihatomuzlik.

DIGITAL... [*lot.* digitus – barmoq; digitalis – barmoqqa oid] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, barmoqqa aloqadorlik ma’nosini bildiradi. Mas.: **digitalis** [*lot.* digitalis – barmoqqa oid, barmoqqa o‘xshash]

– Yevropaning ko‘p joylarida, Sibirning ba’zi yerlarida yovvoyi holda o‘sadigan va tajriba stansiyalarida o‘stiriladigan dorivor o‘simlik; **digitalizm** [*lot.* digitalis +…izm] – digitalis preparatlarini uzoq vaqt qabul qilish natijasida zaharlanish.

DIKT(O)... [*lot.* dictare – aytib turmoq] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning gapirishga, aytib turishga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **diksiya, diktator, diktatura; diktant** [dikt...+...ant] – imloviy va punktuatsion qoidalarning o‘zlashtirilish darajasini tekshirish uchun aytib turib yozdiriladigan yozma ish; **diktofon** [dikto...+...fon] – og‘zaki nutq, kuy va tovushlarni yozib olib, qayta eshittiradigan qo‘l apparati; **diktor** [dikt...+ ...or] – radio va televizor orqali uzatiladigan tayyor matnlarni mikrofon oldida yoki telekamera qarshisida o‘qib eshittiruvchi xodim; suxandon.

DILATO... [*lot.* dilatare – kengaytirmoq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, kengaytirish, cho‘zish ma’nolarini bildiradi. Mas.: **dilatator, dilatatsiya, dilatograf; dilatometr** [dilato...+...metr] – jismlarning issiqlikdan kengayishini, shuningdek, jism o‘lchamlarining tashqi omillar ta’sirida o‘zgarishini o‘lchaydigan asbob; **dilatometriya** [dilato...+...metriya] – fizikaning jism o‘lchamlari o‘zgarishining tashqi omillar ta’siriga bog‘liqligini o‘rganadigan bo‘limi.

DINAMO... [*yun.* dynamis – kuch] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning kuch-quvvat, energiyaga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **dinamik** (ovozkuchaytirgich), **dinamika, dinamizm, dinamo-mashina, dinamometamorfizm, dinamometriya; dinamit** [dinamo...+...it] – harbiy soha va tog‘ ishlarida qo‘llanadigan, asosiy tarkibiy qismi nitroglitserin va suyuq nitroefirlardan iborat bo‘lgan kuchli portlovchi modda; **dinamograf** [dinamo...+...graf] – o‘lchanuvchi kuchlarni avtomatik tarzda yozib boruvchi dinamometr; **dinamokardiografiya** [dinamo...+ kardio...+ ...grafiya] – yurak faoliyatining mexanik ko‘rinishlarini tadqiq qilish usuli; **dinamometr** [dinamo...+...metr] – 1) texnikada kuch yoki burovchi momentni o‘lchaydigan asbob; 2) mexanik kuchni yoki mushaklar kuchini, masalan, qo‘lning kuchini o‘lchaydigan asbob, kucho‘lchagich.

...DINIYA [*yun.* dynia – azob, og‘riq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, og‘riq ma’nosini bildiradi. Mas.: **akrodiniya, onirodiniya, raxidiniya, sakrodiniya, vaginodiniya // vagodiniya; ezofagodiniya** [ezofago…+…diniya] – qizilo‘ngachdagi og‘riq; **glossodiniya** [gloss(o)…+…diniya] – tilning og‘rishi, til og‘rig‘i; **mastodiniya** [masto…+

…diniya] – sut (ko‘krak) bezi og‘rig‘i; yosh ayollarda hayz ko‘rishdan oldin uchraydi; **proktodiniya** [prokto…+…diniya] – to‘g‘ri ichakdagi og‘riq; **skotodiniya** [skoto…+…diniya] – bosh og‘rig‘i va ko‘z xiralashishi bilan kechadigan bosh aylanishi.

DIPLO... [*yun.* diploos – ikkilangan, qo‘sh, juft] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, qo‘sh, juft, ikkita degan ma’nolarni bildiradi. Mas.: **diplobiontlar, diplodok, diplofaza, diplom, diplopodiya, diploskop, diplosomiya; diploid** [diplo...+...oid] – ikkita gomologik xromosomalar to‘plamiga ega, gaploid holatga nisbatan ikki hissa ortiq bo‘lgan hujayra yoki organizm; **diplokokklar** [diplo...+...kokk] – dumaloq shakldagi bakteriyalarning juft-juft bo‘lib yashaydigan turi; **diplopiya** [diplo...+...opiya] – narsalarning ko‘zga ikkita bo‘lib ko‘rinishi.

DIPS... [*yun.* dipsa – tashnalik, issiq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, issiq, tashnalik ma’nolarini bildiradi. Mas.: **dipsomaniya** [dipso...+...maniya] – surunkali ichkilikbozlikning bir turi: spirtli ichimlikni qo‘msash; bir necha kundan hatto bir necha haftagacha ichkilikka ruju qo‘yish, to‘xtovsiz ichish.

DIS..., unlilar oldidan **DIZ...** [*lot.* dis, *yun.* dys – yo‘q bo‘lish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, ajralish, o‘zgarish, tarqalish; qiyinchilik, nomuvofiqlik, yo‘qotish, mahrum bo‘lish kabi ma’nolarni bildiruvchi old qo‘shimcha. Mas.: **disbalans, disbaziya, disfunksiya, disgevziya, disgidroz, diskineziya, diskomfort, diskreditatsiya, disleksiya, dislogiya, dislokal, dismimiya, dispnoe, dissonans, distoniya, distrofiya, disxoliya, disxromiya; disbakterioz** [dis...+ *yun.* bacteria +...oz] – organizmda normal sharoitda uchraydigan bakteriyalarning o‘zgarib ketishi; **disfagiya** [dis...+ ...fagiya] – yutish harakatining izdan chiqishi, ovqat yoki suv yutishning qiyinlashishi; **disfoniya** [dis...+...foniya] – hiqildoq kasalliklarida, ovoz apparatining o‘ta zo‘riqishida ovozning buzilishi; **disgarmoniya** [dis...+ *yun.* harmonia – uyg‘unlik] – uyg‘unlikning buzilishi yoki yo‘qligi; uyg‘unsizlik; **diskvalifikatsiya** [dis...+ kvalifikatsiya] – 1) musobaqaning texnik qoidalarini buzganligi uchun sportchini yoki jamoani erishgan natijalari, egallagan o‘rni va boshqalardan mahrum qilish; 2) axloqiy-etik normalarni buzganligi uchun sportchi (yoki jamoa) ni musobaqada qatnashish huquqidan ma’lum muddatga shartli yoki umuman mahrum etish; **dislaliya** [dis...+ *yun.* lalia – so‘zlash] – so‘zni qiynalib talaffuz qilish; tili chuchuklik; **dislokatsiya** [dis...+ *lot.* locatio – joylashtirish] – qurolli kuchlarni, harbiy muassasalar va o‘quv yurtlarini

mamlakat hududi bo‘ylab ular uchun ajratilgan joylarga taqsimlab o‘rnashtirish; **dismenoreya** [dis...+ meno...+...reya] – hayz ko‘rishning buzilishi; hayz ko‘rishdagi turli buzilishlarning umumiy nomi; **dispepsiya** [dis...+ *yun.* pepsis – hazm] – me’da-ichak faoliyatining, ovqat hazm qilishning buzilishi, izdan chiqishi; **displaziya** [dis...+ *yun.* plasis – hosil bo‘lish, shakllanish] – a’zo va to‘qimalar yoki tana qismlarining noto‘g‘ri rivojlanishi; **disproporsiya** [dis...+ *lot.* proportio – mutanosiblik] – xalq xo‘jaligining ayrim sohalarida iqtisodiyotga xos bo‘lgan mutanosibliklarning buzilishi, izdan chiqishi; nomutanosiblik; **distoniya** [dis...+ *lot.* tonus < *yun.* tonos – taranglik] – mushak va qon tomirlar tonusining me’yorga nisbatan o‘zagrishi (oshishi yoki pasayishi); **distopiya** [dis...+ *yun.* topos – joy, o‘rin] – alohida hujayralar, to‘qima bo‘laklari va butun bir a’zolarning noto‘g‘ri joylashishi; **distrofiya** [dis...+...trofiya] – oziq moddalari kam iste’mol qilinganda to‘qimalar, a’zolar va umuman organizm oziqlanishining buzilishi.

DIYET(O)... [*yun.* diaita – turmush tarzi, tartib; oziq-ovqat] – o‘zlashma qo‘shma va yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning turmush tarzi, tartib-qoida, ovqatlanishga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **diyeta** [*yun.* diaita] – bemor yoki sog‘ odamning ma’lum ovqatlanish tartibi; bemorning belgilangan ovqatlarnigina iste’mol etishi, parhez; **diyetetika** *ayn.* **diyetologiya; diyetik** (ham ot, ham sifat – urg‘u bilan farqlanadi); **diyetologiya** [diyeto...+...logiya] – sog‘lom va kasal kishilarning oqilona va to‘g‘ri ovqatlanishi haqidagi ta’limot; **diyetoterapiya** [diyeto...+...terapiya] – ovqat bilan davolash; bemorlarni maxsus shifobaxsh ovqatlar bilan davolash usuli.

DIZ..., undoshlar oldidan **DIS...** [*lot.* dis, *yun.* dys – yo‘q bo‘lish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, qiyinchilik, buzilish, yo‘qolish kabi ma’nolarni bildiruvchi old qo‘shimcha hisoblanadi. Mas.: **dizakuziya, dizartikulyatsiya, dizassimilyatsiya, dizesteziya, dizontogenez, dizostoz; dizartriya** [diz...+ *yun.* arthroo – tovushlarni burro-burro aytaman] – tovush chiqarishda ishtirok etadigan mushaklar faoliyatining buzilishi natijasida ayrim so‘zlar, bo‘g‘in va tovushlarni qiynalib talaffuz etish; **dizenteriya** [diz...+ *yun.* enteron – ichak] – yo‘g‘on ichakning yallig‘lanishi va tez-tez qon aralash ich ketishidan iborat o‘tkir yuqumli kasallik; ichburug‘; **dizosmiya** [diz...+ ...osmiya] – hid bilish sezgisining buzilishi (yo‘qolishi); **dizuriya** [diz...+ ...uriya] – og‘riq bilan qiynalib siyish; siyishning izdan chiqishi.

DODEKA... [*yun.* dodeka – o‘n ikki] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning 12 soniga aloqadorligini bildiradi. Mas.:

dodekaedr [dodeka...+...edr] – o‘n ikki yoqli geometrik shakl; **dodekafoniya** [dodeka...+...foniya] – musiqani muayyan qoidalarga bo‘ysundirish maqsadida turli balandlikdagi 12 xromatik tovushdan ma’lum izchillikda yaratiladigan kompozitorlik texnikasi.

DOKT..., DOTS... [*lot.* docere – o‘qitmoq, ta’lim bermoq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning o‘qish, o‘qitish, ta’limga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **doktor** [*fr.* docteur < *lot.* doctor – olim; ilmiy daraja; vrach] – 1) kasallarni davolovchi oliy ma’lumotli shifokor, vrach; 2) doktorlik dissertatsiyasini ochiq himoya qilgan fan nomzodlari va mustaqil ilmiy izlanuvchilarga beriladigan ilmiy daraja va shu darajani olgan olim; **doktorant** [doktor +...ant] – doktorlik dissertatsiyasini yozish va uni himoya qilish uchun tayyorlanayotgan, biror ilmiy muassasaga biriktirib qo‘yiladigan fan nomzodi yoki mustaqil izlanuvchi; **doktorantura** [doktorant +...ura] – ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy o‘quv yurtlarida oliy malakali xodimlar – fan doktorlari tayyorlash shakli; **doktrina** [*lot.* doctrina – ta’limot] – ilmiy yoki falsafiy ta’limot, nazariya; asosiy nazariya yoki siyosiy nuqtayi nazar; **dotsent** [*lot.* docens, docentis – o‘rgatuvchi] – oliy o‘quv yurtlarida professorlikdan quyi, assistentlikdan yuqori ilmiy unvon va shunday unvon olgan kishi; **dotsentura** [dotsent +...ura] – 1) dotsent unvoni, lavozimi; 2) oliy o‘quv yurtining jami dotsentlari.

DOLIXO... [*yun.* dolichos – uzun] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, uzun, uzunlik ma’nolarini bildiradi. Mas.: **dolixokefallar // dolixotsefallar, dolixomorflik, dolixotsefalit, dolixozavr; dolixokefaliya // dolixotsefaliya** [dolixo...+...kefaliya] – uzun, cho‘ziq shakldagi ensiz bosh, kalla; **dolixokolon** [dolixo...+ *yun.* colon – yo‘g‘on ichak] – rivojlanish nuqsoni: chambar ichakning tug‘ma juda uzun bo‘lishi.

DORS... (**DORZ...**) [*lot.* dorsum – orqa] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, orqa, yelka ma’nolarini bildiradi. Mas.: **dorsal** (orqaga, orqa tomonga oid): *dorsal suzgich, dorsal undosh;* **dorsalgiya** [dors...+...algiya] – tananing orqa qismidagi og‘riq.

...DROM [*yun.* dromos – yo‘l, yo‘lka; yugurish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning yo‘l, yo‘lak, yugurish ma’nolari bilan aloqadorligini bildiradi. Mas.:**, aerodrom, avtomotodrom, deltadrom, raketodrom, tankodrom, velodrom; avtodrom** [avto...+ ...drom] – avtomobillar yoki avtomobil va mototsikllarni sinash, ular ishtiroki-

da kimoʻzarga musobaqalar oʻtkazishga moʻljallangan, maxsus jihozlangan hudud, maydon; **ippodrom** [(g)ippo...+...drom] – ot sporti musobaqalarini oʻtkazish, otlarning musobaqalarga tayyorligini sinab koʻrish uchun moʻljallangan, maxsus jihozlangan inshootlar majmuyi; **kosmodrom** [kosmo...+ ...drom] – kosmik raketalarni butlash-yigʻish, uchishga tayyorlash va uchirishga moʻljallangan inshootlar, uskuna-jihozlar va yer maydonlari majmuyi.

DROM(O)... [*yun.* dromos – yoʻl, yoʻlka; yugurish] – oʻzlashma qoʻshma soʻzlarning birinchi tarkibiy qismi boʻlib, shu soʻzlarning yoʻl, yoʻlak, yugurish maʼnolari bilan aloqadorligini bildiradi. Mas.: **dromader // dromedar, dromos; dromograf** [dromo...+...graf] – qon oqish tezligini oʻlchaydigan asbob; **dromomaniya** [dromo...+...maniya] – maqsadsiz yurtma-yurt kezish, darbadarlik va shunga moyillik; daydilik, sargardonlikka berilish; **dromonim** [drom(o)…+…onim] – toponimning bir turi; har qanday yoʻl: yerusti, yerosti, suv, havo yoʻllarining atoqli nomi.

DROZ... [*yun.* drosos – shudring, shabnam; shira] – oʻzlashma yasama soʻzlarning tarkibiy qismi boʻlib, shira maʼnosini bildiradi. Mas.: **drozofilalar** [drozo...+...fil] – dunyoning juda koʻp joylarida uchraydigan mayda-mayda shiraxoʻr pashshalar.

DU... [*lot.* duo – ikki] – oʻzlashma qoʻshma soʻzlarning tarkibiy qismi boʻlib, ikki xil, ikki yoqlama degan maʼnolarni bildiradi. Mas.: **dualizm** [*lot.* dualis – ikkilangan, qoʻsh +...izm] – olamning va inson borligʻining negizini ikki mustaqil asos (materiya va ruh) dan iborat deb qaraydigan falsafiy taʼlimot; **duel** [*fr.* duel – olishuv, jang < *lot.* duellum – urush, jang (xalqona lotin tilida bu soʻz *duo* – "ikki" soʻzi maʼnosiga yaqinlashadi)] – ikki shaxsning or-nomus talashib, maʼlum shartlar asosida yakkama-yakka qilichbozlik qilishi yoki toʻpponchadan otishishi; **duet** [*ital.* duetto < *lot.* duo – ikki] – 1) ikki qoʻshiqchi, raqqos yoki sozanda uchun moʻljallab yozilgan musiqa asari; 2) shunday asarni ijro etadigan ikkita qoʻshiqchi yoki ikkita sozandadan iborat ansambl; 3) juft-juft boʻlib oʻynaladigan sport yoki estrada tomoshalari ishtirokchilari.

DUK... *q*. **DYUK...**

DUODENI... [*lot.* duodeni – oʻn ikkitadan] – oʻzlashma qoʻshma soʻzlarning tarkibiy qismi boʻlib, oʻn ikki barmoq(li) ichak maʼnosini bildiradi. Mas.: **duodenostaz, duodenostomiya, duodenenterostomiya; duodenektomiya** [duoden(i)...+...ektomiya] – oʻn ikki barmoq(li) ichakni jarrohlik yoʻli bi-

lan olib tashlash; **duodenit** [duoden(i)...+...it] – o‘n ikki barmoq(li) ichakning yallig‘lanishi; **duodenoptoz** [duoden(o)...+...ptoz] – o‘n ikki barmoq(li) ichakning pastga tushib qolishi; **duodenoskop** [duoden(o)...+...skop] – o‘n ikki barmoqli ichakning ichki yuzasini tekshirish uchun mo‘ljallangan, optik tola yoki videokamera bilan jihozlangan asbob.

DUR... [*lot.* duro – qattiq; cho‘zmoq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, qattiq ma’nosini bildiradi. Mas.: **duralyuminiy // dyuralyuminiy** [dur...+ alyuminiy] – alyuminiyning mis, qisman marganes, magniy, temir bilan qotishmasi; **duroaraxnoidit** [duro...+ araxno...+...oid + ...it] – miyaning qattiq va yumshoq (o‘rgimchak uyasiga o‘xshash) pardasining yallig‘lanishi.

DYUK..., ...DUK [*lot.* ducere – o‘tkazmoq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi va ikkinchi tarkibiy qismlari bo‘lib, biror narsani o‘tkazish, o‘tkazgich ma’nolarini bildiradi. Mas.: **dyuker** [*nem.* Düker < *lot.* ducere – o‘tkazmoq] – yo‘l, daryo, kanal, soy va hokazolar ostidan suv o‘tkazish uchun quriladigan bukma gidrotexnik inshoot; **akveduk** [*q.* **akva...**], **viaduk** [*q.* **via...**].

E

...EDR [*yun.* hedra – yon, yoq, qirra, sirt, asos] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, yon, yoq, qirra, asos kabi ma’nolarni anglatadi. Mas.: **dodekaedr** (o‘nikkiyoqlik), **geksaedr** (oltiyoqlik), **oktaedr** (sakkizyoqlik), **poliedr** (ko‘pyoqlik), **tetraedr** (to‘rtyoqlik); **triedr** [tri...+ ...edr] – uchyoqlik; bir nuqtadan chiquvchi, bir tekislikda yotmaydigan uchta nurdan iborat geometrik shakl.

EGO... [*lot.* ego – men] – o‘zlashma qo‘shma, yasama so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning “men”ga, “men” shaxsiga, umuman, inson shaxsiga, “o‘zim” ma’nosiga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **egofoniya, egofuturizm, egoist, egopsixologiya, egotizm; egoizm** [ego...+...izm] – o‘z foydasi, manfaatini ko‘zlovchi xatti-harakat, o‘z manfaatini boshqa kishilar manfaatidan ustun qo‘yish; **egomaniya** [ego...+...maniya] – o‘zini o‘zi yaxshi ko‘rish; o‘ta xudbinlik, manmanlik, dimog‘dorlik; **egotsentrizm** [ego...+ sentrizm] – shaxsning o‘z qiziqish doirasiga bog‘lanib qolishi, boshqa odamlar va narsalarga nisbatan o‘zining dastlabki bilishiga oid qarashi yoki fikrini o‘zgartira olmasligidan iborat xislati; egoizmning eng yuqori darajasi.

EKO... [*yun.* oikos – uy, vatan, turarjoy] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, uy-joy, uy, atrof-muhit kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **ekologik, ekonom, ekonomayzer, ekonometriya, ekonomist, ekonomiya, ekosistema, ekotip, ekovolfram; ekogenez** [eko...+...genez] – organizmlar va yashash muhiti o‘rtasida ularning birga yashash tarixi davomidagi munosabatlarining rivojlanish jarayoni; **ekologiya** [eko...+...logiya] – birgalikda yashaydigan tirik organizmlarning o‘zaro va tevarak-atrofdagi muhit bilan bo‘lgan munosabatini, shuningdek, odam va biosfera o‘rtasidagi o‘zaro munosabat masalalarini o‘rganadigan fan; **ekonomika** [*yun.* oikonomike – uy-ro‘zg‘or xo‘jaligini boshqarish san’ati] – iqtisodiyot: 1) mahsulot ishlab chiqarish va uning taqsimoti doirasidagi ijtimoiy munosabatlar yig‘indisi; 2) muayyan joy, mintaqa, mamlakat yoki butun dunyoning (to‘liq yoki qisman) xo‘jaligi (ishlab chiqarishning barcha tarmoqlari yoki alohida turlari bo‘yicha); 3) xo‘jalikning u yoki bu tarmog‘ini va tarmoqlararo munosabatlar-

ni o‘rganuvchi fan; **ekonomiks** [*ingl.* economics] – iqtisodiyot fanining tadbirkorlik faoliyati qonuniyatlarini, xo‘jalik yuritish usullarini, davlat iqtisodiy siyosatini o‘rganuvchi sohasi (G‘arbda ushbu tushuncha XX asrning oxiridan “siyosiy iqtisodiyot” tushunchasi o‘rnini egallamoqda); **ekotsid** [eko...+ ...sid] – insonni o‘rab turuvchi tabiiy muhitni buzish, yo‘q qilish; ekologik muvozanatning keskin buzilishi.

EKS... [*lot.* ex – kelib chiqish, manbani ifodalaydigan old qo‘shimcha] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib: 1) biror joydan chiqish, ajralish, chiqarib olish; 2) avvalgi, sobiq kabi ma’nolarni anglatadi. Mas.: **eksergiya, eksgauster, ekskavator, ekskavatsiya, ekskretsiya, ekslibris, ekspatriant, ekspiratsiya, eksport, ekssentrik, ekssudatsiya, eksterritoriallik, ekstirpatsiya, ekstraksiya, ekstraktor, ekstubator, ekstubatsiya; eks-prezident, eks-premyer; eksfoliatsiya** [eks...+ foli...+ ...atsiya] – terining yirik tangachali po‘st tashlashi (ayrim dermatozlarda kuzatiladi); **eksgumatsiya** [eks...+ *lot.* gumus – tuproq +...atsiya] – murdani ko‘zdan kechirish va ekspertiza o‘tkazish zaruriyati tug‘ilganda uni dafn etilgan joyidan (go‘rdan) kovlab olish; **ekspatriatsiya** [eks...+ *lot.* patria – vatan, tug‘ilgan yurt +...atsiya] – vatandan tashqariga ixtiyoriy yoki majburiy ko‘chish, ko‘chirish (odatda, fuqarolikdan mahrum qilish bilan); **ekspektoratsiya** [eks...+ *yun.* pektor(o)...+...atsiya] – balg‘am tashlash, yo‘talib balg‘am ajratish; **eksplantatsiya** [eks...+ *lot.* plantare – (ko‘chirib) o‘tkazish +...atsiya] – organizm hujayra va to‘qimalarini, kichikroq a’zolarni tirik organizmdan tashqarida sun’iy oziq muhitida saqlash, o‘stirish va qaytadan organizmga payvandlash; **ekspropriatsiya** [*fr.* expropriation < *lot.* expropriatio – mol-mulkdan ajratish] – davlat hokimiyati tomonidan majburiy ravishda (haqini to‘lab yoki to‘lamasdan) mol-mulkdan mahrum qilish; **ekstraditsiya** [*fr.* extradition < eks...+ *lot.* traditio – berish, topshirish] – xalqaro huquqda: jinoyat sodir qilgan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish yoki unga nisbatan chiqarilgan sud hukmini ijro etish uchun bir davlatdan ikkinchi davlatga berish; **eks-chempion** [eks...+ chempion] – sobiq chempion; hozirgidan avvalroq sportning ma’lum bir turi bo‘yicha birinchilikni olgan (g‘olib bo‘lgan) sportchi yoki sport jamoasi.

EKSTER(O)... [*lot.* exter – tashqi] – o‘zlashma qo‘shma va yasama so‘zlar tarkibiy qismi bo‘lib, tashqi, chet, begona ma’nolarini bildiradi. Mas.: **eksteriorizatsiya, ekstern, eksteroretsepsiya; eksternat** [*lot.* externus – tashqi, begona +...at] – biror o‘quv yurti (maktab, kollej, texnikum, oliy o‘quv yurti) kursini keyinchalik unda imtihon topshirish maqsadida mustaqil

ravishda o‘rganib chiqish; u yoki bu o‘quv yurtida o‘qimagan (ta’lim olmagan) shaxslar (eksternlar) uchun imtihon topshirish tartibi; **eksteroretseptorlar** [ekstero...+ *lot.* retseptor – qabul qiluvchi] – tana sirtida, tanada o‘rnashgan, tashqi muhitdagi qo‘zg‘atuvchilarni (yorug‘lik, tovush, issiqlik va boshqalarni) sezuvchi nerv uchlari; **eksteryer** [*fr.* exterieur < *lot.* exterior – tashqi] – jonivorning tashqi ko‘rinishi va tana tuzilishi; ayrim tana qismlarini tashqi tomondan ko‘rib chiqish va o‘lchab ko‘rish natijalari ballar bilan baholanadi.

EKSTRA... [*lot.* extra – me’yordan yuqori, haddan tashqari, o‘ta, favqulodda] – old qo‘shimcha; o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, haddan tashqari, odatdagi me’yordan yuqori, ortiq, ortiqcha, ustiga kabi ma’nolarni ifodalaydi. Mas.: **ekstrabug‘, ekstradural, ekstralingvistik, ekstraordinar, ekstrapolyator, ekstrapolyatsiya, ekstrasensor, ekstrasistola, ekstravazat, ekstravert, ekstrazonal; ekstrasens** [ekstra...+ *lot.* sensitivus – sezgir, ta’sirchan] – atrof-muhitni, borliqni (sezgi a’zolari ishtirokisiz) idrok qilish hamda o‘zga kishilar va hayvonlarga ta’sir ko‘rsatishda g‘ayritabiiy qobiliyatga ega bo‘lgan shaxs; **ekstrasistola** [ekstra...+ *yun.* systole – qisqarish] – yurakning navbatdan tashqari urishi (qisqarishi); ekstrasistoliyaga sabab bo‘ladi; **ekstrasistoliya** [ekstra...+ *yun.* systole – g‘ijimlash; siqish; qisqarish] – aritmiyaning bir turi; yurakda vaqtidan oldin impulslar paydo bo‘lib, keyin cho‘ziq pauza ro‘y beradi; **ekstrospeksiya** [ekstr(o)...+ *lot.* spectare – qaramoq, kuzatmoq] – psixologiyada: boshqa kishilarning xulq-atvorini obyektiv, tashqi tomondan kuzatish usuli.

...EKT [*lot.* (j)ektus – otish] – bugungi kunda o‘z asl ma’nosini yo‘qotgan, biror narsaning makonda turish holatini ko‘rsatuvchi lotincha ot yasovchi qo‘shimcha. Mas.: **obyekt, proyekt, subyekt** (bu so‘zlar ham dastlabki ma’nosini yo‘qotgan va hozir boshqacha izohlarga ega).

...EKTAZIYA [*yun.* ektasis – cho‘zilib kengayish, uzayish, cho‘zilish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, bo‘shliqli (ichi bo‘sh, g‘ovak) a’zolarning cho‘zilib (shishib) kengayishi ma’nosini bildiradi. Mas.: **angiektaziya, arteriektaziya, bronxoektaziya, keratoektaziya, sklerektaziya; flebektaziya** [fleb...+...ektaziya] – vena tomirlarining turg‘un kengayishi; **gastroektaziya** [gastr(o)...+...ektaziya] – ayrim kasalliklarda me’da bo‘shlig‘i va devorlarining cho‘zilishi, kengayishi; **nefrektaziya** [nefr...+...ektaziya] – buyrakning kengayib ketishi; **piyeloektaziya** [piyelo...+ ...ektaziya] – buyrak jomchasining kengayishi; **tiflektaziya** [tifl...+...ektaziya] – ko‘richakning kengayishi.

EKTO... [*yun.* ektos – tashqi, tashqari(da)] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, tashqi, sirtqi, tashqarida(gi), tashqariga kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **ektoblast, ektodermoz, ektomer, ektotroflar; ektoderma** [ekto...+...derma] – embrionning boshlang‘ich taraqqiyotida hosil bo‘ladigan ikki qavat gastrula devorining tashqi qavati; **ektogenez** [ekto...+ ...genez] – evolyutsion ta’limotda tirik (jonli) tabiatning tarixiy taraqqiyotini organizmlarning yashash muhitiga bevosita moslanishi deb hisoblovchi yo‘nalishlarning umumiy nomi; **ektoparazitlar** [ekto...+ parazit] – xo‘jayin tanasining yuzasida, tanadan tashqarida yashovchi parazitlar (bit, burga va boshqalar); **ektoplazma** [ekto...+...plazma] – hujayra protoplazmasining tashqi hujayra pardasiga yaqin qismi.

...EKTOMIYA [*yun.* ektome – olib tashlash, kesib, qirqib tashlash] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, birinchi qism anglatgan tana a’zosi yoki uning biror qismini operatsiya yo‘li bilan butunlay yoki qisman olib tashlash ma’nosini bildiradi. Mas.: **adipektomiya, alveolektomiya, artrektomiya, duodenektomiya, ezofagektomiya, ganglioektomiya, iridektomiya, laminektomiya, laringoektomiya, mastektomiya, oftalmoektomiya, omfalektomiya, plevrektomiya, sistektomiya, sklerektomiya, strumektomiya, tonzillektomiya, trombektomiya, yeyunektomiya; appendektomiya** [*lot.* append(ix) – o‘simta, ortiq +...ektomiya] – chuvalchangsimon o‘simtani jarrohlik yo‘li bilan olib tashlash; **gastrektomiya** [gastr...+...ektomiya] – me’dani (oshqozonni) butunlay olib tashlash; **metrektomiya** [metr(o)...+...ektomiya] – laparotomiya qilib, qin orqali bachadonni jarrohlik yo‘li bilan olib tashlash; **nekrektomiya** [nekr...+...ektomiya] – o‘lgan to‘qimalarni olib tashlashdan iborat operatsiya; **osteoektomiya** [osteo...+ ...ektomiya] – suyakni yoki uning biror qismini jarrohlik yo‘li bilan olib tashlash; **pnevmonektomiya** [pnevmo(n)...+…ektomiya] – o‘pkaning og‘ir kasalliklarida bir tomon o‘pkani butunlay olib tashlash operatsiyasi.

EKVI... [*lot.* aequus – teng, baravar] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, teng, baravar, teng (bir xil) qiymatli kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **ekvalayzer, ekvatorial, ekvivalentlik, ekvilibrist, ekvipotensial; ekvator** [*lot.* aequator – tenglashtiruvchi < aequus – teng] – har ikkala qutbdan teng uzoqlikda o‘tkazilgan, Yerning aylanish o‘qiga perpendikulyar bo‘lgan va Yer sharini shimoliy va janubiy yarimsharlarga bo‘ladigan, uzunligi 40 ming kilometr bo‘lgan katta aylana chiziq; **ekvilibristika** [ekvi...+ *lot.* libris – muvozanatda turish +…istika] – tez bajariladigan harakatlarni amalga oshirishda artistning o‘z muvozanatini saqlash mahoratiga asoslan-

gan sirk san'ati janri; **ekvilinearlik** [ekvi...+ *lot.* linea – satr, qator, yo'l] – teng-satrlilik; she'riy tarjimada satrlar sonining asliyatdagi miqdorda bo'lishiga rioya qilish; **ekviritmiya** [ekvi...+ *yun.* rythmos – ritm, vazn] – tarjimon tomonidan asliyatdagi har bir alohida she'r ritmi (vazniy) xususiyatlarining aniq berilishi; **ekvivalent** [ekvi...+ *lot.*valens (valentis) – kuch, ahamiyat, qiymatga ega bo'lgan] – kuch, ahamiyat, qiymat va boshqa jihatlardan teng yoki o'zaro muvofiq keluvchi narsa (narsa-buyum, xizmat, tushuncha, hodisa, miqdor).

EKZ(O)... [*yun.* exo – tashqarisi, sirti; tashqari, tashqarida, tashqaridan] – o'zlashma qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, biror narsa yoki kimsadan tashqari, tashqarida joylashganlikni; tashqari, sirt tomon kabi ma'nolarni bildiradi. Mas.: **ekzantema, ekzartikulyatsiya, ekzenteratsiya, ekzoderma, ekzoelektron** (emissiya)**, ekzoforiya, ekzogenota, ekzokarpiy, ekzokrin** (bezlar)**, ekzosfera, ekzosmos, ekzoterik, ekzotermik** (reaksiya)**, ekzotika, ekzotroflar, ekzotroplar; ekzensefaliya** [ekz(o)... + *yun.* enkephale – miya, bosh miya] – kalla suyaklarining yetishmovchiligi va bosh miyaning kalla bo'shlig'idan tashqari joylashishi bilan ifodalanadigan mayib-majruhlik; **ekzobiologiya** [ekzo...+ biologiya] – kosmik biologiyaning Yerdan tashqarida hayot, yashash shakllari mavjudligi ehtimolini o'rganuvchi sohasi; **ekzoftalm** [ekz(o)...+ *yun.* ophthalmos – ko'z] – ko'z soqqasining ko'z kosasidan chiqqudek bo'lib chaqchayib turishi; chaqchayma ko'z; **ekzogamiya** [ekzo...+...gamiya] – 1) ibtidoiy jamiyatda bir urug' yoki jamoa vakillari (yaqin qarindoshlar) o'rtasida jinsiy munosabat (nikoh) larning taqiqlanganligi; 2) kelib chiqishi turlicha bo'lgan hujayralarning qo'shilishi; **ekzogen** [ekzo...+...gen] – organizmda biror jarayonga tashqi muhit omillarining ta'siri natijasida ro'y beradigan; tashqi muhit ta'sirida kelib chiqqan; **ekzostoz** [ekz(o)...+ ost(eo)...+...oz] – suyak sirtidan o'sib chiqqan xavfsiz suyak o'smasi; **ekzotoksin** [ekzo...+ *yun.* toxikon – zahar] – patogen mikroblar, bakteriyalar atrof-muhitga chiqaradigan zahar modda; **ekzotsitoz** [ekzo...+ sito...+ ...oz] – hujayra moddalarining tashqariga sekretor donachalar yoki pufakchalar shaklida ajralishi.

ELEKTR(O)... [*yun.* elektron – kahrabo; qatron] – o'zlashma qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, elektrga aloqador, unga xos, elektr bilan harakatga keltiriladigan, elektr hosil qiladigan, elektr tufayli ishlaydigan kabi ma'nolarni bildiradi. Mas.: **elektrifikatsiya, elektroakustika, elektroanaliz, elektrod, elektrodiagnostika, elektrodiagnoz, elektrodinamika, elektroenergiya, elektroensefalografiya, elektroensefalogramma, elektrofiziologiya, elektrofon, elektrofor, elektrofotografiya, elektrogastro-**

grafiya, elektrokardiostimulyator, elektrokaustika, elektrokoagulyatsiya, elektrokorund, elektrolyuminessensiya, elektromagnetizm, elektromagnit, elektromegafon, elektrometriya, elektromiografiya, elektromotor, elektron, elektronarkoz, elektronika, elektronografiya, elektropunktura, elektroretinografiya, elektrosintez, elektroskop, elektrostansiya, elektrostatika, elektrostimulyatsiya, elektrotaksis, elektroshok; elektroforez [elektro...+ *yun.* phoreo – ko‘tarib (olib) boraman, ko‘chiraman] – zaryadlangan kolloid zarralarning tashqi elektr maydoni ta’siri ostida o‘zgarishi, joyini o‘zgartirishi; **elektrograf** [elektro...+...graf] – atmosferaning elektrik holatini qayd etib boruvchi asbob, o‘ziyozar elektrometr; **elektrografiya** [elektro...+...grafiya] – poligrafiyada: tasvirni bosma shaklda aslidagiday aks ettirish va uni qog‘ozga tushirishning elektrik va magnit usullari; **elektrokar** [elektro...+ *ingl.* car – arava] – akkumulyatorlar batareyalaridan oziqlanadigan elektromotor yordamida harakatga keltiriladigan aravacha; **elektrokardiografiya** [elektro...+ kardiografiya] – yurakning tepishi natijasida hosil bo‘ladigan elektr impulslarni elektrokardiograf yordamida grafik tarzda qayd etib, yurakning ahvolini tekshirish usuli; **elektrokardiogramma** [elektro...+ kardiogramma] – yurak tepishining elektrokardiograf vositasida yozib olingan grafik tasviri; **elektrokimyo** [elektro...+ kimyo] – fizik kimyoning elektrik va kimyoviy jarayonlar o‘rtasidagi aloqani o‘rganadigan bo‘limi; **elektrolitlar** [elektro...+...lit(...liz)] – elektr tokini o‘tkazishi ionlar harakati bilan amalga oshadigan kimyoviy moddalar va sistemalar; **elektroliz** [elektro...+...liz] – tuz yoki kislotalarning eritmasidan o‘zgarmas elektr oqimi o‘tayotganda, eritmaning tarkibiy qismlarga ajralish jarayoni; **elektromobil** [elektro...+ (avto) mobil] – akkumulyatorlar batareyasi o‘rnatilgan bir yoki bir necha elektromotor yordamida harakatlanadigan avtomobil; **elektronarkoz** [elektro...+ narkoz] – hayvon yoki odam markaziy nerv sistemasiga ma’lum kuchlanishli elektr toki ta’sir ettirish yo‘li bilan yuzaga keltiriladigan narkoz; **elektrooptika** [elektro...+...optika] – fizikaning elektr maydonining moddalar optik xossalariga ta’sirini o‘rganuvchi bo‘limi; **elektroskop** [elektro...+...skop] – elektr zaryadlarni sezadigan va ularning kattaliklarini taxminan aniqlaydigan oddiy asbob; **elektroterapiya** [elektro...+...terapiya] – elektr oqimi, elektr va magnit maydonlarini davolash maqsadlarida ishlatish, qo‘llash; **elektrotermiya** [elektro...+ *yun.* therme – issiqlik +...iya] – texnikaning sanoat maqsadlarida elektr energiyasini issiqlikka aylantirish masalalari bilan shug‘ullanuvchi bo‘limi; **elektrotexnika** [elektro...+ texnika] – 1) elektr energiyasidan amaliy maqsadlarda foydalanish yo‘llari va usullari haqidagi fan; 2) texnikaning elektr asbob-uskunalar va mashinalar ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanish bilan bog‘liq sohasi.

...ELLA [*lot.* -ella] – so‘z yasovchi qo‘shimcha bo‘lib, kichraytirma otlarni hosil qilgan, biroq bugungi kunda kichraytirish ma’nosi birmuncha yo‘qolgan. Mas.: **kapella** [*lot.* capella – echkicha; keyinchalik: kichik butxona, ibodatxona] – 1) cherkov xonandalari xori; keyinchalik vokal-cholg‘u musiqa jamoasi; 2) katolik va anglikan dinida ayrim zodagonlarning oilaviy ibodati uchun mo‘ljallangan, ibodatxonalar yonida, saroy va qasrlarda joylashgan kichik butxona; **novella** [*lot.* novellus – yosh nihol, ko‘chat < novus – yangi] – nasrning kichik janri, kichik hikoya; **tabel** [*lot.* tabella – taxtacha; lavha, jadval] – biror narsani hisobga, ro‘yxatga olish varaqasi.

...EMA [*yun.* -ema] – so‘z yasovchi qo‘shimcha; tilshunoslikda nutq birliklari nomini ifodalovchi terminlar hosil qiladi. Mas.: **grafema, grammema, semema, sillabema, sintaksema, tonema; fonema** [fon...+...ema] – til tovush qurilishining eng kichik birligi; fonemalar tilning ma’noli birliklari (morfema, so‘z, gaplar) ni tuzish va farqlash uchun xizmat qiladi; **leksema** [*yun.* lexis – so‘z, ibora +...ema] – shakl va ma’no jihatidan bir butun holda o‘rganiladigan mustaqil ma’noli so‘z; **morfema** [*yun.* morphe – shakl +...ema] – o‘z ma’nosiga ega bo‘lgan, boshqa ma’noli qismlarga bo‘linmaydigan til birligi.

EMBRIO... [*yun.* embryon – murtak, pusht; kurtak] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning murtak, pusht, homilaga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **embriokardiya, embriolog, embrioma, embrion, embrional** (rivojlanish)**, embriotoksiklik, embriotroplik; embriogenez** [embrio...+...genez] – ontogenezning ilk davri: rivojlanayotgan homila qismlari, tizimlari o‘ziga xos vazifalarni bajara boshlaydigan davr; **embriologiya** [embrio...+...logiya] – biologiyaning odam, hayvon va o‘simlik embrionlarining o‘sishi va rivojlanishini o‘rganadigan bo‘limi; **embriopatiya** [embrio...+...patiya] – embrional rivojlanish davrida paydo bo‘ladigan nuqson (kasallik) larning umumiy nomi; **embriotomiya** [embrio...+...tomiya] – homilani maydalab olish operatsiyasi; ko‘pincha ko‘ndalang yoki qiyshiq kelib (turib), tug‘ila olmay o‘lib qolgan homilani olib tashlash uchun qo‘llanadi.

...EMIYA [*yun.* haima – qon] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlar tarkibida kelib, shu so‘zlarning qonga, qon kasalliklariga aloqadorligini ko‘rsatadigan suffiksoid. Bunda: 1) qonda biror kimyoviy yoki boshqa moddaning borligi yoki yo‘qligi (kamligi); 2) qonning o‘zi ko‘p miqdorda yoki oz miqdorda bo‘lishi, kamqonlik kabi holatlar o‘zaro farqlanadi. Mas.: I. **anoksemiya, azotemiya, bakteriyemiya, lipemiya, piyemiya, xolemiya; gidremiya** [gidr(o)...+ ...emiya] – qonda suv miqdorining ko‘payishi, qonning suyuq bo‘lishi; **glike-**

miya [glik(o)...+...emiya] – qonda qand moddasining bo‘lishi (ko‘payishi). II. **oligemiya, talassemiya; giperemiya** [giper...+...emiya] – qonning muayyan a’zoga yoki to‘qima qismiga shiddatli oqib kelishi natijasida ularda qon miqdorining ko‘payishi; **ishemiya** [*yun.* ischo – to‘xtatib turaman, to‘xtataman +...emiya] – muayyan a’zoni qon bilan ta’minlovchi arteriyaning dimlanib yoki torayib qolishi natijasida o‘sha joyda paydo bo‘ladigan kamqonlik; **xloremiya** [xlor(o)...+...emiya] – qonda xloridlarning (normal, ko‘p yoki oz miqdorda) mavjud bo‘lishi.

EN... [*yun.* en – -da, -ga, -dan; ichida, orqasida, yonida, oldida] – old qo‘shimcha; o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, ichida, orasida, yonida kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **enantema, enartroz, endemizm, engramma, engarmonizm, enklitika, enkoprez, enostoz, entropion, entropiya, enxondroz; endemiklar** [*yun.* endemos – mahalliy] – faqat ma’lum geografik hududda uchraydigan hayvonlar va o‘simliklar turlari; **endemiya** [*yun.* endemos – mahalliy] – biron-bir (ko‘pincha yuqumli) kasallikning muayyan hududda ko‘proq yoki kamroq barqaror mavjud bo‘lishi; **engarmonizm** [en...+ *yun.* harmoniya – hamohanglik +...izm] – nota alifbosida bir xil balandlikka, lekin turli nomlar va belgilarga ega bo‘lgan musiqiy tovushlarni tenglashtirish, birxillashtirish; **enoftalm** [en...+ *yun.* ophthalmos – ko‘z] – ko‘z soqqasining ko‘z kosasida chuqur joylashganligi; **enzimlar** [en...+ *yun.* zyme – xamirturush, achitqi] – fermentlar, biokatalizatorlar; tirik hujayralarda kimyoviy jarayonlarni bir necha million marta tezlashtiruvchi katalizatorlar vazifasini bajaruvchi oqsillar; **enzootiya** [en...+ zoo(t)...+...iya] – hayvonlarning muayyan bir joy, hududgagina xos bo‘lgan (shu yerlarda tarqalgan) yuqumli kasalligi.

END(O)... [*yun.* endon – ichki, ichida, ichkarida] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, ichki, o‘z ichidagi, ichida joylashish, kelib chiqish kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **endaortit, endarterektomiya, endobronxit, endofiliya, endoftalm, endoftalmit, endogen, endogenota, endokardit, endokrinolog, endokrinopatiya, endokrinoterapiya, endolimfa, endometriy, endomiokardit, endomitoz, endomorf, endoplazma, endoprotez, endoreproduksiya, endoskopiya, endosmos, endosomalar, endosperm, endospora, endost, endostoz, endotelioma, endotelioz, endotermiya, endotoksinlar, endotroflar, endotservitsit, endovaskulit; endarteriit** [end(o)...+ arteri...+...it] – arteriya devori ichki qatlamining yallig‘lanishi; **endoderma** [endo...+...derma] – o‘simliklarning poya va ildizlaridagi birlamchi po‘stloq hujayralarining ichki qavati: o‘tkazuvchi to‘qima

bilan markaziy to‘qima oralig‘ida joylashadi; **endoflebit** [endo...+ fleb(o)...+ ...it] – vena ichki pardasining yallig‘lanishi; **endogamiya** [endo...+...gamiya] – 1) bironta ijtimoiy guruh (qabila, urug‘, tabaqa va boshqalar) ning o‘z ichidan uylanishini taqozo etuvchi odat; 2) yaqin qarindoshlar jinsiy hujayralarining qo‘shilishi; **endokard** [endo...+...kard] – yurak devorining ichki qavati; yurak mushak qavatining ichki yuzasini qoplab turadigan yupqa parda; **endokrin** [endo...+ *yun.* krino – ajrataman]: ***endokrin bezlar*** – ichki sekretsiya bezlari; **endokrinologiya** [endokrin(o)...+...logiya] – klinik tibbiyotning ichki sekretsiya bezlarining tuzilishi, rivojlanishi va funksiyalarini, ular ishlab chiqaradigan gormonlar hamda ularga aloqador kasalliklarni o‘rganadigan bo‘limi; **endometrit** [endo...+ *yun.* metra – bachadon +...it] – ba’zi hayvonlar va odam bachadoni ichki shilliq qavatining yallig‘lanishi; **endonevrit** [endo...+ nevr...+...it] – nerv tolalarining yallig‘lanishi; **endoparazitlar** [endo...+ parazit] – ichki parazitlar: xo‘jayin hayvon va o‘simlik to‘qimalari, ichki a’zolarida yashab, uning hisobiga hayot kechiruvchi organizmlar; **endoskop** [endo...+ ...skop] – kovak, ichi bo‘sh a’zolarni ko‘rib tekshirish uchun ishlatiladigan optik asbob; **endoteliy** [endo...+ *yun.* thele – so‘rg‘ich] – hayvonlarda bir qator bo‘lib joylashgan yassi hujayralar qavati; **endozooxoriya** [endo...+ zoo...+ …xoriya] – o‘simlik mevalari va urug‘larining hayvonlar yordamida tarqalishi, bunda urug‘lar hayvonning ovqat hazm qilish yo‘lidan o‘tadi.

ENSEFAL(O)... [*yun.* enkephale – miya, bosh miya] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning bosh miyaga, uning kasalliklariga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **ensefalogramma, ensefalomalyatsiya, ensefalomeningit, ensefalomeningotsele, ensefalometriya, ensefalomiyelit, ensefalotrofiya; ensefalit** [ensefal...+...it] – har xil sabablarga ko‘ra bosh miyaning yallig‘lanishi; **ensefalografiya** [ensefalo...+...grafiya] – oldindan bosh miya bo‘shliqlariga kontrast moddalar (asosan, havo yoki kislorod) yuborib, uni rentgenologik tekshirish usuli; **ensefalopatiya** [ensefalo...+...patiya] – bosh miyaning turli xil yallig‘lanishlarga bog‘liq bo‘lmagan kasalliklari; **ensefalotsele** [ensefalo...+...sele] – tug‘ma yoki orttirilgan miya churrasi: kalla suyagining nuqsoni tufayli bosh miya moddasining tashqariga bo‘rtib chiqishi.

...ENT *q.* **...ANT**.

ENT(O)... [*yun.* entos – ichki, ichida] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, ichki, ichkarida joylashgan kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **entamyoba, entoblast; entobakterin** [ento...+ bakter(iya)...+...in] – kristall

hosil qiladigan bakteriya asosida olinadigan, ko‘plab zararkunanda hasharotlarga qarshi qo‘llanadigan biologik insektitsid; **entoderma** [ento...+...derma] – 1) ko‘p hujayrali hayvonlar va odamning ilk rivojlanish bosqichidagi murtak (embrion) ning ichki qavati (ichki murtak varag‘i); undan ichak epiteliysi va u bilan bog‘liq bezlar hosil bo‘ladi; 2) bo‘shliqichli hayvonlar tana devorining ichki hujayra qavati; endoderma.

ENTER(O)... [*yun.* enteron – ichak(lar), ingichka ichak] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning ichakka, ingichka ichakka, ichak kasalliklariga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **enteral, enteroanostomoz, enterobioz, enteroduodenostomiya, enterogasterin, enterogastron, enterogen, enterogenez, enterokinaza, enterokistoma, enterokokklar, enteromegaliya, enteropatiya, enterorafiya, enterosepsis, enterostomiya, enterotoksin, enterotsit, enterovirus; enteralgiya** [enter...+...algiya] – ichak sanchig‘i, ichakning qattiq og‘rishi; **enterit** [enter...+ ...it] – ingichka ichak ichki qavatining yallig‘lanishi; **enterogemorragiya** [entero...+ gemo...+...rragiya] – ichakdan qon ketishi; **enterokolit** [entero...+ kolit] – ingichka va yo‘g‘on ichaklar shilliq qavatlarining bir paytda yallig‘lanishi; **enterolit** [entero...+...lit] – ingichka ichak toshi; **enterologiya** [entero...+ ...logiya] – gastroenterologiyaning ichak kasalliklarini o‘rganuvchi bo‘limi; **enteroptoz** [entero...+...ptoz] – ingichka ichakning o‘z o‘rnidan pastda turishi (pastga tushishi); **enterorragiya** [entero...+...rragiya] – ingichka ichakdan qon ketishi; **enteroskop** [entero...+...skop] – ingichka ichak bo‘shlig‘ini optik yo‘l bilan tekshirish uchun ishlatiladigan asbob; **enterospazm** [entero...+ ...spazm] – ingichka ichakning torayib turishi; **enterostomiya** [entero...+ ...stomiya] – jarrohlik yo‘li bilan ingichka ichakdan teshik ochish.

ENTOM(O)... [*yun.* entoma – hasharot] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, hasharot ma’nosini ifodalaydi. Mas.: **entomofil** (o‘simliklar)**, entomolog; entomofaglar** [entomo...+...fag] – hasharotlar bilan oziqlanuvchi parazit va yirtqich mikro- va makroorganizmlar; **entomofiliya** [entomo...+...filiya] – o‘simliklarning hasharotlar yordamida chetdan changlanishi; **entomologiya** [entomo...+...logiya] – zoologiyaning hasharotlarni o‘rganuvchi bo‘limi; hasharotshunoslik; **entomozlar** [entom(o)...+...oz] – qishloq xo‘jaligi hayvonlarida: ular organizmida parazitlik qiluvchi, qon so‘ruvchi hasharotlar keltirib chiqaradigan kasalliklar.

ENZIM(O)... [*yun.* enzyme < en- – ichiga, ichida + zyme – achitqi] – o‘lashma yasama va qo‘shma so‘zlarning birinchi (asos) qismi bo‘lib, ferment,

achitqi ma'nolarini bildiradi. Mas.: **enzimlar = fermentlar, enzimopatiya = fermentopatiya; enzimologiya** [enzimo...+...logiya] – enzim (ferment) larning tuzilishi, katalitik xossalari va ta'sir mexanizmini o'rganadigan fan; biokimyoning bir bo'limi; **enzimoterapiya** [enzimo...+...terapiya] – har xil fermentlarni davolash maqsadida ishlatish; **enzimuriya** [enzim...+...uriya] – siydikda enzimlar (fermentlar) ning bo'lishi.

EO... [*yun.* eos – tonggi shafaq] – o'zlashma qo'shma so'zlarning birinchi qismi bo'lib, ilk, dastlabki, boshlang'ich (davr) kabi ma'nolarni bildiradi. Mas.: **eoantrop, eokembriy, eolit, eozin; eolitlar** [eo...+...lit] – qirralari o'tkir, keskir kremniy va boshqa tosh parchalari; **eotsen** [eo...+...sen] – paleogen davrining o'rta qismi; **eozoonlar** [eo...+ *yun.* zoon – hayvon, tirik mavjudot] – XIX asr oxirida Shimoliy Amerikada topilgan va yanglishib, qadimgi hayvonlarning qoldiqlari degan xulosaga kelingan noorganik mineral hosilalar.

EP... [*yun.* epos – nutq, til, gap, so'z; hikoya, qo'shiq; epikos – hikoyaga, qissaga oid] – o'zlashma yasama so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, shu so'zlarning so'z, gap, nutq, bayon, hikoya bilan aloqadorligini ko'rsatadi. Mas.: **epik, epod, epopeya; epika** [*yun.* epikos] – epik asarlar (hikoya, qissa, roman kabilar) majmuyi; **epos** [*yun.* epos] – 1) badiiy adabiyotning lirika va dramadan ajralib turadigan, bayon tarzidagi uchinchi turi; 2) xalq og'zaki ijodiyotida qahramonlik va qahramonlar haqidagi dostonlar majmuyi.

EPI... [*yun.* epi – ustida, ustiga, yonida, yaqinida, orqasida, keyin] – o'zlashma qo'shma so'zlarning birinchi qismi bo'lib, biror narsaning ustida, biror narsaning yonida joylashgan, ustki, biror narsadan keyingi kabi ma'nolarni bildiradi. Mas.: **epiblefaron, epidiaproyektor, epididimit, epididimografiya, epidural, epifenomen, epifitotiya, epifiz, epifora, epignatiya, epigon, epigrafika, epikantus, epikotil, epikriz, epimenoreya, epiornis, epipaleolit, episkop, episklerit, epispadiya, epitaksis, epitaksiya, epitalamus, epiteliy, epitermal** (konlar)**, epitsikl, epitsistostomiya, eponim; epidemiya** [epi...+ *yun.* demos – xalq] – yuqumli kasalliklarning ma'lum hududda yoki mamlakatda odatdagi kasallanish darajasidan ko'proq tarqalishi; **epiderma // epidermis** [epi...+...derma] – terining eng ustki qavati; **epidermofitiya** [epi...+ dermo...+...fit(iya)] – terining epidermofiton zamburug'lari tufayli kelib chiqadigan zamburug'li kasalligi; **epidiaskop** [epi...+ diaskop] – obyektlarning shaffof va noshaffof tasvirlarini ekranga tushirish uchun mo'ljallangan asbob; **epifauna** [epi...+ *lot.* Fauna – hayvonot dunyosi] – suv havzalari tubida yashovchi jami suv jonivorlari; **epifitlar** [epi...+

...fit] – boshqa o‘simliklar, asosan, daraxtlar poyasi, shoxlarida yashaydigan, biroq oziq moddalarni atrof-muhitdan oladigan o‘simliklar; **epigenez** [epi...+ ...genez] – organizmlarning murtakdan asta-sekin, izchil yangi shakl o‘zgarishlar natijasida rivojlanishi to‘g‘risidagi ta’limot; **epigraf** [epi...+...graf] – 1) Yunonistonda qabrtoshlar yoki bino ustidagi yozuv; 2) adabiy asar yoki uning biror qismi (bobi) ning tepasiga yozib qo‘yilgan va shu asar (bob) mazmunini, g‘oyasini ifodalaydigan ibora, maqol, matal, hikmatli so‘z, she’riy parcha va shu kabilar; **epigramma** [epi...+...gramma] – ustki yozuv; kichik hajviy she’r; **epikard** [epi...+...kard] – yurakning yupqa biriktiruvchi to‘qimadan iborat tashqi qavati; **epikriz** [epi...+ *yun.* krisis – qaror, hukm, xulosa] – kasallik varaqasidagi xulosaviy yozuvlar: unda kasallik sabablari va diagnozi, uning davolanishi va nima bilan tugaganligi tushuntirilgan oxirgi xulosa beriladi; **epilog** [epi...+...log] – badiiy asarda voqea tasviridan so‘ng qahramonlarning keyingi taqdirini bayon qiluvchi xotima qismi; **episkopiya** [epi...+...skopiya] – o‘zidan yorug‘lik nurini o‘tkazmaydigan (noshaffof) obyektlar suratini maxsus asbob – episkop yordamida ekranga tushirib tekshirish usuli; **epitafiya** [epi...+ *yun.* taphos – qabr, go‘r] – qabr ustidagi yozuv, asosan, marhumga bag‘ishlangan she’rda ifodalanadi; **epitsentr** [epi...+...sentr] – 1) zilzila o‘chog‘i, portlashlar markaziy nuqtasining yer sirtiga proyeksiyasi; zilzila o‘chog‘i ustidagi yerlar; 2) biror voqea-hodisaning manbayi, markaziy nuqtasi; **epizootiya** [epi...+ *yun.* zoon – hayvon +...iya] – hayvonlarda biror yuqumli yoki virusli kasallikning keng tarqalishi; kasallikning ma’lum vaqt ichida katta hududga yoyilib ketishi; **epizooxoriya** [epi...+ zoo...+…xoriya] – o‘simlik mevalari va urug‘larining o‘z tukchalari, ninacha va ilmoqchalari bilan hayvonlar juniga yopishib olib tarqalishi.

...ER [*ingl.* -er, *fr.* -er, -aire, *nem.* -er] – so‘z yasovchi; asosan, shaxs otlarini va mashina, asbob, moslamalar nomlarini hosil qiladi. Mas.: I. Shaxs otlari: **aksioner, broker, bukmeker, dirijyor, millioner, snayper, stayer; autsayder** [*ingl.* outsider – o‘zga, begona < outside – tashqi tomon, tashqarida] – musobaqalarda orqada qolgan, muvaffaqiyat qozonishga imkoniyati qolmagan sportchi yoki sport jamoasi; **dizayner** [*ingl.* design – reja, g‘oya; loyiha, chizma +...er] – kiyim–kechak, avtomobil, jurnal muqovasi va shu kabilarni ishlab chiquvchi, loyihalovchi shaxs, rassom, modelyer; **sprinter** [*ingl.* sprinter < sprint – qisqa masofaga yugurish, suzish +...er] – qisqa masofalarga yugurish, yurish, haydashga ixtisoslashgan sportchi; **stajyor** [*fr.* stajiaire < staje – faoliyat davomiyligi, sinov muddati] – muayyan lavozimda kelgusida ishlab ketish uchun sinov muddatini o‘tayotgan va o‘qiyotgan shaxs. II. Mashina, asbob, moslamalar nomlari: **drayver, greyder, konteyner, konveyer; skreper**

[*ingl.* scraper – kurak, qirg‘ich < scrape – qirmoq, qirtishlamoq +...er] – tirkamali, yarimtirkamali yoki o‘ziyurar yer qazish-transport mashinasi; **skuter** [*ingl.* scooter < scoot – yelmoq, yeldek (tez) uchmoq] – 1) osma motorli, bir o‘rinli tezsuzar sport qayig‘i; 2) mototsikl, mopedning yaqinroq masofalarga qatnashga mo‘ljallangan, soddalashtirilgan modeli; **taymer** [*ingl.* timer < time – vaqtni belgilamoq +...er] – biron-bir qurilmani belgilangan vaqt o‘tgandan keyin o‘chiruvchi (yoquvchi, ulovchi) yoki o‘chirish (yoqish) vaqti kelganligidan xabar beruvchi asbob.

...EREYA // ...ERIYA [*fr.* -erie, *ital*. -eria] – so‘z yasovchi qo‘shimchalar: jamlovchi ma’nodagi o‘rin-joy (**galereya, oranjereya**), sotuv mahsulotlari (**bijuteriya, galantereya, parfyumeriya**) va o‘yin (**lotereya**) nomlarini hamda harbiy terminlarni (**artilleriya, kavaleriya**) hosil qiladi.

ERG(O)... [*yun.* ergon – ish, mehnat] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, ish, mehnat ma’nolarini anglatadi. Mas.: **erg, ergastoplazma, ergativ, ergografiya, ergometr, ergometrin, ergosomalar; ergograf** [ergo...+...graf] – mushaklar faoliyatini, kishining jismoniy ish qobiliyatini grafik tarzda yozib oladigan maxsus asbob; **ergometriya** [ergo...+ ...metriya] – tirik organizmlarning ma’lum miqdordagi ish bajarishi vaqtida alohida mushakning yoki mushaklar guruhining ishlash qobiliyatini o‘lchash; **ergonomika** [ergo...+ nom(o)...+...ika] – muayyan kishi (kishilar guruhi) ni ishlab chiqarish faoliyati sharoitlari bilan bog‘liq holda kompleks o‘rganadigan fan.

ERITR(O)... [*yun.* erythros – qizil] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, qizil ma’nosini bildiradi. Mas.: **eritema, eritematoz, eritrazma, eritrit, eritroblast, eritrodermatit, eritrofagiya, eritrofobiya, eritroleykemiya, eritromiyeloz, eritron, eritropoez, eritrotsianoz, eritrotsitoz, eritroza; eritremiya** [eritr...+...emiya] – periferik qon tarkibida qizil qon tanachalarining ko‘payishi, me’yordagidan ancha ortiq bo‘lishi; **eritrin** [eritr...+...in] – 1) kobalt gullari – arsenatlar sinfiga mansub, rangi pushti-qizil, o‘ta shaffof mineral; 2) hayvon eritrotsitlaridan olingan, difteriyani davolashda ishlatiladigan antibiotik preparat; **eritroderma** [eritro...+...derma] – terining odatdan tashqari qizarishi; **eritrodermiya** [eritro...+...dermiya] – butun gavda terisi yoki ko‘pgina qismining yallig‘lanishi (qizarishi, shishishi, po‘st tashlashi, qipiqlanishi, qichishishi) bilan kechadigan kasallik; **eritrometr** [eritro...+...metr] – eritrotsitlar diametrini o‘lchash uchun ishlatiladigan mikroskop okulyari; **eritropeniya** [eritro...+…peniya]

– periferik qonda qizil qon tanachalari sonining kamayib ketishi; **eritropiya** [eritr(o)...+...opiya] – atrof-muhitning, buyumlarning qizilga o‘xshab, qizil bo‘lib ko‘rinishi; **eritrotsitlar** [eritro...+...sit] – qizil qon tanachalari – odam va hayvonlar qonining yadrosiz hujayralari; tarkibidagi gemoglobin qonga qizil tus beradi.

EROT(O)... [*yun.* eros (erotos) – muhabbat, ehtiros] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, sevgi, muhabbat, ehtiros ma’nolarini anglatadi. Mas.: **erogen, erotika, erotoman; erotizm** [erot(o)...+...izm] – jinsiy maylning, his–tuyg‘ularning namoyon bo‘lishi; ba’zi ruhiy kasalliklarda jinsiy maylning zo‘rayishi; **erotofobiya** [eroto...+...fobiya] – miyaga o‘rnashib qolgan qo‘rquv holati – jinsiy aloqa qilishdan hadiksirash, qo‘rqish; **erotomaniya** [eroto...+...maniya] – ba’zi ruhiy kasalliklarda jinsiy maylning patologik zo‘rayishi; o‘ta kuchli jinsiy mayl; shahvoniy hirs.

...ESSA, ...ISSA [*fr.* -esse, *ingl*. -ess, *ital.* -essa < *lot.* -issa] – so‘z yasovchi qo‘shimchalar: ayol zotiga mansub shaxs otlarini hosil qiladi. Mas.: **aktrisa, prinsessa, vikontessa; abbatissa** [*lot.* abbatissa] – ayollar katolik monastirining boshlig‘i; **baronessa** [*fr.* baronesse] – baronning xotini yoki qizi; **styuardessa** [*ingl.* stewardess] – passajir dengiz kemasi yoki samolyotlarda passajirlarga xizmat ko‘rsatuvchi xodim. Ayni shu qo‘shimchalar bilan yasalgan ba’zi so‘zlar rus tiliga va undan o‘zbek tiliga o‘zlashtirish jarayonida ham ma’noviy, ham fonetik jihatdan o‘zgarishlarga uchragan. Mas.: **delikates** [*fr.* delicatesse] – tansiq, yoqimli ovqat; **dyushes** [*fr.* duschesse – gersoginya] – yirik, sersuv va shirin nok turi.

ESTE... [*yun.* aesthesis – sezgi, his, tuyg‘u; sezish, his qilish] – o‘zlashma qo‘shma, yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning sezgiga, tuyg‘uga, sezish, his qilishga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **estet, estetik, estetizm, esteziolog, esteziometr; estetika** [*yun.* aisthetikos – hissiy, his qiluvchi; o‘ta sezgir, ta’sirchan] – san’at va badiiy ijodni, go‘zallikning tabiat va hayotdagi mohiyati va shakllarini, odam va olam o‘rtasidagi qadriyat munosabatlarini o‘rganuvchi falsafiy fan; **esteziologiya** [este(zio)...+...logiya] – sezgi a’zolarining tuzilishi va funksiyalarini o‘rganuvchi fan; **esteziometriya** [este(zio)...+...metriya] – terining sal teginishga, harorat va bosimning o‘zgarishiga sezgirligini maxsus asbob – esteziometr bilan o‘lchash.

...ESTEZIYA [*yun.* aesthesia – sezish, sezgi, his qilish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, sezish, sezgi, sezuvchanlik

ma’nolarini bildiradi. Mas.: **dizesteziya, gemianesteziya, makroesteziya, megaloesteziya, mikroesteziya, pallesteziya, paresteziya, poliesteziya, termanesteziya, termesteziya; anesteziya** [an…+…esteziya] – sezgining yo‘qolishi, karaxtlik; og‘riqsizlantirish; sun’iy ravishda hosil qilinadigan holat bo‘lib, sezish va og‘riq hislarini vaqtincha yo‘qotish bilan xarakterlanadi; **geteresteziya** [geter(o)…+…esteziya] – badanning har xil joylarida teri sezuvchanligining bir xil emasligi; **giperesteziya** [giper…+…esteziya] – 1) ayrim sabablar tufayli ichki va tashqi ta’sirlarga bo‘lgan sezgirlikning ortib ketishi; 2) teri sezgirligining kuchayishi; **gipesteziya** [gip(o)…+…esteziya] – giperesteziyaning aksi, ziddi: sezuvchanlikning, sezgirlikning pasayishi, kamayishi; **psixroesteziya** [psixro…+…esteziya] – sovuq(lik)ni sezish; sovuq ta’siridan og‘riq paydo bo‘lishi; **seysmesteziya** [seysm(o)…+…esteziya] – suyuq yoki havo muhitidagi vibratsiyani sezish, tuyg‘u bilan bilish; **zonesteziya** [*yun.* zonae – belbog‘+…esteziya] – siqib turadigan kiyim, belbog‘, kamar kabilar kiyilmagan, bog‘lanmagan bo‘lsa ham, ularni his qilish.

ESXAT... [*yun.* eschatos – so‘nggi, eng oxirgi] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, so‘nggi, oxirgi ma’nolarini anglatadi. Mas.: **esxatologiya** [esxato...+...logiya] – butun olam va ayrim bir insonning so‘nggi taqdiri, oxirzamon, oxirat haqidagi diniy ta’limot.

...ET, ...ETTA, ...ETTO [*fr.* -et, -ette, *ital.* -etto] – so‘z yasovchi qo‘shimchalar: biron-bir narsaning, tushunchaning kichraytmasi ma’nosidagi otlar yasaydi; **-et** terminelementi bilan yasalgan otlarda kichraytish ma’nosi ba’zi o‘rinlarda deyarli sezilmaydi **(bilet, kabinet),** ba’zi so‘zlarda saqlangan bo‘lsa-da, ular qayta so‘z yasalish jarayonidan o‘tgan **(kushetka, pipetka),** faqat bir so‘zdagina kichraytish ma’nosi aniq seziladi: **buklet** [*ingl.* booklet – kitobcha < *fr.* booklette – halqacha, bejirim uzuk] – turli usullar bilan bir necha marta buklangan bir bosma varaqqa bosilgan matbaa mahsuloti (geografik xarita, qisqacha yo‘lko‘rsatkichlar, ba’zan bolalarbop kitobchalar). Ayni shu ko‘rinishdagi va musiqa hamda ijroga oid **duet, kvartet, kvintet, nonet, terset** va boshqa terminlar ham asli italyan tilidagi ***-etto*** qo‘shimchasi bilan yasalgandir. **-etta, -etto** qo‘shimchalari yordamida esa, asosan, san’atga, teatrga oid terminlar yasaladi **(allegretto, berjeretta, fugetta, novelletta, operetta, palmetta, simfoniyetta)**. Mas.: **ariyetta** [*ital.* arietta – kichik ariya < *lot.* aria – qo‘shiq] – odatda, ijrosining soddaligi va ohangining qo‘shiqqa o‘xshashligi bilan ajralib turadigan kichik ariya; **kansonetta** [*ital.* canzonetta – kichik qo‘shiq < canzone – qo‘shiq] – uncha katta bo‘lmagan, kichik kansona; **libretto** [*ital.* libretto – kitobcha] – 1) katta musiqiy-vokal asar (opera, ope-

retta kabi) larning kitobcha ko‘rinishida e’lon qilingan matni; 2) balet, opera, kinofilm kabilar mazmunining badiiy ssenariysi yoki qisqacha syujetli bayoni. Ushbu qo‘shimchaning **sigareta** singari so‘zlarda fonetik o‘zgarish holati ham uchraydi.

ETI(O)... [*yun.* aitia – sabab] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, sabab ma’nosini bildiradi. Mas.: **etiologiya** [etio...+...logiya] – 1) patologiyaning kasalliklarning yuzaga kelish sabablari va shart-sharoitini o‘rganadigan bo‘limi; 2) kasallik sababi; **etiopatogenez** [etio...+ patogenez] – kasallikning etiologiyasi (kelib chiqish sababi) va patogenezi (paydo bo‘lishi va rivojlanishi) ni o‘rganish; **etiotrop** [etio...+...trop]: ***etiotrop davolash*** – birinchi navbatda kasallik sabablarini bartaraf qilishga, shundan keyingina uning oqibatlarini bartaraf qilishga qaratilgan davolash.

ETNO... [*yun.* ethnos – qabila, elat, xalq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, elat, xalq va ularga aloqador degan ma’nolarni anglatadi. Mas.: **etnik, etnogeografiya, etnograf, etnomadaniyat, etnomusiqa, etnonim, etnopsixologiya, etnos, etnosport, etnotsentrizm, etnoturizm; etnobotanika** [etno...+ botanika] – botanikaning bir bo‘limi: xalqning o‘simliklar haqidagi bilimlarini to‘plash va sistemalashtirish bilan shug‘ullanadi; **etnogenez** [etno...+...genez] – muayyan xalqning kelib chiqishi; ilgaridan mavjud bo‘lgan bir necha etnik komponentlar asosida yangi etnos (elat) ning vujudga kelishi; **etnografiya** [etno...+...grafiya] – xalqshunoslik; tarix fanining xalqlarning kelib chiqishini, tarkibini, joylashishini, turmushini va rasm-rusumlarini, moddiy, ma’naviy va ijtimoiy madaniyatini bevosita kuzatish yo‘li bilan o‘rganadigan bo‘limi; **etnolingvistika** [etno...+ lingvistika] – tilshunoslikda: til bilan til egasi bo‘lgan xalq o‘rtasidagi munosabatlarni, tilning rivojida va amal qilishida lisoniy, etnomadaniy va etnopsixologik omillarning o‘zaro aloqasini o‘rganuvchi yo‘nalish; **etnologiya** [etno...+...logiya] – *ayn.* **etnografiya**; **etnonimika** [etno...+ onim...+...ika] – leksikologiyaning xalq, qabila va boshqa etnik uyushmalarning nomlarini – etnonimlarni o‘rganadigan bo‘limi.

ETO... [*yun.* ethos – urf-odat, xulq-atvor, xatti-harakat] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, urf-odat, xulq-atvor, xatti-harakat ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **etogramma** [eto...+...gramma] – u yoki bu hayvon turiga xos bo‘lgan va tur ichidagi tashqi muomalada ular foydalanadigan “til”, holat, harakat, tovush va mimikalarning to‘liq ro‘yxati (katalogi); **etologiya** [eto...+...logiya] – biologiyaning zoologiya bilan bog‘liq va hayvonlarning tabiiy yashash sharoitidagi xatti-harakatini o‘rganadigan bo‘limi.

EU... [*yun.* eu – yaxshi] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, yaxshi degan ma’noni bildiradi; **ev..., ey...** terminelementlarining fonetik varianti. Mas.: **eubakteriyalar, eupepsiya, euxiliya; eukariotlar** [eu...+ *yun.* karyon – yong‘oq mag‘izi; yadro] – sitoplazmadan membrana (yadro qobig‘i) orqali ajralgan yetilgan yadro (mag‘iz) ga ega hujayrali organizmlar (barcha hayvonlar va ko‘pchilik o‘simliklarda).

EV..., EU..., EY... [*yun.* eu – yaxshi] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, yaxshi, durust, soz; yoqimli ma’nolarini bildiradi. Mas.: **evkalipt, evkariotlar, evkserofitlar, evritmiya, evtireoz, evtrofikatsiya; evfemizm** [*yun.* euphemismos < ev...+ *yun.* phemi – gapiraman] – biror sababga ko‘ra qo‘llanishi taqiqlangan yoki qo‘llanishi noqulay bo‘lgan qo‘pol, dag‘al so‘z o‘rniga boshqa yumshoqroq so‘z yoki ibora qo‘llash; **evfoniya** [*yun.* euphonia < ev...+...foniya] – ohangdorlik; nutqda kuchli ohangdorlik tug‘diruvchi turli fonetik usullar, holatlar; **evtanaziya** [ev...+ *yun.* thanatos – o‘lim] – bemorning o‘lim oldi azob-og‘riqlarini yengillashtirish; tuzalishi qiyin, azob-og‘riqdan qiynalayotgan bemorlarning o‘limini tezlashtirish; **evtroflar** [*yun.* eutrophia – yaxshi ovqatlanish < ev...+...trof] – faqat oziq moddalariga boy tuproqdagina yaxshi o‘sa oladigan o‘simliklar.

EVRI... [*yun.* eurys – keng, cheksiz; ko‘p; keng yoyilgan] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, keng, cheksiz; xilma-xil, ko‘p kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **evribatlar, evrifagiya, evripteridlar, evritermlar, evritoplar; evribiontlar** [evri...+...biont] – atrof-muhit sharoitlarining sezilarli o‘zgarishlariga bardosh berib yashay oladigan organizmlar; **evriedaflar** [evri...+ *yun.* edaphos – yer, tuproq] – juda xilma-xil, har xil tuproq sharoitlarida yashashga moslashgan organizmlar; **evrifaglar** [evri...+...fag] – har xil ovqatlarni tanlamay yeyaveradigan hayvonlar; **evrigalinlar** [evri...+ *yun.* hals – tuz +...in] – evrigalin hayvonlar: yuqori darajadagi sho‘r(langan) suvlarda yashay oladigan dengiz organizmlari.

...EVT [*yun.* -eut(es)] – biror ish, kasb bilan mashg‘ul bo‘lgan shaxs otlarini yasovchi qo‘shimcha. Mas.: **germenevt; farmatsevt** [*yun.* pharmaceutes – dori tayyorlovchi < pharmakon – dori] – farmatsevtika bo‘yicha oliy va o‘rta ma’lumotga ega bo‘lgan mutaxassis, dorishunos; **terapevt** [*yun.* therapeutes – davolovchi, parvarishlovchi < therapeia – g‘amxo‘rlik; parvarishlash, davolash] – ichki kasalliklar bo‘yicha mutaxassis vrach.

EXIN(O)... [*yun.* echinos – tipratikan] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, tipratikanga o‘xshash, dumaloq, sharsimon ma’nolarini bildiradi. Mas.: **exin, exinokaktus, exinokokkektomiya, exinorinx; exinokokklar** [exino...+...kokk] – yetilgan holda it, mushuk va boshqa etxo‘r hayvonlar ichagida, lichinka holida esa asosan o‘txo‘r hayvonlar va odam jigari hamda o‘pkasida yashovchi gijjalar; **exinokokkoz** [exinokokk +...oz] – odam va hayvonlar organizmida exinokokklar qo‘zg‘atadigan, halokatli darajadagi xavfli kasallik.

EXO... [*yun.* Echo – yunon mifologiyasidagi iloha (nimfa) lardan birining nomi] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, akssado, ma’lum aytilgan so‘z, gaplarni, qilingan harakatlarni qaytarish kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **exoensefalografiya, exografiya, exokardiograf, exolaliya, exolokator, exomimiya, exooftalmograf, exopraksiya; exofoniya** [exo...+ ...foniya] – o‘pka auskultatsiya qilinganida titragan tovushdan keyin akssadoga o‘xshash tovush eshitilishi; **exogramma** [exo...+...gramma] – exolotdan kelgan signallar bo‘yicha o‘ziyozar asbob bilan chizilgan grafik; **exokardiografiya** [exo...+ kardio...+...grafiya] – exokardiograf yordamida yurak tovushlaridagi nuqsonlarni yozib olish; **exokardiogramma** [exo...+ kardio...+...gramma] – ultratovushdan foydalanuvchi apparat yordamida yurak holatini tekshirish; yurakni ultratovushli o‘rganish; **exolot** [exo...+ *goll.* lood – akustik asbob] – gidroakustik signallar (akssado) yordamida suv chuqurligini o‘lchash uchun mo‘ljallangan navigatsion asbob; **exostetoskop** [exo...+ steto...+...skop] – suyak siniqlari va darzini ultratovush exografiya orqali aniqlash usuli va asbobi.

...EY [*yun.* -eion] – joy nomini bildiruvchi so‘zlar yasovchi qo‘shimcha. Mas.: **litsey** [*lot.* lyceum < *yun.* Lykeion – Aristotel dars bergan, Afina yaqinidagi Apollon Likey ibodatxonasi yonidagi daraxtzorning nomi] – ko‘pchilik mamlakatlarda o‘rta ta’lim o‘quv yurti; **mavzoley** [*lot.* mausoleum < *yun.* Mausoleion – miloddan avvalgi 4-asrda Kichik Osiyoda Kariya shohi Mavsol uchun qurilgan mashhur maqbara nomi] – qabr ustiga ishlangan mahobatli, ulug‘vor yodgorlik; maqbara; **muzey** [*lot.* museum < *yun.* museion – muzalar ibodatxonasi] – san’at, texnika, tabiat namunalarini, tarixiy va ilmiy-tabiiy ahamiyatga ega bo‘lgan narsalarni yig‘ish, saqlash, o‘rganish va xalqqa namoyish qilish bilan shug‘ullanadigan muassasa.

EY..., EV..., EU... [*yun.* eu – yaxshi] – ushbu terminelementning izohi haqida *q.* **ev...** Mas.: **eyglobulin, eykupin, eymidrin, eyxinin –** dori mod-

dalarning nomlari; **eyritmiya, eytanaziya; eyforiya** [*yun.* euphoria < ey...+ *yun.* phore – boshdan kechiraman, o‘tkazaman] – obyektiv holat bilan bog‘liq bo‘lmagan dimog‘chog‘lik; o‘z-o‘zidan, g‘ayriixtiyoriy ko‘tarinki-xursandchilik holatida bo‘lish (asosan, ruhiy kasalliklarda, narkotik moddalar qabul qilganda kuzatiladi); **eytoniya** [ey...+ *yun.* tonos – taranglik, zo‘riqish] – tananing yayrashi, yengil tortishi; o‘z-o‘zini yengil sezish va shu sezgidan lazzatlanish; **eytrofiya** [ey...+...trofiya] – normal ovqatlanish; ovqatni ishtaha bilan yeyish; ovqatning yaxshi singishi, hazm bo‘lishi.

EZO... [*yun.* eso – ichki; maxfiy, yashirin] – o‘zlashma qo‘shma va yasama so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, ichki, maxfiy, sirli ma’nolarini bildiradi. Mas.: **ezoforiya** [ezo…+ *yun.* phero – olib boraman, tashiyman] – ko‘zning ichki (burun) tomonga qaragan yashirin g‘ilayligi; **ezoterik** [*yun.* esoterikos – ichki, yashirin] – sirli, yashirin, faqat xabardor (tanish, voqif) bo‘lgan kishilargagina mo‘ljallangan (diniy marosim, ta’limot kabilar); **ezoterika** [*yun.* esoterikos] – u yoki bu dinga, maxfiy ta’limotga, sektaga xos bo‘lgan ezoterik bilimlar majmuyi; sirlilik, maxfiylik.

EZOFAG(O)... [*yun.* oisophagos – qizilo‘ngach] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning qizilo‘ngachga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **ezofagizm, ezofagodiniya, ezofagofibroskopiya, ezofagokardiografiya, ezofagomalyatsiya, ezofagoskopiya, ezofagospazm, ezofagostenoz, ezofagotomiya; ezofagektomiya** [ezofag(o)...+...ektomiya] – qizilo‘ngachning bir qismini kesib olib tashlash; **ezofagit** [ezofag...+...it] – qizilo‘ngachning yallig‘lanishi; **ezofagogastrostomiya** [ezofago...+ gastro...+...stomiya] – qizilo‘ngachni me’da (oshqozon) ga ulash operatsiyasi; **ezofagometr** [ezofago...+...metr] – qizilo‘ngach uzunligini o‘lchash uchun ishlatiladigan asbob; **ezofagoplastika** [ezofago...+...plastika] – qizilo‘ngach torayib qolganda, uning kasal qismini olib tashlab, o‘rniga ingichka yoki yo‘g‘on ichak, me’da yoki teridan yangi qizilo‘ngach yasash operatsiyasi; **ezofagorragiya** [ezofago...+...rragiya] – qizilo‘ngach shilliq pardasidan qon ketishi; **ezofagoskop** [ezofago...+...skop] – qizilo‘ngachning ichki bo‘shlig‘ini tekshirib ko‘rishda ishlatiladigan asbob; **ezofagostomiya** [ezofago...+...stomiya] – qizilo‘ngach devorini kesib, tashqariga ochib qo‘yish operatsiyasi; **ezofagotsele** [ezofago...+...sele] – qizilo‘ngach churrasi.

F

FAG(O)... [*yun.* phagos – yeyuvchi, yeb yuboruvchi, yamlamay yutuvchi] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, yeb bitiruvchi, yemiruvchi, yutib yuboruvchi; oziq-ovqat degan ma’nolarni bildiradi. Mas.: **faglar, fagodiagnostika, fagoliz, fagolizis, fagorezistentlik, fagosomalar, fagotip, fagotsitoz; fagofobiya** [fago...+...fobiya] – ba’zi ruhiy kasalliklarda: ovqat yutishdan qo‘rqish; **fagoprofilaktika** [fago...+ profilaktika] – yuqumli kasallik(lar) xavfi tug‘ilganda sog‘lom odamlarga maxsus bakteriofaglar yuborish yo‘li bilan ularning oldini olish; **fagoterapiya** [fago...+...terapiya] – organizmga maxsus bakteriofaglarni yuborish yo‘li bilan yuqumli kasalliklarni davolash; **fagotsitlar** [fago...+...sit] – odam va hayvonlarning biriktiruvchi to‘qimalaridagi himoyaga ixtisoslashgan hujayralar; organizmga kirib qolgan yot moddalarni, bakteriya va mikroblarni yutib, hazm qiladigan oq qon tanachalari.

...FAG, ...FAGIYA [*yun.* phagos – yeyuvchi, yeb yuboruvchi, yamlamay yutuvchi] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismlari bo‘lib, bunda **-fag** terminelementi birinchi qismdagi so‘z anglatgan narsani, moddani yeyuvchi, yeb bitiruvchi, yemiruvchi, yutib yuboruvchi degan ma’nolarni bildiradi va ko‘pincha **-lar** qo‘shimchasi bilan qo‘llanadi. Mas.: **detritofaglar, evrifaglar, koprofaglar, makrofaglar, mikrofaglar, monofaglar, polifaglar, sarkofag; bakteriofaglar** [bakterio...+...fag] – bakteriyalarni yutib, yemirib, yo‘q qilib yuboruvchi viruslar; bakteriyalar kushandasi; **entomofaglar** [entomo...+...fag] – hasharotlar bilan oziqlanadigan hayvonlar; **fitofaglar** [fito...+...fag] – faqat o‘simliklar bilan oziqlanadigan hayvonlar; **ixtiofag** [ixtio...+...fag] – asosan, baliq bilan oziqlanadigan hayvonlar; **nekrofaglar** [nekro...+...fag] – o‘limtikxo‘rlar; boshqa hayvonlarning murdalarini yeydigan jonivorlar; **saprofaglar** [sapro...+...fag] – organizmlarning chiriyotgan qoldiqlari yoki hayvonlarning axlatlari bilan oziqlanadigan hayvon va o‘simliklar; **zoofaglar** [zoo...+...fag] – faqat boshqa hayvonlar go‘shti bilan oziqlanuvchi hayvonlar.

-fagiya terminelementi esa yeyish, yeb bitirish, yutish, yemirish ma’nolarini bildiradi. Mas.: **avtofagiya, bakteriofagiya, disfagiya, fitofagiya,**

geofagiya, giperfagiya, koprofagiya, monofagiya, nekrofagiya, opiofagiya, polifagiya, taxifagiya, xtonofagiya; antropofagiya [antropo...+...fagiya] – odamxo‘rlik, kannibalizm; **evrifagiya** [evri...+...fagiya] – organizmning turli-tuman o‘simlik va hayvon mahsulotlari bilan ovqatlanish qobiliyati; polifagiyaning eng yuqori darajasi; **onixofagiya** [onixo...+...fagiya] – o‘z tirnoqlarini g‘ajish, tishlashga odatlanish.

FAKO... [*yun.* phakos – yasmiq, yasmiqsimon linza; ko‘z gavhari] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning linzaga, ko‘z gavhariga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **fakoanafilaksiya, fakogen, fakoglaukoma, fakolizin, fakomalyatsiya, fakomatoz, fakometaxorez, fakoplanez, fakoskop, fakoskotazm, fakozimaza; fakoliz** [fako...+...liz] – 1) ko‘z gavharini kesib, ajratib olish; 2) ko‘z gavharini fakolizin yoki boshqa antigen ta’sirida eritish; **fakometr** [fako...+...metr] – ko‘z gavharining nur sindirish kuchini o‘lchaydigan asbob; **fakoskleroz** [fako...+ skler(o)...+...oz] – ko‘z gavhari markaziy qismining sklerozi; **fakoskopiya** [fako...+...skopiya] – ko‘zni (ko‘z gavharini) fakoskop yordamida tekshirish; **fakotsistit** [fako...+ sist(o)...+...it] – ko‘z gavhari qobig‘i (pardasi) ning yallig‘lanishi.

FAK(T)... [*lot.* facere – qilmoq, bajarmoq; yasamoq] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, biror ish qilish, mashg‘ul bo‘lish, yasash kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **faktografiya, faktologiya, faktor, faktorial, faktotum, fakultativ, fakultet; faksimile** [*lot.* fac simile – aynan shunday qil] – 1) qo‘lyozma, yozma hujjat, biror kishining imzosini, biror-bir surat yoki manzarani fotografik yoki bosma usulda aynan aks ettirish; 2) asl (o‘z qo‘li bilan qo‘yilgan) imzoni aniq aks ettiruvchi bosma shakl, muhr; **fakt** [*lot.* factum – qilingan ish] – 1) haqiqat, bo‘lgan voqea, hodisa, holat; 2) nazariyani shakllantiruvchi, qat’iy belgilangan asos; 3) haqiqiyligi isbotlangan bilim, tajriba; **faktoriya** [*ingl.* factory – zavod, savdo idorasi < *lot.* factorium, factoria – ish joyi, ustaxona] – 1) ajnabiy savdogarlarning mustamlakalardagi yoki mustaqil mamlakatlarning chekka o‘lkalaridagi savdo-sotiq korxonasi; 2) ayrim uzoq ovchilik hududlaridagi tayyorlov va oldi-sotdi punkti; **faktura** [*lot.* factura – qayta ishlash, ishlov berish] – 1) sotuvchi tomonidan xaridorlarga beriladigan, sotish uchun amalda aniq jo‘natiladigan mollar (yoki xizmatlar) ro‘yxati, miqdori va narxi ko‘rsatilgan hujjat; 2) tasviriy san’atda: asar sirtiga ishlov berishning texnik usullari majmuyi.

FALS... [*lot.* falsus – yolg‘on, soxta < falsificare – soxtalashtirmoq, aldamoq] – o‘zlashma yasama so‘zlarning birinchi (o‘zak) qismi bo‘lib, shu so‘zlarning yolg‘onga, aldashga, soxtalikka aloqadorligini bildiradi. Mas.: **fal-**

set, falsifikat, falstart, falsh, falshbort; falsifikator [*fr.* falsificateur < *lot.* falsificatio] – soxtalashtiruvchi, qalbakilashtiruvchi shaxs; qallob; **falsifikatsiya** [fals(i)...+...fikatsiya < *lot.* falsificatio – soxtalashtirish] – chin, haqiqiy voqea-hodisani buzib ko‘rsatish, soxtalashtirish, qalbakilashtirish.

FANER(O)... [*yun.* phaneros – ochiq, oshkora, aniq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, ochiq, ochiq-oydin, oshkora ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **fanerofitlar** [fanero...+...fit] – bahorda o‘sishda davom etadigan qayta tiklanish kurtaklari tuproqdan ancha yuqori joylashgan barcha o‘simliklar (daraxtlar, butalar, daraxtsimon lianalar); **fanerogamlar** [fanero...+ ...gam(iya)] – jinsiy ko‘payish a’zolari ochiq ko‘rinib turgan gulli o‘simliklar; **fanerozoy** [fanero...+...zoy] – paleozoy, mezozoy va kaynozoy eralarini qamrab olgan, 570 million yil davom etgan, ishonarli organik qoldiqlari bo‘lgan yirik tarixiy davr.

FANT... [*yun.* phantos, phantasia – o‘y, xayol, tasavvur] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning o‘y, xayol, o‘ylash, xayol surish, faraz, tasavvur, xayoliy sharpa ma’nolariga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **fantasmagoriya, fantast, fantastron, fantazyor, fantom; fantastika** [*yun.* phantastike – xayol surish, tasavvur (faraz) qilish qobiliyati] – 1) mazmuni va shakli borliq bilan bevosita mos kelmaydigan badiiy ijod turi (adabiyot, kino, tasviriy san’at); 2) mavjud bo‘lmagan, noreal, amalga oshmaydigan narsa, xomxayol; bo‘lmagan (yolg‘on) gap; **fantaziya** [*yun.* phantasia – xayol, tasavvur] – 1) ijodiy tasavvur, xayolot; 2) orzu-xayol, uydirma, to‘qima; aqlga (haqiqatga) to‘g‘ri kelmaydigan gaplar; 3) ommabop kuylarga taqlidan yaratilgan, erkin shakldagi musiqiy pyesa.

FARING(O)... [*yun.* pharynx, pharyngos – yutqin, halqum] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarning yutqin, halqumga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **faringal, faringalizatsiya, faringizm, faringolaringografiya, faringomikoz, faringoparalich, faringoplastika, faringoskop, faringospazm, faringotomiya, faringotsele; faringektomiya** [faring(o)...+...ektomiya] – yutqinning bir qismini kesib olib tashlash operatsiyasi; **faringit** [faring(o)...+...it] – yutqin (halqum) shilliq pardasining yallig‘lanishi; **faringolaringit** [faringo...+ laring(o)...+...it] – yutqin va hiqildoqning bir paytda yallig‘lanishi; **faringolit** [faringo...+...lit] – yutqin devorlarida tosh hosil bo‘lishi; **faringologiya** [faringo...+...logiya] – yutqin va uning kasalliklari haqidagi ta’limot; **faringoplegiya** [faringo...+...plegiya] – yutqin mushaklarining falajlanishi; **faringorinit** [faringo...+ rin(o)…+…it] –

yutqin (halqum) bilan burunning yallig‘lanishi; **faringoskopiya** [faringo...+ ...skopiya] – tomoq va halqumni maxsus optik asbob – faringoskop bilan tekshirish; **faringostenoz** [faringo...+ sten(o)...+...oz] – halqumning torayishi.

FARMAK... [*yun.* pharmakon – dori; zahar] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarning dorilarga, dorivor moddalarga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **farmakoangiografiya, farmakodiagnoz, farmakodinamika, farmakogenetika, farmakognost, farmakognoz, farmakokimyo, farmakokinetika, farmakolog, farmakomaniya, farmakopeya, farmakopsixoz, farmatsevt, farmatsevtika; farmakofobiya** [farmako...+...fobiya] – dori va zaharlardan qo‘rqish, o‘rinsiz hadiksirash; **farmakognoziya** [farmako...+...gnoziya] – farmatsiyaning o‘simliklar va hayvonlardan olinadigan dorivor mahsulotlar va ularni dastlabki qayta ishlashdan hosil bo‘ladigan moddalarni o‘rganuvchi bo‘limi; **farmakologiya** [farmako...+...logiya] – dori-darmon mahsulotlarining odam va hayvonlar organizmiga ta’sirini va dorilarni qo‘llash qoidalarini o‘rganadigan fan; dorishunoslik; **farmakomaniya** [farmako...+...maniya] – bemorlarning har xil dori preparatlarini qabul qilishga moyilligi yoki ayrim dorilarni asossiz uzoq muddat qabul qilish holati; **farmakopsixoz** [farmako...+ psix(o)...+...oz] – turli dorilar va zaharlar ta’sirida vujudga keladigan ruhiy kasalliklar guruhi; **farmakoradiografiya** [farmako...+ radiografiya] – tana a’zolarini dorilar yordamida rentgenologik yo‘l bilan tekshirish; **farmakoterapiya** [farmako...+...terapiya] – kasalni, kasalliklarni dorilar, dorivor moddalar bilan davolash; **farmatsiya** [*yun.* pharmakeia – dori, dori ishlatish; zaharlash] – dori vositalari va tibbiy buyumlar yaratish bo‘yicha tadqiqotlar olib borish, dorilar tayyorlash, saqlash, dorixona va davolash muassasalariga yetkazib berish masalalarini o‘rganuvchi ilmiy-amaliy faoliyatlar majmuyi.

...FAZIYA [*yun.* phasko – gapirmoq, so‘zlamoq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, so‘zlash, gapirish, nutq ma’nolarini bildiradi. Mas.: **geterofaziya, jargonofaziya, parafaziya; afaziya** [a...+ ...faziya] – nutq buzilishi; so‘zlash, yozish, fikrni tushuntirish uchun ishlatiladigan so‘z va jumlalardan foydalana olmaslik; **bradifaziya** [bradi...+...faziya] – so‘zlash qobiliyatining sust kechishi; fikrlash jarayoni tormozlangan hollarning hammasida kuzatiladi; **monofaziya** [mono...+...faziya] – nutq o‘zgarishi: bunda bemorlar faqat bir ovoz bilan yoki faqat bir xil so‘znigina gapiraveradilar; **oligofaziya** [oligo...+...faziya] – so‘z boyligining haddan tashqari kamayib qashshoqlashishi: kasalning gap-so‘zlari sust kechadi, savollarga shu zahoti javob berolmaydi, kerakli so‘z va jumlalarni darhol topolmaydi; tutqanoqdan keyingi o‘zgarishlardan biri.

FEBR... [*lot.* febris – isitma] – o‘zlashma so‘zlar tarkibida isitma, haroratning ko‘tarilishi ma’nolarini anglatadi. Mas.: **febril** [febrilis] – isitmaga, haroratning ko‘tarilishiga tegishli, aloqador.

FEDER... [*lot.* foedus – ittifoq, uyushma; aloqa, bog‘lanish] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, ittifoq, uyushma ma’nolarini bildiradi. Mas.: **federal, federalist, federatlar; federalizm** [*fr.* federalisme < *lot.* foederalis – ittifoqqa oid +...izm] – 1) ba’zi mamlakatlarda federativ davlat tuzumi o‘rnatishga intiluvchi siyosiy harakat; 2) biror narsaning federatsiya prinsipiga asoslangan tashkiliy qurilmasi; **federativ** [*fr.* federatif < *lot.* foederativus – ittifoqqa oid] – federatsiya asosida tuzilgan (davlat); **federatsiya** [*lot.* foederatio – ittifoq, birlashma < foederare – ittifoq bo‘lib, birlashib mustahkamlamoq] – 1) davlat tuzumi shakllaridan biri; bunda davlat nisbatan mustaqil subyektlar – shtatlar, okruglar, o‘lkalar, yerlar, respublikalar birlashuvi natijasida shakllanadi (Hindiston, Germaniya, Rossiya, AQSh va boshqa davlatlarda); 2) xalqaro yoki milliy jamoatchilik tashkiloti.

FEK... [*lot.* faex (faecis) – cho‘kindi, quyqa, loyqa] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, axlat, najas, go‘ng ma’nolarini bildiradi. Mas.: **fekaliyalar** – 1) odam va hayvonlarning chiqarindilari (najas, tezak, go‘ng), shuningdek, biologik axlatlar, yuvundilar; 2) ***fekal o‘g‘itlar*** – odamning o‘g‘it sifatida foydalaniladigan siydigi va axlatlari.

FELD... [*nem.* Feld – dala, maydon – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, u aslida dala, harbiy-dala ma’nolarini bildirsa-da, hozirda o‘zining asl ma’nosidan ancha uzoqlashgan. Mas.: **feldfebel, feldmarshal** [*nem.* Feldwebel, Feldmarshale] – bir qator mamlakatlar, jumladan, chor Rossiyasi armiyalarida yuqori harbiy unvon va lavozimlar (egasi); **feldyeger** [*nem.* Feldjäger – so‘zma-so‘z: dala ovchisi] – muhim, asosan, maxfiy qog‘ozlar (hujjatlar) ni yetkazib beruvchi harbiy yoki hukumat vakili; **feldsher** [*nem.* Feldsher – jarroh, dala sartaroshi] – o‘rta tibbiy ma’lumotga ega bo‘lgan, mustaqil ishlovchi tibbiyot xodimi yoki vrach yordamchisi; **feldshpatoidlar** [*nem.* Feldspat – dala shpati +...oid] – tarkibida oz miqdorda kremnezem bo‘lgan alyumosilikatlar guruhiga mansub mineral.

FELLO... [*yun.* phellos – po‘kak; po‘kak daraxti] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, po‘kak, po‘kak daraxti po‘stlog‘i degan ma’nolarni bildiradi. Mas.: **fellema** [fell(o)...+...ema] – o‘simliklarning po‘kakli to‘qimasi; **felloderma** [fello...+...derma] – peridermalarning fellogen hu-

jayralaridan rivojlanadigan ichki qismi; **fellogen** [fello...+...gen] – po‘kak kambiy (to‘qima); o‘simlik poyasidagi po‘kak hosil qiluvchi to‘qima.

FEMIN... [*lot.* femina – ayol, urg‘ochi] – o‘zlashma yasama so‘zlarning birinchi (o‘zak) qismi bo‘lib, shu so‘zlarning ayollarga aloqadorligini anglatadi. Mas.: **feminizatsiya** [femin...+...izatsiya] – 1) erkak organizmida ayollarga xos ikkilamchi jinsiy belgilarning (ingichka ovoz, sut bezlari) rivojlanishi; 2) jamiyatda, jamiyat va shaxs hayotining ma’lum sohalarida ayollar roli va ta’sirining ortib borishi; **feminizm** [femin...+...izm] – XVIII asrda paydo bo‘lgan, ayollarning o‘z huquqlarini erkaklar huquqlari bilan tenglashtirish uchun olib borgan kurashi (harakati).

FEN(O)... [*yun.* phaino – ko‘rsataman, yoritaman, namoyon qilaman] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, ko‘rsatish, namoyon qilish ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **fen, fenogenetika, fenolog, fenomenal, fenomenalizm, fenomenologiya; fenokopiya** [feno...+ *lot.* kopia – ko‘p] – organizm fenotipining atrof-muhit omillari ta’sirida, lekin irsiy bo‘lmagan o‘zgarishi; **fenol** [fen(o)...+...ol] – toshko‘mir qatronidan, benzoldan olinadigan yoki sintetik yo‘l bilan hosil qilinadigan, texnikada keng qo‘llanadigan rangsiz kristall modda; **fenologiya** [feno...+...logiya] – biologiyaning yil fasllari almashinuvining jonli tabiatga ta’sirini va shu bilan bog‘liq holda yuz beruvchi o‘zgarishlarni o‘rganadigan bo‘limi; **fenomen** [*yun.* pheinomenon – sodir bo‘luvchi] – 1) g‘ayrioddiy, kamdan kam bo‘ladigan hodisa yoki noyob qobiliyatga ega bo‘lgan shaxs; 2) falsafada: his-tuyg‘u tajribasi bilan payqaladigan har qanday hodisa, holat; **fenotip** [feno...+...tip] – organizmning individual rivojlanish jarayonida shakllangan barcha belgilari va xossalari yig‘indisi.

FER..., ...FER [*yun.* phero, *lot.* fero – olib boraman, eltaman, tashiyman, yetkazaman] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi va ikkinchi tarkibiy qismlari bo‘lib, olib bormoq, tashimoq, eltmoq ma’nolarini bildiradi. Mas.: **feromonlar** [fero...+ *yun.* hormao – harakatga keltiraman, qo‘zg‘ataman] – hayvonlar, xususan, hasharotlarning ekzokrin bezlari yoki alohida hujayralari ishlab chiqaradigan oqsillar; hasharotlar atrof-muhitga chiqaradigan biologik faol moddalar (o‘ziga xos signal vazifasini bajaradi); **kalorifer** [kalor(i)...+ ...fer] – ventilyatsiya, havo bilan isitish tizimlari va quritkichlarda havoni qizdirib beradigan asbob; **transfer** [*fr.* transfert < *lot.* trans-fero – olib o‘taman, ko‘chirib o‘tkazaman] – 1) mamlakatlar o‘rtasida aholining bir qismini ayirboshlash, binobarin, fuqaroligini o‘zgartirish; 2) kompyuter tarmoqlarida ma’lumotlarni uzatish.

FERRI..., FERR(O)... [*lot.* ferrum – temir] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, temir, temirli, temirga aloqador kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **ferrimagnetik, ferrimagnetizm, ferritin, ferrodinamik, ferrograf, ferromagnetiklar, ferromarganes, ferromolibden, ferronixrom, ferrotsen, ferrovanadiy, ferrovolfram, ferroxrom; ferrit** [ferr(o)...+ ...it] – temir-uglerodli qotishmalarning tarkibiy fazalaridan biri; uglerod va legirlovchi elementlarning alfa-temirdagi qattiq eritmasi; **ferromagnetizm** [ferro...+ magnetizm] – ba’zi kristall moddalarning magnit jihatidan tartiblashgan holati; **ferromagnit** [ferro...+ magnit] – kuchli magnit xususiyatiga ega bo‘lgan, tez magnitlanadigan (temir, po‘lat, cho‘yan, nikel, kobalt va b.); **ferrometr** [ferro...+...metr] – 1) induksiyaning oniy qiymatlarini hamda ferromagnit namunalardagi magnit maydoni kuchlanganligini aniqlaydigan qurilma; 2) qondagi temir miqdorini aniqlash uchun ishlatiladigan asbob; **ferroqotishmalar** [ferro...+ qotishmalar] – temirning kremniy, marganes, xrom va boshqa elementlar bilan qotishmalari; **ferrozond** [ferro...+ *fr.* sonde – paypaslagich] – magnit maydoni kuchlanganligini o‘lchash uchun ishlatiladigan qurilma; **ferrum** [*lot.* ferrum – temir] – temirning kimyoviy formulalarni aytganda (o‘qiganda) foydalaniladigan nomi.

FEST... [*lot.* festum – bayram; bayram ziyofati] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, shu so‘zlarning bayramga, shod-u xurramlikka, xursandchilikka aloqadorligini bildiradi. Mas.: **fest, feston, fiyesta; festival** [*fr.,ital.* festival < *lot.* festivus – shod, xursand; bayramga oid, bayramona] – san’atning turli sohalarida erishilgan eng yaxshi yutuqlarning ommaviy ko‘rik-tanlovi; vaqti-vaqti bilan o‘tkaziladigan madaniy bayramlar.

FET(O)... [*yun*. fetus, foetus – homila, qorindagi murg‘ak] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, homila, homiladorlik; avlod ma’nolarini bildiradi. Mas.: **fetal** (homilaga oid), **fetoplatsentar** (yetishmovchilik), **fetoproteinlar, fetoskop; fetometriya** [feto…+…metriya] – bachadondagi homila va uning ayrim qismlari o‘lchamlarini rentgenografiya, ultratovush diagnostikasi yordamida aniqlash; **fetopatiya** [feto…+…patiya] – bachadondagi homilaning to‘rt oyligidan boshlab va undan keyin paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan kasalliklarning umumiy nomi; **fetoskopiya** [feto…+ …skopiya] – tug‘uruqdan oldin bachadon bo‘shlig‘iga qorin devori orqali fetoskop deb ataluvchi maxsus optik tolali asbob kiritish yo‘li bilan homilani tekshirish.

FIBR(O)... [*lot.* fibra – ip, tola] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, tola, pay (mushak) tolasi ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **fibremiya, fibrin, fibrinogen, fibrinolizin, fibrinoz, fibroblastlar, fibrodisplaziya, fibrolipoma, fibrolit, fibroliz, fibromiyoma, fibrosarkoma, fibroskop, fibrotsitlar; fibra** [*lot.* fibra – tola] – kimyoviy yo‘l bilan ishlanib, bir necha qatlamli presslangan, bukiluvchan qog‘oz; izolyatsion material sifatida hamda teri o‘rnida ishlatiladi; **fibrillalar** [*lot.* fibrilla – ipcha, tolacha < fibr(o)...+ ...illa] – ayrim hujayralar ichidagi va hujayralararo moddadagi oqsil tolachalari; hujayra sitoplazmasining harakatlanish yoki tayanch funksiyasini bajaradigan ipsimon tuzilmasi; **fibrillyatsiya** [*lot.* fibrillatio – tolalanish] – 1) ingichka tolalar hosil bo‘lishi; 2) yurak mushak tolalarining turli vaqtlarda o‘z-o‘zidan yakka-yakka qisqarishi; **fibroadenoma** [fibro...+ aden(o)...+...oma] – bez va biriktiruvchi to‘qimadan rivojlanadigan xavfsiz o‘sma; **fibroblastoma** [fibro... + blast(o)... +...oma] – biriktiruvchi to‘qima hujayrasidan yoki fibroblastdan hosil bo‘lgan o‘sma; **fibroin** [fibro...+...in] – tabiiy ipak tolalarining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan oqsil modda; **fibrolizin** [fibro...+...liz + ...in] – mushak tolalari, fibrillalarni eritadigan modda; **fibroma** [fibr...+...oma] – teri, shilliq pardalar, paylar va sut bezlaridagi tolali biriktiruvchi to‘qimadan yuzaga kelgan xavfsiz o‘sma; **fibromatoz** [fibroma(t)...+...oz] – bir qancha xavfsiz o‘smalar, fibromalar; **fibroz** [fibr...+...oz] – biriktiruvchi to‘qimaning ortiqcha hosil bo‘lishi, o‘sib ketishi.

FIDE... [*lot.* fides – e’tiqod, ishonch] – o‘zlashma yasama so‘zning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, ishonch, e’tiqod ma’nolarini anglatadi. Mas.: **fideizm** [*fr.* fideisme < *lot.* fides +...izm] – teistik dinlarda: e’tiqod aql-idrokdan ustun turadi, deb ta’kidlovchi g‘ayriilmiy dunyoqarash.

FIK(O)... [*yun.* phykos – suvo‘tlar] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning suvo‘tlarga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **fikomikoz; fikologiya** [fiko...+...logiya] – suvo‘tlarni o‘rganuvchi fan; algologiya; **fikomitsetlar** [fiko...+ *yun.* mykes (myketos) – zamburug‘] – tuban zamburug‘lar sinfi (ularning tana tuzilishi va ko‘payish a’zolari tashqi ko‘rinishdan yashil suvo‘tlarga o‘xshaydi).

...FIKATSIYA [*lot.* facere – qilmoq, bajarmoq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning birinchi (o‘zak) qismi anglatgan narsa-predmetga aloqador ishni bajarish ma’nosiga oidligini bildiradi; o‘zbek tilidagi **-lash, -lashtirish** murakkab qo‘shimchalariga to‘g‘ri keladi. Mas.: **bonifikatsiya** (yaxshilash); **elektrifikatsiya** (elektrlashtirish)

gazifikatsiya (gazlashtirish); **kinofikatsiya, mistifikatsiya, plastifikatsiya, radiofikatsiya** (radiolashtirish), **ratifikatsiya.**

FIKS..., ...FIKS [*lot.* fixus – mustahkam; qattiq, qo‘zg‘almas, biriktirilgan] – o‘zlashma yasama so‘zlarning birinchi va ikkinchi tarkibiy qismlari bo‘lib, terminelement birinchi o‘rinda kelganda, mustahkam, qattiq, barqaror, o‘zgarmas, turg‘un ma’nolariga aloqador yasama so‘zlar hosil qiladi. Mas.: **fiksanallar, fiksativ, fiksatsiya, fiksizm; fiksaj** [*fr.* fixaje < fiks...+...aj] – ochiltirilgan fotosuratlarni mahkamlash (fiksatsiya) ga xizmat qiladigan kimyoviy eritma (odatda, natriy giposulfit); **fiksator** [*fr.* fixateur – mahkamlagich, qotirgich < *lot.* fixus] – biror narsani kerakli holatda mustahkamlab qo‘yuvchi moslama, asbob; **fiksatuar** [*fr.* fixatoir < fixer – mahkamlamoq, mustahkamlamoq] – erkak sochini tuzatib to‘g‘rilashda unga istalgan shakl berishda qo‘llanadigan soch surtmasi; 2) terminelement ikkinchi o‘rinda kelganda esa, biriktirish, qo‘shib qo‘yish ma’nolarini bildirib, lotin tilidagi bir qator old qo‘shimchalar bilan birgalikda ayrim tilshunoslik terminlarini (so‘z yasovchi yoki so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalarning nomlarini) hosil qiladi. Mas.: **affiks** [< ad-fixus], **infiks** [< in-fixus], **interfiks** [< inter-fixus], **postfiks**[< post-fixus], **prefiks**[< pre-fixus], **suffiks** [< sub-fixus].

...FIL, ...FILIYA [*yun.* philos – sevuvchi, do‘st; phileo – sevaman] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismlari bo‘lib, ulardan **-fil** terminelementi qo‘shma so‘zning birinchi qismida ifodalangan narsa-predmetni, o‘rin-joy yoki holatni sevuvchi, unga moyil bo‘lgan, intiluvchi tirik organizmlar degan ma’nolarni bildiradi. Mas.: **bazofillar, bibliofil, gelofillar, kalsefillar, kriofillar, kserofillar, litofillar, nitrofillar, pedofil, psammofillar; mezofillar** [mezo...+...fil] – o‘rtacha 20°C – 40°C da normal hayot kechiruvchi va ko‘payuvchi organizmlar; **ombrofillar** [ombro...+ ...fil] – uzoq yog‘gan yomg‘ir, havoning yuqori namligi, yomg‘ir tomchilarining mexanik ta’siriga chidamli o‘simliklar; **psixrofillar** [psixro...+...fil] – kriofillar; odatda, 10°C dan yuqori bo‘lmagan temperaturada normal hayot kechiruvchi va ko‘payuvchi organizmlar; **termofillar** [termo...+...fil] – doimiy yuqori haroratda yashashga moslashgan organizmlar.

-filiya terminelementi esa mazkur narsalarni sevish, unga mehr qo‘yish, intilish, moyillik, uni yoqtirish (holati) ma’nolarini bildiradi. Mas.: **androfiliya, bazofiliya, bibliofiliya, efebofiliya, geliofiliya, gemofiliya, gerontofiliya, ginekofiliya, graofiliya, korofiliya, lipofiliya, nekrofiliya, neofiliya, neytrofiliya, ornitofiliya, partenofiliya, pedofiliya, skopofiliya, termofiliya, zoofiliya; anemofiliya** [anemo...+...filiya] – o‘simliklarning shamol yordami-

da changlanishga moslashganligi; **avtofiliya** [avto...+...filiya] – o‘z-o‘zini yaxshi ko‘rish, o‘ziga o‘zi oshiq bo‘lish; **entomofiliya** [entomo...+...filiya] – o‘simlik gullarining hasharotlar yordamida chetdan changlanishga moslashganligi; **gidrofiliya** [gidro...+...filiya] – 1) ba’zi suv o‘simliklarining suv yordamida chetdan changlanishi; 2) organizm to‘qimalarining suv ajralib chiqishiga yo‘l qo‘ymay, uni tutib turish qobiliyati.

FIL..., FILO... [*yun.* philos – sevuvchi, do‘st; phileo – sevaman] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarning biror narsani sevish, unga qiziqish, intilish, mayl, havas; do‘stlik ma’nolariga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **filantropiya, filarmoniya, filatelist, filodendron, filofonist, filokartist, filokartiya, filolog, filosof, filosofiya, filumenist, filumeniya; filantrop** [fil...+...antrop] – saxovatpesha, muhtojlarga shafqatli, beg‘araz xayr-saxovat qiladigan kishi; **filateliya** [fil...+ *yun.* ateleia – to‘lovdan ozod qilish] – pochta va gerb markalari, markali va shtampli konvertlar va shu kabilarni kolleksiya uchun to‘plash va o‘rganish; **filofoniya** [filo...+...foniya] – ovoz yozuvlarini – gramplastinkalar, magnit lentalari, disklardagi yozuvlarni to‘plash, kolleksiya qilish; **filologiya** [filo...+...logiya] – tilshunoslik, adabiyotshunoslik, matnshunoslik, manbashunoslik va paleografiya kabi gumanitar fanlardan tarkib topgan umumiy fan; yozma yodgorliklarni lisoniy va uslubiy jihatdan tahlil etish orqali inson ma’naviy madaniyatining tarixi va mohiyatini o‘rganadi; **filotaymiya** [filo...+ *ingl.* time – vaqt, davr] – kalendar (taqvim) larni kolleksiya uchun to‘plash.

FIL(O)... [*yun.* phylon – avlod, urug‘, nasl, zot] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning urug‘, avlod, naslga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **fila, filogeniya, filum; filogenetika** [filo...+ genetika] – genetikaning tirik organizmlar evolyutsiyasini, ularning filogenezini o‘rganuvchi sohasi; **filogenez** [filo...+...genez] – 1) tirik organizmlardagi alohida a’zolarning tarixiy rivojlanish jarayoni; 2) ayni tirik organizmlarning bir butun holda va alohida guruhlar (turlar, turkumlar, oilalar, sinflar) bo‘yicha rivojlanish jarayoni (evolyutsiyasi).

FILI... [*lot.* filius – o‘g‘il; filia – qiz] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, o‘g‘il, qiz; bo‘lim, bo‘linma, shu’ba ma’nolarini bildiradi. Mas.: **filial** [*lot.* filialis – o‘g‘ilniki, o‘g‘ilga tegishli] – biror yirik korxona, muassasa yoki jamoat tashkilotining mustaqil bo‘limi; **filiatsiya** [*fr.* filiation < *lot.* filiatio – qarindoshlardan mustaqil bo‘lib ajralish] – 1) muayyan mamlakatda

tug‘ilganligi sababli fuqarolikka ega bo‘lish; 2) bo‘linish, ajralish jarayonida izchil rivojlanish, dastlabki manba bilan bog‘liqlik (aloqa) ni saqlab qolish; 3) katolitsizmda: shu’ba monastir.

FILL(O)..., ...FILL [*yun.* phyllon – barg, yaproq; varaq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi va ikkinchi tarkibiy qismlari bo‘lib, barg, varaq, bargsimon, varaqqa o‘xshash kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **fillodiy, fillofora, fillomeduzalar, filloxinon; fillit** [fill...+...it] – seritsit, xlorit, kvars va boshqa minerallarning mayda tangachalaridan tarkib topgan, yupqa varaqsimon metamorfik tog‘ jinsi; **fillokladiy** [fillo...+ *yun.* klados – shox, novda] – barglar vazifasini bajaruvchi bargsimon novda; **filloksera** [fillo...+ *yun.* xeros – quruq] – uzum (tok) barglari va ildizlar shirasi bilan oziqlanadigan to‘g‘riqanotli yashil-sarg‘ish hasharot; **fillotaksis** [fillo...+ *yun.* taxis – tartib bilan joylashish] – barglarning poya va shoxchalarda joylashish tartibi; **pirofillit, xlorofillar; geterofilliya** [getero...+...fill(iya)] – bir o‘simlikning o‘zida turli shakldagi barglarning mavjud bo‘lishi; **ksantofillar** [ksanto...+...fill] – yuksak o‘simliklarning barglari, kurtaklari, gullari va mevalarida, ko‘plab suvo‘tlar va mikroorganizmlarda bo‘ladigan sariq bo‘yovchi birikmalar.

FILM(O)..., ...FILM [*ingl.* film – parda, qobiq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi va ikkinchi tarkibiy qismlari bo‘lib, tele-, video- yoki kinokartina ma’nosini bildiradi. Mas.; **film-konsert, filmmeyker, filmokopiya, filmostat, filmxona; kinofilm, multfilm, telefilm; filmofon** [filmo...+...fon] – tovushni kinoplyonkaga yozish va qayta tiklash (eshittirish) ga mo‘ljallangan apparat; **filmoskop** [filmo...+...skop] – diafilmdagi qo‘zg‘almas tasvirlarni durbinsimon trubka orqali yoki oq pardaga tushirib namoyish qilishga mo‘ljallangan apparat; **filmoteka** [filmo...+...teka] – 1) kinofilmlarni to‘plovchi va saqlovchi, ularni targ‘ib qiluvchi joy, ombor, muassasa; 2) kinolentalar yig‘indisi, majmuyi; **diafilm** [dia...+...film] – odatda, umumiy tematika asosida birlashtirilgan fotografik tasvirlarni kinoplyonkada ma’lum ketma-ketlikda joylashtirish; **tonfilm** [*yun.* tonos – taranglik, kuchlanish +...film] – 1) kinematografiya va radioeshittirishda: ovoz yozilgan lenta (tasma); 2) ovozli kinofilmlarning dastlabki nomi; **videofilm** [video…+...film] – videomagnit tasmasiga yozilgan, ya’ni videotexnika vositalari yordamida yaratilgan va namoyish etiladigan film.

FIN... [*lot.* finis – chek, chegara; oxir, nihoya, xotima] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, oxir, nihoya, oxiriga (nihoyasiga, yakuniga) yetish ma’nolarini bildiradi. Mas.: **finalizm, finitizm; final** [*ital.* fi-

nale – oxir, nihoya < *lot.* finalis – oxirgi, eng so‘nggi] – 1) oxir, nihoya, xotima; 2) musiqiy, raqs va adabiy asarlarning yakuniy, xotima qismi; 3) sport musobaqalarida: g‘oliblar aniqlanadigan yakuniy uchrashuv; **finish** [*ingl.* finish – oxir, nihoya, tugash < *lot.* finis] – 1) tezlik uchun bo‘lgan sport musobaqalarining yakuniy, hal qiluvchi qismi; 2) shunday musobaqalarda oraliq masofaning so‘nggi nuqtasi.

FIT(O)..., ...FIT [*yun.* phyton – o‘simlik] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi va ikkinchi tarkibiy qismlari bo‘lib, shu so‘zlarning o‘simliklarga va o‘simliklar haqidagi fanga – botanikaga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **fitobentos, fitofiziologiya, filofotodermatit, fitoftora, fitoftorozlar, fitogelmintlar, fitogelmintologiya, fitogen, fitogormonlar, fitoimmunitet, fitoleymalar, fitolizin, fitomassa, fitomelioratsiya, fitomorfozlar, fitonimiya, fitoplankton, fitotoksinlar, fitotsenologiya, fitotsenoz; fitobar** [fito...+ bar] – dorixonalarda, ba’zi magazinlarda: o‘simliklardan tayyorlanadigan mahsulotlar (yig‘malar, damlamalar, qaynatmalar, sharbatlar va hokazo) sotiladigan bo‘lim; **fitodizayner** [fito...+ dizayner] – binolarning ichki interyerlari va vitrinalarni, bayram va yarmarkalarni o‘simliklar bilan jihozlash (bezatish) bo‘yicha mutaxassis; **fitofaglar** [fito...+...fag] – oziq sifatida faqat o‘simlik yeydigan jonivorlar; **fitogeografiya** [fito...+ geografiya] – o‘simliklar geografiyasi – tabiiy geografiya va botanikaning o‘tmishda va hozirda o‘simliklarning tarqalganlik holatini o‘rganuvchi sohasi; **fitoiqlim** [fito...+ iqlim] – o‘simliklar yashash muhitidagi namlik va temperatura rejimi; **fitonim** [fit(o)...+...onim] – har qanday o‘simlikning atoqli nomi; **fitonsidlar** [fito(n)...+...sid] – yuksak o‘simliklardan chiqariladigan va boshqa organizmlarning o‘sishi, rivojlanishini to‘xtatib qo‘yadigan biologik faol moddalar; **fitopatologiya** [fito...+ patologiya] – o‘simliklarning kasalliklari, ularning oldini olish va bartaraf etish haqidagi fan; **fitoterapiya** [fito...+...terapiya] – tibbiyotning kasalliklarni o‘simliklar yordamida davolash usullarini o‘rganuvchi sohasi; **fitotoksikologiya** [fito...+...toksikologiya] – toksikologiyaning o‘simliklardagi mavjud toksinlarni, jumladan, dorivor zaharli moddalarni o‘rganadigan bo‘limi; **fitotron** [fito...+ *yun.* thronos – makon, o‘rnashgan, turgan joy] – sun’iy, g‘ayrioddiy sharoitlarda o‘simliklarning o‘sishi, shuningdek, seleksiyasini o‘rganishga mo‘ljallangan xona (kamera).

Ikkinchi tarkibiy qismi -**fit** terminelementi bo‘lgan qo‘shma so‘z (termin)lar yashash tarzi, muhiti va joyi, oziqlanish manbayi, tashqi tuzilishi (ko‘rinishi) va boshqa belgilariga ko‘ra turlicha, xilma-xil bo‘lgan turkum o‘simliklarni ataydi va, odatda, ko‘plik qo‘shimchasi bilan qo‘llanadi. Mas.: **gametofitlar, geliofitlar, geofitlar, gidrofitlar, gigrofitlar, kriofitlar, kriptofitlar, ksero-**

fitlar, lepidofitlar, litofitlar, mezofitlar, ombrofitlar, psammofitlar; oksilofitlar [oksi...+ *yun.* ilys – loyqa, balchiq +...fit] – nordon, kislotali tuproqda o‘sadigan o‘simliklar; **psixrofitlar** [psixro...+...fit] – yuqori kengliklar va baland tog‘lardagi uzoq davom etadigan qish mavsumiga moslashgan o‘simliklar; **saprofitlar** [sapro...+...fit] – o‘lgan (o‘lik) organizmlarning organik moddasidan oziqlanadigan o‘simliklar, zamburug‘ va bakteriyalar.

FIZ..., FIS... [*yun.* physa – dam, puflash] – o‘zlashma qo‘shma so‘zning tarkibiy qismi bo‘lib, puflash ma’nosini bildiradi. Mas.: **fisgarmoniya** [fis...+ garmoniya] – oyoq pedali bilan dam beriladigan, klavishli musiqa cholg‘u asbobi.

FIZIO... [*yun.* physis – tabiat] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning tabiatga, tabiiylikka aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **fiziatr, fizika, fiziognomika, fiziolog, fizionomiya, fiziopatiyalar, fizioterapevt, fiziotexnik; fiziatriya** [fizi(o)...+...iatriya] – *ayn.* **fizioterapiya**; **fiziokratlar** [*fr.* physiokratos < fizio...+...krat] – XVIII asr o‘rtalarida Fransiyada: klassik siyosiy iqtisodiyot namoyandalari; ular yerni, dehqonchilikni boylikning yagona manbayi deb hisoblaganlar; **fiziologiya** [fizio...+...logiya] – odam, hayvon va o‘simlik organizmlari funksiyalarini, sistemalari, a’zolari, to‘qimalarini, ular o‘rtasidagi munosabatlarni, ularning hayot faoliyatini o‘rganadigan fan; **fizioprofilaktika** [fizio...+ profilaktika] – organizmni chiniqtirish va kasallikdan saqlash uchun tabiiy yoki sun’iy fizik omillardan foydalanish; **fizioterapiya** [fizio...+...terapiya] – klinik tibbiyotning tabiiy va sun’iy fizik omillarning organizmga ta’siri mexanizmini o‘rganuvchi va ularni davolash-profilaktika maqsadida qo‘llash usullarini ishlab chiquvchi sohasi.

FLAV(O)... [*lot.* flavus – sariq; tillarang] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, sariq, sarg‘ish, sariq-qo‘ng‘ir ma’nolarini bildiradi. Mas.: **flavin, flavonitrit, flavonoidlar, flavoproteidlar; flavonitrat** [flavo...+ nitrat] – sarg‘ish-jigarrang kompleks tuz (flavotuzlar guruhiga kiradi); **flavonlar** [*lot.* flavus – sariq] – geterotsiklik qatordagi organik birikmalar: sariq gullarda bo‘ladigan bo‘yovchi moddalar; **flavotuzlar** [flavo...+ tuz] – kislota qoldiqlari bilan kompleks ionning birikishidan hosil bo‘lgan tuzlar (aksariyatining rangi sariq, sariq-qo‘ng‘ir bo‘ladi).

FLEB(O)... [*yun.* phleps (phlebos) – vena, tomir] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning venaga, umuman

qon tomiriga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **flebangioma, flebektaziya, flebektomiya, flebofibroz, flebogramma, fleboreksis, flebоskleroz, flebotenziografiya, flebotenziometriya, flebotonometr, flebotromboz; flebit** [fleb...+...it] – vena tomirining yallig‘lanishi; **flebografiya** [flebo...+...grafiya] – 1) venani kontrast modda bilan to‘ldirib, uni rentgenologik tekshirish usuli (angiografiyaning bir turi); 2) venoz devorlarning puls tebranishlarini qog‘ozda, kompyuter monitorida qayd etish usullari majmuyi; **flebolit** [flebo...+...lit] – ohaklashgan tromb – tromboflebit bilan kasallanish asorati; **flebomanometr** [flebo...+ manometr] – vena qon bosimini o‘lchash uchun ishlatiladigan asbob; **flebostaz** [flebo...+…staz] – venalarda qon oqimining sekinlashuvi, qonning dimlanib qolishi; **flebostenoz** [flebo...+ steno...+...oz] – vena tomirining patologik o‘zgarishi natijasida venalar teshigining torayishi; **flebotomiya** [flebo...+...tomiya] – qon chiqarish uchun vena tomirini kesish; **flebotonometriya** [flebo...+ tonometriya] – vena tomirlari ichki bosimini o‘lchash; **flebotromboz** [flebo...+ tromboz] – vena tomirlari yallig‘lanmasdan venada tromboz hosil bo‘lishi, venaning tiqilib qolishi.

FLEKS..., FLEKT... [*lot.* flexio – egish, bukish; flectere – egmoq, bukmoq; qayirmoq] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, egish, bukish, burish; egilish, bukilish, burilish, o‘zgarish kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **fleksografiya, fleksor; fleksiya** [*lot.* flexio – egilish, bukilish; o‘zgarish] – 1) grammatikada: so‘zning turlanish yoki tuslanish jarayonida o‘zgaradigan tugallanmasi; yangi so‘z va grammatik shakllar yasashda o‘zakdagi tovushlarning o‘zgarishi (ichki fleksiya); 2) tibbiyotda: oyoq-qo‘lning yoki tananing bukilishi (egilishi); **fleksura** [*lot.* flexura – bukilgan (egilgan) joy; bukik, egik] – Yer qobig‘ining biror qismida tog‘ jinslari qatlamlarining tirsaksimon yoki zinapoyasimon egilishi natijasida hosil bo‘lgan tektonik struktura; **flektiv** [*lot.* flectivus]: ***flektiv tillar*** – ichki fleksiyadan foydalanuvchi tillar (masalan, arab va rus tillari).

FLOR..., FLYOR... [*lot.* flor, floris – gul, chechak] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, gul, chechak, o‘simlik ma’nolarini bildiradi. Mas.: **flora** [*lot.* Flora < floris – gul] – 1) Rim mifologiyasida: gullar, bahor va yoshlik ma’budasining nomi; 2) Yer kurrasining biror hududidagi yoki biror geologik davrdagi barcha o‘simliklar majmuyi; 3) ichaklardagi bakterial viruslar; ichak mikroflorasi; **flyordoranj** [*fr.* fleur d’orange – apelsin (noranj) guli] – bigaradiya (achchiq apelsin) daraxtining oppoq gullari va ayni shu gul ko‘rinishidagi sun’iy gullar (bir qator g‘arb mamlakatlarida kelinning to‘y libosini bezashda undan bokiralik ramzi sifatida foydalaniladi);

florist [flor...+...ist] – 1) florashunos, gulshunos, o‘simlikshunos. 2) florachi – quritilgan gul va barglardan kompozitsiya – muayyan manzara hosil qiluvchi rassom; 3) fitodizayner – turli obyektlarni gul va o‘simliklar bilan bezatish, nafis, nozik guldastalar yasash bo‘yicha mutaxassis; **floristika** [flor...+...istika] – florashunoslik, gulshunoslik, o‘simlikshunoslik.

FLYU(KS)... [*lot.* fluor, fluxus – oqish, oqim; yo‘nalish < fluere – oqmoq, quyilmoq, tommoq] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, oqim, oqish, quyilish, sizib o‘tish, tomchilash ma’nolarini bildiradi. Mas.: **flyuidlar, flyuksus, flyuktuatsiya, flyuoressensiya, flyuorometriya, flyuoroskop, flyuoroz, flyus; flomaster** [*ingl.* flowmaster < flow < *lot.* fluor – oqim + master – sohib, xo‘jayin] – naychasimon g‘ovak sterjenga shimdirilgan va undan sizib oqib chiqadigan maxsus bo‘yoq bilan rasm chizish va yozish uchun xizmat qiladigan asbob; **flyuksmetr** [flyuks...+...metr] – magnit oqimi o‘zgarishlarini aniqlaydigan asbob; **flyuorografiya** [*lot.* fluor – oqim +...grafiya] – rentgenologik tekshirish usuli: bunda odam tana a’zolarining rentgen tasvirini nurlanuvchi ekrandan uncha katta bo‘lmagan fotoplyonkaga ko‘chirish, suratga tushirish.

...FOB, ...FOBIYA [*yun.* phobos – qo‘rqish, qo‘rquv, qo‘rqinch; vahima, dahshat] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi qismlari bo‘lib, **-fob** terminelementi biror kishi yoki narsani yomon ko‘ruvchi, unga nafrat bilan qarovchi, undan qo‘rquvchi (odam, hayvon, o‘simlik) ma’nolarini bildiradi. Mas.: **anglofob, atsidofoblar, gidrofoblar, kalsefoblar, ombrofoblar; galofoblar** [galo...+...fob] – chuchuk suv havzalari va tuproqlarda yashovchi, yashash muhiti sho‘rlanganda halok bo‘luvchi tirik organizmlar; **geliofoblar** [gelio...+...fob] – quyosh nurlarini yoqtirmaydigan, undan qo‘rquvchi o‘simliklar.

-fobiya terminelementi esa biror narsaga toqat qila olmaslik, unga dushmanlik bilan qarash, undan qo‘rqish, vahimaga tushish ma’nolarini bildiradi. Mas.: **aerofobiya, akarofobiya, aknefobiya, akrofobiya, androfobiya, antropofobiya, araxnofobiya, demofobiya, dinofobiya, eritrofobiya, erotofobiya, fobofobiya, gematofobiya, gerontofobiya, ginekofobiya, gipnofobiya, gipsofobiya, grafofobiya, iofobiya, kanserofobiya // karsinofobiya, kenofobiya, klaustrofobiya, kleptofobiya, lalofobiya, liofobiya, lissofobiya, metallofobiya, monofobiya, nekrofobiya, neofobiya, niktofobiya, nozofobiya, pantofobiya, patofobiya, pettofobiya, peyrafobiya, pirofobiya, potamofobiya, radiofobiya, rubrofobiya, sifilidofobiya // sifilofobiya, talassofobiya, tanatofobiya, toksikofobiya, urofobiya, xromatofobiya; agorafobiya** [*yun.* agora – maydon +...fobiya] – psixonevrozning bir turi: ochiq

sahnlar, maydonlardan qo‘rqish; **fotofobiya** [foto...+...fobiya] – kunduzgi tabiiy yoki tungi sun’iy yorug‘likka nisbatan sezgirlikning ortib ketishi; yorug‘likni yoqtirmaslik; **gidrofobiya** [gidro...+...fobiya] – suvdan qo‘rqish; bir qultum suvni yutishda, suvni ko‘rganda yoki u haqda eslatilganda og‘riqli yutinish talvasasining paydo bo‘lishi; **mizofobiya** [mizo...+...fobiya] – biror narsaga tegib ketib ifloslanishdan, nopok bo‘lishdan qo‘rqish, vahimaga tushish; **zoofobiya** [zoo...+...fobiya] – hayvonlarni ko‘rganda, hatto ular haqida eslatilganda haddan tashqari qo‘rqish, vahimaga tushish.

FOK... [*lot.* focus – markaz, o‘choq; manba, nuqta] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, biror narsa to‘planadigan markaz, nuqta ma’nolarini bildiradi. Mas.: **fokal** (fokusga oid); **fokus** [*lot.* focus] – 1) singan yoki akslangan nurlarning kesishgan nuqtasi; 2) suratga olinadigan narsalarning eng ravshan, aniq ko‘rinadigan nuqtasi; 3) kasallik (yallig‘lanish) jarayoni markazi; 4) markaz, o‘choq (masalan, zilzila fokusi).

FOLI... [*lot.* folium – barg, yaproq; varaq] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, shu so‘zlarda varaq, sahifa ma’nolari borligini ko‘rsatadi. Mas.: **felyeton** (varaqcha; gazeta maqolasi); **foliatsiya, folio; folga** [*polyak.* folga < *lot.* folium – varaq] – 1) zarqog‘oz; rangli metallar va qotishmalardan tayyorlangan yupqa varaq yoki tasmalar; 2) bronza, alyuminiy yoki quruq bo‘yoq kukuni yuritilgan (qoplangan) qog‘oz kalka yoki sellofan; **foliant** [*nem.* Foliant – katta, ulkan kitob < *lot.* folium – varaq] – (qog‘oz listining yarmiga teng hajmdagi) juda katta va qalin, qadimiy kitob.

FOLLIKUL(O)... [*lot.* follikulus – xaltacha, pufakcha] – o‘zlashma, yasama va qo‘shma so‘zlarning birinchi (asos) tarkibiy qismi bo‘lib, xaltacha, pufakcha ma’nolarini anglatadi. Mas.: **follikulin, follikulostimulyator, follikulyar** (hujayra, suyuqlik), **follikulyoz; follikulalar** [*lot.* follikulus – xaltacha] – umurtqalilar a’zolarida turli xil vazifalar bajaruvchi pufakchasimon tuzilmalar; juda kichik sekretor bezlar; **follikulit** [follikul...+...it] – soch follikulasi (xaltachasi) ning yallig‘lanishi; **follikuloma** [follikul...+...oma] – tuxumdonning follikula epiteliysida hosil bo‘lgan va follikulalarga o‘xshash tuzilmalardan tashkil topgan o‘sma.

FON(O)... [*yun.* phone – tovush, ovoz] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning ovozga, tovushga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **fonasteniya, fonatsiya, fonema, fonematizm, fonika, foniya, fonofotografiya, fonograf, fonografiya, fonokard, fonokar-**

diografiya, fonikardiogramma, fonolog, fonomaniya, fonometriya, fonomorfologiya, fonopsiya, fonoretseptorlar, fonostilistika; fonema [fon...+...ema] – biror tilda so‘z yoki morfemalarning ma’no farqini belgilovchi, ularni bir-biridan farqlashga xizmat qiluvchi tovush birligi; **fonendoskop** [fon...+ endo...+...skop] – stetoskop (odam va hayvonlar ichki a’zolarini eshitib ko‘rishga mo‘ljallangan trubka) ning hozirgi ko‘rinishi; **fonetika** [*yun.* phonetike (phonetikos) – ovozga, tovushga oid] – 1) tilshunoslikning nutq tovushlarining hosil bo‘lish usullarini va ularning akustik tavsifini o‘rganuvchi sohasi; 2) muayyan tilning tovush tarkibi; **foniatriya** [fon...+...iatriya] – otorinolaringologiyaning tovush (ovoz) ning buzilish sabablarini o‘rganuvchi va ularni davolash usullarini ishlab chiquvchi sohasi; **fonograf** [fono...+ ...graf] – tovush, ovozlar (musiqa, ashula, nutq kabilar) ni yozib olish va qayta eshittirish uchun xizmat qiluvchi apparat; **fonografik** [fono...+ *yun*. graphe – yozaman]: ***fonografik yozuv*** – tovush yozuvi (ideografik yozuvdan farqli ravishda); tilning u yoki bu tovush birliklari (tovush, bo‘g‘in) ni bildiruvchi belgilar yordamida yuzaga keladigan yozuv; **fonogramma** [fono...+...gramma] – gramplastinka, kino- va videoplyonka, kompakt-disk, disketa kabilarga yozib olingan ovoz; **fonologiya** [fono...+...logiya] – tilshunoslikning fonemalar tizimini va ularning o‘zgarish qonuniyatlarini o‘rganuvchi bo‘limi; **fonometr** [fono...+...metr] – tovush kuchini (balandligini, o‘tkirligini) o‘lchovchi asbob; **fonopatiya** [fono…+...patiya] – nutq a’zolarining ba’zi kasalliklari tufayli nutqning buzilishi; **fonoskop** [fono...+...skop] – nutq va artikulyatsiyaning fonetik xususiyatlarini o‘rganishda ishlatiladigan asbob; **fonoteka** [fono...+ ...teka] – 1) uy, kutubxona, arxiv va boshqa joylardagi ovoz yozuvlari, fonogrammalar to‘plami; 2) shunday yozuvlar to‘plangan va saqlanadigan muassasa.

...FON, ...FONIYA [*yun.* phone – tovush, ovoz] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismlari bo‘lib, shu so‘zlarning tovush, ovoz, shovqinga aloqadorligini ko‘rsatadi. Bunda -**fon** terminelementi ovoz, tovush bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan asbob, moslama, qurilma, inshootlar nomini bildiradi. Mas.: **diktofon, elektrofon, geofon, gidrofon, grammofon, magnitofon, mikrofon, nautofon, otofon, telefon, vibrafon; diafon** [dia...+ ...fon] – tuman paytida mayoqdan kuchli tovush signallari berish uchun mo‘ljallangan asbob; **ksilofon** [ksilo...+...fon] – klaviatura tartibida to‘rt qator qilib to‘rtburchak asosga joylashtirilgan chorqirra yog‘och bo‘laklaridan iborat va yog‘och bolg‘achalar bilan urib chalinadigan musiqa asbobi; **laringofon** [laringo...+...fon] – hiqildoqqa tegib turadigan qilib taqiladigan, hiqildoq boylamlari va tog‘aylarining mexanik tebranishlarini elektr tebranishlariga aylantiradigan asbob; **patefon** [*fr.* Pate – grammofonlar ishlab chiqaruvchi “Pate” firmasining nomi +...fon] – ko‘chma grammofon; **saksofon** [*fr.*

saxophone < Sax – belgiyalik ixtirochi usta Adolf Saks nomi +...fon] – tilchali, puflama mis cholg‘u asbobi (tuzilishi klarnetga o‘xshaydi); **taksofon** [*lot.* taxa – baho, narx +...fon] – tanga, maxsus jeton yoki kartochka bilan ishlaydigan, abonentni boshqa abonent bilan bir marta ulab beradigan ommaviy telefon apparati.

-foniya terminelementi esa ovoz, tovush, shovqin bilan bog‘liq harakat, holat, jarayon nomlarini hosil qiladi. Mas.: **dodekafoniya, filofoniya, kakofoniya, mikrofoniya; diafoniya** [dia...+...foniya] – musiqiy ohangdoshlikning buzilishi; dissonansning yunoncha atalishi; **kriptofoniya** [kripto...+...foniya] – shifrlar qo‘llanadigan telefon so‘zlashuvlari; **polifoniya** [poli...+...foniya] – musiqada: ko‘povozlilik; adabiyotda: badiiy asarning mazmun va xarakter jihatdan murakkabligi.

FONT... [*lot.* fons (fontis) – manba, buloq] – o‘zlashma yasama so‘zlarning birinchi (o‘zak) qismi bo‘lib, manba, buloq ma’nosini anglatadi. Mas.: **fontan** [*ital.* fontana < *lot.* fontis] – 1) yuqoriga bosim yordamida otilayotgan suyuqlik yoki gaz oqimi; 2) bosim yordamida otilib chiquvchi suv oqimidan foydalanib qurilgan manzarali inshoot; favvora.

...FOR [*yun.* phoros – tashuvchi, eltuvchi, olib boruvchi] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning biror narsani tashuvchi, eltuvchi, o‘z tarkibida tutuvchi ma’nolariga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **elektrofor, fosfor, iridoforlar, semafor, xromofor; guanoforlar** [*ingl.* guanine – purin asosi +...for] – baliqlar, amfibiyalar, sudralib yuruvchilar terisidagi pigment hujayralar; **osmoforlar** [osmo...+ ...for] – bir qator o‘simliklar (ko‘pyillik suvo‘tlar, lianalar va boshqalar) ning xushbo‘y, yoqimli hid taratuvchi bezlari; **spermatoforlar** [spermato...+...for] – ba’zi amfibiyalar, mollyuskalar, chuvalchanglar va bo‘g‘imoyoqlilarda erkak jinsiy hujayralar (spermatozoidlar) saqlanadigan va tashiladigan xaltachalar; **termofor** [termo...+...for] – issiqlik bilan davolashda ishlatiladigan asbob.

...FORIYA [*yun.* phero (phoro) – tashiyman, olib boraman; chidayman, bardosh beraman] – o‘zlashma qo‘shma va yasama so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo’lib, o‘tkazmoq, olib bormoq, tashimoq; boshdan o‘tkazmoq ma’nolarini bildiradi. Mas.: **disforiya** [dis…+…foriya] – ba’zi ruhiy kasalliklarda vaqti-vaqti bilan namoyon bo‘ladigan kayfiyatning buzilishi: asabiylik, tajovuzkorlik, jahl va g‘azab; **eyforiya** [*yun.* euphoriya < eu – yaxshi +…foriya] – ko‘pincha ruhiy kasalliklarda uchraydigan asossiz dimog‘chog‘lik, shodlanish, ko‘tarinki kayfiyat; kasalning o‘z-o‘zidan mamnun, xursand bo‘lishi, o‘zini baxtli his qilishi.

FORM... [*lot.* aciditas formica – chumoli kislota] – o‘zlashma kimyoviy terminlarda *formiat kislota* (*chumoli kislota*) birikmasining qisqartmasi sifatida qo‘llanadi va shu kislota birikmalarini bildiradi. Mas.: **formalin; formaldegid** [form...+ aldegid (< aldehid – alkohol dehydrogenatum – vodorodsizlantirilgan spirt)] – chumoli kislota aldegidi; organik birikma – o‘tkir hidli rangsiz gaz (kimyo sanoatida xomashyo sifatida ishlatiladi); **formiatlar** [form(i)...+...at] – chumoli kislotaning tuzlari va efirlari.

FORT... [*ital.* forte – qattiq, kuchli] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, qattiq, kuchli ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **fort, forte, fortissimo; fortepyano** [*nem.* Fortepiano < forte...+ *ital.* piano – asta, kuchsiz] – klavishlari barmoq bilan bosib chalinadigan, torli musiqa asbobi (royal bilan pianinoning umumiy nomi.)

FOS... [*lot.* phos – nur, yorug‘lik] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning yorug‘likka, yorug‘lik hodisalariga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **fosfen** [fos...+ *yun.* phaino – ko‘rsataman] – ko‘zga yorug‘lik ta’siri bo‘lmagani holda odamda paydo bo‘ladigan rangdor dog‘larni ko‘rish sezgisi; **fosfor** [fos...+...for] – Mendeleyev davriy sistemasining V guruhiga mansub metallmas; oq, qizil, binafsha, sariq rangli allotropik shakllari bor; oq fosfor qorong‘ilikda nur taratgani uchun “fosfor” (nur taratuvchi, nur eltuvchi) deb nomlangan; **fosgen** [fos...+...gen] – alifatik qatordagi organik birikma; bo‘g‘uvchi ta’sirga ega zaharlovchi modda, rangsiz gaz.

FOTO... [*yun.* phos (photos) – nur, yorug‘lik] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib: I. Yorug‘lik, yorug‘lik nurlari ta’siri ostida ro‘y beradigan yoki harakatlanadigan degan ma’nolarni bildiradi. Mas.: **fotoallergiya, fotodermatoz, fotodiod, fotodisforiya, fotoeffekt, fotoelektr, fotoemulsiya, fotofobiya, fotoionizatsiya, fotokatod, fotolitografiya, fotolyuminessensiya, fotomaniya, fotometr, fotometriya, foton, fotonastiyalar, fotooftalmiya, fotoretseptorlar, fotorezistor, fotosezgir, fotosfera, fototelegrafiya, fototeodolit, fototranzistor, fototropizm, fotoxromizm; fotalgiya** [fot(o)...+...algiya] – yorug‘lik nurlari ta’sirida ko‘zning og‘rishi; **fotariy** [fot...+...ariy] – profilaktika va davolash maqsadlarida ultrabinafsha nurlar bilan guruhli nurlanishlar o‘tkaziladigan davolash xonasi; **fotobakteriyalar** [foto...+ bakteriya] – nurlanuvchi bakteriyalar; oksidlanganda nur taratuvchi moddalar hosil qiladi; **fotobiologiya** [foto...+ biologiya] – biologiyaning tirik organizmlarga yorug‘lik ta’sirini, jumladan, fotosintez, fototaksis, fototropizm va boshqa jarayonlarni o‘rganuvchi bo‘limi; **fotodermatit**

[foto...+ dermat(o)...+...it] – terida yorug‘lik (quyosh, elektr yoyi kabi) nurlari ta’sirida paydo bo‘ladigan dermatit; **fotoelement** [foto...+ element] – o‘ziga tushadigan yorug‘likni yutib, elektr energiyasiga aylantiradigan elektr asbob; **fotokimyo** [foto...+ kimyo] – fizik kimyoning yorug‘lik keltirib chiqaradigan kimyoviy reaksiyalarni o‘rganuvchi sohasi; **fotoliz** [foto...+...liz] – yutilgan yorug‘lik ta’siri ostida modda molekulalarining o‘zgarishi; **fotosintez** [foto...+ *yun.* synthesis – biriktirish, bog‘lash] – yashil o‘simliklar va fotosintezlovchi mikroorganizmlar tomonidan Quyosh yorug‘lik energiyasining organik moddalardagi kimyoviy bog‘lanishlar energiyasiga aylantirilishi; **fototaksis** [foto...+…taksis] – mikroorganizmlarning, o‘simlik va hayvonlar a’zolarining bir tomonlama yorug‘lik tushishi ta’siri ostidagi harakatlari; **fototerapiya** [foto...+...terapiya] – sun’iy, notabiiy manbalardan hosil qilinadigan infraqizil, ko‘zga ko‘rinarli va ultrabinafsha nurlardan davolash va profilaktika maqsadlarida foydalanish; nur bilan davolash. II. Fotografiyaga, suratga olishga aloqadorlikni bildiradi. Mas.: **foto, fotoalbom, fotoart, fotoatelye, fotobomba, fotoetyud, fotofinish, fotograf, fotogrammetriya, fotohavaskor, fotohujjat, fotokamera, fotoko‘rgazma, fotolampa, fotolavha, fotomexanika, fotomuxbir, fotoobyektiv, fotoplan, fotoplastinka, fotoqog‘oz, fotoreportaj, fotostat, fotosxema, fototipiya, fototransformator, fotoyulduz; fotoapparat** [foto...+ apparat] – tasvirga olish uchun mo‘ljallangan optik-mexanik qurilma; fotokamera; **fotogastroskop** [foto...+ gastro...+...skop] – 1) oshqozon shilliq pardasi suratini olishga mo‘ljallangan mitti fotokamera; yorqin yorug‘lik manbayi bilan ta’minlangan; 2) oshqozonning mexanik harakatlarini qayd qilish uchun mo‘ljallangan asbob; **fotogeliograf** [foto...+ gelio...+...graf] – astronomiyada: Quyoshni suratga olishga mo‘ljallangan apparat; **fotografiya** [foto...+...grafiya] – 1) yorug‘liksezgir fotomateriallarda predmetlarning tasvirini olish usuli hamda shunday usul bilan olingan tasvir, surat, rasm; 2) shunday rasmlar tayyorlanadigan ustaxona; **fotokartalar** [foto...+ karta] – muayyan joyning fotografik tasviri bilan uning kartografik tasviri qo‘shilmasi; **fotolaboratoriya** [foto...+ laboratoriya < *lot.* laborare – ishlayman + ...oriya] – fotosurat olish va ko‘paytirish uchun maxsus jihozlangan xona, kabinet; suratxona; **fotomaterial** [foto...+ material] – 1) fotosurat va kino olishda ishlatiladigan materiallar (fotoqog‘oz, plyonka, xilma-xil yorug‘liksezgir kimyoviy moddalar); **fotomodel** [foto...+ model] – reklama roliklarida, reklama plakatlari uchun suratga tushadigan, yangi kiyim-kechak nusxalarini ommaga namoyish qiladigan ayol yoki erkak; **fotomontaj** [foto...+ montaj] – fotosuratlar yoki ularning ayrim qismlaridan, ba’zan boshqa rasmlar qo‘shgan holda, badiiy va mazmuniy jihatdan yagona kompozitsiya tuzish; shu usulda tayyorlangan plakat, reklama va boshqalar; **fototeka** [foto...+...teka] – fotosu-

ratlar va negativlarning tartibga solingan to‘plami; **fotoxronika** [foto...+ *yun.* chronikos – vaqtga, davrga oid] – fotosuratlarda, fotosuratlar yordamida aks ettirilgan voqealar xronikasi.

FRAG..., FRAK(T)... [*lot.* fractum, frangere – sindirmoq, parchalamoq; buzmoq] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, parcha, bo‘lak, qism; siniq; sinish, parchalanish, bo‘linish kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **fragmentar(lik), fragmentatsiya; fragment** [*lot.* fragmentum – siniq, bo‘lak, parcha] – 1) biror ijod mahsuli (badiiy asar, maqola, musiqa) parchasi, bir qismi; 2) rassomlik, haykaltaroshlik, me’morlik kabi san’at asarining saqlanib qolgan parchasi, bo‘lagi; **fraksiya** [*fr.* fraction – ulush; bo‘lak, qism < *lot.* fractio – sindirish, buzish; siniq, darz] – 1) biror-bir siyosiy partiyaning, qonunchilik organining siyosatini parlamentda, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarida, jamoat tashkilotlarida ifoda etuvchi tashkiliy guruh; 2) aniq g‘oyaviy-siyosiy strategiyaga va uni amalga oshirish dasturiga ega bo‘lgan siyosiy partiyaning alohida bo‘lagi; **fraktura** [*lot.* fractura – siniq, yoriq, darz] – 1) tibbiyotda: suyaklarning sinishi, darz ketishi; 2) gotik shriftning bir turi; 3) gotik surat (tasvir) uslubi.

FREN(O)... [*yun.* phren – kalla suyagi; ong, aql; miya] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarning ong, aqlga, miyaga yoki diafragmaga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **frenokardiya, frenolepsiya, frenoplegiya, frenoptoz, frenozin; frenalgiya** [fren...+...algiya] – diafragmada og‘riq bo‘lishi, diafragmaning og‘rishi; **frenasteniya** [fren...+ asteniya] – ong, idrokning pastligi, aqlpastlik; **frenit** [fren...+...it] – 1) bosh miyaning yallig‘lanishi; 2) diafragmaning yallig‘lanishi; **frenologiya** [freno...+...logiya] – insonning ruhiy (psixik) xususiyatlari uning kalla suyagi shakliga bog‘liq deb hisoblovchi ta’limot.

FRIG... [*lot.* frigus – sovuq, ayoz; sovuqlik] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, shu so‘zlarning sovuqqa yoki sovuqlikka aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **frigidariy** [frigid...+...ariy] – antik davrda: sovuq, salqin xona: 1) hammomda; 2) oziq-ovqat saqlanadigan ombor; **frigidlik** [*lot.* frigidus – sovuq(lik), loqayd(lik)] – jinsiy sovuqlik; jinsiy maylning yo‘qligi va jinsiy aloqadan qoniqmaslikda namoyon bo‘ladi.

FRIK(T)... [*lot.* fricare – ishqamoq, ishqalamoq, surtmoq; uvalamoq] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, shu so‘zlarning ishqash, ishqalanish, surkash, maydalash ma’nolariga aloqadorligini ko‘rsatadi.

Mas.: **frikativ** [*lot.* fricare – ishqalamoq; qismoq]: ***frikativ undoshlar*** – nutq a'zolari bir-biriga yaqinlashib, havo tor oraliqdan sirg'alib chiqishi natijasida hosil bo'ladigan ***v, f, z, s, j, sh, x*** undoshlari; **friksion** [*lot.* frictio – ishqalanish, siqilish]: ***friksion uzatma*** – bir-biriga siqilib aylanadigan val, disk va boshqa detallar orasida hosil bo'ladigan ishqalanish kuchi hisobiga aylanma harakat uzatiladigan yoki o'zgartiriladigan mexanik uzatma; **friksiya** [*lot.* frictio – ishqalanish, siqilish] – bir sirtning ikkinchisiga ishqalanishi.

FRONT... [*fr.* front – peshona < *lot.* frons (frontis) – peshona, old tomon] – o'zlashma yasama va qo'shma so'zlarning birinchi (asos) qismi bo'lib, old tomon, oldi kabi ma'nolarni bildiradi. Mas.: **frontal** (portret, hujum), **frontallik, fronton**; **frontispis** [front...+ *lot.* aspicere – qaramoq] – kitob sarvarag'ining chap tomonida beriladigan bezakli sahifa; unda asarning asosiy g'oyasi ifodalangan bezak, ayrim hollarda esa muallif yoki kitob bag'ishlangan shaxs rasmi beriladi; **frontit** [front...+...it] – peshona bo'shlig'i shilliq qavatining yallig'lanishi.

FTIZ..., FTIZIO... [*yun.* phthisis – sil, tuberkulyoz] – o'zlashma qo'shma va yasama so'zlarning birinchi tarkibiy qismlari bo'lib, shu so'zlarning sil, tuberkulyoz kasalligiga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **ftiziatr** [ftiz…+…iatr] – ftiziatriya mutaxassisi, sil kasalligi shifokori; **ftiziatriya** [ftiz…+…iatriya] – tibbiyotning sil kasalligi, uning kechishi, uni davolash usullari va profilaktikasini o'rganuvchi bo'limi; **ftiziofobiya** [ftizio…+…fobiya] – sil kasalining yuqishidan, u bilan kasal bo'lib qolishdan qo'rqib vahimaga tushish; **ftizioterapiya** [ftizio…+…terapiya] – sil kasalliklarini davolash.

...FTONG [*yun.* phthongos – ovoz, tovush] – o'zlashma qo'shma so'zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo'lib, shu so'zlarning tovushga aloqadorligini ko'rsatadi. Mas.: **monoftong, poliftong, triftong; diftong** [di...+...ftong] – ikki unlining bir bo'g'inda ketma-ket, qator kelishi.

FTOR(O)... [*yun.* phthoros – o'lim; buzilish, yemirilish > *lot.* fluorum] – o'zlashma yasama va qo'shma so'zlarning birinchi asos qismi bo'lib, kimyoviy element – ftorga, uning birikmalariga oidlik ma'nosini ifodalaydi. Mas.: **ftorkauchuklar, ftororganik** (birikmalar); **ftor** [*yun.* phthora – o'lim, yemirilish] – Mendeleyev davriy sistemasining VII guruhiga mansub kimyoviy element; galogenlar qatoriga kiruvchi o'tkir hidli, och sariq tusli zaharli gaz; **ftoridlar** [ftor...+...id] – ftorning boshqa elementlar bilan hosil qilgan birikmalari; **ftoroplastlar** [ftoro...+ plast (massa)] – tarkibida ftor bo'lgan plastmassalar.

FUG... [*ital.* fuga – yugurish, qochish < *lot.* fugare – yugurmoq, qochmoq] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, yugurish, qochish, chetlashish ma’nolarini bildiradi. Mas.: **fugas, fugato, fugetta; fuga** [*ital.* fuga] – ko‘p ovozli (polifonik) musiqaning xiyla murakkab shakli; turli ovozlar bilan bir mavzuni ko‘p marta, izchil takrorlashga asoslanadi.

FULGUR... [*lot.* fulgur – yashin, chaqmoq] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, yashin, chaqmoq, uchqun, chaqnash kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **fulguratsiya** [*lot.* fulguratio – chaqmoq chaqishi] – to‘qimalarni yuqori chastotali o‘zgaruvchan elektr toki uchqunlari bilan kuydirish; **fulguritlar** [fulgur...+...it] – qumni yashin urganda qum zarralarining erishidan hosil bo‘ladigan, tarmoqlangan kichik naychalar (chaqmoq nayzalari).

FUM... [*lot.* fumus – tutun, is, dud; bug‘, bug‘lanish] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, tutun, dud, bug‘ga aloqadorlikni bildiradi. Mas.: **fumarollar, fumigatorlar; fumigantlar** [*lot.* fumigare – tutun (dud), bug‘ bilan qoplamoq, dudlamoq +...ant] – ekinlar zararkunandalari va kasallik qo‘zg‘atuvchilarini dudlash (gazlash) usuli bilan yo‘qotishda qo‘llanadigan kimyoviy moddalar; **fumigatsiya** [*lot.* fumigatio – dudlash, tutun bilan qoplash] – tutun bilan qoplash, tutun bostirish; ***dudlash*** – qishloq xo‘jaligida ekinlar va chorva mollarining kasalliklari va zararkunandalariga qarshi kurash usullaridan biri.

FUND... [*lot.* fundus – tub, asos, negiz; me’yor; bosh unsur] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, asos, tub, negiz; poydevor; me’yor, chegara ma’nolarini bildiradi. Mas.: **fundament; fundamental** [*lot.* fundamentalis] – asosli, ishonarli, jiddiy; mustahkam, mahkam; bosh, asosiy (masalan, ***fundamental kutubxona*** – bosh, asosiy kutubxona); **fundamentalizm** [fundamental...+...izm] – biror ta’limot aqidalarining, jumladan, ilohiy kitoblardagi tushunchalarning dastlabki, sof holatini saqlab qolishni astoydil himoya qiladigan, ularni boshqa (majoziy) ma’noda talqin qilishni rad etadigan ijtimoiy, mafkuraviy, diniy yo‘nalishlarning umumiy nomi.

FUNGI... [*lot.* fungus – zamburug‘] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning zamburug‘larga, zamburug‘li kasalliklarga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **fungitsidlar** [fungi...+...sid] – qishloq xo‘jaligi ekinlarining zamburug‘li va bakterial kasalliklariga qarshi kurashda qo‘llanadigan kimyoviy moddalar.

FURFUR... [*lot.* furfur – po‘choq; qipiq, kepak] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning qipiq, kepak, chiqindiga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **furfurol** [furfur...+...ol] – yog‘och qirindilari, makkajo‘xori so‘tasi, kungaboqar po‘chog‘i kabilardan olinadigan, javdari non hidi keladigan och sariq rangli suyuqlik; organik birikma.

FUTUR... [*lot.* futurum – kelajak] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, kelajak, kelgusi ma’nolarini bildiradi. Mas.: **futurist, futurolog; futurizm** [futur...+...izm] – XX asr boshlarida Yevropa adabiyotida paydo bo‘lgan, adabiyot va san’atdagi badiiy va ma’naviy meros an’analarini inkor etib, an’anaviy madaniyat bilan aloqani uzishni, zamonaviy urbanistik madaniyatni targ‘ib qilgan avangardlik oqimlaridan biri; **futurologiya** [futur(o)...+...logiya] – insoniyatning va jamiyat hayoti ayrim sohalarining, umuman, Yerning kelajak holatini bashorat va tadqiq qilish bilan shug‘ullanuvchi ilmiy soha.

G

GAL(O)... [*yun.* hals, halos – tuz] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, tuz; sho‘r, sho‘rxok ma’nolarini bildiradi. Mas.: **galobentos, galobioz, galofoblar, galoidlar, galometriya, galomorfizm, galoskop; galit** [gal(o)...+...it] – toshtuz yoki oshtuzi; natriy xlorid (NaCl) dan iborat mineral; **galobiontlar** [galo...+...biont] – o‘ta sho‘rlangan suv havzalarining tirik organizmlari; **galofillar** [galo...+...fil] – o‘ta sho‘rlangan muhitda hayot kechiradigan, sho‘rsevar organizmlar; **galofitlar** [galo...+...fit] – cho‘l va sahrolardagi, dengiz sohillaridagi sho‘rxok yerlarda o‘suvchi o‘simliklar; **galogenez** [galo...+...genez] – qurg‘oqchil zonalardagi yuza suv havzalarida sho‘r suvlarning bug‘lanishi natijasida oson eriydigan tuzlar cho‘kindilarining hosil bo‘lish jarayoni; **galogenlar** [galo...+...gen] – metallar bilan birikkanda tuz hosil qiladigan ftor, xlor, brom, yod, astat kabi kimyoviy elementlar guruhi; **galurgiya** [gal(o)...+...urgiya] – kimyo texnologiyasining turli mineral tuzlar olish usullarini ishlab chiquvchi tarmog‘i.

GALA..., GALAKT(O)... [*yun.* gala (galaktos) – sutli] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning sutga va sut beziga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.:**, galaktoblast, galaktopeksiya, galaktopoez, galaktoreya, galaktoskop, galaktotsele, galaktoz, galaktozuriya; galaktika** [*yun.* galaktos – sutsimon, sutli] – Quyoshni ham o‘z ichiga oladigan yulduzlar sistemasi; **galaktoma** [galakt(o)...+...oma] – sut (ko‘krak) bezlarida paydo bo‘ladigan o‘sma; **galaktometr** [galakto...+...metr] – sutning solishtirma og‘irligini o‘lchash uchun ishlatiladigan maxsus asbob; **galaktoreya** [galakto...+...reya] – ko‘krakdan sutning o‘z-o‘zidan oqishi; **galaktostaz** [galakto...+…staz] – emizikli ayolning sut bezida sut turib qolishi; **galaktoterapiya** [galakto...+...terapiya] – kasallarni sut bilan va sutdan tayyorlangan shifobaxsh preparatlar bilan davolash; **galaktoza** [galakto...+...oza] – oddiy qanddan iborat organik modda; sut qandi (laktoza) ning tarkibiga kiradi; **galalit** [gala...+...lit] – kazein, mochevina, plastifikator aralashmasidan formalin bilan ishlov berish orqali olinadigan muguzsimon plastmassa.

GALL(O)... [*lot.* galla – fransuz; siyohrang] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, fransuzlarga, fransuz tiliga oidlikni bildiradi. Mas.: **gallar, gallizm; gallitsizm** [*lot.* gallicus – gallarga oid +...izm] – fransuz tilidan o‘zlashgan yoxud fransuz tilidagi qoliplarga taqlid qilib tuzilgan so‘z yoki iboralar; **galliy** [*lot.* Gallium < Gallia – Fransiya] – Mendeleyev davriy sistemasining III guruhiga mansub kimyoviy element; kulrang nodir metall; **gallomaniya** [gallo...+...maniya] – fransuzparastlik, fransuzlarga xos barcha narsalarga xayrixohlik, ixlosmandlik.

GALVAN(O)... [italyan olimi L.Galvani nomidan] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning galvani (ya’ni elektr) tokiga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **galvanodiatermiya, galvanofobiya, galvanokauter, galvanomagnit, galvanoplastika, galvanostegiya, galvanostereotip, galvanostereotipiya, galvanotaksis, galvanotermiya, galvanotropizm: galvanizatsiya** [galvan(o)...+...izatsiya] – past kuchli va past kuchlanishli doimiy elektr tokidan davolash maqsadlarida foydalanish; elektroterapiya usullaridan biri; **galvanokaustika** [galvano...+ *yun.* kaustikos – kuydiruvchi, lovullatuvchi] – 1) galvani tokida qizdirilgan maxsus uchliklar bilan to‘qimalarni kuydirish usuli; 2) metallga tushirilgan rasmni galvani toki bilan ishlash; **galvanometr** [galvano...+...metr] – elektr zanjiridagi juda kichik tok, kuchlanish va elektr miqdorini o‘lchaydigan asbob; **galvanopalpatsiya** [galvano...+ *lot.* palpatio – paypaslash] – shikastlangan a’zolar ustidagi terini kam kuchlanishli doimiy tok bilan ta’sirlab, ichki a’zolar va periferik nerv sistemasi kasalliklarida yallig‘lanish jarayonining bor-yo‘qligini aniqlashga imkon beradigan elektrodiagnostik usul; **galvanoskop** [galvano...+…skop] – elektr zanjirida tok bor-yo‘qligini va tok yo‘nalishini aniqlaydigan asbob; **galvanoterapiya** [galvano...+ terapiya] – bo‘g‘im, mushak, asablarning funksional va organik kasalliklarini davolash uchun doimiy elektr tokini qo‘llash; **galvanotexnika** [galvano...+ texnika] – amaliy elektrokimyoning bir sohasi; metall va metallmas buyumlar sirtiga elektrolitik usulda metall qoplash jarayoni.

GAMET(O)... [*yun.* gametos – jinsiy yetuklik; gamete – xotin, gametes – er] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, o‘zi qo‘shilib kelgan so‘zlarda jinsiy yetuklik ma’nosini bildiradi. Mas.: **gametalar** [*yun*. gametos – jinsiy yetuklik] – hayvon va o‘simliklarning irsiy belgilarni ota-onadan avlodga o‘tkazish vazifasini bajaruvchi jinsiy hujayralari; **gametangiy** [gamet(o)...+ *yun.* angeion – joy, idish] – 1) gametadon – ba’zi o‘simliklarda gametalar hosil bo‘ladigan bir yoki ko‘p hujayrali jinsiy a’zo; 2) ba’zi zamburug‘lardagi ko‘p yadroli hujayralar; **gametofit** [gameto...+...fit] – nasli almashinib rivojla-

nadigan yuqori darajali o‘simliklarning jinsiy avlodi; **gametofor** [gameto...+ ...for] – gametofitning jinsiy a’zolar joylashgan qismi; **gametogenez** [gameto...+ ...genez] – jinsiy hujayralar – gametalarning hosil bo‘lishi va yetilish jarayoni; **gametotsidlar** [gameto...+...sid] – gametotsitlarni o‘ldiruvchi kimyoviy moddalar; **gametotsit** [gameto...+...sit] – yetilayotgan jinsiy hujayra.

...GAMIYA [*yun.* gamos – nikoh, juftlashish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, nikoh, qo‘shilish; oila ma’nolarini bildiradi. Mas.: **apogamiya, avtogamiya, ekzogamiya, endogamiya, geterogamiya, singamiya; gologamiya** [golo...+...gamiya] – ba’zi yashil suvo‘tlar, tuban zamburug‘larda jinsiy jarayonlarning eng oddiy turi; bunda jinsiy hujayralar emas, balki butun boshli organizmlar qo‘shiladi; **gomogamiya** [gomo...+ ...gamiya] – 1) ikki jinsli gulda urug‘chi va changchilarning bir vaqtda yetilishi; 2) erkak va urg‘ochi jinsli individlarning o‘z nasliga bir xil kombinatsiyali genlarni o‘tkazishi; **monogamiya** [mono...+...gamiya] – 1) birnikohlilik; oila va nikohning bir erkak va bir ayolning doimo birga yashashidan iborat tarixiy shakllaridan biri; 2) erkak hayvonning bir yoki bir necha mavsum davomida ayni bir urg‘ochi hayvon bilan qo‘shilib yashashi; **poligamiya** [poli...+ ...gamiya] – ko‘pnikohlilik (ko‘pxotinlilik yoki ko‘perlilik).

GAMMA... [yunon alifbosidagi uchinchi harf (γ) va shu harfning nomi] – gamma-nurlar bilan bog‘liq bo‘lgan qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi. Mas.: **gamma-astronomiya, gamma-globulin, gamma-kamera, gamma-kardiografiya, gamma-kardiogramma, gamma-karotaj, gamma-kvantlar, gamma-nurlanish, gamma-spektrometr, gamma-temir; gamma-apparat** – asosan, rak va boshqa xavfli o‘smalarni gamma-nurlar bilan davolashda, shuningdek, material va buyumlarning nuqsonlarini aniqlashda ishlatiladigan apparat, **gamma-defektoskopiya** [gamma...+ *yun.* defectus – nuqson +...skopiya] – buyumlarning ichki nuqsonlarini gamma-nurlar yordamida aniqlash usuli; **gamma-funksiya** [gamma…+ funksiya] – matematik analizdagi muhim funksiyalardan biri, **gamma-nurlanish** – radioaktiv yadrolar va elementar zarrachalar parchalanganda paydo bo‘ladigan qisqa to‘lqinli elektromagnit nurlanish; **gamma-nurlar** – gamma-nurlanish natijasida ajraladigan nurlar; **gamma-spektroskopiya** [gamma...+ *lot.* spectrum – ko‘rinish, xayoliy obraz +...skopiya] – spektroskopiyaning atom yadrolari gamma-nurlanishining spektrlari va energiyasini o‘lchash bilan shug‘ullanadigan bo‘limi; **gamma-terapiya** [gamma...+...terapiya] – bemorlarni gamma-nurlar yordamida davolash usullari majmuyi.

GANGLIO... [*yun.* ganglion – bo‘rtiq, shish, o‘sma; tugun] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, bo‘rtiq, nerv tuguni ma’nolarini bildiradi. Mas.: **ganglioektomiya, gangliostimulyatorlar, gangliotsit, gangliozidlar; ganglioblokatorlar** [ganglio...+ blokator] – asosan, vegetativ gangliylar sinapslarida nerv qo‘zg‘alishining o‘tishini susaytiradigan moddalar; **ganglionevroma** [ganglio...+ nevroma] – vegetativ va markaziy nerv sistemasi turli bo‘limlari gangliy hujayrasining xavfsiz o‘smasi; **ganglionit** [ganglio(n)...+...it] – nerv hujayralari tuguni va vegetativ gangliyning yallig‘lanishi; **gangliy** [*yun.* ganglion – tugun] – 1) nerv tuguni; nerv hujayralari, tolalari va ular atrofidagi to‘qimalar to‘plami (to‘planib qolishi); 2) bo‘g‘im xaltasi devori yoki pay qinining o‘zgarishi natijasida paydo bo‘ladigan va ichida liqildoq moddasi bo‘lgan shish.

GAPL(O)... [*yun.* haploos – yakka, sodda] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, sodda, yakka, yakkalik kabi ma’nolarni ifodalaydi. Mas.: **gaplografiya, gaplostela, gaplotip; gaplobakteriya** [gaplo...+ bakteriya] – bir-biri bilan qo‘shilmagan, mustaqil hujayralardan tashkil topgan bakteriyalar guruhi; **gaplobiont** [gaplo...+...biont] – hujayrasi gaploid xromosomali jinsiy nasl; **gaplofaza** [gaplo…+ *yun.* phasis – namoyon bo‘lish, paydo bo‘lish] – organizmning rivojlanish siklida hijayra yadrosining xromosomalar to‘plami gaploid (bittadan) bo‘lgan davr; **gaploid** [gapl(o)...+...oid] – boshlang‘ich tur somatik xromosomalari to‘plamining faqat yarmigagina ega bo‘lgan individ; **gaplologiya** [gaplo...+...logiya] – so‘zda birin-ketin kelgan ikkita bir xil yoki o‘xshash fonetik tarkibli bo‘g‘inlardan bittasini tushirib talaffuz etish.

GAPT(O)... [*yun.* hapto – tegaman, yaqinlashaman] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, yopishmoq, urinmoq ma’nolarini bildiradi. Mas.: **gaptenlar** [*yun.* hapto – o‘zaro ta’sirlashish] – antigenlik xususiyatiga to‘la ega bo‘lmagan va oqsil bilan birikishida ularga ega bo‘ladigan kimyoviy moddalar; **gaptoglobin** (gaptoglobulin) [gapto...+ globulin] – odam qoni zardobining (plazmasining) tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan murakkab oqsil; **gaptotropizm** [gapto...+ *yun.* tropos – burilish, yo‘nalish +...izm] – chirmashib o‘suvchi o‘simliklar uchini (a’zolarini) biror qattiq jismga tegib burilishi yoki aylanishi.

GASTER..., GASTR(O)... [*yun.* gaster – me’da, oshqozon] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarning me’da, oshqozonga, ovqat hazm qilishga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **gasteromitsetlar,**

gastrin, gastrobiopsiya, gastroduodenoskop, gastroduodenoskopiya, gastroektomiya, gastroenterolog, gastroenterostomiya, gastrofilyoz, gastrogen, gastrografiya, gastromalyatsiya, gastronomiya, gastroparez, gastropeksiya, gastroplegiya, gastropor, gastroptoz, gastroskop, gastrospazm, gastrostomiya, gastrotsel, gastroyeyunostomiya, gastrulyatsiya; gastralgiya [gastr...+...algiya] – qorin og‘rig‘i; **gastrit** [gastr...+...it] – oshqozon shilliq qavatining yallig‘lanishi; **gastroduodenit** [gastro...+ duoden(i)...+...it] – oshqozon (me’da) va o‘n ikki barmoq ichak shilliq qavatining yallig‘lanishi; **gastroektaziya** [gastro...+...ektaziya] – oshqozon mushaklari tonusining turli sabablarga ko‘ra pasayishi natijasida oshqozonning kengayib, kattalashib ketishi; **gastroenterit** [gastro...+ enter(o)...+...it] – me’da va ingichka ichak shilliq qavatining bir paytda yallig‘lanishi; **gastroenterokolit** [gastro...+ entero...+ kol(o) +...it] – oshqozon, ingichka va yo‘g‘on ichaklarning bir paytda yallig‘lanishi **gastroenterologiya** [gastro...+ entero...+...logiya] – tibbiyotning ovqat hazm qilish a’zolarining tuzilishi va funksiyalarini, ularning kasalliklarini aniqlash, shuningdek, oldini olish va davolash usullarini o‘rganadigan bo‘limi; **gastrograf** [gastro...+ ...graf] – oshqozon harakatini yozib oladigan asbob; **gastrolit** [gastro...+ ...lit] – oshqozondagi tosh; odatda, bezlar atrofida hosil bo‘ladi; **gastronom** [gastro...+...nom] – alohida usulda tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlari bilan savdo qiluvchi magazin; **gastroplastika** [gastro...+...plastika] – oshqozonning shaklini uning biror-bir qismini olib tashlamagan holda jarrohlik yo‘li bilan o‘zgartirish; **gastropodlar** [gastro...+...pod] – qorinoyoqli mollyuskalar; har qanday joylarda yashayveradigan mollyuskalar sinfi; **gastrorragiya** [gastro...+...rragiya] – oshqozon-ichak kasalliklarida va boshqa ba’zi jarohatlarda oshqozonning qonashi, oshqozondan qon kelishi; **gastroskopiya** [gastro...+...skopiya] – qizilo‘ngachga og‘iz orqali kiritiladigan maxsus asbob – gastroskop yordamida oshqozon bo‘shlig‘ini tekshirish; **gastrotomiya** [gastro...+...tomiya] – oshqozonni kesib ochish; **gastrula** [gastr(o)...+...ula] – qorincha – ko‘p hujayrali hayvonlarning gastrulyatsiya davridagi murtagi.

GAZ(O)... [*fr*. gaz < *yun.* chaos – tartibsizlik, chalkashlik] – o‘zlashma yasama va qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning gazga, gaz bilan, gaz yordamida bo‘ladigan jarayonlarga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas: **gazlift, gazniqob, gazoanalizator, gazometriya, gazoyl, gazyutkich, gazchiroq; gazgolder** [*ingl.* gazgolder < gaz...+ holder – ushlagich, saqlagich] – gaz qabul qilish, saqlash va uzatish (tarqatish) moslamasi; **gazogenerator** [gaz(o)...+ generator] – qattiq yoki suyuq yoqilg‘ilarni yonuvchi gazga aylantiradigan apparat; **gazolin** [gaz...+ *lot.* oleum – yog‘, moy] – tabiiy neftni

haydash yoki sanoat gazlarini ajratish usuli bilan olinadigan suyuq yonilg‘i; **gazometr** [gazo...+...metr] – turli xil gazlarni to‘plash, saqlash va hajmlarini o‘lchash uchun mo‘ljallangan, laboratoriyalarda ishlatiladigan idish; **gazotron** [gazo...+...tron] – anod va katod elektrodlaridan iborat bo‘lgan, ichiga argon va simob bug‘lari to‘ldirilgan shisha ballon, eng oddiy ion asbob; **gazpayvand** [gaz...+ payvand] – metallarni gaz alangasida suyuqlanish temperaturasigacha qizdirib biriktirish.

GEKS(A)... [*yun.* hex – olti] – o‘zlashma yasama va qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning 6 soniga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **geksaferritlar, geksagonal, geksamin, geksan, geksanollar, geksaxloran, geksaxord, geksaxromiya, geksitlar, geksogen, geksokinaza; geksadekan** [geksa...+ *yun.* deka – o‘n) – molekulasida uglerod atomlari 16 bog‘lanishli aloqasi bo‘lgan to‘yingan uglevodorod (modda ana shu 16 bog‘ bo‘lgani uchun shunday atalgan); **geksaedr** [geksa...+...edr] – 1) oltiyoqlik; olti yoqli geometrik shakl; 2) olti qirrali kristallografik shakl; **geksagon** [geksa...+...gon] – oltiburchak; olti burchakli; **geksod** [geks...+...od] – olti elektrodli, ya’ni katod, anod va to‘rtta to‘rli elektron lampa; **geksozalar** [geks(a)...+ ...oza] – molekulasida oltita uglerod atomi bo‘lgan monosaxaridlar; **gekzametr** [geksa...+...metr] – olti turoqli daktildan iborat metrik she’r turi.

GEKTO... [*yun.* hekaton – yuz] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, boshlang‘ich miqdor (birlik, kattalik) ning 100 karra ortiqligini, umuman, 100 sonini bildiradi. Mas.: **gektografiya, gektogramm, gektolitr, gektotonika; gektar** [gekt(o)...+ *fr.* are < *lot.* area – maydon, yuza, sath] – metrik o‘lchov tizimida har tomoni 100 metr bo‘lgan kvadrat yuzaga teng sath o‘lchov birligi; **gektograf** [gekto...+...graf] – mashinkada yoki qo‘lda yozilgan matnni yoxud illyustratsiyalarni 100 nusxagacha ko‘paytiradigan eng sodda bosma asbobi; **gektometr** [gekto...+...metr] – 100 metrga teng uzunlik o‘lchovi birligi asbobi; **gektovatt** [gekto...+ vatt] – 100 vattga teng bo‘lgan quvvat birligi.

GELI(O)... [*yun.* helios – Quyosh] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning Quyoshga, quyosh nuri, quyosh energiyasiga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **geliobiologiya, gelioenergetika, geliofizika, gelioforlar, geliogeografiya, geliograf, geliogravyura, geliokonsentrator, geliolit, gelioseysmologiya, gelioskop, geliostat, geliotaksis, geliotermlar, geliotrop, geliotropizm, geliotsentrizm; geliofil** [gelio...+ ...fil] – serquyosh va yorug‘ sharoitni sevuvchi, soyaga chidamsiz o‘simlik;

geliofit [gelio…+…fit] – quyosh nuri yaxshi tushadigan joylarda o‘sadigan yorug‘sevar o‘simlik; **geliofoblar** [gelio..+...fob] – quyoshdan qo‘rquvchilar; soyasevar o‘simliklar; **geliografiya** [gelio…+…grafiya] – astronomiyaning Quyoshni tadqiq etish bilan shug‘ullanadigan bo‘limi; **geliometr** [gelio…+ …metr] – ikki yoritqich o‘rtasidagi kichik burchak masofalarini, Quyosh, Oy va boshqa sayyoralarning ko‘rinma diametrlarini o‘lchaydigan asbob; **geliomobil** [gelio...+ (avto)mobil] – quyosh batareyalarida to‘plangan energiya hisobiga harakatlanuvchi transport vositasi; **gelioqurilma** [gelio…+ qurilma] – quyosh radiatsiyasi energiyasini foydalanish uchun qulay bo‘lgan boshqa tur energiyaga aylantirib beradigan qurilma; **gelioskop** [gelio...+...skop] – Quyosh sirtini ko‘rib kuzatishga moslangan teleskop; **gelioterapiya** [gelio…+…terapiya] – davolash va profilaktika maqsadida quyosh nuridan foydalanish; **geliotexnika** [gelio…+ texnika] – texnikaning quyosh nurlarini amalda foydalanish uchun qulay bo‘lgan boshqa tur energiyaga aylantirish bilan shug‘ullanadigan sohasi; **geliy** [*lot.* Helium < *yun.* helios – Quyosh] – Mendeleyev davriy sistemasining VIII guruhiga mansub kimyoviy element; rangsiz, hidsiz, asil gaz.

GELIK(O)... [*yun.* helix (helikos) – spiral, vint] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, spiral, vintga oidlikni bildiradi. Mas.: **gelikon; gelikoid** [gelik(o)…+…oid] – turli vintsimon sirtlarning bir turi; **gelikopter** [geliko…+ *yun.* pteron – qanot] – vertolyotning eskirgan nomi.

GELO... [*yun.* helo – botqoq(lik)] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, botqoq(lik) ma’nosini bildiradi. Mas.: **gelofitlar** [gelo...+...fit] – botqoq joylarda yaxshi o‘sadigan o‘simliklar; **gelonim** [gel(o)...+...onim] – har qanday botqoq(lik), botqoqlashgan joyning atoqli nomi; **geloplankton** [gelo...+ *yun.* plankton – adashgan; muallaq] – oqmas suvlarda yashaydigan planktonlar.

GELMINT(O)... [*yun.* helmins, helminthos – chuvalchang, gijja] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, chuvalchang, gijja ma’nolarini bildiradi. Mas.: **gelmintlar, gelmintolog, gelmintosporiozlar, gelmintozoonozalar; gelmintogeografiya** [gelminto...+ geografiya] – gelmintologiyaning gelmintlarni o‘lka, viloyatlar, iqlimiy, geografik zonalar miqyosida o‘rganadigan bo‘limi; **gelmintologiya** [gelminto...+...logiya] – parazitologiyaning gelmintlarni hamda tirik organizmlarda ular keltirib chiqaradigan kasalliklarni o‘rganadigan sohasi; **gelmintozlar** [gelmint...+ ...oz] – odam, hayvon va o‘simliklarda parazit gelmintlar (gijjalar) keltirib chiqaradigan kasalliklar.

GEM(O)..., GEMATO... [*yun.* haima (haimatos) – qon] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning qonga, qon kasalliklariga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **gemartroz, gematin, gematit, gematomiyeliya, gematotsele, gemeritrin, gemin, gemodinamika, gemoftalm, gemoglobinometr, gemoglobinopatiya, gemolimfa, gemoliz, gemolizinlar, gemoparazitlar, gemopoez, gemorroy, gemosideroz, gemosporidiyalar, gemostaz, gemotoksinlar, gemotransfuziya, gemotsianinlar, gemoxromatoz; gemangioma** [gem(i)...+ angi(o)...+...oma] – angiomaning bir turi – qon tomirlarining xavfsiz o‘smasi; **gematofobiya** [gemato...+...fobiya] – miyaga o‘rnashib qolgan, xayoldan ketmaydigan qondan qo‘rqish holati; **gematogen** [gemato...+...gen] – 1) gemoglobinning glitserin va spirtdagi 70% li eritmasi; dorivor preparat; 2) plitkalari iris konfetiga o‘xshash shifobaxsh oziq mahsuloti; **gematologiya** [gemato...+...logiya] – tibbiyotning qon tarkibi, xossalari va funksiyalari, kasalliklari va davolash usullarini o‘rganadigan sohasi; **gematoma** [gemat(o)...+...oma] – to‘qimalar, a’zolar, tana bo‘shliqlarida qon tomirlarining shikastlanishi natijasida qon to‘planishi; **gematuriya** [gemat...+...uriya] – buyrak, siydik yo‘llari kasalliklarida qonning siydik bilan ajralib chiqishi (qonli siydik); **gemodializ** [gemo...+ *yun*. dialysis – ajralish, parchalanish] – asosan, o‘tkir va surunkali buyrak yetishmovchiligida, turli moddalar bilan zaharlanislarda qonni zaharli moddalardan tozalash usuli; **gemodinamometr** [gemo...+ dinamo...+...metr] – qon bosimini aniqlaydigan asbob; **gemofiliya** [gemo...+...filiya] – qon oqishiga moyillik bilan ifodalanadigan irsiy kasallik; **gemoglobin** [gemo...+ *lot.* globus – shar] – odam, umurtqali va ba’zi umurtqasiz hayvonlar qonida bo‘ladigan, qon aylanishida muhim rol o‘ynaydigan nafas pigmenti; **gemoglobinemiya** [gemoglobin + ...emiya] – qon plazmasida erkin gemoglobin miqdorining me’yordagiga qaraganda ko‘payishi; **gemometr** (gemoglobinometr) [gemo...+...metr] – qondagi gemoglobin miqdorini aniqlaydigan asbob; **gemorragiya** [gemo...+...rragiya] – qon tomir devorlari shikastlanganda, o‘tkazuvchanligi buzilganda qonning tashqariga chiqishi, qon oqishi; **gemoterapiya** [gemo...+...terapiya] – bemorga o‘z qonini yoki donor qonini quyib davolash; **gemotoraks** [gemo...+ *yun.* thorax – ko‘krak qafasi] – ko‘krak qafasi jarohatlanganda va ba’zi kasalliklarda plevra bo‘shlig‘iga qon to‘planishi (quyilishi); **gemotsistoblastlar** [gemo…+ sito…+…blast] – odam va umurtqali hayvonlarning qon yaratuvchi a’zolaridagi hujayralar; ulardan qizil va oq qon hujayralari – eritrotsitlar va leykotsitlar hosil bo‘ladi.

GEMI... [*yun.* hemi – yarim] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, butunning teng yarmi, uning ikkidan biriga teng miqdor

ma’nosini bildiradi. Mas.: **gemianopsiya, gemiatrofiya, gemikraniya, gemikserofitlar, gemimorfit, gemiparez, gemispazm, gemitsellyuloza, gemizigotalik; gemialgiya** [gemi...+...algiya] – tananing yarmida og‘riq paydo bo‘lishidan iborat simptom; **gemianesteziya** [gemi...+ an...+...esteziya] – yarim tananing og‘riq sezmay qolishi; **gemiataksiya** [gemi...+ *yun.* ataxia – harakatning buzilishi] – yarim tanada ixtiyoriy harakatlarga beixtiyoriy harakatlarning qo‘shilib ketishi; **gemigidroz** [gemi... + gidr...+ ...oz] – odam tanasi bir tomonining ko‘p terlashi; **gemikriptofitlar** [gemi...+ kripto...+...fit] – qayta tiklanuvchi kurtaklari tuproq orasiga qisman yashirinib qishlaydigan ko‘pyillik o‘tlar; **gemiopiya** [gemi...+...opiya] – har bir ko‘z ko‘rish maydonining yarmida ko‘rish qobiliyatining saqlanib qolishi; **gemiplegiya** [gemi...+...plegiya] – gavda o‘ng yoki chap yarmining to‘liq falajlanishi; **gemisfera** [gemi...+...sfera] – 1) bosh miya yoki miyachaning yarimshari; 2) osmon yoki Yer yarimshari; **gemispazm** [gemi…+…spazm] – tananing bir tomoni (yarmi) dagi mushaklarning vaqti-vaqti bilan tortishib qolishi.

GEMIN... [*lot.* gemini – egizak; qo‘shaloq] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, ikkalasi birgalikda; birga, qo‘sh ma’nolarini bildiradi. Mas.: **geminatsiya** [gemin...+...atsiya] – tilshunoslikda: ikki aynan bir xil undoshli holatning yuzaga kelishi; **geminidlar** [gemin...+...id] – Egizaklar yulduz turkumidagi meteorlar oqimi.

...GEN [*yun.* genos – kelib chiqish, paydo bo‘lish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, biron narsadan hosil bo‘lish yoki kelib chiqish yoxud biron narsa yoki hodisaning ibtidosi, negizi kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **allergen, antigen, galogen, gematogen, geterogen, gidrogen, gomogen, kollagen, kriogen, neogen, oksigen; biogen** [bio...+...gen]: ***biogen elementlar*** – organizm tarkibida doim mavjud bo‘ladigan va ma’lum biologik funksiyalarni bajaradigan kimyoviy elementlar; **fosgen** [fos…+ …gen] – alifatik qatordagi organik birikma; bo‘g‘uvchi ta’sirga ega zaharlovchi modda; rangsiz gaz; **glikogen** [gliko…+…gen] – hayvon kraxmali – odam va hayvonlarning asosiy uglevod zaxirasi; glyukoza qoldiqlaridan hosil bo‘lgan polisaxarid (zamburug‘lar, ko‘k-yashil suvo‘tlar va bakteriyalarda ham uchraydi); **kanserogen** [kansero...+...gen]: ***kanserogen moddalar*** – organizmda o‘smalarni paydo qilish va avj oldirish xususiyatiga ega bo‘lgan kimyoviy moddalar; **paleogen** [paleo…+…gen] – kaynozoyning davomiyligi 35 – 40 million yil bo‘lgan birinchi tizimi (davri); paleotsen, eotsen va oligotsen bosqichlariga bo‘linadi; **patogen** [pato...+...gen]: ***patogen mikroorganizmlar*** – odam, hayvon va o‘simliklarda kasallik va og‘riq paydo qiluvchi mikroorganizmlar.

...GENEZ [*yun.* genesis – tug‘ilish; kelib chiqish, paydo bo‘lish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shakllanish, kelib chiqish, paydo bo‘lish ma’nolarini bildiradi. Mas.: **androgenez, embriogenez, etnogenez, filogenez, geterogenez, ginogenez, gistogenez, ontogenez, oogenez, spermatogenez; antropogenez** [antropo…+…genez] – 1) odamning tadrijiy-tarixiy shakllanish jarayoni; 2) odamning kelib chiqishi haqidagi ta’limot – antropologiyaning bir bo‘limi; **biogenez** [bio...+...genez] – organik birikmalarning tirik organizmlardan hosil bo‘lishi; **kanserogenez** [kansero...+...genez] – normal, sog‘lom hujayralar, to‘qimalardan xavfli o‘sma paydo bo‘lishi va rivojlanishi; **kriogenez** [krio…+…genez] – kriosferada muz hosil bo‘lishi bilan bog‘liq holda kechadigan fizikaviy, kimyoviy va boshqa jarayonlar majmuyi; **patogenez** [pato...+...genez] – 1) kasallik yoki patologik jarayonning rivojlanish mexanizmi; 2) tibbiyotning kasallikning kelib chiqishi jarayoni va rivojlanishini o‘rganadigan bo‘limi.

GEN(O)... [*yun.* genos – urug‘, nasl, avlod; kelib chiqish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning kelib chiqish, paydo bo‘lish, tug‘ilishga; urug‘, nasl, avlodga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **gen, generator, generatsiya, geniy, genodermatoz, genogeografiya, genogramma, genom, genomutatsiya, genoterapiya; gen(lar)** [*yun.* genos] – irsiyatning elementar birligi va moddiy asosi; organizm belgi va xususiyatlarini nasldan naslga o‘tkazish vazifasini bajaradi; **genealogiya** [*yun.* genealogia – shajara < genos] – 1) yordamchi tarix fanlaridan biri: urug‘ va oilalarning kelib chiqishi, ayrim shaxslar tarixi va qarindoshlik aloqalarini o‘rganadi; 2) shajara va shajaralar tuzish; **generativ** [*lot.* generare – tug‘dirmoq, paydo qilmoq] – tug‘diruvchi, hosil qiluvchi: ***generativ hujayralar*** – jinsiy hujayralar; ***generativ a’zolar*** – o‘simliklarning jinsiy ko‘payish a’zolari; **genetika** [*yun.* genesis – kelib chiqish, paydo bo‘lish +...ika] – biologiyaning barcha tirik organizmlarga xos bo‘lgan irsiyat va turli irsiy o‘zgarishlarni o‘rganadigan bo‘limi; **genesis** [*yun.* genesis] – kelib chiqish, paydo bo‘lish; rivojlanayotgan voqea-hodisaning vujudga kelishi va shakllanishi; **genitaliyalar** [*lot.* genital – tug‘ish, tug‘dirish a’zosi] – jinsiy a’zolar; **genofond** [geno…+ *fr.* fond < *lot.* fundus – asos, negiz] – ma’lum bir populyatsiyani tashkil qiluvchi individlarda mavjud bo‘lgan genlar yig‘indisi; **genokopiya** [geno...+ *lot.* copia – ko‘p, ko‘pchilik] – organizmning zohiran boshqa irsiy o‘zgarishga o‘xshagan, lekin o‘zga bir genga bog‘liq o‘zgarishi; **genotip** [geno...+...tip] – muayyan organizmlar xromosomalari va sitoplazmasidagi barcha genlar majmuyi; **genotsid** [geno…+…sid] – xalqaro jinoyatlarning bir turi: irqi, millati, dini, etnik tarkibiga ko‘ra aholi guruhlarini yoppasiga yoki qisman jismonan qirib yuborishga qaratilgan harakat.

GEO... [*yun.* ge – Yer] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning Yerga, Yer shariga, tuproqqa va yerni tadqiq etishga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **geoakustika, geobiontlar, geodinamika, geofaza, geofizika, geogelmintlar, geoid, geokarpiya, geokriologiya, geomagnetizm, geomagnitofon, geomexanika, geomorfologiya, geosistema, geotektonika, geotermal, geotermiya, geotexnologiya, geozona; geobotanika** [geo...+ botanika] – Yer yuzida o‘simlik jamoalarining muhit bilan bog‘liq holda joylashishini, tarkibini va taqsimlanish qonuniyatlarini o‘rganadigan fan; **geodeziya** [geo...+ *yun.* daio – bo‘laman, ajrataman] – Yer o‘lchami va shaklini aniqlash, yer yuzasini plan va xaritalarda tasvirlash uchun ayrim yer maydonlarini o‘lchash bilan shug‘ullanadigan fan; **geoekologiya** [geo...+ ekologiya] – ekologiyaning yuqori bosqichdagi ekosistemalarni, jumladan, biosferani o‘rganuvchi sohasi; **geofagiya** [geo...+...fagiya] – tuproq, kesak yeyish; **geofitlar** [geo...+...fit] – o‘suvchi (yangilanuvchi) kurtaklari tuproq orasida qishlaydigan ko‘pyillik o‘t o‘simliklar; **geofon** [geo...+ ...fon] – Yer po‘stining yuqori qatlamlarida tarqalayotgan tovush to‘lqinlarini qabul qiluvchi asbob; geomagnitofon; **geografiya** [geo...+...grafiya] – Yerning geografik qobig‘i, tuzilishi va dinamikasi, alohida komponentlarining hududlar bo‘yicha o‘zaro ta’sirlashuvi va taqsimlanishini o‘rganuvchi fanlar tizimi; **geokimyo** [geo…+ kimyo] – kimyoviy elementlarning Yer va turli geosferalarda tarqalishi va bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishi qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan; **geologiya** [geo...+...logiya] – Yer po‘sti va Yerning tarkibi, tuzilishi va taraqqiyot tarixi haqidagi fan; **geometr** [geo...+...metr] – 1) matematik olim; 2) geometriya o‘qituvchisi; **geometriya** [geo...+...metriya] – matematikaning fazoviy shakllarni va ulardagi shakliy munosabatlarni o‘rganadigan bo‘limi; **geonim** [ge(o)...+...onim] – 1) planetonimning bir ko‘rinishi; Yerdagi har qanday tabiiy- fizik obyektning atoqli nomi (selenonim, marsionim, merkurionimlar bilan qiyoslanganda); 2) geologik formatsiyalarning atoqli nomi; **geosferalar** [geo...+...sfera] – Yer sharini tashkil etgan konsentrik qobiqlar; **geosiyosat** [geo...+ siyosat] – muayyan bir mamlakat o‘rni, tabiiy boyliklari, iqlimi va boshqa geografik omillarining davlat tashqi siyosatiga ta’sirini ifodalovchi siyosatshunoslik nazariyasi; **geotropizm** [geo...+ …tropizm] – o‘simlik organlarining yer tortish kuchi yo‘nalishiga qarab Yer markaziga nisbatan muayyan holat olishi; **geotsentrizm** [geo...+ sentrizm] – qadimda mavjud bo‘lgan, Olamning turg‘un markazi Yer bo‘lib, Quyosh va boshqa barcha osmon yoritqichlari uning atrofida aylanadi degan tasavvur; **geoxronologiya** [geo...+ xronologiya] – geologik yilnoma – Yer po‘stini tashkil etuvchi tog‘ jinslarining hosil bo‘lish ketma-ketligi va yoshi haqidagi ta’limot.

GEPAT(O)... [*yun.* hepar, hepatos – jigar] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning jigarga, jigar faoliyatiga va kasalliklariga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **geparalgiya, geparin, gepatargiya, gepatoblastoma, gepatodistrofiya, gepatoksemiya, gepatoma, gepatomegaliya, gepatoterapiya, gepatotomiya, gepatoxoletsistit; gepatalgiya** [gepat...+ ...algiya] – jigar sohasida og‘riq sezish; **gepatit** [gepat…+…it] – jigarning yallig‘lanishi; **gepatoektomiya** [gepato...+...ektomiya] – jigarning bir qismini kesib tashlash (mas., o‘sma bilan birga); **gepatografiya** [gepato…+…grafiya] – jigarni rentgenologik tekshirish usuli; **gepatolitiaz** [gepato...+ lit...+...iaz] – jigar yo‘llarida toshchalarning mavjud (paydo) bo‘lishi; **gepatologiya** [gepato…+…logiya] – tibbiyotning jigar va o‘t yo‘llari kasalliklari diagnostikasini va ularning kelib chiqish sabablari hamda davolash va oldini olish usullarini o‘rganadigan bo‘limi; **gepatoptoz** [gepato...+...ptoz] – jigarning pastga tushishi; **gepatotoksemiya** [gepato...+ *yun.* toxikon – zahar +…emiya] – jigar antitoksik funksiyasining buzilishi natijasida qonda zaharlovchi moddalar paydo bo‘lishi; **gepatotsit** [gepato...+...sit] – jigar parenximasining sekretor hujayrasi; **gepatoz** [gepat(o)...+...oz] – bir qator jigar kasalliklarining umumiy nomi; yallig‘lanish alomatlari ozgina bo‘lgani yoki umuman bo‘lmagani holda jigar parenximasining distrofik o‘zgarishi bilan ifodalanadi.

GEPTA... [*yun.* hepta – yetti] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning 7 soniga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **geptatonika, geptaxlor, geptometr, gepton; geptaedr** [gepta...+...edr] – yettiyoqlik; **geptagon** [gepta…+…gon] – yetti burchakli; yettiburchak; **geptaxord** [gepta…+ *yun.* chorde – sim, tor] 1) yetti bosqichli tovushqator; 2) yetti torli qadimgi yunon cholg‘u asbobi (kifara); **geptod** [gept(o)…+…od] – yetti elektrodli, ya’ni katod, anod va beshta to‘rli elektron lampa.

GER(O)..., GERONTO... [*yun.* geron (gerontos) – keksa, qari] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning qarilikka, qari kishilarga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **geriatriya, gerodermiya, gerodiyetetika, gerogigiyena, geromarazm, geromorfizm, gerontofobiya, gerontomorfoz; gerontofiliya** [geronto...+...filiya] – keksa yoshdagi shaxslarga nisbatan jinsiy moyillik, qarilar bilan jinsiy munosabatda bo‘lishga intilish – jinsiy buzuqliklarning bir turi; **gerontokratiya** [geronto...+...kratiya] – 1) ijtimoiy tuzumning go‘yo hokimiyatni keksalar egallagan (boshqargan) degan taxminiy ilk shakli; 2) mamlakatda (yoki boshqa biror joyda) keksa rahbarlarning mavjudligi (ko‘pligi); **gerontologiya** [geronto...+...logiya] – tirik organizmlarning, jumladan, odamning qarib borishini o‘rganadigan tibbiy-bi-

ologik fan; **gerontopsixologiya** [geronto...+ psixologiya] – gerontologiya va yosh psixologiyasi sohasi; umumiy psixologiya vositalari hamda usullaridan foydalanib, keksalar ruhiyati va fe'lining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

GERB(A)... [*lot.* herba – o't, o'simlik] – o'zlashma qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, shu so'zlarning o't, o'simlikka aloqadorligini bildiradi. Mas.: **gerbalayf** [gerba...+ *ingl.* life – hayot] – parhez paytida iste'mol qilinadigan o'simlik mahsulotlari; **gerbariy** [gerb(a)...+...ariy < *lot.* herbarium – o't-o'lan, o'simliklar haqidagi kitob] – o'rganish va sistemalashtirish maqsadida o'ziga xos usullarda maxsus yig'ib olib quritilgan o'simliklar majmuyi; **gerbera** [*lot.* herba] – murakkabgullilar oilasiga mansub, asosan, Afrika va Osiyoda tarqalgan ko'pyillik o'simliklar turi; **gerbitsidlar** [gerb(i)...+...sid] – begona o'tlarni yo'qotish uchun qo'llanadigan kimyoviy moddalar.

GETER(O)... [*yun.* heteros – boshqa, o'zga; har xil] – o'zlashma qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, o'zgacha, boshqa, har xil kabi ma'nolarni bildiradi. Mas.: **geteroallelizm, geteroallergiya, geterobatmiya, geterodin, geterofoniya, geteroforiya, geterofraziya, geterogameta, geterogemoterapiya, geterogen, geterogoniya, geterokarion, geteromorfoz, geteroplaziya, geteroseksualizm, geterosfera, geterostiliya, geterostruktura, geterotermlar, geterotransplantat, geterotrixoz, geterotroflar, geterotsikllar, geterovaksina, geteroxronizm, geterozigota; geteresteziya** [geter(o)...+...esteziya] – terining yonma-yon sohasida har xil sezuvchanlikning kuzatilishi; **geterodontizm** [geter(o)...+ odont(o)...+...izm] – tishlarning tuzilishi, shakli va katta-kichikligining har xil bo'lishi; **geterofilliya** [getero...+ *yun.* phyllon – barg] – bitta o'simlikda yoki uning bitta novdasida yoki poyasida har xil shakldagi barglar bo'lishi; **geterogamiya** [getero...+...gamiya] – 1) qo'shiluvchi gametalar tashqi ko'rinishdan farq qiladigan jinsiy jarayon turi; 2) erkak jonivorlar tomonidan avlodlarga urg'ochi jonivorlarga qaraganda boshqacha genlarni o'tkazish; **geterogenez** [getero...+...genez] – organizmlarda ikki va undan ko'p avlodlar davomida ko'payish usullarining almashinuvi; **geterokarpiya** [getero...+ *yun.* karpos – meva] – o'simlikning bitta turida shakl va fiziologik xususiyatlari bilan o'zaro farqlanuvchi har xil mevalar bo'lishi; **geteroplastika** [getero...+...plastika] – to'qima yoki a'zolarni boshqa biologik turlarga mansub organizmlarga (mas., hayvondan odamga) ko'chirib o'tkazish yoki bir xil o'simlik qismini boshqa xil o'simlikka ulash, payvand qilish; **geteropsiya** [geter(o)...+...opsiya] – odamda har ikki ko'zning ko'rish o'tkirligida farq bo'lishi; **geterotopiya** [getero...+ *yun.* topos – joy, o'rin] – to'qimalar yoki biror a'zo qismlarining o'ziga xos bo'lmagan joylar-

da hosil bo‘lishi; **geterotransplantatsiya** [getero…+ transplantatsiya] – bir turdagi jonivor to‘qimalari yoki a’zosining boshqa turdagi jonivorga ko‘chirib o‘tkazish; **geteroxromiya** [getero...+ *yun.* chroma – rang, tus] – o‘ng va chap ko‘z yoy pardalarining yoki bir ko‘z yoy pardasi turli qismlarining har xil rangli bo‘lishi; **geteroxroniya** [getero…+ *yun.* chronos – vaqt] – hayvonlar va o‘simliklar naslida a’zolar shakllana boshlash vaqti va tezligining ajdodlariga nisbatan o‘zgarishi.

...GEVZIYA [*yun.* geus – ta’m] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, ta’m, maza ma’nolarini bildiradi. Mas.: **agevziya, gipergevziya, kakogevziya, psevdogevziya; disgevziya** [dis...+...gevziya] – ta’m bilish sezgisining buzilishi; **gipogevziya** [gipo...+...gevziya] – mazani sezishning pasayishi; **glikogevziya** [gliko...+...gevziya] – biror ta’sir bo‘lmasdan turib, og‘izning o‘z-o‘zidan shirin bo‘lishi; **paragevziya** [para...+...gevziya] – ta’m sezishning buzilishi; **pikrogevziya** [pikr(o)…+… gevziya] – paragevziyaning bir turi: hamma vaqt og‘izda achchiq, taxir ta’m sezish.

GEYZ... [*islandcha* geysir – shiddatli oqim, issiq suv] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning issiq suvga, issiq oqimga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **geyzer** – davriy suratda issiq suv va bug‘lar favvoradek otilib turadigan buloq; qaynar buloq; **geyzerit** [geyzer +...it] – issiq buloq (geyzer) lardan chiqadigan suv tarkibidagi kremniyning cho‘kishidan hosil bo‘lgan jins.

GIAL(O)..., GIALIN(O)... [*yun.* hyalos – shisha; hyalinos – shishasimon, shaffof] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shishasimon, shishaga o‘xshashlik, shaffof ma’nolarini bildiradi. Mas.: **gialin, gialinobazalt, gialobazalt, gialosiderit; gialinoz** [gialin(o)...+...oz] – organizm to‘qimalarining to‘qima hujayrasidan tashqarida bir turdagi zich, yarimshaffof oqsil moddalar hosil bo‘lishi bilan xarakterlanadigan o‘zgarishi; **gialit** [gial...+ ...it] – 1) har xil ko‘rinishdagi rangsiz, shaffof mineral; odatda, kurtaksimon, sumalaksimon suyuqlik shaklida uchraydigan opal; 2) shishasimon tananing yallig‘lanishi; **gialogen** [gialo…+…gen] – tog‘aylarda, ko‘zning shishasimon qismida uchraydigan albuminoid modda; **gialoplazma** [gialo...+...plazma] – hayvon va o‘simlik hujayralari sitoplazmasining yorug‘lik mikroskopida ko‘rinmaydigan, muayyan strukturali qismi.

GIDR..., ...GIDR [*yun.* hidros – ter] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi va ikkinchi tarkibiy qismlari bo‘lib, shu so‘zlarning ter va ter bezla-

riga, terlash bilan bog‘liq kasalliklarga aloqadorligini bildiradi: I. Qo‘shma so‘zning birinchi qismi sifatida. Mas.: **gidradenit** [gidr...+ aden...+...it] – ter bezlari, ko‘pincha qo‘ltiqosti bezlarining yiringli yallig‘lanishi; **gidradenoma** [gidr...+ adenoma] – ter bezlarining xavfsiz o‘smasi; **gidrotsistoma** [gidro...+ sist(o)...+...oma] – ter bezi kistasi: ko‘p terlash, shuningdek, ter ajralishining izdan chiqishi natijasida kelib chiqadi; **gidroz** [gidr...+...oz] – ter bezlari faoliyatining buzilishi. II. Qo‘shma so‘zlarning ikkinchi qismi sifatida (bu holatda **...gidr(oz)** terminelementi ko‘pincha **...idr(oz)** tarzida talaffuz qilinadi va yoziladi). Mas.: **bromidroz, gematidroz, oligidriya, osmidroz, paragidroz // paridroz, podobromidroz; angidroz // anidroz** [an…+…(g)idroz] – terlamaslik, ter chiqishning yo‘qligi; **gematogidroz** [gemato...+ gidr(o)...+...oz] – tarkibida qon bo‘lgan ter ajralib chiqishi; **gipergidroz** [giper...+ gidr(o)...+ ...oz] – kuchli, ortiqcha terlash; **gipogidroz** [gipo...+ gidr(o)...+...oz] – organizmning faolligiga, atrofdagi havo haroratiga mos bo‘lmagan holda terning anomal holda kam ajralib chiqishi; **pangidroz** [pan...+ gidr(o)...+...oz] – butun badanning haddan tashqari terlashi; **uridroz** [ur…+…(g)idroz] – siydik tarkibida bo‘ladigan moddalar (siydik kislota, mochevina kabilar) ning terda mavjudligi; **xromidroz** [xrom...+...(g)idr +...oz] – odamlarda kobalt, mis va ba’zi boshqa moddalar bilan ishlaganda chiqadigan rangli ter.

GIDRO... [*yun.* hydor – suv] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning suvga, suv havzalariga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **gidrant, gidratatsiya, gidratlar, gidravlika, gidridlar, gidroaerodrom, gidroagregat, gidroakustika, gidrobiontlar, gidrobios, gidroblok, gidrodinamika, gidroelevator, gidrofizika, gidroftalm, gidrogen, gidrogeologiya, gidroinshoot, gidrokarbonatlar, gidrokortizon, gidrokostyum, gidrokreking, gidroksidlar, gidrolabillik, gidrolazalar, gidrolimfa, gidromaniya, gidrometallurgiya, gidrometeorologiya, gidrometr, gidrometriya, gidromexanika, gidromiyeliya, gidromodul, gidromonitor, gidronavt, gidropat, gidropatiya, gidroperikard, gidroplan, gidropnevmotoraks, gidropult, gidrosalpinks, gidrosfera, gidrospermiya, gidrostat, gidrotipiya, gidrotoraks, gidrotsele, gidrotsiklon, gidrotsistoma, gidrotubatsiya, gidrotuzlar, gidrouzel, gidroxinon, gidrozol; gidrartroz** [gidr(o)…+ artr(o)…+…oz] – bo‘g‘imlarning sariq suvli kasalligi; **gidremiya** [gidr(o)…+ …emiya] – qonda suv miqdorining ortib ketishi, qonning suyulishi; **gidrobiologiya** [gidro...+ biologiya] – biologiyaning suvda yashovchi organizmlar va ularning yashash sharoiti bilan o‘zaro munosabatlarini o‘rganuvchi bo‘limi; **gidroenergetika** [gidro… + energetika] – energetikaning suvdan elektr ishlab chiqarishda foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘limi; **gidrofiliya**

[gidro...+...filiya] – 1) ba’zi suv o‘simliklarining suv yordamida chetdan changlanishi; 2) organizm to‘qimalarining suv ajralib chiqishiga to‘sqinlik qilib, uni tutib, saqlab turish qobiliyati; **gidrofitlar** [gidro...+...fit] – suvda o‘sadigan o‘simliklar; **gidrofob** [gidro...+...fob]: ***gidrofob o‘simliklar*** – suvga chidamsiz, suvyoqmas, sernam joyda o‘sa olmaydigan o‘simliklar; **gidrofon** [gidro...+ ...fon] – suvda tarqalayotgan yoki paydo bo‘layotgan tovush to‘lqinlarini qabul qilib oladigan asbob; **gidrograf** [gidro…+…graf] – daryo yoki kanal darvozasida suv sarfining vaqt bo‘yicha o‘zgarishlari grafigi; **gidrografiya** [gidro...+ ...grafiya] – gidrologiyaning quruqlikdagi suv obyektlari (havzalari) ni o‘rganadigan bo‘limi; **gidrokefaliya // gidrotsefaliya** [gidro…+…kefaliya] – miya qorinchalarida orqa miya suyuqligining ko‘payishi bilan ifodalanadigan kasallik; **gidrokimyo** [gidro…+ kimyo] – tabiatdagi suvlarning kimyoviy tarkibini hamda ularning fizik, kimyoviy va biologik jarayonlar ta’sirida o‘zgarish qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan; **gidroliz** [gidro...+...liz] – moddalar bilan suv o‘rtasida o‘zaro ta’sir natijasida turli birikmalar hosil bo‘lishi; **gidrologiya** [gidro...+...logiya] – tabiatdagi barcha suvlarni, ularning joylashishi, xususiyatlari, o‘zaro va tabiiy atrof-muhit ta’sirida ro‘y beradigan hodisalar hamda jarayonlar qonuniyatlarini o‘rganadigan fan; **gidrolokatsiya** [gidro…+ *lot.* locatio – joylashish, joylashtirish] – suvosti obyektlari (mas., suvga cho‘kkan kema) vaziyatini obyektlarning o‘zi tarqatayotgan yoki sun’iy hosil qilingan akustik signallarning suv obyektlaridan qaytishi natijasida yuzaga keladigan akustik signallar vositasida aniqlash; **gidronefroz** [gidro...+ nefroz] – buyrak istisqosi; asosan, buyrak jomi va kosachalarining kengayib borishi natijasida buyrak o‘lchamining kattalashaverishi bilan namoyon bo‘ladi; **gidronim** [gidr(o)…+…onim] – toponimlarning bir turi; har qanday tabiiy yoki inson tomonidan yaratilgan suv obyektining atoqli nomi (okeanonim, pelagonim, limnonim, potamonim, gelonim kabilar); **gidroponika** [gidro…+ *yun*. ponos – ishlov, parvarish] – o‘simliklarni (sabzavotlar, gullar va boshqalarni) tuproqsiz, sun’iy muhitda to‘yimli ozuqa eritmalar yordamida o‘stirish; **gidrosamolyot** [gidro...+ samolyot] – suvdan ko‘tarilishga, suvga qo‘nishga va suvda suzishga moslangan samolyot; **gidroterapiya** [gidro...+...terapiya] – suv bilan davolash; turli xil davolash maqsadlarida suvdan foydalanish; **gidrotexnika** [gidro…+ texnika] – texnikaning suv resurslari (daryo, ko‘l, dengiz, okean, erosti va atmosfera suvlari) dan xalq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun foydalanish va suv keltiradigan zararlarga qarshi kurashish hamda shu maqsadlar uchun ishlatiladigan gidrotexnika inshootlarini loyihalash va qurish masalalari bilan shug‘ullanadigan sohasi; **gidroxoriya** [gidro…+…xoriya] – o‘simliklarning sporalari, urug‘lari, mevalari va boshqa murtaklarining suv oqimlari yordamida tarqalishi.

GIGANT(O)... [*yun.* gigas, gigantos – ulkan] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning kattalikka, ulkanlikka aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **gigantolit, gigantozavr; gigantizm** [gigant(o)...+ ...izm] – 1) odam bo‘yining haddan (me’yordan) tashqari baland bo‘lishi, patologik o‘sishi; 2) o‘simlikdagi biror organizmning g‘ayrinormal ravishda ortiq o‘sib ketishi; **gigantomaniya** [giganto...+...maniya] – katta, buyuk ishlarga asossiz, maqsadsiz intilish; **gigantopiteklar** [giganto...+...pitek] – o‘lib, qirilib bitgan yirik odamsimon maymunlar.

GIGRO... [*yun.* hygros – nam, ho‘l] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning suvga, namlik, namgarchilikka aloqadorligini bildiradi. Mas.: **gigrograf, gigrometriya, gigromezofitlar, gigromorf, gigroparesteziya, gigroskopik** (paxta)**, gigroskopiklik; gigrofillar** [gigro...+...fil] – yuqori namlik sharoitida yashashga moslashgan yerusti o‘simliklari va hayvonlari; **gigrofitlar** [gigro...+...fit] – sernam joylarda o‘sadigan o‘simliklar; **gigroma** [gigr(o)...+...oma] – bo‘g‘imoldi yoki sinovial xaltachalarda shilimshiq suyuqlikning to‘planishi; **gigrometr** [gigro...+...metr] – havo va gazlar namligini o‘lchash uchun ishlatiladigan asbob; **gigrostat** [gigro...+ ...stat] – turli xil modda va predmetlarni doimiy namlikda uzoq vaqt saqlab turish uchun mo‘ljallangan laboratoriya qurilmasi.

GIL... [*yun.* hyle – modda, materiya] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning jism, materiyaga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **gilemorfizm; gilozoizm** [gilo...+ *yun.* zoe – hayot +...izm] – materiyaning barcha turlarini jonli deb hisoblaydigan falsafiy ta’limot.

GIMEN... I [*yun.* hymen – po‘st, qobiq, parda; teri] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning po‘st, qobiqqa aloqadorligini bildiradi. Mas.: **gimeniy, gimenolepidlar, gimenopterlar; gimenofor** [gimeno...+...for] – bazidiyali zamburug‘larning gimeniyga ega bo‘lgan mevali tanasi sirti; **gimenomitsetlar** [gimeno...+ *yun.* myces (mycetos) – zamburug‘] – bazidiyali (ko‘payish a’zosiga ega) zamburug‘larning mevali tanasida ochiq spora hosil qiluvchi qatlamli qatorlarning umumiy nomi; **gimenosporangiy** [gimeno...+ *yun.* spora – urug‘ + angeion – naycha, tomir] – ko‘pchilik zamburug‘ va lishayniklarning sporalar hosil qiluvchi qatlamli a’zolari.

GIMEN... II [*yun.* hymen – parda] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning qizlik pardasiga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **gimen, gimenatreziya, gimenorafiya; gimenektomiya** [gimen...+...ek-

tomiya] – qizlik pardasini kesib olib tashlash; **gimenit** [gimen...+...it] – qizlik pardasining yallig‘lanishi; **gimenotomiya** [gimen(o)...+...tomiya] – *q.* **gimenektomiya**.

GIMN... [*yun.* gymnos – yalang‘och] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, yalang‘ochlik ma’nosini bildiradi. Mas.: **gimnofobiya** [gimno...+...fobiya] – yechinishdan, yalang‘och bo‘lishdan qo‘rqish.

GIN(O)..., GINEKO... [*yun.* gyne, gynaikos – ayol] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning ayollarga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **ginandralar, ginandromorfizm, ginantrop, ginatreziya, ginekey, ginekolog, ginetsey, ginofor, ginokardiya; ginandriya** [gin(o)...+ *yun.* andros – erkak] – ayollarda uning o‘ziga xos tashqi ko‘rinishi, muomalasi, fikrlashi, xatti-harakati, ovozi va boshqa belgilarining erkakcha tus olishi; ayollarda erkaklarga xos bo‘lgan jinsiy alomatlarning mavjudligi; **ginekofiliya** [gineko…+…filiya] – erkakning qayta-qayta jinsiy aloqada bo‘lishi; **ginekofobiya** [gineko…+…fobiya] – xotinlarga yaqinlashishdan (jinsiy aloqadan) qo‘rqish; **ginekokratiya** [gineko...+...kratiya] – jamiyat taraqqiyotining xo‘jalikda, ijtimoiy va siyosiy hayotda ayollar hukmronligidan iborat bosqichi; matriarxat; **ginekologiya** [gineko...+...logiya] – klinik tibbiyotning turli yoshdagi ayollar organizmining o‘ziga xos anatomik-fiziologik xususiyatlarini, jinsiy a’zolari kasalliklarining kelib chiqishini o‘rganuvchi, ularni davolash va profilaktikasi usullarini ishlab chiquvchi sohasi; **ginekomastiya** [gineko...+ *yun.* mastos – ko‘krak] – erkaklar ko‘krak bezining ayollarnikiga o‘xshab (tug‘ma yoki orttirilgan) kattalashishi; **ginogenez** [gino...+...genez] – tuxumhujayraning rivojlanish va embrionning hosil bo‘lish usuli.

GIPER... [*yun.* hyper – yuqori, o‘ta] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, o‘zi qo‘shilgan so‘zga: 1) yuqoridalik, 2) me’yordan ortiqlik, o‘ta darajadalik kabi ma’nolarni beradi. Mas.: **giperalgeziya, giperandrogenizm, giperbazitlar, giperbilirubinemiya, giperbuliya, giperbola, giperdentiya, giperdinamiya, giperergiya, gipererotizm, giperfalangiya, giperforiya, geperfunksiya, gipergalaktiya, gipergenitalizm, gipergevziya, gipergidroz, gipergrafiya, giperkapniya, gipermastiya, gipermenoreya, gipermetabolizm, gipermetriya, gipermetropiya, gipermimiya, gipermneziya, gipernefroma, giperoksidlar, giperopiya, giperostoz, giperplaziya, giperseksuallik, gipertenziya, gipertireoz, gipertrixoz, gipervitaminoz, giperxloremiya, giperxloruriya, giperxromiya; giperalgeziya** [giper…+ *yun.* algos – og‘riq, azob] – og‘riq sezishning kuchayishi; **giper-**

daktiliya [giper…+ *yun.* daktylos – barmoq] – barmoqlarning tug‘ma ortiqcha bo‘lishi; **giperemiya** [giper…+…emiya] – tananing ma’lum qismlarida qon ko‘payishi; venalarning qonga to‘lishi; unda ko‘p miqdorda qon oqishi; **giperesteziya** [giper…+…esteziya] – o‘ta sezuvchanlik, sezish hissining kuchayishi; **giperfagiya** [giper…+…fagiya] – ochko‘zlik, badnafslik; haddan tashqari ko‘p ovqat yeyish; **gipergenez** [giper...+...genez] – atmosfera, gidrosfera va tirik organizmlar ta’siri bilan Yer po‘stining yuqori qismlarida va Yer yuzasida mineral moddalarning past temperaturalarda kimyoviy va fizikaviy jihatdan o‘zgarishlari majmuyi; **giperglikemiya** [giper...+ glik(o)...+...emiya] – qondagi qand miqdorining me’yordan yuqori bo‘lishi; **giperinflyatsiya** [giper...+ *lot.* inflatio – ko‘tarilish] – tovar narxining shiddat bilan ko‘tarilishi, muomaladagi pul massasining ko‘payishi; **giperkeratoz** [giper...+ *yun.* keratos – shox, muguz +…oz] – odam terisi muguz qavatining haddan tashqari qalinlashib qattiqlashishi; **giperkinez** [giper...+ *yun.* kinesis – harakat] – markaziy nerv sistemasining ba’zi kasalliklarida qo‘l, oyoq, yuz muskullarining beixtiyor ortiqcha harakatlanishi; **giperosmiya** [giper...+...osmiya] – hidga o‘ta sezgirlik holati; **gipersomniya** [giper…+ *lot.* somnus – uyqu] – patologik uyquchanlik – qonda qand miqdori kamayib ketganda, o‘rta miya shikastlanganda va boshqa ba’zi kasalliklarda kuzatiladi; **gipertermiya** [giper...+ *yun.* therme – issiq, issiqlik] – odam va hayvon organizmida ortiqcha issiqlik to‘planishi, haroratning juda yuqori bo‘lishi; issiq elitishi; **gipertoniya** [giper...+ *yun.* tonos – taranglik] – 1) a’zo va to‘qimalar tonusi (tarangligi) ning ortishi; 2) yuqori arterial bosim; gipertonik kasallik belgisi.

GIPNO... [*yun.* hypnos – uyqu] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning uyquga aloqadorligini bildiradi: Mas.: **gipnobatizm, gipnofreniya, gipnolepsiya, gipnonarkoz, gipnotika, gipnotizm; gipnalgiya** [gipn(o)…+…algiya] – faqat uyquda, uyquga ketayotganda va uyg‘onayotganda paydo bo‘ladigan og‘riq; **gipnofobiya** [gipno...+...fobiya] – miyaga o‘rnashib qolgan qo‘rquv, vahima: uyqu paytida o‘lib qolishdan xavotirlanib, uxlashdan qo‘rqish; **gipnopediya** [gipno...+...pediya] – tabiiy tush ko‘rish vaqtida ovoz vositasida axborot uzatish yo‘li bilan o‘qitish; **gipnoterapiya** [gipno...+...terapiya] – bemorni unga sun’iy (gipnotik) uyqu yordamida ta’sir ko‘rsatib davolash usuli; **gipnoz** [*yun.* hypnos – uyqu] – 1) bosh miyaning muayyan qismlaridagi tormozlanish oqibatida odamlar yoki umurtqali hayvonlarda ro‘y beradigan o‘ziga xos uyqu holati; 2) kishini gipnotik uyqu holatiga keltirish orqali unga so‘z orqali ta’sir o‘tkazish va shu yo‘l bilan undagi ba’zi kasalliklarni davolash usuli.

GIPO... [*yun.* hypo – ostida, tagida] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib: 1) ostda, quyida, chuqurlikda joylashganlikni, 2) muayyan narsa, holatning me’yordan kamligini, pasayganligini bildiradi. Mas.: **gipakuziya, gipesteziya, gipoadrenalinemiya, gipoalbuminemiya, gipoblast, gipobuliya, gipodaktiliya, gipoderma, gipodinamiya, gipoergiya, gipofarinks, gipofiz, gipofosfatemiya, gipofosfaturiya, gipofunksiya, gipogenitalizm, gipogevziya, gipogidroz, gipoinsulinemiya, gipokalsinoz, gipoksemiya, gipomaniya, gipomenoreya, gipometriya, gipomimiya, gipomneziya, gipopigmentatsiya, giporefleksiya, giposekretsiya, giposideroz, gipospermiya, gipostaz, giposulfit, gipotalamus, gipotenziya, gipotermiya, gipotireoz, gipotrixoz, gipovitaminoz, gipoxloremiya, gipoxloruriya, gipoxoliya; gipalgiya** [gip(o)…+…algiya] – og‘riq sezuvchanlikning pasayishi; **gipesteziya** [gip(o)…+…esteziya] – teri sezuvchanligining pasayishi; **gipodontiya** [gip(o)… + *yun.* odus (odontos) – tish] – tishlar sonining yetarli bo‘lmasligi; **gipofalangiya** [gipo…+ *yun.* phalanx (phalangos) – barmoq suyakchalari] – bir yoki ikkita barmoq suyagining bo‘lmasligi; **gipogalaktiya** [gipo...+ *yun.* galaktos – sutli] – noto‘g‘ri ovqatlanish, infeksiyalar va boshqa kasalliklar ta’sirida emizikli onalar sutining kamayib ketishi; **gipoglikemiya** [gipo…+ glik(o)…+…emiya] – qonda qand miqdorining kamayishi; **gipokapniya** [gipo...+ *yun.* kapnos – tutun] – arterial qonda karbonat angidrid miqdorining kamayishi; **gipokinez** [gipo...+ *yun.* kinesis – harakat] – mushaklar va nerv sistemasining kasallanishi tufayli ixtiyoriy harakatlarning kuch va miqdor jihatdan pasayishi; **gipoksiya** [gipo...+ *lot.* oxy(genium) – kislorod] – a’zo va to‘qimalarda kislorod miqdorining kamayishi; **gipomarkaz** [gipo...+ markaz] – zilzilaning yer sathidan ancha chuqurlikdagi markazi; **gipoplaziya** [gipo...+ *yun.* plasis – hosil bo‘lish] – to‘qima, a’zolar, tana qismlari yoki butun (yaxlit) organizmning chala rivojlanishi; **giposmiya** [gip(o)…+…osmiya] – hid bilish analizatori faolligining kamayishi; **gipotaksis** [gipo...+…taksis] – gaplarning o‘zaro ergashtiruvchi vositalar yordamida tobelanishi; **gipotoniya** [gipo...+ *yun.* tonos – taranglik] – to‘qima, a’zo va sistemalarning bo‘shashuvi, ya’ni tonusi (tarangligi) ning pasayishi; qon bosimining pasayishi; **gipotrofiya** [gipo…+…trofiya – organizmning darmonsizligi, ozishi; go‘dak va yosh bolalarda ovqat hazm qilishning surunkali buzilishi natijasida kelib chiqadigan ozib-to‘zib ketish.

GIPPO... (fonetik varianti – **ippo...**: ippodrom) [*yun.* hippos – ot] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning otga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **gipparx, gipparion, gippokamp, gippur** (kislota)**, gippuritlar; gippologiya** [gippo...+...logiya] – ot, uning tashqi ko‘rinishi

va turlari, anatomiya va fiziologiyasi, uni ko‘paytirish va parvarishlash, undan foydalanish kabi masalalar bilan shug‘ullanuvchi fan; otshunoslik; **gippopotam** [gippo...+ *yun.* potamos – daryo] – juft tuyoqlilar turkumining kavsh qaytaruvchilar kenja turkumiga va suv ayg‘irlari oilasiga mansub hayvon.

GIPS... [*yun.* hypsos – balandlik] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, balandlik, yuqorilik ma’nolarini bildiradi. Mas.: **gipsoxrom; gipsofobiya** [gipso...+...fobiya] – balandlikka ko‘tarilayotganda va balandlikda odamda paydo bo‘ladigan qo‘rquv; balandlikdan qo‘rqish; **gipsometriya** [gipso...+...metriya] – geografik xaritalarda Yer yuzasi relyefini gorizontallar o‘tkazish va bo‘yash yordamida tasvirlash usuli; **gipsotermometr** [gipso...+ termo...+...metr] – tog‘li joylarda atmosfera bosimini o‘lchaydigan simobli asbob.

GIRO... [*yun.* gyros – doira < gyreno – aylanaman] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning aylanma harakatga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **girator, girokortikal, giromagnit, giroorbitant, girostat, girotaxometr, girotrop** (muhit)**, girovertikal; girobus** (jirobus) [giro…+ (omni) bus – hamma uchun] – inersion relssiz transport: maxovikda to‘plangan kinetik energiya hisobiga harakatlanuvchi mashina; **girokompas** [giro...+ *lot.* compasso – o‘lchayman] – geografik meridianga nisbatan kemalar yo‘lini ko‘rsatib beruvchi asbob; **giroskop** [giro...+...skop] – aylanish o‘qi fazoda o‘z yo‘nalishini o‘zgartira oladigan tez aylanuvchi qattiq jism; **girostabilizator** [giro...+ stabilizator] – ayrim qurilmalar yoki asboblarning turg‘unligini ta’minlash uchun ishlatiladigan qurilma; **girotron** [giro…+…tron] – o‘ta yuqori chastotali elektrvakuum asbob.

GISTER(O)... [*yun.* hyster – bachadon] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning bachadonga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **gister, gisterofor, gisterosalpingografiya, gisteroskop, gisterostomatomiya, gisterotomiya, gisterotsimiya; gisterektomiya** [gister…+…ektomiya] – bachadonni kesib olib tashlash; **gisterit** [gister...+ ...it] – bachadonning yallig‘lanishi; **gisterofor** [gistero…+…for] – bachadonni yuqoriga ko‘tarib turadigan asbob; **gisterografiya** [gistero...+...grafiya] – tug‘uruq vaqtida maxsus asbob bilan dard va to‘lg‘oqni aniqlash; **gisteroptoz** [gistero…+…ptoz] – bachadonning o‘rnidan (pastga) siljishi; **gisteroskopiya** [gistero...+...skopiya] – maxsus ko‘zguli asbob – gisteroskop yordamida bachadon bo‘shlig‘ining ichki yuzasini tekshirish; **gisterospazm** [gistero…+ …spazm] – bachadon mushaklarining spazmatik qisqarishi.

GIST(O)..., GISTIO... [*yun.* histos – to‘qima] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning to‘qimaga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **gistidin, gistioblast, gistioblastoma, gistiogen // gistogen, gistiogenez, gistioid, gistiotsitomatoz, gistodiagnoz, gistogematoma, gistogen, gistomerlar, gistomonoz, gistonlar, gistopatologiya, gistoplazmin, gistoplazmoz, gistoradiografiya, gistotoksik; gistiogenez // gistogenez** [gistio, gisto…+…genez] – hujayra va hujayra oraliq moddasining takomillashishi hamda rivojlanishi natijasida har qaysi a’zoga xos to‘qimalar vujudga kelishi; **gistiotsitlar** [gistio…+…sit] – tinch holdagi adashgan hujayralar; **gistiotsitoma** [gistio…+ sit(o)…+…oma] – gistiotsit hujayralarning aynishidan paydo bo‘ladigan yaxshi sifatli o‘sma; **gistofiziologiya** [gisto...+ fiziologiya] – to‘qimalarda ro‘y beradigan fiziologik jarayonlarni o‘rganadigan fan; **gistografiya** [gisto…+…grafiya] to‘qimalarning mikroskopik tuzilishini yozuv yo‘li bilan ifodalash; **gistokimyo** [gisto...+ kimyo] – o‘simlik va hayvonlar to‘qimalarining kimyoviy xossalarini o‘rganadigan fan; **gistoliz** [gisto…+…liz – to‘qima elementlarining parchalanishi va erib ketishi; **gistologiya** [gisto...+ ...logiya] – odam va ko‘p hujayrali hayvonlar organizmi to‘qimalari haqidagi fan; **gistotom** [gisto…+…tom] – mikroskop ostida tekshirish uchun biror to‘qima yoki a’zodan juda yupqa kesma tayyorlaydigan asbob; mikrotom.

GLADI... [*lot.* gladius – qilich, shamshir] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, qilichga aloqadorlikni, qilichga o‘xshashlikni bildiradi. Mas.: **gladiatorlar** [*lot.* gladiatoris – qilich bilan qurollangan < gladius – qilich] – qadimgi Rimda: o‘zaro yoki yirtqich hayvonlar bilan (ko‘pincha qilich yordamida) olishish uchun maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan harbiy asir yoki qullar; **gladiolus** [*lot.* gladiolus – kichkina qilich] – safsardoshlarga mansub, tuganak piyozli ko‘p yillik manzarali o‘simlik (qilichsimon barglari poyada ikki qator bo‘lib joylashadi).

GLAUKO... [*yun.* glaukos – och yashil] – o‘zlashma yasama va qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning och yoki to‘q yashil rangga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **glaukofan** va **glaukonit** – turli darajadagi yashil rangga ega bo‘lgan minerallar**; glaukoma** [glauk(o)…+…oma] – ko‘z ichki bosimining ko‘tarilib ketishi; ko‘rish qobiliyatining pasayishi bilan kechadigan ko‘z kasalligi; glaukomada qorachiq sohasi ba’zan kulrang yoki havorang-yashil tusda tovlanadi.

GLIK(O)..., GLYUKO... [*yun.* glykys – shirin] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shirin, shirali; qand, glyukoza ma’nolarini bildiradi. Mas.: **glikemiya, glikofitlar, glikogol, glikollar, glikopeptidlar, glikopro-**

teidlar, glikoregulyatsiya, glikozidazalar, glitsin, glitsiniya, glutamin, glutelinlar, glyukagon, glyukokortikoidlar, glyukonatlar, glyukoneogenez; glikemiya [glik(o)...+...emiya] – qonda uzum shakari – glyukozaning mavjudligi; **glikofitlar** [gliko... + ...fit] – sho'rlanmagan tuproqlar va chuchuk suv havzalarida o'suvchi o'simliklar; **glikogen** [gliko...+...gen] – ko'p tarmoqli polisaxarid – odam va hayvonlarda asosiy zaxira uglevod; jigar va mushaklarda hosil bo'ladi; **glikogenez // glyukogenez** [gliko... // glyukon...+...genez] – organizmda glyukozaning glikogendan emas, balki boshqa moddalardan, mas., pirouzum kislotadan hosil bo'lish jarayoni; **glikolipidlar** [gliko...+ *yun.* lipos – yog' +...oid] – uglevodli yog'simon moddalar; **glikoliz** [gliko...+...liz] – glyukozaning anaerob sharoitda parchalanishi; **glikozidlar // glyukozidlar** [gliko... // glyuko...+...id] – molekulalari uglevod bilan biror organik birikma qoldig'ining glikozid bog' orqali birikishidan hosil bo'lgan organik moddalar; **glikozuriya** [glik(o)...+...oz +...uriya] – siydikda yuqori miqdorda qand bo'lishi va uning siydik bilan chiqishi; **glitserin** [*yun.* glykeros – shirin +...in] – suvda eriydigan, rangsiz, yopishqoq va shirin suyuqlik; to'yingan uch atomli spirt; **glyukoza** [glyuk(o)...+...oza] – uzum shakari – monosaxaridlar guruhiga mansub, shirin ta'mli, tabiatda ko'p uchraydigan uglevod; **glyutsin** [glyuk(o)...+...in] – qaynoq suvda oson eriydigan, shakardan 100 – 300 baravar shirinroq kimyoviy birikma.

GLIPT... [*yun.* glyptos – o'yma, kesma; o'yilgan] – o'zlashma qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, shu so'zlarning o'ymakorlikka; kesmaga, kesishga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **gliptodontlar, gliptografiya; gliptika** [*fr.* glyptique < *yun.* glypho – o'yaman, kesaman] – qimmatbaho, yarim qimmatbaho toshlarga naqsh yoki tasvir o'yish san'ati; amaliy bezak san'ati turi; **gliptoteka** [glipto...+...teka] – gliptika yoki haykaltaroshlik asarlari to'plami; haykaltaroshlik muzeyi.

GLOB... [*lot.* globus – shar, Yer shari; globulus – sharcha] – o'zlashma qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, sharga aloqadorlik, shar shakliga o'xshashlik ma'nolarini bildiradi. Mas.: **globalizm, globulalar; global** [*fr.* global – umumiy < *lot.* globus – Yer shari] – 1) Yer yuziga oid, butun Yer sharini qamrab oluvchi; 2) umumbashariy, keng miqyosdagi; yalpi, umumiy; **globallashuv** [*fr.* global – umumiy < *lot.* globus – Yer shari] – jahondagi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohada o'zaro yaqinlashuvi, birlashuvi, voqea-hodisalarning bir mamlakat doirasidan chiqib, umuminsoniy miqyosga ega bo'lishi, butun Yer sharini qamrab olishi; yaxlit axborot maydonining shakllanish jarayoni; **globin** [glob...+...in] – gemoglobinning

oqsil qismi; **globulinlar** [*lot.* globulus – sharcha +...in] – suyuq kislota hamda ishqorlar, neytral tuzlarning kuchsiz eritmalarida yaxshi eriydigan, lekin suvda uncha erimaydigan globulyar oqsillar; **globus** [*lot.* globus – shar] – Yer shari yoki osmon sferasining taglikka o‘rnatilgan va o‘z o‘qi atrofida aylanadigan sharsimon modeli.

GLOMER... [*lot.* glomer – o‘ram; koptok, sharcha; glomerula – koptokcha] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, koptokka, sharga oidlik, o‘xshashlik ma’nolarini bildiradi. Mas.: **glomerula** [glomer...+...ula] – buyrak tanasidagi tomirli koptokcha (kalavacha); **glomerulit** [glomerul(a) +...it] – buyrak koptokchalarining yallig‘lanishi; **glomerulonefrit** [glomerul(o)...+ nefrit] – buyrak koptokchalarining yuqumli-allergik yallig‘lanishi.

GLOSS..., GLOTT... [*yun.* glossa, glotta – til; lahja, so‘z] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning til, lahja, so‘zga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **glossa, glossektomiya, glossema, glossolaliya, glossopteris, glossospazm, glottalizatsiya, glottoxronologiya; glossalgiya** [gloss..+…algiya] – til uchida yoki yarmida paydo bo‘luvchi o‘tkir kuydiruvchi, achishtiruvchi og‘riqlar; **glossariy** [gloss…+…ariy < *lot*. glossarium – eskirgan, dialektal yoki kam qo‘llanadigan so‘zlar lug‘ati] – biror qadimiy asarda uchraydigan eskirgan va kam qo‘llanadigan so‘zlarning izohli lug‘ati (izohlar, odatda, asosiy matn chetlariga yoki ostiga yozilgan); **glossematika** [glossa...+ *yun.* sema – belgi +...ika] – XX asrning 30-yillarida Kopengagen universiteti olimlari yaratgan umumlingvistik nazariya; **glossit** [gloss(a)...+...it] – turli kasalliklar oqibatida tilning yallig‘lanishi; **glossoplegiya** [gloss(o)...+...plegiya] – til mushaklarining falajlanishi; **glossoptoz** [gloss(o)…+…ptoz] – tug‘ma nuqson: tilning rivojlanmasligi, yopishib qolishi; **glottogoniya** [glotto...+...goniya] – tilning paydo bo‘lishi va rivojlanishi haqidagi ta’limot; **glottologiya** [glott(o)...+...logiya] – tilshunoslik, lingvistika.

GLYATSI(O)... [*lot.* glacies – muz] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, muzga aloqadorlik ma’nosini bildiradi. Mas.: **glyatsial** (ma’lumotlar)**, glyatsiogidrologiya, glyatsioiqlimshunoslik, glyatsioizostaziya, glyatsiolog; glyatsiodislokatsiya** [glyatsio…+ *lot.* dislocatio – siljish, surilish, joyini o‘zgartish] – muz qoplamlari o‘zanidagi muzlikning og‘irligi va harakati ta’sirida yumshoq tog‘ jinslari joylanishidagi buzilishlar (siljishlar); **glyatsiologiya** [glyatsio...+...logiya] – Yer yuzida muzliklarning paydo bo‘lishi, taraqqiyoti, tuzilishi va tarkibi, fizik xossalari, atrofdagi muhit bilan o‘zaro munosabati, geografik tarqalishi va ularning amaliy ahamiyati haqidagi fan.

GNAT(O)... [*yun.* gnath – jag‘] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning jag‘ga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **gnation, gnatostat; gnatodinamometr** [gnato...+ dinamo...+...metr] – jag‘dagi tishni ushlab turuvchi to‘qimalarning qancha bosimga chidamliligini aniqlaydigan apparat; **gnatodinamometriya** [gnato…+ dynamo…+…metriya] – tishlar qatorining ma’lum qismida chaynash tazyiqining kuchini va tishlarni o‘rab turuvchi to‘qimalarning bosimga chidamliligini o‘lchash; **gnatoplastika** [gnato…+…plastika] – shikastlangan jag‘ni plastik usulda tiklash.

GNOS... [*yun.* gnosis – bilish] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, bilish, anglash, o‘zlashtirish, egallash ma’nolarini bildiradi.. Mas.: **gnostika, gnostiklar; gnoseologiya** [gnoseo...+...logiya] – ilmiy bilishning mohiyati, qonuniyatlari, metod va shakllari to‘g‘risidagi ta’limot; **gnostitsizm** [*yun.* gnostikos – biluvchi +...izm] – qadimgi Rim va Yunonistonda antik davr oxirlarida vujudga kelgan diniy-falsafiy yo‘nalish.

GNOTO... [*yun.* gnotos – ma’lum, mashhur; aniq, belgili] – ayrim o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, ma’lum, belgili, aniq ma’nolarini bildiradi. Mas.: **gnotobiologiya** [gnoto…+… biologiya] – eksperimental bilogiyaning bir tarmog‘i: tibbiyot va biologiya ehtiyojlari uchun gnotobiontlar ustida tajribalar o‘tkazish bilan shug‘ullanuvchi mustaqil ilmiy yo‘nalish; **gnotobiontlar** [gnoto…+…biont(lar)] – mikroorganizmlardan tamoman xoli bo‘lgan hayvonlar: ular ilmiy tadqiqot ishlari uchun steril sharoitda yetishtiriladi; **gnotobiotika** – *ayn.* **gnotobiologiya.**

...GNOZIYA [*yun.* gnosis – fan, bilim, bilish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, bilim, bilish ma’nolarini bildiradi. Mas.: **agnoziya** [a...+...gnoziya] – bosh miya katta yarimsharlari zararlanganda fahmlash, tushunish qobiliyatini yo‘qotish; **farmakognoziya** [farmak(o)...+...gnoziya] – farmatsiyaning o‘simliklar va hayvonlardan olinadigan dorivor mahsulotlarni va ularni birlamchi qayta ishlashdan hosil bo‘ladigan ba’zi moddalarni o‘rganadigan bo‘limi.

GODO... [*yun.* hodos – yo‘l] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, ularning yo‘lga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **godografiya, godonimiya, godoskop; godograf** [godo...+...graf] – 1) biror vektor funksiyaning vaqt davomida o‘zgarishini ko‘rsatadigan egri chiziq; 2) seysmik to‘lqinlarning manbadan kuzatish punktigacha yetib borishi uchun ketgan vaqtning masofaga bog‘liqligini ko‘rsatadigan egri chiziq; **godonim** [god(o)...+...onim] – urbanonimning bir turi: shahardagi to‘g‘ri chiziqli obyektlarning, jumladan, shohko‘chalar, yo‘llar, torko‘chalar va boshqalarning atoqli nomi.

GOLO... [*yun.* holos – butun, butkul, to‘liq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, butkul, to‘liq ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **gologramma, golokrin** (bezlar), **golomorfizm, golonom** (sistema)**, golonomiya**, **golotsen; golarktika** [gol(o)...+ *yun.* arktikos – shimoliy] – quruqlikdagi floristik va zoogeografik hududlardan biri: Shimoliy yarimsharning tropik mintaqadan tashqari hamma qismini o‘z ichiga oladi; **gologamiya** [golo...+ ...gamiya] – jinsiy jarayonlarning jinsiy hujayralar emas, balki butun-butun organizmlar qo‘shilishidan iborat eng oddiy turi (ba’zi yashil suvo‘tlar va tuban zamburug‘larda); **golografiya** [golo...+...grafiya] – to‘lqinlar interferensiyasidan foydalanib, buyumning fazoviy tasvirini hosil qilish usuli.

GOMEO... [*yun.* homoios – o‘xshash, bir xil] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, o‘zi qo‘shilgan so‘zda aynanlik, o‘xshashlik, bir xillik ma’nosini bildiradi. Mas.: **gomeomeriya, gomeomorfizm, gomeomorfoz, gomeopat, gomeotip; gomeomorfiya** [gomeo... + *yun.* morphe – shakl] – tirik organizmlarning har xil turlari, jinslari, guruhlari vakillarining sezilarli darajada o‘xshashligi; **gomeopatiya** [gomeo... + ...patiya] – sog‘lom kishi organizmida muayyan kasallik belgilariga o‘xshash holatlarni keltirib chiqaradigan dorilarni bemorga juda oz miqdorda berib davolash usuli; **gomeostaz** [gomeo...+…staz] – organizmning o‘z ichki muhiti tarkibi va xossalarini doimo bir xilda saqlab turish xususiyati; **gomeostat** [gomeo...+...stat] – tirik organizmlarning o‘zining ba’zi xarakteristikalarini muayyan chegarada tutib turish qobiliyatini modellashtiruvchi elektromexanik qurilma; **gomeozis** [*yun.* homoiosis – o‘xshashlik] – tana a’zosi yoki uning biror qismining o‘zgarishi va a’zoning boshqa qarindosh guruh organizmidagi tegishli a’zo bilan o‘xshash bo‘lib qolishi.

GOMI(N)... [*lot.* homo, hominis – odam] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, insonga aloqadorlik ma’nosini ifodalaydi. Mas.: **gominidlar** [gomin...+...id] – primatlar turkumining o‘tgan ajdodlarning hamma vakillaridan tortib hozirgi odamlargacha qamrab oluvchi oilasi.

GOMO... [*yun.* homos – teng, bir xil; o‘zaro, umumiy] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, o‘xshash, bir xil, u yoki bu narsaga mansublik ma’nolarini bildiradi. Mas.: **gomoallelizm, gomodont, gomogameta, gomogamiya, gomogenizatsiya, gomolateral, gomologlar, gomomorfizm, gomoplastika, gomopolimerlar, gomoseksualizm, gomosfera, gomostiliya, gomotransplantat, gomotsentrizm; gomodontiya** [gom(o)...+ *yun.* odontos – tish] – hamma tishlarning bir xil (bir shaklda) bo‘lishi; **gomofoniya** [gomo...+...foniya] – musiqali ko‘povozlilik: bir ovoz yetakchi bo‘lib, boshqa

ovozlar unga bo‘ysunadi, jo‘r bo‘ladi; **gomogalin** [gomo...+ *yun.* gals – tuz]: ***gomogalin organizmlar*** – faqat muayyan darajada sho‘rlangan muhitda yashay oladigan suv jonivorlari; **gomogen** [gomo...+...gen] – kelib chiqishi, tuzilishi bir xil yoki bir-biriga o‘xshash (jism); **gomologiya** [gomo...+...logiya] – 1) kelib chiqishi, tuzilishi, holati bir xil, ammo bajaradigan vazifasi har xil bo‘lgan organizmlar o‘xshashligi; 2) proyektiv tekislikni o‘zini o‘ziga bir qiymatli almashtirish; **gomopauza** [gomo...+ *lot.* pausa – to‘xtash; oxir] – 100 kilometrga yaqin balandlikda gomosfera va geterosfera o‘rtasidagi oraliq qatlam; **gomotallizm** [gomo...+ *yun.* thallos – novda] – ba’zi zamburug‘lar va ko‘plab suvo‘tlarda ikki jinslilik; **gomotetiya** [gomo...+ *yun.* thetos – joylashgan] – tekislik yoki fazodagi o‘zaro o‘xshash figuralarni geometrik almashtirish turi; **gomotipiya** [gomo...+...tipiya] – simmetrik a’zolarning, mas., o‘ng va chap qo‘lning o‘xshashligi; **gomotransplantatsiya** [gomo...+ transplantatsiya] – bir tur doirasida to‘qimalar yoki a’zolarni bir jonivordan ikkinchisiga ko‘chirib o‘tkazish; **gomozigota** [gomo...+ *yun.* zygote – juft bo‘lib qo‘shilgan, juft] – irsiy belgilariga ko‘ra bir qadar o‘xshash ota-ona gametalarining qo‘shilishidan hosil bo‘ladigan organizm, hujayra.

...GON [*yun.* gonia – burchak] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, burchak ma’nosini ifodalaydi. Mas.: **geksagon, geptagon; pentagon** [penta...+...gon] – 1) beshburchaklik; 2) (katta harf bilan) Vashington yaqinidagi AQSh mudofaa vazirligi joylashgan besh burchakli bino; **poligon** [poli...+...gon] – 1) ko‘pburchaklik; tekislikdagi egri chiziq; 2) quruqlik yoki dengizning turli qurol-aslahalar saqlash, jangovar texnika sinovlari, shuningdek, harbiy-o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazish uchun maxsus inshoot va qurilmalar bilan jihozlangan qismi; **tetragon** [tetra...+...gon] – to‘rtburchaklik; to‘rt burchakli shakl.

GONI... [*yun.* gony – tizza] – o‘zlashma yasama so‘zlar tarkibida kelib, tizza ma’nosini bildiradi. Mas.: **gonit** [gon(i)...+...it] – tizza bo‘g‘imini serozli, seroz-yiringli yoki yiringli yallig‘lanishi.

GONI(O)... [*yun.* gonia – burchak] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning burchakka aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **goniopunktura, gonioskopiya, goniotomiya, gonitsikloskopiya; goniometr** [gonio...+...metr] – 1) ikki yoqli burchaklarni o‘lchaydigan asbob; 2) bo‘g‘imlarning harakatida qo‘l-oyoq segmentlari hosil qiladigan burchakni o‘lchashga mo‘ljallangan asbob; **goniometriya** [gonio...+...metriya] – trigonometriyaning burchaklarni o‘lchash usullarini o‘rganuvchi bo‘limi.

GON(O)... [*yun.* gonos – urug‘, tug‘ilish; jinsiy a’zo] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, urug‘, tug‘ilish, jinsiy a’zo, gonokokk kabi ma’nolarni ifodalaydi. Mas.: **gonadalar, gonoblennoreya, gonokokkemiya, gonopiyemiya, gonoreya, gonotoksin, gonotomlar; gonidiyalar** [gono...+ ...id] – 1) harakatsiz, hujayra ko‘rinishidagi ko‘k-yashil suvo‘tlarning ko‘payish uchun xizmat qiladigan bir hujayrali bo‘laklari; 2) ipsimon bakteriyalarning ko‘payish uchun xizmat qiladigan, harakatchan yoki harakatsiz bir hujayrali bo‘laklari; **gonokokklar** [gono...+...kokk] – odamda siydik-tanosil yo‘llari va ko‘z shilliq qavatining yiringli kasalliklarini qo‘zg‘atadigan juft bakteriyalar; **gonotoksemiya** [gono...+ toksik(o)...+...emiya] – gonokokklar toksini (zahari) ning qon orqali tarqalishi; **gonotsit** [gono..+...sit]– dastlabki jinsiy hujayra.

...GONIYA [*yun.* goneia – tug‘ilish, paydo bo‘lish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, paydo bo‘lish, kelib chiqish, tug‘ilish ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **glottogoniya; geterogoniya** [getero...+ ...goniya] – umurtqasiz hayvonlarda nasl almashinish shakllaridan biri: faqat urug‘langan tuxumdan rivojlangan jinsiy naslning urug‘lanmagan tuxumdan rivojlanuvchi jinsiy nasl bilan o‘zaro almashinuvidan iborat; **kosmogoniya** [kosmo...+...goniya] – astronomiyaning kosmik jismlar va ular sistemalarining paydo bo‘lishi va taraqqiyotini o‘rganuvchi bo‘limi; **sporogoniya** [spor(o)...+ ...goniya] – jinssiz yo‘l bilan, sporalar vositasi bilan ko‘payish usuli, sporalardan ko‘payish.

GOR(O)... [*yun.* hora – odatiy vaqt] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning muayyan odatiy vaqtga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **goroskop** [goro...+...skop] – muayyan vaqt (mas., odam tug‘ilgan vaqt) uchun sayyoralar va yulduzlarning bir-biriga nisbatan egallagan vaziyatlarini ifodalovchi chizma, jadval; **goroteliya** [goro...+ *yun.* telos – amalga oshirish] – rivojlanishning ba’zi organizm guruhlariga xos odatdagi o‘rtacha sur’ati.

...GRAF [*yun.* grapho – yozaman] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, quyidagi ma’nolarni bildiradi: 1. Nimanidir yozib oluvchi, tavsiflovchi, tadqiq etuvchi (inson haqida). Mas.: **arxeograf, bibliograf, doksograf, kalligraf, kartograf, litograf, paleograf, petrograf, topograf; biograf** [bio…+…graf] – biror shaxsning biografiyasini tuzuvchi, hayoti, tarjimayi holini yozuvchi kishi; **etnograf** [etno...+...graf] – etnografiya mutaxassisi, xalqshunos; **fotograf** [foto…+…graf] – fotografiya mutaxassisi; fotografiya bilan shug‘ullanuvchi, fotosurat oluvchi shaxs; **geograf** [geo…+

…graf] – geografiya olimi, mutaxassisi; geografiya o‘qituvchisi; **leksikograf** [leksiko...+...graf] – leksikografiya mutaxassisi, lug‘atchi, lug‘atshunos. 2. Nimanidir tiklovchi, qayd etuvchi, ro‘yxatga oluvchi (narsa, asbob haqida). Mas.: **aktinograf, anemograf, arifmograf, avtograf, dilatograf, dinamograf, epigraf, gektograf, gidrograf, kardiograf, kimograf, kinematograf, limnigraf, magnitograf, mareograf, seysmograf, sinkograf, steklograf, telegraf; barograf** [baro…+…graf] – havo bosimida ro‘y beradigan o‘zgarishlarni avtomatik ravishda o‘lchab va yozib turadigan asbob; **fonograf** [fono…+…graf] – so‘z, musiqa, ashula kabilarni mexanik usulda yozib oladigan va eshittiradigan asbob; **geliograf** [gelio...+...graf] – 1) Quyoshning kun davomida nur sochishi davomiyligini avtomatik yozib olishga mo‘ljallangan asbob; 2) Quyoshni suratga olish uchun ishlatiladigan astronomik apparat; **gigrograf** [gigro…+…graf] – o‘ziyozar gigrometr – gaz va havo namligini o‘lchash uchun ishlatiladigan asbob; **kardiograf** [kardio…+…graf] – yurak qisqarishlarini qog‘ozga chizuvchi apparat; **ossillograf** [ossillo...+...graf] – texnika, tibbiyot va boshqa sohalarda oniy elektr jarayonlarini kuzatadigan va bu jarayonlarni grafik shaklda yozib oladigan asbob.

...GRAFIYA [*yun.* grapho – yozaman] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, yozuv orqali ifodalamoq, bitmoq ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **arxeografiya, geografiya, gidrografiya, petrografiya, poligrafiya, rentgenografiya, topografiya; gastrografiya** [gastro...+...grafiya] – me’daning turli funksiyalarini grafik qayd qilish usullarining umumiy nomi; **radiografiya** [radio...+...grafiya] – radionuklidlarning modda orqali o‘tgan nurlanishining fototasvirini olish; **monografiya** [mono...+...grafiya] – muayyan mavzuni, cheklangan masalalar doirasini chuqur tadqiq etuvchi ilmiy asar; **tipografiya** [tipo...+...grafiya] – kitob, gazeta va boshqa nashrlarni bosib chiqaradigan korxona; bosmaxona.

GRAF(O)... [*yun.* grapho – yozaman] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning xatga, dastxatga, chizmakashlik va tasvirlashga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **grafema, grafika, grafit, grafoman, grafostatika; grafofobiya** [grafo...+...fobiya] – yozishdan qo‘rqish; **grafologiya** [grafo…+…logiya] – shaxsning husnixati to‘g‘risidagi ta’limot – xat yozgan kishining xususiyatlari va ruhiy holatlarini shu xat asosida aniqlash, tadqiq etish; **grafomaniya** [grafo…+…maniya] – doim juda ko‘p va befoyda xatlar yozaverishga haddan ortiq ishqibozlik; **grafospazm** [grafo…+…spazm] – boshqa harakatlar saqlangani holda qo‘l mushaklari spazmida yozuv funksiyalarining buzilishi; xat yozish paytida qo‘llarning qaltirashi.

GRAMMA..., GRAMMAT(O)... [*yun.* gramma, grammatos – harf, yozuv belgisi; yozuv] – o‘zlashma qo‘shma, yasama so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning harfga, yozuvga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **grammometr, gramplastinka; grammatika** [*yun.* grammatike < gramma] – 1) tilshunoslikning so‘z shakllari, so‘z birikmalarining turlari, gap turlari haqidagi bo‘limi; 2) so‘z shakllari, ularning so‘z birikmasi va gapda o‘zaro bog‘lanishi haqidagi qoidalar bayon etilgan o‘quv kitobi, darslik; **grammatologiya** [grammato...+...logiya] – turli davrlarda turli joylarda tarqalgan yozuvlarni tadqiq etish bilan shug‘ullanuvchi fan sohasi; **grammema** [gramma...+...ema] – so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimcha yoki yordamchi so‘z vositasi bilan ifodalanadigan eng sodda grammatik ma’no; **grammofon** [gramm(o)...+ ...fon] – gramplastinkaga yozilgan tovushni qayta eshit(tir)ishga mo‘ljallangan apparat.

...GRAMMA [*yun.* gramma – shakl, yozuv belgisi, harf, yozuv] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning yozuvga, yozilgan, chizilgan narsaga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **barogramma, ideogramma, kartogramma // xaritagramma, kriptogramma, monogramma, ossillogramma, piktogramma, pnevmogramma, rentgenogramma, seysmogramma, stereogramma; epigramma** [epi...+...gramma] – 1) haykal, yodgorlik, bino, sovg‘a ustiga yozilgan va uning mazmun-mohiyatini tushuntiradigan yozuv; 2) kichik hajmli, o‘tkir (achchiq) hajviy asar; **fonogramma** [fono...+...gramma] – maxsus texnik vositalar yordamida gramplastinka, magnit tasma, kino- yoki videoplyonka, lazer disk va shu kabilarga yozilgan tovush sadolari (nutq, musiqa, ashula kabilar); **kardiogramma** [kardio...+...gramma] – yurak urishining maxsus asbob – kardiografda yozib olingan grafik tasviri; **radiogramma** [radio...+...gramma] – radiotelegraf orqali olingan yoki berilgan xabar, telegramma; **stenogramma** [steno...+...gramma] – turli yig‘ilishlarda og‘zaki nutqning shartli belgilar qo‘llab, siqiq holda tez yozib olingan matni; **telefonogramma** [telefon(o) + ...gramma] – telefon orqali yuborilgan va olingan xabar hamda shu xabarning xosqog‘oz (blanka) ga yozilgan matni; **telegramma** [tele...+...gramma] – telegraf orqali yuborilgan yoki olingan xabar, shuningdek, shunday xabar yozilgan xosqog‘oz (blanka).

GRAN(O)..., GRANUL(O)... [*lot.* granulum – donacha < granum – don, dona] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, mayda, kichkina dona, zarracha ma’nolarini bildiradi. Mas.: **granitogneys, granodiorit, granosiyenit, granulalar, granulitlar, granuloblast, granulopeniya, granu-**

lopoez, granulotol, granulotsitopeniya; granit [*ital*. granito < *lot.* granum – dona] – Yer po‘stida eng ko‘p tarqalgan, to‘liq kristallangan nordon magmatik tog‘ jinsi; **granulema // granulyoma** [granul(o)...+...oma] – odam va hayvonlarda biriktiruvchi to‘qimaning yallig‘lanishi oqibatida yuzaga keladigan o‘smasimon tuzilma; **granulometriya** [granulo…+...metriya] – cho‘kindi tog‘ jinslari, tuproq va sun’iy materiallarning turli o‘lchamli bo‘laklarini aniqlash usullari majmuyi; **granulotsitlar** [granulo...+...sit] – sitoplazmasida donachalar (granulalar) bo‘ladigan oq qon tanachalari (leykotsitlar); **granulyatsiya** [granul(o)...+ atsiya] – 1) donadorlash – moddalarga donalar (granulalar) shaklini berish; 2) tibbiyotda yara-chaqalarning bitib, yangidan et olishi; 3) Quyosh fotosferasida teleskopda ko‘rinadigan donador tuzilmalar.

GRAVI... [*lot.* gravis – og‘ir] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, og‘irlik kuchi ma’nosini bildiradi. Mas.: **gravitatsiya, graviton; gravimetr** [gravi...+...metr] – og‘irlik kuchi tezlanishini o‘lchaydigan asbob; **gravimetriya** [gravi...+...metriya] – tor ma’noda: og‘irlik kuchini o‘lchash usullari haqidagi fan; keng ma’noda: Yer va boshqa sayyoralarning og‘irlik kuchi maydonini, ularning tuzilishini o‘rganuvchi va ba’zi navigatsion masalalarni hal qiluvchi fan; **gravitatsion** [*lot.* gravitas – og‘irlik] – tortish qonuniga asoslangan, tortishish kuchlari bilan bog‘liq: ***gravitatsion boyitish*** – foydali minerallarni begona jinslardan ajratib olish usuli (ularning zichliklari orasidagi farqqa asoslanadi); ***gravitatsion transport*** – yuklarni o‘z og‘irlik kuchi hisobiga tashish (mas., yuqoridan pastga tushirish) uchun mo‘ljallangan vintli, rolikli va tekis novsimon qurilmalar majmuyi.

GUM... [*lot.* humus – tuproq, zamin] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, shu so‘zlarning tuproqqa, yerga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **gumin** (kislotalar, o‘g‘itlar)**; gumifikatsiya** [gum(i)...+ ...fikatsiya] – tuproqda bakteriyalar va boshqa mikroorganizmlar ishtirokida chirindi hosil bo‘lish jarayoni; **gumolitlar** [gumo...+...lit] – qazilma ko‘mirlar majmuyi; botqoqlarda o‘sgan yuksak o‘simliklar qoldiqlarining mahsuli; **gumus** [*lot.* humus – tuproq] – tuproqning nisbatan barqaror, odatda, yuqori molekulyar qoramtir birikmalari majmuyi; chirindi.

GUMAN... [*lot.* humanus – insonga xos, insonparvar] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, shu so‘zlarning insonga, insoniy tuyg‘ularga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **gumanist** [*lot.* humanus – insoniy +...ist] – gumanizm tarafdori, gumanizm ruhidagi, insonparvarlik va insoniylikni namoyon etuvchi odam; **gumanitar** [*fr.* humanitaire < *lot.*

humanitas – inson tabiati; bilimlilik] – inson va uning madaniyatiga oid, inson shaxsiga, inson huquqlari va manfaatlariga qaratilgan: ***gumanitar fanlar*** – tabiiy va texnika fanlaridan farqli ravishda tarix, falsafa, filologiya, san'at kabi ijtimoiy fanlar; ***gumanitar yordam –*** xayriya tashkilotlari tomonidan aholining ehtiyojmand qatlamlari o'rtasida taqsimlanadigan pul mablag'lari yoki eng kerakli oziq-ovqat mahsulotlari; **gumanizm** [*lot.* humanus – insoniy +...izm] – odamlarga mehr-muhabbat bilan qarash, ularni hurmat qilish, insonning moddiy farovonligini yuksaltirish va kishilarda yuksak ma'naviy fazilatlarni rivojlantirishga asoslangan dunyoqarash; **gumanoid** [guman...+ ...oid] – odamsimon maxluq, jonivor.

GUMM(I)... [*lot.* gummi – yelim] – o'zlashma qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, yelimga aloqadorlikni bildiradi. Mas.: **gummilak, gummit; gumma** [*lot.* gummi – yelim] – zaxmning uchlamchi davrida har xil a'zo va to'qimalardan rivojlanadigan tugunsimon tuzilma; sifiloma; **gummiarabi**k [gummi...+ *lot.* arabicum – arab, arablarga oid] – ba'zi akatsiya turlari tabiiy yoriqlaridan yoki sun'iy kesiklaridan yig'ib olinadigan qovushoq tiniq suyuqlik; **gummigut** [gummi...+ *lot.* gutta – tomchi] – ba'zi tropik daraxtlar tanasini tilimlab kesib olinadigan sutsimon oq quyuq shira.

I

...IATR, ...IATRIYA [*yun.* iatros – vrach, shifokor*;* iatreia – davolash] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, birinchi qismda ifodalangan shaxs, holat, kasallikni davolash, davolovchi degan ma’nolarni anglatadi. Mas.: **dentiatriya, fiziatriya, foniatriya, ftiziatr, ftiziatriya, geriatriya, otiatr, otiatriya, podiatriya, psixiatr; atmiatriya** [atm(o)...+ ...iatriya] – nafas olish va havo bilan davolash; sof havodan nafas olish bilan davolash; **pediatr** [ped...+...iatr] – pediatriya mutaxassisi, bolalar shifokori; **pediatriya** [ped...+...iatriya] – tibbiyotning bola(lar) organizmi anatomiyasi, fiziologiyasi, patologiyasi hamda bolalar kasalliklarining kelib chiqish sabablari va ularning rivojlanish, davolash, oldini olish mexanizmlarini o‘rganuvchi sohasi; **psixiatriya** [psix(o)...+...iatriya] – tibbiyotning ruhiy kasalliklarning kelib chiqish sabablari, belgilari va rivojlanish mexanizmlarini o‘rganuvchi, ularni davolash, oldini olish hamda ruhiy kasallarga yordam berishni tashkil etish usullarini ishlab chiquvchi sohasi.

IATRO... [*yun.* iatros – vrach, shifokor] – *q.* **yatro...**

...IAZ [*yun.* -iasis] – tibbiyotda turli kasallik nomlarini atash uchun maxsuslashgan qo‘shimcha. Mas.: **akariaz, allantiaz, gelmintiaz, urolitiaz; elefantiaz** [*yun.* elephas (elephantos) – fil +...iaz] – odam va ba’zi hayvonlarda terining va teriosti to‘qimalarining keskin qalinlashuvi natijasida ayrim tana qismlari, ko‘pincha oyoqlarning sezilarli kattalashuvidan (yo‘g‘onlashuvidan) iborat kasallik, **litiaz** [lit...+...iaz] – siydik yo‘llarida tosh hosil bo‘lishi bilan bog‘liq kasallik; **psoriaz** [*yun.* psora – qichima, qo‘tir +...iaz] – terining surunkali, vaqti-vaqti bilan qaytalanib turadigan yuqumsiz kasalligi.

...ID [*yun.* eidos – shakl, tashqi ko‘rinish] – o‘zlashma yasama va qo‘shma so‘zlar, aksariyat kimyoviy terminlarning ikkinchi qismi bo‘lib, bir qator kimyoviy elementlar (asosan, metallmaslar) ning boshqa elementlar bilan hosil qilgan birikmalari nomlarini yasaydi. Mas.: **aktinidlar, arsenidlar, boridlar, ftoridlar, karbidlar, lantanidlar, selenidlar, sulfidlar, telluridlar, xloridlar, yodidlar; bromidlar** [brom...+...id] – bromning boshqa elementlar

bilan hosil qilgan kimyoviy birikmalari; **galogenidlar** [galogen +...id] – galogenlarning boshqa elementlar bilan binar kimyoviy birikmalari: bromidlar, ftoridlar, xloridlar, yodidlar; **gidridlar** [gidr(o)...+...id] – vodorodning boshqa elementlar bilan kimyoviy birikmalari; **nitridlar** [nitr(o)...+...id] – azotning yuqori elektrmusbat elementlar bilan kimyoviy birikmalari; **oksidlar** [oks(i)...+...id] – kimyoviy elementlarning kislorod bilan birikmalari; **silitsidlar** [*lot.* silex, silicis – chaqmoqtosh, kremniy +...id] – kremniyning metallar bilan hosil qilgan kimyoviy birikmalari.

IDE(O)... [*yun.* idea – tushuncha, tasavvur; tasvir] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning ma’lum tushuncha, tasavvurlar bilan bog‘liqligini bildiradi. Mas.: **idealist, idealizatsiya, idealizm, ideografiya, ideolog, ideomotor** (harakat); **ideal** [*fr.* ideal < *yun.* idea – g‘oya, ma’no; tasvir] – 1) jamiyatning, shaxsning oliy maqsadi; eng yuksak orzu va tilak; 2) har jihatdan mukammal, xayolan orzu qilinadigan narsa, hodisa; 3) oliyjanob, namuna bo‘ladigan, ibrat olsa bo‘ladigan; **ideografik** [ideo...+ ...grafiya] – ayrim bir tovushni emas, birdaniga bir butun tushunchani ifodalovchi: ***ideografik yozuv*** – ideogrammalarga asoslangan yozuv; ideografiya; **ideogramma** [ideo...+...gramma] – harflardan farqli ravishda, muayyan til tovushlarini emas, balki butun bir tushunchani ifodalovchi yozuv belgisi; **ideologiya** [ideo...+...logiya] – siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik va falsafiy g‘oyalar, tasavvurlar, tushunchalar va qarashlar tizimi; **ideonim** [ide(o)...+ ...onim] – ma’naviy madaniyat hodisalari, holatlarining atoqli nomi.

IDI(O)... [*yun.* idios – maxsus, alohida, o‘ziga xos] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, o‘zigagina xos, o‘ziga xoslik ma’nolarini anglatadi. Mas.: **idioadaptatsiya, idiofaza, idiofonlar, idiogramma, idiomatika, idiomatizm, idiopatiya, idioxromatizm; idioblastlar** [idio...+ *yun.* blastos – o‘simta, murtak] – o‘simliklarda tuzilishi, shakli yoki tarkibi jihatdan ayni to‘qimaning boshqa hujayralaridan farq qiluvchi hujayralar; **idiogamiya** [idio...+...gamiya] – gulli o‘simliklarning o‘zidan changlanishi; **idiolekt** [idio...+ (dia)lekt] – alohida shaxs nutqini xarakterlovchi xususiyatlar majmuyi; **idioma** [*yun.* idioma – o‘ziga xoslik, xususiyat] – ma’nosi o‘z tarkibidagi so‘zlarning ma’nolariga bog‘liq bo‘lmagan, yaxlit holda bir ma’no beruvchi ixcham ibora; frazeologizmlarning bir turi; **idiomorfizm** [idio...+ *yun.* morphe – shakl +...izm] – minerallarning o‘ziga xos kristallografik shaklga ega bo‘lishi; **idiosinkraziya** [idio...+ *yun.* synkrasis – aralashtirish, qorishtirish] – odam organizmining ba’zi ovqatlar va dori moddalarga nisbatan (irsiy) o‘ta sezuvchanlik holati.

IGN(I)... [*lot.* ignis – olov] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, olov ma’nosini anglatadi. Mas.: **ignipunktura** [igni...+ *lot.* puncture – sanchish, ukol] – kuydirish; Xitoy xalq tabobatida terining muayyan nuqtalarini tutab yonayotgan quruq yovshan tayoqchalari bilan kuydirish usuli; **ignitron** [igni...+...tron] – simob katod va boshqariladigan yoy razryadli bir anodli ion asbob.

...IK [*lot.* -ic(e) < *yun.* ik(e)] – so‘z yasovchi qo‘shimcha: shaxs bildiruvchi otlar, ayniqsa, kasal kishilar nomlarini **(akademik, astrofizik, botanik, daltonik, dogmatik, elektrik, energetik, fizik, genetik, gipertonik, grafik, komik, medik, metafizik, mexanik, paralitik, prozaik, satirik, uretritik, xolerik, shizofrenik**) hamda turli ma’nodagi nisbiy sifatlarni (**agrobiologik, akustik, arxeologik, biologik, dialektik, dogmatik, emfatik, filologik, fiziologik, fonetik, gigiyenik, grafik, morfologik, pedagogik, psixologik, seysmologik, terminologik, texnologik, xronologik, yuridik**) hosil qiladi.

...IKA [*lot.* -ice < *yun.* -ike] – yuqoridagi -**ik** qo‘shimchasi asosida kelib chiqqan so‘z yasovchi qo‘shimcha bo‘lib: 1) fan sohalari va ularning tarmoqlari nomlarini yasaydi. Mas.: **arifmetika, botanika, dialektika, ekonomika, estetika, fizika, fonetika, gidravlika, gidrodinamika, gidrotexnika, grammatika, kibernetika, kinetika, lingvistika, logika, matematika, metodika, poetika, telemexanika** kabi; 2) biror narsaning jamini, jamlikni ifodalovchi so‘zlar hosil qiladi. Mas.: **agrotexnika, akustika, antroponimika, belletristika, diagnostika, grafika, idiomatika, iyeroglifika, keramika, kinoxronika, klinika, kosmetika, leksika, metodika, mozaika, omonimika, pantomimika, poliklinika, romantika, semantika, simptomatika, sinonimika, sintetika, stilistika, sxematika, tematika, toponimika** kabi; 3) ayrim sport terminlarini hosil qiladi. Mas.: **aerobika, akrobatika, atletika, gimnastika** kabi.

IKONO... [*yun.* eikon – tasvir, obraz] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, o‘zi qo‘shilgan so‘zlar bilan birgalikda tasvirga, obrazga yoki ikonaga aloqadorlik ma’nosini bildiradi. Mas.: **ikonografiya, ikonologiya, ikonometr; ikona** [*yun*. eikon – tasvir, timsol] – xristian dinidagi dindorlar ibodat marosimlarida cho‘qinadigan Iso, Bibi Maryam, avliyolar, farishtalarning muqaddas tasviri; **ikonoskop** [ikono...+...skop] – optik tasvirni elektr signalga o‘zgartirib beruvchi uzatuvchi televizion trubka; **ikonostas** [ikono...+ *yun.* stasis – turish joyi] – pravoslavlar ibodatxonasida uning mehrob qismini o‘rta qismidan ajratib turuvchi, belgilangan tartibda ikonalar va

naqshinkor eshiklar o‘rnatilgan to‘siq; **ikonoteka** [ikono...+...teka] – muayyan mavzulardagi tasvirlar to‘plami, kolleksiyasi.

IKOSA... [*yun.* eikosi – yigirma] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, 20 sanoq sonini bildiradi. Mas.: **ikosaedr** [ikosa...+...edr] – yigirmayoqlik – yigirmata ko‘pburchaklik bilan chegaralangan jism.

ILE(O)... [*lot.* ileum – yonbosh ichak] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning yonbosh ichakka aloqadorligini bildiradi. Mas.: **ileoproktostomiya, ileosigmoanostomoz, ileostomiya, ileotiflit; ileit** [ile...+...it] – yonbosh ichakning yallig‘lanishi; **ileokoloplastika** [ileo...+ kolo...+...plastika] – chambar (yo‘g‘on) ichakning kesib olib tashlangan qismiga yonbosh ichakni ko‘chirib o‘tkazish operatsiyasi; **ileotomiya** [ileo...+ ...tomiya] – qovurg‘a bilan qorin orasidagi ichak oralig‘ini yorish operatsiyasi; **ileus** [ile...+...us < *yun.* eileos – in, uya] – ichak tutilishi, ichak harakatining to‘satdan falajlanishi.

...ILIYA, ...ILYA [*fr.* -ille, *isp*. -illa] – so‘z yasovchi qo‘shimcha; sanoqli so‘zlar tarkibidagina uchraydi. Mas.: **eskadrilya** [*fr.* escadrille] – harbiy havo kuchlarida: 10 – 30 ta samolyot yoki vertolyotdan iborat asosiy aviatsion-taktik bo‘linma; **flotiliya** [*fr.* flottille] – 1) daryolar, ko‘llar va dengiz qirg‘oqlarida harakat qiladigan harbiy kemalar qo‘shilmasi; 2) muayyan maqsadlarga (sanoat, ekspeditsiya, sport) mo‘ljallangan kemalar otryadi; **mantilya** [*isp.* mantilla] – Ispaniya, Portugaliya va Lotin Amerikasida: ayollar boshi va yelkasiga tashlab oladigan, odatda, oq yoki qora rangli to‘r yopqich.

IM... [*lot.* im < in – ich, ichiga; -siz] – lotincha so‘z yasovchi qo‘shimcha; o‘zlashma yasama so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib: 1) ma’nosi va vazifasi jihatdan **in...** terminelementining varianti hisoblanadi va ich, ichga, ichkariga ma’nolarini anglatadi. Mas.: **immatrikulyatsiya, immigratsiya, immuratsiya, impaktit, implantat, implitsit, importyor; immanent** [*lot.* immanentis – o‘ziga xos; xususiy] – biror hodisaning ichki xususiyatlariga xos, ichki tabiatidan kelib chiqadigan; **immigrant** [*lot.* immigrantis – ko‘chib kelib joylashuvchi] – biror davlatning uzoq muddatga yoki doimiy yashash uchun boshqa mamlakatga ko‘chib kelgan fuqarosi; **implantatsiya** [im...+ *lot.* plantare – ko‘chirib o‘tkazmoq] – to‘qima va a’zolarni jarrohlik usuli bilan ko‘chirib o‘tkazish, mas., odam va hayvonlarning otalanishdan keyin hosil bo‘lgan pushtini bachadon devori shilliq pardasiga ko‘chirib o‘tkazish operatsiyasi; **import** [*ingl.* import < *lot.* importare – kiritmoq, olib kirmoq] – a) mam-

lakatga chet ellardan tovarlar, xizmatlar, qimmatli qog‘ozlar va shu kabilarni olib kirish; b) shunday tarzda va maqsadda olib kirilgan tovar va boshqalar; 2) o‘zi qo‘shilgan so‘zlar asosidan anglashilgan ma’noni inkor etadi. Mas.: **immoralizm** (axloqsizlik)**, immortellar, impersonal** (shaxssiz, egasiz)**, impotent, improvizatsiya; immobilizatsiya** [*lot.* immobilis – qimirlamaydigan, harakatsiz +...atsiya] – a) sinish-chiqishda, bo‘g‘im kasalliklarida gavdaning shikastlangan yoki kasal qismini qimirlamaydigan qilib qo‘yish; b) ko‘chuvchi (harakatdagi) mol-mulkni ko‘chmas mulkka aylantirish; **impotensiya** [*lot.* impotentia – zaiflik, kuchsizlik] – erkakning (tug‘ma yoki orttirilgan) jinsiy ojizligi, qoniqarli jinsiy aloqa qila olmasligi.

IMMUN(O)... [*lot.* immunis – daxlsiz, ozod, erkin; barcha majburiyatlardan xoli] – o‘zlashma qo‘shma va yasama so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarning immunitetga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **immunodepressantlar, immunodiagnostika, immunofarmakologiya, immunogematologiya, immunogenetika, immunogenlar, immunoglobulinlar, immunomorfologiya, immunoprofilaktika, immunoproteinlar, immunotransfuziya; immunitet** [immun...+...itet] – biologiyada: tirik mavjudotlarning o‘z butunligi va biologik noyobligini buzuvchi “yot” omillar (mikroblar, zahar va shu kabilar) dan himoyalanish, ularga qarshilik ko‘rsatish qobiliyati; **immunizatsiya** [immun...+...izatsiya] – sun’iy ravishda immunitet hosil qilish; **immunodefitsit** [immuno...+ *lot.* deficit – tanqislik] – immunitet tizimining amal qilishida organizmning kasalliklarga qarshilik ko‘rsatish qobiliyati pasayishiga yoki yo‘qolishiga olib keluvchi buzilishlar; immunitet yetishmasligi; **immunogenez** [immuno...+...genez] – immunitetning rivojlanish jarayoni; **immunokimyo** [immuno...+ kimyo] – immunologiyaning immunologik reaksiyalarning biolkimyoviy asosini o‘rganadigan bo‘limi; **immunologiya** [immuno...+...logiya] – organizmning himoyalanish xossalari, uning immuniteti haqidagi tibbiy-biologik fan; **immunopatologiya** [immuno...+ patologiya] – immunitetning sifatiy va miqdoriy jihatdan o‘zgargan reaksiyalariga bog‘liq bo‘lgan kasalliklarni o‘rganadigan immunologiya bo‘limi; **immunoterapiya** [immuno...+...terapiya] – bemorni uning organizmiga vaksinalar (emdorilar), shifobaxsh zardoblar yuborib, unda yuqumli va boshqa ba’zi kasalliklarga qarshi immunitet hosil qilish orqali davolash.

IN... [*lot.* in – ich, ichki, ichkariga; emas, yo‘q] – o‘zlashma yasama so‘zlarning birinchi qismi hisoblangan old qo‘shimcha; I. Ich, ichga oid, ichkariga ma’nolarini anglatadi. Mas.: **inbriding, infeksiya, infuziya, ingalyator, ingrediyent, inkretlar, innervatsiya, inokulyatsiya, internat, inter-**

natura, intoksikatsiya, intubator, invaginatsiya, inyeksiya; infiltrat [in...+ *lot.* filtratus – suzg‘ichdan o‘tkazilgan, filtrlangan +...atsiya] – 1) to‘qimalarda qon, limfa, o‘smali hujayralarning to‘planishi natijasida to‘qimalarning muayyan joylarda qalinlashuvi va hajman kattalashuvi; 2) kontrabandachi, terrorchi, ayg‘oqchi yoki razvedkachilarning blok-postlar, chegara va boshqa to‘siqlardan bildirmay o‘tib olgan otryadi; **ingalyatsiya** [*lot.* inhalare – nafas olmoq] – dori moddalarni nafas yo‘llari (hiqildoq, kekirdak va o‘pka) ga gaz yoki bug‘ holida kiritish, shifobaxsh dengiz va tog‘ havosidan nafas ol(dir)ish (davolash usuli); **intubatsiya** [in...+ *lot.* tuba – naycha +...atsiya] – nafas yo‘li to‘silib qolganda, hiqildoqqa og‘iz orqali maxsus naycha kiritib, nafasni tiklash yoki traxeyaga naycha orqali narkoz yuborib og‘riqsizlantirish; **invaziya** [*lot.* invazio – hujum qilish, bostirib kirish] – odam, hayvon va o‘simliklar organizmiga, shuningdek, ayrim hujayralarga jonli tabiat parazitlari tushib qolib, kasallik paydo qilishi; **inyeksiya** [*lot*. injectio – (ichkariga) tashlash] – dori va boshqa eritmalarni organizm to‘qimalari, tomirlari va bo‘shliqlariga kiritish, quyish. II. Biror narsaning bo‘lmasligi, yo‘q bo‘lishi, sekinlashishi, to‘xtatilishi kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **inadekvat, indeterminizm, indifferent, inertlik, inkoordinatsiya, intakt, invalidlik, invariantlik; inaktivatsiya** [in…+…activus – faol +…atsiya] – faollikning kamayishi yoki yo‘qolishi; quvvatning, o‘tkir dori yoki moddaning kuchsizlanib qolishi; **ingibitorlar** [*lot.* ingibitio – to‘xtatib, ushlab turish] – kimyoviy, jumladan, fermentativ reaksiyalar tezligini susaytiruvchi yoki ularni batamom yo‘qotuvchi moddalar; **inoperabellik** [in…+ *lot.* operatio – ish, amal] – bemorning operatsiya qilib bo‘lmaydigan, operatsiya yordam bermaydigan holatga kelib qolishi; **invalid** [*lot.* invalidus – kuchsiz, quvvatsiz < in…+ validus – kuchli, baquvvat] – mayib, nogiron, mehnatga, ishga yaramay qolgan kishi (qarilik, kasallik, yoki biror shikast sababli).

...IN [*lot.* – ine] – so‘z yasovchi qo‘shimcha: asosan, kimyoviy, biokimyoviy, farmatsevtik moddalar, dorivor preparatlar nomlarini hosil qiladi. Mas.: **alanin, albumin, anabazin, analgin, asparagin, aspirin, atropin, auksin, biomitsin, bitsillin, fibrin, gemoglobin, geroin, glitserin, glitsin, insulin, karmin, kobalamin, kodein, kofein, levomitsetin, nikotin, novokain, penitsillin, pentalgin, pirimidin, sintomitsin, stannin, stearin, streptomitsin, strixnin, sulfidin, suprastin, teofillin, tetratsiklin, urotropin, vanilin, vazelin, vitamin, xinin** kabi.

INFRA... [*lot.* infra – past, quyi, ostida] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, ostida, pastroq ma’nolarini bildiradi. Mas.: **infrakon, inframikrobiologiya, infraqizil, infraxromatizm; infratovush** [infra...+

tovush] – inson qulog‘i eshitmaydigan past chastotali tovush; **infratuzilma** [infra...+ tuzilma] – ishlab chiqarish va tovar muomalasiga, shuningdek, inson hayot faoliyati uchun zarur bo‘lgan me’yoriy sharoitni ta’minlashga xizmat qiluvchi turli-tuman yordamchi xizmat ko‘rsatuvchi sohalar majmuyi.

...ING [*ingl.* -ing] – asosan, ingliz tilidan o‘zlashgan yasama so‘zlar tarkibidagi, harakat nomini yasovchi qo‘shimcha. Mas.: **dayving, dribling, inbriding, injiniring, kasting, kreking, listing, marketing, monitoring, skrining** kabi. Ushbu qo‘shimcha bilan yana **bloking, blyuming, feding, fiting, krossing, slyabing, sheping** singari texnik asboblar nomlari, **armrestling, aysing, doping, pressing, sparring, spinning, trening, sheyping** kabi sport terminlari, **brifing, demping, farting, lizing, miting, neyming, renting, reyting, shoping** kabi ijtimoiy-iqtisodiy terminlar va boshqa so‘zlar (**dansing, petting, smoking, elling**) hosil qilingan.

INTER... [*lot.* inter – orada, o‘rtada] – old qo‘shimcha; o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib: I. Oraliq holat; o‘rtada, oraliqda joylashganlik ma’nolarini ifodalaydi. Mas: **interaktiv** (usul)**, interfeys, interglyatsial, interkurrent** (kasallik)**, interlinyaj, interlyudiya, intermedin, intermediya, intermetallidlar, intermetso, interpolyator, interseksuallik; interfaza** [inter...+ faza] – bo‘linadigan hujayralarda ikkita ketma-ket mitotik bo‘linish oralig‘idagi davr, hujayra siklining bir qismi; **interfiks** [inter...+...fiks] – tilshunoslikda: ikki o‘zak (asos) ni yoki o‘zak bilan suffiksni o‘zaro biriktirish uchun xizmat qiladigan so‘z qismi (rus tilida bu vazifani **o** yoki **i** unlilari bajaradi; masalan, *elektr* – ***o*** – *stansiya, elektr* – ***i*** – *fikatsiya*); **interkinez** [inter...+ *yun.* kinesis – harakat] – biologiyada: birinchi va ikkinchi meyoz bo‘linishlar o‘rtasidagi vaqt oralig‘i; **interkolumniy** [inter...+ *lot.* columna – kolonna, ustun] – arxitekturada: qator tik turgan ustunlar o‘rtasidagi oraliq; **interpolyatsiya** [inter...+ *lot.* polio – tekislayman +...atsiya] – matematikada: bir necha nuqtada berilgan funksiya qiymatlaridan shu nuqtalar orasidagi nuqtalarda funksiyaning taqribiy qiymatini topish; **intervokal** [inter...+ *lot.* vocalis – unli tovush]: ***intervokal tovush*** – ikki unli tovush o‘rtasida keladigan tovush. II. Umumiylik, ommaviylik, o‘zaro bog‘liqlik; xalqaro ma’nolarini bildiradi; Mas.: **interlingva, interlingvistika, internatsional, interpol; interlingva** [inter... + *lot.* lingua – til, lison] – xalqaro yordamchi tillardan biri (1950-yili Nyu-Yorkda Xalqaro yordamchi tillar assotsiatsiyasi tomonidan yaratilgan); **internatsionalizm** [inter...+ natsionalizm] – jahondagi turli millat va irqlarga mansub kishilarning xalqaro birdamligi va hamkorligi prinsipi; baynalmilalchilik; **internet** [inter…+ *ingl.* net – to‘r, o‘rgimchak to‘ri: umumjahon tarmog‘i] –

umumjahon kompyuter tarmog‘i; butun jahon bo‘yicha tarqalgan va telefon hamda optik tolali liniyalar, modemlar va boshqalar bilan o‘zaro bog‘langan, har qanday axborotni o‘zaro almasha oladigan katta miqdordagi kompyuterlar majmuyi; **intervideniye** [inter...+ *rus.* videniye – ko‘rish] – 1960-yilda Pragada ishtirokchi mamlakatlar o‘rtasida teleko‘rsatuvlar ayirboshlash maqsadida tuzilgan xalqaro tashkilot.

INTRA..., INTRO... [*lot.* intra – ich, ora; ichida, orasida] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, ichida, orasida ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **intrafetatsiya, intrakranial** (kalla ichiga oid)**, intranatal** (tug‘ish vaqtiga oid), **intraplevral** (plevralararo)**, intraokulyar** (linza)**, intramolekulyar, intranet** (ichki tarmoq)**, introduksiya, introtsepsiya, introvert, introyeksiya; intrazonallik** [intra...+ *yun.* zone – mintaqa] – tabiatning biron o‘ziga xos xususiyati yoki komponentlarining bir qancha zonalar ichida tarqalishi; **introskopiya** [intro...+...skopiya] – optik jihatdan noshaffof jismlar va muhitlardagi, shuningdek, ko‘rinmaydigan sharoitdagi hodisalar va jarayonlarni vizual kuzatish; **introspeksiya** [intro...+ *lot.* spectere – qaramoq] – o‘z-o‘zini kuzatish; ong, fikrlash, tafakkurning ushbu ruhiy jarayonlarni boshdan kechirayotgan shaxs tomonidan o‘rganilishi; **introvertiv** [intro...+ *lot.* verto – buraman, qarataman] – ich (ichkari) ga qaratilgan, yo‘naltirilgan; o‘z fikr-xayollari bilan band shaxsning o‘z o‘y-xayollari, ichki kechinmalari dunyosiga qaratilgan psixologik xarakteristikasi.

IOD(O)... *q.* **YOD(O)...**

ION(O)... [*yun*. ion – keluvchi, ketuvchi, boruvchi; zaryadlangan zarra] – o‘zlashma qo‘shma va yasama so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning ionlarga – zaryadlangan zarralarga aloqadorligini bildiradi. **Mas.: ionitlar, ionizator, ionoforez, ionografiya, ionolyuminessensiya, ionometr; ionizatsiya** [ion(o)...+...izatsiya] – atomlar va molekulalarning ionlarga aylanishi; **ionosfera** [iono...+...sfera] – atmosferaning Yerdan 50 – 80 kilometr balandlikdan boshlanadigan, ionlar va erkin elektronlar konsentratsiyasi ko‘p bo‘lgan yuqori qatlami; **ionoterapiya** [iono...+...terapiya] – organizmga davolash maqsadlarida ionlar kiritish; **ionozond** [ionosfera + *fr.* zonde – burg‘i; havo shari] – ionosferada radioto‘lqinlar tarqalishini va elektronlar konsentratsiyasini o‘rganish uchun xizmat qiladigan asbob.

IPPO..., GIPPO... [*yun.* hippos – ot] – *q.* **gippo...** Mas.: **ippologiya // gippologiya** (*q.* **gippo...**); **ippodrom** [ippo...+...drom] – yo‘rg‘a va poygachi otlar-

ni sinab koʻrish va ot sporti boʻyicha musobaqalar oʻtkazish uchun maxsus jihozlangan inshootlar majmuyi; otchopar.

IRID(O)... [*yun.* iris (iridos) – kamalak, yoy] – oʻzlashma qoʻshma soʻzlarning birinchi tarkibiy qismi boʻlib, uning ishtirokidagi soʻzlarning koʻz rangdor pardasi bilan aloqadorligini koʻrsatadi. Mas.: **iridodiagnostika, iridodializ, iridoforlar, iridosklerektomiya, iridotsele, iridotsiklit, iridotsitlar, iridoxoriodit, iris; iridektomiya** [irid(o)...+...ektomiya] – koʻz rangdor pardasini jarrohlik yoʻli bilan qisman kesib olib tashlash; **iridiy** [*lot.* Iridium < *yun.* iris (iridos) – kamalak] – Mendeleyev davriy sistemasining VIII guruhiga mansub siyrak kimyoviy element; och kumushrang, qattiq va moʻrt metall; **iridoplegiya** [irido...+...plegiya] – koʻz qorachigini kengaytiruvchi mushakning falajlanib harakatsizlanishi; **iridotomiya** [irido...+...tomiya] – koʻz rangdor pardasini jarrohlik yoʻli bilan olib tashlash; **iridotsiklit** [irido...+ sikl(o)...+...it] – koʻz rangdor pardasi bilan kipriksimon tanachasining shikastlanish yoki infeksiya tufayli yallig‘lanishi; **iridotsitlar** [irido...+...sit] – azotli asos – guanin kristallari boʻlgan pigmentli hujayralar; **irit** [*yun.* ir(is)...+...it] – koʻz rangdor pardasining yallig‘lanishi.

...ISSA [*fr.* -esse < *lot.* -issa] – *q.* **...essa.**

...IST, ...AST [*ingl.* -ist, -ast] – yasovchi qoʻshimcha boʻlib, asosan, shaxs otlarini hosil qiladi. Bular: biror fan, soha, yoʻnalish oqim, ta’limot vakillari, izdoshlari, tarafdorlari **(abstraksionist, anarxist, animalist, ateist, avantyurist, buddist, darvinist, egoist, fashist, futurist, gumanist, idealist, imperialist, kapitalist, kommunist, kontrabandist, leyborist, materialist, monarxist, monopolist, naturalist, nigilist, okulist, opportunist, optimist, patsifist, pessimist, rasist, ratsionalist, reformist, retsidivist, revizionist, royalist, sotsialist, statist, sxolast, utopist, shovinist**), ishchi va mutaxassislar (**mashinist, motorist, stenografist, telefonist, telegrafist, yurist**); madaniyat sohasi vakillari (**artist, belletrist, bukinist, fantast, jurnalist, lingvist, oriyentalist, ocherkist, pamfletist, pianist, publitsist, romantist, solist, vokalist, yumorist**); harbiylar (**artillerist, kavalerist, radist, revanshist, tankist**); sportchilar **(alpinist, futbolist, gimnast, planerist, turist, velosipedist, shaxmatist, shtangist**) nomlaridir. Oʻzbek tilida **-ist** qoʻshimchasi koʻpincha **-chi** qoʻshimchasiga almashtiriladi.

...ISTIKA, ...ASTIKA [*ingl.* -istika, -astika] – **-ist** suffiksi asosida paydo boʻlgan murakkab soʻz yasovchi qoʻshimcha boʻlib, asosan, fanlar va ularning tarmoqlari nomlarini hosil qiladi. Mas.: **afrikanistika, akustika, bal-**

listika, diagnostika, faunistika, folkloristika, germanistika, gimnastika, jurnalistika, kazuistika, kriminalistika, lingvistika, publitsistika, romanistika, sfragistika, statistika, stilistika, sxolastika, xarakteristika. Ba'zan jamlovchi xarakterdagi adabiy janrlar nomini yasaydi: **belletristika, fantastika**.

...IT I [*yun.* -itis] – so'z yasovchi qo'shimcha; o'zlashma so'zlarning ikkinchi qismi bo'lib, yallig'lanish bilan kechadigan kasalliklar nomlarini yasaydi. Mas.: **adneksit, appenditsit, blefarit, bronxit, endokardit, enterit, gastrit, irit, kolit, kolpit, laringit, mastit, metrit, miokardit, miyelit, nefrit, nevrit, odontit, oftalmit, otit, piyelit, plevrit, proktit, raxit, renit, salpingit, tonzillit, traxeit, uretrit, vezikulit; artrit** [artr...+...it] – bo'g'imlarning har qanday yallig'lanishi, shuningdek, o'tkir va surunkali yallig'lanish-distrofik kasalliklarning umumlashma nomi; **daktilit** [daktil(o)...+...it] – infeksiya tufayli barmoqlarning yallig'lanishi; **gaymorit** [*ingl.* Highmore – Gaymor – ingliz anatomi nomi +...it] – yuqori jag' suyagi bo'shlig'ining shilliq pardasi va shilliqosti qavatining yallig'lanishi; **gepatit** [gepat(o)...+...it] – odam va hayvonlarda jigarning yuqumli va yuqumsiz yallig'lanish kasalliklari; **glossit** [gloss(a)...+...it] – tilning yallig'lanishi; **keratit** [kerat(o)...+...it] – ko'z muguz (shox) pardasining yallig'lanishi; **meningit** [mening(o)...+...it] – bosh va orqa miya po'stlog'i (qobig'i) ning bakteriyalar, viruslar keltirib chiqaradigan yiringli yoki seroz yallig'lanishi; **tiflit** [tifl(o)...+...it] – ko'richakning yallig'lanishi.

...IT II [*yun.* -itis] – so'z yasovchi qo'shimcha; o'zlashma so'zlarning ikkinchi qismi bo'lib, turli minerallar, portlovchi va zaharlovchi moddalar nomlarini hosil qiladi. Mas.: **abelit, adamsit, alunit, antratsit, apatit, arsenopirit, azurit, babbit, boksit, dinamit, fosforit, granit, kaolinit, kvarsit, magnetit, melinit, nefrit, pirolyuzit, rodanit, selenit, siderit, titanit; anglezit** [*fr.* anglaisite < Angliyadagi Anglsi (Anglesey) orolining nomi +...it] – mineral, qo'rg'oshin sulfat – qo'rg'oshin olishda foydalaniladigan ruda; **iprit** [*fr.* Ypres – Belgiyadagi Ipr daryosining nomi +...it] – molekulasida xlor va oltingugurt bo'lgan rangsiz organik suyuqlik; zaharlovchi modda (dastlab shu daryo bo'yidagi jangda qo'llangan); **lazurit** [*ital.* lazurro < *a., f.* لازورد, لاجورد lozavard, lojuvard +...it] – ko'k yoki yashil-ko'k kamyob mineral; qimmatbaho bezak toshi; tabiiy ko'k bo'yoq – ultramarin tayyorlashda foydalaniladi; **lyuizit** [*ingl.* lewisite < amerikalik kimyogar U. Lyuis (Lewis) nomidan] – tarkibida xlor va margimush bo'lgan rangsiz suyuqlik, kuchli zaharlovchi modda; **malaxit** [*yun.* malache – gulxayri; tugmachagul +...it] – turli ziynat buyumlari tayyorlashda, shuningdek, mis olishda xomashyo sifatida foydalaniladigan och yashil mi-

neral; mis yashili; **viterit** [ingliz olimi W. Withering (XVIII asr) nomi +...it] – mineral, bariy karbonat – bariy va uning tuzlarini olishda foydalaniladi.

Yuqoridagilardan tashqari, **-it** qo‘shimchasi **kolorit, meteorit, tranzit** singari mazkur guruhlarga mansub bo‘lmagan terminlar ham hosil qiladi.

...ITET [*nem.* -ität] – so‘z yasovchi qo‘shimcha: asosan, umumlashtiruvchi, jamlovchi mavhum otlar hosil qiladi va bu so‘zlar sifat, xususiyat (xossa), yig‘in, to‘planish kabi ma’nolarni ifodalaydi. Mas.: **banalitet, bonitet, fakultet, immunitet, kvalitet, neytralitet, paritet, prioritet, suverenitet, universitet, vassalitet; generalitet** [*nem.* Generalität < *lot.* generalis – umumiy, asosiy, bosh +...itet] – qurolli kuchlarning oliy rahbarlar tarkibi; generallik unvoniga ega bo‘lgan shaxslar; **mentalitet** [*nem.* Mentalität < *lot.* mentis, mentalis – aqliy +...itet] – ayrim kishi yoki ijtimoiy guruhga xos fikrlash tarzi, aqliy qobiliyat darajasi, ma’naviy salohiyat, rasm-rusumlar, urf-odatlar, diniy e’tiqod va boshqalar; **munitsipalitet** [*nem.* Munitsipalität < *lot.* municipium – o‘zini o‘zi boshqaruvchi jamoa +...itet] – bir qancha mamlakatlarda: mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organi va u egallagan, joylashgan bino.

...IV [*lot.* -iv] – lotin tilida fe’l asoslardan sifat va ot yasovchi qo‘shimcha. Mas.: **abortiv, administrativ, aggressiv, alternativ, atributiv, detektiv, deklarativ, effektiv, ekspansiv, federativ, frikativ, illyustrativ, impulsiv, konspektiv, konstruktiv, obyektiv, operativ, perspektiv, progressiv, reflektiv, repressiv** kabi sifatlar va **abraziv, akkreditiv, aktiv, arxiv, diapozitiv, fakultativ, kollektiv, kooperativ, kursiv, massiv, negativ, normativ, obyektiv, passiv, portativ, pozitiv, reaktiv, retsidiv** kabi otlar shu affiks bilan yasalgan.

IXTI(O)... [*yun.* ichthys (ichthyos) – baliq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, baliq, baliqqa oid, baliqqa o‘xshash kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **ixtioftirioz, ixtiol, ixtiolog, ixtiopatolog, ixtiopatologiya, ixtiornis, ixtiostega, ixtiozavrlar; ixtiofag** [ixtio...+...fag] – asosan, baliqlar bilan ovqatlanuvchi hayvon; **ixtiofauna** [ixtio...+ fauna] – muayyan suv havzasi, basseynda yoki zoografik hududda yashaydigan, shuningdek, Yer tarixining ma’lum davrida yashagan baliqlar majmuyi; **ixtiologiya** [ixtio...+ ...logiya] – zoologiyaning baliqlarni o‘rganadigan sohasi; **ixtiotoksikoz** [ixtio...+ toksik(o)...+...oz] – zaharli baliqlarni yoki sifatsiz baliq mahsulotlarini iste’mol qilganda paydo bo‘ladigan kasalliklar; **ixtioz** [ixti(o)...+...oz] – teri muguz qavatining asta-sekin qurib, baliq terisiga o‘xshab tangacha-tangacha bo‘lib qolishidan iborat tug‘ma teri kasalligi.

...IYA [*yun., lot.* -ia] – yunon va lotin tillarida so‘z yasovchi qo‘shimcha: 1) turli harakat, holat, tushunchalarning nomlarini **(amnistiya, anarxiya, anemiya, assotsiatsiya, asteniya, atrofiya, avariya, demagogiya, demensiya, epidemiya, epilepsiya, eyforiya, fantaziya, garantiya, garmoniya, idiotiya, illyuziya, inersiya, iyerarxiya, izomeriya, kompaniya, kopiya, magiya, materiya, missiya, monogamiya, monopoliya, simmetriya, substansiya, shizofreniya**); 2) adabiyot, san’atga oid terminlarni **(allegoriya, inversiya, komediya, melodiya, parodiya, poeziya, rapsodiya, simfoniya, tragediya, xrestomatiya**); 3) joy nomlari – toponimlarni **(ambulatoriya, gimnaziya, koloniya, laboratoriya, metropoliya, provinsiya, utopiya; Bolgariya, Efiopiya, Indoneziya, Italiya, Ruminiya, Yaponiya**) hosil qiladi.

IYER(O)... [*yun.* hieros – muqaddas; avliyo] – o‘zlashma qo‘shma va yasama so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, muqaddas, avliyo, kohin ma’nolarini bildiradi. Mas.: **iyeratika, iyerey, iyerodiakon // iyerodyakon, iyeromonax; iyerarx** [iyer(o)…+ *yun*. arche – hokimiyat] – oliy xristian ruhoniylari (mitropolit, patriarx, yepiskop, arxiyepiskop); **iyerarxiya** [iyer(o)...+ arxiya] – 1) bir butun narsa yoki hodisalar ayrim qismlari yoxud elementlarining yuqoridan quyiga tomon bir tartibda joy olishi; 2) “xizmat zinapoyasi” – bo‘ysunish va quyidan yuqoriga o‘tish tartibidagi lavozimlar, unvonlar qatori; **iyeroglifika** [iyero...+ *yun.* glyphe – naqsh; kesma +...ika] – 1) muayyan til iyerogliflari yig‘indisi; mas.: xitoy iyeroglifikasi; 2) umuman, iyeroglifik yozuv; **iyerogliflar** [iyero...+ *yun.* gliphe – naqsh; kesma] – qadimgi misrliklar va ba’zi bir xalqlar yozuvida butun bir tushuncha, ibora, so‘z, bo‘g‘in yoki tovushni ifodalagan, hayvon, odam, har xil buyum, asbob va shu kabilar tasviridan iborat belgilar (hozirgi kunda xitoy yozuvidagi hamda undan yapon va koreys yozuvlariga o‘tgan belgilar ham iyerogliflar deb qaraladi).

...IZATSIYA [*fr., nem.* -isation < *lot.* -isatio] – o‘zlashma yasama so‘zlar tarkibidagi suffiks – so‘z yasovchi qo‘shimcha bo‘lib, o‘zakdan anglashilgan narsa-predmet va tushunchaga o‘xshatish, shunday qilish ma’nosidagi jarayon otlarini hosil qiladi. O‘zbek tilidagi **-lash, -lashtirish** kabi murakkab suffikslarga to‘g‘ri keladi. Mas.: **adverbializatsiya, amortizatsiya, aromatizatsiya, arxaizatsiya, demilitarizatsiya, demobilizatsiya, demokratizatsiya, federalizatsiya, galvanizatsiya, germetizatsiya, gibridizatsuya, globalizatsiyza, gospitalizatsiya, immobilizatsiya, internatsionalizatsiya, ionizatsiya, kanalizatsiya, kapitalizatsiya, karbonizatsiya, kolonizatsiya, kristallizatsiya, liberalizatsiya, lokalizatsiya, metallizatsiya, metizatsiya, mexanizatsiya, militarizatsiya, mineralizatsiya, mobilizatsiya, moder-**

nizatsiya, motorizatsiya, munitsipalizatsiya, natsionalizatsiya, nazalizatsiya, neytralizatsiya, normalizatsiya, optimizatsiya, pasterizatsiya, polyarizatsiya, privatizatsiya, realizatsiya, signalizatsiya, sivilizatsiya, stabilizatsiya, vokalizatsiya, vulkanizatsiya, ximizatsiya va hokazo.

...IZM, ...AZM [*fr.* -isme] – faol va ko‘pma’noli so‘z yasovchi qo‘shimcha bo‘lib: 1) turli fan sohalaridagi ta’limot, nazariya, yo‘nalish va oqimlar nomini yasaydi. Mas.: **agnostitsizm, anarxizm, dualizm, idealizm, jadidizm, lamarkizm, liberalizm, materializm, revizionizm, simvolizm, vitalizm; darvinizm** [*ingl.* Darvin +...izm] – ingliz tabiatshunosi Charlz Darvin qarashlariga asoslangan tirik organizmlarning tarixiy taraqqiyoti (evolyutsiyasi) to‘g‘risidagi nazariya; **konservatizm** [*fr*. conservatisme < *lot*. conservare – asramoq, saqlamoq +...izm] – ijtimoiy va madaniy hayotda an’analar va vorisiylik g‘oyasiga tayanuvchi turli xil g‘oyaviy-siyosiy va madaniy oqimlar majmuyi; 2) jamiyat qurilishining turli bosqichlari nomlarini hosil qiladi: **feodalizm, imperializm, kapitalizm, kommunizm, monarxizm, parlamentarizm, sotsializm;** 3) adabiyot, san’atdagi turli oqim va yo‘nalishlarning nomlarini yasaydi. Mas.: **avangardizm, impressionizm, konstruktivizm, lirizm, naturalizm, realizm, romantizm, sentimentalizm, simvolizm; klassitsizm** [*lot.* classicus – namunaviy +...izm] – XVII – XIX asrlarda Yevropa adabiyoti va san‘atida antik va Uyg‘onish davri san’ati merosi asosida shakllanib, unga taqlid qilish natijasida yuzaga kelgan adabiyot va san’atdagi uslub, yo‘nalish; **modernizm** [*fr.* modernizme < moderne – zamonaviy +...izm] – XIX asrning 2-yarmi va XX asrning 1-yarmida Yevropa va AQSh adabiyoti va san’atida rivoj topgan oqim va yo‘nalishlarning umumiy nomi; 4) turli dinlar va diniy oqimlar nomlarini hosil qiladi. Mas.: **animalizm, animatizm, ateizm, baptizm, buddizm, fatalizm, fideizm, induizm, kalvinizm, katolitsizm, klerikalizm, lamaizm, mistitsizm, monizm, monoteizm, politeizm, sufizm, shomonizm** kabi; 5) turli xil kasalliklar, zaharlanishlar nomlarini hosil qiladi. Mas.: **albinizm, alkogolizm, botulizm, bromizm, daltonizm, geroinizm, infantilizm, kokainizm, mazoxizm, meteorizm, monorxizm, nanizm, paroksizm, revmatizm** kabi; 6) tilshunoslik terminlarini hosil qiladi. Mas.: **amerikanizm, arabizm, argotizm, arxaizm, bilingvizm, dialektizm, evfemizm, frazeologizm, germanizm, istorizm, konsonantizm, neologizm, polonizm, varvarizm, vokalizm, vulgarizm; singarmonizm** [sin...+ *yun.* harmonia – uyg‘unlik, ohangdoshlik +...izm] – turkiy tillarda va ba’zi boshqa tillarda unlilar uyg‘unligi; qo‘shimchalardagi unlilarning o‘zakdagi unlilarga moslashuvi (ba’zan bunday uyg‘unlik undoshlarda ham uchraydi); 7) sport turlari nomlarini hosil qiladi. Mas.: **alpinizm, aviamodelizm, kulturizm** (**atletizm**),

modelizm, planerizm, turizm kabilar; 8) harakat, holat nomlarini hosil qiladi. Mas.: **anarxizm, antagonizm, apolitizm, asketizm, demokratizm, dogmatizm, dramatizm, egoizm, fanatizm, gumanizm, kosmopolitizm, magnetizm, opportunizm, patsifizm, pedantizm, pessimizm, purizm, radikalizm, vulkanizm** kabi. Shu qo‘shimchaning **...azm** varianti bilan ham turli ma’nodagi terminlar hosil qilingan. Mas.: **marazm, orgazm, sarkazm, xiazm, xiliazm; pleonazm** [*yun.* pleonasmos – ortiqchalik < pleo(n)...+...azm] – nutqning mazmuniy to‘liqligi uchun ortiqcha bo‘lgan, lekin ba’zan uning ifodaviyligini oshirish uchun xizmat qiladigan so‘zlarni qo‘llash.

IZO... [*yun.* isos – bir xil, teng] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, o‘zi qo‘shilgan so‘zda tenglik, vazifasi jihatidan o‘xshashlik ma’nolarini bildiradi. Mas.: **izobatalar, izobazalar, izodinamiya, izofermentlar, izofot, izogamiya, izogipslar, izoglossalar, izogonal, izografiya, izokefaliya, izoklinlar, izomerlar, izomorf, izoosmiya, izopiknalar, izopletlar, izopren, izosillabizm, izosporiya, izostaziya, izotermlar, izotermiya, izotropiya, izotroplar, izoxoralar, izoxronizm, izoxronlar; izoanemonlar** [izo...+ *yun.* anemos – shamol] – xaritada shamolning muayyan vaqt oralig‘idagi o‘rtacha tezligining teng qiymatli nuqtalarini birlashtiruvchi izochiziqlar; **izobaralar** [izo...+ *yun.* baros – vazn, og‘irlik] – 1) geografik xaritada bir xil atmosferaviy bosimga ega bo‘lgan joylarni birlashtiruvchi chiziq; 2) diagrammalarda issiqlik jarayonlarini aks ettiruvchi teng yoki doimiy bosim chiziqlari; 3) nuklonlari soni bir xil, lekin proton va neytronlari soni har xil bo‘lgan, ya’ni elektr zaryadlari jihatidan farqlanadigan atom yadrolari; **izodaktiliya** [izo...+ daktil(o)...+...iya] – rivojlanishning tug‘ma nuqsoni: bunda barcha barmoqlar bir xil uzunlikda bo‘ladi; **izogamiya** [izo...+...gamiya] – morfologik jihatdan bir-biridan farq qilmaydigan, ammo har xil biokimyoviy va fiziologik xususiyatlarga ega bo‘lgan gametalarning qo‘shilishidan iborat jinsiy jarayon; **izogalinlar** [izo...+ *yun.* halos – tuz] – geografik xaritada suvning teng darajada sho‘rlanganlik nuqtalarini birlashtiruvchi chiziqlar; **izomeriya** [izo...+...meriya] – tarkibi va molekulyar massasi bir xil, ammo tuzilishi, fizik hamda kimyoviy xossalari har xil birikmalarning mavjudligidan iborat holat; **izomorfizm** [izo...+ *yun.* morphe – shakl +...izm] – kimyoviy tarkibi va kristall tuzilishi bir-biriga yaqin jinslarning o‘zgaruvchan tarkibli birikmalar hosil qilish qobiliyati; **izoneflar** [izo... + *yun.* nephos – bulut] – geografik xaritada keng darajada bulutlanganlik nuqtalarini birlashtiruvchi chiziqlar; **izotoniya** [izo...+ *yun.* tonos – taranglik, kuchlanish] – 1) kuchlanish, bosimning tengligi, bir xilligi; 2) organizm suyuq muhitida va to‘qimalarida osmotik bosimning barqarorligi; **izotoplar** [izo...+...top] – muayyan kimyoviy elementning atom

yadrolarida protonlar miqdorining bir xil, neytronlar miqdorining har xil bo‘lishi bilan farq qiladigan va shu sababli davriy sistemada ayni bir o‘rinni ishg‘ol qiluvchi barqaror va radioaktiv turlari; **izoxronlik** [izo...+ *yun.* chronos – vaqt] – baravar sodir bo‘lish, baravar davom etish; bir xil, teng davom etishlik; **izochiziqlar** – xarita yoki diagrammalarda qandaydir miqdor ko‘rsatkichlari (temperatura, bosim, chuqurlik, namlik darajalari) ning birday, teng bo‘lgan nuqtalarini birlashtiruvchi chiziqlar.

K

KAK(O)... [*yun.* kakos – yomon, xunuk, yaramas] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, yomon, yaramas, noxush ma’nolarini bildiradi. Mas.: **kakogevziya, kakoklaz, kakoklazit, kakoksenit, kakologiya, kakoxlor; kakofemizm** [kako...+ *yun.* phemi – so‘zlayman] – muayyan matnda biror narsa-buyumning tabiiy ifodasini xunukroq, qo‘polroq ifoda bilan almashtirishdan iborat obrazli ko‘chim; **kakofoniya** [kako...+...foniya] – musiqada tovushlarning tartibsiz, quloqqa yoqmaydigan tarzda palapartish birikishi; **kakografiya** [kako...+...grafiya] – 1) ataylab xato yozish; 2) o‘quvchiga ataylab xatolarga yo‘l qo‘yilgan matnni tuzatish uchun berishdan iborat pedagogik usul; **kakosmiya** [kak(o)...+...osmiya] – hid bilish sezgisining kamayishi, yomonlashuvi.

KALE(YD)... [*yun.* kalos – chiroyli + eidos – shakl, ko‘rinish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, chiroyli shaklga, ko‘rinishga aloqadorlikni bildiradi. Mas.: **kalokagatiya** (mukammallik), **kalomel** (mineral); **kaleydoskop** [kaleydo...+...skop] – ichiga bir–biriga nisbatan 60^0 burchak ostida uzunasiga 3 ta ko‘zgu plastinka o‘rnatilgan, bir tomoni shaffof, bir tomoni xira shisha bilan berkitilgan trubka-o‘yinchoq (trubka aylantirilganda, ko‘zgular orasidagi rangdor shishachalar va toshchalar harakatlanib, ko‘zgularda akslanib, chiroyli simmetrik naqshlar hosil qiladi).

KALLI... [*yun.* kallos – juda, g‘oyat chiroyli] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, juda chiroyli ma’nosini anglatadi. Mas.: **kalliforidlar, Kalliopa** (mifologik iloha nomi); **kalligraf** [kalli...+...graf] – 1) aniq va chiroyli yozuv egasi; 2) husnixat muallimi; **kalligrafiya** [kalli...+...grafiya] – chiroyli yozish, xattotlik san’ati.

KALORI... [*lot.* calor – issiqlik] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarning issiqlikka aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **kalorimetr, kaloriya, kaloriyalilik; kalorifer** [*fr.* calorifère < kalori...+ *lot.* fero – tashiyman] – ventilyatsiya, isitish tizimlari va quritkichlarda havoni qizdirib beradigan qurilma, asbob; **kalorimetriya** [kalori...+...metriya] – turli fizik,

kimyoviy va biologik jarayonlarda ajraluvchi yoki so‘riluvchi issiqlik miqdorini o‘lchash usullari majmuyi; **kaloriya** [*lot.* calor – issiqlik] – bir gramm suvni bir gradus isitish uchun zarur bo‘lgan issiqlik miqdori.

KALS... [*lot.* calcis – ohaktosh, ohak] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning ohakka, kalsiyga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **kalseks, kalsiferol, kalsifir, kalsinatsiya, kalsinoz, kalsitonin, kalsiuriya; kalsefillar** [kals(e)...+...fil] – serohak (ishqorli) tuproqda yaxshi o‘sadigan o‘simliklar; **kalsefoblar** [kals(e)...+...fob] – serohak (ishqorli) tuproqda yaxshi o‘solmaydigan o‘simliklar; **kalsemiya** [kals...+ emiya] – qonda kalsiy tuzlari miqdorining (yoki kalsiy ionlarining) ortib ketishi; **kalsifikatsiya** [kals(i)...+...fikatsiya] – organizm to‘qimalari ichida kalsiy tuzlari to‘planishi tufayli ularning qattiqlanishi; ohaklanish; **kalsit** [kals...+...it] – ohakli shpat; kalsiy karbonatning temir, magniy va marganes bilan qo‘shilishidan hosil bo‘lgan mineral; **kalsiy** [*lot.* Calcium < calx – ohak] – Mendeleyev davriy sistemasining II guruhiga mansub kimyoviy element; ohaktosh, marmar va shu kabilar tarkibida bo‘ladigan kumushsimon yaltiroq metall.

KANSER (KANKR)... [*lot.* cancer (cancri) – rak, saraton < *yun.* karkinos – rak, qisqichbaqa] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning rak kasalligi bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Mas.: **kankroid, kanserogenez; kanserofobiya** [kansero...+...fobiya] – rak (saraton) bilan kasallanishdan haddan ortiq qo‘rqish; **kanserogenlar** [kansero...+...gen] – onkogen moddalar – ma’lum sharoitda organizmga ta’sir qilganda rak va boshqa o‘smalar paydo qiluvchi kimyoviy moddalar; **kanserologiya** [kansero...+ ...logiya] – tibbiyotning rak (saraton) kasalligini o‘rganuvchi sohasi.

KANS..., KAN(T)... [*lot.* cantus – qo‘shiq, kuy < cantare – kuylamoq] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismlari bo‘lib, shu so‘zlarning qo‘shiq, kuyga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **kansional, kansona, kansonetta, kantabile; kantata** [*ital.* cantata < *lot.* cantare – kuylamoq] – xor, yakkaxonlar (solistlar) va orkestr uchun yozilgan tantanali musiqa asari; **kantilena** [*lot.* cantilena – qo‘shiq; kuylash] – 1) ravon va ohangdor rivojga asoslangan vokal yoki cholg‘u kuyi; 2) musiqa asari ijrosida kuychanlikning yetakchi omil bo‘lishi; 3) XVII asr oxirlaridan ohangdor kuy va ashulalar turi.

KARBO..., KARBON... [*lot.* carbo (carbonis) – ko‘mir] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, o‘zi qo‘shilgan so‘zlar bilan birga karbon (uglerod) va uning birikmalariga aloqadorlikni bildiradi. Mas.:

karbamatlar, **karbamid, karbanionlar, karbkationlar, karbofos, karbogen, karboksil, karbolit, karbon** (uglerod)**, karbonillar, karbonizatsiya, karbonsuvlar** (uglerodlar)**, karbonvodorod** (uglevodorod)**, karborund, karbotermiya, karbyurator, karbyurizator; karbidlar** [karb(o)...+ ...id] – uglerodning asosan metallar va ba'zi metallmaslar bilan hosil qilgan kimyoviy birikmalari; **karbogemoglobin** [karbo...+...gemoglobin] – gemoglobinning koʻmir angidridning qonda boʻladigan beqaror birikmasi; **karbol** [karb(o)...+...ol]: ***karbol kislota*** – boʻyovchi va polimer moddalar, dorilar, pestitsidlar olishda, shuningdek, dezinfeksiyalashda ishlatiladigan organik birikma; **karbonatit** [karbonat +...it] – asosi karbonatlardan tarkib topgan togʻ jinsi; **karbonatlar** [karbon...+...at] – koʻmir (karbonat) kislotaning tuzlari va efirlari; **karboplastlar** [karbo...+ plast(massa)] – mustahkamlovchi toʻldiruvchi sifatida uglerod tolalariga ega boʻlgan plastmassalar; **karborund** [karbo...+...(ko)rund] – qattiq abraziv materiallar (charx toshi, jilvir kabilar), oʻtga va kislotaga chidamli buyumlar ishlab chiqarishda qoʻllanadigan rangsiz yoki kulrang kristall; **karbunkul** [*lot.* carbunculus – koʻmir parchasi] – yonma-yon joylashgan bir necha soch xaltachasi va yogʻ bezlari atrofidagi terining chuqur qatlami hamda teriosti toʻqimalarining oʻtkir yiringli yalligʻlanishi; hoʻppoz, koʻkyara; **karbyuratsiya** [*fr.* karburation] – suyuq yonilgʻi (benzin, gazolin kabilar) va havodan yonuvchi aralashmaning hosil boʻlishi.

...KARD, ...KARDIYA [*yun.* kardia – yurak] – oʻzlashma qoʻshma soʻzlarning ikkinchi tarkibiy qismlari boʻlib, shu soʻzlarning yurakka, yurak kasalliklariga aloqadorligini koʻrsatadi. Chunonchi, -**kard** terminelementi yurakni oʻrab turuvchi tashqi va ichki qavat (parda) lar nomlarini (**endokard, epikard, miokard, perikard**) hosil qilsa, -**kardiya** terminelementi yurak tuzilishi, hajmi, ritmi, kasalliklarini ifodalovchi terminlarni (**bradikardiya, dekstrokardiya, mikrokardiya, stenokardiya, taxikardiya**) hosil qiladi.

KARDIO... [*yun.* kardia – yurak] – oʻzlashma qoʻshma soʻzlarning birinchi tarkibiy qismi boʻlib, shu soʻzlarning yurak bilan aloqadorligini bildiradi. Mas.: **kardiodilatatsiya, kardioektomiya, kardiograf, kardiolog, kardionevroz, kardiopatiya, kardiopunktura, kardiorentgenologiya, kardioskleroz, kardiospazm, kardiostenoz, kardiostimulyatsiya, kardioxirurgiya; elektrokardiografiya** (**EKG**) [elektro...+ kardiografiya] – urib turgan yurakning bioelektrik potensiallarini oʻlchash va harakatlanayotgan qogʻoz lentasiga egri chiziqlar bilan qayd qilish orqali yurak mushaklarini tekshirish usuli; **kardialgiya** [kardi(o)...+...algiya] – yurak sohasidagi ogʻriq; **kardiofobiya**

[kardio...+...fobiya] – yurak kasalligidan qo‘rqish; yurak kasalligiga yo‘liqib, o‘lib qolish vahimasi; **kardiografiya** [kardio...+...grafiya] – ko‘krak qafasining yurak urishi natijasida yuzaga keluvchi harakatlarini kardiograf yordamida qog‘oz, fotoplyonka, kardiomonitor yoki kompyuter monitoriga yozib olish jarayoni; **kardiogramma** [kardio...+...gramma] – yurak urishining kardiografda yozib olingan grafik tasviri; **kardiologiya** [kardio...+...logiya] – tibbiyotning yurak-tomir sistemasi tuzilishi, funksiyasi va kasalliklarini, ularning yuzaga kelish sabablari, rivojlanish mexanizmlari, o‘ziga xos kechishi hamda diagnostikasini o‘rganuvchi, shuningdek, ularni aniqlash, davolash va oldini olish usullarini ishlab chiquvchi bo‘limi; **kardiomegaliya** [kardio...+ *yun.* megale – katta +...iya] – yurak vazni va hajmining sezilarli ortishi, kattalashishi; **kardiomonitor** [kardio...+ *lot.* monitor – nazorat qiluvchi] – yurak faoliyati holatini doimiy (kecha-kunduz) nazorat qiluvchi apparat; **kardiopatiya** [kardio...+ ...patiya] – bu termin miokarddagi patologik jarayonning mohiyatini aniqlash mumkin bo‘lmagan paytda ishlatiladi; umuman, yurak kasalligi; **kardioplegiya** [kardio...+...plegiya] – sun’iy ravishda yurak faoliyatini vaqtincha to‘xtatish uchun yurak urish tezligini keskin kamaytirish (yurakda operatsiya o‘tkazilganda); **kardiostimulyator** [kardio...+...stimulyator] – yurak orqali elektr impulslar o‘tkazib, uning faoliyatini yaxshilovchi asbob.

KARIO... [*yun.* karyon – yadro, yong‘oq mag‘zi] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, hujayra yadrosi ma’nosini bildiradi. Mas.: **kariokinez, kariolizis, kariopiknoz, karioplazma, kariosistematika, kariota, kariotaksonomiya; kariogamiya** [kario...+...gamiya] – jinsiy hujayra (gameta) lar yadrolarining urug‘lanish jarayoni mohiyatini tashkil etuvchi zigota yadrosiga qo‘shilishi; **kariogramma** [kario...+...gramma] – hujayra mag‘zining grafik tasviri; **kariologiya** [kario...+...logiya] – sitologiyaning hujayra yadrosi va uning tuzilmalarini optik va elektron mikroskopiya, sitokimyo, izotop indikatorlar usullari yordamida o‘rganuvchi bo‘limi; **kariotip** [kario...+...tip] – u yoki bu turga mansub organizmning ma’lum o‘lcham, shakl va songa ega xromosomalari to‘plami; **kariya** [*yun.* karyon – yong‘oq, yong‘oq mag‘zi] – yong‘oqdoshlar oilasiga mansub, barg to‘kuvchi daraxtlarning Shimoliy Amerika va Xitoyda tarqalgan bir turi.

KARPO... [*yun.* karpos – meva] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, meva ma’nosini bildiradi. Mas.: **karpofor, karpogen, karpoidealar, karpokinez; karpologiya** [karpo...+...logiya] – botanikaning meva va urug‘larni o‘rganadigan bo‘limi.

KARSIN(O)... [*yun.* karkinos – qisqichbaqa, rak] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning qisqichbaqalarga, rak kasalligiga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **karsinoidlar, karsinomatoz, karsinosarkoma, karsinoz; karsinemiya** [karsin(o)...+...emiya] – o‘smaning qon orqali tarqalishi: qonda rak hujayralarining mavjudligi; **karsinofobiya = kanserofobiya;** *q.* **kanser...; karsinologiya** [karsino...+...logiya] – zoologiyaning qisqichbaqasimonlarni o‘rganuvchi bo‘limi; **karsinoma** [karsin(o)...+...oma]– epitelial to‘qimalardan o‘sib chiquvchi xavfli o‘sma (rak).

KART(O)... [*lot.* cart, charta < *yun.* chartes – papirus bargi; qog‘oz] – o‘zlashma qo‘shma va yasama so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, qog‘ozga, xaritaga aloqadorlikni bildiradi. Mas.: **karta, kartina, kartodiagramma, kartograf, kartometriya, karton, kartosxema; kartografiya** [karto...+...grafiya] – geografik xaritalar tuzish haqidagi fan va shunday xaritalar tuzishning o‘zi; **kartogramma** [karto...+...gramma] – muayyan hodisalarga oid statistik ma’lumotlar grafik ravishda tasvirlangan xarita; **kartoteka** [karto...+...teka] – 1) ma’lum bir narsaga, sohaga oid ma’lumotlar yozilgan va tartibga solingan kartochkalar majmuyi; 2) shunday kartochkalar saqlanadigan qutilar, yashiklar va ular joylashgan xona, bo‘lim.

KATA... [*yun.* kata – pastga, quyiga; teskari jarayon] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, yuqoridan pastga harakatlanish, teskari jarayon, buzilish ma’nolarini anglatadi. Mas.: **katabolizm, katadromlar, katafaziya, kataforez, katafotlar, katamnez, katamorfoz, kataplaziya, katatimiya, katatoniya, kation; katagenez** [kata...+...genez] – biologiyada: organizmlarning soddalashgan ekologik muhitga o‘tishi tufayli morfofiziologik tuzilishining pasayishiga, bir qancha a’zolar va a’zolar tizimining dezintegratsiyasi va reduksiyasiga olib keluvchi teskari evolyutsiya; **katakombalar** [*ital.* catacomba < *lot.* catacumba – yerosti mozori] – yer ostida mavjud bo‘lgan sun’iy yoki tabiiy inshootlar tizimi: galereyalar, yo‘laklar va kichik-kichik xonalardan iborat (qadimda quvg‘unga uchragan xristianlar uchun ibodat joyi va mozor bo‘lib xizmat qilgan); **katapulta** [kata...+ *yun.* pallo – uloqtiraman, irg‘itaman] – 1) harbiy ishda: buralgan tolalarning qayishqoqlik kuchi ta’sirida harakatga keltiriladigan uloqtirish mashinasi; 2) samolyot, planyor va boshqa uchish apparatlariga qisqa uchish yo‘lagida boshlang‘ich tezlik beradigan qurilma; 3) uchuvchi yoki kosmonavtning uchish apparatidan avtomatik tarzda irg‘itib yuborish va keyin uning parashyutda pastga tushishini ta’minlovchi qurilma; **katarakta** [*yun.* katarrhaktes – suvning quyiga oqishi; sharshara] – ko‘z gavharining xiralashuvi: bu kasallik ko‘pincha qariyalarda uchraydi; **ka-**

tod [*yun.* kathodos – past tomonga yo‘l] – 1) doimiy elektr toki manbayining manfiy qutbi; 2) elektr toki manbayining manfiy qutbi bilan bog‘langan asbob elektrodi.

KAUST(O)... [*yun.* kaustos – yondirilgan, kuydirilgan; kaustikos – kuydiruvchi, lovullatuvchi] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, yondiruvchi, kuydiruvchi, lovullatuvchi ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **kaustika, kauterizatsiya; kaustik** [*yun.* kaustikos – kuydiruvchi]: ***kaustik soda*** – o‘yuvchi ishqorlar – natriy gidroksid va kaliy gidroksidning texnik nomi; **kaustobiolitlar** [kausto...+ bio...+...lit] – organik moddalardan hosil bo‘lgan yonuvchi foydali qazilmalar; **kauzalgiya** [*yun.* kausis – achitish, lovullatish + ...algiya] – periferik nerv tolalari jarohatlanganda chidab bo‘lmaydigan darajada azob beruvchi og‘riq.

KAV(O)..., KAVERN(O)... [*lot.* caverna – g‘or, chuqur yer, bo‘shliq; cavum, cavus – bo‘shliq, kovak; ichiga botgan] – o‘zlashma qo‘shma va yasama so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, bo‘shliq, g‘ovak, kovak ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **kavernit, kavernografiya, kavernogramma, kavernoma, kavernometriya, kavernoz; kaverna** [*lot.* caverna – jarlik, o‘ra; bo‘shliq, botiq yer] – 1) muayyan a’zo to‘qimalarining kasallanishi natijasida hosil bo‘lgan bo‘shliq; 2) tog‘ jinslari massivida hosil bo‘lgan kovak, bo‘shliq; **kavernotomiya** [kaverno…+…tomiya] – sil kasalligida o‘pkadagi bo‘shliqni ochish operatsiyasi; **kavitatsiya** [*lot.* cavitas (cavitatis) – o‘yiq joy, bo‘shliq +…atsiya] – tez oqayotgan suyuqlikda bosimning kamayishi natijasida gaz, bug‘ yoki ularning aralashmasi bilan to‘lgan bo‘shliq (pufakchalar) ning hosil bo‘lishi; **kavografiya** [kavo...+...grafiya] – kovak vena tomirlarini rentgenda tekshirish usuli.

KAXE... [*yun.* kakos – yomon] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, yomon ma’nosini ifodalaydi. Mas.: **kaxeksiya** [kako...+ *yun.* hexis – ahvol] – to‘yib ovqat yemaslik, keskin ozish, kamqonlik va boshqa kasalliklar sababli organizmning haddan tashqari ozib ketishi.

KEFAL(O)..., SEFAL(O)..., ...KEFALIYA [*yun.* kephale – bosh, kalla] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi va ikkinchi tarkibiy qismlari bo‘lib, shu so‘zlarning boshga, kallaga aloqadorligini bildiradi [Ushbu terminelementning ikki xil o‘qilishi sababli uning **sefal(o)..., ...sefaliya** variantlari ham parallel qo‘llanadi; *q.* **sefal(o)...**]. Mas.: **kefal** (baliq turi)**, kefalinlar, kefalizatsiya // sefalizatsiya, kefalografiya // sefalografiya, kefalokranio-**

klast, kefalotripsiya // sefalotripsiya, kefalotsele // sefalotsele; kefalogematoma // sefalogematoma [kefalo…+ gemat(o)…+…oma] – bolaning tug‘ilish jarayoni haddan tashqari tez bo‘lganda, bolaning yumshoq to‘qimalari jarohatlanishi natijasida kalla suyak pardasi ostiga qon quyilishi; **kefalometr** [kefalo...+...metr] – kallani o‘lchaydigan asbob; **kefalometriya // sefalometriya** [kefalo...+...metriya] – antropometrik asboblar yordamida odam kallasini o‘lchash sistemasi; **kefalopodlar // sefalopodlar** [kefalo…+ …pod] – bosh-oyoqli yirtqich mollyuskalar sinfi; **akrokefaliya // akrosefaliya, gidrokefaliya // gidrosefaliya, makrokefaliya // makrosefaliya, mikrokefaliya // mikrosefaliya.**

KEL(O)... [*yun.* kele – o‘sma] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning o‘smaga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **keloid** [kel(o)...+...oid] – biriktiruvchi to‘qima o‘rnida hosil bo‘ladigan o‘smasimon tuzilma; **keloidoz** [keloid…+…oz] – biriktiruvchi to‘qimaning haddan ortiq o‘sishi natijasida unga gialin moddasi singib, to‘qimaning yaltiroq oq tusga kirib, qattiq bo‘lib qolishi; **kelotomiya** [kelo...+...tomiya] – tanadagi chandiq va berchlanib qolgan yamoqlarni operativ yo‘l bilan kesib olib tashlash.

KEN(O)... [*yun.* kenos – bo‘sh] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, bo‘sh, bo‘shliq degan ma’nolarni ifodalaydi. Mas.: **kenofobiya** [keno...+...fobiya] – ruhiy kasallik: ichi bo‘sh xona, binodan qo‘rqish, vahimaga tushish; **kenotaf** [*yun.* kenotaphion – bo‘sh qabr < keno...+ *yun.* taphos – qabr] – murda qo‘yilmagan bo‘sh qabr [Qadimgi Misr, Yunoniston, Rim va boshqa o‘lkalarda marhumni dafn etishning iloji bo‘lmagan (masalan, musofirlikda vafot etgan) hollar uchun qazib qo‘yilgan]; **kenotron** [keno...+...tron] – asosan, sanoat chastotali o‘zgaruvchan tokni o‘zgarmas tokka aylantirish uchun mo‘ljallangan elektr-vakuumli qurilma (diod, lampa).

KER..., KERATO... [*yun.* keras, keratos – shox, muguz] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shox, muguz degan ma’noni bildiradi. Mas.: **keratinlar, keratodermiya, keratoektomiya, keratofir, keratogialin, keratoglobus, keratoirit, keratokonus, keratokonyunktivit, keratoleykemiya, keratomalyatsiya, keratomikozlar, keratopatiya, keratoprotez, keratosklerit, keratoskop, keratotomiya; kerargirit** [ker...+ *yun.* argyros – kumush +...it] – tabiiy kumush xlorid, kamyob mineral; qimmatbaho kumush ruda; **keratinizatsiya** [kerat(o)…+…in +…izatsiya] – to‘qimalarda muguz modda hosil bo‘lish jarayoni; **keratit** [kerat(o)...+...it] – ko‘z muguz pardasining yallig‘lanishi; **keratodermatit** [kerato…+ dermatit] – ko‘z muguz

pardasi bilan yuz terisining birga yallig‘lanishi (uchuq toshishi); **keratoektaziya** [kerato…+…ektaziya] – ko‘z muguz pardasining kengayishi: ko‘zning turli yallig‘lanish kasalliklarida uchraydi; **keratoliz** [kerato…+…liz] – teri muguz qavatining tagidagi qavatlar bilan aloqasining zaiflashishi natijasida ko‘chib tushishi; **keratoma** [kerat(o)...+...oma] – teri muguz qavatining o‘smasimon keskin qalinlashishi; **keratometr** [kerato…+…metr] – ko‘z muguz pardasi old yuzasining radiusini o‘lchaydigan asbob; **keratoplastika** [kerato...+ ...plastika] – xiralashgan ko‘z muguz pardasini ko‘chirib o‘tkazish, sog‘lom parda bilan almashtirish operatsiyasi; **keratoskopiya** [kerato…+…skopiya] – ko‘z muguz pardasining shakli va qalinligini keratoskop bilan aniqlash; **keratozlar** [kerat(o)...+...oz] – teri muguz (shox) qavatining qalinlashuvi bilan kechadigan kasalliklarning umumiy nomi.

KIBER... [kiber < *yun.* kibernetike (techne) – boshqarish, darg‘alik (san’ati, mahorati)] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy (birinchi) qismi bo‘lib, boshqarish; kompyuter bilan bog‘liq, kompyuterga aloqador degan ma’nolarni anglatadi. Mas.: **kiberhujum** [kiber…+ hujum] – kompyuter tarmoqlarini yalpi buzish yoki kompyuterlarni virus bilan zararlash; **kiberjinoya**t [kiber…+ jinoyat] – kompyuter, kompyuter tarmog‘i yoki tarmoq qurilmalaridan noqonuniy foydalanish jinoyati; **kibersport** [kiber…+ sport] – videoo‘yinlarga asoslangan jamoaviy yoki yakka musobaqa; **kiberxavfsizlik** [kiber…+ xavfsizlik] – kompyuter, kompyuter tarmog‘ini yoki tarmoq va mobil qurilmalarni yomon niyatli kishilardan himoyalashning usul va amallari majmuyi.

KILO... [*fr.* kilo < *yun.* kilioi – ming] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, 1000 soni bilan aloqadorlikni, o‘zi qo‘shilgan so‘z anglatgan tushunchaning ming marta ortiqligini bildiradi. Mas.: **kilobayt, kilobit, kilogers, kilojoul, kilokaloriya, kilokyuri, kilolitr, kilovolt; kilogramm** [kilo...+...gramm] – 1000 grammga teng og‘irlik o‘lchovi birligi; **kilometr** [kilo...+...metr] – 1000 metrga teng uzunlik o‘lchovi birligi, *km* bilan belgilanadi; **kiloparsek** [kilo…+ parsek] – 1000 parsekka teng astronomik masofalarni o‘lchash birligi; **kilotonna** [kilo…+ tonna] – yadro zaryadi quvvatining shartli o‘lchov birligi (1000 tonna trinitrotoluolning portlash quvvatiga teng); **kilovatt** [kilo…+ vatt] – elektr toki quvvatining 1000 vattga teng o‘lchov birligi.

KIM... [*yun.* kyma – to‘lqin, tebranish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, to‘lqin, tebranish ma’nolarini anglatadi. Mas.: **kimograf** [kimo...+...graf] – 1) fiziologik jarayonlarni (yurak faoliyati, muskullar qisqarishi va boshqalarni) grafik qayd etish uchun mo‘ljallangan asbob; 2) eksperi-

mental fonetikada tovushlar egri chizig‘ini yozib olishga mo‘ljallangan asbob; **kimografiya** [kimo...+...grafiya] – turli tebranishlarni (masalan, qon bosimi tebranishini) kimograf yordamida yozib olish usuli.

KIN..., KINO... [*yun.* kyon (kynos) – it] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning itga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **kinantropiya** [kin...+…antropiya] – odam o‘zini it his qilib alahlashidan iborat ruhiy kasallik; **kinofobiya** [kino...+...fobiya] – miyaga o‘rnashib qolgan vahimali holat – itlardan, itlarning tishlashidan qo‘rqish; **kinolog** [kino…+ …log] – kinologiya mutaxassisi; it o‘rgatuvchi; **kinologiya** [kino...+...logiya] – itlar, ularning tur-zotlari, ularni parvarishlash haqidagi fan.

KINE(TO)..., KINEMA(TO)... [*yun.* kinēma (kinēmatos) – harakat] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarning harakat bilan aloqadorligini bildiradi. Mas.: **kinematograf, kinetika, kinetizm, kinetografiya, kinetogramma, kinetokardiografiya, kinetoskop, kinetostatika, kinetoxor; kinema** [*yun.* kinema – harakat] – artikulyatsiyadagi farqlovchi belgi, biror nutq a’zosining fonema hosil qilishdagi talaffuz harakati; **kinematika** [kinemato...+...ika] – mexanikaning jism massasi va unga ta’sir etuvchi kuchlarni hisobga olmagan holda jism harakatining geometrik xossalarini o‘rganuvchi bo‘limi; **kinematografiya** [kinemato...+...grafiya] – filmlar ishlab chiqarish va tomoshabinlarga namoyish etish bilan shug‘ullanuvchi madaniyat va sanoat tarmog‘i, san’atning eng ommaviy turi; **kineskop** [kine...+ ...skop] – oq-qora va rangli teletasvirlarni qayta ko‘rsatishga mo‘ljallangan qabul qiluvchi televizion trubka; **kinesteziya** [kine…+…esteziya] – mushaklarda harakat qilish, kuch sarf qilish, og‘irlik sezish hollari; **kinetika** [*yun.* kinetikos – harakatlantiruvchi] – nazariy mexanikaning dinamika va statika sohalarini o‘z ichiga olgan bo‘limi.

KINO... [*yun.* kineo – harakatlantiraman, siljitaman] – o‘zlashma va yarimkalka so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning kinematografiyaga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **kinoaktrisa, kinoaktyor, kinoapparatura, kinoartist, kinoarxiv, kinoasar, kinodramaturg, kinoekran, kinofestival, kinojurnal, kinokamera, kinokompaniya, kinokonsert, kinolavha, kinolenta, kinomexanik, kinopanorama, kinoplyonka, kinoprokat, kinorejissyor, kinossenariy, kinoteatr, kinoterapiya, kinoyulduz, kinoshunos; kinoapparat** [kino…+ apparat] – harakatdagi obyektlarni kinoplyonkaga tushirib oladigan, shuningdek, kinofilmlar namoyish qilinadigan apparat; **kinodramaturgiya** [kino...+ dramaturgiya]

– 1) kinossenariylar majmuyi; 2) kinossenariylar tuzish, yaratish ishi, nazariyasi; **kinofilm** [kino...+ film] – ekranda namoyish qilish uchun yaratilgan kinematografiya asari (badiiy, hujjatli va boshqa filmlar); **kinokomediya** [kino…+ komediya] – xarakter, konflikt va vaziyatlar tasviri tomoshabinda kulgi qo‘zg‘atadigan, yumoristik va hajviy jihatlar bir-biriga bog‘liq holda ko‘rsatilgan kinofilm; **kinooperator** [kino...+ operator] – kinofilmlarni suratga oluvchi mutaxassis; **kinostudiya** [kino...+ studiya] – kinofilmlar ishlab chiqaradigan korxona; **kinoteka** [kino…+…teka] – *q., ayn.* **filmoteka; kinotexnika** [kino...+ texnika] – 1) texnikaning kinofilmlarni suratga olish, nusxalarini ko‘paytirish va namoyish qilishning usul va vositalarini ishlab chiquvchi sohasi; 2) kinematografiyada foydalaniladigan texnik vositalar majmuyi; **kinoxronika** [kino…+ xronika] – kundalik hayotdagi muhim voqealarni ko‘rsatib beradigan qisqa metrajli film yoki kinojurnal.

KIST(O)... [*yun.* kystis – pufakcha] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarning pufakcha, bo‘shliq bilan aloqadorligini bildiradi [Ushbu terminelementning ikki xil o‘qilishi tufayli ko‘pincha uning **sist(o)...** varianti ham parallel qo‘llanadi; *q.* **sist(o)...**]. Mas.: **kistografiya // sistografiya, kistogranulyoma; kista // sista** [*yun.* kystis – pufak, qavariq] – og‘riq bilan kechadigan ba’zi jarayonlarda turli a’zo va to‘qimalarda vujudga keladigan, qalin devor bilan o‘ralgan va ichida suyuq yoki bo‘tqasimon massasi bo‘lgan patologik bo‘shliq; **kistoadenoma** [kisto…+ aden(o)…+…oma] – bezli a’zolar (mas., tuxumdon) epiteliysidan rivojlanuvchi va kistasimon cho‘zilgan bo‘shliqlari mavjud xavfsiz o‘sma; **kistoma // sistoma** [kist(o)…+…oma] – bez to‘qimasida paydo bo‘ladigan, ko‘pincha tuxumdonda uchraydigan kistali (pufakchali) xavfsiz o‘smalarning umumiy nomi.

KLADO... [*yun.* klados – novda, shoxcha] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shoxcha, novda ma’nolarini bildiradi. Mas., **kladoniya, kladosporiozlar; kladodiy** [*yun.* klados – novda] – qurg‘oqbardosh o‘simliklarning yalpoq yaproqsimon poyasi; barg vazifasini bajaradi va bug‘lanishni kamaytiradi; **kladofora** [*lot.* Cladophora < clado…+ *yun.* phoros – eltuvchi, tashuvchi] – dengiz va chuchuk suv havzalarida o‘sadigan ko‘p hujayrali yashil suvo‘tlar turkumi (O‘zbekiston suv havzalarida asosan ipsimon sershox turi uchraydi).

KLAUSTR(O)... [*lot.* claustrum – berk bino, xona; eshik zulfini, tamba] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, berkitish, berkitilgan xona, bino ma’nolarini bildiradi. Mas.: **klaustrofiliya** [klaustro...+...filiya] –

ruhiy kasalliklarda: eshik, derazalari ochiq xona, binodan qo‘rqib (vahimaga tushib), eshik, derazalarni zo‘r berib yopishga intilish; **klaustrofobiya** [klaustro...+...fobiya] – klaustrofiliyaning aksicha, eshik, derazalari berkitilgan tor bino, xonalar, baland devor, simto‘rlar bilan o‘ralgan hovlilar ichida yashash (turish) dan qo‘rqib vahimaga tushish.

KLAV(I)... [*lot.* klavis – kalit] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, kalit, klavish ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **klavesin – klavikord – klavir** (har uchala termin torli-klavishli cholg‘u asboblari nomi); **klaviatura** [*nem.* Klaviatur – kalitlar < *lot.* klavis] – 1) musiqa asboblarida ma’lum tartibda joylashgan klavish (richag) lar yoki tugmachalar majmuyi, klavish mexanizmining asosiy qismlaridan biri; 2) yozuv mashinkasi, kompyuter, kalkulyator kabi mexanizmlarda klavishlar majmuyi; **klavish** [*lot.* klavis] – 1) fortepiano, akkordeon kabi musiqa cholg‘ularida tovush hosil qiluvchi richag moslamasining qo‘l bilan bosiladigan qismi, klaviatura detali; 2) turli mexanizmlar (yozuv mashinkasi, kompyuter va boshqalar) da qo‘l bilan bosib, axborotlarni – harf, raqam, tasvir va boshqa belgilarni displey yoki monitorga tushiradigan moslamaning – richagning uchi.

KLEPT(O)... [*yun.* kleptō – o‘g‘irlayman] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, o‘g‘irlik degan ma’noni bildiradi. Mas.: **kleptolagniya; kleptofobiya** [klepto...+...fobiya] – o‘g‘irlik qilish yoki birovlarning narsalarini olishdan qo‘rqish; **kleptomaniya** [klepto...+...maniya] – ba’zi ruhiy kasalliklar negizida yuzaga keluvchi o‘g‘irlik qilishga intilish, odatlanish yoki arzimagan narsalarni o‘g‘irlashga ishtiyoq.

KLEYSTO... [*yun.* kleistos – yopiq, yashirincha] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, jarayonning yopiq holda ro‘y berishini anglatadi. Mas.: **kleystokarpiy; kleystogamiya** [kleysto...+...gamiya] – yer beti, hatto tuproq ostida paydo bo‘ladigan mayda, ko‘rimsiz gullarning ochilmay turib, o‘zidan changlanishi.

KLIMAT(O)... [*yun.* klima (klimatos) – qiyalik; egilish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, iqlimga, iqlim ta’siriga aloqador degan ma’noni bildiradi. Mas., **klimatofiziologiya, klimatolog, klimatoprofilaktika, klimatron; klimatografiya** [klimato…+…grafiya] – iqlimshunoslik (klimatologiya) ning Yer shari iqlimlarini tavsiflash bilan shug‘ullanuvchi bo‘limi; **klimatologiya** [klimato…+…logiya] – iqlimshunoslik – turli xil iqlimlarning tarkib topish sabablarini, iqlimning inson faoliyati obyektlariga

va insonning o‘ziga, shuningdek, turli tabiiy hodisalarga ta’sirini o‘rganadigan fan tarmog‘i; **klimatopatologiya** [klimato…+ patologiya] – 1) tibbiy iqlimshunoslikning insonning iqlimiy omillarga patologik reaksiyalarini o‘rganuvchi va bunday reaksiyalarning oldini olish metodlarini ishlab chiquvchi bo‘limi; 2) kasalliklarning iqlimiy ta’sirlar ostida paydo bo‘lishi va og‘irlashuvi; **klimatoterapiya** [klimato…+…terapiya] – iqlimiy va ob-havo omillaridan davolash-profilaktika hamda sog‘lomlashtirish maqsadlarida foydalanish; iqlim sharoiti bilan davolash.

KLIN(O)... [*yun.* kline – ko‘rpa-to‘shak, karavot] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarning yotishga, ko‘rpa-to‘shakka aloqadorligini bildiradi. Mas.: **klinitsist; klinika** [*yun.* klinike – yotoq kasalni parvarishlash < *yun.* kline – ko‘rpa-to‘shak, karavot] – yotib davolanish uchun mo‘ljallangan, bemorlarni davolash bilan birga tibbiy ta’lim va ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshiradigan muassasa; **klinomaniya** [klino...+...maniya] – yotoq (to‘shak) rejimiga obyektiv ko‘rsatmalar bo‘lmaganda ham to‘shakda yotishga xohish (moyillik).

KLINO... [*lot.* clino – og‘diraman, engashtiraman] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, egmoq, engashtirmoq ma’nolarini hosil qiladi. Mas.: **klinodaktiliyalar, klinoxlor; klinokefaliya // klinosefaliya** [klino...+...kefaliya] – bosh suyagining tepa qismi egarsimon botiq bo‘lgan kalla shakli; **klinometr** [klino...+...metr] – qiyalik darajasini aniqlash uchun qo‘llanadigan asbob.

KO... [*lot.* con- – birga] – old qo‘shimcha; o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib: 1) trigonometrik funksiyalar: *sekans, sinus, tangens* so‘zlariga qo‘shilib, ularga qarama-qarshi ma’noli terminlar yasaydi. Mas.: **kosekans, kosinus; kotangens** [ko...+ *lot.* tangens – urinma] – to‘g‘ri burchakli uchburchakda o‘tkir burchakka yopishgan katetning boshqa (qarshidagi) katetga nisbatidan iborat trigonometrik funksiya; qo‘shimcha burchakning tangensi; 2) qo‘shma yoki yasama so‘zning ikkinchi qismi bilan birgalik ma’nosini bildiradi. Mas.: **koaksial, koeffitsiyent, kofermentlar, kogerentlik, kokarboksilaza, kollaboratsionistlar, kollaterallik, kollega, kolleksiya, kollektor, kollinear, kommensalizm, kommersiya, kompanyon, komplanar, kompleks, kompozitsiya, kongeniallik, konglomeratsiya, kondominat, konkubinat, konkurs, konnotatsiya, konsentrik, konservatsiya, konsonant, konspiratsiya, konstruksiya, kooperatsiya, koordinatalar, koordinator, koordinatsiya, korrelyatsiya, kovalent** va boshqalar. Bunda

ko... // kon... terminelementi o‘zi qo‘shilgan o‘zakdagi bosh harfga moslashib (assimilyatsiyaga uchrab), **kol..., kom..., kor...** kabi shakllarda ham qo‘llanadi.

KOAGUL(O)... [*lot.* coagulum – quyqa, cho‘kma; coagulation – ivish, quyuqlashish] – o‘zlashma qo‘shma va yasama so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, ivish, quyuqlashish ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **koagulografiya, koagulogramma, koagulyatsiya; koagulograf** [koagulo…+…graf] – qon ivishi jarayoni dinamikasini tekshirish uchun qo‘llanadigan asbob; **koagulopatiya** [koagulo…+…patiya] – qon ivishi sistemasi faoliyatining buzilishi bilan bog‘liq og‘riqli holatlar; **koagulyantlar** [koagul(o)…+…ant] – 1) tarkibida qandaydir mayda zarralar bo‘lgan suyuq muhitga kiritilganda koagulyatsiya paydo qiladigan kimyoviy moddalar; 2) qon ivishini kuchaytirib, qon oqishini to‘xtatadigan moddalar; **koagulyat** [koagul(o)…+…at] – kolloid eritma koagulyatsiyasi natijasida hosil bo‘ladigan quyqa, cho‘kma.

KOKKO..., ...KOKK(LAR) [*yun.* kokkos – don, donacha] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi va ikkinchi tarkibiy qismlari bo‘lib, dumaloq (sharsimon) shakldagi, spora hosil qilmaydigan, qo‘zg‘almas, keng tarqalgan bakteriyalarni bildiradi. Mas.: 1) **kokkolitiaz; kokklar –** odatda, harakatsiz, sharsimon, tuproqda, suvda, havoda keng tarqalgan, sporalar hosil qilmaydigan bakteriyalar; **kokkomikoz** [kokko…+ mik(o)…+…oz] – danakli meva daraxtlarida zamburug‘lar qo‘zg‘atadigan kasallik; asosan o‘simlik barglari, ba’zan mevalari ham kasallanadi; 2) **diplokokklar, exinokokklar, gonokokklar, pnevmokokklar, stafilokokklar, streptokokklar, tetrakokklar; enterokokklar** [entero...+...kokk] – odam va hayvonlar ichagida yashovchi, kolit, enterit, endokardit kabi kasalliklarni keltirib chiqaruvchi bakteriyalar; **meningokokklar** [meningo...+...kokk] – juft sharsimon ko‘rinishdagi, miya pardasini yallig‘lantiruvchi, ya’ni meningit kasalligini keltirib chiqaruvchi bakteriyalar; **mikrokokklar** [mikro...+...kokk] – suv va havoda yashovchi eng kichik sharsimon bakteriyalar.

KOL(O)... [*yun.* kolon – yo‘g‘on ichak] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, yo‘g‘on ichak, chambar ichak ma’nolarini anglatadi. Mas.: **kolonoskop, kolopeksiya, koloptoz, kolotomiya; kolibakterioz** [koli…+ bakteri(o)…+…oz] – yosh hayvonlarda uchraydigan, oshqozon-ichak a’zolarini zararlaydigan o‘tkir yuqumli kasallik; **kolit** [kol...+...it] – yo‘g‘on ichak shilliq pardasining o‘tkir yoki surunkali yallig‘lanishi; **kolonoskopiya** [kolon(o)…+…skopiya] – kolonoskop asbobi yordamida yo‘g‘on ichakning ichki sathini tekshirish usuli; **kolospazm** [kolo...+...spazm] – yo‘g‘on ichak-

ning qisilishi, mushaklari tonusining oshishi; **kolostomiya** [kolo...+...stomiya] – jarrohlik yo‘li bilan yo‘g‘on ichakning biror qismidan tashqariga yo‘l (teshik) ochib qo‘yish.

KOLL(O)... [*yun.* kolla – yelim; yopishqoq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning yelimga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **kollagen, kollogenozlar, kollodiy, kolloidoklaziya, kolloksilin; kollaj** [*fr.* collage – yelimlash, yopishtirish < *yun.* kolla – yelim] – tasviriy san’atdagi usul: biror-bir asos materialga undan rangi va sifati bilan farqlanuvchi materialni yopishtirib asar yaratish; shu usulda yaratilgan san’at asarining o‘zi; **kollenxima** [koll(a)...+ *yun.* enchima – to‘qima] – ikki pallali o‘simliklarning yosh, o‘sayotgan novdalari po‘stlog‘ida uchraydigan dastlabki mexanik to‘qimalaridan biri; novdalarning mustahkamligi va elastikligini oshiradi; **kolloidlar** [koll(o)...+...oid] – zarralarining o‘lchamlari turlicha bo‘lgan yuqori dispers sistemalar.

KOLOR... [*lot.* color – rang, tus; bo‘yoq] – o‘zlashma qo‘shma va yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning rangga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **kolorimetr, kolor-indeks, kolorizatsiya; kolorimetriya** [kolor(i)...+...metriya] – ranglarni va ular orasidagi tafovutlarni o‘lchash va miqdoriy jihatdan ifodalash usullari; **kolorist** [*fr.* coloriste < kolor...+...ist] – 1) ranglardan mohirona foydalana biladigan va ularni uyg‘unlashtira oladigan rassom; 2) gazlamalarga rang berish ustasi; **kolorit** [*ital.* colorito < kolor...+ ...it] – tasviriy san’at asarlarida (asosan, rangtasvirda) voqelikni haqqoniy va ifodali tasvirlashda ranglarning o‘zaro mutanosibligi.

KOLPO... [*yun.* kolpos – qin, diloq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning qinga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **kolpogiperplaziya, kolpokeratoz, kolpopeksiya, kolpopoez, kolporafiya, kolpospazm, kolpotomiya, kolpotsistogramma; kolpit** [kolp(o)...+ ...it] – turli mikroblar tushishi natijasida qin shilliq pardasining yallig‘lanishi; **kolposkop** [kolpo...+...skop] – bachadon bo‘yni, qin va tashqi jinsiy a’zolarni tekshirishga mo‘ljallangan asbob (sun’iy yorug‘lik beradi va obyektni 20 – 30 marta kattalashtirib ko‘rsatadi); **kolposkopiya** [kolpo...+...skopiya] – kolposkop yordamida ayollar jinsiy a’zolarini tekshirish usuli; **kolpotsistit** [kolpo...+ sist(o)...+...it] – qin hamda qovuqning bir vaqtda yallig‘lanishi.

KONTR..., KONTRA... [*lot.* contra – qarshi] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, o‘zi qo‘shilgan so‘z anglatgan ma’noga zid, qara-

ma-qarshi ma'no ifodasini beradi. Mas.: **kontradiksiya, kontrafagot, kontrafakt, kontragent, kontraksiya, kontralto, kontrapost, kontrasignalizatsiya, kontrast, kontratseptiv, kontrbalans, kontreskarp, kontrfors, kontrgayka, kontrhujum, kontrmarsh, kontrmina, kontrreformatsiya, kontrrels, kontrrelyef, kontrrevolyutsiya; kontrabanda** [*ital.* contrabando < kontra...+ bando – hukumat farmoni] – mamlakatga olib kelish va undan olib ketish taqiqlangan tovarlar, qimmatbaho buyumlar, valyuta boyliklarini davlat chegarasidan qonunga xilof (yashirincha) usullarda o'tkazish, shuningdek, taqiqlangan mollarni olib o'tish uchun noqonuniy harakatlar qilish; chegaradan noqonuniy olib o'tilgan narsaning o'zi; **kontrabas** [*ital.* contrabasso] – tikka turib, kamoncha bilan chalinadigan, eng katta, lekin eng past ovozli, torli-kamonchali skripkasimon musiqa asbobi; **kontragals** [kontra…+ *goll.* hals – kema yo'nalishi] – kemaning ro'para (qarshi) dan kelayotgan kemaga qarama-qarshi yo'nalishi; **kontrataka** [*fr.* contre-attaque – qarshi hujum] – himoyalanuvchi qo'shinlarning hujum qilayotgan dushmanning hujumini qaytarish maqsadidagi qarshi hujumi; **kontratip** [kontra…+…tip] – kino sanoatida film nusxalarini ommaviy tayyorlash uchun foydalaniladigan negativ nusxa; **kontratsepsiya** [*lot.* contraceptio – homiladorlikdan saqlanish] – mexanik, kimyoviy va boshqa bo'yida bo'lishga qarshi vosita va usullar bilan homiladorlikning oldini olish; **kontrmanyovr** [kontr...+ manyovr] – dushman manyovrlariga qarshilik ko'rsatish maqsadida amalga oshiriladigan harakatlar; **kontrtitul** [kontr...+ titul] – yirik, muhim va ko'p jildli nashrlarda dastlabki sahifaning chap tomonida joylashgan qo'shimcha titul (sarvaraq); asosiy titul, odatdagiday, sahifaning o'ng tomonida bo'ladi.

KOPR(O)... [*yun.* kopros – tezak, najas, axlat] – o'zlashma qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, shu so'zlarning axlat, najasga, uyatli, bo'lmag'ur nutqqa aloqadorligini bildiradi. Mas.: **kopremezis, koprofagiya, koprofemiya, koprolagniya, koproporfirin, koprosterin; koprofaglar** [kopro...+...fag] – hayvonlar (asosan, sutemizuvchilar) tezagi bilan oziqlanadigan jonzotlar: kamtukli chuvalchanglar, go'ngxo'r qo'ng'izlar, ikki qanotli hasharotlarning qurtlari; **koprogramma** [kopro…+…gramma] – najasni tekshirish natijalarini yozish; **koprolaliya** [kopro...+…laliya] – ruhiy kasallarning o'z nutqida haqoratomuz, hayosiz so'zlar, uyatli iboralarni muntazam ravishda ishlatishi; **koprolit** [kopro...+...lit] – qazib topilgan umurtqalilarning toshqotgan tezagi (shakliga qarab uning qaysi hayvonga tegishli ekanligi haqida xulosa chiqarish mumkin); **koprologiya** [kopro...+...logiya] – ichakdagi kasalliklar va gijjalarni aniqlash uchun najasni mikroskop orqali tekshirish; **koprostaz** [kopro…+…staz] – yo'g'on ichakda najasning uzoq muddat tutilib qolishi.

KORON(O)..., KORONAR(O)... [*lot.* corona – toj; gulchambar; coronarius – tojga oid] – o‘zlashma qo‘shma va yasama so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, tojga, Quyosh tojiga, toj tomirlarga aloqadorlikni bildiradi. Mas.: **koronar** (tomirlar; yetishmovchilik)**; koronaroskleroz, koronarospazm, koronarotromboz; koronarit** [koronar...+...it] – yurak toj arteriyalarining yallig‘lanishi; **koronarografiya** [koronaro...+...grafiya] – toj (koronar) tomirlar holatini turli maxsus asboblar yordamida o‘rganish; **koronarografiya** [korono...+...graf] – Quyosh tojini o‘rganish uchun mo‘ljallangan teleskop; **koronovirus** [koron(o)...+ *lot.* virus – zahar] – halokatli o‘tkir yuqumli kasallik tarqatuvchi virus.

KORTIK(O)... [*lot.* cortex (corticis) – po‘st, po‘stloq] – o‘zlashma qo‘shma va yasama so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, bosh miya, buyrakusti po‘sti (po‘stlog‘i) ma’nolarini anglatadi. Mas.: **kortikalizatsiya, kortikoesteroma, kortikosteron, kortikotropin, kortizol; kortikal** [*lot.* cortex – po‘st] – bosh miya po‘stiga, uni tarkib toptiruvchi moddaga oid; **kortikosteroidlar** [kortiko...+... oid] – buyrakusti bezlari po‘stlog‘ida hosil bo‘ladigan steroid gormonlar; **kortikosteroma** [kortiko...+ ster(eo)...+ ...oma] – buyrakusti bezi po‘st qavatining gormonal o‘smasi; **kortizon** [*lot.* cortex – po‘st] – hayvon va odamlar buyrakusti bezi ishlab chiqaradigan gormon; kortikosteroidlar guruhiga kiradi.

KOSM(O)... [*yun.* kosmos – koinot] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, koinot, olam ma’nolarini bildiradi. Mas.: **kosmizm, kosmobiologiya, kosmofizika, kosmograf, kosmografiya, kosmolog, kosmonavt, kosmopolit, kosmopolitizm, kosmovideniye; kosmik** [< kosmos] – kosmosga, koinotga, unda mavjud narsalarga oid; uni o‘rganish uchun xizmat qiladigan (*kosmik apparat, kosmik kema*); **kosmodrom** [kosmo...+...drom] – sun’iy yo‘ldosh, kosmik kema va shu kabi kosmik apparatlarni uchirish uchun maxsus jihozlangan joy; **kosmogoniya** [kosmo...+...goniya] – kuzatilayotgan Koinotning barcha turdagi jismlari va ular sistemalarining paydo bo‘lishi va taraqqiyotini o‘rganuvchi fan; **kosmokimyo** [kosmo...+ kimyo] – kosmik jismlarning kimyoviy tarkibi, koinotda kimyoviy elementlarning tarqalish va taqsimlanish qonunlarini, kosmik moddalarning hosil bo‘lishida qo‘shilish va migratsiya jarayonlarini o‘rganadigan fan; **kosmologiya** [kosmo...+...logiya] – Koinotning tuzilishi va rivojlanishini hamda nisbiylik nazariyasi obyektlarini mavjud kuzatuv ma’lumotlariga asoslangan nazariy tadqiqotlar yordamida o‘rganuvchi fan; **kosmonavtika** [kosmo...+...navtika] – kosmik fazoga parvoz

qilish; turli xildagi kosmik apparatlardan foydalangan holda Koinotni va Yerdan tashqaridagi kosmik obyektlarni o‘rganishni ta’minlaydigan fan va texnika sohalari majmuyi; **kosmonim** [kosm(o)…+…onim] – onimlarning bir turi; kosmik kenglik hududi, galaktikalar, yulduzlar tizimi (turkumi) kabilarning atoqli nomi; **kosmonimiya** – kosmonimlar yig‘indisi; **kosmos** [*yun.* kosmos – koinot] – Koinot – Yer atmosferasidan tashqarida cho‘zilib ketgan, o‘zida mavjud bo‘lgan barcha obyektlarni ham qamrab olgan fazo.

KRANI(O)... [*yun.* kranion – kalla suyagi] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning kalla suyagiga aloqadorligini anglatadi. Mas.: **kraniodisplaziya, kraniofaringoma, kranioklast, kranioklaziya, kraniometr, kraniostenoz, kraniotomiya; kranial** [krani(o)…+…al] – kalla suyagiga, kallaga yaqin a’zolarga oid, aloqador; **kraniografiya** [kranio...+ ...grafiya] – kraniologiyada keyinchalik o‘rganish maqsadida kalla suyaklarining kontur va tasvirlarini yaratish; **kraniologiya** [kranio...+...logiya] – anatomiyaning butun kalla suyagi hamda alohida qismlarining turli shakl va o‘lchamlarini o‘rganuvchi bo‘limi; **kraniometriya** [kranio...+...metriya] – kraniologiya ehtiyojlari uchun kalla suyagining katta-kichikligini o‘lchash; **kranioskopiya** [kranio…+...skopiya] – antropologiyada: kalla suyagini vizual o‘rganish; **kraniotabes** [kranio…+ *lot.* tabes – oriqlash; holdan ketish] – raxit natijasida kalla suyaklarining, ayniqsa, ensa suyagining yumshab qolishi.

...KRAT, ...KRATIYA [*yun.* kratos – hokimiyat] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismlari bo‘lib, oliy hokimiyat, hukmronlik, boshqaruv ma’nolarini ifodalaydi. Bunda -**kratiya** terminelementi muayyan boshqaruv tizimi yoki shakli va u haqdagi nazariyalar, ta’limotlar nomini, jamlovchi otlarni hosil qilsa, -**krat** terminelementi ana shu tizim, nazariyalar vakillari, tarafdorlarini bildiruvchi shaxs otlarini yasaydi. Mas.: **avtokrat – avtokratiya, byurokrat – byurokratiya, meritokratiya, oxlokratiya, partokrat – partokratiya, texnokrat – texnokratiya; aristokrat** [*yun.* aristos – oliy, eng yaxshi +...krat] – aristokratiya vakili, oliy nasabli kishi; **aristokratiya** [*yun.* aristos – oliy, eng yaxshi +...kratiya] – 1) jamiyatning oliy, imtiyozli qatlami; boylar va asilzodalar; 2) hokimiyat asilzodalar, zodagonlar qo‘lida bo‘lgan davlat boshqaruvi shakli; **demokrat** [demo...+...krat] – demokratiya vakili; demokratik partiya a’zosi; **demokratiya** [demo...+...kratiya] – fuqarolar erkinligi va tengligi konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan, xalq hokimiyatining shakllari amalda o‘rnatilgan va yuzaga chiqarilgan siyosiy tuzum; xalq hokimiyati; **plutokratiya** [*yun.* plutos – boylik +...kratiya] – siyo-

siy hokimiyat rasman va amalda plutokratlar – jamiyatning eng boy kishilari qo‘lida bo‘lgan davlat tuzumi.

KREAT... [*lot.* creatio – yaratish] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, yaratish ma’nosini ifodalaydi. Mas.: **kreativlik, kreatura; kreatsionizm** [kreatsio(n)...+...izm] – turlarning o‘zgarmasligi, tirik organizmlarning muayyan maqsadda xilma-xil qilib yaratilganligi to‘g‘risidagi g‘ayriilmiy diniy ta’limot.

KRED... [*lot.* credo – ishonaman] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, ishonaman, ishonch degan ma’nolarni bildiradi. Mas.: **kreditor, kredo; kredit** [*lot.* creditum – qarz < credo – ishonaman] – pul mablag‘lari, tovar va xizmatlarni kelishilgan ustama (foiz) to‘lab qaytarib berish sharti bilan ma’lum muddatlarga qarzga berish.

KREM... [*lot.* cremare – yoqmoq, kuydirmoq] – o‘zlashma yasama so‘zlar tarkibida kelib, shu so‘zlarning yoqish, kuydirish jarayoniga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **krematoriy** [*lot.* crematorium – yoqish joyi] – krematsiya amalga oshiriladigan, maxsus jihozlangan qurilma (o‘choq) yoki bino; **krematsiya** [*lot.* crematio – yoqish, kuydirish] – jasadni yuqori temperaturali maxsus pechda (o‘choqda) kuydirish, shuningdek, ayrim xalqlar urf-odatiga ko‘ra jasadni gulxanda yoqish.

KRIMIN(O)... [*lot.* crimen (criminis) – jinoyat] – o‘zlashma qo‘shma va yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning jinoyat va jinoyatchilikka aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **kriminal** (ot va sifat)**, kriminalizatsiya, kriminolingvistika, kriminolog; kriminalist** [*lot.* criminalis – jinoiy, jinoyatga oid +...ist] – kriminalistika, ba’zan jinoyat huquqi mutaxassisi; **kriminalistika** [*lot.* criminalis +...istika] – jinoyatga doir sud dalillarini yig‘ish, qayd qilish, tadqiq etish va ulardan foydalanish, jinoyatlarni fosh qilish va oldini olishning maxsus usul va vositalari tizimini ishlab chiquvchi fan; **kriminalitet** [kriminal…+…itet] – ashaddiy jinoyatchilar to‘dasi; jinoiy muhit; **kriminogen** [krimino…+…gen] – jinoyatlar kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi, qonun buzilishini yuzaga keltiruvchi; **kriminologiya** [krimin(o)...+...logiya] – jinoyatchilikni, uning sabablarini, jinoyatchining shaxsini o‘rganuvchi, shuningdek, jinoyatlarning oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiquvchi fan.

KRIO... [*yun.* kryos – sovuq, muz] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning sovuqqa, past haroratga va muzga alo-

qadorligini bildiradi. Mas.: **krioapplikatsiya, krioekstraksiya, krioelektronika, kriogenika, kriokimyo, kriokoagulyatsiya, kriolit, kriopeksiya, krioskop, krioskopiya, kriostat, kriotron, krioturbatsiya; kriobiologiya** [krio…+ biologiya] – biologiyaning past va o‘ta past temperaturalarning jonli tuzilmalariga ta’sirini o‘rganuvchi bo‘limi; **kriofillar** [krio...+...fil] – nisbatan past haroratda (qor, muz ustida, muzli suvda) yashay oladigan mikroorganizmlar; **kriofitlar** [krio...+...fit] – sovuq va quruq joylarda o‘suvchi, alp o‘tloqlari va tundra o‘simlik qoplamini hosil qiluvchi o‘simliklar; **kriogen** [krio…+…gen] – past temperaturalarga oid, aloqador (*kriogen texnika*); **kriogenez** [krio…+…genez] – kriosferada sodir bo‘ladigan va muz hosil bo‘lishi bilan birga kechadigan fizikaviy, kimyoviy va boshqa jarayonlar yig‘indisi; **kriologiya** [krio...+...logiya] – kriosfera to‘g‘risidagi fan; **kriosfera** [krio...+ ...sfera] – Yerning atmosfera, gidrosfera va litosferaning o‘zaro issiqlik ta’siri zonasidagi uzuq-uzuq (uzlukli), muz mavjud bo‘lgan yoki borligi ehtimol tutilgan qobig‘i; **krioterapiya** [krio...+...terapiya] – sovuq bilan davolash; yallig‘lanish jarayonlarida, qon ketishda og‘riqni qoldirish uchun biror a’zoni muzlatmaydigan (mo‘tadil) darajada sovitish; **krioxirurgiya** [krio...+ *yun.* cheirourgia < cheir – qo‘l + ergon – ish, amal] – xirurgiya (jarrohlik) da to‘qimalarni haddan ortiq sovitish (muzlatish) ga asoslangan davolash usuli.

KRIPT(O)... [*yun.* kryptos – maxfiy, yashirin] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, yashirin narsa, harakat yoki holat, maxfiylik ma’nolarini anglatadi. Mas.: **kriptalar, kriptit, kriptodepressiya, kriptofoniya, kriptogamlar, kriptogenlar, kriptokokkoz, kriptokristall, kriptologiya, kriptomeriya, kriptomneziya, kriptozoy; kriptofitlar** [kripto...+ ...fit] – yangilanish (qayta o‘sish) kurtaklari chuqur tuproq yoki suv ostida ildizmeva, piyozchalar shaklida bo‘lgan ko‘pyillik o‘t o‘simliklar; **kriptoftalm** [kript(o)…+ *yun.* ophthalmos – ko‘z] – ko‘z soqqasi va qovoqlarning tug‘ma o‘smay qolishi; **kriptografiya** [kripto...+...grafiya] – faqat xabardorlargina tushunadigan, biladigan, oldindan kelishilgan belgilarga asoslangan maxfiy yozuv usuli**; kriptogramma** [kripto...+...gramma] – maxfiy belgilar bilan yozilgan, mazmunini faqat xabardorlargina biladigan xat, hujjat; **kripton** [*yun.* kryptos – yashirin] – Mendeleyev davriy sistemasining VIII guruhiga mansub kimyoviy element; inert gaz; **kriptonim** [kript(o)…+…onim] – maxfiy nom; yashiriladigan, maxfiylashtirilgan har qanday atoqli nom; **kriptorxizm** [kript(o)…+ *yun.* orchus – moyak, tuxum] – tug‘ma yetishmovchilik; moyakning o‘z o‘rniga tushmaganlik holati, moyakning bittasi yoki ikkitasining yorg‘oqda bo‘lmay, qorin orqasi bo‘shlig‘ida qolishi.

KSANT(O)... [*yun.* xanthos – sariq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning sariq rangga aloqador ekanligini bildiradi. Mas.: **ksantelazma, ksantin, ksantinoksidaza, ksantinuriya, ksantoeritrodermiya, ksantogenatlar, ksantomatoz, ksantoprotein, ksantoreya; ksantofillar** [ksanto...+...fill] – *q.* **fill(o)..., ...fill; ksantoma** [ksant(o)...+ ...oma] – ko‘z qovoqlari va boshqa joylarda limonga o‘xshash sariq rangdagi mayda toshmalar paydo bo‘lishi; **ksantopsiya** [ksant(o)...+...opsiya] – ayrim kasalliklarda va zaharlanishlarda narsa-buyumlarning odam ko‘ziga sariq bo‘lib ko‘rinishi; **ksantoxromiya** [ksanto...+ *yun.* chroma – rang, bo‘yoq] – terining yoki orqa miya suyuqligining sarg‘ish rangda bo‘lishi.

KSEN(O)... [*yun.* xenos – begona] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, begona ma’nosini ifodalaydi. Mas.: **ksenobiotiklar, ksenokeratoplastika, ksenolaliya, ksenotransplantatsiya; ksenofobiya** [kseno...+...fobiya] – ruhiy kasalliklarda: notanish, begona kishilardan qo‘rqish; **ksenogamiya** [kseno...+...gamiya] – bir o‘simlik gulining shu turdagi boshqa o‘simlik gulchangi bilan changlanishi; chetdan changlanish; **ksenolitlar** [kseno...+...lit] – magmatik jinsda undan mineralogik tarkibi jihatdan keskin farq qiluvchi yot siniq (parcha) larning qo‘shilishi; **ksenon** [*yun.* xenos – yot, begona] – Mendeleyev davriy sistemasining VIII guruhiga mansub kimyoviy element; inert gaz; **ksenoparazit** [kseno...+ parazit] – organizmga chetdan kirib qolgan begona parazit; **ksenoplastika** [kseno...+ plastika] – odamga yoki biron hayvonga boshqa hayvondan to‘qima yoki a’zo ko‘chirib o‘tkazilishi.

KSER(O)... [*yun.* xeros – quruq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, quruq degan ma’noni bildiradi. Mas.: **kseroderma, kseroform, kserogenlar, kserokopiya, kseromorfizm, kseroradiografiya, kseroradiogramma; kserodermiya** [ksero...+...dermiya] – teri ustki qavatining qurib qolishi va mayda qipiq chiqarib turishidan iborat teri kasalligi; **kserofillar** [ksero...+...fil] – suvsiz, qurg‘oqchil yerlarda yashashga moslashgan hayvonlar; **kserofitlar** [ksero...+...fit] – quruq (suvsiz) yerlarda o‘sadigan, qurg‘oqchilikka chidamli o‘simliklar; **kseroftalmiya** [kser(o)...+ *yun.* ophthalmos – ko‘z] – ko‘z shilliq va muguz qavatining qurib qolishi (organizmda A vitamini yetishmasligidan); **kserografiya** [ksero...+...grafiya] – yarimo‘tkazgichli materialda quruq elektrik zaryadlangan kukun bilan ochiltirib tasvir hosil qilish; **kseroks** [*yun.* xeros – quruq] – 1) kserografik elektrofototasvir apparati; 2) shu apparat yordamida olingan tasvir, nusxa; kserokopiya; **kserostomiya** [ksero...+...stomiya] – *q.* **...stomiya; kseroz** [kser(o)...+...oz] – terining yog‘ bezlari kamfaolligi natijasida paydo bo‘lgan quruqlik holati.

KSILO... [*yun.* xylon – kesilgan daraxt, yog‘och] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, daraxt, yog‘och ma’nolarini bildiradi. Mas.: **ksilidinlar, ksilit, ksilograf, ksilol, ksilometr, ksiloza; ksilema** [*yun.* xylon – yog‘och, taxta] – quruqlikda o‘sadigan o‘simliklarning suv va mineral tuzlarni ildizdan yuqoriga o‘simlik bo‘ylab o‘tkazuvchi to‘qimasi; **ksilofon** [ksilo…+…fon] – urma (zarbli) cholg‘u asbobi: to‘rtburchak asosga 4 qator qilib joylashtirilgan hamda xromatik tarzda sozlangan chorqirra yog‘och bo‘laklaridan iborat, yog‘och bolg‘achalar bilan urib chalinadi; **ksilografiya** [ksilo...+...grafiya] – 1) yog‘och o‘ymakorligi – yog‘och gravyurasining qadimdan keng tarqalgan turi; 2) shunday gravyuradan bosma usulda olingan tasvir, surat, rasm; **ksilolit** [ksilo...+...lit] – kaustik magnezit yoki dolomit kukuniga yog‘och qipig‘i, ishqorbardosh pigment va mayin dispers mineral moddalar aralashtirib tayyorlanadigan sun’iy qurilish materiali (yog‘och o‘rnida ishlatiladi).

...KULA, ...ULA [*lot.* -cula, -ula] – o‘zlashma yasama so‘zlar tarkibidagi kichraytish otlari yasaydigan qo‘shimchalar. Bu qo‘shimchalar bilan yasalgan ko‘plab otlardagi kichraytish ma’nosi deyarli sezilmaydi yoki yo‘qolgan. Mas.: **dentikula** (tishcha), **follikula** (xaltacha, qobiqcha); **formula** (qolipcha, kichkina shakl)**.** Qavs ichida mazkur so‘zlarning lotin tilidagi dastlabki ma’nolari ko‘rsatildi; **blastula** (murtakcha)**, gastrula** (qorincha)**, granula** (donacha)**, kapsula** (quticha)**, korpuskula** (tanacha, zarracha)**, kutikula** (tericha, bir parcha teri)**, menzula** (stolcha)**, molekula** (kichik massa)**, neyrula** (asab tolasi)**, pellikula** (bir parcha teri)**, pustula** (pufakcha)**, radikula** (ildizcha)**, retikula** (to‘rcha, kichkina to‘r)**, ventrikula** (qorincha), **vezikula** (pufakcha).

KUMUL... [*lot.* cumulus – uyum, to‘da; ko‘payish, yig‘ilish] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, to‘planish, yig‘ilish, ko‘payish ma’nolariga aloqadorlikni bildiradi. Mas.: **kumulyativ; kumulyatsiya** [*lot.* cumulatio – to‘planish, yig‘ilish] – ba’zi dori moddalar uzoq muddat qabul qilinganda, ularning organizmda to‘planib, ta’sir etish kuchining ortishi (salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin).

KUPR... [*lot.* cuprum (cyprum) – mis] – o‘zlashma yasama va qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning misga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **kuporoslar** [*fr.*couperose < *lot.* cuprum – mis + sulphur – oltingugurt] – temir, mis, nikel, ruh va boshqa ba’zi ikki valentli metallar sulfatlarining kristallogidratlari; **kuprit** [kupr...+...it] – qizil mis rudasi; mis (I) oksiddan iborat mineral; **kuproyodargirit** [kupr(o)…+ yod + *lot.* argentum – kumush]

– kumush yodid va misdan iborat sariq rangli mineral; **kuprum** [*lot.* Cuprum] – misning kimyoviy formulalarni o‘qish paytida aytiladigan nomi.

KUR(S)... [*lot.* currere – yugurmoq, shoshib chopmoq; cursare – tez-tez, u yoq-bu yoqqa yugurmoq] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibidagi asosiy so‘z (o‘zak) bo‘lib, yugurish, tez yurish ma’nolarini bildiradi. Mas.: **kurs** [*lot.* cursus – yugurish, harakat < currere – yugurmoq] – 1) kema, samolyotning harakat yo‘nalishi; 2) muayyan fan yoki uning alohida bir qismining to‘liq bayoni; oliy yoki o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida ta’limning yillik bosqichi; **kursiv** [*nem.* Kursiv < *lot.* cursivus – yuguruvchi] – o‘ngga qiyshaytirilgan tipografiya shrifti; ayrim kichik harflari qo‘lyozma harflariga o‘xshab ketadi; **kursograf** [kurs(o)…+…graf] – kema kursi (yo‘nalishi) ni avtomatik tarzda yozib olishga mo‘ljallangan navigatsion asbob; **kursor** [*ingl.* cursor – ko‘rsatkich < *lot.* cursor – chopar, tez yuguruvchi; chavandoz] – kompyuter monitoridagi vertikal yoki gorizontal shtrix shaklida bo‘lgan harakatchan belgi; **kuryer** [*fr.* courrier < *lot.* currere – yugurmoq] – 1) tezkor topshiriqlar bilan joylarga borish, diplomatik pochtani yetkazib berish bilan shug‘ullanuvchi mansabdor shaxs; 2) muassasaning ish qog‘ozlarini tarqatuvchi xodimi (chopari).

KURV(I)... [*lot.* curvus – egri, qiyshiq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, egri ma’nosini ifodalaydi. Mas.: **kurvatura; kurvimetr** [kurvi...+...metr] – topografik chizmalar, xaritalar va grafik hujjatlarda egri yoki ilonizi chiziqlar uzunligini o‘lchaydigan asbob.

KUT... [*lot.* cutis – teri] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, teri ma’nosini ifodalaydi. Mas.: **kutikula** [*lot.* cuticula – bir parcha teri] – hayvonlarda epiteliy hujayrasining ochiq sirtini qoplab turadigan pishiq qavat; o‘simliklarda epidermisni qoplab turuvchi yupqa sirtqi parda; **kutin** [*lot.* cutin – po‘st, qobiq] – o‘simlik barglari epidermisi ajratib chiqaradigan, barg yuzasidagi suvning yo‘qolishiga to‘sqinlik qiluvchi mumsimon modda.

KVADR(I)... [*lot.* quadra – to‘rtburchaklik] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning 4 soni bilan aloqadorligini bildiradi. Mas.: **kvadr, kvadrillion, kvadriporez, kvadrirema, kvadrivium, kvadro; kvadrant** [*lot.* quadrans – to‘rtdan bir, chorak qism] – 1) doiraning to‘rtdan bir qismi, choragi; 2) Quyosh va umuman yulduzlarning ufqdan balandligini, ular orasidagi burchak masofalarni o‘lchash uchun qo‘llangan qadimiy astronomik asbob; **kvadrat** [*lot.* quadratus – to‘rt burchakli] – 1) tomonlari teng bo‘lgan to‘g‘ri burchakli to‘rtburchak; 2) sonning ikkinchi darajasi – biror sonning

o‘z-o‘ziga ko‘paytmasi; **kvadratura** [*lot.* quadrature – kvadrat shakl berish] – muayyan figura yuzasi (sirti) ning kvadrat birligi bilan ifodalangan kattaligi, **kvadriga** [*lot.* quadriga] – antik davrda to‘rtta ot bir qator qilib qo‘shilgan ikki g‘ildirakli jang yoki poyga aravasi; aravakash uni tik turgan holda boshqargan; **kvadriplegiya** [kvadri...+...plegiya] – ikki qo‘l, ikki oyoqning falaji; tetraplegiya; **kvadrupol** [kvadr(u)...+ *yun.* polos – o‘q; qutb, maydon] – ishoralari musbat va manfiy, miqdor jihatdan bir xil bo‘lgan zaryadlarning kvadrat shakl uchlariga ketma-ket joylashishidan tashkil topgan sistema.

KVAL(I)... [*lot.* qualis – qanday, qanday sifat va belgiga ega] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, qanday, qanday sifat va belgiga ega degan ma’nolarni bildiradi. Mas.: **kvalitativ; kvalifikatsiya** [*fr.* qualification < *lot.* quails – qanday sifatli +...fikatsiya] – 1) biror predmet yoki hodisaning sifatini aniqlash, uning biror toifa, guruhga mansubligini belgilash; 2) biror-bir mehnat turiga tayyorgarlik, yaroqlilik darajasi; 3) kasb-hunar sohasi, mutaxassislik; **kvalimetriya** [kvali...+...metriya] – mahsulot sifatini miqdoriy baholash usullarini o‘rganuvchi va amaliyotda qo‘llovchi fan sohasi; **kvalitet** [*lot.* qualitas – sifat] – detal tayyorlashda dopusk (qo‘yim) ning qiymatini belgilovchi aniqlik xarakteristikasi.

KVANT... [*lot.* quantum – qancha, nechta] – o‘zlashma qo‘shma so‘z va birikmalarning tarkibiy qismi bo‘lib, qancha, nechta degan ma’nolarni anglatadi. Mas.: **kvantitativ, kvantlash, kvantorlar; kvant** [*nem.* Quant – miqdor, massa < *lot.* quantum] – zamonaviy fizikaning biror fizik kattalikning diskret (uzlukli) tabiatga ega ekanligini tavsiflovchi va uning eng kichik qiymatini ko‘rsatuvchi asosiy tushunchasi; ***kvant evolyutsiya*** [*lot.* quantum + evolyutsiya] – yirik taksonlar (oila, turkum, sinf va b.) ning shakllanishida evolyutsiyaning yuqori izchilligini tushuntiruvchi konsepsiya; ***kvant mexanika*** – nazariy fizikaning juda kichik zarra (elementar zarra, atom, molekula) ning harakat qonunlarini o‘rganuvchi bo‘limi; **kvantifikatsiya** [kvant(i)...+ ...fikatsiya] – sifatiy belgilarning miqdoriy ifodalanishi, o‘lchanishi; **kvantometr** [kvant(o)...+...metr] – sanoat miqyosida spektral analiz o‘kazishga mo‘ljallangan ko‘p kanalli fotoelektrik qurilma.

KVART... [*lot.* quarta, quartus – to‘rtinchi; chorak, to‘rtdan bir] – o‘zlashma qo‘shma, yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, to‘rt, to‘rtinchi, chorak degan ma’nolarni bildiradi. Mas.: **kvarta, kvartal** (reja)**, kvarternionlar, kvartsekstakkord; kvartal** – 1) shaharning bir qancha (odatda, to‘rtta) o‘zaro kesishuvchi ko‘chalar bilan chegaralangan bir qismi; 2) yilning to‘rtdan

biri, choragi, ya'ni uch oy; **kvartet** [*ital.* quartetto < *lot.* quartus] – 1) to'rt sozanda (yoki xonanda) dan iborat ansambl; 2) to'rt sozanda, ba'zan to'rt xonanda uchun yozilgan musiqa asari; **kvartira** [*nem.* Quartier < *lot.* quartarius – chorak, to'rtdan bir] – katta binoning ko'pincha bir oilaga mo'ljallangan, bir yoki bir necha xona, oshxona va boshqa yordamchi bo'lmalardan iborat bo'ladigan alohida yashash joyi.

KVAZI... [*lot.* quasi – go'yo, xuddi] – o'zlashma qo'shma so'zlarning birinchi qismi bo'lib, soxta, yolg'on, go'yo, deyarli, yaqin degan ma'nolarni ifodalaydi. Mas.: **kvazarlar, kvazielastik, kvaziizotropiya, kvazimorfema, kvazistatik, kvaziyulduz, kvazichiziq; kvaziimpuls** [kvazi…+ impuls] – impulsga o'xshash va kvazizarraning kristall panjarada, qatlamli muhitda va boshqa davriy sistemalardagi holatini harakterlovchi vektor kattalik; **kvazioptika** [kvazi…+ optika] – radiofizikaning millimetrli va submillimetrli elektromagnit to'lqinlarni ishlab chiqarish va ularni ma'lum sharoitlarda tarqalishini o'rganuvchi bo'limi; **kvazistatsionar** [kvazi...+ *lot.* stationarius – doimiy, o'zgarmas]: ***kvazistatsionar jarayon*** – muayyan chegaralangan sistemada juda katta tezlikda tarqalayotgan jarayon bo'lib, bunda jarayon tarqalayotgan vaqt ichida sistema holati o'zgarmay qoladi; **kvazizarralar** [kvazi...+ zarra] – kondensatlanuvchi (bir holatdan ikkinchi holatga o'tuvchi) muhitlar (qattiq jism, suyuq geliy) ning elementar uyg'onishlari.

KVINT... [*lot.* quintus – beshinchi] – o'zlashma yasama so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, shu so'zlarning 5 soni bilan aloqadorligini bildiradi. Mas.: **kvintessensiya, kvintillion; kvinta** [*lot.* quinta – beshinchi, beshdan bir] – 1) diatonik gammaning beshinchi pardasi va barcha besh pardani qamrab oluvchi oraliq; 2) skripkaning birinchi, eng yuqori (ingichka) tori; **kvintet** [*ital.* quintetto < *lot.* quintus] – 1) besh sozanda (yoki xonanda) dan iborat ansambl; 2) besh sozanda, ba'zan besh xonanda uchun yozilgan musiqa asari.

KVOT... [*lot.* quot – qancha] – o'zlashma yasama so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, qancha ma'nosini ifodalaydi. Mas.: **kvota** [*lot.* quota – har bir kishiga to'g'ri keladigan qism, hissa < quot] – 1) umumiy ishda ishtirok etuvchilarning har biriga to'g'ri keladigan hissa, qism, pay; 2) muayyan davr uchun tovarlarni ishlab chiqarish, iste'mol, sotish, eksport, import va boshqa iqtisodiy faoliyat sohalarida joriy qilinadigan miqdoriy cheklashlar.

L

LABI... [*lot.* labia, labium – lab; labialis – labga oid] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarning labga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **labial** (tovush)**; labializatsiya** [*lot.* labialis – labga oid +...izatsiya] – nutq tovushlarini lablarni cho‘chchaytirib talaffuz qilish; **labiodental** [labi(o)...+ *lot.* dens (dentis) – tish]: ***labiadental tovushlar*** – pastki lab yuqorigi old tishlar bilan yaqinlashganda hosil bo‘ladigan lab-tish undosh tovushlari (mas., **v, f**).

LABOR... [*lot.* labor – mehnat, ish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, mehnat qilish, ishlash degan ma’nolarni anglatadi. Mas.: **laborant** [labor...+...ant] – laboratoriyalar, ilmiy bo‘limlarda ishlovchi ilmiy yoki texnik xodim; **laboratoriya** [*lot.* laborare – ishlayman +...oriya] – ilmiy muassasa, korxona, o‘quv yurti tarkibida ilmiy tekshirishlar, tajribalar, amaliy va o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazish uchun kerakli apparat va asboblar bilan jihozlangan mustaqil muassasa yoki uning bo‘limi hamda ular joylashgan bino.

...LAGNIYA [*yun.* lagneia – shahvoniy ehtiros] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shahvoniy ehtiros, uni turli jinsiy buzuqliklar bilan qondirish ma’nolarini bildiradi. Mas.: **allolagniya** [allo...+ ...lagniya], **kleptolagniya** [klepto...+...lagniya], **koprolagniya** [kopro...+...lagniya], **urolagniya** [uro...+...lagniya] – bular turli xil jinsiy buzuqliklar orqali shahvoniy hirsni qondirish usullaridir; **algolagniya** [algo...+...lagniya] – shahvoniy buzuqlik: o‘zida og‘riq his qilish va o‘zga shaxs (partnyor) tanasini og‘ritish bilan jinsiy qo‘zg‘alish va qoniqishga erishish.

LAKT(O)... [*lot.* lactis – sut] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning sutga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **laktaza, laktoalbumin, laktobakterin, laktobatsillin, laktobutirometr, laktoflavin, laktogen, laktoglobulin, laktotsitlar, laktozuriya; laktatsiya** [lakt...+...atsiya] – ayollar va urg‘ochi sutemizuvchi hayvonlarning sut bezlarida sut hosil bo‘lishi, yig‘ilishi va vaqti-vaqti bilan ajralib chiqishi; **laktobatsillalar** [lakto...+ *lot.* bacillum – tayoqcha] – sut kislota hosil qiladi-

gan bakteriyalarning bir turi; sut mahsulotlari olishda va sut kislota ishlab chiqarishda ishlatiladi; **laktodensimetr** [lakto…+ densi…+…metr] – sutning quyuq-suyuqligi va solishtirma og‘irligini o‘lchaydigan asbob; **laktogenez** [lakto…+…genez] – sut bezining sekretor hujayralaridan sut hosil bo‘lish jarayoni; **laktometr** [lakto...+...metr] – sutning yog‘lilik darajasini o‘lchovchi asbob; **laktoskop** [lakto…+…skop] – sutdagi yog‘ miqdorini aniqlaydigan asbob; **laktoterapiya** [lakto...+...terapiya] – ma’lum sxema bo‘yicha teri ostiga yoki mushak orasiga sterillangan sutni yuborish hamda sut ichirish orqali ba’zi kasalliklarni davolash**; laktoza** [lakt(o)…+…oza] – sut qandi – glyukoza va galaktoza qoldiqlaridan hosil bo‘lgan disaxarid, saxarozaga nisbatan uncha shirin emas; faqat sutemizuvchilar va odam sutida bo‘ladi.

...LALIYA [*yun.* lalia – so‘zlash, nutq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, so‘zlash, gapirish, nutqqa aloqadorlikni anglatadi. Mas.: **dislaliya, exolaliya, koprolaliya, ksenolaliya, palatolaliya, paralaliya; alaliya** [a…+…laliya] – bosh miyadagi nutq zonalarining to‘liq rivojlanmaganligi yoki shikastlanishi oqibatida nutqning yo‘qolishi yoki cheklanganligi; **bradilaliya** [bradi…+…laliya] – nutqning sekinlashishi: bunda kasal ko‘pincha so‘z bo‘g‘inlarini bo‘lib-bo‘lib talaffuz qiladi; **onomatolaliya** [onomato…+…laliya] – so‘z, nomlarni tovush chiqarib, xayolda takrorlashga ishtiyoq; **palilaliya** [pali(n)…+…laliya] – so‘nggi bo‘g‘inni yoki jumladagi oxirgi so‘zni beixtiyor takrorlash, ba’zan esa qayta-qayta, holdan toyguncha takrorlash; **rinolaliya** [rino…+…laliya] – dimog‘ (burun) bilan gapirish; manqalik; qattiq tanglay nuqsoni oqibati sifatida namoyon bo‘ladi; rinofoniya; **taxilaliya** [taxi…+…laliya] – bidirlab tez-tez gapirish, so‘zamollik.

LALO... [*yun.* lalia – so‘zlash, gapirish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning so‘zlashga, nutqqa aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **lalofobiya** [lalo...+...fobiya] – duduqlarning so‘zlashdan qo‘rqishi (tortinishi), so‘zlamaslikka harakat qilishi; **lalopatiya** [lalo...+...patiya] – ba’zi kasalliklar sababli to‘g‘ri gapira olmaslik, ayrim tovushlarni talaffuz eta olmaslik; nutqning buzilishi; **laloplegiya** [lalo...+...plegiya] – so‘zlashda ishtirok etuvchi mushaklarning falajlanishi oqibatida nutqning buzilishi.

LAN(O)... [*lot.* lana – jun] – o‘zlashma qo‘shma so‘zning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zning junga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **lanolin** [lan(o)...+ ol(eo)...+...in] – hayvon juni, qo‘y junini yuvganda olinadigan sarg‘ish yog‘simon modda.

LAMIN... [*lot.* lamina – plastinka; yassi, taram-taram jism] – o‘zlashma yasama va qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, plastinka (yassi qattiq jism), qat-qat, taram-taram narsa ma‘nolarini bildiradi. Mas.: **laminar** (oqim, oqish), **laminatsiya; laminariya** [*lot.* lamina] – eni 0,5 metr, uzunligi 5 metr va undan ortiq qalin yassi qatlamga ega bo‘lgan qo‘ng‘ir suvo‘tlar turi; **laminator** [*lot.* lamina] – qog‘oz, karton, faner, taxtadan yasalgan buyumlar, shuningdek, guvohnomalar, muqovalar sirtiga ularning uzoq vaqt buzilmay, eskirmay saqlanishi uchun yuqori harorat ostida shaffof plyonka – polimer modda qoplash uchun mo‘ljallangan qurilma, mexanizm; **laminektomiya** [lamin…+…ektomiya] – umurtqa suyagi sinib, orqa miyani ezib qo‘yganda yoki orqa miyada o‘sma paydo bo‘lganda jarrohlik yo‘li bilan orqa umurtqa suyagini yorib, orqa miyani ochish.

LAPAR(O)... [*yun.* lapare – qorin, ichki qism] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, qorin, biror narsaning ichki qismi degan ma’nolarni anglatadi. Mas.: **laparoskop, laparotsentez; laparoskopiya** [laparo...+...skopiya] – *ayn.* ***peritoneoskopiya***: qorin devorini teshib, unga kiritilgan maxsus endoskop (laparoskop) yordamida qorin bo‘shlig‘idagi a’zolarni ko‘zdan kechirib tekshirish usuli; **laparotomiya** [laparo...+...tomiya] – qorin bo‘shlig‘ini yorib ko‘rishdan iborat jarrohlik operatsiyasi.

LARING(O)... [*yun.* laryngos – hiqildoq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning hiqildoqqa aloqadorligini anglatadi. Mas.: **laringalizatsiya, laringofarinks, laringofissura, laringoftizis, laringografiya, laringolog, laringorragiya, laringoskleroz, laringoskop, laringospazm, laringostenoz, laringostomiya, laringotsele; laringalgiya** [laring(o)…+…algiya] – hiqildoq og‘rig‘i; **laringit** [laring(o)...+...it] – hiqildoq (tomoq) ning yallig‘lanishi; **laringoektomiya** [laringo...+...ektomiya] – hiqildoqni butunlay kesib olib tashlashdan iborat jarrohlik operatsiyasi; **laringofaringit** [laringo…+…faring(o)…+…it] – hiqildoq va yutqin (halqum) shilliq pardasining baravar yallig‘lanishi; **laringofon** [laringo…+…fon] – hiqildoqqa tegib turadigan qilib bo‘yinga taqiladigan, hiqildoq boylamlari va tog‘aylarining mexanik tebranishlarini elektr tebranishlarga aylantiradigan elektr asbob, mikrofonning bir turi; **laringologiya** [laringo...+...logiya] – otorinolaringologiyaning bir bo‘limi: hiqildoqning anatomiyasi, fiziologiyasi va kasalliklarini, shuningdek, kasallik diagnostikasi, davolash va oldini olish usullarini o‘rganadi; **laringoplastika** [laringo…+…plastika] – hiqildoqning zararlangan joyiga boshqa joyidan tog‘ay, mushak, teri yoki shilliq qavatni olib o‘tkazish-

dan iborat plastik operatsiya; **laringoskopiya** [laringo...+...skopiya] – hiqildoqni maxsus asbob – laringoskop yordamida ogʻiz boʻshligʻi orqali tekshirish usuli; **laringotomiya** [laringo…+…tomiya] – hiqildoqni jarrohlik yoʻli bilan kesib olish; **laringotraxeit** [laringo...+...traxe(o)...+...it] – hiqildoq va kekirdak shilliq qavatining bir vaqtda oʻtkir yoki surunkali yalligʻlanishi.

LAT... [*lot.* latus – keng, katta] – oʻzlashma qoʻshma soʻzning tarkibiy qismi boʻlib, keng, katta kabi maʼnolarni ifodalaydi. Mas.: **latifundizm; latifundiya** [*lot.* latifundium < latus + fundus – yer-mulk, amlok] – katta yer-mulk.

LATER(O)... [*lot.* lateralis – yon, yondan] – oʻzlashma qoʻshma soʻzlarning tarkibiy qismi boʻlib, yon, yonbosh maʼnolarini bildiradi. Mas.: **laterofleksiya, lateroversiya; lateral** [*lot.* lateralis] – yondagi, tananing oʻrta sathidan chetda joylashgan; **bilateral** [bi...+ lateral]: ***bilateral undosh*** – talaffuz qilinganda tilning uchi qoʻzgʻalmas aʼzoga taqalib, havo oqimi tilning ikki tomonidan oʻtadigan undosh tovush; **laterofobiya** [latero…+…fobiya] – miyaga oʻrnashib qolgan qoʻrquv: bemorning yonboshga yotishga qoʻrqishi; **lateropulsiya** [latero...+ *lot.* pulsus – zarba, urish] – parkinson kasalligiga xos belgi; bemor yon tomondan asta turtib yuborilganda, uning bir tomonlama yurib ketishi.

...LATRIYA [*yun.* latreia – xizmat qilish, hurmatlash, sajda qilish] – oʻzlashma qoʻshma soʻzlarning ikkinchi tarkibiy qismi boʻlib, biron-bir predmetga sigʻinish, topinish, sajda qilish maʼnolarini bildiradi. Mas.: **astrolatriya** [astro…+…latriya] – koʻplab qadimgi xalqlarda: yulduzlarga, sayyoralarga va boshqa osmon jismlariga sigʻinish, sajda qilish; **pirolatriya** [piro…+…latriya] – oʻtga, olovga sigʻinish; otashparastlik; **zoolatriya** [zoo…+…latriya] – animalizm – baʼzi dinlarda hayvonlarni hurmatlash, hayvonlarga sigʻinish.

LEG... [*lot.* lex (legis) – qonun; legitimus – qonuniy] – oʻzlashma yasama soʻzlarning tarkibiy qismi boʻlib, qonunga aloqadorlik maʼnosini ifodalaydi. Mas.: **legislatura, legistlar, legitimistlar; legal** [*lot.* legalis – qonuniy] – qonuniy, qonunga asosan, muvofiq; **legalizatsiya** [*lot.* legalis +…izatsiya] – legallashtirish, qonunlashtirish; legal, oshkor holga oʻtkazish, qonuniy tusga kiritish; **legitim** [*lot.* legitimus – qonuniy] – qonuniy, qonuniy huquqi boʻlgan, qonunga asoslangan; **legitimatsiya** [*lot.* legitimus – qonuniy +...atsiya] – muayyan huquq, vakolat va tashkilotlarning qonuniyligini tan olish yoki tasdiqlash.

LEKS..., LEKSIKO... [*yun.* lexis – so‘z, ibora; lexikos – so‘zga oid, lug‘aviy] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, so‘zga oid, lug‘aviy kabi ma’nolarni anglatadi. Mas.: **leksa, leksema, leksikograf, leksikolog, leksikostatistika; leksika** [leks...+...ika] – muayyan til tarkibiga kiruvchi so‘zlar yig‘indisi; biror muallif asarlarining lug‘at tarkibi; **leksikalizatsiya** [leksiko…+…izatsiya] – til elementining yoki elementlar birikmasi (so‘z birikmasi yoki gap) ning so‘zga, leksemaga aylanishi; **leksikografiya** [leksiko...+ ...grafiya] – lug‘at tuzish nazariyasi va lug‘at tuzish ishi, lug‘atshunoslik; **leksikologiya** [leksiko...+...logiya] – tilshunoslikning leksikani o‘rganuvchi bo‘limi; **leksikon** [*yun.* lexikon – lug‘at] – ma‘lum bir kishining so‘z va iboralari zaxirasi; biror ijtimoiy qatlam yoki muayyan faoliyat sohasiga mansub umumiste’moldagi so‘zlar zaxirasi.

LEKT... [*lot.* lectio – o‘qish] – o‘zlashma yasama so‘zlarning o‘zak qismi bo‘lib, shu so‘zlarning o‘qish bilan aloqadorligini bildiradi. Mas.: **lektor; leksiya** [*lot.* lectio – o‘qish] – oliy o‘quv yurtlarida yoki omma orasida biror mavzu yuzasidan og‘zaki bayon tarzidagi mashg‘ulot, ma’ruza; **lektoriy** [*lot.* lectorium < lekt...+...oriy] – ommabop ma’ruzalarni tashkil etuvchi muassasa, tashkilot; ma’ruzalar o‘tkaziladigan xona, bino.

...LEMMA [*yun.* lemma – yupqa po‘st, parda, qobiq; membrana] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, yupqa po‘st, qobiq, parda ma’nolarini bildiradi. Mas.: **aksolemma, plazmolemma, sarkolemma; miolemma** [mio…+…lemma] – mushak hujayralari (ko‘ndalang-targ‘il mushak to‘qimasi) ning sirtqi pardasi; sarkolemma; **nevrolemma** [nevro…+…lemma] – miyelinli nerv tolalarini qoplaydigan bazal membrana, parda; **neyrilemma** [neyri…+…lemma] – nerv tolasining pardasi; **oolemma** [oo…+…lemma] – tuxumhujayra pardasi.

LEPID(O)... [*yun.* lepis, lepidos – tangacha] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, tangachasimon ma’nosini ifodalaydi. Mas.: **lepidin, lepidodendron, lepidolit, lepidolofa, lepidomelan, lepidometr, lepidosiren; lepidofitlar** [lepido...+...fit] – barg do‘mboqchalari va kertiklari tangachasimon, po‘stlog‘i naqshli bo‘lgan, ulkan doimyashil o‘simliklar; **lepidokrokit** [lepido...+ *yun.* kroke – ip, tola +...it] – gidroksidlar sinfiga oid mineral; tarkibi qatlamli, tangachasimon, tolasimon, bog‘lamsimon agregatlardan iborat bo‘ladi.

LEPR(O)... [*yun.* lepra – moxov] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning surunkali yuqumli kasallikka – moxovga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **leprolog, leproma, leproz; lepra** [*yun.* lepra – moxov] – faqat odamlarda uchraydigan, moxov tayoqchasi qo‘zg‘atadigan, butun organizmni, xususan, teri nerv sistemasi hamda ichki a’zolarni zararlaydigan surunkali yuqumli kasallik; **leprologiya** [lepro...+...logiya] – tibbiyotning moxov kasalligini tekshiruvchi va o‘rganuvchi bo‘limi**; leprozoriy** [*lot.* leprosus – moxovga yo‘liqqan +...oriy] – moxov bilan kasallanganlar yashashi va davolanishi uchun mo‘ljallangan shifoxona.

...LEPSIYA [*yun.* lepsis – egallash, tutish, xuruj] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, biror holatni egallash, biror kasalning tutishi, xuruji kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **betalepsiya, epilepsiya, frenolepsiya, neyrolepsiya, psixolepsiya; gipnolepsiya** [gipno…+…lepsiya] – vaqti-vaqti bilan paydo bo‘ladigan qisqa muddatli uyquga ketish xurujlari; **katalepsiya** [*yun.* katalepsis – o‘rab olish, egallash] – tana yoki oyoq-qo‘llarning tabiiy yoki berilgan holatda qotib qolishi; ixtiyoriy harakatlar qilish qobiliyatining yo‘qolishi bilan kechadi; **narkolepsiya** [narko…+…lepsiya] – to‘satdan boshlanib, qisqa muddat (yarim soatgacha) davom etadigan, oddiy uyqudan farq qilmaydigan uyqu xurujlari; narkolepsiya xurujlari turli xil noqulay vaziyatlarda tutib qolishi mumkin; **piknolepsiya** [pikno…+…lepsiya] – tutqanoq (epilepsiya)ning 11 – 12 yoshli bolalarda uchraydigan ko‘rinishi; kunda 15 – 150 marta ro‘y beradigan va har biri 5 – 60 sekundgacha davom etadigan bexosdan hushdan ketish shaklida namoyon bo‘ladi.

LEPT(O)... [*yun.* leptos – yupqa, tor; yumshoq, yengil] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, yumshoq, yupqa, nozik ma’nolarini bildiradi. Mas.: **leptonlar, leptospira, leptospirozlar; leptomeningit** [lepto...+ mening(o)...+...it] – bosh miya yumshoq pardasining yallig‘lanishi.

LEYK(O)... [*yun.* leukos – oq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning oq rangga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **leykemiya, leykinlar, leykobirikmalar, leykodistrofiya, leykogramma, leykokrat** (jinslar)**, leykoksan, leykoma, leykomiyelit, leykopatiya, leykopeniya, leykoplakiya, leykoplastir, leykoplastlar, leykopoez, leykotoksinlar, leykotrixiya, leykotroflar, leykotrombopeniya, leykotroplar, leykotsitogenez, leykotsitoz, leytsin, leytsit; leykoderma** [leyko...+...derma] – ba’zi teri kasalliklari, zaxm, shuningdek, ba’zi bir dorilarni qabul qilish natijasida teri pigmentining kamayishi yoki yo‘qolishi; **leykoensefalit** [leyko…+ ense-

fal(o)…+…it] – bosh miya oq moddasining yallig‘lanishi; **leykoliz** [leyko…+ …liz] – oq qon tanachalarining erib ketishi; **leykonekroz** [leyko…+ nekr(o)…+ …oz] – 1) miya oq to‘qimasi (nerv tolalari) ning o‘lishi; 2) to‘qima yoki biror qismining qonsizlanib o‘lishi natijasida uning oq tusga kirishi; **leykonixiya** [leyk(o)…+ onix(o)…+…iya] – tirnoq kasalligi: tirnoqlarda oq dog‘lar paydo bo‘lishi; **leykosarkoma** [leyko…+ sark(o)…+…oma] – yosh to‘qimalardan paydo bo‘ladigan, tez o‘sadigan xavfli o‘sma; **leykotomiya** [leyko...+...tomiya] – miyaning peshona qismidagi oval markazdan oq moddani kesib olib tashlash operatsiyasi; **leykotsitlar** [leyko...+...sit] – oq qon tanachalari – qonning o‘lik hujayralar, bakteriyalar va boshqa yot jismlarni yo‘q qiluvchi va antitanalar ishlab chiqaruvchi rangsiz sharsimon hujayralari; **leykouriya** [leyko…+ …uriya] – leykotsitlarning siydik bilan ko‘plab chiqishi; **leykoz** [leyk(o)...+ ...oz] – leykemiya, oq qon kasalligi; qonda oq qon tanachalari – leykotsitlarning haddan tashqari ko‘payib, qizil qon tanachalari – eritrotsitlarning kamayib ketishi.

LIBER... [*lot.* libera – ozodlik] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning ozodlikka, erkinlikka aloqadorligini bildiradi. Mas.: **liberalizatsiya, liberalizm, liberalinlar, libertinlar; liberal** [*lot.* liberalis – erkin, ozod; erkinlikka oid] – 1) erkin fikrli, hurfikr odam; o‘ta iltifotli kishi; 2) liberalizm tarafdori yoki liberal partiya a’zosi; **liberallashtirish** [*lot.* liberalis – erkin, ozod +...lashtirish] – mamlakat ijtimoiy hayotining barcha sohalarida keng erkinliklar berish; iqtisodiyotga va fuqarolar shaxsiy hayotiga davlat aralashuvini bekor qilish yoki kamaytirish.

LIG... [*lot.* ligo, ligatum – bog‘, bog‘lash, qo‘shish] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, bog‘lash, qo‘shish ma’nolarini bildiradi. Mas.: **liga, ligamentlar, ligandlar, ligazalar; ligatura** [*lot.* ligature – bog‘, bog‘lam] – 1) tibbiyotda qon tomirlar va boshqa kovak a’zolarni bog‘lash va tikish uchun qo‘llanadigan, operatsiyadan keyin jarohatda qoldiriladigan ip; 2) matbaada ikki yoki bir necha belgini qo‘shib yozish.

LIGN... [*lot.* lignum – daraxt, yog‘och] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, daraxt, yog‘och ma’nolarini bildiradi. Mas.: **lignifikatsiya; lignin** [lign...+...in] – tomirli o‘simliklarning hujayra qobiqlarida bo‘ladigan, ularni daraxtga (yog‘ochga) aylantiradigan organik polimer modda; **lignit** [lign...+...it] – yonuvchi foydali qazilma – qo‘ng‘ir ko‘mir qatlamlaridagi qisman ko‘mirlashgan, daraxt to‘qimasi tuzilishini o‘zida saqlagan yog‘och.

LIKV... [*lot.* liquor – suyuqlik] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, suyuqlik ma’nosini ifodalaydi. Mas.: **likvatsiya, likvidatsiya, likvidlik, likyor; likvid** [*lot.* liquidus – suyuq, oquvchan]: ***likvid mablag‘lar*** – qarz majbutriyatlarini qoplash uchun foydalanish mumkin bo‘lgan pul hamda tez, oson naqd pulga aylanadigan qimmatdor narsalar (veksellar va boshqa qimmatbaho qog‘ozlar); **likviditet** [*nem.* Liquidität < *lot.* liquiditos – suyuq holat] – bankning o‘z zimmasiga olgan majburiyatlari bo‘yicha to‘lov qobiliyatini ta’minlovchi aktiv operatsiyalari sistemasi; **likvor** [*lot.* liquor – suyuqlik] – odam va umurtqali hayvonlarda bosh va orqa miya bo‘shliqlarini to‘ldirib turuvchi, limfaga o‘xshash suyuqlik; **likvoreya** [likv(o)...+...reya] – kalla kosasining tabiiy teshiklaridan yoki kalla va umurtqa pog‘onasidagi shikastlangan joylardan orqa miya suyuqligining tashqariga oqishi.

LIMF(O)... [*lot.* lympha (limpha) – namlik, toza suv] – o‘zlashma tibbiy terminlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning limfa suyuqligi bilan aloqadorligini bildiradi. Mas.: **limfadenektomiya, limfadenoleykopoez, limfadenoma, limfadenomatoz, limfangiektaziya, limfangiendotelioma, limfangiosarkoma, limfangoflebit, limfatizm, limfedema, limfoblast, limfoblastoma, limfogen, limfogranuloma, limfogranulomatoz, limfomatoz, limfopeniya, limforragiya, limfosarkoma, limfotsitoz; limfa** [*lot.* lympha – toza suv, namlik] – hujayralar orasidagi bo‘shliqlar va limfa tomirlarini to‘ldirib turuvchi rangsiz, tiniq suyuqlik; **limfadenit** [limf(o)...+ aden...+...it] – limfa bezlarining yallig‘lanishi; **limfangioma** [limf(o)...+ angi(o)...+...oma] – limfa tomirlarining xavfsiz o‘smasi; **limfangit** [limf...+ angi...+...it] – limfa tomirlarining keskin yallig‘lanishi; **limfografiya** [limfo...+...grafiya] – limfa tomirlariga kontrast moddalar yuborib, ular holati, shakli va o‘tkazuvchanligini rentgenografiya qilish; **limfoma** [limf(o)...+...oma] – limfoid to‘qimaning mahalliy yallig‘lanish va ko‘payish reaksiyasi, bunda limfotsitlardan tashkil topgan tugunchalar hosil bo‘ladi; **limfopoez** [limfo...+...poez] – limfa hosil bo‘lishi; **limforeya** [limfo...+...reya] – limfaning tanadagi kesilgan joy yoki zararlangan limfa tomirlaridan atrof to‘qimalarga, bo‘shliqlarga oqishi; **limfostaz** [limfo...+...staz] – limfa tomirlarining siqilishi, bezlarda biriktiruvchi to‘qima o‘sishi natijasida limfa oqimining to‘xtab qolishi; **limfotsitlar** [limfo...+...sit] – donador bo‘lmagan leykotsitlarning bir shakli (rangsiz limfoid to‘qimalarda rivojlanadigan qon hujayralari).

LIMIT... [*fr.* limite < *lot.* limes (limitis) – chek, chegara] – ayrim o‘zlashma yasama va qo‘shma so‘zlarda chek, chegara ma’nolarini bildiradi. Mas.: **limitroflar; limit** [*fr.*limite] – 1) matematikaning muhim tushunchalaridan

biri; 2) biror narsaning cheklangan normasi, foydalanish uchun belgilangan chegaraviy chekli miqdor; cheklov; **limitatsiya** [limit...+...atsiya] – cheklash, chegaralash; limitlash; limitni joriy qilish yoki belgilash.

LIMN(O)... [*yun.* limne – ko‘l, hovuz] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, ko‘l, hovuz ma’nolarini anglatadi. Mas.: **limnobiontlar** [limno…+…biontlar] – ko‘llarda yashovchi o‘simliklar va jonivorlar; **limnofillar** [limno...+...fil] – ko‘llarda yashovchi o‘simlik va hayvonlar; limnobiontlar; **limnologiya** [limno...+...logiya] – ko‘lshunoslik – ko‘llar, ularning hosil bo‘lishi, ularda ro‘y beradigan fizik-kimyoviy va biologik jarayonlar haqidagi fan.

LIN(O)... [*lot.* linum – kanop, zig‘ir mato] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarning kanopga, qalin matoga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **linetol, linol, linoleatlar, linolen** (kislota)**, linotron; linkrust** [lin...+ *lot.* crusta – po‘st, qoplama] – qog‘oz asosdan tayyorlangan, yupqa plastmassa parda bilan qoplangan, bo‘rtma rasmli, rulon holidagi qurilish-pardozlash materiali; **linogravyura** [lino…+ gravyura] – tasvirlarni linoleum yoki boshqa plastik materialdan qilingan yassi bosma shakldan ko‘chirib olish va shunday usulda olingan tasvirning o‘zi; **linoleum** [lin...+ *lot.* oleum – moy] – nam o‘tkazmaydigan, polga qoplanadigan polimer material; **linon** [*fr.* linon < *yun.* linon – kanop] – oqartirilgan, juda yupqa, zich kanop mato (gazlama) turi.

LIO... [*yun.* lyo – eritaman] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, erish, eritish ma’nolarini anglatadi. Mas.: **liodermiya, liofillik, liofoblik, liotrop** (qator)**; liofiliya** [lio...+...filiya] – qattiq moddalarning unga yaqin turgan erituvchi bilan shiddatli ta’sirlashuv xossasi (ularning suyuqlik bilan yaxshi namlanishi); **liofilizatsiya** [lio…+ fil…+…izatsiya] – biomahsulotlarni saqlashda va ba’zi tibbiy preparatlarni yaratishda past temperatura va bosimda quritish (namini yo‘qotish) usuli; **liofobiya** [lio...+...fobiya] – qattiq moddalarning unga yaqin turgan erituvchi bilan kuchsiz ta’sirlashuv xossasi (ularning suyuqlik bilan kam, past namlanishi); **liotropiya** [lio...+...tropiya] – erigan moddalarning erituvchining turli fizik xossalariga ko‘rsatadigan ta’siri.

LIP(O)... [*yun.* lipos – yog‘] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, o‘zi qo‘shilgan so‘zlarda yog‘, moy ma’nosini ifodalashga xizmat qiladi. Mas.: **lipazalar, lipektomiya, lipidemiya, lipidlar, lipoblastoma, lipodermoid, lipodistrofiya, lipofibroma, lipofiliya, lipogenez, lipoidlar, li-**

poidoz, lipokefalin, lipomatoz, lipomiksoma, lipotrofiya, lipotrop (ta'sir)**, lipotsid, lipovaksina, lipoxondroma, lipoxrom; lipemiya** [lip(o)…+…emiya] – qonda yog‘ miqdorining ko‘payishi (ayrim kasallik va zaharlanishlarda kuzatiladi); **lipidlar** [lip(o)…+…id] – tirik organizm hayot faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan, barcha tirik hujayralar tarkibida bo‘ladigan yog‘simon moddalar; **lipofussin** [lip(o)…+ *lot.* fuscus – qora, qoramtir] – umurtqali hayvonlar va odamning deyarli barcha a'zolarida bo‘ladigan, holdan toydiruvchi kasalliklarda va keksalikda sitoplazmada to‘planadigan sarg‘ish-qo‘ng‘ir pigment; **lipokain** [lipo...+ *yun.* kaio – kuydiraman] – oshqozonosti bezining jigardagi yog‘ almashinuvini tartibga solib turuvchi gormoni; **lipoma** [lip(o)...+...oma] – yog‘ to‘qimasidan rivojlanadigan xavfsiz o‘sma; **lipoproteidlar** [lipo...+ proteid (murakkab oqsil)] – tarkibida oqsil (protein) va yog‘simon moddalar (lipidlar) bo‘lgan murakkab oqsillar; **liposarkoma** [lip(o)…+…sark(o)…+…oma] – xavfli lipoma: hajmi katta, to‘qimalari nekrozga uchragan va qon bilan to‘lgan o‘choqli o‘sma; **lipuriya** [lip(o)…+ …uriya] – yog‘ moddalarining siydik bilan chiqishi.

LIT(O)... [*yun.* lithos – tosh] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning toshga yoki toshga o‘xshashlikka aloqadorligini bildiradi. Mas.: **litofaniya, litofil** (elementlar)**, litograf, litolitiklar** (dori preparatlari)**, litoliz, litomuratsiya, litopon, litosiderit, litotamniyalar, litotriptor; litiaz** [lit…+…iaz] – siydik yo‘llarida tosh hosil bo‘lishi bilan bog‘liq kasallik; **litiy** [*lot.* Lithium < *yun.* lithos – tosh] – Mendeleyev davriy sistemasining I guruhiga mansub kimyoviy element; kumushrang ishqoriy metall; **litofitlar** [lito...+...fit] – tog‘ cho‘qqilarida va toshloq yerlarda o‘sadigan o‘simliklar; **litogenez** [lito…+…genez] – tektonik harakatlar va iqlim ta'siri ostida cho‘kma tog‘ jinslari hosil bo‘lish va keyingi o‘zgarishlar jarayonlarining majmuyi; **litoglifika** [lito...+ *yun.* glyphe – o‘yish, kesish; o‘yma] – toshtaroshlik, tosh o‘ymakorligi; **litografiya** [lito...+...grafiya] – bosma qolip tayyorlash uchun ohaktosh (litografik tosh), rux yoki alyuminiy varaqasidan foydalaniladigan tekis bosma usuli; **litologiya** [lito...+...logiya] – cho‘kindi tog‘ jinslari va hozirgi cho‘kindilar, ularning moddaviy tarkibi, tuzilishi, shakllanish va o‘zgarish qonuniyatlari hamda shart-sharoitlari haqidagi fan; **litosfera** [lito…+…sfera] – Yerning Yer po‘sti, mantiyaning yuqori qatlami, atmosferaning ustki chegarasidan iborat tashqi sferasi (qobig‘i); **litotomiya** [lito...+ ...tomiya] – bir qator a'zolarda paydo bo‘lgan tosh(lar)ni operatsiya yo‘li bilan olib tashlash; **litotripsiya** [lito…+ *yun.* thripsis – maydalash] – maxsus asbob – litotriptor yordamida buyrakdagi, siydik yo‘llaridagi, qovuqdagi toshni maydalab olib tashlash.

...LIT [*yun.* lithos – tosh] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning toshga yoki toshga o‘xshashlikka aloqadorligini bildiradi. Ushbu terminelement o‘zi qo‘shilgan so‘zlar bilan birgalikda: 1) Yer geologik tarixidagi, xususan, tosh asridagi bir-biridan muayyan farqlarga ega bo‘lgan katta-katta davrlarning nomlarini (**eneolit, mezolit, neolit, paleolit, protoneolit, xalkolit**); 2) tarkibida tosh yoki shunga o‘xshash qattiq modda bo‘lgan qurilish materiallari nomlarini (**gipsolit, ksilolit**); 3) minerallarning nomlarini (**kriolit, ksenolit, lepidolit, mikrolit, monolit, xrizolit)** va boshqa moddalar nomlarini (**kaprolit, odontolit**) hosil qiladi. Ba’zan -**liz** terminelementi bilan sinonim bo‘lgan -**lit** (*yun.* lytos – parchalanuvchi, ajraluvchi) terminelementi bilan omonimik munosabatda bo‘ladi (**elektrolitlar**).

LIZ..., ...LIZ [*yun.* lysis – parchalanish, yemirilish, erish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi va ikkinchi tarkibiy qismlari bo‘lib, moddalarning erishi, yemirilishi, parchalanishi kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: I. Birinchi tarkibiy qism sifatida: **lizatlar, lizimetr**, **lizin, lizogen, lizogeniya, lizol; lizimetr** [liz(is)...+...metr] – tabiiy sharoitga yaqin muhitda tuproqdan suv sizib o‘tganda sodir bo‘ladigan jarayonlarni o‘rganishga mo‘ljallangan qurilma; **lizis** [*yun.* lysis – parchalanish, erish] – 1) kasallikning asta-sekin tuzala borishi: yuqori haroratdagi gavda temperaturasi sekin pasayib, kasallikning boshqa belgilari ham yo‘qola boradi; 2) bakteriya hujayrasi yoki boshqa hujayralarning ferment, kislota, ishqor, immun moddalar ta’sirida erib yo‘q bo‘lishi; **lizogeniya** [liz(o)...+ *yun.* genia – kelib chiqish] – bakteriyalarning hujayrada alohida, yuqumsiz tuzilma – profag ko‘rinishida mavjud bo‘lgan ba’zi bakteriofaglar bilan simbiozi; **lizosomalar** [lizo...+ *yun.* soma – tana] – oqsillar, nuklein kislotalar, polisaxaridlarni parchalovchi fermentlarga ega bo‘lgan hujayra tuzilmalari; **lizotsim** [lizo...+ *yun.* zyme – xamirturush] – gidrolazalar sinfiga mansub oqsil modda (ferment), bakteriya hujayralari pardasini yemiradi. II. Ikkinchi tarkibiy qism sifatida. Mas.: **elektroliz, fotoliz, gistoliz, kataliz, plazmoliz, radioliz, sitoliz; gemoliz** [gemo...+...liz] – qizil qon tanachalari – eritrotsitlarning parchalanishi va undan gemoglobin hamda qon plazmasining paydo bo‘lishi; **gidroliz** [gidro...+...liz] – turli xil moddalar bilan suv o‘rtasidagi ion almashinish reaksiyasi; bunda murakkab modda ikki yoki undan ortiq yangi moddalarga parchalanadi; **leykoliz** [leyko...+ ...liz] – oq qon tanachalari (leykotsitlar) ning erib ketishi; **piroliz** [piro...+ ...liz] – kimyoviy birikmalarni qizdirib parchalash; **sitoliz** [sito...+...liz] – tirik hujayralarni to‘liq yoki qisman eritib parchalash.

LINGV(O)... [*lot.* lingua – til] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlar tarkibida kelib, o‘zi qo‘shilgan so‘z yoki qo‘shimcha bilan birga tilga, tilshunoslikka oid terminlar hosil qiladi. Mas.: **lingva, lingvist, lingvostatistika** (lingvistik statistika)**, linkos** [lingva + kosmos]; **lingafon** [*lot.* lingua +...fon] – tovushlar yoki so‘zlarni aniq eshitish va to‘g‘ri talaffuz qilishga yordam beradigan asbob, apparat; **lingvistika** [lingv…+…istika) – tilshunoslik – til haqidagi, uning ijtimoiy tabiati, vazifasi, ichki tuzilishi, tasnifi haqidagi, muayyan tillarning faoliyat qonunlari va tarixiy taraqqiyoti haqidagi fan; **lingvogeografiya** [lingv(o)…+ geografiya] – lingvistik geografiya – tilshunoslikning har bir alohida til hodisalarining hududiy tarqalishini o‘rganuvchi bo‘limi (uning o‘rganish obyekti sheva va lahjalardir); **lingvopapillit** [lingvo...+ *lot.* papilla – so‘rg‘ich +...it] – til so‘rg‘ichlarining yallig‘lanishi.

LOG(O)... [*yun.* logos – so‘z; tushuncha, ta’limot; fikr] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, so‘z, so‘zga aloqador ma’nolarini bildiradi. Mas.: **logograflar, logogrif, logokloniya, logoped, logoreya, logos, logoterapiya, logotip; logofobiya** [logo…+…fobiya] – kerakli so‘zlarni talaffuz qilish qobiliyatining buzilishidan qo‘rqish; **logogramma** [logo...+...gramma] – so‘z-bo‘g‘in yozuvlarida butun bir so‘zni yoki uning asosini bildiruvchi belgi; **logonevroz** [logo…+ nevroz] – nutq hosil qiluvchi a’zolar mushaklarining hurujli qisqarishi tufayli nutqning buzilishi, duduqlanish; **logopatiya** [logo...+...patiya] – nutqiy buzilishlarning (duduqlik, tili chuchuklik kabi) umumiy nomi; **logopediya** [logo...+...pediya] – defektologiyaning bir bo‘limi – eshitish me’yorda bo‘lgan holatda nutqning turli xil buzilishlarini o‘rganadi hamda ularning oldini olish va davolash usullarini ishlab chiqadi; **logoplegiya** [logo…+…plegiya] – nutq so‘zlash qobiliyatining butunlay yo‘qolishi.

...LOG [*yun.* logos – so‘z; tushuncha, ta’limot; fikr, munosabat] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, o‘zi qo‘shilgan so‘z bilan: 1) biror fan sohasi bilan shug‘ullanuvchi, shu fan va tarmoqni egallagan mutaxassis nomlarini (**arxeolog, biolog, geolog, ginekolog, glyatsiolog, ideolog, meteorolog, oftalmolog, radiolog, zoolog**); 2) so‘z, fikr, adabiy asarga aloqador tushunchalar, terminlarni (**dekalog, dialog, epilog, monolog, nekrolog**) bildiradi. Mas.: **ixtiolog** [ixtio…+…log] – baliqlarning tuzilishi, hayot kechirishi, rivojlanishi, tarqalishi va kelib chiqishini o‘rganuvchi olim, ixtiologiya mutaxassisi; **speleolog** [speleo...+...log] – g‘orlarning paydo bo‘lishi, ularning turli xil xususiyatlarini o‘rganuvchi olim, speleologiya mutaxassisi; **prolog** [*yun.* pro – old, old tomon +...log] – muqaddima so‘z; badiiy asarning kirish qismi.

...LOGIYA [*yun.* logos – so‘z; tushuncha, ta’limot] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, o‘zi qo‘shilgan so‘z bilan: 1) fan, nazariya, ta’limot, oqimlar nomlarini (**agrobiologiya, arxeologiya, biologiya, dendrologiya, etimologiya, geologiya, kriminologiya, leksikologiya, nozologiya, psixologiya, radiologiya, zoologiya**); 2) tarkibiy tuzilishi (qismlari) turlicha bo‘lgan adabiyot va san’at asarlari nomlarini (**dilogiya, tetralogiya**) hosil qiladi. Mas.: **glyatsiologiya** [glyatsio...+...logiya] – muzning paydo bo‘lishi, tarqalishi va xususiyatlarini o‘rganadigan fan; **oftalmologiya** [oftalmo...+...logiya] – tibbiyotning ko‘rish a’zolari anatomiyasi va fiziologiyasini hamda ko‘z kasalliklarini o‘rganuvchi, ularni tashxislash, davolash va oldini olish usullarini ishlab chiquvchi bo‘limi; **trilogiya** [tri...+...logiya] – bir muallifning yagona umumiy g‘oya, mazmun bilan bog‘langan uchta badiiy, musiqiy, rangtasvir yoki kino asari.

LOK... [*lot.* locus – joy] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning o‘rin, joy bilan aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **lokal, lokalizatorlar, lokativ, lokomobil, lokomotsiyalar; lokalizatsiya** [*lot.* localis – biror joyga oid, mahalliy +...izatsiya] – 1) biror narsaning ma’lum bir joyga bog‘liq deb bilish; 2) biron-bir voqea-hodisaning, jarayonning tarqalishini, kengayishini ma’lum bir chegarada to‘xtatish; uning tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslik; **lokator** [*lot.* locare – joylashtirmoq] – turli obyektlarning fazoda joylashish o‘rnini lokatsiya usuli bilan aniqlaydigan qurilma; **lokatsiya** [lok...+ ...atsiya] – turli obyektlarning turgan joyini ulardan qaytgan yoki tarqalgan tovush yoxud radioto‘lqinlar vositasida aniqlash; **lokomotiv** [*lot.* loco moveo – joyidan qo‘zg‘ataman] – temir yo‘llarda ayrim vagonlar yoki poyezdlarni tortib yurishga mo‘ljallangan transport vositasi (parovoz, teplovoz, elektrovoz); **lokus** [*lot.* locus – joy] – muayyan genning xromosomada joylashgan o‘rni.

LYUMEN..., LYUMIN(O)... [*lot.* lumen (luminis) – nur, yorug‘lik] – o‘zlashma qo‘shma, yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, xira yorug‘lik ma’nosini ifodalaydi. Mas.: **lyumiflavin, lyuminessent** (lampa)**, lyumixrom; lyumen** [*lot.* lyumen – nur] – nur oqimining o‘lchov birligi; **lyuminometr** [lyumen(o)...+...metr] – nur (yorug‘lik) oqimini lyumen ko‘rsatishlari bilan o‘lchashga mo‘ljallangan asbob; **lyuminessensiya** [lyumin...+ *lot.* escent – kuchsiz harakatni, ta’sirni ifodalovchi qo‘shimcha] – ba’zi moddalarning muayyan temperaturada ularning issiqlik nurlanishiga nisbatan kuchliroq bo‘lgan, yorug‘lik tebranishlari davridan ancha ortiq vaqt davom etadigan

(doimiy issiqlik nurlanishidan farqli) nurlanishi; **lyuminoforlar** [lyumino...+...for] – lyuminessensiya xossasiga ega bo‘lgan moddalar.

LYUTE... [*lot.* luteus – sariq, tillarang] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, sariq rang ma’nosini bildiradi. Mas.: **lyuteoma, lyutessens; lyutein** (hujayralar) [lyute…+…in] – yetilgan tuxum Graaf pufakchalaridan chiqqach, epitelial hujayralar o‘zgarishi natijasida ular ichida to‘planadigan sariq modda; ***lyutein hujayralar*** – sariq tananing tashqi qavatini hosil qiladigan epitelial bez hujayralari; **lyuteotrop** [lyute(o)...+...trop]: ***lyuteotrop gormon*** – laktogen gormon – gipofzining old bo‘lagi ishlab chiqaradigan va sutemizuvchilarda sut bezlarining rivojlanishiga, sut hosil bo‘lishiga va onalik instinktining shakllanishiga yordam beradi.

M

MAGNE(TO)..., MAGNIT(O)... [*yun.* magnetis – magnit] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, o‘zi qo‘shilgan so‘zlarning magnitga, magnit maydoniga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **magnetiklar, magnetit, magnetizm, magneton, magnetron, magnit, magnitoelastik, magnitoelektrik, magnitografiya, magnitogramma, magnitokardiografiya, magnitologiya, magnitometriya, magnitopauza, magnitoplastlar, magnitoradiola, magnitosfera, magnitostatika, magnitostriksiya; magneto** [*ingl.* magneto (electric machine)] – ichki yonish dvigatellarining silindridagi yonilg‘i aralashmasini o‘t oldirish uchun xizmat qiladigan elektromagnitli asbob; **magnetokimyo** [magneto…+ kimyo] – fizik kimyoning moddalarning kimyoviy tuzilishi va magnit xossalari orasidagi o‘zaro munosabatni, magnit maydonining kimyoviy birikmalarning reaksiyaga kirishish qobiliyatiga ta’sirini o‘rganadigan bo‘limi; **magnetoqarshilik** [magneto...+ qarshilik] – o‘tkazgichning magnit maydonidagi solishtirma elektr qarshiligining maydon yo‘qligidagi solishtirma qarshiligiga nisbatan o‘zgarishi; **magnitobiologiya** [magnito…+ biologiya] – biofizikaning tabiiy va sun’iy magnit maydonining tirik organizmlarga ta’sirini, yurak, miya, nervlar kabi a’zolar hosil qilgan magnit maydonini hamda biologik moddalarning magnitik xususiyatlarini o‘rganadigan bo‘limi; **magnitofon** [magnito...+...fon] – tovush (nutq, musiqa) ni magnit lentaga yozib olish va qayta eshittirish uchun mo‘ljallangan apparat; **magnitograf** [magnito...+...graf] – Yer magnit maydonining vaqt bo‘yicha o‘zgarishlarini uzluksiz qayd qilib boradigan asbob; **magnitola** – magnitofon va radiopriyomnikni bir qutiga birlashtirib ishlab chiqariladigan radiotexnika apparati; **magnitometr** [magnito...+...metr] – magnit maydoni xarakteristikalarini va fizik obyektlarning magnit xossalarini o‘lchash uchun mo‘ljallangan asbob; **magnitooptika** [magnit…+ optika] – fizikaning magnit maydoni ta’sirida muhitning optik xossalari o‘zgarishini o‘rganadigan bo‘limi; **magnitoterapiya** [magnito…+…terapiya] – bemor tanasiga magnit maydoni bilan ta’sir etishdan iborat fizioterapiya usuli.

MAKRO... [*yun.* makros – katta, ko‘p, uzun] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning yirik kattaliklar, o‘lchamlar, shakl-

lar, miqyoslar bilan aloqadorligini ko‘rsatadi (**mikro...** terminelementining aksi). Mas.: **makrobiologiya, makroblast, makrodontiya, makrodunyo, makroelement, makroesteziya, makroevolyutsiya, makrofaglar, makrofallos, makrofauna, makrofillar, makrofoniya, makrognatiya, makrokardiya, makrokefaliya // makrosefaliya, makrokinetika, makrokolon, makrokosm, makroko‘rsatkich, makrolandshaft, makrolitlar, makromeliya, makropodiya, makropodlar, makrorelyef, makrosistema, makroskopiya, makrosporalar, makrosporangiy, makrosporiozlar, makrosporofill, makrotasvir, makrotsefaliya, makrotsistis, makrotsitlar; makrodaktiliya** [makro…+ daktilo…+…iya] – qo‘l yoki oyoq barmoqlarining haddan tashqari uzun bo‘lishi – rivojlanish anomaliyasi; **makrogematuriya** [makro…+…gemato…+ uriya] – qon siyish; siydikda ko‘zga ko‘rinadigan qon bo‘lishi; **makroglossiya** [makro…+ gloss…+ …iya] – tilning mushaklar gipertrofiyasi natijasida tug‘ma yoki orttirilgan kattalashishi; **makroiqlim** [makro…+ iqlim] – yirik hududlar va suv havzalari (Yer, geografik mintaqa, qit’a, okean kabilar) iqlimi; **makroiqtisodiyot** [makro...+ iqtisodiyot] – bozor xo‘jaligi umumiy nazariyasining bir bo‘limi: mamlakat iqtisodiyoti, umuman, milliy xo‘jalikka oid katta miqyosdagi iqtisodiy hodisalar va jarayonlarni o‘rganadi; **makrokefallar // makrotsefallar** [makro...+ *yun.* kephale – bosh, kalla] – kallasi nomutanosib ravishda katta bo‘lgan odamlar; **makromastiya** [makro…+ mast(o)…+…iya] – sut bezlarining juda katta bo‘lishi; **makromolekula** [makro...+ molekula] – o‘zaro kovalent bog‘lar orqali birikkan, o‘n mingdan yuz mingtagacha atomlardan tuzilgan yirik molekula; **makronixiya** [makr(o)…+…onix(o)…+ …iya] – tirnoq sohasining patologik kattalashishi; **makropsiya** [makr(o)…+ …opsiya] – buyumlarning ko‘zga o‘z hajmidan bir necha marta katta bo‘lib ko‘rinishi: ko‘rish qobiliyatining buzilishi; **makroseysmik** [makro…+ seysm(o)…+…ik]: ***makroseysmik tebranishlar*** – zilzila paytida inson sezgi a’zolari tomonidan bevosita seziladigan yer silkinishlari (tebranishlari); **makroskopik** [makro...+...skop +...ik] – o‘lchamlari anchagina katta, oddiy ko‘z bilan, ya’ni mikroskop yordamisiz ko‘rsa bo‘ladigan; **makrosomiya** [makro…+ som…+…iya] – gavdaning katta bo‘lishi; **makrostruktura // makrotuzilma** [makro…+ struktura] – makrotuzilish – metall, qotishma, sopol, beton kabi materiallarning oddiy ko‘z bilan yoki lupalar orqali ko‘rinadigan tuzilishi; **makrotiya** [makr(o)…+…ot(o)…+…iya] – anomal rivojlanish: quloq suprasining o‘ta katta bo‘lishi; **makrotoponim** [makro…+…toponim] – keng qo‘llanuvchi, ommaviy mashhur yirik tabiiy-geografik obyektning atoqli nomi; **makroxeyliya** [makro…+ xeyl(o)…+…iya] – lablarning haddan tashqari katta, qalin bo‘lishi.

MAKSIM... [*lot.* maximum – eng ko‘p, eng katta] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, eng katta, eng yuqori daraja ma’nolarini anglatadi. Mas.: **maksimal, maksimalistlar; maksimalizm** [*lot.* maximum] – biror-bir talablar va fikrlarda me’yordan oshib ketish, haddan oshish; **maksimum** [*lot.* maximum] – eng ko‘p (katta) yoki chegaraviy miqdor (kattalik) ni, eng katta hajm, eng yuqori chegara, oliy darajani ifodalaydigan tushuncha.

MAKUL... [*lot.* maculare – dog‘ qilmoq, dog‘ tegizmoq, ifloslantirmoq] – o‘zlashma yasama so‘zlarda asosan dog‘; chiqindi, yaroqsiz qog‘ozlar ma’nosini bildiradi. Mas.: **makula, makulodistrofiya; makulatura** [*nem.* Makulatur < *lot.* maculare – ifloslantirmoq +...ura] – bosmaxona chiqindisi yoki, umuman, eski qog‘oz, karton, gazeta, yaroqsiz jurnal, kitob va boshqalar; **makulit** [*lot.* macula – dog‘ +...it] – ko‘z to‘r pardasi va tomirli pardasining sariq dog‘i sohasidagi yallig‘lanish; **makulopatiya** [makulo…+…patiya] – sariq dog‘ jarohatlarining umumiy nomlanishi.

MALAKO... [*yun.* malakion – mollyuska < malakos – yumshoq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlar tarkibida shu so‘zning mollyuskaga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **malakofiliya** [malako...+...filiya] – ayrim o‘simliklarning mollyuskalar (shilliqqurtlar) yordamida changlanishga moslanishi; **malakologiya** [malako...+...logiya] – zoologiyaning mollyuskalarni o‘rganuvchi bo‘limi; **malakoplakiya** [malako…+ *yun.* plakia] – ichi bo‘sh a’zolar shilliq qavatida chandiqlar hosil bo‘lishi.

MAMM(O)... [*lot.* mamma – ko‘krak; emchak] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, ko‘krak, emchak ma’nolarini anglatadi. Mas.: **mamilla, mammalogiya, mammogenez; mammaliologiya** [*lot.* mammalia – sutemizuvchilar +...logiya] – zoologiyaning sutemizuvchilarni o‘rganadigan bo‘limi; **mammografiya** [mammo...+...grafiya] – sut bezlarini rentgenologik o‘rganish (tekshirish).

...MAN [*yun.* mania – telbalik, shaydolik, ishqibozlik; mayl, qiziqish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi qismi bo‘lib, birinchi qismdan anglashilgan biror narsaning ashaddiy ishqibozi ma’nosini bildiradi. Mas.: **baletoman, erotoman, getman, grafoman, kofeman, meloman, toksikoman, shturman; biblioman** [biblio...+...man] – haddan tashqari kitobga, kitob to‘plashga mukkasidan ketgan shaxs; **kleptoman** [klepto…+…man] – o‘g‘rilikka ruju qo‘ygan, o‘zida o‘g‘rilikka mayl qo‘ygan odam (ruhiy kasalliklarda); **meloman** [melo…+…man] – kuy-qo‘shiqning ashaddiy ishqibozi; **narkoman**

[narko...+...man] – narkotik moddalar iste'mol qilishga ruju qo'ygan shaxs, narkomaniyaga yo'liqqan qishi.

MANGAN... [*lot.* manganum – marganes] – o'zlashma yasama so'zlar tarkibidagi asos so'z bo'lib, marganes ma'nosini ifodalaydi. Mas.: **manganatlar, manganit; manganin** [mangan...+...in] – misning marganes va nikel bilan yuqori elektr qarshilikka ega bo'lgan qotishmasi; **manganokonioz** [manga-n(o)...+ *yun.* konia – chang +...oz] – o'pkada marganesli chang keltirib chiqaradigan surunkali kasbiy kasallik.

...MANIYA [*yun.* mania – telbalik; mayl, ishtiyoq] – o'zlashma qo'shma so'zlarning ikkinchi qismi bo'lib, birinchi qism (so'z) dan anglashilgan narsani kuchli darajada sevish, unga intilish, moyillik, ishtiyoq, ishqibozlik (**andromaniya, anglomaniya, baletomaniya, bibliomaniya**) hamda shuning natijasida ruhiy kasallanish (**dromomaniya, erotomaniya, kokainomaniya, makromaniya, megalomaniya, metromaniya, mikromaniya, monomaniya, nimfomaniya, opiomaniya, toksikomaniya**) kabi ma'nolarni bildiradi. Mas.: **gallomaniya** [*lot.* Gallia – Fransiya +...maniya] – fransuzlarga aloqador barcha narsalarga (tili, adabiyoti, urf-odatlari kabi) qiziqish, havas qilish; **gidromaniya** [gidro...+...maniya] – ruhiy kasalliklarda: o'zini o'zi suvga tashlashga moyillik; **grafomaniya** [grafo...+...maniya] – foydasiz, keraksiz narsalar yozishga ruju qilishdan iborat kasallik; **kleptomaniya** [klepto...+...maniya] – ruhiy kasalliklarda o'g'rilikka ruju qo'yish; ruhiy kasallik tufayli o'zida o'g'rilikka moyillik sezish; **melomaniya** [melo...+...maniya] – musiqa, kuy-qo'shiqqa ashaddiy ishqibozlik; **narkomaniya** [narko...+...maniya] – narkotik moddalarga o'rganib qolish, ruju qo'yish; ularni vaqtincha yoki surunkali iste'mol qilish natijasida kelib chiqadigan kasallik; **nozomaniya** [nozo…+…maniya] – o'zini xilma-xil kasalliklarga yo'liqqani haqida atrofdagilarga ataylab aytib, shifokor qabuliga tez-tez qatnab turish, har xil dori-darmonlarni g'amlash va hokazo; **onomatomaniya** [onomato…+…maniya] – tasodifan o'qib qolgan, eshitgan ism, familiya; tashkilot, muassasa, shahar, qishloq nomlarini, e'lon, lavha va boshqalarni yod olishga yoki narsa-buyumlar nomini tovush chiqarib yoki ichida takrorlashga bo'lgan o'ta ishtiyoqmandlik; **piromaniya** [piro...+...maniya] – ruhiy kasalliklarda: o't qo'yishga, yondirishga to'satdan paydo bo'ladigan mayl, intilish.

MANO... [*yun.* manos – tig'iz bo'lmagan, siyrak] – o'zlashma qo'shma so'zning birinchi qismi bo'lib, zich, tig'iz bo'lmagan narsalarga aloqadorlik ma'nosini ifodalaydi. Mas.: **manometr** [mano...+...metr] – suyuqlik, gaz yoki bug'ning bosimini o'lchash uchu mo'ljallangan asbob.

MANU... [*lot.* manus – qo‘l] – o‘zlashma yasama va qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, qo‘lga aloqador, qo‘l bilan qilinadigan ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **manual** (ot: qo‘l klaviaturasi), **manual** (sifat: qo‘lda amalga oshiriladigan), **manipulyator, manuskript** (qadimiy qo‘lyozma)**; manikyur** [*fr.* manicure < *lot.* manus – qo‘l + curare – parvarish qilmoq] – qo‘l tirnoqlarini maxsus parvarishlash (qirqib, tekislab silliqlash, bo‘yash); **manipulyatsiya** [*fr.* manipulation < *lot.* manipulus – hovuch < manus – qo‘l] – 1) qo‘llarning ma’lum bir vazifani bajarish bilan bog‘liq harakati; 2) asosan, qo‘llarning chaqqonligiga asoslangan ko‘zboyloqchilik; 3) noqonuniy faoliyat; firibgarlik, qalloblik; **manufaktura** [manu...+ *lot.* facere – qilmoq, tayyorlamoq] – mehnat taqsimoti va qo‘l hunari texnikasiga asoslangan korxona.

MAR(E)... [*lot.* mare – dengiz] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarning dengizga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **marikultura, marina, marinizm; mareograf** [mare(o)...+...graf] – dengiz suvi sathi o‘zgarishlarini avtomatik tarzda uzluksiz qayd qilib boradigan asbob; **mareotit** [mare…+ ot…+…it] – cho‘milayotgan va suzayotgan kishi qulog‘ining tashqi eshitish yo‘liga suv kirishi natijasida bosim to‘satdan oshib ketib, ro‘y beradigan yallig‘lanishsimon kasallik; **marinist** [*ital.* marinista < *lot.* mare – dengiz] – dengiz manzaralari (marinalar) ni yaratuvchi rangtasvirchi rassom.

MARGIN... [*lot.* marginal – yonda, chetda joylashgan < *lot.* margo – hoshiya, chet, chegara] – o‘zlashma yasama so‘zlarda biror narsaning yonda, chetda joylashganligini anglatadi. Mas.: **marginal** (sifat), **marginallar; marginaliyalar** [*lot.* marginalis – chetdagi, hoshiyadagi < margo – chet, chegara] – kitob va qo‘lyozmalarning chetiga, hoshiyasiga qo‘yilgan qaydlar yoki belgilar; **marginoplastika** [margin(o)…+…plastika] – ko‘z milkini (hoshiyasini) yamash operatsiyasi.

MAST(O)... [*yun.* mastos – ko‘krak, siyna] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning ko‘krak kasalliklari bilan aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **mastodontlar, mastodonzavr, mastoidektomiya, mastoidotomiya, mastotsitoz; mastalgiya** [mast…+…algiya] – ko‘krak bezi og‘rig‘i; yana *q.* **mastodiniya; mastektomiya** [mast...+...ektomiya] – sut bezini butunlay olib tashlash operatsiyasi; **mastit** [mast…+…it] – ko‘pincha yangi tug‘gan ayollarda uchraydigan sut (ko‘krak) bezi yallig‘lanishi; **mastodiniya** [mast(o)…+ *yun.* odyne – og‘riq] – ko‘pincha klimaks boshlanishida ko‘krak bezi atrofida o‘z-o‘zidan og‘riq paydo bo‘lishi; **mastoidit** [mast…+…oid + …it] – quloq orqasidagi so‘rg‘ichsimon o‘siqchaning o‘tkir yallig‘lanishi; **mas-**

topatiya [masto...+...patiya] – sut bezi kasalliklari; **mastoptoz** [masto…+ …ptoz] – sut bezining o‘z og‘irligi ta’sirida shaklini yo‘qotishi, cho‘zilishi va pastga tushishi.

MATE... [*yun.* mathema – bilish, ilm, fan] – o‘zlashma terminlar tarkibida bilish, fan ma’nolarini bildiradi. Mas.: **matematika** [*yun.* mathematike < mathema – bilish, ilm] – obyektiv borliqdagi miqdoriy nisbatlar va fazoviy shakllarni o‘rganadigan, aniq mantiqiy mushohadalarga asoslangan fan.

MATRI... [*lot.* mater – ona] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, onaga (ayolga) aloqadorlik ma’nosini ifodalaydi. Mas.: **matriarxal, matriks, matrikula, matrimonial** (nikohga, er-xotinlikka oid), **matritsa, matronim; matriarxat** [matri...+ *yun.* arche – hokimiyat +...at] – ona (ayol) hukmronligi; ibtidoiy jamiyatning ilk davridagi, patriarxatdan oldingi ijtimoiy tuzum shakllaridan biri; **matrilokal** [matri...+ *lot.* localis – joyga oid]: ***matrilokal nikoh*** – matriarxat davrida er-xotin bo‘lgandan (nikohdan) so‘ng yangi oilaning xotin jamoasida yashashiga asoslangan nikoh; **matroklin** [matr(o)…+ *yun*. klino – og‘diraman, engashtiraman]: ***matroklin irsiylik*** – avlodlarda asosan ona (lik) organizmiga xos xususiyatlarning namoyon bo‘lishi.

MEDI... [*lot.* medium – o‘rta, o‘rtadagi, o‘rtacha; vosita; davolash] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, vosita, o‘rta, o‘rtacha kabi ma’nolarni anglatadi. Mas.: **medial** (o‘rtancha, o‘rtadagi), **medianta, mediastinit, mediastinografiya, mediastinoskop, mediastinotomiya, mediatizatsiya, mediatorlar** (biologiyada)**, medium, mediyevistika; mediana** [*lot.* mediana – o‘rtadagi] – uchburchakning bir uchi bilan unga qarama-qarshi tomonining o‘rtasini tutashtiruvchi kesma; **mediastinoskopiya** [*lot.* medinastinum…+…skopiya] – ko‘ks oralig‘i (umurtqa pog‘onasi bilan ko‘krak qafasi o‘rtasi) dagi a’zolarning maxsus asbob – mediastinoskop bilan tekshirish usuli; **mediastinum** [*lot.* mediastinum] – ko‘ks oralig‘i – o‘ng va chap o‘pkalar orasidagi a’zolar joylashgan ko‘krak qafasining o‘rta qismi; **mediator** [*lot.* mediator – vositachi] – xalqaro nizo, bahs va munozaralarda, janjallarda vositachilik qiluvchi shaxs, tashkilot yoki davlat; **mediatsiya** [*lot.* mediatio – vositachilik, o‘rtada turish] – xalqaro nizolarda, bahs-munozaralarda ushbu nizolar ishtirokchisi bo‘lmagan, uchinchi davlatning vositachiligi.

MEDIA [*ingl.* media < *lot.* medium – vositachi] – o‘zlashma qo‘shma va yasama so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, muloqot vositalari majmuyi, axborotning hosil bo‘lish o‘rni va uni yetkazish hamda qabul qilish usullari

ma’nosini bildiradi. Mas.: **mediaaloqa, mediabozor, mediajanr, mediajurnalistika, mediakompaniya, medialingvistika, medialoyiha, mediamakon, mediamuhit, mediapleyer, mediaprotsessor, mediasegment, mediastilistika, mediatur, mediavosita; mediamadaniyat** [media + madaniyat] – axborot taqdim etish va uni qabul qilish madaniyati, axborot bilan ishlashda insonning savodxonlik darajasi; **mediamahsulot** [media + mahsulot] – ommaviy axborot vositalari va media xodimlari tomonidan ishlab chiqilgan mahsulotlar, loyihalar (teleko‘rsatuv, radioeshittirish, rolik kabilar); **mediamatn** [media + matn] – media ko‘rinishi va janridagi matn; **mediasavodxonlik** [media + savodxonlik] – ommaviy axborot vositalari haqida muayyan bilim, malaka va ko‘nikmalarga egalik; **mediata’lim** [media + ta’lim] – ta’limning media va ommaviy axborot vositalari faoliyatini o‘rganuvchi sohasi; **mediatuzilma** [media + tuzilma] – ommaviy axborot berish bilan shug‘ullanuvchi tashkilot, muassasa yoki bo‘linma.

MEGA... [*yun.* megas – katta] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib: I. Biror narsa, hajm yoki miqdorning kattaligini, ko‘pligini bildiradi. Mas.: **megadunyo, megaduodenum, megakarioblast, megakariotsitlar, megalitlar, megapir, megarelyef, megarentgen, megasporalar, megasporangiy, megateriy; megafon** [mega...+...fon] – ovozni kuchaytirib beruvchi konussimon karnay; **megakolon** [mega...+ *yun.* kolon – yo‘g‘on ichak] – yo‘g‘on ichakning qisman yoki boshidan oxirigacha patologik kattalashuvi, kengayishi; **megantrop** [meg(a)…+…antrop] – yirik odamsimon, qazilma maymun; **megapolis** [mega...+ *yun.* polis – shahar] – *ayn. q.* **megalopolis; megaskop** [mega…+…skop] – zargarlar va kolleksiyachilarning mayda qimmatbaho toshlarni tekshirib ko‘rishga mo‘ljallangan optik asbobi; **megasporofillar** [mega…+ spor(o)…+…fill] – makrosporofillar – o‘simliklarning o‘zgargan barglari bo‘lib, ularda makrosporangiylar rivojlanadi. II. Muayyan fizik kattaliklar birliklarining million (10^6) marta kattalashtirilgan miqdorini ko‘rsatuvchi old qo‘shimcha. Mas.: **megakyuri, megaommetr // megommetr, megaparsek; megabayt** [mega...+...bayt] – kompyuterning milliondan bir axborot birligi; 1 **megagers** = 10^6 gs; 1 **megaom** = 10^6 om; 1 **megavatt** = 10^6 vt kabi.

MEGALO... [*yun.* megale – katta] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, katta, yirik ma’nolarini bildiradi. Mas.: **megaloblast, megalodermiya, megaloesteziya, megaloplankton, megaloplaziya, megalospleniya, megalotsit, megalotsitoz, megalozavrlar; megalodaktiliya** [megalo…+ daktil(o)…+…iya] – *ayn., q.* **makrodaktiliya; megaloglossiya**

[megalo…+ gloss…+…iya] – *ayn., q.* **makroglossiya; megalografiya** [megalo…+…grafiya] – g‘ayritabiiy alomat: yirik dastxat, yirik-yirik yozuv; **megalokefaliya // megalotsefaliya** [megalo...+ *yun.* kephale – kalla, bosh] – kallaning bosh istisqosisiz, bir me’yorda tekis (proporsional) kattalashuvi; **megalomaniya** [megalo...+...maniya] – ruhiy kasalliklarda: buyuklik maniyasi, o‘zining buyukligiga qat’iy ishonch; **megalopolis** [megalo…+ *yun.* polis – shahar] – megapolis – o‘zaro qo‘shma shaharlar va shahar tipidagi aholi maskanlarining qo‘shilib ketishi natijasida hosil bo‘lgan yirik shaharlar to‘plami; **megalopsiya** [megal(o)…+…opsiya] – *ayn., q.* **makropsiya.**

MELAN(O)... [*yun.* melas (melanos) – qora] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, qora, qoraymoq ma’nolarini anglatadi. Mas.: **melanoblast, melanoblastoma, melanodermiya, melanodontiya, melanokarsinoma, melanonixiya, melanopatiya, melanosarkoma, melanotropin, melanotsitlar, melanxolik; melanemiya** [melan…+…emiya] – qonda melaninning mavjudligi (melanomada); **melaninlar** [melan(o)...+ ...in] – odam, o‘simlik va hayvon to‘qimalarida keng tarqalgan to‘q jigarrang va qora pigmentlar; **melanizm** [melan(o)...+...izm] – muayyan turdagi hayvonlar o‘rtasida qora rangli organizmlarning ko‘plab tarqalishi; **melanodermiya** [melano…+…dermiya] – terida melanin pigmentining ko‘payib ketishi; **melanoma** [melan(o)...+...oma] – qora pigmentlar – melaninlarni ishlab chiqaradigan hujayralardan paydo bo‘luvchi, asosan, teri (ba’zan ko‘z to‘r pardasi, miya, shilliq pardalar) dagi xavfli o‘sma; **melanoz** [melan(o)…+…oz] – melanopatiya – melaninning haddan tashqari ko‘p bo‘lishi natijasida yuzaga kelgan patologik holat; **melanuriya** [melan…+…uriya] – melaninning siydik bilan ajralib chiqishi; **melanxoliya** [melan…+…xole…+…iya] – “qora safro” – savdoyilikning bir turi: ma’yuslik, dilgirlik, og‘riqli bosinqirash hamda organizm jismoniy va aqliy faoliyatining nihoyat darajada susayishi bilan ifodalanadi.

MELIOR... [*lot.* melior – eng yaxshi] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, tuzatish, yaxshilash ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **meliorativ, meliorator; melioratsiya** [*nem.* Melioration < *lot.* melioratio – yaxshilash] – yerlarning unumdorligini tubdan yaxshilashga qaratilgan tashkiliy-xo‘jalik, muhandislik va agrotexnik tadbirlar majmuyi.

MELO... [*yun.* melos – qo‘shiq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, o‘zi qo‘shilib kelgan so‘z bilan qo‘shiqqa, musiqaga aloqadorlikni ifodalaydi. Mas.: **melodeklamatsiya, melodika, melomaniya, melopeya, melos, melotipiya; melodiya** [melo...+ *yun.* ode – lirik qo‘shiq, kuylash] –

ma’lum musiqa asari, ashula, qo‘shiq hosil qiluvchi musiqiy tovushlar birligi, ohang; **melodrama** [melo...+ drama] – 1) musiqali-dramatik asar bo‘lib, unda dialog va monologlar musiqa bilan almashinib turadi yoki musiqa jo‘rligida ijro qilinadi; 2) dramaturgiya janri – o‘tkir ishqiy sarguzashtlar, yaxshilik bilan yomonlikning keskin qarama-qarshiligi, o‘ta kuchli his-hayajonlar tasvirlangan pyesa; **meloman** [melo...+...man] – qo‘shiq yoki musiqaning ashaddiy muxlisi, shaydosi.

MEMOR... [*lot.* memoria – xotira] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, esda tutish, xotira ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **memorial** (xotira yozuvi)**, memuar** (asar)**, memuarist, memuaristika; memorandum** [*lot.* memorandum – eslashga arziydigan, eslash kerak bo‘lgan narsa] – 1) biror davlatning diplomatik yozishmalar orqali hal qilinadigan masalalar mohiyatini o‘z nuqtayi nazaridan batafsil bayon qilib yozgan diplomatik hujjati; 2) biror masala yuzasidan batafsil bildirishnoma, xizmat ma’lumotnomasi; **memorial** [*lot.* memorialis – xotira yozuvi; xotiraga oid]: ***memorial lavha*** – xotira yozuvi bitilgan metall, marmar, granit taxta; yodgorlik; **memuarlar** [*fr.* memoires – esdaliklar < *lot.* memoria] – hujjatli adabiyot turi – davr va odamlar haqidagi esdaliklar.

...MEN, ...MAN [*ingl.* man, *nem., goll.* man – odam, kishi] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismlari bo‘lib, o‘zi qo‘shilgan birinchi so‘z anglatgan sohada, joyda faoliyat yurituvchi shaxs nomini bildiradi. Mas.: **biznesmen, ombudsmen, rekordsmen, sportsmen, supermen; kongressmen** [*ingl.* congressman] – AQShda parlament (kongress) vakillari quyi palatasining a’zosi; **polismen** [*ingl.* policeman] – Buyuk Britaniya, AQSh va boshqa bir qator mamlakatlarda politsiyachi; **yaxtsmen** [*ingl.* yachtsman] – yelkanli sport bilan shug‘ullanuvchi sportchi; yaxta ekipaji a’zosi; **shoumen** [*ingl.* showman – masxaraboz; sirk egasi] – shoular – tomoshabop tadbirlar tashkilotchisi (yetakchisi). Shu terminelementning nemis va golland tillariga mansub -**man** varianti kema va kemada suzish bilan aloqador shaxslar nomini hosil qiladi. Mas.: **botsman** [*goll.* bootsman < boot – qayiq, kema +...man] – kemada kichik komandirlar tarkibidagi lavozim – paluba jamoasining bevosita boshlig‘i; **flagman** [*nem.* Flaggeman, *goll.* vlagman – bayroqdor] – 1) flot yoki eskadra komandiri; 2) komandir joylashgan va uning bayrog‘i ko‘tariladigan kema; **lotsman** [*goll.* loodsman] – mahalliy suzish sharoitlarini yaxshi bilgan, muayyan hudud chegaralarida kemalarni olib boruvchi mutaxassis.

MEN(O)... [*yun.* men – oy] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlar tarkibida kelib, oy ma’nosini ifodalashga xizmat qiladi. Mas.: **menometrorragiya, menopauza, menoreya, mensis; menarxe** [men(o)...+ *yun.* arche – boshlanish, ibtido] – birinchi bor hayz boshlangan vaqt, muayyan vaqt oralig‘ida takrorlanib turadigan hayzning boshlanishi; **menofobiya** [meno...+...fobiya] – hayz yoki hayz bilan bog‘liq noxushliklardan qo‘rqish; **menorragiya** [meno...+ ...rragiya] – hayz vaqtida har safargidan ko‘ra ko‘proq va uzoqroq qon ketishi; **menstruatsiya** [*lot.* menstruus – oyma-oy, har oyda] – balog‘at yoshiga yetgan, balog‘at yoshidagi ayollar va qizlar bachadonidan muntazam ravishda (har 21 – 30 kunda) qonli ajralmalar kelib turishi; hayz.

MENING(O)... [*yun.* meninx, meningos – miya qobig‘i, pardasi] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlar tarkibidagi asos so‘z bo‘lib, miya qobig‘i, miya pardasi ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **meningizm, meningokoksemiya, meningomiyelit, meningoradikulit, meningoradikulonevrit; meningioma** [meningi...+...oma] – bosh va orqa miya pardalaridan o‘sib chiqadigan xavfsiz o‘sma; odatda, xavfsiz bo‘lsa ham, xavfli o‘smaga aylanib ketishi mumkin; **meningit** [mening(o)...+...it] – bosh miya va orqa miya pardalarining bakteriyalar, viruslar keltirib chiqaradigan yiringli yoki seroz yallig‘lanishi; **meningoensefalit** [meningo...+ ensefal(o)...+...it] – bosh miyaga o‘tadigan miya pardalarining yallig‘lanishi; **meningokokklar** – *q.* **...kokk(lar); meningotsele** [meningo...+...sele] – bosh miya yoki orqa miya churrasi.

...MENT [*lot.* -ment] – so‘z yasovchi qo‘shimcha. So‘z asosiga qo‘shilib, narsa-qurol otlarini hosil qiladi. Mas.: **assortiment, departament, dokument, fragment, parlament, postament, reglament, sortament, sortiment; abonement** [*fr.* abonnement] – biron narsadan ma’lum muddatga foydalanish huquqi va shu huquqni tasdiqlovchi hujjat; **fundament** [*lot.* fundamentum – asos, poydevor] – biror bino devori; inshoot, dastgoh va shu kabilarning pastki, mustahkam qismi; poydevor; **monument** [*lot.* monumentum – xotira belgisi; haykal] – biror tarixiy voqea yoki buyuk shaxs sharafiga qo‘yilgan katta haykal yoki me’moriy inshoot; **ornament** [*lot.* ornamentum – bezak, naqsh < ornare – bezamoq] – ritmik tartibga solingan geometrik shakllar, o‘simlik va hayvon elementlari tasvirlaridan iborat bo‘yoqli o‘yma yoki chizma naqsh, bezak; **temperament** [*lot.* temperamentum – (qismlarning) mutanosibligi, teng o‘lchamliligi] – 1) kishining o‘ziga xos tabiati, xulq-atvori; 2) kishi organizmining o‘ziga xos talabi.

MER(O)... [*yun.* meros – ulush, hissa, qism] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarda hissa, qism ma’nolari borligini ko‘rsatadi. Mas.: **merozigota; merokrin** [mero...+ *yun.* krino – ajrataman]: ***merokrin bezlar*** – sekret chiqarayotgan hujayralari sekret ajralishida halok bo‘lmaydigan bezlar; **merologiya** [mero...+...logiya] – odam morfologiyasining tarkibiy qismi – odamning ayrim qismlarini (a’zolarini) murdalarda o‘rganish.

...MER [*yun.* meros – ulush, hissa, qism] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, qism, bo‘lak, o‘lcham ma’nolarini bildiradi. Mas.: **blastomerlar, elastomerlar, izomerlar, oligomerlar; monomerlar** [mono...+...mer] – molekulalari o‘zaro yoki boshqa moddalar molekulalari bilan reaksiyaga kirishib, polimer hosil qilish qobiliyatiga ega moddalar; **polimerlar** [poli...+...mer < *yun.* polymeres – xilma-xil; qismlardan iborat] – yuqori molekulyar birikmalar; makromolekulalari ko‘p miqdordagi takrorlanuvchi halqa (zveno) lardan iborat bo‘lgan moddalar. Ba’zan -**mer** terminelementi o‘lchov asboblari nomlarini hosil qiluvchi **-metr** terminelementi o‘rnida qo‘llanadi: **koordinatomer, sekundomer**.

...MERIYA [*yun.* meros – ulush, hissa, qism] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi qismi bo‘lib, qismlardan iborat, qismlarga bo‘linish yoki ulardan tarkib topish bilan bog‘liq holatlarni, ayrim nazariyalarni ifodalaydi. Mas.: **izomeriya, metameriya, tautomeriya; mezomeriya** [mezo...+...meriya] – birikmalarning elektron tuzilishi nazariyasi; **polimeriya** [poli...+...meriya < *yun.* polymeria – xilma-xillik, ko‘p qismlarga egalik] – organizmning ayni bir murakkab belgi yoki xossasi rivojlanishining bir qancha mustaqil, lekin ta’siri teng qiymatli genlarga bog‘liqligi.

META... [*yun.* meta – orada, o‘rtada; keyin, orqali] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, oraliqda ekanlik, nimadandir keyin kelish, boshqa biron narsaga o‘tish (o‘zgarish) kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **metabaziz, metabioz, metabolitlar, metabolizm, metafaza, metafiza, metafizika, metaholat, metamagnetiklar, metamarkaz, metameriya, metamorfoza, metanefridiylar, metanefros, metasekvoyya, metastaz, metateza, metazoa, metgemoglobin; metabazitlar** [meta...+ *yun.* basis – asos +...it] – asosli magmatik jinslarning metamorfizmi natijasida hosil bo‘lgan metamorfik tog‘ jinslari; **metafaza** [meta… + *yun.* + phasis – paydo bo‘lish] – somatik tanadagi hujayralarning bo‘linib ko‘payish usuli; **metagalaktika** [meta…+ galaktika] – Koinotning zamonaviy teleskoplar bilan

kuzatsa bo‘ladigan, hozirgacha ma’lum bo‘lgan galaktikalarning hammasi; **metagenez** [meta...+...genez] – 1) geologiyada: cho‘kindi tog‘ jinslarining qayta o‘zgarish jarayonlari majmuyi; 2) biologiyada: avlodlarning ikkilamchi nasl almashinishi shakllaridan biri bo‘lib, bunda jinsiy ko‘payadigan zotlar nasli jinssiz ko‘payadigan zotlar nasli bilan almashinib turadi; **metamorfizm** [*yun.* metamorphoomai – o‘zgaraman, boshqacha bo‘laman] – kimyoviy va fizik sabablar ta’sirida tog‘ jinslari tuzilishi va tarkibida yuz beradigan o‘zgarishlar; **metaplaziya** [*yun.* metaplasso – qayta hosil bo‘lish, o‘zgarish] – organizm bir xildagi to‘qimalarining tuzilishi va funksiyalari jihatidan boshqa xil to‘qimalarga aylanishi; **metasomatizm** [meta...+ *yun.* somatos – jism, tana + ...izm] – tog‘ jinsidagi ba’zi minerallarning boshqa minerallar bilan almashinish hodisasi; **metastaz** [meta…+…staz] – kasal qo‘zg‘ovchi omilning qon yoki limfa bezlari orqali dastlabki joydan boshqa joylarga ko‘chib joylashishi, shu yo‘sinda paydo bo‘lgan yangi kasallik o‘rni; **metatil** [meta…+ til] – ikkilamchi til – biron-bir boshqa tilni – obyekt tilni tavsiflovchi, ataylab shunga maxsuslashtirilgan ikkinchi bir til.

METALL(O)... [*lot.* metallum < *yun.* metalleuo – qaziyman, yerdan qazib olaman < metallon – kon] – muayyan o‘zlashma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning metallga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **metallidlar, metallofizika, metallofoniar, metallogeniya, metallokeramika, metallooptika, metalloproteidlar, metallurg, metallshunoslik; metall** [*lot.* metallum < *yun.* metallon – kon, shaxta] – o‘ziga xos jiloga ega bo‘lgan, issiqlik va elektrni yaxshi o‘tkazadigan, bolg‘alanuvchan sodda kimyoviy element yoki qotishma; **metallizatsiya** [metall…+…izatsiya] – biror buyumning yuzini kukunlatib sochilgan metall bilan qoplash; metallash; **metallofobiya** [metallo…+…fobiya] – metall va metall anjomlaridan qo‘rqish vasvasasi; **metallografiya** [metallo...+...grafiya] – metallar va qotishmalarning strukturasini tadqiq qilish usuli; **metalloidlar** [metall(o)...+ ...oid] – xossalariga ko‘ra, metallar va metallmaslar orasidagi holatni egallagan elementlar (bor, kremniy, margimush, surma kabilar); **metallotermiya** [metallo...+ *yun.* therme – issiqlik, harorat] – issiqlik ajralishi bilan yuz beradigan metallotermik jarayon; **metallurgiya** [metall…+ urgiya] – 1) og‘ir sanoatning rudadan metall olib, unga dastlabki ishlov berish bilan shug‘ullanadigan tarmog‘i; 2) sanoat yo‘li bilan metall ishlab chiqarish va unga dastlabki ishlov berish usullari haqidagi fan.

METEO(RO)... [*yun.* meteoros – osmonga ko‘tarilgan, osmonda suzayotgan] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu

so‘zlarning atmosfera va osmon hodisalariga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **meteoritika, meteorizm, meteorografiya, meteorolog, meteostansiya, meteoxizmat; meteopatiya** [meteo…+…patiya] – yashab turgan iqlimda ob-havo o‘zgarishi bilan organizm umumiy holatining o‘zgarishi; **meteor** [*yun.* meteoros] – sayyoralararo fazodan Yer atmosferasiga cho‘g‘ bo‘lib, chaqnab, juda yuqori tezlikda uchib keladigan jism; uchar yulduz; **meteorit** [*fr.* meteorite < *yun.* meteoros] – Quyosh sistemasidagi sayyoralararo fazodan Yer yuziga tushadigan qattiq jism; **meteorograf** [meteoro...+...graf] – havo namligi, bosimi va temperaturasini, shuningdek, atmosferaning yuqori qatlamlaridagi shamol tezligini bir vaqtda avtomatik holda qayd qiladigan aerologik asbob; **meteorologiya** [meteoro...+...logiya] – Yer atmosferasining tarkibi, tuzilishi, xossalari va unda sodir bo‘layotgan fizik jarayonlarni o‘rganadigan fan.

...METR [*yun.* metron – o‘lchov, metreo – o‘lchayman] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi qismi bo‘lib, o‘lchov asboblari, shuningdek, metr tizimidagi uzunlik o‘lchovlari nomlarini hosil qiladi. Mas.: **ampermetr, anemometr, areometr, arifmometr, batometr, dekametr, detsimetr, dinamometr, elektrometr, fazometr, galvanometr, gektometr, geliometr, gigrometr, goniometr, kolorimetr, kubometr, lyuksmetr, manometer, mikrometr, millimetr, pirometr, radiometr, spektrometr, spidometr, tonometr, variometr, vattmetr, voltmetr, xronometr; altimetr** [alti…+…metr] – balandlik o‘lchagich – uchish apparatining parvoz balandligini aniqlovchi asbob; **barometr** [baro...+...metr] – atmosfera bosimini o‘lchaydigan asbob; **ergometr** [ergo…+…metr] – aniq belgilangan mexanik ishni amalga oshirishga mo‘ljallangan asbob; **fotometr** [foto…+…metr] – fotometriyada yorug‘lik kattaliklarini o‘lchashga mo‘ljallangan asbob; **gazometr** [gaz(o)…+…metr] – laboratoriyalarda qo‘llanadigan turli xil gazlarni to‘plash, saqlash, ularning hajmlarini o‘lchash uchun mo‘ljallangan idish; **kalorimetr** [kalori…+…metr] – issiqlik miqdorini o‘lchaydigan asbob; **kilometr** [kilo...+...metr] – xalqaro birliklar tizimida ming metrga teng uzunlik o‘lchovi birligi; **ombrometr** [ombro...+...metr] – tushayotgan atmosfera yog‘inlari miqdorini o‘lchaydigan asbob; **santimetr** [santi...+...metr] – metrning yuzdan bir ulushiga teng uzunlik o‘lchovi birligi; **termometr** [termo...+...metr] – temperaturani, issiqlik yoki sovuqlik darajasini o‘lchaydigan asbob.

O‘lchash, o‘lcham bilan bog‘liq **diametr, parametr, perimetr** terminlari, shaxsni bildiruvchi **geometr** so‘zi ham **-metr** terminelementi bilan yasalgan.

...METRIYA [*yun.* metreo – o‘lchayman] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarning o‘lchovlar, miqdorlar o‘rtasidagi nisbatlarga aloqadorligini anglatadi. Ushbu terminelement bilan hosil qilingan so‘zlar: 1) muayyan fanlar va ularning tarmoqlarini, ta’limot va nazariyalarni bildiradi. Mas.: **astrometriya, avtometriya, gidrometriya, gigrometriya, planimetriya, stereometriya, trigonometriya; fotometriya** [foto...+...metriya] – optikaning yorug‘lik kattaliklarini hamda elektromagnit nurlanishning energetik tavsiflarini o‘lchash bilan shug‘ullanuvchi bo‘limi; **geometriya** [geo...+...metriya] – matematikaning fazoviy shakllar va ular o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganadigan bo‘limi; **stexiometriya** [*yun.* stoicheton – asos, unsur +...metriya] – kimyoviy reaksiyaga kirishuvchi moddalar massalari o‘rtasidagi miqdoriy munosabatlar haqidagi ta’limot; 2) o‘lchash va shu bilan bog‘liq tadqiqot usullarini bildiradi. Mas.: **anemometriya, audiometriya, dendrometriya, dinamometriya, ergometriya, kalorimetriya, kolorimetriya, mikrometriya, radiometriya, rentgenometriya, tonometriya; antropometriya** [antropo...+...metriya] – antropologiyaning odam tanasi va uning qismlarini o‘lchashdan iborat asosiy usullaridan biri; **elektrometriya** [elektro...+...metriya] – a) elektrik o‘lchash usullarining barchasi; b) foydali qazilmalar va tog‘ jinslarining elektro‘tkazuvchanligidagi tafovutlarga asoslangan geofizik qidiruv usullaridan biri; **radiometriya** [radio...+...metriya] – radioaktiv moddalardagi radionuklidlar faolligini o‘lchash usullari majmuyi; **telemetriya** [tele...+ ...metriya] – teleo‘lchash: nazoratdagi obyektlar holatini ifodalovchi fizik kattaliklarni masofadan turib o‘lchash.

METR(O)... [*yun.* metra – bachadon] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning bachadonga, bachadon kasalliklariga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **metreyrinter, metreyriz, metroblennoreya, metroflebotromboz, metrokolpotsele, metroreksiya, metroreya, metrosalpingografiya, metroskop, metrotromboflebit, metrotubografiya; metrektomiya** [metr(o)...+...ektomiya] – laparotomiya qilib, qin orqali bachadonni jarrohlik yo‘li bilan olib tashlash; **metrit** [metr(o)...+...it] – bachadon mushak qavatining yallig‘lanishi; **metroendometrit** [metr(o)...+ ...endo...+ ...metrit] – bachadon mushak va shilliq qavatining bir vaqtda yallig‘lanishi; **metroflebit** [metro...+ fleb...+...it] – tug‘uruqdan so‘ng chiqadigan isitmada bachadon venalarining yallig‘lanishi; **metropatiya** [metro...+...patiya] – jinsiy a’zolarda aniq og‘riqli o‘zgarish bo‘lmagan holda, bachadondan qon ketishining zo‘rayishi, hayz davrining haddan tashqari cho‘zilib ketishi kabilardan iborat bachadon kasalliklari; **metrorragiya** [metro...+...rragiya] – hayz ko‘rish

maromining buzilishi oqibatida, hayz ko‘rishga aloqasi bo‘lmagan holda, bachadondan betartib qon ketishi; **metrotomiya** [metro...+...tomiya] – (homilali) bachadonni operativ yo‘l bilan kesish.

MEXANO... [*yun.* mechane – asbob-qurol, mashina] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, mexanik harakat yoki mexanizmga oidlik, mexanizm yordamida, mexanizmga o‘xshab ishlash kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **mexanik, mexanist, mexanitsizm, mexanizator, mexanizatsiya, mexanizm, mexanografiya, mexanogramma, mexanostriksiya; mexanika** [*yun.* mechanike – mashinalar yaratish san’ati < mechane] – jismlarning fazoda ko‘chib yurishi (joyini almashtirishi) ni va ularning o‘zaro bir-biriga ta’sirini o‘rganuvchi fan; **mexanokimyo** [mexano…+ kimyo] – kimyoning mexanik ta’sirotlar natijasida moddalarning kimyoviy o‘zgarishlarini o‘rganadigan sohasi; **mexanoretseptorlar** [mexano…+ *lot.* receptor – qabul qiluvchi] – tashqaridan bo‘ladigan (tuyg‘u, og‘riq, eshitish) yoki ichki a’zolarda vujudga keladigan mexanik ta’sirotlarni qabul qiladigan sezuvchi nerv oxirlari; **mexanoterapiya** [mexano...+...terapiya] – ba’zi kasalliklarni maxsus apparatlarda jismoniy mashqlar qildirib davolash; **mexanotron** [mexano...+ ...tron] – elektrvakuum asbob; bunda elektron yoki ion toklari ularning elektrodlarini bevosita mexanik siljitish orqali boshqariladi.

...MEYSTER [*nem.* Meister – usta, rahbar] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, biror sohadagi mahorat egasi, usta, mutaxassis degan ma’nolarni ifodalaydi. Mas.: **baletmeyster, brandmeyster, kapelmeyster, lotsmeyster, tansmeyster, tonmeyster; grossmeyster** [*nem.* Groβmeister < groβ – katta, yuqori +...meyster] – shaxmat yoki shashkadagi eng oliy sport unvoni; **konsertmeyster** [konsert +...meyster] – 1) orkestrdagi barcha skripkalar ergashadigan skripkachi; 2) orkestrning torli cholg‘u asboblar guruhlaridagi asosiy boshqaruvchi sozanda; 3) konsertlarda xonandalar, sozandalarga muayyan partiyani o‘rgatuvchi, mashq qildiruvchi pianinochi; **pochtmeyster** [pochta +...meyster] – chor Rossiyasida va boshqa ba’zi mamlakatlarda: shahar pochta xizmati boshlig‘i; **xormeyster** [xor + ...meyster] – xor rahbari, dirijyori.

MEZ(O)... [*yun.* mesos – o‘rtadagi, o‘rtacha, oraliq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, biror narsa yoki hodisaning o‘rtacha hajm va kattaligini yoki oraliq holatini ifodalaydi. Mas.: **mezaortit, mezenteriy, mezenxima, mezoadenit, mezoatom, mezoblast, mezobronxit, mezofaringit, mezofillar, mezogastriy, mezoileit, mezolit, mezoiqlim, mezoke-**

faliya // mezotsefaliya, mezokefallar // mezotsefallar, mezokolon, mezomeriya, mezomolekula, mezonefroma, mezonin, mezonlar, mezorelyef, mezoteliy, mezotermal (konlar)**, mezotimpanit, mezotroflar, mezozavrlar, mezozoy; mezarteriit** [mez(o)…+ arteri…+…it] – arteriya devori o‘rta qavatining yallig‘lanishi; **mezensefalit** [mez(o)…+ ensefal(o)…+…it] – o‘rta miyaning yallig‘lanish kasalligi; **mezoderma** [mezo...+...derma] – g‘ovaktanlilar va bo‘shliqichlilardan tashqari odam va ko‘p hujayrali hayvonlar homilasining ilk rivojlanish (gastrula) bosqichida hosil bo‘ladigan o‘rta qavati; **mezofill** [mezo…+…fill] – o‘simlik bargining etli qismi yoki asosiy to‘qimasi; **mezofitlar** [mezo...+...fit] – yetarli namlik sharoitida yashovchi o‘simliklar; kserofitlar va gigrofitlar o‘rtasidagi oraliq guruh; **mezogastralgiya** [mezo…+ gastr(o)…+…algiya] – qorinning o‘rta qismida seziladigan og‘riq; **mezokraniya** [mezo…+ *yun.* kranion – kalla suyagi] – odam bosh suyagining bo‘ylama va ko‘ndalang diametrlari bo‘yicha o‘rtacha bo‘lgan varianti; **mezolit** [mezo…+ …lit] – o‘rta tosh davri: paleolitdan neolitga o‘tish davri (miloddan avvalgi 10 – 7-mingyillik); **mezopauza** [mezo...+ pauza] – Yer atmosferasining 80 – 90 kilometr balandlikdagi, mezosfera va termosfera o‘rtasidagi oraliq qatlami; **mezosfera** [mezo…+…sfera] – stratosfera ustida joylashgan, qalinligi 50 kilometrdan 80 – 85 kilometrgacha balandlikdagi atmosfera qatlami.

MIK(O)..., ...MIKO(Z) [*yun.* mykes – zamburyg‘] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi va ikkinchi tarkibiy qismlari bo‘lib, shu so‘zlarning zamburug‘larga, biror-bir a’zoda ular keltirib chiqaradigan kasalliklarga aloqadorligini anglatadi. Mas.: **mikoatropin, mikobakteriyalar, mikodermatit, mikoplazmalar, mikoriza, mikotroflar; mikologiya** [miko...+...logiya] – botanikaning bir bo‘limi bo‘lib, zamburug‘larning tuzilishi va biokimyoviy xossalarini, shuningdek, ularning tabiatda va odam hayotidagi ahamiyatini o‘rganadi; tibbiyotda: terining zamburug‘li kasalliklarini o‘rganuvchi soha; **mikotoksikozlar** [miko...+ *yun.* toxikon – zahar +...oz] – odam va chorva mollarida uchraydigan kasallik: zamburug‘lar bilan zaharlanish; **mikozlar** [mik(o)...+...oz] – odam va hayvonlar terisida hamda ichki a’zolarida parazitik, kasallik qo‘zg‘atuvchi zamburug‘lar keltirib chiqaradigan kasalliklarning umumiy nomi.

Mikozlarning ayrim turlari ko‘rsatilganda, ushbu terminelement qo‘shma so‘zning ikkinchi qismi bo‘lib keladi. Mas.: **aktinomikoz, blastomikoz, botriomikoz, vaginomikoz, xromomikoz; dermatomikoz** [dermato...+...mikoz] – odam va hayvonlarda patogen (kasallik qo‘zg‘atuvchi) zamburug‘lar keltirib chiqaradigan teri kasalligi; **faringomikoz** [faringo...+ ...mikoz] – yutqinning zamburug‘li kasalligi; **keratomikoz** [kerato...+...mikoz]

– terining muguz qavatida uchraydigan zamburug‘ kasalligi; **pnevmomikoz** [pnevmo...+...mikoz] – parazit zamburug‘lar paydo qiladigan o‘pka kasalliklarining umumiy nomi; **rinomikoz** [rino...+...mikoz] – burun bo‘shlig‘i shilliq pardasining zamburug‘li kasalligi.

MIKRO... [*yun.* mikros – kichik] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib: 1) kichik, juda mayda (hajm, miqdor) ma’nolarini bildiradi. Mas.: **mikroanaliz, mikrobarograf, mikrobiolog, mikrobiota, mikroblar, mikrodentizm, mikrodisseksiya, mikrodoza, mikrodozimetr, mikrodunyo, mikroelektronika, mikroemulsiya, mikroesteziya, mikroevolyutsiya, mikrofaglar, mikrofakiya, mikrofauna, mikrofizika, mikroflora, mikrofon, mikrofoniya, mikrofoto, mikrofotometr, mikrogameta, mikroglossiya, mikrogramma, mikroiqlim, mikrokalkulyator, mikrokarotaj, mikrokefallar // mikrotsefallar, mikrokimyo, mikrokokklar, mikrokolon, mikrokosm, mikrolitiaz, mikrolitlar, mikromanipulyator, mikromastiya, mikromodul, mikronekroz, mikronixiya, mikroprotsessor, mikroproyeksiya, mikrorelyef, mikroskopiya, mikrosomalar, mikrosotsiologiya, mikrosporalar, mikrosporangiy, mikrosxema, mikrotarozi, mikrotipiya, mikrotom, mikrotravma, mikrotron, mikrozarralar, mikrurgiya; mikrobiologiya** [mikro...+ biologiya] – mikroorganizmlarning kelib chiqishi, tuzilishi, tasnifi, xossalari, tarqalishi va amaliy ahamiyatini o‘rganuvchi fan; **mikroelementlar** [mikro…+ element] – o‘simlik va hayvon organizmida juda kam miqdorda (yuzdan, mingdan bir va hatto undan ham kam ulushda) bo‘ladigan kimyoviy elementlar; **mikroensefaliya** [mikro…+ ensefal…+…iya] – bosh miyaning kichik hajmda bo‘lib qolishi; **mikrofilm** [mikro…+ film] – nodir hujjat, qo‘lyozma, kitob, rasm va shu kabilarning bir necha o‘n va yuz marta kichraytirib kinolentaga olingan ixcham nusxasi; **mikroglossariy** [mikro...+ glossariy] – tor soha lug‘ati; **mikroinsult** [mikro…+ insult] – miyaning kichik bir qismida qon aylanishining to‘satdan qisqa muddatda buzilishi; miyada kichik o‘choqli infarkt yoki qon quyilishi bilan ifodalanadi; **mikroiqtisodiyot** [mikro...+ iqtisodiyot] – iqtisodiy nazariyaning ayrim bir xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni, ularning faoliyati va milliy iqtisodiyotga ta’sirini o‘rganadigan bo‘limi; **mikrokefaliya // mikrotsefaliya** [mikro...+...kefaliya] – kichik boshlilik – tananing boshqa a’zolari normal o‘lchamlarga ega bo‘lgani holda kalla suyagi va miyaning hajman kichik bo‘lishi; **mikroorganizmlar** [mikro...+ organizm] – mikroblar; juda mayda, asosan, bir hujayrali, faqat mikroskopda ko‘rish mumkin bo‘lgan organizmlar; **mikropsiya** [mikro…+…opsiya] – narsalarning asliga nisbatan kichrayib, kichkina bo‘lib ko‘rinishi; **mikroskop** [mikro…+

…skop] – oddiy koʻz bilan koʻrib boʻlmaydigan narsalarni tekshirish uchun qoʻllanadigan, katta qilib koʻrsatadigan optik asbob; zarrabin; **mikroxirurgiya** [mikro…+ xirurgiya] – mikrojarrohlik – optik anjomlar yoki mexanizmlar yordamida nozik asboblar bilan kichik anatomik tuzilmalarda (asosan, hujayralarda) amalga oshiriladigan operatsiyalar va ularni oʻrganadigan soha; **mikroo‘g‘itlar** – tarkibida oʻsimliklar uchun zarur mikroelementlar boʻlgan oʻgʻitlar; 2) qoʻshma soʻzning ikkinchi qismida ifodalangan asos birlikning milliondan bir qismiga teng ulush birligini ifodalaydigan old qoʻshimcha hisoblanadi; Mas.: **mikroamper** [mikro...+ amper] – elektr toki kuchining asosiy birligi – amperdan million marta kichik oʻlchov birligi; **mikrometr** [mikro…+ metr] – metrning milliondan bir ulushi.

MIKS(O)... [*yun.* myxa – shilimshiq] – oʻzlashma qoʻshma soʻzlarning birinchi tarkibiy qismi boʻlib, shilimshiq ma’nosini anglatadi. Mas.: **miksadenoma, miksinalar, miksobakteriyalar, miksoglobulyoz, miksomatoz, miksoreya, miksosporidiyalar, miksotroflar, miksoviruslar; miksadenit** [miks...+ adent +...it] – bezlarning shilliqli yallig‘lanishi; **miksedema** [miks...+ *yun.* oidema – oʻsma, shish] – shilimshiq shish; qalqonsimon bez faoliyatining susayishi yoki butunlay toʻxtashi natijasida kelib chiqadigan kasallik; **miksoma** [miks(o)...+...oma] – shilliq toʻqimadan paydo boʻlgan oʻsma; **miksomitsetlar** [mikso...+ *yun.* mykes – zamburug‘] – shilimshiq zamburug‘lar – xlorofillsiz vegetativ tanaga ega boʻlgan zamburug‘simon organizmlar turkumi; **miksosarkoma** [miks(o)...+ sark(o)...+…oma] – miksomaning xavfli turi.

MIKS(T)... [*lot.* mixtum – aralashtirish, aralashtirilgan] – oʻzlashma yasama soʻzlarning asos qismi boʻlib, shu soʻzlarning aralashtirish bilan bog‘liqligini koʻrsatadi. Mas.: **miksantrop, miksborder, miksher; mikser** [*ingl.* mixer – aralashtirgich < *lot.* mixtum] – sovuq ichimliklarni tez aralashtirish, kokteyl, krem, xamir, pyure tayyorlash uchun ishlatiladigan mexanik yoki elektr asbob; **miksotroflar** [mikso...+...trof] – ham noorganik, ham organik moddalar bilan oziqlanuvchi organizmlar; **mikstlar** [*lot.* mixtus – aralash < *yun*. mixis – aralashtirish] – bir bemorda bir vaqtning oʻzida ikki yoki undan koʻproq kasallik boʻlishi; **mikstura** [*lot.* mixture – birikma, aralashma] – erituvchi va unda eritilgan, chala erigan dorivor moddalardan iborat, ichiladigan suyuq dori shakli.

MILLI... [*lot.* mille – ming] – oʻzlashma qoʻshma soʻzlarda 1000 (ming) soni bilan bog‘liq tushunchalarni, fizik birliklarni nomlashda qoʻllanadigan old qoʻshimcha; ming marta koʻplikni (kattalikni) yoki kichiklikni (ming-

dan bir ulushni) bildiradi. Mas.: **millenarium, millenariyalar, milliamper, milliariy, millibar, millikyuri, millimikron, million, millioner, millirentgen, millisekund, millivatt, millivolt; millenium** [*lot.* millenium < mille – ming + annus – yil] – mingyillik; mingyilliklar chegarasi, mas.: 2000-yildan 2001-yilga o‘tish; **milliard** [*fr.* milliard – mingta million < *lot.* mille – ming] – 1000000000 raqami va shu raqam bilan ifodalangan son, miqdor; **milliarder** [*fr.* milliardaire – milliard (lar) egasi] – milliardlar bilan hisoblanadigan boylikka ega bo‘lgan kishi; **milligramm** [milli...+...gramm] – grammning mingdan bir ulushiga teng og‘irlik o‘lchovi; **millimetr** [milli…+…metr] – metrning mingdan bir qismiga teng uzunlik o‘lchovi.

MINI... [*lot.* minimus – eng kichik] – o‘zlashma yasama va qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, eng kichik, eng kam ma’nolarini anglatadi. Mas.: **miniatyura, minimal, minimalizm, mini-market, minimizatsiya, mini-moda, mini-roman, mini-xost, mini-yubka, minor, minorat, minus, minuskulalar, minuta; mini-futbol** [mini…+ futbol] – kichik (miniatyur) futbol – Yevropa futboli (soker) qoidalariga asoslangan sport o‘yini bo‘lib, bunda har bir jamoada beshtadan o‘yinchi yengillashtirilgan to‘p bilan, ikki baravar kichik maydon va ikki baravar kichik darvozalar bilan o‘ynaydi; **minimetr** [mini...+...metr] – mashina detallari, kalibr va boshqalarning chiziqli o‘lchamlarini o‘lchashda qo‘llanadigan asbob; **minimum** [*lot.* minimum – eng kichik] – eng kam (kichik) miqdor (kattalik) ni, eng kichik hajm, eng past chegara, quyi darajani ifodalaydigan tushuncha; **minus** [*lot.* minus – kichik, oz, ozroq] – 1) ayirish amalini yoki manfiy miqdorni bildiruvchi (–) belgi; 2) miqdorning manfiyligini, haroratning noldan pastligini bildiruvchi so‘z yoki belgi.

MI(O)... [*yun.* mys, myos – mushak, muskul] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning mushak (muskul) larga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **miatoniya, mioblastlar, mioblastoma, mioendokardit, mioepitelioma, mioepiteliy, miofibrillalar, miofibroz, mioglobin, miografiya, miokard, miokardiodistrofiya, miokloniya, miolemma, miolipoma, miolog, miomektomiya, miometriy, mionemalar, mioparalich, miopatiya, mioreksiya, miosarkoma, miospazm, miostatika, miotom, miotomiya, miotsen, miotsit; mialgiya** [mi...+...algiya] – mushaklardagi og‘riq; **miasteniya** [mi...+ *yun.* asthenia – darmonsizlik, zaiflik] – nerv va mushak sistemasining surunkali kasalligi: ko‘ndalang-targ‘il mushaklarning zaifligi, og‘rib charchashi bilan xarakterlanadi; **miatrofiya** [mi…+ *yun.* atrofia – so‘lish, qurish; ozib-to‘zish] – mushaklar atrofiyasi; **miofibroma** [mio…+ fibr(o)…+…oma] – silliq mushak to‘qimasi va birikmasi; **mioglobinuriya** [mioglobin +…uriya] – mushak oqsilining parchalanishi tufayli siydikda mio-

globin paydo bo‘lishi; **miograf** [mio…+…graf] – mushak faoliyatini yozib oluvchi asbob; **miogramma** [mio…+…gramma] – mushak qisqarishlarini ko‘rsatadigan chiziqlar; **miokardit** [mio...+...kard +...it] – yurak mushaklarining yallig‘lanishi; **miologiya** [mio...+...logiya] – mushaklar sistemasining tuzilishi haqidagi ta’limot; **mioma** [mi(o)...+...oma] – mushak to‘qimasidan vujudga keladigan xavfsiz o‘sma; **mioplegiya** [mio…+…plegiya] – qo‘l-oyoq mushaklarida past darajadagi xurujlardan falajgacha olib boradigan nerv-mushak kasalligi; **miozin** [mio(z)...+...in] – mushak tolalari (miofibrillalar) ning asosiy oqsili; **miozit** [mio(z)...+...it] – skelet mushaklarining yallig‘lanishi.

MIRIA... [*yun.* myrias (myriados) – o‘n ming] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, o‘lchov birligi nomini bildiradi, uning asos o‘lchov birligidan o‘n ming marta kattaligini ko‘rsatadi. Mas.: **miriadalar** [*yun.* miriados – o‘n ming] – ulkan, son-sanoqsiz, ko‘p narsa, behisob, beadad miqdor; **miriametr** [miria...+...metr] – o‘n kilometr (o‘n km); o‘n ming metr.

MITO... [*yun.* mitos – ip] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, ip, ipga o‘xshash ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **mitogenetik** [mito…+ *yun.* genetikos – tug‘ilishga oid]: ***mitogenetik nurlar*** – fermentlar ishtirokidagi reaksiyalardan tirik to‘qimalar chiqaradigan ultrabinafsha nurlar; **mitoxondriyalar** [mito...+ *yun.* chondrios – donacha] – evkariot hujayralarning donacha, tayoqcha, ip ko‘rinishidagi doimiy qo‘shilmalarining bir turi: ikki qavat membranadan iborat bo‘lib, ichki membranasi krista (donacha) lar hosil qiladi; **mitoz** [*yun.* mitos – ip] – o‘simlik, hayvon va odam hujayralarining ko‘payish usullaridan biri bo‘lib, bunda hujayra yadrosi komponentlari – xromosomalarning murakkab o‘zgarishlari kuzatiladi.

MIYEL(O)... [*yun.* myelos – ilik, ko‘mik; orqa miya] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning miya va orqa miyaga, ilik, ko‘mikka aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **miyelensefalon, miyelin, miyelinizatsiya, miyeloblast, miyelodisplaziya, miyelofalaj, miyelofibroz, miyeloid** (to‘qima)**, miyeloleykoz, miyelolipoma, miyelomalyatsiya, miyelomatoz, miyelomeningotsele, miyelopoez, miyelorragiya, miyeloskleroz, miyelotransplantatsiya, miyolotsele, miyelotsit, miyeloz; miyelit** [miyel(o)...+...it] – ayrim kasalliklar oqibatida orqa miyaning yallig‘lanishi; **miyeloftizis** [miyelo…+ *yun.* phthisis – sil] – orqa miyaning sil bilan kasallanishi; **miyelografiya** [miyelo...+...grafiya] – orqa miyaga kontrast modda yuborib, rentgenda uning suratini olish; **miyeloma** [miyel(o)...+...oma] – ilikning to‘rsimon va plazmatik hujayralaridan paydo bo‘ladigan yomon sifatli (xavfli) o‘sma; **miyelomeningit** [miyelo…+ meningit] – orqa miya va pardala-

rining yallig‘lanishi; **miyeloparalich** [miyelo…+ *yun.* paralysis – bo‘shashish, kuchsizlanish] – orqa miya kasallanishi natijasida ro‘y beradigan falajlik; miyelofalaj; **miyelopatiya** [miyelo...+...patiya] – orqa miyaning har xil kasallik jarayonlari tufayli paydo bo‘lgan o‘rtacha, o‘tkir va surunkali shikastlanishi; **miyelosarkoma** [miyelo…+ sarkoma] – ilikning hujayra elementlaridan hosil bo‘ladigan xavfli o‘smasi; **miyelotsit** [miyelo…+…sit] – sitoplazmasida o‘ziga xos donachalari bor ko‘mik (ilik) hujayrasi.

MIZ(O)... [*yun.* mis – yoqtirmaslik, nafrat] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, ikkinchi so‘z anglatgan shaxs yoki narsani yoqtirmaslik, unga nafrat bilan qarash ma’nolarini bildiradi. Mas.: **mizandriya, mizantrop, mizopediya; mizantropiya** [miz...+ *yun.* anthropos – odam] – odamlarga nafrat bilan qarash; odamlarni yoqtirmaslik, ulardan qochish; **mizofobiya** [mizo…+…fobiya] – ifloslikdan, biror iflos narsaga tegib ketishdan qo‘rqish; **mizoginiya** [mizo...+ *yun.* gyne – ayol] – ruhiy kasallik tufayli erkaklarning ayollarni yoqtirmasligi; **mizoneizm** [mizo...+ ne(o)...+...izm] – yangiliklarni, yangi narsalarni yoqtirmaslik, ularga nafrat bilan yoki mensimay qarash.

MNEMO... [*yun.* mneme – xotira] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning xotiraga aloqadorligini anglatadi. Mas.: **mnemogramma, mnemometr, mnemosxema; mnemosteniya** [mnem(o)…+ *yun.* asthenes – kuchsiz, darmonsiz] – xotiraning susayishi, pasayishi; **mnemodermiya** [mnemo…+…dermiya] – sog‘lom terining qichishishi: qo‘tir bo‘lib tuzalgandan keyin kuzatiladigan yoki qon so‘ruvchi parazitlarni ko‘rish bilanoq ba’zi odamlar terisi go‘yo qichishgandek bo‘ladi; **mnemonika** [*yun.* mnemonika – esda saqlash mahorati] – sun’iy assotsiatsiyalar (bog‘lanishlar) hosil qilish yo‘li bilan eslashni osonlashtiruvchi, xotira hajmini kengaytiruvchi usullar majmuyi; **mnemotexnika** [mnemo...+ *yun.* techne – san’at, mahorat] – 1) mnemonika – sun’iy assotsiatsiyalar hosil qilish yo‘li bilan eslashni osonlashtiruvchi, xotira hajmini kengaytiruvchi usullar majmuyi; 2) masofadan turib insonning eslab qolish qobiliyatini namoyish etish, turli usullar bilan narsalarni topishdan iborat sirk yoki estrada tomoshasi.

...MNEZ, ...MNEZIYA [*yun.* mneme – xotira, eslash] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismlari bo‘lib, xotira, eslash, esga olish kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **dismneziya, ekmneziya, kriptomneziya, neyromneziya, paramneziya; amneziya** [a…+…mneziya] – xotiraning buzilishi, ilgari bo‘lib o‘tgan hodisalarni esdan chiqarish xususiyati; **anamnez** [*yun.* anamnesis – xotira, eslash] – bemorning hayot sharoiti, shuningdek, kasal-

likning boshlanishi va rivojlanishi haqidagi uning o‘zidan va yaqinlaridan so‘rab to‘planadigan ma’lumotlar; **gipermneziya** [giper…+…mneziya] – esda tutish qobiliyatining kuchayishi; **gipomneziya** [gipo…+…mneziya] – yaqin orada bo‘lib o‘tgan, kundalik voqealarni eslash qobiliyatining susayishi; **katamnez** [kata…+…mnez] – bemorlarning shifoxonadan chiqarilgandan keyingi hayot sharoiti va hozirgi umumiy ahvoli haqidagi ma’lumotlar; **psevdomneziya** [psevdo…+…mneziya] – eslash qobiliyatining yanglish, soxta xotiralar bilan ifodalanadigan turli xil buzilishlari.

MOLL... [*lot.* mollis, molluscus – yumshoq] – o‘zlashma so‘zning asos qismi bo‘lib, yumshoq ma’nosini anglatadi. Mas.: **molasslar** [*fr*. moleasse < *lot.* mollis – yumshoq] – burmalangan mintaqalar rivojlanishinng orogen bosqichida litosfera plitalari orasida siqilish natijasida hosil bo‘lgan tog‘ jinslari kompleksi; **mollyuskalar** [*fr.* mollusques – yumshoq] – yumshoqtanlilar – gavdasi, odatda, bosh, tana va oyoq bo‘limlaridan iborat va chig‘anoq bilan qoplangan, keng tarqalgan umurtqasiz hayvonlar tipi.

MONO... [*yun.* monos – bir, yakka, yagona] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, bir, yagona, yolg‘iz ma’nolarini bildiradi. Mas.: **monarx, monizm, monoartrit, monoblast, monobraxiya, monodaktiliya, monofagiya, monofaziya, monofiliya, monoftong, monogamiya, monogidrat, monoginiya, monografiya, monoideizm, monoklinal, monokristall, monolit, monolog, monomaniya, monomerlar, monometallizm, monomorfizm, mononevrit, mononuklearlar, monoparez, monopodiya, monorels, monorxizm, monosaxarinlar, monosillabizm, monospermiya, monoteizm, monoton, monotsikl, monotsitlar, monotsitoz, monoxord, monoxromatlar, monoxromiya; monarxiya** [monarx +…iya] – yakkahokimiyatchilik; davlatning oliy hokimiyati yakka hukmdor – monarx qo‘lida bo‘lgan boshqaruv shakli va shunday boshqaruv shakliga ega bo‘lgan davlat; **monarxizm** [monarx +…izm] – monarxiyani davlat tuzumining yagona, eng ma’qul shakli deb hisoblovchi siyosiy yo‘nalish; monarxiya shaklidagi boshqaruvga tarafdorlik; **monodrama** [mono...+ drama] – 1) bir aktyor uchun yozilgan dramatik asar; 2) yagona ishtirokchi shaxsning monologi ko‘rinishidagi pyesa; **monofaglar** [mono…+…fag] – faqat bir turli ovqat bilan oziqlanuvchi hayvonlar; **monofobiya** [mono...+...fobiya] – yolg‘iz, yakka qolishdan qo‘rqish; **monogramma** [mono...+...gramma] – 1) ism va familiya bosh harflarining naqsh, bezak ko‘rinishida qo‘shilib ketishi; 2) rassomlar, o‘ymakorlar suratlari va asarlaridagi imzo o‘rnida keladigan shartli belgi (masalan, gul, jonivor tasviri); **monokl** [*fr.* monocle < mono...+ *lot.* oculus – ko‘z]

– bir ko‘zga taqiladigan, ko‘zoynak o‘rnida ishlatiladigan doira shaklli optik (botiq yoki qavariq) linza; **monoplan** [mono..+…plan] – fyuzelyajning har ikki tomoniga o‘rnashgan bir qanotga ega bo‘lgan samolyot; **monoplegiya** [mono...+...plegiya] – bir qo‘l yoki bir oyoqning ishlamay qolishi, falajlanishi; **monopoliya** [mono...+ *yun.* poleo – sotaman] – davlat, tashkilot, tarmoq yoki firmaning biror iqtisodiy va boshqa sohadagi tanho hukmronlik huquqi – bozorni tashkil etish shakli; **monosemiya** [mono...+ *yun.* sema – belgi; ma’no] – birma’nolilik – so‘zlarning matnda ham, matndan tashqarida ham faqat bitta ma’noga ega bo‘lishi; **monotip** [mono…+…tip] – murakkab matnlarni terish uchun harf quyadigan avtomat mashina; **monoxoreya** [mono…+ *yun.* choreia – raqs, o‘yin] – bir qo‘l yoki bir oyoqning xuddi raqsdagidek ixtiyorsiz harakatda bo‘lishi.

MORF(O)... [*yun.* morphe – shakl] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shakl, tuzilish ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **morf // morfa, morfema, morfofiziologik, morfolog, morfonema, morfoskulpturalar, morfostrukturalar, morfotropiya, morfozalar; morfemika** [*yun.* morphe – shakl +…ika] – morfemalarning mohiyati, tuzilishi, turlari va boshqa xususiyatlari haqidagi ta’limot; **morfogenez** [morfo...+...genez] – organizmlarning ontogenezi (individual taraqqiyoti) va filogenezi (tarixiy taraqqiyoti) da yangi shakllar va tuzilmalarning hosil bo‘lish jarayoni; **morfologiya** [morfo...+ ...logiya] – 1) biologiyada: odam, hayvon va o‘simliklar tanasidagi a’zo va to‘qimalarning individual va tarixiy rivojlanishi jarayonidagi shakli hamda tuzilishini o‘rganadigan fanlar majmuyi; bunda odam morfologiyasi, hayvonlar morfologiyasi, o‘simliklar morfologiyasi, tuproq morfologiyasi o‘zaro farqlanadi; 2) grammatikaning so‘z tuzilishi (tarkibi) ni, so‘z doirasida grammatik ma’nolarning ifodalanishini, so‘z o‘zgartiruvchi shakllarni, shuningdek, so‘zlarning so‘z turkumlari bo‘yicha guruhlanishini o‘rganuvchi bo‘limi; so‘z shakllari haqidagi ta’limot; **morfometriya** [morfo…+…metriya] – geomorfologiyaning relyef elementlari, shakllari va tiplarining raqamli xarakteristikalariga bag‘ishlangan bo‘limi; **morfonologiya** [morfo…+ fon(o)…+…logiya] – tilshunoslikning morfologiya bilan fonetikaning aloqalarini o‘rganuvchi bo‘limi; morfemalarning fonologik tuzilishini hamda morfemalarning qo‘shilishi natijasida ularning tuzilishida yuz beradigan tovush o‘zgarishlarini o‘rganuvchi soha.

...MORFIZM [*yun*. morphe – shakl] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shakl, tashqi ko‘rinish ma’nolarini anglatadi. Mas.: **avtomorfizm, gomeomorfizm, izomorfizm; antropomorfizm** [antropo…+…morfizm] – 1) odamga xos psixik xususisyatlarni narsalar, joni-

vorlar va tabiat hodisalariga ham xos deb bilish, ularni odamga o‘xsahtish; 2) ba’zi bir dinlarda xudolarni odam obrazida tasavvur qilish; **metamorfizm** [meta…+…morfizm] – kimyoviy va fizik omillar ta’sirida Yer po‘stidagi tog‘ jinslari tuzilishi, mineralogik va ba’zan kimyoviy tarkibida bo‘ladigan o‘zgarish jarayonlari; **zoomorfizm** [zoo…+…morfizm] – hayvonparastlik, hayvonlarga sig‘inish; ruhlar va xudolarni hayvonlar obrazida tasavvur qilish.

MOTO... [*lot.* motor – harakatga keltiruvchi] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning 1) motorga, 2) mototsiklga aloqadorligini, shuningdek, 3) motorlashtirilgan ma’nosini anglatadi. Mas.: 1) **motoqayiq, motoresurs, motorika, motoroller, motorsoz, motorxona, mototransport, motovelosiped, motoo‘qchi; motodeltaplan** [moto…+ delta…+…plan] – uncha katta bo‘lmagan motor o‘rnatilgan, samolyot singari uchuvchi va balandga ko‘tariluvchi deltaplan; **motodrezina** [moto...+ drezina] – mototsikl motori bilan harakatga keltiriluvchi drezina; **motor** [*lot.* motor – harakatga keltiruvchi] – biror turdagi (elektrik, issiqlik, gidravlik) energiyani mexanik energiyaga aylantiradigan mashina; dvigatel; **mototsikl // mototsiklet** [moto...+ *yun.* kyklos – doira, g‘ildirak] – ichki yonuv dvigateli bilan ta’minlangan, ikki yoki uch g‘ildirakli transport vositasi; 2) **motokross, motopoyga, motoroller, motosport, motovelosport; motobol** [moto…+…bol] – katta to‘p bilan motosiklda o‘ynaladigan, futbolga o‘xshash jamoaviy sport o‘yini; **motodrom** [moto...+...drom] – mototsikl sporti bo‘yicha mashg‘ulotlar va musobaqalar o‘tkazishga mo‘ljallangan, har tomonlama jihozlangan sport inshooti; **motoralli** [moto...+ *ingl.* rally – to‘planish, yig‘ilish] – maxsus tayyorlangan mototsikllarda uni boshqarish mahorati bo‘yicha yoki kimo‘zarga o‘tkaziladigan musobaqa; motopoyga 3) **motobatalyon, motopiyodalar, motoo‘qchi** (qo‘shinlar); **motodiviziya** [moto…+ diviziya] – motorlashtirilgan diviziya; **motokolonna** [moto…+ kolonna] – avtomobillar va mototsikllar qatori, kolonnasi.

MUK(O)..., MUTS... [*lot.* mucus – shilliq, shilimshiq] – o‘zlashma qo‘shma, yasama so‘zlarning birinchi (o‘zak) qismi bo‘lib, shilliq, shilimshiq ma’nolarini anglatadi. Mas.: **mukopolisaxaridlar, mukoproteidlar, mutsin, mutsinoz; mukaltin** [muk...+ *yun.* althaia – gulxayri +...in] – dorivor gulxayri yer ustki qismining shilliq moddalari: nafas yo‘li kasalliklarida balg‘am ko‘chiruvchi dori sifatida ishlatiladi; **mukoidlar** [muk(o)...+...oid] – mukoproteidlar: 1) shilliqsimon moddalar; 2) tarkibida karbonsuv (uglevod) bo‘lgan murakkab oqsillar; **mukotsit** [muko…+…sit] – shilliq shira ishlab chiqaradigan hujayra; **mutsinlar** [muts...+...in] – nafas, ovqat hazm qilish a’zolari, siydik-

tanosil yo‘llari shilliq pardalaridagi, shuningdek, jag‘osti, tilosti so‘lak bezlaridagi epitelial hujayralarning ajratmalari (sekretlari) – shilimshiqning asosiy tarkibiy qismi.

MULTI... [*lot.* multum – ko‘p, ancha] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, biror narsaning ko‘pligini, ko‘p qaytarilishi (karraliligi) ni bildiradi. Mas.: **multfilm** (multiplikatsion film)**, multimilliarder, multipanorama, multipleksor, multipletlik, multiplikatsion, multipolyar, multiprogrammalash, multirotatsiya, multitsiklon, multivalentlar, multserial; multimedia** [*ingl.* multimedia < multi...+ *lot.* media, medium – to‘planish markazi; vosita] – axborot uzatishning turli xil vositalari – matn, tovush, tasvir, animatsiya va boshqalarni qamrab oluvchi texnologiya va shunday texnologiyadan foydalanuvchi dasturlar va kompyuter vositalari; **multimillioner** [*fr.* multimillionaire < multi...+ millioner] – ko‘p millionli boylik egasi; **multipleks** [*lot.* multiplex – murakkab, ko‘p karrali] – aerofotosuratlar bo‘yicha topografik xaritalar yaratishga mo‘ljallangan universal optik asbob; **multiplikator** [*lot.* multiplicator – ko‘paytiruvchi, kattalashtiruvchi] – 1) multfilmlarga rasm ishlovchi rassom; 2) mashina valining aylanishlar sonini ko‘paytiruvchi qurilma; 3) nasoslar va boshqa gidravlik mashina va moslamalarda suyuqlik bosimini oshiruvchi qurilma; 4) fotokameraning ketma-ketlikdagi suratlar turkumini olishga mo‘ljallangan moslamasi; **multiplikatsiya** [*lot.* multiplicato – ko‘paytirish] – harakatdagi narsalarning ketma-ket keladigan turli holatlarini aks ettiruvchi surat yoki qo‘g‘irchoqlarni rasmga olish yo‘li bilan film tayyorlash va shu yo‘l bilan olingan kinofilm; **multivibrator** [multi...+ *lot.* vibratio – tebranish +...or] – ikki kuchaytirgich lampali elektr tebranishlar generatori.

MUTA... [*lot.* mutatio – o‘zgarish < mutare – o‘zgartirmoq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, o‘zgarish, bir turdan ikkinchi turga o‘tish ma’nolarini anglatadi. Mas.: **mutagen** (mutant va mutatsiyaga oid), **mutarotatsiya, mutatsion** (nazariya)**; mutagenez** [muta...+...genez] – organizmda irsiy axborotlarni saqlovchi va uzatuvchi nuklein kislotalar molekulalaridagi o‘zgarishlar (mutatsiyalar) ning paydo bo‘lishi; **mutagenlar** [muta...+ ...gen] – tirik organizmlarda irsiy o‘zgarishlar (mutatsiyalar) paydo qiladigan fizik va kimyoviy omillar; **mutantlar** [*lot.* mutare – o‘zgartirmoq] – mutatsiya natijasida paydo bo‘lgan, o‘zining asl, dastlabki tipidan irsiy o‘zgarishlar bilan farqlanuvchi organizmlar (odam, hayvon, o‘simlik); **mutatsiya** [*lot.* mutatio – o‘zgarish, almashinish] – organizm xromosomalari va genlarining qayta tuzilishi va buzilishi natijasida uning irsiy belgilari va xususiyatlarining to‘satdan o‘zgarishi yoki yangi belgilar hosil bo‘lishi.

N

NAFTA... [*yun.* naphtha – neft] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning neftga, neft mahsulotlariga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **naftalan, naftamon, naftenatlar, naftoxinonlar; naftalin** [nafta(l)...+...in] – organik modda; varaqsimon-kristall tuzilishga ega rangsiz, o‘tkir hidli modda; insektitsid; **naftenlar** [*yun.* naphtha] – alitsiklik qatordagi to‘yingan uglevodorodlar guruhi – aksariyati neftdan olinadi; **naftollar** [naft…+…ol] – naftalindan olinadigan va ishlabchiqarishda bo‘yoq sifatida qo‘llanadigan kimyoviy birikma.

NAN(O)... [*yun.* nannos – pakana, mitti, kichik] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib: 1) fizik kattalik birliklarining milliarddan bir ulushiga teng birliklarni ifodalash uchun xizmat qiladi; Mas.: 1 **nanometr =** 10^{-9}m; 2) juda kichik, eng kichik, mitti ma’nolarini bildiradi. Mas.: **nanomeliya, nanoplankton, nanorelyef; nanizm** [nano...+...izm] – mittilik, pakanalik; odam bo‘yining odatda ichki sekretsiya bezlari zararlanishi tufayli g‘ayrime’yoriy past bo‘lishi (erkaklar uchun 125 santimetrdan past, ayollar uchun 120 santimetrdan past); **nanokefaliya // nanotsefaliya** [nano...+...kefaliya] – kichik kallalilik; kallaning odatdagidan ko‘ra kichik bo‘lishi; mikrokefaliya; **nanosomiya** [nano...+ *yun.* soma – tana, gavda] – pakana odamning gavda tuzilishi; **nanotexnologiya** [nano...+ texnologiya] – o‘lchamlari 10^{-9}m bo‘lgan obyektlarni – atomlar, ionlar, molekulalarni o‘rganish va ularga ishlov berish.

NARKO... [*yun.* narkosis – karaxtlik; qotib (serrayib) qolish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, o‘zi qo‘shilgan so‘zlarda tirishib qolish, karaxtlanish, narkoz, narkotik (giyohvand) moddalar ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **narkobanda, narkobiznesmen, narkodeon, narkodollarlar, narkolog, narkoman, narkopsixoterapiya, narkotiklar, narkotizm, narkoto‘da; narkobiznes** [narko...+ biznes] – uyushgan jinoyatchi guruhlarning narkotiklar ishlab chiqarish va tarqatish bilan bog‘liq faoliyati; **narkolepsiya** [narko…+…lepsiya] – bosh miyaning ayrim kasalliklarida turli sharoitlarda (gaplashib turganda yoki yurib kelayotganda) to‘satdan qisqa muddat uxlab qolish; **narkologiya** [narko...+...logiya] – psixiatriyaning surunkali ichkilik-

bozlik, narkomaniya, toksikomaniyaning paydo bo‘lishi va rivojlanishini o‘rganuvchi, ularning oldini olish va davolash usullarini ishlab chiquvchi bo‘limi; **narkomafiya** [narko…+ mafiya] – narkotiklar tayyorlash va ularni sotish, tarqatish bilan shug‘ullanuvchi mafiya; **narkomaniya** [narko...+ ...maniya] – narkotik moddalarga o‘rganib qolish, ruju qilish; tabiiy yoki sintetik zaharli moddalarni vaqtincha yoki surunkasiga iste’mol qilish natijasida kelib chiqadigan, organizm funksiyalarining jismoniy va ruhiy jihatdan buzilishidan iborat kasallik holati; bangilik, giyohvandlik; **narkotiklar** [*yun.* narkotikos – dong qotiruvchi, gangituvchi] – narkomaniyaga, ya’ni bangilikka olib keluvchi tabiiy va sintetik moddalar (ko‘knori, nasha, qoradori, geroin, morfin, kokain kabilar); **narkoz** [*fr.* narcose < *yun.* narkosis – karaxtlik] – narkotik vositalarni qo‘llash orqali bemorlarda sun’iy ravishda vujudga keltiriladigan uyqu holati.

...NATAL [*lot.* natalis – tug‘ilishga, tug‘uruqqa oid, aloqador] – o‘zlashma yasama so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, o‘zi qo‘shilgan prefiksoidlar bilan tug‘ilish, tug‘uruqning turli davr (vaqt) larini bildiradi. Mas.: **antenatal** [*lot.* ante – avval, oldin, -gacha +…natal] – organizmning pusht hosil bo‘lishidan to tug‘uriqqacha bolgan davriga oid; **intranatal** [intra…+…natal] – bevosita tug‘ish vaqtiga oid; **neonatal** [neo...+...natal] – yangi tug‘ilish (chaqaloqlik) davriga oid; **perinatal** [peri...+...natal] – tug‘ilisholdi, tug‘ilish va undan keyingi dastlabki davrga oid; **postnatal** [post…+ …natal] – tug‘ilgandan keyingi davrga oid; **prenatal** [pre…+…natal] – tug‘ish boshlanishidan oldingi davrga oid.

NAUT(O)... [*lot.* nautes – dengizchi] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning dengizga, shuningdek, kemalarga aloqadorligini anglatadi. Mas.: **nautiloideyalar, nautiluslar; nautofon** [nauto...+...fon] – tumanli yoki bulutli ob-havo paytida tovushli signallar berish uchun mayoqlarga o‘rnatiladigan membranali elektroakustik apparat.

...NAVT, ...NAVTIKA [*yun.* nautes – (kemada) suzuvchi, nautike – kemani boshqarish san’ati] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismlari bo‘lib, shu so‘zlarning suvda suzish, kosmik apparatda uchishga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **aeronavt, aeronavtika, astronavtika, gidronavt, kosmonavt, okeanavt, taykonavt** (Xitoyda – kosmonavt); **akvanavt** [akva...+...navt] – okean va dengizlarning g‘avvoslar tusha olmaydigan chuqurliklarida gidrokostyumda yoki suvosti apparatlarida turli ishlarni bajaruvchi mutaxassis; gidronavt; **astronavt** [astro...+...navt] – kosmik fazo-

ga parvoz qiluvchi odam (ba'zi g'arb mamlakatlarida *kosmonavt* atamasi o'rnida ishlatiladigan so'z); **kosmonavtika** [kosmo...+...navtika] – insoniyat manfaatlari yo'lida, turli xildagi kosmik apparatlardan foydalangan holda, kosmosni va Yerdan tashqaridagi kosmik obyektlarni o'rganadigan fan va texnika sohalari majmuyi; astronavtika; **stratonavt** [strato...+...navt] – maxsus apparat – stratostatda uchuvchi shaxs.

Ayrim manbalarda shu tipdagi so'zlar tarkibidagi -**navt** terminelementini lotincha *navis* (kema), *nauta* (dengizchi) so'zlariga nisbat beradilar.

NAZ(O)... [*lot.* nasus – burun] – o'zlashma qo'shma, yasama so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, burun ma'nosini ifodalaydi. Mas.: **nazalizatsiya** [*fr.* nasalization < *lot.* nasus – burun] – burunlanish; nutq tovushlarining (asosan, unlilarning) yumshoq tanglay pasayishi va o'pkadan chiqayotgan havo oqimining ayni bir paytda ham og'iz, ham burundan chiqishidan iborat artikulyatsiyasi; **nazofaringit** [nazo...+ faring(o)...+...it] – burun va yutqin shilliq qavatining bir vaqtda yallig'lanishi; **nazografiya** [nazo...+...grafiya] – rentgenda burunning rasmini olish.

NEFO..., NEFELO... [*yun.* nephos, nephele – bulut] – o'zlashma qo'shma so'zlarning birinchi qismi bo'lib, shu so'zlarning bulutga aloqadorligini ko'rsatadi. Mas.: **nefelin, nefelometriya; nefanaliz** [nef(o)...+ analiz] – Yerning meteorologik sun'iy yo'ldoshlaridan olingan ma'lumotlar asosida tuzilgan, bulut qatlami (bulutlilik) ning taqsimlanish xaritalarini o'rganish, tahlil qilish; **nefelometr** [nefelo...+...metr] – erigan moddalar konsentratsiyasini aniqlash hamda tuman zichligini o'lchash uchun mo'ljallangan optik asbob; **nefoskop** [nefo...+...skop] – bulutning harakat tezligi va yo'nalishini aniqlaydigan asbob.

NEFR(O)... [*yun.* nephros – buyrak] – o'zlashma qo'shma so'zlarning birinchi qismi bo'lib, buyrak ma'nosini anglatadi. Mas.: **nefrektomiya, nefridin, nefridiyalar, nefroblastoma, nefrokalsinoz, nefrolit, nefrolitiaz, nefrolitotomiya, nefrolog, nefromegaliya, nefron, nefropeksiya, nefropiyelit, nefroskleroz, nefroskop, nefrostomiya, nefrotom, nefrotsirroz, nefrotsitlar; nefralgiya** [nefr...+...algiya] – buyrakdagi og'riq; **nefrektaziya** [nefr...+...ektaziya] – buyrakning, buyrak naychalarining kengayib ketishi; **nefrit** [nefr...+...it] – buyrakning o'tkir yoki surunkali yallig'lanishi; **nefrologiya** [nefro...+...logiya] – tibbiyotning buyrak tuzilishi va faoliyati, kasalliklarini o'rganuvchi, shuningdek, ularni davolash va oldini olish usullarini ishlab chiquvchi bo'limi; **nefroma** [nefr...+...oma] – buyrakning xavfli o'smasi; **nefropatiya** [nefro...+...patiya] – buyrakning turli morfologik va

funksional kasalliklarini anglatuvchi umumiy tushuncha (termin); **nefroptoz** [nefro…+…ptoz] – buyrakning past joylashishi; harakatchan, sayyor buyrak; **nefrorragiya** [nefro…+…rragiya] – buyrakdan qon oqishi, buyrak gemorragiyasi; **nefroskopiya** [nefro...+...skopiya] – buyrak jomi va kosachalarini maxsus asbob – nefroskop yordamida tekshirish; **nefrotomiya** [nefro…+ …tomiya] – toshni olib tashlash maqsadida buyrakni buyrak jomigacha kesish operatsiyasi; **nefroz** [*yun.* nephros – buyrak] – buyrak naychalari epiteliysining distrofiyasi va o‘lishi bilan kechadigan buyrak kasalligi.

NEGA(T)... [*lot.* negativus – salbiy, manfiy < negare – rad (inkor) qilmoq, qaytarmoq] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, inkor, aks kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **negativ** (salbiy, manfiy); **negativ** [*lot.* negativus – salbiy, manfiy] – oq-qora fotografiya va kinematografiyada: olingan suratning oq-qora yoki rangli qismlarining asl obyektga nisbatan qarama-qarshi bo‘lgan tasviri; **negativizm** [*lot.* negativus – salbiy, manfiy +...izm] – ayrim ruhiy kasalliklarning belgilaridan biri: atrofdagi, tashqaridan bo‘ladigan har qanday ta’sirga qarshilik qilish, haqiqiy sharoitni hisobga olmay o‘jarlik qilish.

NEKRO... [*yun.* nekros – o‘lik] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, o‘lik, o‘lish ma’nolarini anglatadi. Mas.: **nekrobakterioz, nekrobatsillyoz, nekrobionika, nekrofiliya, nekrogen, nekronefroz, nekronim, nekrosadizm, nekrospermiya, nekrotoksin, nekrozin; nekrektomiya** [nekr…+…ektomiya] – o‘lgan to‘qimalarni olib tashlash operatsiyasi; **nekremiya** [nekr…+…emiya] – o‘lgan, ivib qolgan qon, qonning yashash xususiyatini yo‘qotishi; **nekrobioz** [nekro...+...bioz] – hujayra va to‘qimalarda ular nobud bo‘lishidan oldin ko‘proq yoki kamroq davom etadigan o‘zgarishlar jarayoni; **nekrofaglar** [nekro…+…fag] – o‘laksaxo‘rlar, murdaxo‘rlar; boshqa hayvonlarning o‘liklari bilan oziqlanuvchi jonivorlar; **nekrofobiya** [nekro...+...fobiya] – o‘likdan, murdadan, o‘likni ko‘mish jihozlaridan qo‘rqish; **nekrolog** [nekro...+...log] – biror kishining o‘limi haqida, marhumning kimligi, hayoti va faoliyati to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan maqola yoki kichik xabar; **nekrologiya** [nekro…+…logiya] – o‘lim haqidagi statistik ma‘lumotlar, o‘lim sabablari to‘g‘risidagi ta’limot; **nekromaniya** [nekro…+…maniya] – murdani xo‘rlashga intilish shaklida kuzatiladigan patologik moyillik; **nekrometr** [nekro…+…metr] – o‘lik a’zolarini o‘lchaydigan asbob; **nekropol** [nekro...+ *yun.* polis – shahar = o‘liklar shahri] – qadimgi Sharq va antik dunyoda qabriston nomi; **nekropsiya** [nekr(o)…+ …opsiya] – murdani tekshirish, ko‘zdan kechirish; **nekrotomiya** [nekro…+

…tomiya] – to‘qimalarning o‘lgan qismlarini kesib olib tashlash; **nekroz** [*yun.* nekros – o‘lik, o‘lgan] – tirik organizmda qaysidir a’zoning, uning to‘qima va hujayralarining o‘lishi, jonsizlanishi.

NEMA(T)... [*yun.* nema (nematos) – ip] – o‘zlashma yasama so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlar tarkibida ip, ipga, ipkalavaga o‘xshash ma’nolarini anglatadi. Mas.: **nematelmintlar; nematoblast, nematodiaz, nematofiton; nematitsidlar** [nemat(i)...+...sid] – dumaloq chuvalchanglarni (nematodlarni) o‘ldiruvchi, yo‘q qiluvchi kimyoviy moddalar; **nematodlar** [nemat(o)...+...oid] – dumaloq chuvalchanglar – tana shakli ipsimon yoki urchuqsimon bo‘lgan, suvda va tuproqda yashovchi, tirik organizmlarda parazitlik qiluvchi va turli kasalliklar keltirib chiqaruvchi chuvalchanglar sinfi; **nematodozlar** [nematod…+…oz] – nematodlar qo‘zg‘atadigan gelmintozlarning nomi; **nematotsitlar** [nemato...+...sit] – bo‘shliqichli hayvonlar sirtqi epiteliysidagi himoya va hujum uchun xizmat qiluvchi hujayralar.

NEO... [*yun.* neos – yangi] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, ikkinchi qism anglatgan narsa, hodisaning yangiligini, yangidan yaratilganligini yoki bir qadar o‘zgarganligini bildiradi. Mas.: **neoartroz, neodarvinizm, neodikumarin, neofashizm, neofit, neofreydizm, neogen** (sistema)**, neoglobalizm, neokantchilik, neoklassitsizm, neokolonializm, neomitsin, neontologiya, neopentan, neoplatonizm, neoplazma, neorealizm, neoromantizm, neostigmin, neosxolastika, neotsitoz; neoantroplar** [neo...+...antrop] – yangi odamlar – antropologiyada qo‘llanuvchi va qazilma (kromanyonlar) hamda hozir yashayotgan, hozirgi ko‘rinishdagi odamlarni bildiruvchi termin; **neodim** [neo…+ *yun.* didymos – qo‘shaloq, egizak] – Mendeleyev davriy sistemasining III guruhiga mansub kimyoviy element; och kulrang metall; **neofiliya** [neo…+…filiya] – bemorlarning turmushga tatbiq qilib bo‘lmaydigan tushunchalarini o‘tkazishga intilishi; **neofobiya** [neo…+…fobiya] – yangilikdan (ishi yoki atrofidagi o‘zgarishlardan) qo‘rqish; **neolit** [neo...+...lit] – Yer tarixida tosh davrining so‘nggi bosqichi: dehqonchilik, chorvachilik, ishlabchiqarishga o‘tish; o‘troqlashish bilan xarakterlanadi; **neologizmlar** [neo...+ log(o)...+...izm] – yangi narsalarni, yangi tushunchalarni ifodalash (nomlash) uchun yaratilgan yoki boshqa tillardan o‘zlashtirilgan yangi so‘z va iboralar; **neon** [*lot.* neon < neo] – Mendeleyev davriy sistemasining 0 (nolinchi) guruhiga mansub kimyoviy element; havo tarkibida bo‘ladigan rangsiz va hidsiz gaz; **neonatal** [neo…+ *fr.* natal < *lot.* natalis – tug‘ilishga oid]: ***neonatal davr*** – yangi tug‘ilish (chaqaloqlik) davri; **neonatalogiya** [neo...+ *lot.* natalis – tug‘ilishga oid +...logiya] – pediatriyaning chaqaloqlar fiziologiyasi bilan shug‘ullanadi-

gan bo‘limi; **neoplaziya** [neo…+ *yun.* plasis – paydo bo‘lish, shakllanish] – neoplazma, blastoma – yangi hosil bo‘lgan to‘qima, o‘sma; **neotsit** [neo…+ …sit] – voyaga yetmagan yosh oq qon tanachasi.

NEVR(O)... [*yun.* neuron – tomir, nerv] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, ularning nervlarga, nerv sistemasiga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **nevraksit, nevrapraksiya, nevrastenik, nevrinoma, nebroblast, nevroblastoma, nevrodermit, nevrodinamika, nevrogen, nevrogenez, nevroglioma, nevrogliya, nevroglobulin, nevrolemma // nevrilemma, nevrolog, nevron, nevronofagiya, nevropat, nevropatolog, nevropsixiatriya, nevroretinit, nevrosepsis, nevroskleroz, nevrospazm, nevrotik, nevrotizatsiya, nevrotoniya, nevrotravma, nevrotripsiya; nevralgiya** [nevr...+...algiya] – nerv tolalari bo‘ylab tarqaladigan kuchli og‘riq; **nevrasteniya** [nevr…+ asten(o)…+…iya] – nerv sistemasi charchashidan kelib chiqadigan kasallik; nevroz kasalliklarining bir turi; **nevrit** [nevr...+ ...it] – periferik nervlarning yallig‘lanishi; **nevrofibroma** [nevro…+ fibr(o)…+ …oma] – periferik nerv tolalari pardasidan o‘sib chiqadigan o‘sma; **nevroliz** [nevro…+…liz] – periferik nervlarni chandiqlardan xalos qilish operatsiyasi; **nevrologiya** [nevro...+...logiya] – odam va hayvonlar nerv sistemasining normal va patologik holatlardagi tuzilishi hamda funksiyalari, uning filogenezi va ontogenezi qonuniyatlari to‘g‘risidagi tibbiy-biologik fan; **nevroma** [nevr(o)…+…oma] – nerv periferik to‘qimasida rivojlangan xavfsiz o‘sma; **nevropatiya** [nevro...+…patiya] – vegetativ nerv sistemasi qo‘zg‘aluvchanligining tug‘ma disfunksiyasi, buzilishi; **nevropatologiya** [nevro...+ patologiya] – tibbiyotning nerv sistemasi kasalliklarini, ularning oldini olish va davolash usullarini o‘rganuvchi bo‘limi; **nevropsixologiya** [nevro…+ psixologiya] – nerv-psixik kasallik (holat) lar haqidagi ta’limot; **nevrosom** [nevro...+ *yun.* soma – tana, gavda] – nerv hujayralari tanasi; **nevrotomiya** [nevro…+…tomiya] – bir xil nerv kasalliklarida mushaklarga boruvchi nerv tolalarini kesish (davolash usuli); **nevroz** [nevr(o)…+…oz] – uzoq davom etgan og‘ir ichki kechinmalar, ruhiy iztiroblar ta’sirida paydo bo‘ladigan asabiy-ruhiy kasalliklarning umumiy nomi.

NEYR(O)... [*yun.* neuron – tomir, nerv] – izohi *ayn.* **nevr(o)...** Mas.: **neyrilemma, neyroallergiya, neyrobiotaksis, neyroblast, neyroblastoma, neyrobrutsellyoz, neyrodendrit, neyrodinamika, neyroepitelioma, neyrofibroma, neyfibromatoz, neyrofizin, neyrofiziologiya, neyrogen, neyrogipofiz, neyrogistologiya, neyrogliya, neyroglobulin, neyrogormonlar, neyroinfeksiya, neyrokarsinoma, neyrokeratin, neyrolepsiya, neyroleptiklar, neyrolipoma, neyromediator, neyromiksoma, neyromiyelit,**

neyron, neyronofagiya, neyropeptidlar, neyropil, neyroplazma, neyropsixiatriya, neyropsixologiya, neyrorafiya, neyroretinopatiya, neyrosekretsiya, neyrosifilis, neyrotoksikozlar, neyrotomiya, neyrotrofik, neyrotroplik, neyrotsit, neyrula; neyroanatomiya [neyro...+ anatomiya] – anatomiyaning nerv sistemasining shakli va tuzilishini oʻrganuvchi boʻlimi; **neyrodermit** [neyro…+ derm…+…it] – terining ruhiy-asabiy iztiroblarga bogʻliq holda rivojlanib, kuchayib boradigan, uning qichishi, yuza qatlamining qalinlashishi bilan namoyon boʻladigan kasalligi; **neyroendokrinologiya** [neyro…+ endokrinologiya] – endokrinologiyaning hayot jarayonlarini boshqarishda markaziy nerv sistemasi bilan endokrin sistema rivojlanadigan oʻzaro aloqalarini oʻrganadigan boʻlimi; **neyrofarmakologiya** [neyro…+ farmakologiya] – farmakologiyaning nerv sistemasiga ta'sir qiluvchi dori vositalarini oʻrganadigan boʻlimi; **neyrofibrillalar** [neyro...+ *lot.* fibrilla – tolacha, ingichka tola] – nerv hujayrasi tanasi va uning oʻsimtalarida nerv sistemasi boʻylab impulslar oʻtkazishda ishtirok etuvchi ingichka tolalar; **neyrogenez** [neyro…+…genez] – nerv sistemasining rivojlanishi va takomillashishi; **neyroginekologiya** [neyro...+ ginekologiya] – tibbiyotning ayollar jinsiy a'zolari kasalliklari va nerv sistemasi oʻrtasidagi aloqadorlikni oʻrganuvchi boʻlimi; **neyrokimyo** [neyro…+ kimyo] – biokimyoning nerv toʻqimasining kimyoviy tarkibini va undagi modda almashinuvining xususiyatlarini, qoʻzgʻalish va tormozlanish jarayonlarini oʻrganuvchi sohasi; **neyrolingvistika** [neyro…+ lingvistika] – markaziy nerv sistemasida muayyan nutqiy ifodalarni shakllantirish, boshqalaridan farqlay olish kabilar bilan bogʻliq jarayonlarni oʻrganuvchi fan tarmogʻi; **neyromneziya** [neyro…+ *yun.* mneme – xotira] – psixogen reaksiya, odamning mugʻombirlik qilib, oʻzida markaziy nerv sistemasi kasalligi bor, deb koʻrsatishga urinishi; **neyroretinit** [neyro…+ retin…+…it] – koʻruv nervi va koʻz pardasining yalligʻlanishi; **neyrotoksinlar** [neyro…+ *yun.* toxikon – zahar] – nerv sistemasiga tanlab ta'sir etadigan biologik tabiatli zaharlarning umumiy nomi; **neyroxirurgiya** [neyro…+ xirurgiya] – neyrojarrohlik – nerv sistemasi kasalliklarini va jarohatlanish natijalarini jarrohlik usullari bilan davolash; **neyrulyatsiya** [neyrula +…atsiya] – odam va xordali hayvonlar embrionida nerv plastinkasi (neyrula) ning hosil boʻlishi va uning nerv naychasi bilan birikish jarayoni.

NEYTR(O)... [*lot.* neuter – oʻrtadagi, u ham, bu ham emas] – oʻzlashma qoʻshma soʻzlarning birinchi qismi boʻlib, betaraf, unga ham, bunga ham tegishli boʻlmagan ma'nolarini anglatadi. Mas.: **neytral, neytralizator, neytrallik = neytralitet, neytrino, neytrofillar, neytroniy, neytropeniya, neytrotsit, neytrotsitoz; neytral** [*lot.* neutralis – na unga, na bunga tegishli] –

1) kurashayotgan tomonlarning birontasiga ham qo‘shilmaydigan, chekkada turuvchi, neytralitetni saqlovchi; 2) kimyoda: na kislotali, na ishqoriy reaksiyaga kirishadigan; **neytralitet** [*nem.* Neutralität – betaraflik < neytral +…itet] – 1) boshqalar tortishuviga, janjaliga aralashmaslik; 2) davlatlarning xalqaro-huquqiy holati: urush paytida – urushda ishtirok etmaslik; tinchlik paytida – harbiy uyushma, ittifoqlarga qo‘shilmaslik; **neytralizatsiya** [neytral + …izatsiya] – 1) neytral (betaraf, xolis) qilib qo‘yish, neytrallash; 2) neytrallash (neytrallanish) reaksiyasi (eritmaga ishqor qo‘shib, uning kislotalik xususiyatini yoki kislota qo‘shib, ishqorlik xususiyatini yo‘qotish); **neytralizm** [*fr.* neutralisme < *lot.* neutralis +...izm] – muayyan davlatning boshqa davlatlar bilan munosabatlarda neytralitet (betaraflik) tamoyiliga asoslangan siyosati; **neytrofiliya** [neytro…+…filiya] – periferik qonda neytrofillar (donali leykositlar) sonining ko‘payishi; **neytron** [*ingl.* neutron < *lot.* neutrum – u ham emas, bu ham emas] – elektrik jihatdan neytral (elektr zaryadi nolga teng) elementar zarra; atom yadrosining tarkibiy qismi; **neytronografiya** [neytron(o)…+ …grafiya] – moddani sekinlashgan neytronlarni tarqatib yuborish yordamida tekshirish usullari majmuyi.

...NEZ [*yun.* nes – orol] – o‘zlashma, tilimizda qo‘llanadigan o‘zga joy (mamlakat va hududlar) nomlarining ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, orol, orolda joylashgan ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **Indoneziya, Melaneziya, Mikroneziya, Polineziya**.

NIGIL... [*lot.* nihil – hech narsa, hech nima] – o‘zlashma yasama so‘zlarning o‘zak qismi bo‘lib, inkor qilish, tan olmaslik ma’nolarini bildiradi. Mas.: **nigilist; nigilizm** [nigil...+...izm] – barcha tomonidan e’tirof etilgan mavjud ijtimoiy hayot shakli va axloqiy normalarni, madaniy meros hamda ideallarni inkor etish.

NIGR... [*lot.* niger – qora] – o‘zlashma yasama so‘zlarning o‘zak qismi bo‘lib, qora rang, qora rangdagi kabi ma’nolarni anglatadi. Mas.: **nigrin** [*lot.* niger – qora] – asosan, titan qo‘sh oksiddan iborat mineral nomi; **nigrol** [nigr(o)...+...ol] – tindirilgan va filtrlangan yog‘li gudron; mexanizmlarni moylash uchun ishlatiladigan modda; **nigrosporoz** [nigro...+*yun.* spora – urug‘ +...oz] – makkajo‘xori so‘tasi va g‘o‘za ko‘sagining zararlangan qismlarida qora dog‘lar (nuqtalar) hosil bo‘lishidan iborat kasallik; **nigrozin** [nigro(z)...+...in] – plastmassa, gazlamalar, charm, mo‘ynalarni bo‘yash hamda siyoh tayyorlash uchun ishlatiladigan qora bo‘yoq.

NIKT(O)... [*yun.* nyx (nyktos) – tun] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarning qorong‘ilikka yoki tunga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **niktalopiya, niktofiliya, niktofoniya; niktalgiya** [nikt...+ ...algiya] – tungi og‘riq; faqat tunda uxlab yotganda paydo bo‘ladigan og‘riq; **niktinastiyalar** [nikto...+ *yun.* nastos – zich, tig‘iz; qalinlashgan] – o‘simliklarning barglari va boshqa a’zolarining kecha va kunduz almashinuviga, shuningdek, harorat va yorug‘lik o‘zgarishiga nisbatan reaksiyasi (kunduzi gullarning ochilishi va tunda yopilishi yoki aksincha); **niktofobiya** [nikto...+ ...fobiya] – qorong‘ilikdan qo‘rqishdan iborat ruhiy holat; **nikturiya** [nikt...+ ...uriya] – tunda siydik ajralishining ko‘payishi yoki siyib qo‘yish bilan xarakterlanadigan patologik holat.

NITR(O)... [*yun.* nitron – tabiiy soda, selitra] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarning azotga, azot kislotasiga va azotli birikmalarga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **nitraminlar, nitrazepam, nitritlar, nitroammofoska, nitroanilinlar, nitroaralashma, nitrobakteriyalar, nitrobirikmalar, nitrobo‘yoqlar, nitrofenol, nitrofos, nitroglikol, nitroguruh, nitroliz, nitroloklar, nitrometan, nitrometr, nitrometriya, nitron, nitroxlorbenzol; nitragin** [nitr(o)...+...in] – dukkakli ekinlarga mo‘ljallangan bakterial o‘g‘it bo‘lib, tarkibidagi tuganak bakteriyalar atmosfera azotini o‘zlashtirib, uni o‘simlikka mos keladigan birikmaga aylantiradi; **nitratlar** [nitr...+...at] – nitrat (azot) kislota tuzlari; **nitridlar** [nitr...+ ...id] – azotning boshqa, yuqori elektrmusbat elementlar bilan birikmalari – qiyin eriydigan, yuqori haroratlarda barqaror moddalar; **nitrifikatsiya** [nitr(o)...+...fikatsiya] – ammiak va ammoniy tuzlarining nitratlarga aylanishidan iborat biokimyoviy jarayon; **nitrillar** [nitr(o)...] – sianid kislota hosilalaridan bo‘lgan organik birikmalar sinfi; **nitrobenzol** [nitro...+ benzol] – aromatik qatordagi organik birikma, achchiq bodom hidli moysimon, zaharli suyuqlik; **nitrofillar** [nitro...+...fil] – nitratlarga o‘ta boy tuproqlarda o‘suvchi va hosil beruvchi o‘simliklar; **nitrofoska** [nitro...+ fos(for) + ka(liy)] – uch qismli (azot, fosfor va kaliyli), turli qishloq xo‘jalik ekinlari ekiladigan har xil tuproqlarga mos keladigan o‘g‘it; **nitroglitserin** [nitro...+ glitserin] – nitrat (azot) kislota va glitserinning murakkab efiri; rangsiz, yopishqoq suyuqlik, kuchli portlovchi modda; **nitrolash** – organik moddalarga nitrat va sulfat kislotalar aralashmasini ta’sir ettirib, nitromahsulotlar hosil qilish reaksiyasi; **nitrotsellyloza** [nitro...+ sellyuloza] – sellyulozaning nitratli efirlari; yonuvchan, kislota va ishqorlar ta’siriga chidamsiz modda(lar).

NIV... [*lot.* niv – qor] – o‘zlashma yasama so‘zlarning o‘zak qismi bo‘lib, shu so‘zlarning qorga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **nival** [*lot.* nivalis – qorli, qorga oid; sovuq]: ***nival iqlim*** – qor ko‘p yog‘adigan, lekin erib va bug‘lanib ulgurmaydigan iqlim; ***nival mintaqa*** – mangu qorlar mintaqasi; tog‘larning eng yuqori, baland mintaqasi.

NOK... [*ingl.* knock – zarba] – ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, zarba ma’nosini anglatadi. Mas.: **nokaut** [nok...+ *ingl.* out – chetlatish] – raqibining bergan zarbasi tufayli bokschining 10 soniyadan ortiqroq bosh aylanish, garangsirash, ba’zan hushini yo‘qotish holati; **nokdaun** [nok...+ *ingl.* down – qulatish] – boksda: raqibining kuchli zarbasidan bokschining garangsib, o‘z harakatlarini boshqara olmay qolishi va 10 soniyadan kamroq bo‘lgan (sakkiz soniya) muddatda jangni davom ettirishga qodir emasligi.

NOKT... [*lot.* nox (noctis) – tun, kechasi] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, tun, kechasi kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **noktilyuklar; noktambulizm** [nokt...+ *lot.* ambulare – sayr qilmoq +...izm] – tungi besaranjomlik, tunda ham xuddi kunduzgidek harakatlar qilish (ko‘pincha ruhiy kasalliklarda); lunatizm, somnambulizm; **noktyurn** [*fr.* nocturne – tungi < *lot.* nocturnus – tungi] – XVIII – XIX asrlarda: ko‘p qismli cholg‘u musiqa asari; odatda, tungi (qorong‘i tushgan) paytlarda ochiq havoda ijro etilgan; keyinchalik: uncha katta bo‘lmagan lirik xarakterdagi musiqiy pyesa.

...NOM [*yun.* nomos – qonun] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi qismi bo‘lib, ilm-fan, holat, jarayonga aloqador shaxs otlarini hosil qiladi. Mas.: **agronom, astronom, ekonom; avtonom** [avto...+...nom] – o‘zini o‘zi boshqaruvchi, avtonomiyaga ega bo‘lgan (masalan, *avtonom respublika*); **gastronom** [gastro...+...nom] – 1) tanqis, nozik ovqatlar ishqibozi va bilimdoni; 2) oziq-ovqat mahsulotlari bilan savdo qiladigan katta magazin. Ushbu terminelement ayrim asbob nomlarini hosil qilishda ham ishtirok etadi: **metronom**.

NOMIN... [*lot.* nomen, nominis – ism, nom] – o‘zlashma yasama so‘zlarning o‘zak qismi bo‘lib, shu so‘zlarning ism, nom, ism berish, nomlash ma’nolariga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **nominal** (ish haqi), **nominalizm, nominativ; nomenklatura** [*lot.* nomenclature – ismlar ro‘yxati] – 1) fan, texnika, san’at va boshqa sohalarda qo‘llanuvchi nomlar (atamalar), terminlar majmuyi yoki ro‘yxati; 2) biror lavozimga tayinlanishi yoki tasdiqlanishi qaysidir yuqori tashkilot vakolatida bo‘lgan shaxslar davrasi; **nominal** [*lot.* nominal – nomga, ismga oid] – 1) qimmatbaho qog‘ozlarda belgilangan, ularning ustiga

yozib qo‘yilgan qiymat (narx, baho); 2) ***nominal baho*** – tovarning preyskurantda yoki tovarning o‘zida ko‘rsatilgan bahosi; **nominatsiya** [*lot.* nominatio – nomlash, atash; nomzod ko‘rsatish] – 1) tilshunoslikda: nomlash xususiyatiga ega bo‘lgan til birliklari (so‘z, so‘z birikmasi, frazeologizm va gap) ni hosil qilish va shu jarayonning natijasi; 2) muayyan ijodkorlik, ish-faoliyat sohasi bo‘yicha bo‘ladigan musobaqa-tanlovlarga nomzodlar ko‘rsatish va g‘olibni aniqlash jarayoni.

...NOMIYA [*yun.* nomos – qonun] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi qismi bo‘lib, o‘zi qo‘shilgan so‘z bilan birga muayyan fanni, qarashlar (yoki qoidalar) tizimini anglatadi. Mas.: **agronomiya, astronomiya, ekonomiya, fizionomiya, geteronomiya, paranomiya; avtonomiya** [avto...+...nomiya] – konstitutsiyaviy huquqda: biron-bir hududning unga konstitutsiya yo‘l qo‘ygan chegaralarda davlat hokimiyatini mustaqil amalga oshirish huquqi; **gastronomiya** [gastro...+...nomiya] – 1) oshpazlik san’ati nozikliklarini tushunish, his etish; 2) yuqori sifatli tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlari, eng avvalo, gazak taomlar majmuyi; **taksonomiya** [takso...+ ...nomiya] – butun borliqning murakkab, odatda, iyerarxik tuzilmali sohalarini (jonli tabiat, Yerning tuzilishi, geografiya, geologiya, tilshunoslik, etnografiya va shu kabilarning obyektlarini) tasniflash va tartibga solish nazariyasi, shu haqdagi fan.

NOMO... [*yun.* nomos – qonun] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, qonun, qonuniy, qonuniyat; tartib ma’nolarini bildiradi. Mas.: **nomogenez** [nomo...+...genez] – tirik tabiatning tarixiy rivojlanishi muayyan ichki qonuniyatlar asosida amalga oshadi deb hisoblovchi evolyutsion konsepsiya; **nomografiya** [nomo...+...grafiya] – matematikaning alohida chizmalar – nomogrammalar tuzish nazariyasi va usullarini o‘rganuvchi sohasi; **nomogramma** [nomo...+...gramma] – turli miqdorlar orasidagi funksional bog‘liqlikni ifodalaydigan chizma.

NON(A)... [*lot.* nona, nonus – to‘qqizinchi < novem – to‘qqiz] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, to‘qqiz(ta) ma’nosini bildiradi. Mas.: **nonan** (kimyoviy birikma)**; nona** [*lot.* nona – to‘qqizinchi] – 1) diatonik gamma (asosiy tovushqator) ning 9-pog‘onasi; tovushqatorning 9 ta kengligi oralig‘i; 2) to‘qqiz satrli (qatorli) turoq; **nonet** [*ital.* nonetto < non...+...etto] – 1) to‘qqiz cholg‘u asbobi yoki to‘qqiz ovoz uchun yozilgan musiqiy asar; 2) to‘qqiz ijrochi (sozanda yoki xonanda) dan iborat ansambl.

NOO... [*yun.* noos – aql-idrok] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, aql-idrok ma’nosini ifodalaydi. Mas.: **noologiya; noopsixika** [noo...+ psixika] – aql-idrok doirasidagi vazifalarni belgilaydigan termin; **noosfera** [noo...+...sfera] – biosferaning inson aql-idroki hukmronlik qiladigan, uning rivojlanishida hal qiluvchi omil bo‘lgan yangi evolyutsion holati.

NORM(O)... [*lot.* norma – me’yor, o‘lchov; qoida, qonun] – o‘zlashma yasama va qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, me’yor, o‘lchov, qoida ma’nolarini bildiradi. Mas.: **normal** (me’yoriy, normaga mos), **normativizm, normoblastlar, normotenziv, normotriptilin, normoxromotsit; norma** [*lot.* norma] – 1) rasmiylashtirilgan qonun-qoida; 2) umum tomonidan qabul qilingan va tan olingan, hamma uchun majburiy deb hisoblangan, qonun hukmiga kirgan tartib-qoida; 3) biror narsaning, ishning aniq belgilangan o‘rtacha o‘lchami, miqdori, me’yori; **normal** [*lot.* normalis – tik, to‘g‘ri] – egri chiziqning biror nuqtasiga o‘tkazilgan urinmaga (yoki sirtning urinma tekisligiga) tik to‘g‘ri chiziq; **normativ** [*lot.* normatio – me’yorlash, tartibga solish] – biron-bir ishni bajarish, dasturni amalga oshirishning iqtisodiy, texnik va boshqa norma ko‘rsatkichlari majmuyi; **normogenez** [norm(o)...+ ...genez] – normal rivojlanish, hech qanday kamchiliksiz rivojlanish; **normotsit** [norm(o)...+...sit] – hajmi, shakli, rangi odatdagicha normal bo‘lgan eritrotsit; **normoxromiya** [normo + *yun.* chroma – rang] – eritrotsitlar rangining normal bo‘lishi.

NOST(O)... [*lot.* nostos – (uyga, vatanga) qaytish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, o‘z uyini, vatanini sog‘inish, qo‘msash ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **nostalgiya** [nost...+...algiya] – vatan sog‘inchi, vatanni qo‘msash; o‘tmish voqea-hodisalarini sog‘inish, shundan kelib chiqadigan qayg‘u holati; **nostomaniya** [nosto...+...maniya] – miyaga o‘rnashib qolgan kuchli yoki g‘ayriixtiyoriy holda vatanga qaytish istagi.

NOZ(O)... [*yun.* nosos – kasallik] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, kasallik ma’nosini ifodalash uchun xizmat qiladi: Mas.: **nozematoz, nozepam, nozofiliya, nozofobiya, nozogeografiya; nozemalar** [noz(o)...] – hasharotlar (ipak qurti, asalari), baliqlarda parazitlik qiluvchi bir hujayrali mikrosporidiyalar turi; **nozoareal** [nozo...+ *lot.* arealis – makoniy < area – maydon, makon] – muayyan kasallikning yoki bir guruh kasalliklarning tarqalish hududi; **nozografiya** [nozo...+...grafiya] – kasalliklarni yozib borish, tavsiflash, qayd qilish; **nozologiya** [nozo...+...logiya] – patologiyaning bir qismi bo‘lib, ba’zi bir kasalliklarni o‘z mohiyati, kechish xususiyatlarini tavsifla-

gan holda o‘rganadi hamda ularni o‘zaro yaqin belgilari bo‘yicha tasniflaydi; **nozomaniya** [nozo…+…maniya] – kasallikka moyillik; o‘zini turli xil kasalliklarga uchragandek his qilish yoki shunday qilib ko‘rsatish.

NUKLE... [*lot.* nucleus – yadro; yong‘oq mag‘izi] – o‘zlashma yasama so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarning yadroga, mag‘izga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **nuklein** (kislotalar), **nukleogistonlar, nukleonlar, nukleoprotaminlar, nukleoproteidlar, nukleozidaza, nukleozidlar, nuklidlar, nuklonlar; nukleazalar** [nukle…+…aza] – nuklein kislotalarda nukleotidlar orasidagi bog‘larni uzadigan fermentlar guruhi; **nukleoalbuminlar** [nukle(o)…+ albuminlar] – nuklein kislotalar bilan albuminlardan tashkil topgan va ko‘pincha hujayralar yadrosi tarkibida bo‘ladigan murakkab oqsillar; **nukleoid** [nukle...+...oid] – bakteriyalarning funksional jihatdan hujayra yadrosiga o‘xshaydigan yadroli moddasi; **nukleola** [nukle...+...ola] – hujayra yadrosi ichida joylashgan yadrocha; yadro tanachasi; **nukleoplazma** [nukle(o)…+…plazma] – hujayra yadrosini hosil qiluvchi modda – xromatin va yadrocha (nukleola) ni qoplovchi oqsillarning kolloid eritmasi; **nukleotidlar** [nukleo(t)…+…oid] – purin yoki pirimidin asosi, uglevod (karbonsuv) hamda fosfat kislotaning bir yoki bir necha qoldig‘idan iborat organik birikmalar; **nuklonlar** [*lot.* nucleus – yadro] – atom yadrolarini tashkil qiladigan zarralar – proton va neytronlarning umumiy nomi.

NYU... [*ingl.* new – yangi] – ingliz tilidan o‘zlashgan qo‘shma toponimlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, yangi degan ma’noni bildiradi. Mas.: **Nyu-Deli, Nyu-Jersi, Nyu-Meksiko; Nyu-York** [New York] – AQShning eng katta sanoat, moliya, savdo-transport hamda siyosiy va madaniy markazi; **Nyu-Hempshir** [New Hampshire] – Angliyadagi graflik va AQShdagi shtat nomi; 2) XX asr boshlarida AQShning Nyu-Xempshir shtatida yaratilgan, go‘shti va tuxumi uchun boqiladigan tovuq zoti.

O

OBER... [*nem.* ober – bosh, yuqori, katta] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, lavozim yoki biror sifatning yuqoriligini, kattaligini ko‘rsatadi. Mas.: **ober-konduktor, ober-ofitser, ober-prokuror; oberton** [ober...+...ton] – 1) texnikada: asosiy tonga nisbatan ancha yuqori chastotali murakkab tebranishlardan tashkil topgan ton; 2) musiqada: asosiy tovush bilan birga paydo bo‘ladigan va unga boshqacha tus beradigan tovush.

...OD [< ***elektrod*** (elektr + *yun.* hodos – yo‘l = elektro‘tkazgich) so‘zining qisqartmasi] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, elektron lampalardagi elektrodlar degan ma’noga ishora qiluvchi affiks (yasovchi qo‘shimcha). Mas.: **diod, elektrod, geksod, geptod, tetrod, triod; anod** [*yun*. anodos – yuqoriga yo‘l, ko‘tarilish] – 1) elektr toki manbayining musbat qutbi; 2) elektr toki manbayining musbat qutbi bilan biriktirilgan asbob elektrodi; **katod** [*yun.* kathodos – pastga ketgan yo‘l, nishablik] – 1) doimiy elektr toki manbayining manfiy qutbi; 2) elektr tokining manfiy qutbli manbayi bilan biriktirilgan asbob elektrodi; **pentod** [pent...+...od] – besh elektrodli, ya’ni katod, anod va 3 ta to‘rli elektron lampa.

ODO... [*yun.* hodos – yo‘l] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, yo‘l ma’nosini ifodalaydi. Mas.: **odograf** [odo...+...graf] – kema bosib o‘tadigan yo‘lni xaritada avtomatik tarzda chizib beruvchi elektronavigatsion asbob; **odometr** [odo...+...metr] – otliq ekipaj yo‘lda yurganda, uning g‘ildiraklari aylanishini hisoblovchi asbob.

...ODON, ...ODONT [*yun.* odus (odontos) – tish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, tish ma’nosini bildiradi; qazilma sutemizuvchilar nomlarida tasnif uchun foydalaniladigan so‘ng qo‘shimcha. Mas.: **parodont, parodontoz, periodont, ortodontiya; mastodontlar** [mast(o)...+...odont] – fillardan oldingi xartumli sutemizuvchilar; kuchli rivojlangan yuqori va, shuningdek, fillardan farqli ravishda, pastki o‘siq tishlarga ega bo‘lgan; **periodontit** [peri...+...odont...+...it] – tishning ildiz atrofi pardasining (qobig‘ining) yallig‘lanishi; **pteranodon** [pter(o)...+ an...+...odon] – muz

davrida ulkan uchuvchi kaltakesak; uchganda qanotlarining kengligi 8 metrga yetgan, ulkan kallasi, tishsiz katta tumshug‘i bo‘lgan.

ODONT(O)... [*yun.* odus (odontos) – tish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, tish va u bilan bog‘liq kasalliklar ma’nosini bildiradi. Mas.: **odontoblastlar, odontodisplaziya, odontogen** (o‘sma)**, odontograf, odontogramma, odontoklast, odontoklastoma, odontolog, odontoterapiya; odontalgiya** [odont...+...algiya] – tishlardagi og‘riq; **odontit** [odont...+...it] – tishning yallig‘lanishi; **odontolit** [odonto...+...lit] – 1) tish toshi; 2) qirilib ketgan hayvonlarning yashil amorf modda (kalsiy gidrofosfat va alyuminiy-mis aralashmasi) bilan almashingan skelet suyaklari, tishlari; **odontografiya** [odonto…+…grafiya] – tishni olib tashlash yoki davo qilishdan oldin rentgenda suratini olib (rentgenogramma) tekshirish; **odontologiya** [odonto...+...logiya] – tibbiyotning stomatologiya bo‘limi; tish kasalliklari va ularni davolash haqidagi ta’limot; **odontoma** [odont…+…oma] – har xil tish to‘qimalari (qattiq va yumshoq) aralashmasidan hosil bo‘lgan o‘sma; **odontorragiya** [odonto…+…rragiya] – tishni oldirgandan so‘ng ko‘p qonashi; **odontoskop** [odonto...+...skop] – tishlarni tekshirish uchun ishlatiladigan oyna.

ODOR... [*lot.* odor – hid, is, bo‘y] – o‘zlashma yasama so‘zlar tarkibida kelib, hid, is, hidli kabi ma’nolarni ifodalaydi. Mas.: **odorant** [odor...+...ant] – gaz yoki havoga o‘ziga xos hid berish uchun qo‘shiladigan oltingugurtli modda; **odorizatsiya** [odor...+...izatsiya] – biror narsaga muayyan hid berish, uni o‘ziga xos hidli qilish.

OFF... [*ingl.* off – -dan uzoqlashish, ketish] – ingliz tilidan o‘zlashgan bir qator qo‘shma so‘zlarda uzoqlashish, tashqari(da), uzilish ma’nolarini bildiradi. Mas.: **oflayn // offlayn** [*ingl.* offline – chiziqdan tashqarida; tarmoqdan uzilgan] – dasturiy ta’minot va qurilmalarning internetga bog‘liq bo‘lmagan, kompyuter tizimiga bevosita ulanmagan, unga kiritilmagan va undan foydalanilmagan holati; **ofsayd // offsayd** [*ingl.* offside] – “o‘yindan tashqari holat”: futbol va xokkey o‘yinlarida o‘yinchining mavjud qoidalarni buzish, ularga rioya qilmaslik orqali raqib darvozasiga zarba berish uchun qulay vaziyatda bo‘lishi; **ofshor // offshor** [*ingl.* off-shore – qirg‘oqdan uzoqda, mamlakat hududidan tashqarida] – xorijiy kompaniyalarga ular bilan birgalikda biznes qilish maqsadida soliqlar sohasida muayyan imtiyozli sharoitlar yaratib bergan mamlakat, hudud; boshqa mamlakat hududida ro‘yxatga olingan va o‘sha yerda o‘z faoliyatini amalga oshirayotgan korxona.

OFTALM(O)... [*yun.* ophthalmos – ko‘z] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarning ko‘zga, ko‘z kasalliklariga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **oftalmektomiya, oftalmoblennoreya, oftalmogelmintozlar, oftalmokoagulyator, oftalmokoagulyatsiya, oftalmolog, oftalmomalyatsiya, oftalmopatiya, oftalmoreaksiya, oftalmoreografiya, oftalmoskleroz, oftalmoskop, oftalmotonometriya, oftalmoxromoskopiya; oftalmit** [oftalm...+...it] – ko‘zning yallig‘lanishi; **oftalmiya** [oftalm...+...iya] – ko‘zning ba’zi yallig‘lanish kasalliklarining umumiy nomi; **oftalmodinamometriya** [oftalmo...+ dinamo...+...metriya] – ko‘z to‘r pardasi tomirlaridagi qon bosimini o‘lchash; **oftalmologiya** [oftalmo...+...logiya] – ko‘z kasalliklarini, ularni davolash va oldini olish usullarini o‘rganadigan fan; **oftalmoplegiya** [oftalmo...+...plegiya] – ko‘zning bir yoki bir necha mushagining falajlanishi; **oftalmorragiya** [oftalmo...+....rragiya] – ko‘z soqqasidan qon ketishi; **oftalmoskopiya** [oftalmo...+...skopiya] – maxsus asbob – oftalmoskop yordamida ko‘z soqqasining ichki pardalarini (tubini) tekshirish usuli; **oftalmostat** [oftalmo...+...stat] – ko‘z operatsiyalari vaqtida ko‘zni qimirlatmay ushlab turuvchi asbob; **oftalmotomiya** [oftalmo...+...tomiya] – ko‘z soqqasini kesishdan iborat jarrohlik muolajasi.

...OID [*yun.* eidos – ko‘rinish, o‘xshash] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi (yasovchi qo‘shimcha) bo‘lib, shu so‘zlarning o‘zak qismidan anglashilgan ma’noga o‘xshashlikni ifodalaydi. Mas.: **alkaloidlar, diploid, gaploid, giperboloid, katenoid, lantanoidlar, metalloidlar, oneyroid, polyaroid, selluloid, spermatozoid; antropoidlar** [antrop(o)...+...oid] – odamsimon maymunlar; **asteroidlar** [astero...+...oid] – kichik sayyoralar; Quyosh sistemasining Mars va Yupiter orbitalari o‘rtalig‘ida aylanadigan kichik osmon jismlari; **bakteroidlar** [bakter(io)...+...oid] – spora hosil qilmaydigan, odamning og‘iz bo‘shlig‘ida, ichaklarida, jinsiy a’zolarida bo‘ladigan qo‘zg‘almas anaerob bakteriyalar; **ellipsoid** [*yun.* ellipsis – kamchilikli, nuqsonli +...oid] – ellipsning o‘z o‘qlaridan biri atrofida aylanishidan hosil bo‘ladigan yopiq geometrik sirt; **kolloidlar** [koll(o)...+...oid] – zarralarining o‘lchamlari turlicha bo‘lgan, kristallanmaydigan, suvda eritilganda, loysimon quyuq eritma hosil qiladigan moddalar (yelim, kraxmal, oqsil kabilar); **organoidlar** [*yun.* organon – narsa, qurol +...oid] – hayvonlar va o‘simliklar hujayrasida doimo mavjud bo‘ladigan, muayyan hayotiy vazifalar bajaradigan aralshmalar; **sferoid** [sfer(o)...+...oid] – sferaga o‘xshash, sirtlari chegaralangan har qanday jism; **zebroidlar** [zebra +...oid] – ot yoki eshakning zebra bilan duragayi.

OKEAN(O)... [*yun*. okeanos – Yerni aylanib oqadigan azim daryo] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, ulkan suv havzasi, okean ma’nolarini bildiradi. Mas.: **okean, okeanograf, okeanolog, okeanonim, okeanshunos, okeanshunoslik; okeanarium // okeanariy** [okean…+…arium /…ariy] – dengiz jonivorlari (baliq, delfin, tyulen, morj kabilar) ni saqlash, ko‘paytirish, o‘rganish va namoyish qilishga mo‘ljallangan, dengiz suviga to‘ldirilgan ulkan basseyn yoki dengizning maxsus ajratilgan sohilbo‘yi hududi; **okeanavt** [okean +…navt] – okean tubini, okean chuqurliklarini tadqiq etuvchi mutaxassis; **okeanografiya** [okean(o)…+….grafiya] – 1) okeanologiya; 2) suv muhitining fizik va kimyoviy xususiyatlari, Dunyo okeanidagi fizik va kimyoviy jarayonlar va hodisalarni, ularning atmosfera, quruqlik va okean tubi bilan o‘zaro ta’sirini o‘rganadigan fan; **okeanologiya** [okean(o)…+…logiya] – okeanshunoslik – tabiiy geografiyaning Dunyo okeanidagi fizik, kimyoviy, geologik va biologik hodisalar, jarayonlarni o‘rganadigan bo‘limi.

OKS(I)..., OKSO... [*lot.* oxygenium – kislorod < *yun.* oxys – nordon, achchiq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, birikma va aralashmalarda kislorodning mavjudligini, kislotali muhit bilan bog‘liqlikni anglatadi. Mas.: **oksalatemiya, oksalatlar, oksidimetriya, oksidlanish, oksidlash, oksidoreduktazalar, oksigemometriya, oksigenazalar, oksikamfora, oksikislotalar, oksilofitlar, oksimetr, oksitotsin, oksosintez; oksaluriya [**oksal(at)+…uriya] – oksalat tuzlarining siydik bilan ko‘p ajralishi; **oksibiontlar** [oksi...+...biont] – faqat erkin molekulyar kislorod mavjud bo‘lgan muhitda yashay oladigan organizmlar; **oksidazalar** [oksid + …aza] – moddalarni molekulyar kislorod hisobiga katalizlaydigan fermentlar; **oksidlar** [oks(i)...+...id] – kimyoviy elementlarning kislorod bilan birikmalari; **oksifiliya** [oksi+…+…filiya] – hujayra tuzilmalarining nordon bo‘yoqlar bilan bo‘yalish xususiyati; **oksigemoglobin** [oksi...+ gemoglobin] – molekulyar gemoglobinning kislorod bilan birikmasi; **oksigemometr** [oksi...+ gemo...+ ...metr] – qonning kislorodga to‘yinganlik darajasini aniqlaydigan asbob; **oksigen**(**ium**) [*lot.* oxygenium – kislota hosil qiluvchi < oksi...+...gen] – kislorodning lotincha nomi – kimyoviy formulalarni o‘qishda foydalaniladi; **oksigenoterapiya** [oksigen(o)…+…terapiya] – kislorod bilan davolash; **oksilikvit** [oksi...+ *lot.* liquidus – suyuq +...it] – suyuq kislorod bilan to‘yintirilgan, maydalangan, g‘ovak, yonuvchi materiallardan iborat portlovchi modda.

OKT(A)... [*yun.* okto – sakkiz] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarning 8 soniga aloqadorligini anglatadi. Mas.: **ok-**

tan, oktant, oktogen; oktaedr [okta...+...edr] – matematikada: sakkizta uchburchaklik bilan chegaralangan jism, sakkizyoqlik; **oktapodlar** [okta...+ ...pod] – sakkizoyoqlar, sprutlar; bosh qismida sakkizta paypaslagichi bo‘lgan bosh-oyoqli yirtqich dengiz mollyuskalari turkumi; **oktava** [okt(a) < *lot.* octavus – sakkizinchi] – 1) diatonik gammaning sakkizinchi bosqichi; shu gammada bir nomdagi ikki nota oralig‘i; 2) sakkiz qatorli she’riy band; **oktet** [*ital.* ottetto < *yun.* okto – sakkiz] – 1) sakkizta sozanda (yoki xonanda) dan iborat ansambl; 2) sakkizta sozanda, ba’zan sakkizta xonanda uchun yozilgan musiqa asari; **oktyabr** [okto – sakkiz] – qadimgi Rim kalendarida yilning sakkizinchi oyi; yangicha kalendar yili hisobida o‘ninchi oyning nomi.

OKUL... [*lot.* osulus – ko‘z] – o‘zlashma yasama so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, ko‘z ma’nosini ifodalaydi. Mas.: **okulirovka, okulometroskop; okulist** [okul…+…ist] – ko‘z kasalliklari shifokotri, oftalmolog; **okulyar** [*lot.* ocularis – ko‘zga oid] – optik asboblarda (uzoqliko‘lchagich, durbin, teleskop, mikroskop) ko‘zga eng yaqin keltiriladigan, obyektivdan olingan tasvirni kattalashtirib ko‘rsatadigan linza yoki linzalar sistemasi; **okulyar-mikrometr** – mikroskopik obyektlarni o‘lchash uchun qo‘llanadigan, shishadan yasalgan asbob.

...OL [-ol < *lot.* oleum (yog‘, moy) so‘zining qisqa shakli] – o‘zlashma yasama so‘zlarning ikkinchi qismi bo‘lib, yog‘, moy ma’nolarini bildiradi va, asosan, kimyo va farmatsevtikaga oid terminlarni hosil qiladi. Mas.: **avtol, benzol, butanol, etanol, fenol, furfurol, glikol, ixtiol, karbol, mentol, metanol, pirrol, tokoferol, toluol, validol, vitaminol**.

...OLA [*fr.* -ole < *lot.* -ola – yasovchi qo‘shimcha] – o‘zlashma yasama so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, birinchi qism (so‘z) dan kichraytma otlar hosil qiladi. Mas.: **areola, arteriola, bronxiola, fassiola, nukleola, rozeola, rubreola, vakuola**.

OLE(O)... [*lot.* oleum – moy, yog‘] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarning o‘simlik yog‘i yoki mineral yog‘lar bilan aloqadorligini anglatadi. Mas.: **olein** (kislota)**, oleogranulyoma, oleoma, olifa, oliva, olivin; olefinlar** [*fr.* olefiant – moy hosil qiluvchi < oleo...+ ...fikatsiya] – to‘yinmagan uglevodorodlarning gomologik qatori; **oleoartrit** [oleo...+ artrit] – tirsak bo‘g‘imining yog‘ to‘qimalari orqali yallig‘lanishi; **oleografiya** [oleo...+...grafiya] – litografiyaning ko‘p bo‘yoqli usuli, shu usul bi-

lan nashr qilingan reproduksiya; **oleotoraks** [oleo…+ *yun.* thorakos – ko‘krak] – o‘pka sili kasalligida plevra bo‘shlig‘ini o‘simlik moyi yoki mineral moy bilan to‘ldirib davolash usuli; **oleum** [*lot*. oleum – yog‘, moy] – oltingugurt angidridning suvsiz sulfat kislotadagi eritmasi (bo‘yoqlar, portlovchi moddalar ishlab chiqarishda qo‘llanadi).

OLIG(O)... [*yun.* oligos – oz, ozgina, kam miqdorda] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, miqdorning ozligini, biror narsaning kamligini anglatadi. Mas.: **oligarx, oligidriya, oligoblast, oligodendrotsit, oligodentiya, oligodinamiya, oligofaziya, oligofrenopedagogika, oligogalaktiya, oligogidruriya, oligokardiya, oligokineziya, oligoklaz, oligoklazit, oligomerlar, oligopsoniya, oligosaxaridlar, oligospermiya, oligotrofiya, oligotsen, oligotsitemiya, oligoxetlar, oligoxiliya; oligarxiya** [*yun.* oligarchia – ozchilik hokimiyati < olig(o)...+...arxiya] – davlat boshqaruvining, siyosiy va iqtisodiy hukmronlikning aristokratlar va boylarning kichik guruhi tomonidan amalga oshiriladigan shakli; **oligemiya** [olig(o)...+ ...emiya] – organizmda aylanib yuradigan umumiy qon miqdorining kamayishi; **oligodaktiliya** [oligo…+ daktil(o)…+…iya] – oyoq yoki qo‘llarda barmoqlarning yetishmasligi (tug‘ma nuqson); **oligodipsiya** [oligo…+ dips…+ …iya] – organizmning suyuqlikka ehtiyojining kamayishi; **oligofreniya** [oligo...+ *yun.* phren – aql] – tug‘ma yoki go‘daklik davrida orttirilgan aqliy norasolik (ruhiy faoliyatning rivojlanmaganligi); **oligomenoreya** [oligo…+ meno…+…reya] – hayz ko‘rishning buzilishi; hayz ko‘rish orasidagi muddatning uzayib ketishi bilan ifodalanadi; **oligopnoe** [oligo…+…pnoe] – nafasning siyrak va yuza bo‘lib qolishi; **oligopoliya** [oligo…+ *yun*. poleo – sotaman] – bozorni tashkil etish usullaridan biri: bunda bir qancha yirik firma va kompaniyalar norasmiy kelishuvlar asosida asosiy mahsulot turlarini ishlab chiqarish va sotishni nazorat qilib turadi; **oligotroflar** [oligo...+...trof] – dasht va chala sahro joylarda, to‘yimli moddalar kam bo‘lgan tuproqda ham o‘sa oladigan o‘simliklar; **oliguriya** [olig(o)...+...uriya] – buyraklar ajratadigan siydikning kamayishi.

...OMA [*yun.* -oma – o‘sma, shish; yiringli yara] – o‘zlashma yasama tibbiy terminlarning oxirgi qismi bo‘lib, o‘zi qo‘shilgan so‘zdan anglashilgan tana a’zosining o‘smasi ma’nosini bildiruvchi qo‘shimcha hisoblanadi. Mas.: **adipoma, ateroma, fibroadenoma, fibroma, gematoma, glioma, karsinoma, leproma, leykoma, lipoma, melanoma, meningioma, miksoma, mioma, miyeloma, odontoma, osteoklastoma, osteoma, rizoma, sarkoma, serebroma, skleroma, stafiloma, xondroma; adenoma** [aden(o)...+...oma] – tur-

li bez to‘qimalarida paydo bo‘ladigan xavfsiz o‘sma; **angioma** [angi(o)...+ ...oma] – qon va limfa tomirlarida paydo bo‘ladigan xavfsiz o‘sma; **blastoma** [blast(o)…+…oma] – chin o‘sma; mustaqil rivojlanish xususiyatiga ega bo‘lgan o‘sma; **gepatoma** [gepat(o)...+...oma] – jigarning jigar hujayralaridan rivojlanadigan birlamchi raki, xavfli o‘sma; **limfoma** [limf(o)…+..oma] – limfoid to‘qimalardan hosil bo‘ladigan o‘smalarning umumiy nomi; **nefroma** [nefr(o)…+…oma] – buyrakning xavfli o‘smasi; **nevroma** [nevr(o)…+…oma] – nerv sistemasining elementlari bilan bog‘liq bo‘lgan har xil o‘smalarning umumiy nomi; **oleoma** [ole(o)…+…oma] – parafinni teri ostiga yuborganda o‘smasimon tuzilmaning paydo bo‘lishi; **papilloma** [papilla – so‘rg‘ich + …oma] – teri va shilliq parda yuzasida so‘rg‘ich ko‘rinishida paydo bo‘ladigan xavfsiz o‘sma; **teratoma** [terat(o)…+…oma] – murtak rivojlanishi davrida to‘qimalar shakllanishining buzilishidan kelib chiqadigan o‘smasimon tuzilma.

OMBR(O) [*yun.* ombros – yomg‘ir] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarning yomg‘irga aloqadorligini anglatadi. Mas.: **ombrofillar, ombrometr; ombrofitlar** [ombro...+...fit] – faqat atmosfera yog‘inlari namidan foydalanuvchi o‘simliklar; **ombrofoblar** [ombro...+...fob] – 1) qurg‘oqchil yerlarda o‘sadigan, surunkali yomg‘irlarga va yomg‘irning mexanik ta’siriga chidamaydigan o‘simliklar; 2) soyani yoqtirmaydigan, quyoshsevar o‘simliklar.

OMFAL(O)... [*yun.* omphalos – kindik] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, kindik ma’nosini bildiradi. Mas.: **omfalektomiya, omfaloreya, omfalorragiya, omfalotaksis, omfalotsele; omfalit** [omfal...+ ...it] – kindikning yallig‘lanishi; **omfaloproptoz** [omfal(o)…+ pro…+…ptoz] – tug‘ish vaqtida homila tug‘ilmasdan turib kindikning tashqariga chiqishi; **omfalotomiya** [omfalo...+...tomiya] – kindikni, kindik tizimchasini kesish.

OMO... [*yun.* homos – teng, bir xil; o‘xshash] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, ikkinchi qismdan anglashilgan tushunchaning bir xil, o‘xshash, teng bo‘lishini bildiradi. Mas.: **omoformalar, omograflar, omoleksema, omomorfemalar, omonimika, omonimiya; omofonlar** [omo...+...fon] – bir xil talaffuz qilinadigan, lekin yozilishida farq qiladigan so‘zlar; **omonimlar** [omo...+...onim] – umumiy ma’noga ega bo‘lmagan, tasavvuriy bog‘lanmagan, lekin bir xil yozilib, bir xil aytiladigan so‘zlar.

ONEYR(O)..., ONIR(O)... [*yun.* oneiros, oneire – tush, tush koʻrish] – oʻzlashma qoʻshma soʻzlarning birinchi tarkibiy qismi boʻlib, uyqu, tush koʻrish maʼnolarini anglatadi. Mas.: **oneyroid** [oneyr(o)...+...oid] – ongning uyqusimon qorongʻilashishi; atrof-muhitni notoʻgʻri idrok etish va ochiq-oydin fantastik oʻylar girdobida kechadigan ajib, shirin xayollar va voqealarga boy holat; **onirizm** [onir...+...izm] – oʻngdagini tushda koʻrish – sogʻlom odamlarda uchraydigan holat; **onirodiniya** [onir(o)...+ *yun.* deinos – qoʻrqinchli, dahshatli, gʻaroyib] – qoʻrqinchli tushlar koʻrish;

...ONIM [*yun.* onyma – nom, ism] – oʻzlashma qoʻshma soʻzlarning ikkinchi qismi boʻlib, oʻzi qoʻshilgan soʻzlar bilan nom, ismlarga aloqador til hodisalarini anglatadi. Mas.: **agionim** (avliyolar nomi)**, agoronim** (maydon va bozorlar nomi), **allonim** (oʻzgacha nom), **anonim, antonim** (qarama-qarshi nom), **antroponim** (kishi nomi)**, astionim** (shaharlar nomi), **astronim** (alohida osmon jismi nomi), **dromonim** (har qanday yoʻl nomi), **eponim** (boshqa nom uchun asos nom), **etnonim** (har qanday etnos nomi), **fitonim** (har qanday oʻsimlik nomi), **gidronim** (har qanday suv obyekti nomi), **godonim** (shahar, koʻcha va yoʻlkalar nomi), **kosmonim** (kosmik fazo hududi, galaktika, burjlar nomi), **limnonim** (koʻl va hovuzlar nomi), **omonim** (bir xil nom), **oronim** (relyef elementlari nomi), **oykonim** (turarjoylar nomi), **pelagonim** (har qanday dengiz nomi), **potamonim** (har qanday daryo nomi), **psevdonim** (har qanday soxta, oʻylab topilgan nom), **sinonim** (bir xil nom, maʼno), **toponim** (har qanday joy, geografik obyekt nomi), **xoronim** (har qanday hudud, viloyat, tuman nomi), **zoonim** (har qanday hayvon nomi, laqabi) va hokazo.

ONIXO... [*yun.* onyx (onychos) – tirnoq] – oʻzlashma qoʻshma soʻzlarning birinchi qismi boʻlib, tirnoq va tirnoq kasalliklari maʼnolarini bildiradi. Mas.: **onixoforalar, onixografoz, onixoklaz, onixolizin, onixolizis, onixoreksis, onixotrofiya, onixoz; onixalgiya** [onix(o)...+...algiya] – tirnoq oʻrni, tirnoq atrofida ogʻriq paydo boʻlishi; **onixiya** [onix...+...iya] – tirnoq ostining yalligʻlanishi yoki milkak chiqishi; **onixofagiya** [onixo...+...fagiya] – oʻz tirnoqlarini gʻajish, tishlashga odatlanish; **onixokriptoz** [onixo...+ kript(o)...+ ...oz] – tirnoqning ichga qarab oʻsishi, ichga botgan boʻlishi; **onixoliz** [onixo...+ ...liz] – tirnoqning qisman yoki butun holda oʻrnidan koʻchishi; **onixomikoz** [onixo...+...mikoz] – turli zamburugʻ kasalliklarida tirnoqlarning zararlanishi; **onixoptoz** [onixo...+...ptoz] – tirnoqlarning tushib ketishi; **onixoz** [onix(o)...+...oz] – tirnoqlarning notoʻgʻri shaklda oʻsishi.

ONKO... [*yun.* onkos – shish, o‘sma, o‘siq, g‘udda] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarning shish, o‘smaga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **onkogen** (modda)**, onkografiya, onkolitlar, onkolog, onkometr, onkosfera, onkoterapiya, onkotsitoma; onkogen** [onko…+…gen] – hujayraning yomon sifatli o‘zgarishiga sabab bo‘ladigan, rak paydo qiluvchi virusning geni; **onkogenez** [onko…+…genez] – normal hujayralar, to‘qimalarning o‘sma hujayrasi va to‘qimalariga aylanish jarayoni; **onkogenetika** [onko...+ genetika] – onkologiyaning o‘smalar vujudga kelishi va rivojlanishida irsiy omillar ahamiyatini o‘rganadigan sohasi; **onkograf** [onko…+…graf] – ichki a’zolar hajmini aniqlash uchun qo‘llanadigan asbob; **onkoliz // onkolizis** [onko...+...liz] – o‘sma hujayralarining yemirilishi; **onkologiya** [onko...+...logiya] – tibbiy-biologik fan; odam, hayvon va o‘simliklarda onkogenezni nazariy, eksperimental va klinik jihatdan o‘rganadi, shuningdek, o‘smalarning kelib chiqish sabablarini aniqlash, davolash hamda oldini olish usullarini ishlab chiqadi.

ONOMA(TO)... [*yun.* onoma – nom, ism] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning nom, ismga aloqadorligini ifodalaydi. Mas.: **onomast, onomastikon, onomatografiya, onomatolaliya, onomatolog, onomatopeya, onomatopoetik** (nazariya; so‘z)**, onomatopoez; onomasiologiya** [onoma…+…logiya] – leksikologiyaning lug‘aviy birliklarni nomlash va tushuncha anglatish prinsplari hamda qonuniyatlarini o‘rganuvchi bo‘limi; **onomastika** [*yun.* onomastike – nomlash, nom qo‘yish san’ati] – 1) tilshunoslikning har qanday atoqli nomlarni, ularning paydo bo‘lish va o‘zgarish tarixini o‘rganuvchi sohasi; 2) muayyan tilda mavjud bo‘lgan barcha atoqli nomlar majmuyi; **onomatologiya** [onomato...+...logiya] – tilshunoslikning atoqli otlarni o‘rganuvchi bo‘limi; **onomatomaniya** [onomato…+…maniya] – tasodifan o‘qib qolgan, eshitgan ism, familiya; tashkilot, muassasa, shahar, qishloq nomlarini, e’lon, lavha, jumla va boshqalarni yod olishga, eslab qolishga o‘ta darajada berilish.

ONTO... [*yun.* ontos – borliq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarning borliqqa aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **ontogenetika** [onto…+ genetika] – genetikaning organizm individual rivojlanishining genetik asoslarini, genotipning umumiy ontogenez tizimidagi rolini o‘rganuvchi bo‘limi; **ontogenez** [onto…+…genez] – organizmning butun individual rivojlanishi davomida bo‘ladigan ketma-ket o‘zgarishlar majmuyi; **ontologiya** [onto...+...logiya] – falsafaning borliq, uning tamoyillari, asoslari, tuzilishi va qonuniyatlari haqidagi bo‘limi.

OO... [*yun.* oon – tuxum] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarning tuxumga, tuxumhujayraga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **oogamiya, oolitlar, oomitsetlar, ooplazma, oosporoz; ooblast** [oo…+…blast] – tuxumdonni hosil qiluvchi hujayra; **oogenez** [oo...+....genez] – tuxumhujayralarning tuxumdonda vujudga kelishi va rivojlanishi; **oogoniy** [oo...+ *yun.* gonos – tug‘ilish] – embrion rivojlanishining ilk bosqichida hosil bo‘luvchi ayollar jinsiy hujayrasi; **oolemma** [oo… + *yun*. lemma] – tuxumhujayra pardasi; **ootsitlar** [oo...+...sit] – hayvon va odam tuxumdonida rivojlangan va voyaga yetgan tuxumhujayra.

OOFOR(O)... [*yun*. oophoron – tuxumdon] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, tuxumdon (ayol jinsiy bezlari) ma’nosini anglatadi. Mas.: **ooforektomiya, ooforosalpingit; ooforalgiya** [oofor…+ …algiya] – tuxumdon yallig‘langanda, tuxumdonning sirtidan bosilganda og‘riq paydo bo‘lishi; **ooforit** [oofor…+…it] – tuxumdonning yallig‘lanishi; ovarit; **ooforoma** [oofor…+…oma] – tuxumdonning xavfli o‘smasi.

...OPIYA, ...OPSIYA [*yun.* ops (opos) – ko‘z, ko‘rish, qarash, nigoh] – o‘zlashma qo‘shma terminlarning ikkinchi tarkibiy qismlari bo‘lib, ko‘rish bilan bog‘liq nuqsonlarni, kasalliklarni bildiradi. Mas.: **deyteranopiya, emmetropiya, gemianopiya, geteropsiya, gipermetropiya, miopiya, palinopsiya, presbiopiya, protanopiya, siklopiya, teyxopsiya, trianopiya; astenopiya** [*yun.* asthenes – kuchsiz, zaif +...opiya] – ko‘rishning zaifligi va ko‘zning tezda charchab qolishi; **eritropsiya** [eritr(o)…+…opsiya] – ko‘rgan narsalarni noto‘g‘ri idrok qilish: barcha narsalar qizg‘ish bo‘lib ko‘rinadi; **gemeralopiya** [*yun.* hemera – kun, kunduz + alaos – ko‘r, so‘qir +...opiya] – kunduzgi ko‘rish; shabko‘rlik – quyosh botgandan keyin, oqshom paytlari ko‘zning yaxshi ko‘ra olmasligi; **gemianopsiya** [gemi...+…an...+...opsiya] – har bir ko‘zda ko‘rish maydoni yarmining yo‘qolib qolishidan kelib chiqadigan yarimko‘rlik, chalako‘rlik (miyaga qon quyilishi, travmalar va o‘smalarda); **gemiopiya** [gemi...+...opiya] – chalako‘rlik, yarimko‘rlik; **geteropsiya** [geter(o)...+ ...opsiya] – odamda har ikki ko‘zning ko‘rish o‘tkirligidagi farq; **ksantopsiya** [ksant(o)…+…opsiya] – hamma narsaning sariq rangda ko‘rinishi; **makropsiya** [makr(o)...+...opsiya] – ko‘rish nuqsoni – buyumlarning ko‘zga o‘z hajmidan bir necha marta katta bo‘lib ko‘rinishi; **mikropsiya** [mikr(o)...+...opsiya] – narsalarning asliga nisbatan kichrayib, kichkina bo‘lib ko‘rinishi; **niktalopiya** [*yun.* nyktales – kecha, oqshomga oid +...opiya] – g‘ira-shira yorug‘likda yoki kechasi atrofdagi narsalarni ajrata olmaslik; **poliopiya** [poli...+...opiya] – bir obyekt ikkita yoki bir nechta bo‘lib ko‘rinishidan iborat ko‘rish nuqsoni;

zoopsiya [zoo...+...opsiya] – odam koʻz oʻngida hayvonlar obrazi paydo boʻlishi bilan bogʻliq koʻrish gallyutsinatsiyasi.

OPT... [*lot.* optare – tanlamoq, xohlamoq; istamoq] – oʻzlashma yasama soʻzlarning tarkibiy (oʻzak) qismi boʻlib, tanlash; xohish, istak maʼnolarini ifodalaydi. Mas.: **opsion, opsiya, optativ** (istak mayli)**; optant** [opt...+...ant] – fuqarolikni tanlab olish (optatsiya) huquqiga ega boʻlgan shaxs; **optatsiya** [*lot.* optatio – xohlash; tanlash < opt...+...atsiya] – ikki mamlakat fuqaroligidan birini tanlash, koʻpincha bu hol mamlakatning chegarasi, hududi oʻzgarganda yoki mamlakat ikki mustaqil davlatga boʻlinganda roʻy beradi.

OPT..., OPS... [*yun.* ops, opsis, optilos – koʻz] – oʻzlashma qoʻshma, yasama soʻzlarning birinchi qismi boʻlib, shu soʻzlarning koʻz, koʻrish va nur, yorugʻlik bilan bogʻliqligini koʻrsatadi. Mas.: **optik** (aldov; nurlanish)**; optikometrist, optoelektronika, optron; opsin** [ops...+...in] – koʻrish pigmenti tarkibiga kiruvchi oqsil; **optika** [*yun.* optike – koʻrish haqidagi fan] – 1) fizikaning yorugʻlik tabiatini, yorugʻlik hodisalari qonuniyatlarini, yorugʻlik bilan moddalarning oʻzaro taʼsirini oʻrganadigan boʻlimi; 2) optik asboblar (koʻzoynak, kontakt linza va ularga aloqador tovarlar) va sistemalarning umumiy nomi; **optimetr** [opti...+...metr] – chiziqli oʻlchamlarni richagli-optik mexanizm yordamida nisbiy usulda oʻlchovchi asbob; **optogramma** [opto...+...gramma] – koʻz toʻrpardasiga tushadigan buyum suratining fiksatsiyasi; **optometr** [opto...+...metr] – koʻzning maksimal koʻrish kuchini toʻliq aniqlab beradigan optik asbob.

...OR [*lot.* -or] – lotincha soʻz yasovchi qoʻshimcha boʻlib: I. Biror ishni bajaruvchi, biror ish bilan shugʻullanuvchi shaxs otlarini yasaydi. Mas.: **administrator, agitator, agressor, aviator, debitor, degazator, deklamator, dekorator, diktator, diktor, ekspeditor, gubernator, imperator, inkassator, inspektor, kolonizator, konduktor, mexanizator, novator, operator, orator, ordinator, professor, prorektor, reformator, registrator, rektor, repetitor, revizor; direktor** [*lot.* director < dirigere – yoʻllamoq] – muassasa, korxona yoki oʻquv yurt rahbari; **doktor** [*lot.* doctor – oʻqituvchi] – 1) shifokor, vrach; 2) oliy ilmiy daraja va shu darajani olgan olim; **kompozitor** [*lot.* compositor < compositio – yaratish, tuzish] – musiqiy asar muallifi, musiqa yaratuvchi shaxs; **konstruktor** [*lot.* constructio – qurilish, tuzilish] – mashina, mexanizm, inshootlar va ularning ayrim qismlari konstruksiyasini, loyihasini yaratuvchi mutaxassis; **plagiator** [*lot.* plagiator – oʻgʻri] – plagiat (adabiy oʻgʻirlik) bilan shugʻullanuvchi shaxs; **senator** [*lot.* senator – senat

a’zosi] – bir qator mamlakatlarda parlament yuqori palatasi (senat) a’zosi. II. Narsa-predmet, mashina, mexanizm nomlarini hosil qiladi. Mas.: **aerator, amortizator, detonator, elevator, eskalator, illyuminator, indikator, ionizator, izolyator, kalkulyator, karbyurator, katalizator, kommutator, kondensator, kultivator, mediator, motor**, **reaktor, reduktor, rotator, sterilizator; akkumulyator** [*lot.* accumulator – to‘plovchi, to‘plagich] – keyinchalik foydalanish uchun energiyani yoki xomashyoni to‘plash uchun mo‘ljallangan qurilma, asbob; **ekskavator** [*lot.* excavare – zarb bilan urib o‘yish] – kovsh (cho‘mich) yordamida yumshoq tog‘ jinslarini o‘yish, boshqa joyga to‘plash va yuklashga mo‘ljallangan g‘ildirakli, gusenitsali yoki odimlovchi mashina; **inkubator** [*lot.* incubare – jo‘ja ochib chiqarish] – jo‘ja, baliq, ipak qurti kabilarni sun’iy ochiltirish uchun maxsus qurilma; **kompressor** [*lot.* compressus – siqish, qisish] – havo, bug‘, gaz kabilarni siqish uchun qo‘llanadigan mashina; **traktor** [*ingl.* tractor < *lot.* trahere – tortmoq, sudramoq] – qishloq xo‘jaligi va qurilishda: o‘ziga tirkalgan yoki o‘rnatilgan bir qator moslama va qurilmalarni tortuvchi va tashuvchi gusenitsali yoki g‘ildirakli o‘ziyurar mashina.

...ORAMA [*yun.* horama – manzara, ko‘rinish; lavha; tomosha] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning keng manzara, ko‘rinish; chor atrof manzarasi ma’nolariga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **diorama** [di(o)...+...orama] – 1) rassomlik turi bo‘lib, bunda tasvir maxsus yoritiladigan, yorug‘lik o‘tkazadigan material (mato, gazlama) ning har ikki tomoniga yoki xira oynaga chiziladi; 2) tasmasimon, yarim doira shaklida egilgan, oldingi planda hajmdor buyumlar chizilgan rasm (panoramadan farqli ravishda butun ufq doirasini emas, balki uning bir qismini qamrab oladi): **panorama** [pan...+...orama] – 1) muayyan joyning yuqoridan ko‘rinishi; 2) doira shaklidagi, yuqori tomonidan yorug‘ tushadigan binoning devoriga gir aylana ishlangan, oldingi planda hajmdor maketlari bo‘lgan butun ufq doirasini qamrab oluvchi, haqiqiy manzaraday tuyuladigan yirik rasmlar; 3) zambarakni otish chog‘ida uni ko‘rinadigan va ko‘rinmaydigan nishonlarga to‘g‘rilash uchun qo‘llanadigan burchako‘lchagich optik asbob; **sirkorama** [sirk(o)...+...orama] – tomosha zalining gir aylanasiga qurilgan panorama ekranli kino.

ORDIN... [*lot.* ordinis – tartib] – o‘zlashma yasama so‘zlar tarkibida kelib, tartib, tartiblangan, tartibga keltirilgan kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **ordinar, ordinata; ordinator** [*lot.* ordinator – boshqaruvchi, tashkil qiluvchi, tartibga soluvchi] – davolash muassasalarida: bo‘lim mudiri rahbarligida

bemorlarni davolaydigan vrach; **ordinatura** [ordin(o)…+…ura] – shifokorlarning tibbiyot oliy o‘quv yurtlari, vrachlar malakasini oshirish institutlari yoki ilmiy-tadqiqot muassasalari klinika bazasida (odatda, ikki yillik) o‘z malaka va ko‘nikmalarini orttirish kursi.

ORFO... [*yun.* orthos – to‘g‘ri] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, o‘zi qo‘shilgan so‘zda to‘g‘ri ma’nosini ifodalaydi. Mas.: **orfoepiya** [orfo...+ *yun.* epos – nutq, talaffuz] – 1) tilshunoslikning adabiy talaffuz me’yorlarini o‘rganuvchi bo‘limi; 2) muayyan milliy tilning talaffuz me’yorlariga mos holda bir xil talaffuzni ta’minlovchi qoidalar tizimi va ularga rioya qilish; **orfografiya** [orfo...+...grafiya] – 1) to‘g‘ri yozish haqidagi qoidalar tizimi; imlo; 2) tilshunoslikning shunday qoidalar tizimini ishlab chiqadigan bo‘limi; **orfogramma** [orfo…+…gramma] – imlo qoidalariga mos holdagi yozuv.

ORGAN(O)... [*yun.* organon – qurol, vosita, asbob] – o‘zlashma qo‘shma va yasama so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, tirik organizmning biror a’zosi; biror narsaning a’zosi, vositasi ma’nolarini bildiradi. Mas.: **organ, organik** (dunyo; kimyo; modda; o‘g‘it), **organogen** (tog‘ jinslari), **organografiya, organoidlar, organoleptik** (xususiyat), **organologiya, organopatologiya, organopreparatlar, organotropizm, organotroplik; organellalar** [organ…+…ella] – o‘simlik va hayvon hujayralari sitoplazmatik tuzilishining muayyan qismlari bo‘lib, hayot faoliyatida ma’lum vazifani bajaradi; **organizm** [*lot.* organismus < *yun.* organon – qurol, asbob] – har qanday tirik mavjudot (odam, hayvon, o‘simlik); **organogenez** [organ(o)…+…genez] – keng ma’noda biror a’zoning paydo bo‘lishi va rivojlanish jarayoni, ma’lum bir holatga, ko‘rinishga kelishi; **organometriya** [organ(o)…+…metriya] – a’zolarning kattaligi, massasi, shakli, konsistensiyasi, rangi va boshqa parametrlarining miqdor ko‘rsatkichlarini belgilash usullari yig‘indisi; **organoplastika** [organ(o)…+…plastika] – davolash maqsadida bir a’zo yoki to‘qimani bir yerdan ikkinchi yerga ko‘chirib o‘tkazish; **organoskopiya** [organ(o)…+…skopiya] – qorin devorini teshib, bo‘shlig‘idagi a’zolarni peritoneoskop bilan ko‘rib tekshirish; **organoterapiya** [organ(o)…+…terapiya] – hayvonlardan olinadigan preparatlar (mas., gormonlar) bilan davolash.

ORIKT... [*yun.* oryktos – qazib olinadigan, qazilma] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning qazish bilan aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **oriktotsenoz** [orikto...+ *yun.* koinoz – umumiy, birgalikda] – muayyan joylashgan yeridan qazib olingan, toshga aylangan hayvonlar qoldiqlari majmuyi.

...ORIY, ...ORIYA [*lot.* -ori] – lotincha so‘z yasovchi qo‘shimcha bo‘lib, biror ish amalga oshiriladigan, bajariladigan joy, makon nomlarini hosil qiladi. Mas.: **ambulatoriya, auditoriya, gipnotoriy, inkubatoriy, konservatoriya, laboratoriya, lektoriy, profilaktoriy, sanatoriy, skriptoriy, territoriya; aerotoriya** [aero…+ (terri)toriya] – aerodrom va unga yondosh hudud ustidagi, samolyotlarning uchishi-qo‘nishi amalga oshadigan havo bo‘shlig‘i (fazosi); **akvatoriya** [*lot.* aquatorium < akva...+...(t)oriya] – okean, dengiz, suv ombori yoki port hududining belgilangan chegaradagi suv maydoni; **krematoriy** [*lot.* crematio – kuydirish, yondirish +...oriy] – krematsiya (o‘liklarni, murdalarni yondirish) uchun mo‘ljallangan, maxsus jihozlangan bino; **leprozoriy** [*lot.* leprosus – moxovga oid +...oriy] – moxov bilan kasallanganlarni jamiyatdan ajratish va davolash uchun mo‘ljallangan muassasa; moxovxona; **lyupozoriy** [*lot.* lupos – bo‘ri +…oriy] – teri sili profilaktikasi, uni davolash va o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi davolash-profilaktika muassasasi; **observatoriya** [*lot.* observatio – kuzatish +...oriya] – 1) astronomik, meteorologik, seysmik va boshqa tadqiqotlar olib borishga mo‘ljallab jihozlangan ilmiy muassasa; 2) shunday muassasa joylashgan bino; **profilaktoriy** [profilakt(ika) +…oriy] – ishlabchiqarishdan ajralmagan holda sanatoriya davolash ishlarini amalga oshiruvchi davolash-profilaktika muassasasi.

ORNIT(O)... [*yun.* ornitos – qush] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, qush ma’nosini anglatadi. Mas.: **ornitin, ornitofauna, ornitopodlar, ornitopter, ornitoz; ornitofiliya** [ornito…+…filiya] – asosan, tropik o‘simliklarning qushlar yordamida changlanishga moslashganligi; **ornitologiya** [ornito...+...logiya] – zoologiyaning qushlarni har tomonlama o‘rganuvchi bo‘limi; **ornitomim** [ornito…+ *yun.* mimos – taqlidchi] – bo‘r davrida (mezozoy) yashagan, kalla suyagi va skeleti qushlarnikiga o‘xshash, tishsiz, vahshiy dinozavr; **ornitoxoriya** [ornito...+...xoriya] – o‘simlik mevalari va urug‘larining ularni yegan qushlar yordamida tarqalishi; **ornitozlar** [ornito…+…oz] – tabiiy sharoitlarda parrandalarda uchraydigan va odamlarga ham o‘tadigan virusli, yuqumli kasalliklar guruhi.

ORO... [*yun.* oros – tog‘] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarning tog‘ bilan, toqqa aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **orogen** [oro...+...gen] – Yer po‘stining tektonik faol zonasi rivojlanishining ikkinchi bosqichi; bunda ko‘tarilishlar sodir bo‘lib, tog‘lar yuzaga kelgan; **orogenez** [oro…+...genez] – 1) tog‘ hosil bo‘lishi; 2) jadal tektonik ko‘tarilishlar, burmalanishlar va uzilishlar yig‘indisi; **orografiya** [oro…+…grafiya] – relyefning turli xil jihatlarini ularning konfiguratsiyalari, o‘lchamlari va yo‘nalishlari nuqtayi nazaridan tavsiflash va tasniflash.

ORTO... [*yun.* orthos – tik, to‘g‘ri] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, biror narsaning tikligini, to‘g‘riligini, biror hodisaning to‘g‘ridan to‘g‘ri ro‘y berishini bildiradi. Mas.: **ortikon, ortit, ortodiagrafiya, ortodoks, ortodromiya, ortoforiya, ortogeniya, ortognatiya, ortogneyslar, ortoklaz, ortoped, ortopnoe, ortopter, ortopsixiatriya, ortorentgenografiya, ortorentgenometriya, ortoskopiya, ortotika, ortoxromatizatsiya; ortodoksiya** [orto...+ *yun.* doxa – fikr, tasavvur] – biror-bir ta’limot, yo‘nalish, dunyoqarash asoslariga og‘ishmay, qat’iy amal qilish, ergashish; **ortodontiya** [ort(o)...+ *yun.* odontos – tish] – stomatologiyaning tishlar, tish qatorlari, jag‘ va yuz suyaklari deformatsiyasini hamda bu nuqsonlarni davolash usullarini o‘rganuvchi sohasi; **ortogenez** [orto…+…genez] – tirik tabiatning rivojlanishi bevosita ichki omillar bilan bog‘liqligi to‘g‘risidagi evolyutsion ta’limot konsepsiyasi; **ortogonal** [orto…+ *yun.* gonia – burchak] – to‘g‘ri burchakli, to‘g‘ri burchak hosil qiluvchi; **ortopediya** [orto...+ *yun.* paideia – parvarish qilish] – tibbiyotning tug‘ma nuqsonlar, shikastlar va turli kasalliklar oqibatida tayanch-harakat a’zolari shakli va funksiyasining buzilishini aniqlash, davolash va uning oldini olish yo‘llarini o‘rganuvchi sohasi; **ortoptika** [ort(o)…+ optika] – ko‘rishning turli buzilishlari va ko‘z harakati koordinatsiyalarini yaxshilash uchun jarrohliksiz usullardan foydalanish; **ortoskop** [orto…+ …skop] – hiqildoqni og‘iz bo‘shlig‘i orqali to‘g‘ridan to‘g‘ri tekshirish uchun ishlatiladigan asbob; **ortotropizm** [orto…+…tropizm] – o‘simliklar yon a’zo (organ) larining qo‘zg‘atuvchi (ta’sir qiluvchi) lar yo‘nalishiga parallel holda o‘sish qobiliyati.

ORXEO..., ORXI... [*yun.* orchis – moyak, tuxum] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning moyakka, tuxumga aloqadorligini anglatadi. Mas.: **orxeotsele, orxidoektomiya // orxiektomiya, orxidopeksiya // orxipeksiya; orxeotomiya** [orxeo...+...tomiya] – moyakni kesish; **orxidalgiya // orxialgiya** [orxi...+...algiya] – moyak og‘rig‘i; **orxiepididimit** [orxi…+ epididimit – moyak ortig‘ining yallig‘lanishi] – erkak jinsiy bezi va ortig‘ining yallig‘lanishi; **orxit** [orxi...+…it] – moyakning yallig‘lanishi.

OSMO... [*yun.* osmos – turtki, bosim] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning impulsga va osmotik bosimga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **osmometriya, osmoretseptorlar, osmotik** (bosim)**; osmometr** [osmo...+...metr] – osmotik bosimni o‘lchaydigan asbob; **osmoregulyatsiya** [osmo...+ *lot.* regulo – yo‘naltiraman, boshqaraman + ...atsiya] – tirik organizmlar ichki muhitidagi osmotik bosimning nisbatan barqarorligini ta’minlovchi fizik-kimyoviy va fiziologik jarayonlar; **osmos**

[*yun.* osmos – turtki, bosim] – erituvchining eritma bilan erituvchi orasiga yoki konsentratsiyasi turlicha bo‘lgan ikkita eritma orasiga qo‘yilgan yarimo‘tkazgichli parda orqali asta-sekin bir tomonlama o‘tish hodisasi; **osmoterapiya** [osmo…+…terapiya] – ichki muhit osmotik bosimini o‘zgartirishga asoslangan, tomirga turli eritmalar yuborish bilan amalga oshiriladigan davolash usuli.

OSM(O)..., ...OSMIYA [*yun.* osme – hid, is, bo‘y] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi va ikkinchi qismlari bo‘lib, o‘zlari qo‘shilgan so‘zlar bilan hid, is ma’nolariga aloqador terminlar hosil qiladi. Mas.: **osmotseptorlar, osmiofil; osmiy** [*lot.* Osmium < *yun.* osme – hid] – Mendeleyev davriy sistemasining VIII guruhiga mansub kimyoviy element; ko‘kimtir tusli qattiq, eng og‘ir metall; **osmidroz** [osm...+ *yun.* hidr – ter +...oz] – sassiq terlash, sassiq ter chiqarish; **osmoforlar** [osmo…+…for] – o‘simliklardagi xushbo‘y hid chiqaruvchi maxsus bezlar; **osmologiya** [osmo...+...logiya] – hid sezish bilan bog‘liq holat va hodisalarni o‘rganuvchi fan; **osmometr** [osmo...+...metr] – hid sezish qobiliyatini o‘lchaydigan asbob; **dizosmiya, kakosmiya, parosmiya, psevdosmiya; giperosmiya** [giper...+...osmiya] – hid bilish sezgisining haddan tashqari ortib ketishi; **giposmiya** [gip(o)...+...osmiya] – hid sezish qobiliyatining pasayishi.

OSS(E)... [*lot.* os (ossis) – suyak] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, suyak ma’nosini ifodalaydi. Mas.: **osseomukoidlar, ossokalsinol; ossein** [osse...+...in] – suyak tarkibiga kiruvchi oqsilsimon modda; **ossifikatsiya** [ossi...+...fikatsiya] – maxsus hujayralar (osteoblastlar) ta’sirida uch bosqichda suyak hosil bo‘lish jarayoni; **ossuariy** [oss(u)...+...ariy] – zardushtiylikda (milodiy V – VIII asrlar): sopol, tosh yoki ganchdan yasalgan, marhumning suyagi solinadigan idish; suyakdon, ostadon.

OSSILL(O)... [*lot.* oscillo – tebranaman] – o‘zlashma qo‘shma, yasama so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarning tebranish bilan aloqadorligini bildiradi. Mas.: **ossillografiya, ossilyator, ossillyatsiya; ossillograf** [ossillo...+...graf] – ikki yoki bir necha tez o‘zgaruvchan (elektrik yoki noelektrik) kattaliklar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aks ettiruvchi egri chiziqlarni kuzatish va yozib olishga mo‘ljallangan o‘lchov asbobi; **ossilogramma** [ossilo…+…gramma] – ossilograf ekranida tez o‘zgaruvchi fizik kattaliklar o‘rtasidagi bog‘liqlikning grafik tasviri; **ossillometr** [ossillo...+...metr] – ossillyatsiya (tebranish) larning barcha turlarini o‘lchab beradigan asbob.

OSTEO... [*yun.* osteon – suyak] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning suyakka, suyak to‘qimasiga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **osteoartropatiya, osteoartrotomiya, osteoartroz, osteoblast, osteodisplaziya, osteodistrofiya, osteofibroz, osteofit, osteoid, osteoklast, osteoklastoma, osteoklaziya, osteomalyatsiya, osteomikoz, osteomiyelit, osteonekroz, osteopatiya, osteoperiostit, osteoporoz, osteosarkoma, osteosintez, osteotom, osteoxondroliz, osteoxondroma, osteoxondropatiya, osteotsitlar, osteoz; osteoartrit** [osteo...+ artr...+...it] – suyak va bo‘g‘imning surunkali va tarqalgan yallig‘lanishi; **osteoektomiya** [osteo…+…ektomiya] – suyakni yoki uning bir qismini jarrohlik yo‘li bilan olib tashlash; **osteogenez** [osteo...+...genez] – suyak to‘qimasining taraqqiy etishi; suyakning hosil bo‘lishi va rivojlanishi; **osteoliz** [osteo...+...liz] – suyakning yemirilishi, erishi; suyakni hosil qilgan tuzlarning erishi yoki ikki suyak orasiga qo‘yilgan suyak bo‘lakchasining so‘rilishi; **osteologiya** [osteo...+...logiya] – anatomiyaning odam skeleti va ayrim suyaklarining tuzilishi, shakllari va o‘lchamlari, rivojlanishi va o‘zgarishlarini o‘rganuvchi sohasi; **osteoma** [oste(o)...+...oma] – suyak to‘qimasidan hosil bo‘ladigan xavfsiz o‘sma; **osteoplastika** [osteo…+…plastika] – plastika materiali sifatida suyak to‘qimasidan foydalangan holda suyaklarni plastik operatsiya qilish; **osteoskleroz** [osteo…+…sklero…+…oz] – suyak to‘qimasining ortiqcha hosil bo‘lishi natijasida suyaklarning qattiqlashishi; **osteotomiya** [osteo...+...tomiya] – suyakni maxsus asbob – osteotom yordamida kesish, teshish; **osteoxondroz** [osteo…+ xondro…+…oz] – suyak va tog‘ay to‘qimalaridagi distrofik o‘zgarishlar; **ostit** [ost(eo)...+...it] – suyak to‘qimasining yallig‘lanishi.

OT(O)... [*yun.* us (otos) – quloq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning quloqqa, quloq kasalliklariga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **otiatr, otoantrit, otoblennoreya, otokalorimetr, otolaringolog, otolaringologiya, otolitlar, otomikoz, otonevralgiya, otopioreya, otoreya, otorinolaringolog, otoskleroma, otoskop, otospongioz; otalgiya** [ot(o)…+…algiya] – quloqdan tashqaridagi biror yallig‘lanish o‘chog‘ining quloqqa tarqalishidan kelib chiqadigan quloq og‘rig‘i; **otiatriya** [ot(o)...+...iatriya] – otorinolaringologiyaning quloq kasalliklarini, ularni davolash va oldini olish masalalarini o‘rganuvchi sohasi; **otit** [ot...+...it] – quloqning yallig‘lanishi (otitning uch xil turi farqlanadi); **otofon** [oto...+...fon] – eshitish naychasi; qulog‘i og‘ir, garang kishilarda eshitishni kuchaytirish uchun mo‘ljallangan apparat; **otologiya** [oto...+...logiya] – tibbiyotning quloq anatomiyasi, patologiyasi, fiziologiyasini o‘rganuvchi va quloq kasalliklarini davolash bilan shug‘ullanuvchi bo‘limi; **otonevrologiya** [oto…+ nevrologiya] – quloq nervi-

ning tuzilishi, kasalligi va ularni davolashni o‘rgatuvchi ilm sohasi; **otorinolaringologiya** [oto...+ rino...+ laringo...+...logiya] – tibbiyotning quloq, burun, tomoq, halqum, hiqildoq va ularga yondosh a’zo va to‘qimalar tuzilishi, vazifasi va kasalliklarini o‘rganuvchi sohasi; **otorragiya** [oto…+…rragiya] – bitta yoki ikkala quloqdan qon oqishi; **otoskleroz** [oto...+ *yun.* sklerosis – qotib qolish] – o‘rta quloqni ichki quloq bilan birlashtirib turadigan oval darcha sohasida suyak to‘qimasining o‘sib ketishi bilan ifodalanadigan quloq kasalligi; **otoskopiya** [oto...+...skopiya] – quloqni maxsus asbob – otoskop yordamida tekshirish usuli.

OV(O)... [*lot.* ovum – tuxum, tuxumhujayra] – o‘zlashma qo‘shma, yasama so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, tuxum, tuxumsimon, tuxumga o‘xshash, tuxumhujayra ma’nolarini bildiradi. Mas.: **oval** (jism)**, ovalbumin, ovalotsit, ovazit, ovistlar, ovogenez // oogenez, ovomukoid, ovotestis, ovotsitlar // ootsitlar; oval** [*fr.* oval < *lot.* ovum – tuxum] – tuxumsimon chizma; yassi, qavariq yopiq egri chiziq (aylana, ellips kabilar); **ovokinez** [ovo…+ *yun.* kineo – harakatga keltiraman] – tuxumhujayraning bo‘linishi va yetilishidagi o‘zgarishlar; **ovoplazma // ooplazma** [ovo…+…plazma] – tuxumhujayraning sitoplazmasi; **ovoskop** [ovo...+...skop] – elektrlampalar bilan yoritib, tuxumning sifatini aniqlaydigan asbob; **ovulyatsiya** [*lot*. ovum – tuxum +…atsiya] – tuxumdondan tuxumhujayra (ayol jinsiy hujayrasi) ning chiqishi.

OVARI(O)... [*lot.* ovarium – tuxumdon] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, tuxumdon ma’nosini bildiradi. Mas: **ovarial** (tuxumdonga oid, taalluqli), **ovariogisteroektomiya, ovariopeksiya, ovariotsentez; ovarioektomiya** [ovari(o)…+…ektomiya] – tuxumdon o‘smasida tuxumdonni olib tashlash operatsiyasi; **ovariotomiya** [ovari(o)…+ …tomiya] – tuxumdonni jarrohlik usulida olib tashlash operatsiyasi; **ovarit** [ovari…+…it] – tuxumdonning yallig‘lanishi.

OVER... [*ingl.* over – ustidan, ortiqcha, -dan tashqari] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, ustiga, ustidan, orqali, ortiqcha ma’nolarini bildiradi. Mas.: **overkill, overshtag** (dengizchilik terminlari), **overbot** (iqtisodiyot termini); **overdraft** [*ingl.* overdraft – rejalashtirilganidan tashqari, ortiqcha xarajat] – 1) to‘lov hajmi mijoz hisobidagi mablag‘ qoldig‘idan oshgan holatda ham, bankning ishonch bilan mijozga qisqa muddatli kredit berishining alohida shakli; **overlok** [*ingl.* overlock – chetini chatib chiqmoq, ko‘klamoq < over – ustidan, orqali + lock – ko‘klamoq, yo‘rmamoq] – trikotaj mahsulotlarni maxsus chok bilan ulab tikish, ostidan tikish, ayni

paytda gazlama chetlarini chatib chiqish uchun mo‘ljallangan maxsus tikuv mashinasi; **overtaym** [*ingl.* overtime – qo‘shimcha vaqt] – muayyan sport o‘yini durang bilan tugagan taqdirda g‘olibni aniqlash maqsadida qo‘shimcha belgilanadigan taym.

OZ... [*yun.* ozo – hid] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, hid, hid taratmoq ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **ozonator, ozonosfera; ozokerit** [*ingl.* ozokerite < ozo...+ *yun.* keros – mum +...it] – tog‘ mumi – neftdan olinadigan sariq, yashil yoki qo‘ng‘ir rangli tabiiy bitum; **ozon** [*yun.* ozon – hidli, hid taratuvchi] – ko‘k rangli o‘tkir hidli gaz; kuchli oksidlovchi.

...OZ [*yun.* -(o)sis (-ozis) > -ose – maxsus qo‘shimcha] – tibbiyot va biologiyaga oid o‘zlashma yasama so‘zlarda: shu so‘zlar asosidagi ma’no bilan bog‘liq turli xil kasalliklar va anomaliyalar nomlarini hosil qilishga maxsuslashgan qo‘shimcha. Mas.: **akaroz, alkaloz, araxnoz, askaridoz, bakterioz, dermatoz, diostoz, fibroz, furunkulyoz, ixtioz, kifoz, leykozlar, lyamblioz, melanoz, mikoz, ornitoz, psixoz, sianoz, sinartroz, sirroz, skleroz, spondilyoz, stenoz, tromboz, xloroz; antrakoz** [*yun.* anthrax (anthrakos) – ko‘mir +...oz] – toshko‘mir changi bilan muntazam nafas olish natijasida rivojlanadigan kasbiy o‘pka kasalligi; **artroz** [artr(o)...+...oz] – bo‘g‘imlarning surunkali degenerativ-distrofik kasalligi; **leykotsitoz** [leyk(o)…+ sito…+…oz] – periferik qonda leykotsitlar (oq qon tanachalari) sonining ortib ketishi; **nefroz** [nefr(o)...+ ...oz] – buyrak naychalari epiteliysining distrofiyasi va o‘lishi bilan o‘tadigan kasallik; **nevroz** [nevr(o)...+...oz] – uzoq davom etgan va ruhiyatga ta’sir etuvchi omillar natijasida nerv sistemasi faoliyatining buzilishidan kelib chiqadigan asabiy-ruhiy kasalliklar guruhi; **pangidroz** [pan…+ gidr…+…oz] – badanning haddan tashqari ko‘p terlashi; **silikoz** [silik…+…oz] – tarkibida silikatli chang zarralari bo‘lgan havodan nafas olish natijasida kelib chiqadigan o‘pka kasalligi; **sinostoz** [sin…+ ost(eo)…+…oz] – suyaklarning bir-biriga qo‘shilib ketishi; **toksikoz** [toksik(o)...+...oz] – organizmga tashqi muhitdan tushgan yoki uning o‘zida hosil bo‘lgan zaharli moddalar ta’siri natijasida kelib chiqadigan kasallik (zaharlanish) holati.

...OZA [*ingl.* -ose – yasovchi qo‘shimcha] – kimyo va biologiyaga oid o‘zlashma yasama so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi (yasovchi qo‘shimcha) bo‘lib, shu so‘zlarning qandlar, karbonsuvlar (uglevodlar) sinfiga mansubligini ko‘rsatadi. Mas.: **amiloza, dekstroza, fruktoza, galaktoza, geksoza, glyukoza, laktoza, levuloza, mannoza, pentoza, riboza, saxaroza, sellyuloza.**

P

PAG(O)... [*yun.* pagos – muz] – o‘zlashma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, muzlik, muz holat ma’nolarini bildiradi. Mas.: **pagon** [pago...+ *yun.* on – borliq, mavjudot] – muz qatlamlarida yashovchi yoki muzlab muzga yopishib, anabioz holatida bo‘lgan hayvon va o‘simliklarning organizmlari.

PALAT(O)... [*lot.* palatum – tanglay] – o‘zlashma yasama va qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning tanglayga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **palatal** (tanglayga oid), **palatodiniya, palatoplastika, palatorafiya; palatalizatsiya** [palat(al)…+…izatsiya] – til o‘rtasining qattiq tanglayga tomon qo‘shimcha tarzda ko‘tarilishi, buning natijasida ovoz va shovqinning kuchayishi bilan tovushning yumshashi; **palatit** [palat…+…it] – tanglayning yallig‘lanishi; **palatolaliya** [palato…+...laliya] – tanglay yorig‘i mavjudligi tufayli artikulyatsiyaning buzilishi;

PALEO... [*yun.* palaios – qadimgi] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning qadimga, qadimgi zamonga, paleontologiyaga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **paleoantroplar, paleoantroponimiya, paleobiotsenoz, paleofitologiya, paleogen, paleogeografiya, paleogeya, paleograf, paleomagnetizm, paleontolog, paleopitek, paleotalamus, paleoteriy, paleotiplar, paleotoponim, paleotrofik, paleotsen, paleovulkanologiya; paleoantropologiya** [paleo...+ antropologiya] – antropologiyaning qazilma odamlar qoldiqlarini o‘rganuvchi sohasi; **paleobiogeografiya** [paleo…+ bio…+ geografiya] – qirilib, yo‘q bo‘lib ketgan organizmlarning geografik tarqalganlik qonuniyatlari haqidagi fan; **paleobotanika** [paleo…+ botanika] – botanikaning qazilma o‘simliklarni o‘rganuvchi sohasi; paleofitologiya; **paleoekologiya** [paleo...+ ekologiya] – paleontologiyaning Yerning o‘tmish geologik davrida tirik organizmlarning hayot tarzi, o‘zaro munosabatlari, yashash sharoiti, qirilib ketish va yashab (saqlanib) qolish sabablarini o‘rganuvchi sohasi; **paleofaunistika** [paleo...+ *lot.* fauna – hayvonot dunyosi +...istika] – paleontologiyaning turli geologik davrlar faunasini o‘rganuvchi sohasi; **paleografiya** [paleo...+...grafiya] – yozuv materiallari va qurollari, yozuv belgilari shakllarining o‘zgarishlari, qo‘lyozma va kitoblarning bezatilishiga

qarab qadimgi yozma yodgorliklarni o‘rganuvchi va shu yo‘l bilan ularning yaratilgan joyi va vaqtini aniqlovchi tarix-filologiya fani; **paleoiqlimshunoslik** [paleo...+ iqlimshunoslik] – Yerning o‘tmishdagi iqlimi tarixini o‘rganadigan fan; **paleolit** [paleo...+...lit] – tosh asrining eng qadimgi davri; **paleontologiya** [pale(o)...+ onto...+...logiya] – Yerning butun o‘tmish geologik davrlarida mavjud bo‘lgan jonli tabiatning tarixiy taraqqiyotini, qazilma qoldiqlari saqlangan organizmlar, ularning hayot faoliyati va oriktotsenozlar (toshqotgan organizmlar) ni o‘rganadigan fan; **paleopatologiya** [paleo...+ patologiya] – uzoq o‘tmishda Yer yuzida mavjud bo‘lgan o‘simlik va hayvon organizmlarining kasalliklarini o‘rganuvchi fan; **paleozoologiya** [paleo…+ zoologiya] – paleontologiyaning qazilma hayvonlarni o‘rganuvchi sohasi; **paleozoy** [paleo…+…zoy] – Yer geologik tarixining III erasi (bu erada Yer yuzida paporotniklar, yalang‘och urug‘li dastlabki ignabarglilar, baliqlar paydo bo‘lgan).

PALI..., PALIN... [*yun.* palin – qayta, yana] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, qaytadan, boshqatdan, yana degan ma’nolarni bildiradi. Mas.: **palindromiya, palinergiya, palinesteziya, palinfraziya, palinodiya; palilaliya** [pali(n)…+...laliya] – gapning oxiridagi bitta so‘zni yoki iborani hadeb takrorlayverish kasalligi; **palimneziya** [pali(n)…+...mneziya] – amneziya davrida unutilgan voqealarni bemor xotirasida tiklanishi; **palindrom** [palin...+...drom (ortga yugurish)] – har ikki tomondan bir xil o‘qiladigan so‘z, ibora yoki she’r (*alla, kichik, qovoq, qochoq* kabi); **palinergiya** [palin...+ *yun.* ergia – xatti-harakat] – ayrim psixozlarda bir xil ma’nosiz harakatlarni qaytaraverish holati; **palingenez // palingenezis** [palin...+ …генез] – 1) Yerning juda chuqur qatlamlaridagi magmatik tog‘ jinslarining to‘liq yoki qisman erib, magmaga aylanish jarayoni; 2) organizmda dastlab bo‘lgan, keyinchalik yo‘qotilgan qismlarning qayta tiklanishi yoki regeneratsiyasi; **palingrafiya** [palin...+...grafiya] – harflar, so‘zlarni va so‘zlarning biror qismini qaytarib yozish; **palinopsiya** [palin…+…opsiya] – ko‘rish xususiyatining buzilishi: ko‘rinib turgan jism obrazining u ko‘zdan g‘oyib bo‘lgandan keyin ham saqlanishi yoki qaytadan paydo bo‘lishi.

PAN..., PANTO... [*yun.* pan (pantos) – hamma, barcha] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, so‘zning ikkinchi qismida ifodalangan hodisa barchaga, hamma uchun umumiy ekanligini, biror narsaning umuman barcha yo‘nalishlarda qamrab olinishini bildiradi. Mas.: **panarabizm, panarteriit, panasteniya, panatseya, pangidroz, pankolit, panmiksiya, pannevrit, panoftalmit, panoptikum, panorama, panpsixizm, panserozit, pansinusit, panspermiya, panteon, pantograf, pantokrin, pantomim,**

pantomima, pantopodlar, pantopon, panturkizm; panaortit [pan...+ *yun.* aorte – aorta +...it] – aorta devori barcha qavatlarining yallig‘lanishi; **panartrit** [pan…+ artr +…it] – bo‘g‘imlar hamma to‘qimalarining yallig‘lanishi; **panbronxit** [pan…+ bronxit] – bronx devorining barcha qatlamlarining yallig‘lanishi; **pandaktilit** [pan...+ daktil(o)...+...it] – barmoqdagi barcha to‘qimalarning yallig‘lanishi; **pandemiya** [*yun.* pandemia – butun xalq < pan...+ *yun.* demos – xalq] – butun mamlakat, bir necha mamlakat yoki butun qit’a aholisining ancha qismini qamrab oluvchi epidemiya (yuqumli kasallik); **pangenezis** [pan...+...genez(is)] – irsiylik haqida Ch.Darvin tomonidan ilgari surilgan faraziya: unga ko‘ra, ota-onalarning belgi va xossalari organizmning barcha hujayralari ishlab chiqaradigan mayda zarralar (gemmulalar) orqali avlodlarga o‘tadi (keyinchalik bu faraziya o‘z isbotini topmadi); **pankardit** [pan...+ kardi...+...it] – yurakning barcha qavatlari – perikard, miokard, endokardning bir vaqtda yallig‘lanishi; **panofobiya** [pano...+...fobiya] – miyaga o‘rnashib qolgan qo‘rquv holati: atrof-muhitdagi deyarli barcha narsa, hodisalardan hadiksirash, vahimaga tushish; **panostit** [pan…+ ostit] – suyakning hamma qismlari yallig‘lanishi; **panotit** [pan…+ otit] – quloqning uchala (tashqi, o‘rta va ichki) qismining yallig‘lanishi; **panplegiya** [pan…+…plegiya] – markaziy asab tizimining vujudiy zararlanishi, intoksikatsiya yuz berishi tufayli gavda mushaklarining butunlay shol bo‘lishi; **panteizm** [pan...+ *yun.* theos – xudo +...izm] – xudo bilan tabiat bir deb hisoblovchi va tabiatni xudoning mujassamlangan holati deb biluvchi diniy-falsafiy ta’limot; **pantofaglar** [panto...+ ...fag] – barcha narsalarni yeyaveradigan, juda xilma-xil ovqatlar bilan oziqlanadigan hayvonlar; **pantofobiya** [panto…+…fobiya] – sodir bo‘layotgan har qanday voqea-hodisalar, kasalning o‘zi va atrofidagilarga, o‘zgarishlarning barchasiga nisbatan qo‘rquv, vahima paydo bo‘lishi; ushbu terminning *panfobiya, panofobiya* variantlari ham uchraydi; **pantometr** [panto...+...metr] – o‘rmon va torf botqoqliklarining topografik xaritasini tuzishda ishlatiladigan, burchak o‘lchaydigan asbob; **pantomimika** [panto…+ *yun.* mimike – mimika, imo-ishora] – oyoq-qo‘llarning, yuzning nutq va his-tuyg‘ularga mos holda ifodali harakatlari majmuyi; **panzootiya** [pan…+ *yun.* zoon – hayvon, jonivor] – hayvonlar o‘rtasida yuqumli kasallikning ma’lum bir mamlakatda, bir necha mamlakatda, butun qit’ada g‘oyat tez va keng tarqalishi.

PANKRE(O)..., PANKREAT(O)... [*yun.* pancreas, pankreatos – oshqozonosti bezi] – o‘zlashma yasama va qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning oshqozonosti beziga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **pankreatektomiya, pankreatik** (shira)**, pankreatin, pankreatogen, pankreatoduodenal, pankreolitiaz, pankreozimin; pankreatit** [pan-

kreat(o)…+…it] – oshqozonosti bezining yallig‘lanishi; **pankreatogramma** [pankreato…+ gramma] – oshqozonosti bezini bevosita punksiya qilish yordamida uning naychalariga kontrast modda kiritib, rentgenologik tasvirini olish; **pankreatoduodenektomiya** [pankreato…+ duoden(o)…+…ektomiya] – oshqozonosti bezini o‘n ikki barmoq ichak bilan birga (to‘la yoki qisman) olib tashlash operatsiyasi; **pankreatolit** [pankreato…+…lit] – oshqozonosti bezida paydo bo‘lgan tosh; **pankreatopatiya** [pankreato…+…patiya] – oshqozonosti bezi kasalliklari.

PAPILL(O)... [*lot.* papilla – so‘rg‘ich, emchak uchi] – o‘zlashma yasama va qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, so‘rg‘ich(simon), bo‘rtiq, g‘uddacha ma’nolarini bildiradi. Mas.: **papillomatoz, papillyar** (chiziqlar)**; papillit** [papill(o)…+…it] – ko‘ruv nervi uchining yallig‘lanishi; **papilloadenoma** [papill(o)…+ adenoma] – adenomalar ichki sathining silliq bo‘lmay, so‘rg‘ichlar bilan qoplanishi; **papilloma** [papill(o)…+…oma] – odam va hayvonlar terisi yoki shilliq pardasidan o‘sadigan xavfsiz o‘sma.

PAR... [*lot.* par – teng, bir xil] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, bir turli, har jihatdan teng degan ma’nolarni bildiradi. Mas.: **paritet** [*nem.* Parität < *lot.* paritatis – tenglik] – 1) janjalli masalalarni, nizo va kelishmovchiliklarni tekshirish va bartaraf qilishda tomonlarning tengligi va bir xil mavqega ega bo‘lishi; 2) turli mamlakatlar valyutalari o‘rtasidagi qonuniy tartibda belgilanadigan o‘zaro nisbat.

PARA... I [*yun.* para – yonida, yaqinida] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, yaqin, yonma-yon joylashganlikni (turganlikni), shuningdek, biror holatdan (me’yordan) chetga chiqqanlikni, uzoqlashishni, biror narsaning buzilishini, soxtaligini bildiradi. Mas.: **parabuliya, paradentit, parafaziya, parafiliya, parafilyarioz, parafimoz, parafoniya, paragangliylar, paragenezis, paragevziya, paragormonlar, parakineziya, paraleksiya, paralgeziya, paralogizm, paramikroblar, paramneziya, paranefrit, paranekroz, parantroplar, parapitek, paraplegiya, paraskaridoz, paraskeniy, paraspazm, parasuitsid, parataksis, paratif, paratiflit, paratonzillit, paratraxoma, paratuberkulyoz, paratsistit, parenteral, parodont, paronimlar, paronomaziya; parabioz** [para...+...bioz] – hayot bilan o‘lim orasidagi holat; qo‘zg‘alish jarayonining haddan tashqari kuchayib ketishi natijasida tormozlanish vujudga kelishi; **parabola** [*yun.* parabole – yaqinlashish] – har bir nuqtasi fokus deb atalgan bir nuqtadan va direktrisa deb atalgan bir to‘g‘ri chiziqdan baravar uzoqlikda bo‘lgan ochiq egri chiziq;

paradenit [par(a)...+ aden...+...it] – bez atrofidagi to‘qimaning yallig‘lanishi; **paragepatit** [para...+ gepatit] – jigar atrofidagi to‘qimaning yallig‘lanishi; **paragrafiya** [para...+...grafiya] – patologik holat; bunda bemor harflarni bir-biridan ajrata olmaydi va ulardan so‘z hamda jumlalar tuza olmaydi yoki yozish qobiliyatini yo‘qotadi; **paralingvistika** [para...+ lingvistika] – tilshunoslikning nutqiy aloqaning nolisoniy vositalari (fonatsion, kinetik va grafik vositalar) ni o‘rganuvchi sohasi; **paramagnetizm** [para...+ magnetizm] – tashqi magnit maydonidagi moddaning shu maydon yo‘nalishida magnitlanish xossasi; **paramastit** [para...+ mast(o)...+...it] – sut bezlari atrofidagi to‘qimaning yallig‘lanishi; **parametr** [para...+...metr] – 1) son qiymatlari ma’lum turdagi elementlar to‘plamidan (masalan, egri chiziqlardan) aniq elementni (egri chiziqni) ajratib olish imkonini beruvchi miqdor, kattalik; 2) ko‘rsatkich; jarayon, hodisa yoki sistemaning, mashina yoki asbobning, modda yoki muhitning biror xossasini ifodalovchi kattalik; **parametrit** [para...+ metr(a)...+...it] – bachadon atrofidagi biriktiruvchi to‘qimalarning yallig‘lanishi; **paraproktit** [para...+ prokt(o)...+...it] – to‘g‘ri ichak va orqa chiqaruv teshigi atrofidagi kletchatkalarning yiringli yallig‘lanishi; **parapsixologiya** [para...+ psixologiya] – 1) ba’zi odamlarda kuzatiladigan ekstrasensor his etish, psixokinez va boshqa ruhiy qobiliyatlar haqidagi ta’limot; 2) sezgi a’zolari ishtirokisiz bo‘lib o‘tadigan idrok usullarini, shuningdek, tirik mavjudotning organizmdan tashqarida paydo bo‘ladigan tabiiy hodisalarga mushaklar harakatisiz ta’sir etishini o‘rganish va amalga oshirishdan iborat psixologik tadqiqotlar sohasi; **paratrixoz** [para...+ trix(o)...+...oz] – sochning o‘z o‘rnidan boshqa joyda o‘sishi; **paraxoliya** [para...+ *yun.* chole – o‘t, safro] – o‘t (safro) ajralishining buzilishi; **parenxima** [*yun.* parenchyma – yonida, atrofida to‘ldirish] – 1) o‘simliklarning asosiy to‘qimasi; ozmi-ko‘pmi bir xil o‘lchamli hujayralardan iborat va yupqa devorga ega; 2) hayvonlar a’zosining haqiqiy to‘qimasi bo‘lib, shu a’zoning asosiy vazifasini bajaradi; **paresteziya** [para...+...esteziya] – tananing ma’lum bir qismida uvushish, chumoli yurayotgandek yoki sovuq qotayotgandek holatni his qilish; **parodontoz** [para…+ odont…+…oz] – amfodontoz – tishlar atrofidagi to‘qimalar (parodont) ning surunkali kasalligi – tish katakcha (uyacha) larining atrofiyasi va natijada tishlarning liqillab qolishi va tushib ketishi bilan ifodalanadi; **paronixiya** [para…+ onix(o)…+ …iya] – tirnoqni o‘rab turuvchi yumshoq to‘qimalarning yallig‘lanishi; **parotit** [para…+ otit] – quloqoldi bezlarining yallig‘lanishi.

PARA... II [*yun.* para – qarshi] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, boshqasini inkor etadigan, uning ziddi degan ma’nolarni bildiradi. Mas.: **paradoks, paranomiya; paraimmunitet** [para...+ immunitet]

– kasallik qo‘zg‘atuvchi asosiy mikrobga qarshi immunitet bilan birga parallel ravishda paydo bo‘ladigan qo‘shimcha mikrobga qarshi immunitet hosil bo‘lishi; **parainfeksiya** [para...+ infeksiya] – belgilari biror yuqumli kasallikka o‘xshasa ham, lekin shu kasallik mikroblari paydo qilmagan holat; **paraxronizm** [para...+ xron(o)...+...izm] – xronologik xatolik – biror bo‘lib o‘tgan voqeani o‘sha voqea bo‘lgan vaqtda emas, boshqa vaqtda bo‘lgan deb ko‘rsatish.

...PAREZ [*yun.* paresis – bo‘shashish, kuchsizlanish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, chala falajlik, biror mushak yoki mushaklar guruhi funksiyasining susayishi ma’nolarini bildiradi. Mas.: **laloparez, paraparez, tetraparez; gastroparez** [gastro…+…parez] – oshqozonning yarim falaji; **gemiparez** [gemi…+…parez] – mushaklarning bir tomonlama chala falajlanishi; **monoparez** [mono…+…parez] – bir qo‘l yoki bir oyoqning chala falajlanishi; **vazoparez** [vazo…+…parez] – tomirlar devorini harakatlantiruvchi mushak nervlarining qisman falajlanishi.

PART... [*lot.* pars (partis) – bo‘lak, qism, ulush] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, qism, bo‘lak, ulush, butunning bo‘lagi degan ma’nolarni bildiradi. Mas.: **parsella, parsellyar** (xo‘jalik), **parsial** (bosim), **partikulyarizm**, **partonim, partonimiya; parsellyatsiya** [*fr.* parcelle – zarracha, qismcha < *lot.* partialis – qisman +...atsiya] – 1) yerlarni mayda dehqon xo‘jaliklariga – parsellalarga bo‘lib maydalashtirish; 2) yozma adabiy tilning ifodali sintaktik usuli, bunda gap intonatsiyaga ko‘ra mustaqil, juda qisqa, grafik jihatdan mustaqil gaplar kabi ajratilgan qismlarga bo‘linadi, **partitura** [*ital.* partitura – bo‘lish, ajratish, taqsimlash < *lot.* partis] – orkestr, xor, kamer ansambl kabilar uchun mo‘ljallangan ko‘p ovozli musiqa asarining har bir ovoz yoki soz partiyasi tartib bilan ko‘rsatilgan nota yozuvi; **partiya** [*fr.* partie, *nem.* Partei < *lot.* pars (partis) – qism, bo‘lak, ulush] – 1) sinf, boshqa ijtimoiy guruh va qatlamlar manfaatlarini ifodalovchi va muayyan maqsadlarga erishishda ularga rahbarlik qiluvchi siyosiy tashkilot; 2) g‘oya va maqsadlarining umumiyligi bilan yoki biror ishni bajarish uchun birlashgan kishilar guruhi; 3) shaxmat, shashka, qarta kabi o‘yinlarning to‘liq (boshidan oxirigacha bo‘lgan) vaqti; 4) tashilayotgan tovarlarning ma’lum bir qismi, turkumi; 5) ko‘p ovozli musiqa asarining bir ovoz (soz) yoki bir xil ovoz (soz) lar guruhi uchun mo‘ljallangan qismi.

PARTEN... [*yun.* parthenos – bokira] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, bokira, yosh qiz ma’nosini bildiradi. Mas.: **parteno-filiya** [parteno...+...filiya] – xotinlarning balog‘atga yetgan qizlar bilan jin-

siy aloqa qilishga intilishi; **partenogenez** [parteno...+...genez] – tuxumning urug‘lanmasdan rivojlanishidan iborat jinsiy ko‘payish turi; **partenokarpiya** [parten(o)…+ karp(o)…+…iya] – odatda, urug‘siz o‘simliklarda gulning urug‘lanmasdan meva tugishi.

PASS... I [*fr.* passer – o‘tmoq, yo‘nalmoq < *lot.* passo – qadam tashlamoq, odimlamoq] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, ma’lum yo‘nalishda harakatda bo‘lmoq ma’nosini bildiradi. Mas.: **pasport, passaj, passatiji; passajir** [*fr*. passager – o‘tuvchi, o‘tib boruvchi] – poyezd, paroxod, samolyot va boshqa transport vositalarida qatnovchi, yo‘lovchi; **passakalya** [*fr.* passe – o‘tish + calle – ko‘cha] – 1) XVI asrdan mehmonlarni kuzatish jarayonida ijro etiladigan tantanavor yoki marshsimon ispancha raqs; 2) organ, klavir uchun yozilgan variatsiya shaklidagi pyesa; **passeizm** [*fr.* passeisme < passe – o‘tmish] – o‘tmishni qo‘msash va hozirgi kunga, taraqqiyotga befarq yoki dushmanlik bilan qarash; **passimetr** [*fr.* passe – o‘tish +...metr] – mashina detallaridagi teshiklar diametrini kontakt usuli bilan aniqlaydigan asbob.

PASS... II [*lot.* passus sum – chidamoq, azob chekmoq] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, azob chekish, hayajon, ehtiros ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **passiv** [*nem.* Passiv, passiv < *lot.* passives – azob-uqubatli; harakatsiz] – 1) biror korxonaning qarz yoki majburiyatlari majmuyi; 2) buxgalteriya balansining o‘ng tomoni: korxonaning mansublik va maqsadga ko‘ra guruhlangan mablag‘larining hosil bo‘lish manbalarini ifodalaydi; 3) passiv (savdo balansi): chetdan mol keltirish (import) chetga mol chiqarish (eksport) dan ortiq bo‘lgan holat; **passiya** [*fr.* passion – ehtiros < *lot.* passio – dard, azob, azob chekish] – kuchli his-tuyg‘u, ehtiros manbayi; sevgili, mahbuba.

PAST... [*lot.* pastas – xamir] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, xamirga o‘xshashlikni bildiradi. Mas.: **pasta** [*ital.* pasta < *lot.* pastos – xamir] – tibbiyot, kosmetika, pazandalik, rassomlik sohalarida qo‘llanadigan turli xil xamirsimon moddalarning umumiy nomi; **pastel** [*fr.* pastel < *ital.* pastello < pasta – xamir] – bo‘yoq, bo‘r va bog‘lovchi moddadan tayyorlanadigan, qoplamasiz yumshoq rangdor qalamlar; **pastila** [*lot.* pastillus – kulcha] – qirg‘ichdan o‘tkazilgan mevalarga yoki tuxum oqi bilan aralashtirilgan mevalarga shakar qo‘shib pishiriladigan shirinlik; **pastilaj** [*fr.* pastillage < *lot.* pastillus – kulcha] – ezib pishitilgan va kuydirilgan loydan tayyorlangan haykaltaroshlik asari.

...PAT, ...PATIYA [*yun.* pathos – dard, azob; g‘am, qayg‘u, falokat; kasallik] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi qismlari bo‘lib, shu so‘zlarning birinchi qismida ifodalangan tana a’zosi yoki uning biror qismining kasalligini, nuqsoni borligini (**-pat** – kasal shaxsning o‘zini, -**patiya** esa kasallik holatini yoki davolash usulini) bildiradi (Ba’zi terminlarda bu ma’no hatto sezilmasligi mumkin: *telepat* – *telepatiya*). Mas.: **adenopatiya, ensefalopatiya, gomeopatiya, lalopatiya, mastopatiya, miopatiya, nevropatiya, osteopatiya; allelopatiya** [*yun.* allelon – bir-biriga, o‘zaro +...patiya] – o‘zidan turli organik moddalar ajratib chiqarish yo‘li bilan bir turdagi o‘simliklarning boshqa turdagi o‘simliklarga ta’sir ko‘rsatishi; **artropatiya** [artro...+...patiya] – markaziy nerv sistemasi, orqa miya kasalliklarida uchrovchi, qo‘l va oyoq bo‘g‘imlarining trofik o‘zgarishi; **enteropatiya** [entero...+...patiya] – ichak kasalliklarining umumiy nomi; **gidropat** [gidro...+...pat] – gidropatiya usullari bilan davolaydigan shifokor, balneologik vrach; **kardiopatiya** [kardio...+ ...patiya] – miokardning revmatizmga, ishemik va boshqa yurak kasalliklariga aloqasi bo‘lmagan zararlanishlarining umumiy nomi; **logopatiya** [logo...+ ...patiya] – normal eshitish holatida nutqning nuqsonli bo‘lishi (duduqlanish, tili chuchuklik, l, r, z, s tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qila olmaslik); **nefropatiya** [nefro...+...patiya] – buyraklarning turli xil morfologik va funksional kasalliklarini anglatuvchi umumiy termin; **psixopat** [psixo...+...pat] – psixopatiya bilan kasallangan shaxs; beqaror, yengil tabiatli, jizzaki, irodasi sust odam; **psixopatiya** [psixo…+…patiya] – ma’lum bir ruhiy kasallik bo‘lmay, ayrim shaxslarda ruhiyatning buzilib turishi: ruhiy (psixik) jarayonlar disgarmoniyasi, betayinlik, beqarorlik, jizzakilik, yengiltabiatlikda namoyon bo‘ladi.

PATER..., PATR(I, O)... [*yun.* pater, *lot.* patris – ota; otaxon] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning otaga, erkakka aloqadorligini bildiradi. Mas.: **patriarxal** (oila), **patriarxiya, patrilokal** (nikoh), **patrimonial** (merosga aloqador), **patritsiat, patritsiy(lar)**, **patronimiya; paternalizm** [*lot.* paternus – otalik, otalarcha +...izm] – davlatning o‘z fuqarolariga, firmalarning o‘z xodimlariga, bir mamlakatning boshqa mamlakatga homiylik, g‘amxo‘rlik munosabati; ijtimoiy va mehnat munosabatlarini davlatlar o‘rtasida, shuningdek, davlat va firma darajasida tartibga solish shakli; **patriarx** [patri...+...arx(iya)] – cherkov iyerarxiyasida oliy unvon; **patriarxat** [patri...+ arx(o)...+...at] – ibtidoiy jamiyat davrida ijtimoiy munosabatlar shakli: bunda jamiyat, xo‘jalik va oilada erkak ustun, hukmron mavqega ega bo‘lgan; **patristika** [< *yun.* pater (patros) – ota] – II – VIII asrlarda cherkov otaxonlarining yozma asarlari; **patrologiya** [patro…+…logiya] – xristian ilohiyotining cherkov otaxonlari tarjimayi holi va asarlarini o‘rganuvchi bo‘limi.

PATO... [*yun.* pathos – azoblanish, kasallik] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning kasallik, dard, azobga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **patanatomiya, patergiya, patofiziolog, patofizilogiya, patografiya, patolog, patologoanatom, patomorfizm, patomorfologiya, patomorfoz, patoplastika, patopsixologiya; patofobiya** [pato...+...fobiya] – tuzalmaydigan og‘ir kasalga yo‘liqish, mayib-majruh bo‘lib qolishdan telbalarcha qo‘rqib vahimaga tushish; **patogen** [pato…+…gen] – kasallik paydo qiluvchi; **patogenez** [pato...+...genez] – kasalliklar, kasallik jarayonlarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi mexanizmlari; **patogenlik** – kasallik paydo qiluvchi tashqi omillar (atmosfera bosimi, issiq, sovuq, havo, kimyoviy moddalar, elektr toki, rentgen nuri, mikroblar) organizmga ta’sir qilganda, kasallik paydo qilish xususiyati; **patokimyo** [pato…+ kimyo] – patologik jarayonlarning kimyoviy asoslari va kasallik rivojlanishi davomida to‘qimalarda, organizmda kechadigan kimyoviy o‘zgarishlarni o‘rganadigan fan; **patologiya** [pato...+ ...logiya] – nazariy va klinik tibbiyotning turli xil kasalliklar uchun umumiy bo‘lgan jarayonlarning kelib chiqish qonuniyatlarini o‘rganadigan sohasi; **patomimiya** [pato…+ *yun.* mimeomai – o‘xshataman, taqlid qilaman] – turli kasalliklarda qiyofaning o‘zgarishi; 2) yolg‘ondan o‘zini kasal qilib ko‘rsatish uchun qasddan o‘ziga ziyon yetkazish.

PATS... [*lot.* pacis – tinchlik] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, tinchlik, xotirjamlik ma’nolarini bildiradi. Mas.: **patsifikatsiya** [*lot.* pacificatio – tinchlik o‘rnatish, bo‘ysundirish < patsi...+...fikatsiya] – qo‘zg‘olonlar, xalq g‘alayonlari, milliy-ozodlik harakatini kuch, zo‘ravonlik bilan bostirish; **patsifist** – patsifizm (tinchlik) tarafdori; **patsifizm** [*lot.* pacificus – tinchlikparvar +...izm] – har qanday urushga, jumladan, adolatli urushga ham qarshi bo‘lgan va Yer yuzida tinchlik bo‘lishini yoqlovchi dunyoqarash, oqim.

PATSI... [*lot.* patiens – chidamli; azob chekuvchi] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, jismoniy yoki ruhiy azoblanish ma’nolarini bildiradi (*q.* **pass...** II). Mas.: **patsiyens** (tilshunoslikda); **patsiyent** [*lot.* patiens (patientis) – dard, azob chekuvchi; kasal; chidamli, sabrli < patio – dard chekmoq, chidamoq] – tibbiy yordam so‘rab murojaat qilgan yoki tibbiy nazorat ostida bo‘lgan shaxs.

PAXI... [*yun.* pachys – qalin, yo‘g‘on] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, yo‘g‘onlashgan, qalinlashgan ma’nolarini bildiradi. Mas.: **paxiaraxnoidit, paxidermatoz, paxidermiya, paxiostoz, paxiperiostit, paxiperitonit, paxisomiya; paxidaktiliya** [paxi...+ *yun.* daktylos – barmoq]

– qo‘l va oyoq barmoqlari o‘lchamlarining g‘ayriodatiy kattalashishi; **paxigiriya** [paxi...+ *yun.* gyros – doira] – bosh miya pushtalarining turli kasalliklar oqibatida qalinlashib, to‘qimalar arxitektonik tuzilishining o‘zgarishi; **paxiglossiya** [paxi...+ *yun.* glossa – til] – tilning g‘ayritabiiy yo‘g‘onlashishi; **paxikefaliya // paxitsefaliya** [paxi...+...kefaliya] – kalla suyaklarining yo‘g‘onlashishi, odatdagidan yo‘g‘on bo‘lishi; ensa (orqa) tomoni yapasqi kalla; **paximeningit** [paxi...+ mening(o)...+...it] – miya qattiq qobig‘ining yallig‘lanishi; **paximetr** [paxi...+...metr] – obyektlar yo‘g‘onligini o‘lchovchi asbob; **paxionixiya** [paxi...+ *yun.* onichos – tirnoq] – tirnoq plastinkasi ostidagi epidermis qavatining qalinlashib ketishi bilan kechadigan keratoz; **paxiplevrit** [paxi…+ plevrit] – plevra qavatining qalinlashib yallig‘lanishi.

PAZI... [*yun.* pas – har qanday, hamma] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, barcha, jami degan ma’nolarni bildiradi. Mas.: **pazigrafiya** [pazi...+...grafiya] – turli tillarda so‘zlashuvchi ko‘pchilik xalqlarga belgi ma’nosi tushunarli bo‘lgan yozuv, masalan, nota yozuvlari, arab raqamlari.

PED... [*lot.* pes (pedis) – oyoq; tovon] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning oyoqqa, tovonga oidligini bildiradi. Mas.: **pedal, pedipalpalar; pedikyur** [*fr.* pedicure < ped(i)...+ *lot.* curo – parvarishlayman, g‘amxo‘rlik qilaman] – oyoq tovonini parvarishlash, qadoqlarni yo‘qotish, tirnoqlarni tozalash, silliqlash, mustahkamlash va bo‘yash; **pedograf** [pedo...+...graf] – oyoq kafti (tagi) ning qog‘ozga tushirilgan izi; **pedometr** [pedo...+...metr] – bosilgan qadamlar sonini avtomatik ravishda hisoblab boradigan asbob, qadamo‘lchagich.

PED(O)... [*yun.* pais, paidos – bola] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning bolaga, go‘dakka aloqadorligini bildiradi. Mas.: **pedant, pedantizm, pederast, pederastiya, pediatr, pedikator, pedofiliya, pedolog, pedomorfoz, pedotsentrizm; pedagog** [*yun.* paidagogos – dastlab: bolani maktabga yetaklab boruvchi va uyda nazorat qilib turuvchi qul; rahbar; keyincha: tarbiyachi < paidos – bola + agogos – olib boruvchi] – pedagogika mutaxassisi; o‘qituvchi, murabbiy; **pedagogika** [*yun.* pedagogike < paidos – bola + ago – olib boraman, tarbiya qilaman] – ta’lim, tarbiya hamda ma’lumot berishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganuvchi fanlar majmuyi; **pediatriya** [ped...+...iatriya] – tibbiyotning bolalar kasalliklari va ularni davolash usullarini o‘rganuvchi bo‘limi; **pedodontiya** [ped…+ …odont +…iya] – stomatologiyaning bolalarda tish va og‘iz bo‘shlig‘i kasalliklarini davolash bilan shug‘ullanuvchi bo‘limi; **pedogenez** [pedo...+...genez]

– bir qator umurtqasiz hayvonlar lichinkasida urug‘lanmagan tuxumhujayradan yangi naslning rivojlanishi; partenogenez shakllaridan biri; **pedologiya** [ped(o)...+...logiya] – bola rivojlanishiga nisbatan psixologik, biologik, ijtimoiy (sotsiologik) qarashlar majmuyi; bolalar hayoti va o‘sishini muntazam o‘rganuvchi fan; **pedometr** [pedo...+...metr] – chaqaloqlarni o‘lchash uchun qo‘llanadigan asbob.

...PEDIYA [*yun.* paideia – o‘qitish, o‘qitilish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, o‘qitish, o‘qitilish ma’nolarini bildiradi. Mas.: **gipnopediya** [gipno…+…pediya] – gipnoz paytida o‘qitish; **niktopediya** [nikto…+…pediya] – uyquda (uxlaganda) o‘qitish; **logopediya** [logo…+…pediya] – defektologiyaning bir sohasi: eshitish qobiliyati yaxshi bo‘lgani holda, nutqdagi turli xil kamchiliklarni o‘rganadi va ularning sabablarini aniqlash, ularning oldini olish hamda davolash usullarini ishlab chiqadi.

...PEKSIYA [*yun.* pexia – ulash, tikish, mustahkamlash] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, biror a’zoni tikib, ulab mustahkamlash, fiksatsiya qilish ma‘nolarini bildiradi. Mas.: **galaktopeksiya, kolpopeksiya, kriopeksiya, orxipeksiya, ovariopeksiya, proktopeksiya, splenopeksiya; gastropeksiya** [gastro…+…peksiya] – pastga tushib qolgan oshqozonni ko‘tarib tikib qo‘yish uchun qo‘llanadigan operatsiya; **kolopeksiya** [kolo…+…peksiya] – yo‘g‘on ichak joyidan ko‘chgan paytda uning bir bo‘lagini qorin devorining bir qismiga tikib qo‘yish; **omentopeksiya** [*lot.* omentum – charvi +…peksiya] – charvi bilan boshqa a’zo o‘rtasida qon tomirni ulash maqsadida o‘tkaziladigan operatsiya; **nefropeksiya** [nefro…+…peksiya] – adashgan (sayyor) yoki pastga tushgan buyrakni tikib mustahkamlab (fiksatsiya qilib) qo‘yish; **pnevmopeksiya** [pnevm(o)…+…peksiya] – bitta yoki ikkita o‘pkani ko‘krak qafasi devoriga yoki plevra pardasiga tikib qo‘yish operatsiyasi; **splanxnopeksiya** [splanxn(o)…+…peksiya] – ichki a’zolarning o‘z o‘rnida patologik qo‘zg‘aluvchanligida ularni jarrohlik yo‘li bilan o‘z joyiga mustahkamlash.

PEKT... [*yun.* pektos – quyuq; muzlagan] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, tarkibidagi asosiy modda ko‘p degan ma’noni bildiradi. Mas.: **pektaza; pektinlar // pektin moddalar** [pekt(o)...+...in] – barcha quruqlik o‘simliklari va bir qator suvo‘tlar tarkibidagi eriydigan va erimaydigan yuqori molekulali polisaxaridlar; **pektol** [pekt...+...ol] – termopsisning quruq ekstrakti, opiy kukuni, natriy bikarbonat, anis moyi va chuchukmiya kukunidan iborat tabletka.

PEKTOR(O)... [*lot.* pectus (pectoris) – ko‘krak] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, ko‘krakka aloqadorlik ma’nosini bildiradi. Mas.: **pektoral** [*lot.* pektoralis – ko‘krakka oid] – qadimgi Misr va Yevropada mis asrida ko‘krak va yelkani bezash uchun metalldan yasalgan va bo‘yinga taqiladigan bezak; **pektorilokviya** [pektor(i)...+ *lot.* loqua – nutq, so‘z; til] – ko‘krak qafasi auskultatsiya qilinayotganda kasalga ayrim so‘zlarni talaffuz ettirib tekshirish; **pektorofoniya** [pektoro...+...foniya] – ko‘krak qafasidan eshitiladigan auskultatsiya tovushining kuchayishi.

PEL(O)... [*yun.* pelos – gil, loy] – o‘zlashma yasama va qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, loy, gil, balchiq ma’nolarini bildiradi. Mas.: **pelitlar** [pel(o)...+...it] – bir xil ko‘rinishdagi donador (chaqiq) tog‘ jinslari; **peloidlar** [pelo...+...oid] – shifobaxsh balchiqlar; **peloidobalneoterapiya** [peloido...+ balneo...+...terapiya] – balchiq va suv bilan bir vaqtda davolash; **peloidoterapiya** [peloido...+...terapiya] – balchiq bilan davolash.

PELL(I)... [*lot.* pellis – teri] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning teriga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **pellagra** [*ital.* pelle agra – g‘adir-budur, dag‘al teri < *lot.* pellis – teri] – organizmda PP vitamini (nikotin kislotasi) va B guruhiga mansub boshqa ba’zi vitaminlar yetishmasligidan kelib chiqadigan kasallik; **pellikula** [*lot.* pellicula – bir parcha teri, po‘st, qobiq < pelli...+...kula] – 1) teri yoki biror pardaning yupqalanib qolishi; 2) bir hujayrali ba’zi organizmlarning pardasi, qobig‘i.

PELVI(O)... [*yun.* pelvis – chanoq] – ayrim o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning chanoqqa, chanoq sohasiga oid, tegishli ekanini bildiradi. Mas.: **pelviotsellyulit; pelvimetriya** [pelvi...+...metriya] – chanoqni tashqi va ichki tomondan o‘lchash (ko‘pincha tug‘ish vaqtida); **pelvioperitonit** [pelvio...+ peritonit] – qorin bo‘shlig‘ida joylashgan peritoneum pardasining chanoq bo‘limidagi qismining yallig‘lanishi; **pelviskopiya** [pelvi...+...skopiya] – chanoq yoki unda joylashgan a’zolarni tekshirish.

PEN(O)... [*lot.* poena – jazolash, jarima] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, jazo, jarima ma’nolarini bildiradi. Mas.: **penalti** [*ingl.* penalty < *lot.* poena – jazolash, jarima] – ayrim sport o‘yinlarida: jarima maydonchasida qoidani buzganligi uchun qoidabuzar raqib darvozasi tomon belgilangan va yo‘naltiriladigan jarima zarbasi (to‘pi); **penitensiar** [*lot.* poenitentia < peni...+ *lot.* tentare – iqror bo‘lmoq, tavba, pushaymon qilmoq]: ***penitensiar sistema*** – jinoiy ishlar uchun ozodlikdan mahrum qilish mudda-

tini o‘tash maskanlari (qamoqxonalar, lagerlar, axloq tuzatish-mehnat koloniyalari) majmuyi; **penologiya** [peno...+...logiya] – jazo (asosan, qattiq jinoyatlar uchun) haqidagi ta’limot; **penya** [*lot.* poena – jazo] – pul-to‘lov majburiyatlarini o‘z vaqtida yoki to‘liq bajarmaganlik uchun to‘lanadigan jarima.

...PENIYA [*yun*. penia – kamayish, yetishmovchilik] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, kamayish, kam (oz) bo‘lish, yetishmovchilik kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **limfopeniya, neytropeniya, trombotsitopeniya, xloropeniya; eritropeniya** [eritro…+…peniya] – periferik qonda qizil qon tanachalari sonining kamayib ketishi; **leykopeniya** [leyko…+…peniya] – qonda leykotsitlar sonining kamayishi; **sideropeniya** [sidero…+…peniya] – organizmda temir moddasining yetishmasligi (tanqisligi); **sitopeniya** [sito…+…peniya] – tekshirish obyektida ma’lum turdagi hujayralar sonining normadagiga nisbatan kamayishi; **trombopeniya** [trombo…+…peniya] – trombotsitopeniya – periferik qonda trombotsitlar sonining kamayib ketishi; **uropeniya** [uro…+…peniya] – siydikning kam bo‘lishi yoki kam ishlab chiqarilishi.

PENO... [*rus.* пена – ko‘pik] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlar anglatgan narsa-buyumlarning yengil, g‘ovak, ko‘piksimon ekanligini bildiradi. Mas.: **penokeramika, penometall, penorezina; penobeton** [peno...+ beton] – issiqlikni uncha o‘tkazmaydigan, serg‘ovak beton; binokorlik materiali; **penoplast** [peno...+ *yun.* plastos – yopishtirilgan, yasalgan] – suvdan besh baravar yengil, serg‘ovak plastmassa; **penosilikat** [peno...+ silikat] – ohak va qumdan tayyorlanadigan serg‘ovak qurilish materiali; **penoshisha** [peno...+ shisha] – g‘ovak strukturali material.

PENT(A)... [*yun.* penta – besh] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning 5 soniga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **pentagastrin, pentalgin, pentanidin, pentazotsin** (har to‘rtalasi dorivor modda), **pentaedr, pentaftallar, pentagon, pentametr, pentatonika, pentaxord, pentozuriya; pentaeritrit** [penta…+ eritrit] – organik birikma, alifatik qatordagi to‘rt atomli spirt; qattiq rangsiz kristall mahsulot; **pentagramma** [penta...+...gramma] – har bir tomoniga balandligi bir xil, teng yonli uchburchaklar yasalgan muntazam beshburchak; **pentan** [*yun.* penta – besh] – organik birikma, alifatik qatordagi to‘yingan uglevodorod; rangsiz suyuqlik; **pentatlon** [pent...+...atlon] – sportda zamonaviy beshkurash; bir paytning o‘zida sportning beshta turi bo‘yicha musobaqalashish; **pentod** [pent(a)...+ ...od] – besh elektrodli, ya’ni katod, uchta to‘r va anoddan iborat elektron

lampa; **pentozalar** [pent(a)...+...oza] – molekulasida beshta uglerod atomi bo‘lgan monosaxaridlar.

PEPS... [*yun.* pepsis – hazm qilish] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, ovqat hazm qilishga oidlikni bildiradi. Mas.: **pepsi-kola, pensinogen; pepsin** [peps...+...in] – oqsillarni parchalaydigan hazm fermenti.

PER... [*lot.* per – orqali, oralab, bo‘ylab; yuqori, ortiq, ko‘p] – I. Old ko‘makchi: ma’lum narsa orqali, uning orasidan yo‘nalganlikni, yo‘naltirishni bildiradi. Mas.: **perkolyatsiya, perkussiya, perseveratsiya, perspektiva; perfuziya** [per…+ *lot.* fusio – oqish, oqizish] – davolash va profilaktika maqsadlarida biror a’zo, tananing bir qismi yoki butun organizm qon tomirlariga suyuqlikni (mas., qonni) bosim orqali kiritish; **peroral** [per...+ *fr.* oral – og‘izga oid < *lot.* os (oris) – og‘iz]: ***peroral usul*** – dori vositalarini og‘iz orqali yuborish usuli; **perspiratsiya** [per...+ *lot.* spiratio – nafas olish-chiqarish] – teri bilan (orqali) nafas olish; **pertubatsiya** [*lot.* pertubatio – naycha orqali kiritish] – bachadon naychalariga maxsus asbob yordami bilan havo yoki gaz yuborish. II. Old qo‘shimcha: ma’lum belgining zo‘rayishi; masalan, kimyoda muayyan elementning yuqori oksidlanish darajasini yoki birikmada, moddada kislorod miqdorining ko‘pligini bildiradi. Mas.: **perkarbonatlar, perkislotalar, permutitlar, persulfatlar, perxloretilen, perxlormetan; pergidrol** [per...+ gidr(o)...+...ol] – vodorod peroksid (H_2O_2) ning suvdagi 30% li eritmasi; **permanganatlar** [per...+ *lot.* Manganum – marganes +...at] – permanganat kislota ($HMnO_4$) ning tuzlari (mas., *kaliy permanganat*); **peroksidlar** [per...+ oksid] – tarkibida o‘zaro bog‘langan ikki kislorod atomidan iborat guruhi (–O–O–) bo‘lgan murakkab moddalar; **perxloratlar** [per...+ xlor...+...at] – perxlorat kislota ($HClO_4$) tuzlari (mas., *kaliy perxlorat*).

PERI... [*yun.* peri – atrofida, yaqinida] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, biror narsaga qo‘shnilik, yaqinlik, uning yaqinida, atrofida, tashqarisida joylashgan kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **periadenit, periartrit, periastr, peribronxit, periderma, periferiya, perifraza, periglossit, perikambiy, perikardit, perikarpiy, perikolit, perimetriy, perinevrit, period, periodont, periodontoz, periostoz, periproktit, peripter, periseleniy, perisperm, peritetsiy, peritsement, peritsementit, peritsikl, perixondriy; periarteriit** [peri...+ arteri...+...it] – arteriya qon tomirlari tashqi qavatining va arteriyalar atrofidagi to‘qimalarning yallig‘lanishi; **perifiton** [peri…+ *yun.* fiton – o‘simlik] – chuchuk suv havzalaridagi suvosti predmetlarida yoki boshqa suv organizmlarida yashovchi o‘simlik va jonivorlarning

barchasi; **perigeliy** [peri...+ *yun.* helios – quyosh] – Quyosh atrofida aylanayotgan osmon jismlari orbitasining Quyoshga eng yaqin nuqtasi; **perigey** [peri...+ *yun.* geo – Yer] – Yer atrofida orbita bo‘ylab aylanuvchi jismlar (Oy, sun’iy yo‘ldosh kabi) ning Yer markaziga eng yaqin vaziyati; **perikard** [peri...+...kard] – yurakni sirtdan o‘rab turadigan xaltasimon qobiq; yurak xaltasi; **perimarkaz** [peri...+ markaz] – kosmik jism (sayyora) orbitasining sistema massasi markaziga eng yaqin nuqtasi; **perimetr** [peri...+...metr] – 1) har qanday yopiq egri chiziqning uzunligi (masalan, ko‘pburchakning perimetri uning hamma tomonlari yig‘indisiga teng); 2) ko‘rish maydoni chegarasini aniqlab beradigan asbob; **perimetrit** [peri…+ metr(o)…+…it] – bachadonni o‘rab turadigan qorin pardasining yallig‘lanishi; **perinatal** [peri...+...natal]: ***perinatal davr*** – homiladorlikning 28-haftasidan boshlanib, bola tug‘ilgandan keyingi 7-kungacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan muddat; **periodontit** [peri…+ odont(o)…+…it] – tish ildizi atrofidagi to‘qimalar (periodont) ning yallig‘lanishi; **periostit** [peri…+ ost(eo)…+…it] – suyak pardasi (periost) ning yallig‘lanishi; **periskop** [peri...+...skop] – bevosita kuzatish mumkin bo‘lmagan berk, pana joylardan (masalan, bronetransportyor, suvosti kemasi, tank kabilardan) atrofni kuzatish imkonini beruvchi optik asbob; **peristil** [peri…+ *yun.* stylos – kolonna, ustun] – to‘rt tomondan usti yopiq ustunlar bilan o‘ralgan to‘rtburchak hovli, bog‘ yoki maydon; **peritiflit** [peri…+ tifl(o)…+…it] – ko‘richak atrofidagi to‘qimaning yallig‘lanishi.

PESSIM... [*lot.* pessimus – eng yomon] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, ishonchsizlik, umidsizlik kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **pessimist** [pessim...+...ist] – ruhiy tushkunlikka yuz tutgan, hayotga, kelajakka umidsizlik bilan qaraydigan kishi; **pessimizm** [pessim...+...izm] – kelajakka ishonchsizlik, umidsizlik bilan qarash, har bir narsaning yomon tomonini ko‘rishga moyillik, ruhiy tushkunlik; **pessimum** [*lot.* pessimum – eng yomon] – juda kuchli ta’sir natijasida a’zo yoki to‘qimalarda qo‘zg‘alish jarayonining vujudga kelmay qolishi, ular faolligining kamayishi.

PESTI... [*lot.* pestis – yuqumli kasallik, maraz] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, yuqumli kasallik ma’nosini bildiradi. Mas.: **pestitsidlar** [pesti...+...sid] – o‘simliklarni har xil kasalliklardan himoya qilishda va qishloq xo‘jaligi o‘simliklariga, daraxt va butalarga, g‘allaga zarar keltiradigan hasharotlarni qirishda qo‘llanadigan kimyoviy moddalar.

PETR(O)... [*yun.* petros – tosh] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning toshga, tog‘ jinslariga aloqadorligini bildiradi.

Mas.: **petrifikatlar, petrofizika, petrograf, petroleum, petrotektonika, petrurgiya; petrifikatsiya** [petr(i)...+...fikatsiya] – toshga aylanish; kalsiy tuzlarining to‘qimaga bir tekisda o‘tishi natijasida to‘qimaning tosh kabi qattiqlashishi; **petrofitlar** [petro...+...fit] – toshloq yerlarda, qoyalarda o‘sadigan o‘simliklar; litofitlar; **petrogliflar** [petro…+ *yun.* glyphe – naqsh, o‘yma] – hayvonlar, o‘simliklar, urush va ov manzaralarining qoya va toshlarga o‘yib tushirilgan tasvirlari; **petrografiya** [petro...+...grafiya] – *q.* **petrologiya**; **petrokimyo** [petro...+ kimyo] – petrologiyaning magmatik tog‘ jinslari va jins hosil qiluvchi minerallarda kimyoviy elementlarning taqsimlanishini o‘rganadigan sohasi; **petrologiya** [petro...+...logiya] – geologiyaning tog‘ jinslarini, ularning mineralogik va kimyoviy tarkibini, tuzilishini, tarqalish qonuniyatlarini, kelib chiqishini va boshqa xususiyatlarini o‘rganadigan bo‘limi.

PIKNO... [*yun.* puknos – zich; tez] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, zich, tig‘iz, tez-tez degan ma’nolarni bildiradi. Mas.: **piknida, piknolepsiya, piknoz; piknokardiya** [pikno...+...kardiya] – yurak urishining tezlashishi; **piknometr** [pikno...+...metr] – gaz, suyuqlik va qattiq jismlar zichligini aniq o‘lchash uchun mo‘ljallangan, maxsus shaklli va aniq sig‘imli shisha idish; **piknozond** [pikno...+ *fr.* sonde – qidirib topish asbobi] – turli chuqurliklardagi dengiz suvining zichligini tez aniqlaydigan asbob.

PIKR... [*yun.* pykros – achchiq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, sezgi a’zolariga qattiq ta’sir qiladigan; o‘tkir, achchiq, o‘yuvchi kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **pikratlar** – organik birikmalar guruhi, pikrin kislota tuzlari; **pikrin** [*yun.* pykros – achchiq, o‘tkir]: ***pikrin kislota*** – aromatik qatorga mansub organik birikma, qattiq, sariq kristall modda; **pikrotoksin** [pikro...+ *yun.* toxsikon – zahar] – o‘simlik mevalarida bo‘ladigan tirishtiruvchi zahar.

PIKT... [*lot.* pictus – chizilgan, tasvirlangan] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning (bo‘yoq bilan) chizishga, tasvirlashga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **piktografik** [pikto...+...grafiya]: ***piktografik yozuv*** – axborotning umumiy mazmunini rasm yoki tartiblashtirilgan bir necha rasmlar shaklida ifodalash usuli; **piktografiya** [pikto...+...grafiya] – piktogrammaga asoslangan, fonetik yozuvdan oldingi, juda qadimgi yozuv shakli; **piktogramma** [pikto...+...gramma] – qadimgi yozuv shakllaridan biri – hodisa, predmet va shu kabilarning shartli belgisi, surati.

PILO... [*lot.* pilos – soch] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning sochga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **pilokarpus, pilomotor** (tolalar)**, pilobezoar; pilomikoz** [pilo...+...mikoz] – parazit zamburug‘lar qo‘zg‘atadigan soch kasalliklarining umumiy nomi; **pilotsistik** [pilo...+ *yun.* systos – pufakcha] – tukli sista (bo‘shliq, pufakcha) ga oid.

PILOR(O)... [*yun.* pyloros – darvozabon; oshqozonning chiqish qismi (teshigi)] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, oshqozon (me’da) ning o‘n ikki barmoqli ichakka tutashish joyidagi teshik (pilorus) ni bildiradi. Mas.: **pilorit, piloromiotomiya, piloroplastika, pilorostenoz, pilorostomiya, pilorus; pilorektomiya** [pilor...+...ektomiya] – oshqozonning pilorus qismini kesib olib tashlash operatsiyasi; **piloroduodenit** [piloro…+ duodeni…+…it] – oshqozonning chiqish qismi (pilorus) va o‘n ikki barmoq ichak boshlanish qismining yallig‘lanishi; **piloroskopiya** [piloro...+...skopiya] – oshqozon chiqish qismini tekshirish; **pilorospazm** [piloro...+...spazm] – oshqozon chiqish qismi (pilorus) ning qisilishi, tortishib qolishi; **pilorotomiya** [piloro…+…tomiya] – oshqozondan yot jismni olib tashlash uchun oshqozonning chiqish qismini ko‘ndalang kesish operatsiyasi.

PINAK(O)... [*yun.* pinax, pinakos – rasm, chizma] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning rasmga, suratga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **pinakoteka** [pinako...+...teka] – 1) qadimgi Yunonda rasmlar, tasvirlar saqlanadigan joy; 2) suratlar galereyasi.

PINO... [*yun.* pino – ichmoq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shimib olmoq, qamrab olmoq kabi ma’nolarni anglatadi. Mas.: **pinotsitoz** [pino...+ sit(o)...+...oz] – hujayraning atrof-muhitdan suyuqlikni jadal shimib olishi.

PI(O)... [*yun.* pyon – yiring] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning yiringga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **piodermatoz, piodermit, piokokklar, piokolpotsele, piomiozit, pionefroz, pionefrolitiaz, pioperikardit, pioperitonit, piopnevmogepatit, piopnevmotoraks, piopnevmoxoletsistit, piosalpingit, piospermiya, piotsele, piotsianin, piovezikulyoz, piyemik; piartroz** [pi…+ artroz] – bo‘g‘imning yuqumli shikastlanishi oqibatida uning yiring bilan to‘lishi; **piodermiya** [pio…+ …dermiya] – terining asosan yiring paydo qiluvchi mikroblar qo‘zg‘atadigan dermatozlarning umumiy nomi; **pioftalmiya** [pio…+ oftalm…+…iya] **–** ko‘z soqqasining yiringli yallig‘lanishi; **piometra** [pio…+ *yun.* metra – bachadon]

– bachadon ichida yiring to‘planib qolishi; **piometrit** [pio…+ metr(o)…+…it] – bachadonning yiringli yallig‘lanishi; **pionefrit** [pio...+ nefrit] – buyrakning yiringli yallig‘lanishi; **pioreya** [pio…+…reya] – yiring chiqishi, oqishi; **piosalpinks** [pio...+ *yun.* salpinx – nay, truba] – bachadon nayida yiring to‘planishi; **piotoraks** [pio...+ *yun.* thorax – ko‘krak; plevra bo‘shlig‘i] – plevra bo‘shlig‘ida yiring yig‘ilishi; yiringli plevrit; **piuriya** [pi(o)...+...uriya] – buyraklar, siydik yo‘llari, prostata kasalliklarida yiringning siydik bilan ajralib chiqishi; **piyemiya** [pi(o)...+...emiya] – yiring mikroblarining doimiy yoki davriy ravishda qonga o‘tishi natijasida kelib chiqadigan kasallik; sepsisning bir turi.

PIR(O)... [*yun.* pyr – alanga, olov; harorat] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, alanga, olov; harorat ma’nolarini bildiradi. Mas.: **pirargirit, piridin, piridoksin, pirit, piroelektr, pirofillit, pirofor** (metallar)**, pirogallol, pirogenizatsiya, pirogenlar, pirografit, pirokatexin, piroksilin, pirolatriya** (otashparastlik)**, pirolit, pirolyuzit, pirometriya, pirop, piropatron, piroplazma, piroplazmoz, piroseleksiya, piroskaf, pirosomalar, pirotexnik, pirotoksin; piranograf** [pir(o)...+ *yun.* ano – yuqorida +...graf] – to‘g‘ri tushayotgan yoki tarqoq quyosh radiatsiyasini uzluksiz qayd qilib borish uchun mo‘ljallangan asbob; **piranometr** [pir(o)...+ *yun.* ano – yuqorida +...metr] – yotiq sirtga tushayotgan yig‘ma yoki tarqoq quyosh radiatsiyasini o‘lchash uchun mo‘ljallangan asbob; **pirgeliometr** [pir…+ gelio…+…metr] – Quyoshdan Yerga kelayotgan nur energiyasini mutlaq o‘lchashlar uchun mo‘ljallangan asbob; **pirgeometr** [pir…+ geo…+ …metr] – Yer sirtining effektiv nurlanishi intensivligini o‘lchash uchun mo‘ljallangan asbob; **piroferal** [pir(o)…+ ferro…+ alyuminiy] – tarkibida 28 – 30% alyuminiy bo‘lgan issiqbardosh va korroziyabardosh cho‘yan; **pirofobiya** [piro...+...fobiya] – o‘t, olovdan qo‘rqish; **piroliz** [piro...+...liz] – murakkab moddalarni ularga havo bermay yuqori temperatura ta’sirida oddiy moddalarga parchalash; **piromaniya** [piro...+...maniya] – ruhiy kasalliklarda: biror narsani yoqishga, o‘t qo‘yishga haddan tashqari qiziqish, shunga moyillik; **pirometallurgiya** [piro...+ metallurgiya] – metallar va metall qotishmalarini yuqori (800^{o} – 2200^{o}) temperaturada olish hamda tozalash jarayonlari majmuyi; **pirometr** [piro...+...metr] – spektrning optik sohasida noshaffof jismlarning nurlanishiga qarab ularning temperaturasini o‘lchash uchun mo‘ljallangan asbob; **piroterapiya** [piro...+...terapiya] – tana haroratini sun’iy usulda keskin oshirish yo‘li bilan ba’zi kasalliklarni davolash; **pirotexnika** [piro...+ texnika] – texnikaning portlovchi va yonuvchi aralashmalar tayyorlash, ishlab chiqarish va ularni amalda qo‘llash bilan shug‘ullanuvchi tarmog‘i; **pirrol** [*yun.* pyrrhos – olovrang + *lot.* ol(eum) – yog‘, moy] – geterotsiklik qatordagi organik birikma, rangsiz suyuqlik.

PITEK..., ...PITEK [*yun.* pythekos – maymun] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi va ikkinchi tarkibiy qismlari bo‘lib, shu so‘zlarning maymunga, odamsimon maymunlarga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **pitekantroplar** [pitek...+...antrop] – neandertallardan oldin yashagan, eng qadimgi qazilma odam; **avstralopiteklar, driopiteklar, parapiteklar, ramapiteklar; gigantopiteklar** [*yun.* gigas, gigantus – yirik, ulkan +...pitek] – antropogen davrning o‘rtalarida yashagan, Janubi-Sharqiy Osiyodan jag‘ va tish suyaklari topilgan yirik odamsimon maymunlar turi; **paleopiteklar** [paleo...+...pitek] – qazilma odamsimon maymunlar (suyak qoldiqlari 1879-yilda Shimoliy Hindistonda topilgan); **pliopiteklar** [plio...+...pitek] – qoldiqlari dastlab Fransiyada topilgan qazilma odamsimon maymunlar – hozirgi gibbonlarning ajdodlari hisoblanadi.

PIYEL(O)... [*yun.* pyelos – buyrak jomi] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, buyrak jomi ma’nosini bildiradi. Mas.: **piyelogramma, piyelolitotomiya, piyelometriya, piyelonefrostomiya, piyeloplastika, piyelostomiya, piyelotomiya, piyeloureterotomiya; piyelektaziya** [piyel(o)…+…ektaziya] – buyrak jomining kengayishi; **piyelit** [piyel(o)...+...it] – buyrak jomining yallig‘lanishi; **piyelografiya** [piyelo...+...grafiya] – buyrak jomiga yoki kosachasiga kontrast modda kiritib, rentgenologik tekshirish usuli; **piyelonefrit** [piyelo...+ nefrit] – buyrak, buyrak jomi, kosachasi va to‘qimasining yallig‘lanishi; **piyeloskopiya** [piyel(o)…+…skopiya] – buyrak jomini yoritib ko‘rish; **piyelotsistit** [piyelo…+ sistit] – buyrak jomlari bilan qovuqning bir paytda yallig‘lanishi.

PLAN... [*lot.* planus – yassi, tekis] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning yassi, tekis ma’nolariga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **planimetr** [plan(i)...+...metr] – yassi shakllar sathini aniqlaydigan, shuningdek, muayyan turdagi integrallarning son qiymatini topish uchun mo‘ljallangan matematik asbob; **planimetriya** [plan(i)...+...metriya] – elementar geometriyaning yassi shakllarni o‘rganadigan bo‘limi; **planisfera** [plan(i)...+...sfera] – Yer shari yoki osmon gumbazi globuslarining yassi xaritada yarimsharlar shaklidagi tasviri; **planotsit** [plan(o)...+...sit] – yassi shakldagi eritrotsit.

...PLAN [*lot.* planum – yassilik, tekislik] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning uchish apparatlariga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **aeroplan, batiplan, biplan, monoplan; deltaplan** [*yun.* delta – yunon alifbosidagi to‘rtinchi harf (Δ) ning nomi +...plan] – uchburchak

(deltasimon) qanotga ega bo‘lgan o‘ta yengil motorsiz uchish apparati; **gidroplan** [gidro...+...plan] – suv yuzasidan uchib, unga qo‘nuvchi samolyotning eskirgan nomi; **stratoplan** [strato...+...plan] – stratosferada uchishga moslangan samolyotning eskirgan nomi.

PLANET(O)... [*lot.* planeta – sayyora < *yun.* planetes – adashgan, kezib yuruvchi] – o‘zlashma yasama va qo‘shma so‘zlarning birinchi (asos) qismi bo‘lib, sayyora (planeta) ma’nosini bildiradi. Mas.: **planetar, planetariy, planetolog, planetolyot; planeta** [*lot.* planeta] – Quyosh atrofida aylanuvchi va undan yorug‘lik va issiqlik olib, ularni qaytaruvchi elliptik yoki sharsimon osmon jismi; sayyora; **planetologiya** [planeto…+…logiya] – astronomiyaning Quyosh sistemasidagi sayyoralar va ularning yo‘ldoshlarini o‘rganuvchi bo‘limi; **planetonim** [planet(o)…+…onim] – har qanday osmon jismidagi har qanday tabiiy-fizik obyektning atoqli nomi, onimlarning bir turi.

PLANT... I [*lot.* planta – o‘simlik; ko‘chat, qalamcha] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning o‘simlikka, ko‘chat ekishga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **plantaj, plantator; plantatsiya** [*lot.* plantatio – o‘simlik, ko‘chat o‘tqazish, ekish; ko‘chatzor] – 1) asosan, tropik va subtropik ekinlar (masalan, shakarqamish, paxta, choy, kofe kabilar) yetishtiriladigan yirik dehqonchilik xo‘jaligi; 2) faqat maxsus ekinlar ekilgan katta yer maydoni.

PLANT... II [*lot.* planta – oyoq kafti; tovon] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning oyoq kafti, oyoq izi ma’nolariga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **plantogramma** [plant(o)...+...gramma] – yassioyoqlikni aniqlash usuli; bunda oyoq tagiga bo‘yoq surtib, tekis oq qog‘ozga bosilsa, unga oyoq tagining izi tushadi va shu izga qarab oyoq panjasi (kafti) gumbazining bosish yuzasi aniqlanadi.

PLAS... [*nem.* Platz – joy, maydon < *fr.* place] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, muayyan joy, maydon ma’nolarini bildiradi. Mas.: **plasdarm** [*fr.* place d’armes – qo‘shinlar uchun maydon] – hujum qilayotgan qo‘shinlar tomonidan suvning qarshi qirg‘og‘ida egallangan yoki qarama-qarshi qirg‘oqqa chekinayotgan qo‘shinlar tomonidan tutib turilgan joy; **plaskarta** [*nem.* Platz – joy + Karte – bilet] – uzoq yo‘llarga yuradigan poyezd vagonlaridagi alohida joy uchun beriladigan chipta.

PLAST... [*yun.* plastos – (loydan, yumshoq narsadan) yasalgan] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, ko‘rinish, shakl hosil qilish kabi

ma’nolarni bildiradi. Mas.: **plastidalar, plastikat, plastikatsiya, plastiklar = plastmassalar, plastinka(lar); plastifikatorlar** [plast(i)...+...fikatsiya] – polimer materiallar – plastmassa, rezina, laklar, bo‘yoqlar, yelimlarga ularning plastik yoki elastik holatini yaxshilash uchun qo‘shiladigan moddalar**; plastifikatsiya** [plast(i)...+...fikatsiya] – polimer moddaga plastifikator kiritish jarayoni; **plastika** [*yun.* plastike (techne) – haykal yaratish (san’ati)] – 1) o‘ymakorlik (ganchkorlik) va haykaltaroshlik san’ati; 2) haykaltaroshlikda va tekislikdagi tasvirda badiiy shaklning hajmiy, ko‘zga ko‘rinarli sifatlari; 3) xoreografiyada: tananing raqs ruhi va uslubiga mos muloyim va nafis harakatlari hamda shunday harakatlar san’ati; **plastilin** [*ital.* plastilina < *yun.* plastos – yasalgan +...in] – loy, mum va moybo‘yoqlardan tayyorlanadigan, tez qurimaydigan plastik massa; **plastmassa(lar)** [*rus.* “пластическая масса” birikmasidan] – bosim yoki issiqlik ta’sirida kerakli shaklga kira oladigan va shu shaklini saqlab qoladigan materiallar; plastik massalar.

...PLASTIKA [*yun.* plastike – (biror shakl) yasash san’ati; haykaltaroshlik] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, qayta tiklovchi jarrohlik usullarini, u yoki bu a’zoning shaklini, funksiyasini qayta tiklaydigan jarrohlik operatsiyasini bildiradi. Mas.: **artroplastika, avtoplastika, blefaroplastika, falloplastika, faringoplastika, gomoplastika, kantoplastika, keratoplastika, organoplastika; osteoplastika, perineoplastika, piloroplastika, proktoplastika, stomatoplastika, tarzoplastika, tendinoplastika // tenoplastika, timpanoplastika, traxeoplastika, uretroplastika, xeyloplastika; alloplastika** [allo...+...plastika] – qayta tiklovchi jarrohlikda: odamning a’zo va to‘qimalaridagi nuqsonlarni bartaraf etishda nobiologik materiallardan foydalanish usuli; **ezofagoplastika** [ezofago…+…plastika] – o‘sma, chandiqli stenoz kasalliklarida torayib qolgan qizilo‘ngachning kasal qismini olib tashlab, o‘rniga ingichka yoki yo‘g‘on ichak, oshqozon hamda teridan yangi “qizilo‘ngach” yasash operatsiyasi; **geteroplastika** [getero...+...plastika] – hayvon to‘qimalari yoki a’zolarini odamga ko‘chirib o‘tkazishdan iborat jarrohlik operatsiyasi; **piyeloplastika** [piyelo…+…plastika] – buyrak jomining siydik nayiga o‘tish zonasidagi toraymani bartaraf etishdan iborat jarrohlik operatsiyasi; **rinoplastika** [rino...+...plastika] – shikastlangan burunni qayta tiklash yoki uning shaklini o‘zgartirish uchun qilinadigan plastik operatsiya; **skleroplastika** [sklero…+…plastika] – ba’zi ko‘z kasalliklarida, ko‘z shikastlanganda ko‘z oqini kesib qilinadigan operatsiya; **sfinkteroplastika** [sfinktero…+…plastika] – chandiqlanib, qisilib, torayib qolgan sfinkterni operatsiya usuli bilan normal holatga keltirish; **torakoplastika** [torako...+...plastika] – plevra bo‘shlig‘ining yiringli kasalliklarida, o‘pka silining ba’zi

turlarida: o‘pka funksiyasiga yangi sharoit yaratish uchun ko‘krak qafasi shaklini o‘zgartirish maqsadida bir necha qovurg‘ani olib tashlash yoki kesib qo‘yish; **uranoplastika** [urano…+…plastika] – og‘iz va burun o‘rtasidagi tanglay kemtigini (teshikni) bekitish uchun qo‘llanadigan plastik operatsiya.

PLAT(I)... [*yun.* platys – tekis, silliq; yassi] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, tekislik, yassilikka aloqadorlikni bildiradi. Mas.: **plata, platibaziya, platifillin, platifreniya, platikraniya, platipodiya, platispondiliya, platitsitlar, platobazaltlar; platforma** [*fr.* plate-forme – yassi shakl < *yun.* platys] – 1) temir yo‘l stansiyalarida passajirlarning poyezdga chiqishi yoki tushishi, yuk tushirish yoki ortish uchun temir yo‘lga nisbatan balandroq qilib ishlangan uzun sahn, tekis maydoncha; 2) idish-qopsiz yuklar, konteynerlar tashiladigan, yon devorlari uncha baland bo‘lmagan, usti ochiq yuk vagoni; 3) biror siyosiy partiya, ijtimoiy tashkilot, guruh yoki arbobning dunyoqarashi, maslagi, ish-harakat dasturi, asosiy talablari; **platikefaliya // platitsefaliya** [plat(i)...+...kefaliya] – yassiboshlik, kallaning uzunasiga uncha rivojlanmaganligi; **platistafiliya** [plat(i)...+ *yun.* staphyle – uzum shingili, boshi; tilcha] – rivojlanish nuqsoni; tanglayning tug‘ma serbar va yassi bo‘lishi; **plato** [*fr.* plateau – yassitog‘lik < *yun.* platys – yassi] – dengiz sathidan ancha baland bo‘lgan va atrof joylardan yirik nishabliklar bilan bo‘lingan, keng pastak yassitog‘lik yoki baland tekislik; **platonixiya** [plat...+ *yun.* onyx (onychos) – tirnoq] – tirnoqning nonormal shaklda, yassi va keng bo‘lishi.

...PLAZIYA [*yun*. plasis – hosil bo‘lish, shakllanish] – o‘zlashma qo‘shma va yasama so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, hosil (paydo) bo‘lish, tuzilish, shakllanish ma’nolarini bildiradi. Mas.: **geteroplaziya, giperplaziya, metaplaziya; aplaziya** [a…+…plaziya] – ma’lum to‘qima yoki a’zoning tug‘ilishdan (tug‘ma) mavjud emasligi; **displaziya** [dis…+…plaziya] – tana to‘qimalari, a’zolari va ayrim qismlarining noto‘g‘ri rivojlanishi; bunday nuqsonlar ko‘pincha tug‘ma bo‘ladi; **gipoplaziya** [gipo…+…plaziya] – ayrim to‘qimalar, a’zolar, qismlarning yoki butun organizmning chala o‘sganligi, o‘smay qolishi; **tireoplaziya** [tireo…+…plaziya] – qalqonsimon bezning yetilmagan holati, rivojlanmay qolishi, bunda bez faoliyati ham pasayadi.

PLAZMO..., ...PLAZMA [*yun.* plasma – yaratilgan, yasalgan, yasama narsa] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi va ikkinchi tarkibiy qismlari bo‘lib, shu so‘zlarning: 1) plazmaga, 2) hujayra moddasiga aloqadorligini bildiradi. Mas.: I: **plazmidalar, plazmoblastlar, plazmodiylar, plazmogenlar, plazmon, plazmorragiya, plazmotsitoma, plazmotsitoz; plazma** [*yun.*

plasma – yasalgan narsa; tuzilma] – 1) qonning suyuq qismi; 2) kuchli darajada ionlashgan, yuqori harorat yoki gaz zarrachalari bilan tezlangan elektronlar to‘qnashuvi natijasida hosil bo‘ladigan modda; **plazmodesmalar** [plazmo...+ *yun.* desmos – bog‘lama, bog‘lovchi, biriktiruvchi to‘qima] – o‘simliklarda qo‘shni hujayralar protoplastlarini o‘zaro bog‘lab turuvchi juda ingichka sitoplazma ipchalari; **plazmogamiya** [plazmo…+…gamiya] – urug‘lantirishda faqat erkak va ayol jinsiy hujayralari sitoplazmalarining qo‘shilishi; **plazmokimyo** [plazmo…+ kimyo] – kimyoning past temperaturali plazmadagi fizik-kimyoviy jarayonlarni o‘rganuvchi, plazmokimyoviy texnologiya asoslarini ishlab chiquvchi bo‘limi; **plazmolemma** [plazmo...+ *yun.* lemma – qobiq, po‘st] – o‘simlik va hayvon hujayralari protoplazmasini o‘rab turuvchi membrana; **plazmoliz** [plazmo...+...liz] – hujayraning o‘layotgandagi o‘zgarish xillaridan biri; proteolitik fermentlar ta’sirida sitoplazmaning hujayra qobig‘idan ajralib, erib ketishi bilan ifodalanadi; **plazmoma** [plazmo…+…oma] – 1) o‘smaga o‘xshab qolgan plazma hujayralarining to‘plami; 2) plazma hujayralaridan chiqqan o‘sma; **plazmoterapiya** [plazmo…+…terapiya] – qon oqimiga donor qon plazmasini kiritishga asoslangan yoki plazma yo‘qotilganda uning o‘rnini to‘latish uchun va qon oqishini to‘xtatish maqsadida qo‘llanadigan davolash usuli; **plazmotron** [plazmo...+...tron] – past haroratli plazmani olish uchun ishlatiladigan gaz-razryadli qurilma; **plazmotsitlar** [plazmo...+ ...sit] – dumaloq yadroli va bazofil sitoplazmali yumshoq biriktiruvchi to‘qima hujayralari. II: **endoplazma, ergastoplazma, piroplazma, toksoplazma** (keyingi ikkitasi hayvonlar qonida parazitlik qiluvchi va kasallik qo‘zg‘atuvchi mikroorganizmlar); **karioplazma** [kario…+…plazma] – hujayra yadrosi shirasi; hujayra yadrosi ichida uning tuzilmalari o‘rtasidagi bo‘shliqni to‘ldiruvchi massa; **protoplazma** [proto...+...plazma] – tirik hujayraning sitoplazma va yadrodan iborat tarkibiy qismi; unda barcha hayotiy jarayonlar amalga oshadi; **sitoplazma** [sito...+...plazma] – hujayraning eng muhim tarkibiy qismi, hujayra yadrosidan tashqari uning barcha tirik moddasi.

PLEB... [*lot.* plebis – oddiy xalq; umumxalq] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, oddiy xalq, umumxalq, ommaviy ma’nolarini bildiradi. Mas.: **plebeylar** [*lot.* plebeii, plebs – oddiy xalq] – qadimgi Rimda dastlab erkin, ammo yuridik jihatdan hech qanday huquqqa ega bo‘lmagan, quyi sinfga mansub kishi; **plebissit** [*lot.* plebiscitum – xalq hukmi, qarori < plebis – oddiy xalq + scitum – qaror] – umumxalq ovoziga qo‘yish; biror masalani umumxalq o‘rtasida ovozga qo‘yib yoki umumxalq fikrini to‘plab hal qilish; referendum.

...PLEGIYA [*yun.* plege – zarba, shikast; falaj] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning falajga, paralichga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **blefaroplegiya, diplegiya, faringoplegiya, gastroplegiya, gemiplegiya, glossoplegiya, kardioplegiya, kvadriplegiya, laloplegiya, logoplegiya, monoplegiya, oftalmoplegiya, triplegiya; paraplegiya** [para...+...plegiya] – har ikkala qo‘l yoki har ikkala oyoqning butunlay falajlanishi; **poliplegiya** [poli...+...plegiya] – bir qancha mushaklarning bir vaqtda falajlanishi; **proktoplegiya** [prokto...+...plegiya] – orqa chiqaruv teshigi va to‘g‘ri ichak mushaklarining falaji; **tetraplegiya** [tetra...+...plegiya] – harakat nervlari yoki mushaklarning shikastlanishi natijasida qo‘l va oyoqlarning harakatsizlanib, falaj bo‘lib qolishi.

PLEKS... [*lot.* plexus – o‘ralashgan, chirmashgan; chigal] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, nerv chigaliga aloqadorlikni bildiradi. Mas.: **pleksalgiya** [pleks...+...algiya] – nerv chigallari joylashgan sohalar – yelka, kurakdagi va qo‘lning yuqori qismidagi og‘riq; **pleksiglas** [pleks(i)...+ *ingl.* glass – shisha] – organik shisha asosida olinadigan qattiq, optik shaffof materiallar (plastmassalar) ning umumiy texnik nomi; polimetilmetakrilat; **pleksit** [pleks...+...it] – orqa miyadan chiqadigan nerv chigallarining o‘tkir yallig‘lanishi.

PLESS... [*yun.* plesso – uraman] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, qo‘l yoki biror vosita bilan zarb bermoq ma’nosini bildiradi. Mas.: **plessimetr** [pless(i)...+...metr] – perkussiya qilishda vrach tomonidan ishlatiladigan plastinkasimon maxsus metall asbob.

PLEVR(O)... [*yun.* pleura – yon tomon, devor, parda, qobiq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning plevraga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **plevral** (bo‘shliq)**, plevrektomiya, plevrodez, plevrodiniya, plevroliz, plevropnevmonektomiya, plevroreya, plevroskop, plevrotsentez; plevra** [*yun.* pleura – yon tomon, devor, parda] – o‘pka va ko‘krak bo‘shlig‘i devorini ich tomondan zich o‘rab turadigan seroz parda; **plevralgiya** [plevr...+...algiya] – plevradagi nerv uchlarining patologik tebranishi bilan bog‘liq ko‘krakda og‘riq paydo bo‘lishi; **plevrit** [plevr...+...it] – plevraning yallig‘lanishi – plevra bo‘shlig‘ida va sathida suyuqlik to‘planishi bilan namoyon bo‘ladigan yallig‘lanish; **plevrogepatit** [plevro...+ gepatit] – jigar va jigar oldidagi plevra qismining yallig‘lanishi; **plevrografiya** [plevro...+...grafiya] – plevra bo‘shlig‘iga kontrast modda yuborib, rentgenologik tekshirish usuli; **plevropnevmoniya** [plevro...+ pnevmoniya] – o‘pka va plevraning bir vaqtda

yallig‘lanishi; **plevroperikardit** [plevro…+ perikardit] – plevra va yurak xaltasining yallig‘lanishi; **plevroskopiya** [plevro...+...skopiya] – maxsus asbob – plevroskop bilan plevra bo‘shlig‘ini ko‘rib tekshirish; **plevrotomiya** [plevro…+…tomiya] – jarrohlik yo‘li bilan plevra pardasini ochish.

PLEO..., PLEYO..., PLEYSTO..., PLIO... [*yun.* pleion – katta, ulkan; ko‘p; pleistos – eng ko‘p, eng katta, eng yuqori; pleon – eng ko‘p sonli; ancha, ko‘pgina] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismlari bo‘lib, son, miqdor jihatdan ortiqlikni, ko‘plikni; juda ko‘p, ko‘p sonli ekanlikni ifodalaydi. Mas.: **pleomastiya** [pleo...+ *yun.* mastos – ko‘krak, ko‘krak so‘rg‘ichi +...iya] – sut bezi yoki emchak uchining ikkitadan ortiq bo‘lishi (rivojlanish nuqsoni); **pleomorfizm** [pleo...+ morf(o)...+...izm] – yakka organizm yoki bir turdan o‘zaro bir-biridan farq qiluvchi bir necha xil shakllar hosil bo‘lishi; **pleonazm** [*yun.* pleonasmos – ortiqchalik, ko‘plik] – bir xil yoki sinonimik ifoda vositalarining (til birliklarining) semantik jihatdan ortiqcha, takror qo‘llanishi (lekin bu holat uslubiy vazifa bajarishga asoslanadi); **pleotsitoz** [pleo...+ sit(o)...+ ...oz] – orqa miya suyuqligida hujayra elementlarining ko‘payishi; **pleoxroizm** [pleo…+ *yun.* chroma – rang] – ayrim minerallar kristallarining ularni kun yorug‘ida turli yo‘nalishlardan turib qaraganda turli ranglarda ko‘rinish xususiyati; **pleoxromotsitoma** [pleo…+ xromo…+ sito…+…oma] – turli rangdagi hujayralardan tashkil topgan o‘sma; **pleyotropiya** [pleyo...+ ...tropiya] – genning organizmdagi bir necha belgining rivojlanishiga birdaniga ta’sir eta olish xususiyati; **pleyoxromiya** [pleyo...+ *yun.* chroma – rang] – rangning ko‘payishi, xususan, o‘t (safro) pigmentlarining ortiqcha ajralishi; **pleystoseystlar** [pleysto...+ *yun.* seistos – titragan, tebrangan; larzaga kelgan] – geografik xaritada eng kuchli zilzila (yer qimirlash) nuqtalarini birlashtiruvchi (ko‘rsatuvchi) chiziqlar; **pleystotsen** [pleysto...+...sen] – Yer tarixida to‘rtlamchi davr (antropogen) ning quyi, eng ko‘p (taxminan bir million yil) davom etgan, hayotning nisbatan yangi ko‘plab shakllari paydo bo‘lgan bo‘limi; **pliopitek** [plio…+…pitek] – hozirgi gibbonlarning ajdodlari bo‘lmish qazilma odamsimon maymun; **pliotsen** [plio...+...sen] – neogen davrining yuqori bo‘limi bo‘lib, 2 milliondan 7 million yilgacha bo‘lgan vaqtni o‘z ichiga oladi; **pliozavrlar** [plio...+...zavr] – yura va bo‘r davrlarida yashagan yirik, yirtqich, kalla suyagi 3 metrgacha bo‘lgan dengiz sudralib yuruvchilari.

PLEZI(O)... [*yun.* plesios – yaqin] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, yaqin, o‘xshash ma’nolarini bildiradi. Mas.: **pleziografiya, plezioterapiya; pleziantrop** [plezi(o)...+...antrop] – avstralopitekka yaqin odamsimon maymun; **pleziozavrlar** [plezio...+...zavr] – qadimda keng

tarqalgan, keyin qirilib yo‘q bo‘lib ketgan dengiz sudraluvchilarining kichik turkumi.

PLUT... [*yun.* plutos – boylik] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning boylikka aloqadorligini bildiradi. Mas.: **plutokrat** [pluto...+...krat] – o‘zining boyligi tufayli obro‘ qozongan va siyosiy hokimiyatdan foydalanuvchi shaxs; **plutokratiya** [pluto...+...kratiya] – hokimiyat rasman va batamom jamiyatning eng boy, mulkdor tabaqa vakillari – plutokratlar qo‘lida bo‘lgan davlat tuzumi, boylar hukmronligi.

PLYUR... [*lot.* pluralis – ko‘p, xilma-xil] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, ko‘plik, xilma-xil degan ma’nolarni bildiradi. Mas.: **plyuralizm** [*lot.* pluralis +...izm] – 1) jamiyat siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotining turli xil shakllarining bir paytda birga yashashi, mavjud bo‘lishi – demokratik-huquqiy jamiyat tuzilishining asosiy tamoyili; 2) g‘oyalar, qarashlar, manfaatlarning tanlash erkinligiga imkon beruvchi xilmaxilligi, ko‘pligi; 3) borliqning, hayotning bir necha (yoki ko‘pgina) mustaqil ibtidosi yoki bilimning bir necha asosi mavjud, deb hisoblovchi falsafiy qarash, ta’limot; **plyurilateral** [*fr.* plurilateral – ko‘p tomonlama < plyur(i)...+ *lot.* lateralis – yon, tomon]: ***plyurilateral shartnoma*** – boshqa davlatlarning ham qo‘shilishi mumkin (ochiq) bo‘lgan shartnoma, bitim.

PLYUVI... [*lot.* pluvia – yomg‘ir] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning yomg‘irga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **plyuviometr; plyuviograf** [plyuvi(o)...+...graf] – yog‘ayotgan yomg‘irning shiddati va miqdorini hamda yog‘ish vaqtini avtomatik qayd etib turadigan asbob.

PNEVMA(TO)..., PNEVMO(N)... [*yun.* pneuma (pneumatos) – nafas olish, havo; yengil havo oqimi; pneumon – o‘pka] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning nafas olish-chiqarish, gaz, havo hamda o‘pka bilan bog‘liq harakat-holat yoki kasalliklarga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **pnevmatik** (pochta; qurol), **pnevmatogramma, pnevmatokardiya, pnevmatometriya, pnevmatotsele, pnevmatotsentez, pnevmatoz, pnevmoensefalogramma, pnevmogidrotoraks, pnevmograf, pnevmokostyum, pnevmometr, pnevmomikoz, pnevmonika, pnevmoniya, pnevmopatiya, pnevmopeksiya, pnevmoperikard, pnevmoperitoneum, pnevmopiyelografiya, pnevmorezeksiya, pnevmoskleroz, pnevmotaxometriya, pnevmotip, pnevmotsefaliya, pnevmotsistit, pnevmotsistoz, pnevmoxoletsistit; pnevmatoforlar** [pnevmato...+...for] – ayrim tropik

daraxtlarning yerusti (ochiq havodagi) ildizlari bo‘lib, noqulay sharoitlarda o‘suvchi o‘simliklarning yerosti qismlarini havo bilan ta’minlaydi; **pnevmatoliz** [pnevmato...+...liz] – magmadan ajralib chiqqan rudali elementlar, gazlar va suv bug‘lariga boy suyuqliklarning tog‘ jinslari bilan o‘zaro reaksiyaga kirishib, turli minerallar hosil qilishi; **pnevmaturiya** [pnevmato…+…uriya] – siydikda ko‘p gaz bo‘lishi, bunda siyayotganda tovush chiqadi; **pnevmektomiya** [pnevm(o)…+…ektomiya] – o‘pka to‘qimasining bir qismini olib tashlash operatsiyasi; **pnevmoartroz** [pnevmo…+…artr(o)…+…oz] – 1) bo‘g‘imlarda gaz yoki havo bo‘lishi; 2) bo‘g‘imlarni rentgen orqali ko‘rish uchun kislorod yuborish; **pnevmoavtomatika** [pnevmo...+ avtomatika] – pnevmatik tizimlar va qurilmalar yordamida ishlabchiqarish jarayonlarini avtomatik boshqarishni rostlab turish usullarini ishlab chiqish, texnika vositalarini yaratish bilan shug‘ullanuvchi texnika sohasi; avtomatik rostlash va boshqarish vositalari majmuyi; **pnevmografiya** [pnevmo...+...grafiya] – odam va hayvonlar ko‘krak qafasining nafas olish vaqtidagi harakatini maxsus asbob – pnevmograf yordamida yozib olish; **pnevmogramma** [pnevmo...+...gramma] – ko‘krak qafasidagi nafas olish harakatlarini pnevmograf yordamida yozib olingan grafik tasviri; **pnevmokokklar** [pnevmo...+...kokk] – odam va hayvonlarning nafas olish a’zolarida yallig‘lanish kasalliklarini keltirib chiqaruvchi sharsimon bakteriyalar; **pnevmokoniozlar** [pnevmo...+ *yun.* konia – chang +...oz] – nafas a’zolarining (o‘pkaning) surunkali kasb kasalliklari; korxonalarda zararli changlarni uzoq vaqt yutishdan paydo bo‘ladi; **pnevmolit** [pnevmo…+…lit] – o‘pkadagi tosh bo‘lib qotib qolgan tuzilma; **pnevmoliz** [pnevmo…+…liz] – plevra bo‘shlig‘ida kasallik natijasida vujudga kelgan chandiqlarni operatsiya yo‘li bilan kesib, o‘pkani bo‘shatish; **pnevmonektomiya** [pnevmon…+…ektomiya] – bir o‘pkani butunlay olib tashlash operatsiyasi; **pnevmonit** [pnevmon…+…it] – o‘pkaninmg faqat olveola devori bilan cheklanuvchi yallig‘lanishi; **pnevmoplevrit** [nevmo…+ plevrit] – plevra pardalari orasida havo yig‘ilishi tufayli yallig‘lanish; **pnevmorentgenografiya** [pnevmo…+ rentgenografitya] – tananing biror qismini unga kontrast modda sifatida gaz (havo yoki is gazi) kiritib, rentgenografik tekshirish usuli; **pnevmoskop** [pnevmo...+...skop] – nafas olish quvvati yoki kuchini ko‘rsatadigan asbob; **pnevmotaxograf** [pnevmo…+ taxograf] – nafas tezligini yozib oladigan apparat; **pnevmoterapiya** [pnevmo...+...terapiya] – zaryadsizlantirilgan yoki elektr zaryadi bilan boyitilgan havodan nafas oldirish yordamida o‘pka kasalligini davolash; **pnevmotomiya** [pnevmo…+…tomiya] – o‘pka abssessi yoki exinokokk kasalligida o‘pkani operatsiya yo‘li bilan kesish; **pnevmotoraks** [pnevmo...+ *yun.* torax – ko‘krak] – plevra bo‘shlig‘ida havo yoki gaz to‘planishi; **pnevmotransport** [pnevmo...+ transport] – sochiluvchan va do-

nali materiallarni havo yoki gaz kuchi bilan tashishga imkon beradigan qurilmalar majmuyi; **pnevmotsit** [pnevmo…+…sit] – alveola devorini qoplovchi epitelial hujayra.

...PNOE [*yun.* pnoe – nafas olish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning nafas olish, uning turlicha darajasi bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Mas.: **giperpnoe, ortopnoe, polipnoe; apnoe** [a...+...pnoe] – qonda karbonat angidrid kamaygan paytlarda nafas olishning vaqtincha to‘xtab qolishi; **bradipnoe** [bradi...+...pnoe] – nafas olishning sekinlashishi (minutiga 12 va undan ham kam marta bo‘lishi); **dispnoe** [dis...+ ...pnoe] – harsillash; nafas olishning qiyinlashishi, uning maromi va chuqurligining buzilishi; **taxipnoe** [taxi...+...pnoe] – tez-tez nafas olish; nafas siqilishining bir turi (ba’zi yurak kasalliklarida).

POD..., ...POD [*yun.* pus, podos – oyoq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi va ikkinchi tarkibiy qismlari bo‘lib, oyoq ma’nosini bildiradi: I. Qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi. Mas.: **pododinamometr, podofillum, podokarpus; podagra** [pod...+ *yun.* agra – o‘lja, qurbon, qopqon] – organizmda purin moddasi almashinuvi buzilishidan kelib chiqadigan surunkali kasallik; bo‘g‘imlarda qattiq og‘riq xurujlari, ularning yallig‘lanishi va deformatsiyasi bilan namoyon bo‘ladi; **podalgiya** [pod…+…algiya] – jismoniy zo‘riqish natijasida, asosan, yassioyoqli kishilarda oyoqning panjaoldi qismidagi og‘riq; **podensefaliya** [pod...+ *yun.* enkephalos – bosh miya] – rivojlanish nuqsoni; bunda bosh miyaning ko‘p qismi kalla bo‘shlig‘idan tashqarida joylashib, u bilan oyoqcha orqali bog‘langan bo‘ladi; **podiatriya** [pod...+...iatriya] – tibbiyotning oyoq panjasi tuzilishini o‘rganish va turli kasalliklarini davolash bilan shug‘ullanuvchi sohasi; **podobromidroz** [pod(o)...+ brom(o)...+ *yun.* hidros – ter +...oz] – oyoqning sassiq terlashi; **podometriya** [pod(o)...+...metriya] – oyoq panjasining uzunligini aniqlash usuli; **poduralar** [pod...+ *yun.* ura – dum, quyruq] – oyoqdumlilar; tuban yoki birlamchi qanotsiz hasharotlarning eng katta turkumi. II. Qo‘shma so‘zlarning ikkinchi qismi (asosan, ko‘plik qo‘shimchasi bilan). Mas.: **artropodlar, braxiopodlar, kopepodlar, oktapodlar, pantopodlar, psevdopodlar, zauropodlar; dekapodlar** [deka...+...pod] – 1) o‘n oyoqli qisqichbaqasimonlar: asosan, dengiz umurtqasiz hayvonlari turkumi; 2) sefalopodlar (o‘nta paypaslagichi bo‘ladi); **gastropodlar** [gastro...+...pod] – qorinoyoqli mollyuskalar; deyarli barcha joylarda yashovchi qorinoyoqlilar sinfi; **ornitopodlar** [ornito...+...pod] – qushlarga o‘xshab ikki oyoqda harakatlangan o‘simlikxo‘r dinozavrlar; **sefalopodlar** [sefalo...+ ...pod] – boshoyoqli mollyuskalar; issiq dengizlarda yashovchi, baliq va boshqa mollyuskalar bilan oziqlanuvchi yirtqich mollyuskalar sinfi.

POE... [*yun.* poieo – yarataman] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, ijod mahsuli, yaratilgan narsa ma’nolarini bildiradi. Mas.: **poetonim; poema** [*yun.* poiema – yaratish; yaratilgan narsa] – 1) katta hajmdagi liro-epik she’riy adabiy asar; 2) erkin qurilishli, uncha katta bo‘lmagan musiqiy lirik pyesa, bir qismdan iborat yirik simfonik asar; **poetika** [*yun.* poietike – yaratish, ijod qilish san’ati] – 1) adabiyot nazariyasining badiiy asarlardagi ifoda vositalari tizimini o‘rganuvchi sohasi; 2) adabiyotdagi biror yo‘nalishning yoki alohida yozuvchi, shoirning badiiy tamoyillari va o‘ziga xosliklari tizimi; **poeziya** [*yun.* poiesis – asar, ijod; ijod mahsuli < poieo – yarataman] – 1) badiiy ijodning she’riy shakli, she’riyat, nazm; 2) biror xalqning, davrning yoki shoirning she’riy asarlari majmuyi; she’rlar.

...POEZ [*yun.* poiesis – yaratish, hosil qilish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, yaratilish, hosil bo‘lish; ishlab chiqish, hosil qilish ma’nolarini bildiradi. Mas.: **kolpopoez, limfopoez, miyelopoez, trombopoez; eritropoez** [eritro...+...poez] – fiziologik sharoitda ilik to‘qimasida eritroblastlardan eritrotsitlarning hosil bo‘lish jarayoni; **galaktopoez** [galakto...+...poez] – sut bezida sut hosil bo‘lish jarayoni; **gemopoez** [gemo...+...poez] – qon ishlab chiqaruvchi a’zo tomonidan qon tanachalarining yaratilishi, ko‘payishi; **leykopoez** [leyko...+...poez] – leykotsitlar – oq qon tanachalarining hosil bo‘lish jarayoni; **onomatopoez** [onomato...+...poez] – tavsiflanayotgan buyumdan chiqadigan ovozni aks ettiruvchi so‘zlarni o‘ylab topish – ko‘pincha shizofreniklar turli neologizmlarni o‘ylab topishga moyil bo‘ladilar.

POLEM(O)... [*yun.* polemos – urush] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning urushga, janjalga, bahs-munozaraga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **polemika** [*yun.* polemikos – jangovar, jangari; dushman, raqib] – biror masala yuzasidan bo‘lgan tortishuv, munozara; biror masalada fikrlar to‘qnashuvi; **polemologiya** [polemo...+...logiya] – ijtimoiy hodisa sifatida urushlar, ularning sabablari, oqibatlari, oldini olish usullarini o‘rganuvchi fan.

POLI... [*yun.* poly – ko‘p, ko‘p sonli] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, ikkinchi qismdan anglashilgan biror narsaning ko‘pligini, tarkiban xilma-xilligini ko‘rsatadi. Mas.: **poliadenit, poliakuziya, poliamidlar, poliarteriit, poliartrit, poliblast, polidipsiya, poliedr, poliefirlar, poliembrioniya, poliesteziya, polietilen, polifagiya, polifaglar, polifalangiya, polifarmatsiya, polifiliya, polifoniya, poliftong, poligalit,**

poligamiya, poligeniya, poligenizm, poligidroz, poligimniya, poligipovitaminoz, poliglobulin, poligon, poligonal, poligoniya, poligonometriya, poliinfeksiya, polikarbonatlar, polikaprolaktam, polikardiografiya, polikariotsit, polikondensatsiya, polikoriya, polikristall, polimenoreya, polimeriya, polimerizatsiya, polimetall, polimetriya, polimialgiya, polimiozit, polimorfizm, polinarkomaniya, polinevralgiya, poliolefinlar, poliorxizm, polipeptidlar, poliplar, poliplegiya, poliploidiya, poliprag-maziya, poliptix, poliritmiya, poliserozit, polisintetik (tillar)**, polisoma, polisomiya, polispast, polispermiya, polistirol, polisulfidlar, politeist, politeliya, politexnika, politipaj, politonal** (musiqa)**, politsentrizm, politsitemiya, polivaksina, polivinilatsetat, polivirus, polivitaminoz; poliandriya** [poli...+ *yun.* aner (andros) – erkak, er] – ko‘perlilik; xotin kishining bir necha eri bo‘lishi; **poliartralgiya** [poli…+ artr…+…algiya] – ko‘p bo‘g‘imlarda bir vaqtda yoki birin-ketin og‘riq sezish; **poliartrit** [poli...+ artr(o)...+ ...it] – bir necha bo‘g‘imning bir vaqtda yoki ketma-ket yallig‘lanishi; **polidaktiliya** [poli...+ *yun.* daktylos – barmoq] – ko‘pbarmoqlilik; tug‘ma rivojlanish nuqsoni: qo‘l yoki oyoqda ortiqcha barmoq bo‘lishi; **polietiologiya** [poli…+ etio…+ logiya] – etiologiyada ayni bir kasallik har xil sabablardan kelib chiqishi mumkin deb da’vo qiladigan yo‘nalish; **polifraziya** [poli…+ *yun.* phrasis – ifoda, nutq oboroti] – so‘zamollik, to‘xtovsiz javrash; **poligalaktiya** [poli…+ galakt…+…iya] – ko‘p sut hosil bo‘lishi va ajralishi; **poliginiya** [poli...+ *yun.* gyne – ayol, xotin] – ko‘pxotinlilik; erkakning bir necha xotini bo‘lishi, bir necha xotinga uylanganligi; **poliglot** [poli...+ *yun.* glotta – til] – ko‘p tillarni biladigan kishi; **poligrafiya** I [poli…+…grafiya] – 1) texnikaning kitob, gazeta, jurnal, plakat kabi bosma mahsulotlar tayyorlash va chop qilish bilan bog‘liq barcha jarayonlarni o‘z ichiga olgan tarmog‘i; 2) bosma mahsulotlar ishlab chiqarishning barcha turlarini qamrab oluvchi sanoat; **poligrafiya** II [poli…+ …grafiya] – 1) psixiatriyada: o‘z fikr-mulohazalarini yozma ravishda umumiy tarzda batafsil ifodalash, izohlash, takrorlash bilan bayon qilishga o‘ta darajada ishtiyoqmandlik; 2) bitta plyonkaga bitta a’zo suratini bir necha marta olishdan iborat rentgenografiya usuli; **poliklinika** [poli...+ klinika] – tibbiyotning ko‘p sohalari bo‘yicha qatnab yoki uyda davolanuvchilarga malakali tibbiy yordam ko‘rsatadigan davolash-profilaktika muassasasi; **polimastiya** [poli…+ mast(o)…+…iya] – sut bezining normadan ko‘p bo‘lishi; **polimerlar** [poli...+...mer] – molekulalari ko‘p sonli takrorlanuvchi guruhlar (monomer zvenolari) dan tashkil topgan (bir necha mingdan bir necha milliongacha) yuqori molekulyar massali kimyoviy birikmalar; **polinevrit** [poli...+ nevrit] – ko‘plab periferik nervlarning yallig‘lanishi; **polinom** [poli...+ *lot.* nomen – nom, ism] – ko‘phad; o‘zaro qo‘shuv yoki ayiruv belgilari bilan birikkan, bir

necha birhadlardan iborat algebraik ifoda**; poliopiya** [poli…+…opiya] – bir obyekt ikkita yoki bir nechta bo‘lib ko‘rinishidan iborat ko‘rish idrokining buzilishi; **polipnoe** [poli…+…pnoe] – tez-tez nafas olish; **polisaxaridlar** [poli...+ saxaridlar (uglevodlar)] – juda ko‘p monosaxaridlar qoldiqlaridan tashkil topgan yuqori molekulyar uglevodlar (karbonsuvlar); gidroliz jarayonida yana ko‘plab monosaxaridlarga parchalanadi; **polisemiya** [poli...+ *yun.* sema – belgi] – bir so‘z yoki iboraning bir necha ma’noga ega bo‘lishi, ko‘pma’nolilik; **politeizm** [poli...+ te(o)...+...izm] – bir necha xudoga sig‘inuvchi, bir necha xudoni e’tirof etuvchi din yoki diniy e’tiqod, ko‘pxudolilik; **politexnika** [poli...+ texnika] – texnikaning turli sohalarini o‘rganish va amalga tatbiq etish bilan bog‘liq bo‘lgan tarmoq; **politrixiya** [poli…+ trich(o)…+…iya] – badanning tukli, ba’zan tuk chiqmaydigan joylarida ham tuklarning haddan tashqari o‘sib ko‘payib ketishi; **poliuriya** [poli…+…uriya] – siydikning ko‘p miqdorda ajralishi; **polixromiya** [poli...+ *yun.* chroma – rang, bo‘yoq] – 1) amaliy bezak san’ati, haykaltaroshlik, me’morlik asarlarining ko‘prangliligi; 2) bir qancha bo‘yoq (rang) lar ishlatilgan bosma nashr; **poliyemiya** [poli…+…emiya] – tanada qon miqdorining xaddan tashqari ko‘p bo‘lishi.

POM... [*lot.* pomus – mevali daraxt; pomum – meva; olma] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning mevaga, olmaga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **pomada** [pom...+...ada] – turli xushbo‘y moddalar va bo‘yagichlar aralashmasidan tayyorlangan kosmetik vosita (ushbu so‘z dastlab olma hidli surtma ma’nosida ishlatilgan); **pomidor** [*ital.* pomidoro < pomo d’oro – oltin olma] – sabzavot o‘simliklaridan biri va uning yeyishli dumaloq qizil hosili; **pomologiya** [pomo...+...logiya] – mevali va rezavor o‘simliklar navlarini hamda ular bilan bog‘liq ilmiy-amaliy masalalarni o‘rganuvchi fan.

PONT... [*lot.* pons (pontis) – ko‘prik] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning ko‘prikka aloqadorligini bildiradi. Mas.: **ponton** [*fr.* ponton < *lot.* pons (pontis) – ko‘prik] – 1) vaqtinchalik ko‘prik, inshoot va shu kabilarni suvda ko‘tarib turish uchun xizmat qiladigan tagi yassi qayiq; ana shunday qayiqlarga o‘rnatilgan muvaqqat ko‘prik; 2) suvga cho‘kkan kemalarni ko‘tarib chiqadigan bochkasimon, ichi bo‘sh po‘lat qurilma.

POP... [*ingl.* pop < popular – ommabop, hammabop] – o‘zlashma, qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, ommaviy, hammabop, keng tarqalgan kabi ma’nolarini bildiradi. Mas.: **pop-ansambl, pop-madaniyat, pop-san’at, pop-yulduz; pop-art** [*ingl.* pop-art – ommabop san’at] – zamonaviy tasviriy

san'atda abstrakt san'at ta'sirida yuzaga kelgan avangard yo'nalish; **pop-guruh** [*ingl.* pop(ular) group – hammabop guruh] – ommaviy, hammabop musiqani (pop-musiqani) ijro etuvchi estrada ansambli; **pop-musiqa** [*ingl.* pop (popular) music – ommabop musiqa] – XX asrning o'rtalaridan qaror topgan yengil (ko'ngilochar) estrada musiqasining xilma-xil uslublari va janrlarini qamrab oluvchi tushuncha.

POPUL... [*lot.* populus – xalq, aholi] – o'zlashma yasama so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, shu so'zlarning xalqqa, ommaga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **populizm** [popul...+...izm] – g'oyaviy-siyosiy mazmuniga ko'ra xilma-xil bo'lgan ijtimoiy oqimlar va harakatlarning keng ommaga murojaat qilib, o'tkir ijtimoiy muammolarni tez va oson hal qilishga va'da berish siyosati; **populyarizatsiya** [*lot.* popularis – xalqqa oid +...izatsiya] – ommalashtirish, omma orasiga yoyish; ma'lum va mashhur qilish; **populyatsiya** [*lot.* populatio] – erkin chatisha oladigan yoki shunday imkoniyatga ega bo'lgan, aniq yashash arealini egallagan va ma'lum darajada zamon va makonda bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatadigan organizmlar guruhi.

PORN... [*yun.* pornos – fohish, buzuq] – o'zlashma qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, fahsh, buzuqlik ma'nolarini bildiradi. Mas.: **pornobiznes, pornofilm, pornografomaniya, pornosurat; pornografiya** [porno...+ ...grafiya] – adabiyot, tasviriy san'at, teatr, kino, videoyozuv, radioeshittirish kabilarda jinsiy hayotni vulgar-naturalistik, hayosizlarcha tasvirlash.

PORT... [*lot.* porta – kirish qism; eshik, darvoza; portare – olib (solib) yurmoq] – o'zlashma qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib: I. Biror yerga kirish joyi, eshik, darvoza ma'nolarini bildiradi. Mas.: **port, portik, portyera; portal** [*nem.* Portal < *lot.* porta – eshik, darvoza] – binolarning alohida bezatilgan kirish qismi; **portye** [*fr.* portier – darvozabon, eshikbon < *lot.* porta – eshik, darvoza] – mehmonxonalarda xonalarning kalitlarini saqlash va pochtani qabul qilib olishga mas'ul eshikbon; shveytsar. II. Biror narsani olib (solib) yurish, ko'chirishga mo'ljallanganlikni bildiradi. Mas.: **portativ** [*fr.* portative, *nem.* portative – olib (ko'chirib) yuriladigan < *lot.* portare – olib yurmoq] – 1) ko'chirib olib yuriladigan organ (musiqa asbobi); 2) kichik o'lchamli, o'zi bilan birga olib yurishga, bir joydan ikkinchi joyga ko'chirishga qulay (*portativ magnitofon*); **portfel** [*fr.* porte-fouille – qog'ozdon; portfel < *lot.* portare – olib yurmoq + *yun.* phyllon – barg; varaq] – 1) kitob, daftar, qog'oz va shu kabilar solib yuriladigan, ilgakli va dastali to'rtburchak sumka, papka. 2) nashriyotlar, gazeta, jurnal tahririyatlari tomonidan nashr uchun qabul qilib olingan qo'lyozma materiallar majmuyi; **portmone** [*fr.* porte-monnaie] –

pul solib yuriladigan kichikroq hamyon; **portpled** [port…+ *ingl.* plaid – qalin jun choyshab] – safarga chiqqanda ko‘rpa-to‘shak, choyshablar o‘rab (solib) yuriladigan g‘ilof yoki xalta; **portsigar** [*fr.* porte-cigare, porte-cigarette < *lot.* portare – olib yurmoq + sigareta] – papiros, sigareta, sigara solib qo‘yiladigan quticha, papirosquti; **portupeya** [*lot.* portare – olib yurmoq + epee – shpaga; nayzasimon qilich] – qilich, xanjar kabilarni tutib (ushlab) turish uchun yelka yoki belga o‘raladigan kamar; **portshez** [*lot.* portare + chaise – stul] – yengil, usti yopiq, olib yurishga mo‘ljallangan yarim yotiq kreslo.

POSS... [*lot.* posse – qila olmoq; possum – kuch, quvvat; imkoniyat] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning kuchga, imkoniyatga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **possibilist** – possibilizm ishtirokchilari; **possibilizm** [*lot.* possibilis – bo‘lishi mumkin bo‘lgan, ro‘yobga chiqadigan +...izm] – Fransiyada XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi ishchilar harakati; ular o‘z taktikalarini “imkoniyatlar siyosati” deb ataganlar.

POST... [*lot.* post – keyin] – lotincha old ko‘makchi; o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, ma’lum vaqtdan keyin, so‘ng; keyingi, orqasidagi degan ma’nolarni bildiradi. Mas.: **postfaktum, postfiks, postindustrial, postinfarkt** (sindrom)**, postlyudiya, postmodernizm, postparalitik, postpozitsiya; postembrional** [post...+ *yun., lot.* embrionalis – pushtga, embrionga oid] – mavjudotlarning embrional holatdan keyingi, ya’ni tug‘ilishdan keyingi rivojlanish davriga oid; **postensefalit** [post...+ *yun.* enkephale – bosh miya +...it] – ensefalit kasalligidan keyingi holat; **postimpressionizm** [post...+ impressionizm] – XIX asr oxiri – XX asr boshlarida fransuz rassomlik san’atida impressionizmga aks tarzda paydo bo‘lgan yo‘nalishlarning umumlashma nomi; **postnatal** [post...+...natal] – tug‘ilgandan keyin bevosita paydo bo‘ladigan yoki yuz beradigan; **postskriptum** [post...+ *lot.* scriptum – qo‘lyozma, yozilgan asar] – tugallangan va imzolangan xat oxirida, odatda, P. S. harflarini qo‘yib, undan keyin yoziladigan qo‘shimcha matn.

POTAM(O)... [*yun.* potamos – daryo] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning daryoga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **potamobiontlar** [potamo...+...biont] – daryoda yashashga moslashgan organizmlar; **potamofobiya** [potamo...+...fobiya] – tez oqayotgan suv, daryo suvi, suv girdobini ko‘rish, eslashdan qo‘rqib vahimaga tushish; **potamologiya** [potamo...+...logiya] – daryo gidrologiyasining eskicha nomlanishi; **potamonim** [potam(o)…+…onim] – gidronimlarning bir turi; har qanday daryoning atoqli nomi; **potamoplankton** [potamo...+ plankton] – daryo planktoni.

POTENS(I)... [*lot.* potentia – kuch, quvvat; imkoniyat < pote, potis – kuchli, qudratli] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning kuch, quvvatga, energiyaga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **potensiometriya, potensiya; potensial** I [*lot.* potentia – kuch, quvvat] – elektr yoki magnit maydonining ma’lum nuqtadagi holatini belgilaydigan miqdor, kattalik; **potensial** II [*lot.* potential – imkoniyat, salohiyat] – 1) biron-bir jihatdan imkoniyatlar, kuch-qudrat darajasi, foydalanilishi mumkin bo‘lgan vositalar, imkoniyatlar majmuyi; 2) foydalanilishi mumkin bo‘lgan, ammo ro‘yobga chiqmagan; **potensialoskop** [*lot.* potential – kuchli; kuchga oid, tegishli + ...skop] – elektr signallarni yozib olish xossasiga ega bo‘lgan elektron-nur xotira qurilmasi; **potensiometr** [potensi(o)...+...metr] – 1) elektr yurituvchi kuch yoki elektr kuchlanishni, tok kuchini kompensatsion o‘lchash usulida aniqlaydigan asbob; 2) elektr kuchlanishni boshqarib turuvchi (sozlovchi) asbob – kuchlanish bo‘lgichi sxemasi bo‘yicha ulangan o‘zgaruvchan rezistor.

POZIT... [*lot.* positivus – musbat, ijobiy] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, ijobiy, haqiqiy, musbat degan ma’nolarni bildiradi. Mas.: **pozitiv** [*lot.* positivus – musbat; haqiqiy] – 1) negativdan ko‘chirilgan va narsaning haqiqiy rang-tusini (oq, qora yoki boshqa ranglarni) aks ettiradigan fotosurat va shunday surat tushirilgan plastinka yoki plyonka; 2) faktlarga, tajribaga asoslangan; ishonchli, tasdiqlovchi; **pozitivizm** [*fr.* positivisme < *lot.* positivus] – barcha haqiqiy, pozitiv bilimlar – biror falsafaning o‘z ustidan hukmronligiga muhtoj bo‘lmagan maxsus fanlar tadqiqotlarining umumiy natijasidir, deb hisoblovchi falsafiy yo‘nalish; **pozitron** [*lot.* posi(tivus) – musbat +...tron] – musbat elektr zaryadli elementar zarra; elektronning antizarrasi.

PRAGMAT(O)... [*yun.* pragma (pragmatos) – ish, amaliyot; xatti-harakat] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, ish, amal, xatti-harakat ma’nolarini bildiradi. Mas.: **pragmalingvistika, pragmatik, pragmatist, pragmatonim; pragmatagnoziya** [pragmat(o)...+ a...+...gnoziya] – oldin bilgan obyektlarni, narsalarni tanimaslik; **pragmatamneziya** [pragmato…+ …amneziya] – jismlarning tashqi ko‘rinishi haqida tushunchalar yo‘qotilgan amneziya; **pragmatika** [*yun.* pragmatikos – ishbilarmon, uddaburon; tajribali] – 1) semiotikaning belgi tizimlari va ulardan foydalanuvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganadigan sohasi; 2) foydalanuvchining belgilar tizimiga munosabatining o‘zi; **pragmatizm** [pragmat(o)...+...izm] – bilish obyektlari ongdan mustaqil ravishda mavjud bo‘lmaydi, balki amaliy vazifalarni hal qilish jarayonidagi bilishga oid harakatlar bilan shakllanadi, deb hisoblovchi falsafiy ta’limot bo‘lib, u obyektiv haqiqatni bilishni inkor etadi.

PRE... [*lot.* prae – oldinda, old tomonda] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi; avval, oldin, oldinda, oldindan degan ma’nolarni bildiruvchi old qo‘shimcha. Mas.: **preformatsiya, pregangrena, prekoma, preliminariyalar, prereliz, presarkoma, presenil, presuppozitsiya, pretor, pretsedent, prezervativ, prezervatsiya; preagonal** [pre…+ *yun.* agoniya – kurash] – bevosita o‘lim sodir bo‘lishidan oldingi (holat); **preambula** [*fr.* preambule – so‘zboshi < *lot.* preambulus – oldinda boruvchi, oldindagi] – ilmiy tadqiqot, muhim hujjat yoki xalqaro shartnomaning mazmun-mohiyatini, sabab va maqsadini tushuntiruvchi kirish qismi; **preeklampsiya** [pre…+ *yun.* eklampsis – birdan o‘t olish, chaqnash, birdan avj olish] – homiladorlikda uchraydigan nefropatiya kasalligining og‘irlashgan davri; eklampsiya yaqinlashganligidan xabar beradigan holat; **prefiks** [pre...+...fiks] – so‘z asosi (o‘zagi) oldidan qo‘shiladigan affiks; old qo‘shimcha; **prelyudiya** [pre...+ *lot.* ludere – o‘ynamoq, chalmoq] – biror musiqiy asarga muqaddima hisoblanadigan cholg‘u-musiqiy pyesa; **prenatal** [pre...+...natal]: ***prenatal davr*** – tug‘ish boshlanishidan oldingi davr; **prepozitsiya** [pre...+ *lot.* positio – vaziyat, holat, mavqe] – gapda bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq ikkita so‘zdan birining boshqasiga nisbatan holati; **preprint** [*ingl.* preprint< pre…+ print – bosma, ottisk] – ma’lum bir kitobning bir qismini u nashr qilinguncha kichik tiraj bilan oldindan e’lon qilish; **prezident** [*lot.* praesidens (praesidentis) – oldinda o‘tiruvchi] – 1) respublika boshqaruvi shaklidagi ko‘pchilik mamlakatlarda ma’lum muddatga saylab qo‘yiladigan davlat boshlig‘i; 2) ba’zi tashkilot, ilmiy muassasa yoki jamiyatlar ijroiya organining ma’lum muddatga saylab qo‘yilgan raisi, rahbari; **prezidium** [pre...+ *lot.* sidere – o‘tirmoq] – 1) majlis, kengash va shu kabi katta yig‘ilishlarni kollegial boshqarib borish uchun saylangan kishilar guruhi; hay’at. 2) ba’zi davlat, siyosiy, ijtimoiy, ilmiy tashkilot yoki muassasalarning saylab qo‘yiladigan rahbarlik organi.

PRESBI... [*yun.* presbys – qari] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning qarilikka aloqadorligini bildiradi. Mas.: **presbiakuziya** [presbi…+ *yun.* akusis – eshitish] – ko‘pincha kishilarda yoshga doir paydo bo‘ladigan, o‘sib boruvchi karlik; **presbiesteziya** [presbi...+…esteziya] – qarilikda teri sezuvchanligining pasayishi; **presbiofreniya** [presbi(o)...+ *yun.* phren – aql, xotira] – yoshi katta kishilarda uchraydigan kasallik, aqlipastlikning bir ko‘rinishi**; presbiopiya** [presbi...+...opiya] – qariganda ko‘z gavhari elastikligining kamayib borishi yoki yo‘qolishi natijasida ko‘z akkomodatsiyasining susayishi, yaqindagi narsalarni ko‘ra olmaslik; **presbiteriy** [*lot.* presbyterium< *yun.* presbyteros – oqsoqol] – katolik ibodatxonasining sharqiy qismida mehrob va ruhoniylar uchun mo‘ljallangan baland joy, supacha.

PRESS... [*lot.* pressus – bosim, bosish < pressere – bosmoq, qismoq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, bosim, bosish, qisish hamda matbuot ma’nolarini bildiradi. Mas.: **press-attashe, press-byuro, press-konferensiya, press-reliz; pressoretseptorlar** [press(o)...+ retseptor] – qon tomiri devoridagi ta’sirchan nerv tolalari; **press-papye** [*fr.* presse-papiers < presser – qismoq, bosmoq + papier – qog‘oz] – bosma qog‘oz mahkamlanadigan kanselyariya asbobi, bosma; **press-qolip** [press...+ qolip] – keramika, metall, plastmassa, rezina va boshqa materiallarni presslash yo‘li bilan ma’lum shakldagi hajmiy buyumlar olishga mo‘ljallangan moslama.

PRIM... [*lot.* prima, primus, primitivus – birinchi, dastlabki] – o‘zlashma yasama so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, birinchi, dastlabki; ibtidoiy kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **prima, prima-balerina, primula; primadonna** [*ital.* prima donna – birinchi xonim < *lot.* prima – birinchi] – opera yoki operettada bosh (birinchi) partiyalarni ijro etuvchi ayol xonanda; **primatlar** [*lot.* primates – birinchi o‘rinda turganlar, dastlabkilar] – yuksak (oliy) sutemizuvchilar turkumi; chalamaymunlar va odamsimon maymunlar turkumchalarini ham qamrab oladi; **primatologiya** [primat(lar) +...logiya] – zoologiyaning primatlarni o‘rganuvchi bo‘limi; **primitiv** [*lot.* primitivus – eng birinchi; ibtidoiy] – 1) san’at taraqqiyotining ilk davrida yaratilgan asar; 2) ilmga asoslanmagan; zamonaviy talablarga javob bermaydigan; oddiy, sodda; qoloq; **primitivizm** [primitiv +...izm] – XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yuzaga kelgan, badiiy vositalarni soddalashtirishga va primitiv (ibtidoiy) shakllarga murojaat qilishga asoslangan avangard san’at oqimi.

PRO... I [*lot., yun.* pro – oldinga, oldindan] – o‘zlashma yasama so‘zlarda old qo‘shimcha bo‘lib, old tomonga, olg‘a, ilgari, oldindan degan ma’nolarni bildiradi. Mas.: **profag, profaza, profermentlar, progeniya, prognostika, progress, projektor, prokambiy, prokariotlar, proklitika, pronatsiya, pronefroz, proptoz, protruziya, protsessiya, proviziya, provizor; progeriya** [pro...+ ger(o)...+...iya] – barvaqt qarish belgisi bilan davom etadigan kasallik, **prognatiya** [pro...+ *yun.* granth – jag‘] – rivojlanish anomaliyasi: tepadagi jag‘ning pastki jag‘ga nisbatan ancha oldin turishi; har ikkala jag‘dagi oldingi tishlar o‘zaro yaqinlashganda, bir-biri bilan jipslashmasligi; **prognatizm** [pro...+ *yun.* gnathos – jag‘ +...izm] – odam kalla suyagi yuz qismining kuchli ravishda oldinga turtib chiqishi; **prognoz** [*yun.* prognosis – oldindan ko‘rish, bilish; bashorat < pro...+ *yun.* gnosis – bilim, bilish; ta’limot] – biror voqea-hodisa (ob-havo, kasallik, xatti-harakat) ning kelgusi rivojlanishi va oqibat-natijasi haqida maxsus tadqiqotlarga asoslangan xulosa; bashorat;

progressiya [pro...+ *lot.* gressio – yurish, harakat; o‘sish] – har biri o‘zidan oldingi songa belgili sonni qo‘shish yoki ko‘paytirish natijasida hosil bo‘lgan sonlar qatori; **prolog** [pro…+…log] – 1) teatrda: spektakl boshlanishi oldidan ijro etiladigan, tomoshabinlarni spektaklni idrok qilishga tayyorlovchi ko‘rinish, sahna; 2) adabiy-badiiy asarlarda: asosiy bayondan oldin keladigan voqealarni tasvirlovchi yoki ularni tushuntiruvchi muqaddima qismi; **prolongatsiya** [pro…+*lot.* longus – uzun, uzoq] – shartnoma, bitim, veksel va shu kabilarning amal qilish muddatini ko‘zda tutilgandan ko‘ra uzaytirish; **propedevtika** [*yun.* propaideyo – oldindan o‘qitaman] – biror narsa to‘g‘risidagi dastlabki bilimlar majmuyi; biror fanga tayyorlash kursi; **propulsiya** [*lot.* propulsis – oldinga turtilgan, itarilgan] – parkinson kasalligida: kasalning orqasiga asta turtib yuborilganda, orqaga og‘gan holda, oldinga yugurib ketishi va biror qarshilikka uchramaguncha o‘zini to‘xtata olmaslik; **proyeksiya** [*lot.* projectus – oldinga turtib chiqqan, ko‘rinib turgan < pro...+ *lot.* jectare – irg‘itmoq, otmoq] – 1) biror narsaning tekislikdagi, masalan, qog‘ozdagi aksi, tasviri; 2) optik asboblar vositasi bilan ekranga tushirilgan tasvir.

PRO... II [*yun.* pro – uchun, o‘rniga] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, o‘rinbosar, o‘rniga majburiyatni bajaruvchi ma’nolarini bildiradi. Mas.: **prokonsul, promagistr, propretor; prorektor** [pro...+ *lot.* rector – boshqaruvchi, rahbar] – oliy o‘quv yurtlarida rektorning ma’lum soha bo‘yicha o‘rinbosari.

PROKT(O)... [*yun.* proktos – to‘g‘ri ichak] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning to‘g‘ri ichakka aloqadorligini bildiradi. Mas.: **prokteyrinter, prokteyriz, proktodiniya, proktokolonoskopiya, proktokolektomiya, proktolog, proktoparalich, proktopeksiya, proktoptoz, proktorafiya, proktosigmoidit, proktoskop, proktostaz, proktotsele, proktotsistotomiya; proktalgiya** [prokt(o)…+…algiya] – to‘g‘ri ichakning pastki qismi nevralgiyasi; **proktektomiya** [prokt…+…ektomiya] – to‘g‘ri ichakni jarrohlik yo‘li bilan olib tashlash; **proktit** [prokt(o)…+…it] – to‘g‘ri ichak shilliq pardasining yallig‘lanishi; **proktokolit** [prokto…+kol(o)…+…it] – to‘g‘ri va chambar ichakning yallig‘lanishi; **proktologiya** [prokto...+...logiya] – tibbiyotning to‘g‘ri (yo‘g‘on) ichak, anal kanali va oraliq soha kasalliklarining etiologiyasi, patogenezi, diagnostikasi va davolash usullarini o‘rganuvchi bo‘limi; **proktoplastika** [prokto…+…plastika] – to‘g‘ri ichakni asl holatiga keltirish maqsadida amalga oshiriladigan operatsiya; **proktorragiya** [prokto…+…rragiya] – to‘g‘ri ichakdan ko‘p miqdorda qon aralash yiring va shilliq ajralishi; **proktoskopiya** [prokto…+…skopiya] – to‘g‘ri ichakni prok-

toskop bilan tekshirish, ko‘rish; **proktospazm** [prokto…+…spazm] – to‘g‘ri ichakning spastik qisilishi; **proktostenoz** [prokto...+ *yun.* stenos – torayish] – to‘g‘ri ichakning torayishi yoki siqilishi; **proktotomiya** [prokto...+...tomiya] – tug‘ma bekik orqa chiqaruv teshigini kesib, to‘g‘ri ichak yo‘lini ochish.

PROL(I)... [*lot.* proles – avlod, nasl] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning avlod, naslga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **proletariy** [*lot.* proletarius – nasl, avlod qoldiruvchi] – 1) qadimgi Rimda o‘z avlodidan boshqa hech narsasi yo‘q, eng kambag‘al fuqarolar qatlami; 2) ishlabchiqarish vositalariga ega bo‘lmagan yollanma ishchi; **proliferatsiya** [проли…+ *lot.* fero – olib boraman, o‘tkazaman +...atsiya] – organizmda yangi hujayralar hosil bo‘lishi va ko‘payishi natijasida to‘qimalarning o‘sib ketishi; **prolifikatsiya** [proli…+…fikatsiya] – o‘simliklarda: o‘sishdan va rivojlanishdan to‘xtagan birorta a’zodan boshqa bir a’zoning rivojlanishi.

PROSTAT(O)... [*yun.* prostates – oldinda turuvchi] – o‘zlashma yasama va qo‘shma tibbiy terminlarning tarkibiy qismi bo‘lib, prostata bezi ma’nosini bildiradi. Mas.: **prostaglandinlar, prostatografiya, prostatomegaliya, prostatotomiya, prostatotsistit, prostatovezikulit; prostata** [*yun.* prostates] – erkaklar jinsiy a’zosining toq bezi; **prostatektomiya** [prostat(o)…+ …ektomiya] – prostata bezining hammasini yoki bir qismini operatsiya yo‘li bilan olib tashlash; **prostatit** [prostat(o)…+…it] – prostata bezining yallig‘lanishi; **prostatizm** [prostat(o)…+…izm] – prostata bezi kasalligi natijasida siyishning qiyinlashuvidan qo‘rquvga tushish holati; **prostatolit** [prostat(o)…+…lit] – prostata bezida tosh paydo bo‘lishi; **prostatoreya** [prostat(o)…+…reya] – prostata bezidan suyuqlik ajralishi.

PROT(O)..., PROTERO... [*lot.* protos – eng birinchi, proteros – ikkitadan birinchisi; ancha oldingi] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, birlamchi, asl, boshlang‘ich, ibtido hamda oliy daraja (mansab) ma’nolarini anglatadi. Mas.: **protaktiniy, protaminlar, protanomaliya, proteidlar, proteinlar, proterozoy, protiy, protoblast, protodyakon, proton, protonema, protoneolit, protonevron, protoplastlar, protopresviter, protopter, protorenessans, protosayyora, prototoksin, protoyulduz; protandriya // proterandriya** [prot(o), protero…+ andro…+…iya] – gullarda changchilarning urug‘chi og‘izchalariga nisbatan ertaroq yetilishi; **protanopiya** [prot(o)...+ an...+...opiya] – tug‘ma holdagi qisman rang ajrata olmaslik; bunda qizil rangni idrok qilish yo‘qoladi; **protogaster** [proto…+ gaster…] – embriondagi boshlang‘ich hazm qilish bo‘shlig‘i; **protoginiya // proterogini-**

ya [proto, protero…+…gin(o)…+…iya] – gullarda urug‘chi og‘izchalarining changchilarga nisbatan ertaroq yetilishi; **protograf** [proto...+...graf] – ancha keyingi davrlarga tegishli matnlar, nusxa va tahrirlarga asos bo‘lgan qadimgi qo‘lyozma; **protoiyerey** [proto...+ *yun.* hiereus – kohin < hieros – muqaddas] – pravoslav cherkovida: katta (yuqori martabali) ruhoniy; **protokol** [*fr.* protocole < *yun.* protokollon – birinchi varaq < proto...+ *yun.* kollao – elimlayman (yozgan odam nomi hamda sana ko‘rsatilgan holda o‘rama xatga yelimlab qo‘yilgan)] – 1) bayonnoma – majlis, yig‘ilish, sud jarayoni va shu kabilardagi barcha harakatlarning yozma bayonidan va qabul qilingan qarorlardan iborat rasmiy hujjat; 2) mansabdor shaxs tomonidan tuzilgan, u amalga oshirgan xatti-harakatlar va aniqlagan faktlar tavsifidan iborat dalolatnoma; 3) xalqaro konferensiya qabul qilgan va xalqaro shartnoma kuchiga ega bo‘lgan qaror; **protoplazma** [προτο…+...plazma] – jonivor va o‘simliklar organizmi hujayralaridagi hayotiy jarayonlar uchun eng kerakli modda; tirik hujayraning sitoplazma va yadrodan tashkil topgan tarkibiy qismi; **prototip** [proto…+ …tip] – badiiy obraz yaratishda muallifga bosh manba, namuna bo‘lgan real shaxs; **protozoa** [proto...+ *yun.* zoa – hayot] – barcha bir hujayrali eng sodda organizmlar uchun qabul qilingan umumiy nom; **protozoologiya** [proto…+ zoologiya] – zoologiyaning bir hujayrali sodda hayvonlar tipini o‘rganuvchi bo‘limi.

PSAMM(O)... [*yun.* psammos – qum] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning qumga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **psammitlar, psammokarsinoma, psammoma; psammofillar** [psammo...+...fil] – qumda, uning qatlamlarida va yuzasida yashashga moslashgan organizmlar; **psammofitlar** [psammo…+…fit] – uchma qumlarda o‘sadigan cho‘l o‘simliklari; **psammon** [psamm...+ *yun.* on – borliq, mavjudot] – ko‘l va daryo qirg‘oqlaridagi nam qumlarda yashashga moslashgan organizmlar; **psammoterapiya** [psammo…+…terapiya] – davolash usuli; qumga ko‘milib davolanish.

PSEVDO... [*yun.* pseudos – yolg‘on, soxta] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, ikkinchi qismning soxta, yolg‘on ekanligini anglatadi. Mas.: **psevdoagglyutinatsiya, psevdoangioma, psevdoapopleksiya, psevdodifteriya, psevdogallyutsinatsiya, psevdogemofiliya, psevdogermafroditizm, psevdoglaukoma, psevdoglobulin, psevdokarsinoma, psevdoklassitsizm, psevdokain, psevdokoma, psevdokrizis, psevdoksantoma, psevdoleykemiya, psevdolimfotsitlar, psevdomaniya, psevdomelanoz, psevdomenstruatsiya, psevdomiksoma, psevdomimiya,**

psevdomneziya, psevdomutsin, psevdonevrit, psevdoparalich, psevdoreminessensiya, psevdosarkoma, psevdotabes, psevdotsirroz, psevdouremiya, psevdoxolera, psevdoxoreya; psevdoanemiya [psevdo…+ anemiya] – soxta anemiya – to‘qima suyuqligida hosil bo‘lgan nisbiy “anemiya” holati; **psevdoangina** [psevdo…+ angina] – soxta angina – nevrozda uchraydigan va yurakda organik o‘zgarishlar bo‘lmagan holda yurak sohasida og‘riq turishi, charchash, bo‘shashish bilan yuz beradigan kasallik; **psevdoartroz** [psevdo...+ artr(o)...+...oz] – soxta bo‘g‘im; singan suyaklar to‘g‘ri bitmay, ular bo‘g‘imlari orasiga mushaklar yoki boshqa to‘qimalar kirib qolishi, suyaklarning bir-biridan ajralib ketishi sababli paydo bo‘ladigan bo‘g‘im; **psevdodemensiya** [psevdo…+ demensiya] – bir maqsadni ko‘zda tutib, o‘zini ataylab anqovlikka solish; soxta aqlpastlik; **psevdodipsomaniya** [psevdo…+ dipso…+…maniya] – surunkasiga ichadigan kishilarning ma’lum vaqtgacha, odatda, pul topolmay qolganida ichmay yurishi; **psevdogamiya** [psevdo…+…gamiya] – 1) ayrim bazidial va xaltachali zambrug‘lardagi jinsiy jarayon bo‘lib, bunda jinsiy belgilariga ko‘ra o‘zaro farqlanmaydigan ikkita hujayra qo‘shilib, jinssiz avlod hosil qiladi; 2) yopiqurug‘li o‘simliklarda va hayvonlarda spermatozoidning tuxumhujayra ichiga, ularning yadrolari qo‘shilmagan holda, kirib borishi; **psevdogevziya** [psevdo...+...gevziya] – soxta ta’m sezish; yo‘q narsalar mazasini his qilish; **psevdogidrofobiya** [psevdo…+ gidro…+…fobiya] – ruhiy kasalliklarda: suvdan soxta qo‘rqish; **psevdologiya** [psevdo…+…logiya] – o‘z shaxsini yaxshi ko‘rsatish maqsadida yolg‘on, uydirma va g‘ayritabiiy fikrlarni so‘zlashga moyillik; **psevdomorfozlar** [псевдо…+ *yun.* morphosis – hosil bo‘lish, shakllanish] – tarkibi va ichki tuzilishiga tashqi shakli muvofiq bo‘lmagan mineral hosilalar; **psevdonim** [*yun.* pseudonymos – yolg‘on, soxta nom egasi < psevdo...+ ...onim] – yozuvchi, shoir, siyosiy arbob tomonidan o‘z ismi o‘rnida qo‘llaydigan soxta, o‘ylab topilgan nom, ism; taxallus, laqab; **psevdoparalich** [psevdo…+ *yun.* paralysis – bo‘shashish, falaj] – soxta falaj – nerv tolalari buzilmay turib falajlik beligilarining ko‘rinishi; **psevdoplegiya** [psevdo...+...plegiya] – organizmda nerv tolalari buzilmay turib, falajlik belgilarining ko‘rinishi; soxta falaj; **psevdopodiyalar** [psevdo…+…pod] – bir hujayrali organizmlardagi va ko‘p hujayrali organizmlarning erkin harakatlanuvchi hujayralaridagi muvaqqat sitoplazmatik o‘simtalar (harakatlanish va oziq moddalarni qamrab olish uchun xizmat qiladi); **psevdosmiya** [psevd(o)...+...osmiya] – hid bilish gallyutsinatsiyasi, yo‘q narsalar hidini sezish; **psevdotumor** [psevdo…+ *lot.* tumor – o‘sma] – klinik manzarasi jihatdan o‘sma kasaliga o‘xshab namoyon bo‘ladigan sindrom; haqiqatda o‘sma bo‘lmasa-da, o‘sma shaklini olgan tuzilmalar.

PSIL(O)... [*yun.* psilos – yalang‘och, tuksiz, silliq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, yalang‘och, silliq kabi ma’nolarni ifodalaydi. Mas.: **psilofitlar** [psilo...+...fit] – qirilib, yo‘qolib ketgan o‘tsimon yoki daraxtsimon o‘simliklarning eng qadimgi va sodda bo‘limi; **psilomelan** [psilo...+ *yun.* melas (melanos) – qora] – marganesning qora, ba’zan qo‘ng‘ir rangli murakkab gidroksidlaridan iborat minerallar guruhining umumlashma nomi.

PSIX(O)... [*yun.* psyche – ruh] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning ruhiyatga, ongga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **psixalgiya, psixataksiya, psixiatriya, psixika, psixoanaleptiklar, psixodiagnostika, psixodinamika, psixofizika, psixografiya, psixokinez, psixolepsiya, psixolog, psixologizm, psixomimetiklar, psixomotorika, psixonevroz, psixopat, psixopatiya, psixoprofilaktika, psixoritmiya, psixosomatika, psixostimulyatorlar, psixotexnika, psixotrop** (moddalar)**, psixoxirurgiya; psixasteniya** [psix(o)...+ *yun.* astheneia – kuchsizlik, ojizlik, zaiflik] – ruhiy ojizlik: 1) nevrozning bir xili, bunda kishi miyasi tahlikali o‘y-fikrlar bilan band bo‘ladi; 2) kishi fe’l-atvoridagi patologik holat; psixopatiyaning bir xili: o‘z-o‘ziga ishonmaslik, hamma narsadan shubhalanish, ikkilanish, vahimaga tushish bilan ifodalanadi; **psixiatr** [psix(o)...+...iatr] – psixik (ruhiy) kasalliklarni o‘rganish, kasallarni davolash, ularning oldini olish choralarini ko‘radigan vrach; **psixoanaliz** [psixo...+ analiz] – ruhiy faoliyatni, ruhni tahlil etish; ruhiy faoliyatning anglab bo‘lmaydigan tomonlarini tahlil qilish usuli; **psixobiologiya** [psixo...+ biologiya] – psixikani ichki va tashqi sharoitlardan ajratib, faqat bir tomonlama, faqat biologiya nuqtayi nazaridan (noto‘g‘ri) tushuntirish; **psixofarmakologiya** [psixo...+ farmakologiya] – dorilarning ruhiy faoliyatlarga ta’sirini o‘rganadigan fan; **psixogenez** [psixo...+...genez] – ruhiy faoliyatlarning o‘sish sistemalari; **psixogeniyalar** [psixo...+...gen] – jarohatlovchi (azoblovchi) hayotiy vaziyatlar va og‘ir qayg‘u-tashvishlar oqibatida paydo bo‘ladigan psixik (ruhiy) kasalliklar; **psixogigiyena** [psixo...+ gigiyena] – psixiatriyaning ruhiy kasalliklarning oldini olish va kamaytirish choralari bilan shug‘ullanuvchi bo‘limi; **psixogramma** [psixo...+...gramma] – shaxsning o‘sishi va takomillashishidagi psixologik tavsiflarni tasvirlash; **psixolingvistika** [psixo...+ lingvistika] – nutqiy ifodalarning paydo bo‘lishi hamda nutqning til tizimi bilan o‘zaro munosabatda o‘zlashtirilishi qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan; **psixologiya** [psixo...+...logiya] – 1) inson ruhiy (psixik) faoliyati va hayvonlar xatti-harakatining qonuniyatlari, shakllari, rivojlanishi haqidagi fan; 2) biror faoliyat turiga bog‘liq bo‘lgan ruhiy (psixik) jarayonlar majmuyi; 3) kishining ichki dunyosi, kechinmalari, xarakter xususiyatlari, ruhiy holati; **psixometriya** [psixo...+...metriya] – ruhiy jarayonlarni max-

sus usullar bilan o‘lchash va ularni matematik nuqtayi nazardan tekshirish; **psixonevrologiya** [psixo…+ nevro…+…logiya] – ruhiy va nerv kasalliklarini o‘rganadigan fan; **psixopatologiya** [psixo...+...patologiya] – psixiatriyaning ruhiy kasalliklar, patologik jarayonlar va holatlarning paydo bo‘lishi, rivojlanish mexanizmlari, kelib chiqish sabablari, kasallikning o‘tishi qonuniyatlarini o‘rganuvchi hamda ularni tasniflash va davolash usullarini ishlab chiquvchi sohasi; **psixoterapiya** [psixo…+…terapiya] – bemorlarni davolash maqsadida ular uchun qulay shart-sharoit yaratib, shirinso‘zlik, xushmuomalalik bilan ular ongiga ruhiy ta’sir etish; **psixozlar** [psix(o)...+...oz] – psixik (ruhiy) kasalliklar – bosh miya faoliyatining buzilishidan kelib chiqadigan xastaliklar; ularning paydo bo‘lishida irsiy omil (nasl) asosiy o‘rin tutadi.

PSIXR(O)... [*yun.* psychros – sovuq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, sovuqqa oid degan ma’noni bildiradi. Mas.: **psixrofillar, psixrofitlar, psixrofoblar, psixrofor; psixroesteziya** [psixro…+…esteziya] – sovuq ta’siridan og‘riq paydo bo‘lishi; **psixrofobiya** [psixro…+…fobiya] – sovuqdan qo‘rqish; **psixrogiperesteziya** [psixro…+ giper…+…esteziya] – past haroratga nisbatan sezgirlikning ortib ketishi; **psixrometr** [psixro…+…metr] – havo namligi va haroratini aniqlashda ishlatiladigan asbob; **psixroterapiya** [psixro…+…terapiya] – kasalni sovuq ta’sirida davolash.

PSOR... [*yun.* psora – qichima] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning qichima kasalligiga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **psoriaz** [psor…+…iaz] – kelib chiqishi noma’lum surunkali teri kasalligi (po‘stloqli temiratki); **psoriazin** [psoriaz +…in] – tarkibida dixloretilsulfid va vazelin bo‘lgan, psoriazni davolashda qo‘llanadigan surtma; **psoroptoz** [psoro…+…ptoz] – hayvonlar (ko‘pincha qo‘y, qoramol, ot, quyon) da psoroptidalar (teri kanalari) qo‘zg‘atadigan invazion kasallik.

PTER(O)... [*yun.* pteron – qanot] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning qanotli hayvonlarga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **pteridiyalar, pteridospermalar; pteranodon** [pter…+ *yun.* anodontos – tishsiz] – katta bosh va tishsiz jag‘ga ega bo‘lgan, uchib yuruvchi, ulkan qazilma kaltakesaklar guruhi; **pterodaktillar** [ptero…+ *yun.* daktylos – barmoq] – bo‘r davri boshlarida yashagan, uncha katta bo‘lmagan (15 – 20 santimetr) uchuvchi kaltakesaklar guruhchasi; **pterozavrlar** [ptero…+ …zavr] – yura va bo‘r davrlarida barcha qit’alarda yashagan sudralib yuruvchilar turkumi.

PTIAL(O)... [*yun.* ptyalon – so‘lak] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning so‘lak va so‘lak beziga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **ptialin** [ptial…+…in] – so‘lak amilazasi – so‘lak bezlari ishlab chiqaradigan va murakkab uglevodlarni oddiy uglevodlarga parchalaydigan ferment; **ptialit** [ptia(l)…+…lit] – so‘lak toshlari; **ptializm** [pital(o)…+…izm] – so‘lakning ortiqcha ajralishi, so‘lakning oqishi; **ptialoreaksiya** [ptialo…+ reaksiya] – so‘lakda o‘tkaziladigan reaksiya; **ptialoreya** [ptialo...+...reya] – haddan tashqari ko‘p so‘lak ajralishi.

...PTOZ [*yun.* ptosis – tushish, siljish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi qismi bo‘lib, biror a’zoning o‘z o‘rnidan siljishi, pastga tushishi ma’nolarini bildiradi. Mas.: **blefaroptoz, enteroptoz, gisteroptoz, kolonoptoz, proktoptoz, psoroptoz, splanxnoptoz, tireoptoz; gastroptoz** [gastro...+ ...ptoz] – me’da (oshqozon) boylamlarining bo‘shashib ketishi natijasida uning pastga tushib qolishi; **gepatoptoz** [gepato...+...ptoz] – jigarning o‘z o‘rnidan pastroq tushishi; jigarning odatdan tashqari pastda joylashuvi va harakatchan bo‘lib qolishi; **mastoptoz** [masto...+...ptoz] – sut bezining o‘z og‘irligi ta’sirida shaklini yo‘qotishi, cho‘zilishi va pastga tushishi; **nefroptoz** [nefro...+...ptoz] – buyraklarning o‘z o‘rnidan pastga tushib qolishi; **onixoptoz** [onixo...+...ptoz] – tirnoqning tushib ketishi; **proptoz** [pro...+...ptoz] – oldinga siljish, qo‘zg‘alish; **splenoptoz** [spleno...+...ptoz] – qorajigar (taloq) ning o‘z o‘rnidan siljib pastga tushishi.

PULMO..., PULMONO... [*lot.* pulmo (pulmonis) – o‘pka] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning o‘pkaga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **pulmometriya** [pulmo...+...metriya] – o‘pka hajmini o‘lchash; **pulmonektomiya** [pulmon(o)...+...ektomiya] – o‘pka to‘qimasining bir qismini kesib olib tashlash; **pulmonologiya** [pulmono...+...logiya] – tibbiyotning o‘pka, bronxlar va plevraning tuzilishi, ish faoliyati hamda kasalliklarini o‘rganuvchi, ushbu kasalliklar profilaktikasi va davolash usullarini ishlab chiquvchi sohasi.

PULS(O)... [*lot.* pulsus – urish, zarb, zarba] – o‘zlashma yasama va qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, urish, turtki, zarb, zarba ma’nolarini bildiradi. Mas.: **pulsarlar, pulsator; puls** [*lot.* pulsus] – yurakning qisqarishi natijasida undan kelayotgan qon oqimi ta’siri bilan qon tomiri devorlarining ritmik silkinishi, tepishi, urishi, shuningdek, badanning tomir tepkisi seziladigan joyi; **pulsatsiya** [*lot.* pulsatio – turtish, tepish] – qon tomirlari devorlari, yurak va unga yaqin to‘qimalarning yurak qisqarishi natijasida ritmik to‘lqin-

simon (tepkisimon) tebranishlari; **pulsometr** [puls(o)...+...metr] – suyuqlikni bug‘ kuchi yordamida siqib chiqarishga mo‘ljallangan nasos, bug‘nasos.

PULVER... [*lot* pulvis (pulveris) – chang, kukun] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning changga, kukunga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **pulverizator** [*fr.* pulverisateur < *lot.* pulverisare – changitmoq, changitib sepmoq] – suyuq yoki kukun moddalarni purkaydigan yoki changitib sepadigan asbob; **pulverizatsiya** [*fr.* pulveriser < pulver...+ ...izatsiya] – 1) suyuqliklarni pulverizator bilan purkash, changitib sepish; 2) ko‘pincha kekirdak, tomoq va burun kasalliklarida suyuq dorilarni maxsus purkagich asbob yordamida yuborish.

PUNKT... [*lot.* punctum – sanchish; nuqta < punctere – sanchmoq, sanchib teshmoq; nuqta qo‘ymoq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning sanchish, ukolga hamda nuqta (tinish belgisi) ga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **punkt, punktat, punktatsiya, punktir; punksiya** [*nem.* Punktion < *lot.* punctio – sanchib teshish, ukol] – davolash yoki profilaktika maqsadlarida biror tana bo‘shlig‘ini, to‘qimalarni kovak igna bilan teshish; **punktogramma** [punkto...+...gramma] – yozma nutqda punktuatsiya qoidalariga muvofiq holda qo‘llangan tinish belgisi; **punktuatsiya** [*nem.* Punktuation < *lot.* punctere – nuqta qo‘ymoq +...atsiya] – 1) tinish belgilarini qo‘llash qoidalari to‘plami; 2) matnda tinish belgilarining qo‘yilishi.

PUPILLO... [*lot.* pupilla, pupula – ko‘z qorachig‘i] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning ko‘z qorachig‘i bilan aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **pupillografiya** [pupillo...+...grafiya] – ko‘z qorachig‘ining katta-kichikligini chizib ko‘rsatish; qorachiq reaksiyasini yozma tekshirish usuli; **pupillometr** [pupillo...+...metr] – ko‘z qorachig‘ining kengligini o‘lchaydigan asbob; **pupilloplegiya** [pupillo...+...plegiya] – ko‘z qorachig‘ining yorug‘lik ta’sirida og‘rishi; **pupilloskopiya** [pupillo...+...skopiya] – maxsus oynani burib, yoritilgan qorachiqda soyaning harakatini kuzatib, ko‘z refraksiyasini aniqlash usuli.

PUR... [*lot.* purus – sof, toza] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, sof, toza, aniq degan ma’nolarni anglatadi. Mas.: **purgen, purinlar** (kimyoda), **puritanlar; purizm** [pur...+...izm] – 1) adabiy tilni boshqa tillardan olingan o‘zlashmalar, neologizmlardan, vulgarizmlardan tozalashga intilish; 2) urf-odatlarning sofligi va jiddiyligiga intilish.

PYEZO... [*yun.* piezo – bosaman, qisaman] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning bosimga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **pyezoelektr, pyezoelektriklar, pyezokvars; pyezogeofon** [pyezo…+ geofon] – tog‘ jinslari orasida tarqalayotgan tovush to‘lqinlarini qabul qilish uchun mo‘ljallangan asbob; pyezoelektrik datchik; **pyezografiya** [pyezo...+ ...grafiya] – jismlarda bosim ta’sirida yuzaga keladigan o‘zgarishlarni grafik shaklda tekshirish usullari; **pyezomagnetizm** [pyezo...+ magnetizm] – antiferromagnetiklarning tashqi bosim ta’siri ostida magnitlanganligi; **pyezometr** [pyezo...+...metr] – 1) gaz, suyuqlik va qattiq jismlarning atroflama bosim ta’siri ostidagi siqilish darajasini o‘lchaydigan qurilma; 2) qattiq jismlarning chiziqli deformatsiyasini o‘lchaydigan qurilma; 3) terining bosimni sezish darajasini o‘lchaydigan asbob.

R

RABD(O)... [*yun.* rhabdos – chiviq, novda; tola] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning mushakka, mushak tolalariga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **rabdomioblastoma, rabdoviruslar; rabdomioma** [rabdo...+ mi(o)...+...oma] – ko‘ndalang-targ‘il mushak tolalaridan o‘sib chiqadigan xavfsiz o‘sma; **rabdomiosarkoma** [rabdo...+ mio...+ sark(o)...+ ...oma] – xavfli rabdomioma.

RADI(O)... [*lot.* radius – nur] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning nurga, nurlanishga, nur tarqatishga, radiatsiyaga, radioga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **radiant, radiatsion, radioaktiv, radioaktivlik, radioaloqa, radioaltimetr, radioantenna, radioasbob, radioastrometriya, radioastronom, radioastronomiya, radioavtograf, radioavtografiya, radioaxborot, radiobiolog, radiodefektoskopiya, radiodiagnostika, radiodiapazon, radioefir, radioelement, radioeshittirish, radiofizika, radiofoniya, radiofotografiya, radiogeokimyo, radiogeologiya, radiografiya, radiohavaskor, radioimmunologiya, radioimpuls, radioizotop, radiojurnal, radiojurnalistika, radiokanal, radiokapsula, radiokarnay, radioklub, radiokombayn, radiokommentator, radiokompaniya, radiokompas, radiokompozitsiya, radiokonsert, radiola, radiolokatsiya, radiolot, radiolyariyalar, radiomarkaz, radiomayak, radiometeorologiya, radiometriya, radiomimetiklar, radionavigator, radionekroz, radionuklid, radiooperator, radiopeleng, radiopelengator, radiopilot, radiopreparat, radiopriyomnik, radioprojektor, radioprotektor, radiorele, radioreportaj, radioreportyor, radiorolik, radiosezgirlik, radiosignal, radiospektrometr, radiospektroskop, radiospektroskopiya, radiostansiya, radiosuhbat, radiotanlov, radiotarmoq, radiotelefon, radiotelegramma, radiotelemetriya, radiotelemexanika, radiotexnik, radiotexnika, radiotinglovchi, radiotoksikologiya, radiotoksinlar, radiotranslyatsiya, radioto‘lqinlar, radiouzel, radioxirurgiya, radioo‘lchash, radist, radius; radiator** [*lot.* radiare – nur chiqarmoq, tarqatmoq + *lot.* (t)or – ot yasovchi qo‘shimcha] – 1) ichki yonish dvigatelidagi sovituvchi suyuqlik yoki sovituvchi moy harakatini

pasaytiruvchi asbob; 2) katta binolarda ishlatiladigan isitish asbobi; 3) ish paytida qizib ketadigan radiotexnik elementlarni sovituvchi qurilma; **radiatsiya** [*lot.* radiatio – nurlanish] – yadroviy o‘zgarishlar oqibatida vujudga keladigan elektromagnit va korpuskulyar nurlanishlar; **radio** [*lot.* radio – nurlanaman, nur tarqataman] – 1) axborotlarni elektromagnit to‘lqinlar yordamida uzoq masofadan simli yoki simsiz uzatish va qabul qilish usuli; 2) simsiz uzatish usuliga asoslanib fizik hodisalarni o‘rganish va bu usuldan turli sohalarda turli maqsadlar uchun foydalanish; 3) radioto‘lqinlarni qabul qiluvchi, simga ulangan apparat; **radioapparatura** [radio...+ apparatura] – gramplastinka, magnit tasmasi, optik disk, disketa kabilarga yozilgan yoki antenna yordamida qabul qilib olingan elektrsignallarni qayta o‘zgartiruvchi qurilmalar; **radiobiologiya** [radio…+ biologiya] – biologiyaning radioaktiv nurlanishning tirik organizmlar, ularning to‘dalari va umuman biosferaga ta’sirini o‘rganuvchi bo‘limi; **radiodermatit** [radio…+ dermato…+ …it] – radioaktiv nurlar ta’sirida yuz bergan teri kasalligi – dermatit; **radioekologiya** [radio…+ ekologiya] – ekologiyaning radioaktiv moddalarning organizmlar tomonidan to‘planishi va ularning biosferada ko‘chib yurishi; **radioelektronika** [radio...+ elektronika] – fan va texnikaning axborotlarni elektromagnit tebranishlar va to‘lqinlar tarzida uzatish va o‘zgartirish bilan bog‘liq sohalari majmuyi; **radiofobiya** [radio...+...fobiya] – radiatsiyadan, nurlanishdan yoki shunga aloqador hodisalardan qo‘rqish; **radiogramma** [radio...+...gramma] – radio orqali yuborilgan xabar yoki ma’lumot; **radiokimyo** [radio…+ kimyo] – kimyoning radioaktiv elementlar va izotoplar xossalarini, ularni ajratib olish, to‘plash va turli fan sohalarida qo‘llash usullarini o‘rganuvchi bo‘limi; **radioliz** [radio...+...liz] – moddalarning ionlovchi nurlanish ta’siri ostida kimyoviy yoki fizik-kimyoviy o‘zgarishi; **radiolog** [radio...+...log] – 1) radioaktiv hodisalar bo‘yicha mutaxassis; 2) radioaktiv moddalar bilan davolash bo‘yicha mutaxassis vrach; **radiologiya** [radio...+ ...logiya] – tibbiyotning kasalliklarni aniqlash va davolash uchun ionlovchi nurlanishdan foydalanishni, nurlanishlarning organizmga ta’siri hamda nurlanishdan himoyalash muammolarini o‘rganadigan sohasi; **radiolokator** [radio...+ lokator] – radiolokatsion stansiya, radar; muayyan masofadagi obyektlar (samolyot, kema kabilar) ning turgan joyini har qanday ko‘rinish sharoitlarida aniqlay oladigan qurilma; **radiometr** [radio…+…metr] – 1) elektromagnit nurlanish energiyasini o‘lchaydigan asbob; 2) radioaktiv manbalar faolligini o‘lchaydigan asbob; 3) tovush nurlanishlari bosimini va tovush maydonining boshqa sifatlarini o‘lchaydigan asbob; **radionavigatsiya** [radio…+ navigatsiya] – 1) uchish apparati yoki kemaning qayerdaligi va yo‘nalishini radiotexnik vositalar yordamida aniqlash; 2) navigatsiyaning

kemalar, uchish apparatlarini boshqarish nazariyasi va amaliyotini radiotexnik vositalar yordamida o‘rganuvchi va ishlab chiquvchi bo‘limi; **radiospektakl** [radio…+ spektakl] – radio orqali eshittirishga moslashtirilgan, shu maqsadda yozib olingan spektakl; **radiosport** [radio...+ sport] – qisqa va ultraqisqa to‘lqinlar diapazonida havaskorlik radioaloqasini o‘rnatish bo‘yicha musobaqalar; **radiostudiya** [radio...+ studiya] – radioeshittirishlar olib boriladigan, mikrofonlar va tovushyutkich materiallar bilan jihozlangan bino; **radioteleskop** [radio...+ teleskop] – osmon jismlarining radionurlanishini qayd etib boruvchi qurilma; **radioterapiya** [radio...+...terapiya] – kasalliklarni radioaktiv moddalarning ionlovchi nurlanishi yordamida davolash; **radiouzatkich** [radio…+ uzatkich] – nutq, tovush, signal kabilarni, radioeshittirishlarni elektromagnit to‘lqinlar tarzida uzatuvchi qurilma; **radiozond** [radio…+ zond] – havo shari (zond) yordamida ko‘tarilib, atmosferaning yuqori qatlamlaridagi havo harorati, bosim va namlikni o‘lchash va bu haqda radio orqali ma’lumot berib turish uchun xizmat qiladigan meteorologik asbob; **radiy** [*lot.* radium < radius – nur] – Mendeleyev davriy sistemasining II guruhiga mansub radioaktiv kimyoviy element; sof radiy – havoda tez oksidlanadigan kumushdek oq metall; **radon** [*lot.* radiare – nur tarqatmoq] – Mendeleyev davriy sistemasining VIII guruhiga – inert gazlar guruhiga mansub, radiyning parchalanishidan hosil bo‘lgan radioaktiv element.

RADIK(O)..., RADIKUL(O)... [*lot.* radix – ildiz; radicula – ildizcha] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, ildiz, asos, tub ma’nolarini bildiradi. Mas.: **radikalizm, radikula, radikulomeningomiyelit, radikulyar; radikal** [*lot.* radical – ildizga tegishli; tub, asosli] – 1) tub va qat’iy o‘zgarishlar tarafdori; radikalizm tarafdori yoki radikal partiya a’zosi; 2) ildiz chiqarish amalining belgisi – √ va shu amalning natijasi; 3) molekulada bir kimyoviy birikmadan ikkinchi kimyoviy birikmaga o‘zgarmasdan o‘tadigan atomlar guruhi; **radikotomiya** [radiko…+…tomiya] – periferik nervlarni orqa miyaning boshlanish yeridan kesish; **radikulit** [*lot.* radicula – orqa miyaning nerv ildizchasi +...it] – orqa miya nerv ildizchalarining yallig‘lanishi; **radikulonevrit** [radikul(o)...+ nevrit] – orqa miya nervlari va ular ildizchalarining bir paytda yallig‘lanishi.

...RAFIYA [*yun.* rhaphy – chok, tikish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, jarrohlik yo‘li bilan tikish ma’nosini bildiradi. Mas.: **gimenorafiya, kolporafiya, proktorafiya, sitorafiya, tenorafiya, uretrorafiya; dizrafiya** [diz…+…rafiya] – birlamchi asab naycha uchlarining

noto‘g‘ri birikishi; **enterorafiya** [entero…+…rafiya] – ichakni tikishdan iborat jarrohlik muolajasi; **neyrorafiya** [neyro…+…rafiya] – kesilgan nerv tolalarini tikish; **palatorafiya** [palat(o) +…rafiya] – tanglay yorig‘ini tikishdan iborat jarrohlik operatsiyasi; **traxelorafiya** [*yun*. trachelos – bo‘yinga oid +…rafiya] – bachadonning shikastlangan bo‘ynini tikish; **vazorafiya** [vazo…+… rafiya] – urug‘ tizimchasi naychasini ulash maqsadida tikish.

RAM... [*lot.* ramus – shox, butoq, novda; tola; ramiculus – shoxcha] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shoxcha, shoxchaga o‘xshash; tola degan ma’nolarni bildiradi. Mas.: **ramisektomiya, ramitis; ramifikatsiya** [rami...+...fikatsiya] – shoxchalarga (tarmoqlarga) bo‘linish; **ramikotomiya** [rami(ko)...+...tomiya] – simpatik nerv sistemasining biriktiruvchi oq tolalarini kesish.

RAR... [*lot.* raritas – noyob, kamyob] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, noyob, kamyob kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **raritet** [*nem.* Rarität < *lot.* raritas] – kamdan kam uchraydigan, noyob, qimmatbaho narsa.

RATI... [*lot.* ratus – tasdiqlangan, qonuniy kuchga ega] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, tasdiqlangan, yuridik jihatdan haqiqiy degan ma’nolarni bildiradi. Mas.: **ratifikatsiya** [*lot.* ratificatio < ratus – hal qilingan, tasdiqlangan +...fikatsiya] – ahdlashuvchi davlatlarning vakillari tuzgan xalqaro shartnomaning muayyan davlatda yuridik kuchga ega bo‘lishini oliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlanishi.

RATSI(O)... I [*lot.* ratio – aql, aql-idrok] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning aql-idrokka, aqliy mehnatga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **ratsional, ratsionalist, ratsionalizator; ratsionalizatsiya** [*lot.* rationalis – aqlli, oqilona +...izatsiya] – faoliyatning biror sohasini takomillashtirish, ishni yanada yaxshiroq tashkillashtirish; **ratsionalizm** [*lot.* rationalis – aqlli, oqilona +...izm] – aqlni bilishning va kishilar xulq-atvorining asosi deb hisoblovchi falsafiy yo‘nalish.

RATSI(O)... II [*lot.* ratio (rationis) – o‘lchov, hisob] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, hisob, o‘lchov, hisoblab chiqarish ma’nolarini bildiradi. Mas.: **ratsion** [*nem.* Ration < *lot.* ratio – o‘lchov] – ma’lum muddatga mo‘ljallangan va miqdori, tarkibi belgilangan ovqat yoki ozuqa, yem.

RAXI(O)... [*yun.* rhachis – umurtqa] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning umurtqaga, umurtqa pog‘onasiga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **raxianesteziya, raxioliz, raxiomiyelit, raxioplegiya, raxiotomiya, raxis; raxialgiya** [raxi…+…algiya] – umurtqa pog‘onasi og‘rig‘i; **raxigraf** [raxi...+...graf] – yelka va umurtqa pog‘onasining konturini yozadigan asbob; **raxit** [raxi...+...it] – yosh bolalar organizmida minerallar almashinuvi buzilishi va D vitaminining yetishmasligi natijasida sodir bo‘ladigan kasallik (oyoq qiyshiqligi rivojlanadi); **raxitermometriya** [raxi...+ termo...+...metriya] – orqa miya suyuqligi haroratini o‘lchash.

RE... I [*lot.* realis – moddiy; haqiqiy < res – narsa, buyum; modda] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, moddiy, haqqoniy degan ma’nolarni bildiradi. Mas.: **real, realist, realiyalar; realizatsiya** [re(al)…+ …izatsiya] – 1) ma’lum bir reja, loyiha, dastur, maqsadni amalga oshirish, turmushga tatbiq etish; 2) mol-mulk yoki qimmatbaho qog‘ozlarni pulga aylantirish; mol sotish; **realizm** [*lot.* realis +...izm] – 1) adabiyot va san’atda voqelikni, hayotni badiiy vositalar orqali haqqoniy va butun to‘laligi bilan aks ettirishga intiluvchi oqim; 2) ongdan tashqaridagi mavjud reallik go‘yo ideal obyektlarning mavjudligidan yoki subyekt, bilish jarayoni yoki tajribaga bog‘liq bo‘lmagan bilish obyektidan iboratdir, deb hisoblovchi falsafiy yo‘nalish; **reallik** – 1) haqiqiylik, aniqlik, amaliylik, amalga oshirish mumkinlik; 2) haqiqatda obyektiv mavjud bo‘lgan voqea-hodisa, voqelik, haqiqat; **rebus** [*lot.* rebus – barcha narsalar bilan (tasvirlangan) < res – narsa, buyum + bus – hamma] – topilishi kerak bo‘lgan so‘z yoki ibora tegishli surat, harf va ba’zi shartli belgilar ko‘rinishida ifoda etiladigan jumboq.

RE... II [*lot.* re – yana, qayta, takror] – o‘zlashma yasama so‘zlar tarkibidagi old qo‘shimcha bo‘lib: 1) muayyan harakat yoki voqea-hodisaning qaytarilishini, tiklanishini, takrorlanishini, yangidan boshlanishini (***rekonstruksiya, revaksinatsiya***); 2) qarama-qarshi harakatni, qarshi, aks ta’sirni (***reaksiya, regress***) bildiradi. Mas.: **reagentlar, reaksiya, reaktiv, reaktivatsiya, reaktor, reanimatolog, reanimatologiya, reanimator, reduksiya, reemigratsiya, reevakuatsiya, regenerator, regress, regressiya, reinfuziya, reinnervatsiya, reinvestitsiya, rekonstruksiya, rekonversiya, rekristallizatsiya, rekultivatsiya, renaturatsiya, renessans, renovatsiya, reparatsiya, repatriant, replantatsiya, reprint, reproduksiya, reproduktiv, reproduktor, resintez, restavratsiya, restitutsiya, retranslyatsiya, retsirkulyatsiya, revalorizatsiya, revalvatsiya, reversiya, reversor; reabilitatsiya** [*lot.* rehabilitatio – tiklash, asliga qaytarish < re... + *lot.* habilitas

– yaroqlilik, layoqatlilik] – 1) organizmning izdan chiqqan funksiyalarini hamda bemorlar va nogironlar mehnat qobiliyatini tez va to‘la-to‘kis tiklashga qaratilgan tibbiy, pedagogik va ijtimoiy chora-tadbirlar majmuyi; 2) nohaq jazolangan, qoralangan shaxsning avvalgi huquqlari, obro‘si, qadr-qimmatining tiklanishi, uning tamoman oqlanishi; **reamputatsiya** [re...+ *lot.* amputatio – kesish, qirqish, kesib (qirqib) tashlash] – amputatsiya bo‘lgan yerda bitmaydigan yaralar paydo bo‘lsa yoki o‘sha yerlarni protezlashga moslash kerak bo‘lsa, qaytadan amputatsiya qilish; **reanimatsiya** [re...+ *lot.* animatio – jonlantirish, tiriltirish] – klinik o‘lim holatidagi kishilarni tiriltirish, shuningdek, hayotiy muhim a’zolarning turli sabablar bilan buzilgan yoki to‘satdan yo‘qolgan funksiyalarini qayta tiklash bo‘yicha chora-tadbirlar majmuyi; **reanimobil** [re…+ anim(al)…+ (mo)bil] – reanimatsion mashina – bemor kasalxonaga yotqizilgunga qadar unga yordam ko‘rsatuvchi ko‘chma reanimatsiya qurilmasi; **reduplikatsiya** [*lot.* reduplicatio – ikkilanish, qo‘shaloqlanish] – so‘zdagi dastlabki bo‘g‘inni yoki o‘zakni, butun so‘zni takror qo‘llash bilan takroriy so‘z, grammatik shakl hosil qilish usuli; **reeksport** [re…+ eksport] – chet ellardan keltirilgan mollarni, qayta ishlov bermay, boshqa biror mamlakatga qayta sotish; **reemigratsiya** [re...+ *lot.* emigratio – ko‘chish, ko‘chib ketish, ko‘chirish] – emigrantlarni, chet mamlakatga ko‘chib ketgan kishilarni o‘z vataniga qaytarish; repatriatsiya; **regeneratsiya** [*lot.* regeneratio – qayta tiklash, yangilash < re...+ *lot.* generatio – tug‘ilish, kelib chiqish] – organizmning hayot davomida yo‘qotgan yoki shikastlangan to‘qima va a’zolarini tiklash xususiyati, shuningdek, uning ayrim qismlaridan bir butun organizmning qayta tiklanishi; **reimplantatsiya** [re...+ *lot.* im (in) – ichiga, ichida + plantatio – ekish; o‘tkazish] – hayvon yoki o‘simlik tanasida to‘qima yoki a’zolarni bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirib o‘tkazish va ularning yangi joyda yashab ketishi; **reimport** [re...+ *ingl.* import < *lot.* importare – olib kelmoq, kiritmoq] – chet elga chiqariladigan, ammo u yerda qayta ishlov berilmagan va iste’mol qilinmagan tovarlarni qaytadan mamlakatning o‘ziga olib kelish; **reinfeksiya** [re...+ *lot.* infectio – singdirish, yuqtirish] – davolanish davrida bir odamga bir xil yuqumli kasallikning qayta yuqishi; **reinokulyatsiya** [re…+ *lot.* inoculatio – emlash] – qaytadan yuqtirish – ilmiy tekshirish maqsadida hayvonga kasallikni qaytadan yuqtirish; **reinversiya** [re…+ *lot.* inversio – teskari turish; joyini o‘zgartirish] – ag‘darilib, teskari bo‘lib qolgan a’zolarni, xususan, bachadonni asli holiga keltirish; **rekombinatsiya** [re...+ *lot.* combinatio – birikish, biriktirish] – 1) biologiyada: tirik organizmlarda genetik materialning naslda qayta taqsimlanishi; 2) kimyoda: betartib harakat natijasida har xil ishorali ionlarning o‘zaro uchrashib, neytral molekulalar (atomlar) ni hosil qilish jarayoni; **rekuperatsiya** [*lot.* recuperatio – qaytadan qo‘lga kiritish, ega bo‘lish,

olish] – 1) ishlabchiqarish chiqindilarini aniqlash va ulardan takroran foydalanish; 2) sihat-salomatlikning asliga kelishi va kuch-quvvatning tiklanishi; **remilitarizatsiya** [re...+ *lot.* militaris – harbiy +...izatsiya] – qaytadan qurollantirish, qurolsizlantirilgan tomonning, mamlakatning armiyasini, harbiy sanoat va istehkomlarini qaytadan tiklash; **repatriatsiya** [*lot.* repatriatio – vatanga qaytarish, qaytish] – urush oqibatida o‘z vatanidan chetda qolgan harbiy asirlar va fuqarolarni, shuningdek, fuqarolik huquqi qayta tiklangan muhojirlarni xalqaro bitim va kelishuvlar asosida vataniga qaytarish; **reprivatizatsiya** [re…+ privatizatsiya] – ilgari davlat ixtiyoriga olingan yer-mulk, korxona, bank, aksiya kabilarni qaytadan xususiylashtirish; **retranslyator** [re…+ translyator] – radioaloqa, telealoqa va kosmik aloqada axborot uzatishda oraliq punkt sifatida foydalaniladigan apparat, qurilma, sun’iy muhit yoki osmon jismi; **revaksinatsiya** [re…+ vaksinalash] – organizmda biror yuqumli kasallikka qarshi yo‘qolgan immunitetni tiklash yoki bor immunitetni kuchaytirish maqsadida qayta emlash; **revalvatsiya** [re…+ *lot.* valeo – ahamiyatga, qiymatga egaman] – milliy valyuta-pul birligi kursini boshqa mamlakatlar yoki xalqaro valyuta-pul birliklari kursiga nisbatan rasmiy ravishda oshirish.

REFRAKT... [*lot.* refractus – singan, egilgan, qiyshaygan] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, bir muhitdan ikkinchi muhitga o‘tishda yorug‘lik yo‘nalishining o‘zgarishini bildiradi. Mas.: **refraktometriya, refraktor, refraktura; refraksiya** [*lot.* refractio – egilish, bukilish; o‘zgarish] – 1) yorug‘lik, tovush yoki elektromagnit to‘lqinlari tarqalish yo‘nalishining muhit xilma-xilligi tufayli o‘zgarish (egilish, qiyshayish) hodisasi; 2) ko‘z gavharining doimo o‘z tanasini o‘zgartirib, ko‘zning ko‘rish qobiliyatini atrof-muhitga moslab turishi; **refraktometr** [refrakto...+...metr] – nur sinishi ko‘rsatkichini o‘lchaydigan asbob; **refraktoskop** [refrakto...+...skop] – ko‘zning nur sindirish kuchini tekshiruvchi asbob.

REG... [*lot.* regula – me’yor, mezon; qoida < regulare – yo‘naltirmoq, tartibga solmoq] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, boshqarish, tartibga solish (keltirish) ga oid degan ma’nolarni bildiradi. Mas.: **reglamentatsiya, regulyarlik, regulyativ; reglament** [*fr.* reglement – boshqarish < *lot.* regula – qoida] – 1) davlat organi, muassasa, tashkilot kabilarning ish tartibini belgilovchi qoidalar majmuyi; 2) majlis, kengash, anjuman, sessiya va shu kabilarni o‘tkazish tartibi; **regulyator** [*lot.* regulare – tartibga solmoq] – mashina, mexanizmlarning bir tekis ishlashini, yurishini ta’minlab turadigan yoki harorat, bosim, tezlik kabilarni birday saqlaydigan asbob, moslama; **regulyatsiya** [*lot.* regulare – boshqarmoq, tartibga solmoq] – 1) qanday bo‘lma-

sin biror holatni hamisha bir xil saqlash xususiyati; 2) biologiyada organizm shakli yoki tabiatining sharoit o‘zgarishlariga moslashishi; 3) turli funksional harakatlarning ma’lum tartibda o‘tishini ta’minlash, boshqarish.

REKT(O)... [*lot.* rectus – to‘g‘ri, tik; oddiy] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, to‘g‘ri, oddiy; to‘g‘ri ichak kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **rektoromanoskop, rektoromanoskopiya, rektoskop, rektostenoz, rektostomiya, rektotomiya, rektovaginal; rektal** [*lot.* rectum – to‘g‘ri, tik] – to‘g‘ri ichakka oid: ***rektal tekshiruv*** – to‘g‘ri ichak va uning atrofida joylashgan a’zolar yoki to‘qimalar holatini bilish maqsadida to‘g‘ri ichak bo‘shlig‘ida qo‘llanadigan diagnostik usullar majmuyi; **rektalgiya** [rekt...+...algiya] – to‘g‘ri ichakning pastki qismi nevralgiyasi; **rektit** [rekt...+...it] – to‘g‘ri ichakning yallig‘lanishi; **rektolog** [rekto...+...log] – to‘g‘ri ichak kasalliklarini davolashga ixtisoslashgan vrach; **rektoskopiya** [rekto...+...skopiya] – optik asbob – rektoskop bilan to‘g‘ri ichakning ichki yuzasi va bo‘shlig‘ini tekshirib ko‘rish; **rektotsele** [rekto…+…sele] – to‘g‘ri ichak devorida hosil bo‘lgan ortiqcha xalta.

REN(O)... [*lot.* ren, renes – buyrak] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning buyrakka, buyrak kasalliklariga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **renal** (buyrakka oid), **renovazografiya; renin** [ren...+...in] – buyrak ishemiyasida yoki qon bosimi kamayganda ajraladigan proteolitik ferment; **renografiya** [reno...+...grafiya] – radiografik usul yordamida buyraklarni tekshirish; **renopatiya** [reno...+...patiya] – buyraklarning turli xil kasalliklarini anglatuvchi umumiy termin.

RENTGEN(O)... [*nem.* Röntgen – nemis fizigi Vilgelm Rentgen nomidan] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning rentgen nurlari, ular yordamida turli kasalliklarni aniqlash va davolash bilan aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **rentgen, rentgenangiografiya, rentgenodefektoskopiya, rentgenoflyuorografiya, rentgenokardiometriya, rentgenokimografiya, rentgenokimogramma, rentgenologiya, rentgenometr, rentgenopelvimetriya, rentgenoskop, rentgenostereopelvimetriya, rentgenotelevideniye, rentgenoterapevt, rentgenovazografiya, rentgensezgir; rentgenanatomiya** [rentgen…+ anatomiya] – rentgen nurlari yordamida odam (yoki hayvon) a’zolari anatomiyasini o‘rganish; **rentgenodiagnostika** [rentgeno…+ diagnostika] – kasalliklarni rentgenda tekshirish bilan aniqlash; **rentgenoepilyatsiya** [rentgeno...+ epilyatsiya] – ayrim teri kasalliklarida rentgen nurlari ta’sir ettirib sochni tushirish; **rentgenofiziologiya** [rentgeno…+ fiziologiya] – odam va hayvon a’zolari

faoliyatini rentgen nurlari yordamida o‘rganish; **rentgenografiya** [rentgeno...+...grafiya] – tekshirilayotgan obyektning barqaror negativ tasvirini rentgen nuri yordamida maxsus plyonka yoki plastinkaga tushirishdan iborat rentgenologik tekshirish usuli; **rentgenogramma** [rentgeno...+ ...gramma] – ichki a’zolarning rentgen nurlari yordamida olingan surati; **rentgenokinematografiya** [rentgeno…+ kinematografiya] – organizmda tezlik bilan kechuvchi o‘zgarishlarni aks ettirish uchun bir necha rentgenogrammani tezda bajarish usuli; **rentgenolog** [rentgeno...+...log] – rentgen asboblari yordamida kasalliklarni aniqlovchi va davolovchi vrach; **rentgenometriya** [rentgeno…+…metriya] – dozimetriyaning bir bo‘limi: rentgen va gamma-nurlar dozalarini rentgenlarda ifodalash; **rentgenoskopiya** [rentgeno...+...skopiya] – ichki a’zolarni qorong‘ilashtirilgan xonada ekranda ko‘rib turib tekshirish – asosiy rentgenologik tekshirish usullaridan biri; **rentgenoterapiya** [rentgeno...+...terapiya] – rentgen nurlari yordamida bir qator kasalliklarni (xavfli o‘smalarni, qon ishlab chiqaruvchi a’zolar kasalliklarini) davolash; **rentgenotexnika** [rentgeno…+ texnika] – rentgenologiya va tibbiyot texnikasining bir bo‘limi; rentgen asboblari konstruksiyasini yaratish, ularni ishlab chiqarish, ishlatish bilan shug‘ullanadi.

REO... [*yun.* rheos – oqish, oqim] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning oqimga, oqishga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **reobiontlar, reografiya, reotropizm, reovirus, reoxord; reobaza** [reo...+ *yun.* basis – asos] – ancha uzoq ta’sir ko‘rsatish bilan tirik to‘qimalarda qo‘zg‘alish hosil qila oladigan eng past doimiy elektr toki kuchi; **reofillar** [reo...+...fil] – oqar suvlarda va dengizning suv ko‘tarilib qaytadigan sayoz va doimiy oqim ta’sirida bo‘lgan qismida yashashga moslashgan organizmlar; **reokardiografiya** [reo...+ kardio...+...grafiya] – qon aylanishiga oid funksiyalarni tekshirish usuli; **reologiya** [reo...+...logiya] – fizikaning moddalar oquvchanligi va deformatsiyalanishi bilan bog‘liq jarayonlarni o‘rganuvchi sohasi; **reometr** [reo...+...metr] – gaz sarfini o‘lchash uchun mo‘ljallangan asbob; **reostat** [reo...+...stat] – elektr zanjiridagi tok yoki kuchlanishni rostlab turadigan asbob, qurilma.

REPT... [*lot.* reptilis – sudraluvchi] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, sudraluvchi, sudralib yuruvchi ma’nolarini bildiradi. Mas.: **reptiliyalar** [*lot.* reptile – sudralib yuruvchilar] – sudralib, o‘rmalab yuruvchi umurtqali hayvonlar sinfi: xameleon, ilon, kaltakesak, toshbaqa, timsoh kabilarni o‘z ichiga oladi.

RETI(N)..., RETIKUL(O)... [*lot.* retina – to‘rparda; reticulum – kichkina to‘r, to‘rsavat, panjara; ko‘z] – o‘zlashma yasama, qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning to‘rga, ko‘z to‘rpardasiga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **retikuloendotelioma, retikulosarkoma, retikulotsit, retikulotsitoz, retikulyatsiya, retikulyoz**, **retina, retinal, retinoblastoma, retinoid, retinol, retinopapillit, retinoskop, retinoxoriodit, retinoshizis; retikuloma** [retikul(o)...+...oma] – retikula hujayralaridan paydo bo‘lgan o‘sma; **retikulyar** [*lot.* reticularis – ko‘z to‘rpardasiga oid] – to‘rga o‘xshash, to‘r-to‘r, to‘rsimon (mas., *retikulyar to‘qima*); **retinit** [retin...+...it] – ko‘z to‘rpardasi (retina) ning yallig‘lanishi; **retinofot** [retino...+...fot (foto...)] – ko‘z to‘rpardasining suratini olish uchun ishlatiladigan asbob; **retinopatiya** [retino...+...patiya] – ko‘z to‘rpardasining yallig‘lanishsiz kechadigan kasalliklari; **retinoskopiya** [retino...+...skopiya] – rentgenoskop yordamida ko‘z to‘rpardasini tekshirish; **retinoz** [retin...+...oz] – ko‘z to‘rpardasida normal modda almashinuvining buzilishi.

RETRO... [*lot.* retro – orqaga, orqada] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, nimaningdir orqasida, orqasiga, orqa tomonga kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **retroaktivlik, retrobulbar** (nevrit)**, retrodeviatsiya, retromorfoz, retroplaziya, retropulsiya, retrospektiv, retroversiya, retrovirus; retro** [*lot.* retro – orqaga] – juda eski uslublarga borib taqaladigan san’at turlari; retro o‘rta va keksa kishilar o‘rtasida keng tarqalgan; **retrofaringit** [retro...+ faring(o)...+...it] – tomoq shilliq pardasi devori orqa qismining yallig‘lanishi; **retrofleksiya** [retro...+ *lot.* flexio – egilish, bukilish] – biror a’zo yoki uning qismining orqaga egilishi, masalan, bachadon yuqori qismining orqaga anomal egilishi; **retrogeniya** [retro...+...geniya] – rivojlanish nuqsoni; pastki jag‘ suyagining (pastki tish qatorining) odatdagi joyidan orqaga siljigan holati; **retrognatiya** [retro...+ *yun.* gnathos – jag‘, tishlar qatori] – yuqori jag‘ning odatdagi turishidan, peshona frontal kesimidan orqaga surilganligi; **retrograd** [*lot.* retrogrades – orqaga yuruvchi] – dunyoqarashi qoloq bo‘lgan, taraqqiyot (progress) ga dushman bo‘lgan kishi; **retroperitonit** [retro…+ peritonit] – qorinparda ortidagi to‘qimalarning yallig‘lanishi; **retropozitsiya** [retro…+*lot.* positio – holat, vaziyat, o‘rin] – bachadonni o‘z o‘rnida ushlab turuvchi apparatlar tonusi bo‘shashib ketishi natijasida uning qo‘zg‘alib, orqaga surilishi; **retrospeksiya** [retro...+ *lot.* spectare – qaramoq] – o‘tmishga nazar, murojaat, o‘tmishda bo‘lib o‘tgan voqea-hodisalarni tahlil qilish, nazardan o‘tkazish; **retrovaksinatsiya** [retro…+ vaksinatsiya] – odamlardan olingan viruslar bilan hayvonlarni emlash.

...REYA [*yun.* rheo – oqaman] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, biror a’zo yoki uning qismidan suyuqlik ajralib chiqishini (oqishini) bildiradi. Mas.: **gematoreya, gonoblennoreya, gonoreya, laringoreya, likvoreya, miksoreya, plevroreya, rinoblennoreya, spermatoreya, steatoreya, uroreya; blennoreya** [blenno...+...reya] – ko‘z shilliq pardasining o‘tkir yiringli yallig‘lanishi bo‘lib, unda qovoq, ko‘z shilliq pardasi shishadi, terisi qizaradi, ko‘zdan yiring oqadi; **galaktoreya** [galakto...+...reya] – homiladorlikka bog‘liq bo‘lmagan holda sut bezidan o‘z-o‘zidan sut ajralib turishi va hayz ko‘rmaslikdan iborat patologik holat; **limforeya** [limfo...+...reya] – limfa tomirlarining shikastlanishi oqibatida tana yuzasi yoki bo‘shlig‘iga limfa suyuqligining oqishi; **metroreya** [metro…+…reya] – bachadondan suyuqlik kelishi; **otoreya** [oto...+...reya] – quloqdan yiring oqishi; **pioreya** [pio...+ ...reya] – yiring chiqishi; oqishi; **rinoreya** [rino...+...reya] – tumov natijasida burundan nazla (suyuqlik) kelishi; **seboreya** [sebo…+…reya] – teridagi yog‘ bezlari funksiyasining zo‘rayishi; kuchli yog‘ ajralishi tufayli terining kasallanish holati; **sialoreya** [sialo…+…reya] – haddan tashqari ko‘p so‘lak ajralishi.

RIG... [*lot.* rigere – mustahkam, qattiq bo‘lmoq] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, qattiqlashish, qotib qolish; qat’iylik ma’nolarini bildiradi. Mas.: **rigidlik** [*lot.* rigidus – qattiq (qat’iy)] – 1) mushaklar tonusining kuchayib ketishi natijasida ba’zi a’zolar (qo‘l-oyoq) yoki gavda qismlarining (tayoqdek) qotib qolishi; 2) psixik (ruhiy) jarayonlarning, fikrlashning o‘zgaruvchan muhit talablariga mos ravishda yo‘nalish, qo‘zg‘alish va moslanish qobiliyatining pastligi, sustligi; **rigorizm** [*fr.* rigorisme < *lot.* rigor – qat’iylik +...izm] – muayyan tamoyil qoidalariga, ayniqsa, axloq masalalariga qat’iy, og‘ishmay amal qilish.

RIN(O)... [*yun.* rhinos – burun] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning burunga va burun kasalliklariga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **rinoblennoreya, rinoderma, rinofaringolaringit, rinolaringit, rinometr, rinonekroz, rinopnevmoniya, rinoreya, rinoskleroma, rinostomiya, rinovirus; rinit** [rin...+...it] – burun bo‘shlig‘i shilliq pardasining yallig‘lanishi; **rinofaringit** [rino…+ faring(o)…+…it] – burun shilliq pardasi bilan halqumning yallig‘lanishi; **rinofima** [rino...+ *yun.* phyma – shish, o‘simta] – burunning ustki qismidagi teridan o‘sib hosil bo‘lgan o‘smalar; **rinofoniya** [rino…+…foniya] – manqalanib so‘zlash, ko‘pincha yumshoq tanglay teshilib qolganda yoki mushaklari falaj bo‘lganda kuzatiladi; **rinolit** [rino...+...lit] – burun toshi; burun bo‘shlig‘iga biror yot jism tushgandan so‘ng uning atrofida ohak tuzlari yig‘ilishidan hosil bo‘lgan tosh; **rinologiya**

[rino...+...logiya] – tibbiyotning burun va burun bo‘shlig‘ining tuzilishi, kasalliklari, ularning oldini olish va davolash masalalarini o‘rganadigan bo‘limi; **rinomikoz** [rino...+...mikoz] – burun bo‘shlig‘i shilliq pardasining zamburug‘li (zamburug‘lar qo‘zg‘atadigan) kasalliklarining umumiy nomi; **rinoplastika** [rino...+...plastika] – jarrohlik yo‘li bilan burun shaklini tuzatish yoki uni yangidan yasash (puchuq burunni to‘g‘rilash); **rinopolip** [rino…+ *yun.* polypus < poly – ko‘p + pus – oyoq] – burun polipi – uzoq davom etgan tumov, gaymorit, frontit kabi kasalliklardan so‘ng burun shilliq pardasida hosil bo‘ladigan o‘sma; **rinorragiya** [rino...+...rragiya] – burun qonashi, burundan qon kelishi; **rinoskop** [rino...+...skop] – peshonaga taqiladigan va burun bo‘shlig‘ini ko‘rsatadigan ko‘zguli optik asbob; **rinoskopiya** [rino...+...skopiya] – burun bo‘shlig‘ini rinoskop va burun kengaytiruvchi moslama yordamida tekshirish usuli; **rinostenoz** [rino…+ steno…+…oz] – burun bo‘shlig‘ining torayishi; bunda burundan nafas olish va hid bilish buziladi.

RIZ(O)... [*yun.* rhiza – ildiz] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning ildiz, asos, negiz ma’nolariga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **rizoktonioz, rizoma, rizomeningomiyelit; rizoidlar** [riz(o)...+ ...oid] – mog‘or zamburug‘larida bo‘ladigan soch (tola) simon o‘simtalar bo‘lib, ildiz vazifasini bajaradi; **rizonixiya** [riz(o)…+ onix(o)…+…iya] – tirnoq ildizi; **rizosfera** [rizo...+...sfera] – o‘simlik ildizlariga bevosita tegib turadigan va mikroorganizmlarga boy tuproq qatlami; **rizotomiya** [rizo...+...tomiya] – orqa miya kanali ichidagi orqa miya nervlari ildizchasini kesish.

ROD(O)... [*yun.* rhodon – atirgul] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning gulga, atirgulga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **rodaminlar, rodanidlar, rodiy, rodopsin, rodotsit; rododendron** [rodo...+ *yun.* dendron – daraxt] – vereskdoshlarga mansub buta yoki kichikroq daraxtlar turkumi; **rodofan** [rodo...+ *yun.* phan – yorqin] – ko‘z to‘rpardasi kolbachalaridagi qizil pigment; **rodologiya** [rodo...+...logiya] – botanikaning ra’noguldoshlar oilasini o‘rganuvchi bo‘limi; **rodonit** [rodo(n)...+...it] – zanjirsimon silikatlar kenja sinfiga mansub mineral: kalsiy va marganesning qizg‘ish, donador va zich massa ko‘rinishidagi murakkab silikati; **rodoxrozit** [rodo...+ *yun.* chrosis – rang +...it] – karbonatlar sinfiga mansub, asosan, ikki valentli marganes karbonatdan iborat qizg‘ish rangli mineral.

ROT... [*lot.* rotare – aylantirmoq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, g‘ildirak; aylana, aylanish, aylantirish degan ma’nolarni bildiradi. Mas.: **rotatsion** (mashina)**, rotonda, rotor; rotametr** [*lot.* ro-

tare – aylantirmoq +...metr] – 1) suyuqlik yoki gaz sarfi o‘lchanadigan asbob; 2) mashina uzeli va asboblar detallari o‘lchamlari o‘lchanadigan pnevmatik asbob; 3) matbaada qolip plastinalarining g‘adir-budurligini o‘lchaydigan asbob; **rotaprint** [*lot.* roto – aylantiraman + *ingl.* print – bosmoq] – ofset bosma usulida ishlaydigan, ixcham bosma mashina; **rotator** [*lot.* rotator – aylantiruvchi] – qo‘lyozma, chizma, rasm va boshqalardan nusxa ko‘chiradigan, ularni ko‘paytirib beradigan apparat; **rotatsiya** [*lot.* rotatio – aylanib (almashinib) turish; aylanma harakat] – 1) biron-bir tuzilma elementlarining asta-sekin, izchil almashinishi; tarkibni yangilash; 2) ekinlarni belgilangan tartibda almashlab ekishning bir davrasi; almashlab ekish tartibi.

...RRAGIYA [*yun.* rrhagos – oqish, oqib ketish; yirtilgan, yorilgan, teshilgan] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, biror a’zo yoki to‘qimadan kuchli yoki anomal ravishda suyuqlik chiqishini, oqishini bildiradi. Mas.: **enterorragiya, laringorragiya, odontorragiya, oftalmorragiya, rinorragiya, uretrorragiya, urorragiya; blennorragiya** [blenno...+...rragiya] – ba’zi a’zolardan shilliq aralash yiring ajralishi; **gemorragiya** [gemo...+ ...rragiya] – qon oqishi; qon tomirlarining butunligiga putur yetganda (kesilganda, yorilganda), o‘tkazuvchanligi buzilganda, qonning tomir tashqarisiga oqib ketishi; **menorragiya** [meno...+...rragiya] – hayz qonining ko‘p va bir necha kun (besh kundan ortiq) kelishi; **metrorragiya** [metro...+...rragiya] – hayz ko‘rishdan tashqari vaqtlarda bachadondan betartib qon kelishi; **otorragiya** [oto...+...rragiya] – bitta yoki ikkala quloqdan qon oqishi; **plazmorragiya** [plazmo...+...rragiya] – qonning suyuq qismi – plazmaning qon tomirlaridan tashqariga chiqishi; **proktorragiya** [prokto...+...rragiya] – to‘g‘ri ichakdan ko‘p miqdorda qon aralash yiring va shilliq ajralishi; **stomatorragiya** [stomato...+...rragiya] – og‘iz qonashi; og‘izdan qon oqishi.

RUB(R)... [*lot.* ruber – qizil; rubor – qizillik, qizil rang] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, qizil, qizil rang (siyoh) ma’nolarini bildiradi. Mas.: **rubellit, ruberoid, rubin, rubrikatsiya; rubeola** [rube(r)...+ ...ola] – bolalarning o‘tkir yuqumli kasalligi; qizilcha; **rubidiy** [*lot.* Rubidium < rubidus – to‘q qizil] – Mendeleyev davriy sistemasining I guruhiga mansub kimyoviy element; juda yumshoq kumushsimon-oq ishqoriy metall; **rubrika** [*lot.* rubrika – qizil tuproq; qonun sarlavhasi] – 1) gazeta, jurnal va boshqa nashrlarda biror bo‘limning sarlavhasi (qadimda sarlavhalar qizil siyoh bilan yozilgan); 2) bosma asarlarda bo‘lim, grafa; **rubrofitiya** [rubro...+...fit] – teri va tirnoqlarning zamburug‘li kasalligi; **rubrofobiya** [rubro...+...fobiya] – qizil rangdan, qizil rangga bo‘yalgan narsa, buyum va boshqalardan qo‘rqib vahimaga tushish; eritrofobiya.

RUD... [*lot.* rudis – dag‘al, ishlov berilmagan; rivojlanmagan] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, dastlabki, ibtido holda qolgan, rivojlanmagan; dag‘al; xomaki ma’nolarini bildiradi. Mas.: **rudiment** [*lot.* rudimentum – ibtidoiy, boshlang‘ich asos; rivojlanmagan murtak] – 1) organizmning evolyutsion taraqqiyoti jarayonida o‘z ahamiyatini yo‘qotgan tana a’zosi yoki shu a’zoning qoldig‘i; 2) yo‘q bo‘lib ketgan narsa, hodisalarning sarqitlari, qoldiqlari; **rudimentar** (a’zo) [*lot.* rudimentar – rivojlanmagan, yo‘qolayotgan; qoldiq] – 1) organizmning evolyutsion taraqqiyoti davomida o‘z ahamiyatini yo‘qotgan va yo‘qotib borayotgan (a’zo); 2) kurakoyoqli hayvonlarning orqa oyoqlari qoldig‘i.

RUPT... [*lot.* ruptus – yirtilgan, buzilgan] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, yirtilish, yorilish, uzilish kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **ruptura** [rupt...+...ura] – biror a’zoning tashqi muhit ta’sirida yorilib, yirtilib shikastlanishi.

S

SAGITT... [*lot.* sagitta – o‘q, nayza] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, o‘q, nayza; dudama pichoqcha ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **sagitta** [*lot.* sagitta] – o‘ljani ikki tutam qil-ilmoqlari bilan changallab oladigan, dengizlarda yashovchi yirtqich umurtqasiz jonzotlar; **sagittal** [*lot.* sagittalis] – tanani uzunasiga (bo‘yiga) o‘ng va chap yarimlarga bo‘luvchi, yuqoridan pastga o‘rta chiziq bo‘ylab o‘tuvchi (tekislik); **sagittariya** [*lot.* sagittarius – o‘qchi, o‘q otuvchi] – nayzabarg, suvda yoki botqoqda o‘sadigan ko‘pyillik o‘simliklarning bir turi.

SAKR... [*lot.* sacrum – ilohiy, muqaddas buyum; ibodat] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, diniy, ilohiy, muqaddas ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **sakral, sakramental; sakramentariy** [*lot.* sacramentum – sirli ibodat] – ilk o‘rta asrlardagi g‘arbiy xristianlarda ibodat paytida aytiladigan matnlar to‘plami; **sakristiya** [*lot.* sacrum – muqaddas, aziz joy] – katoliklar ibodatxonasida: rizalar va cherkov anjomlari saqlanadigan joy; rizaxona.

SALPING... [*yun.* salpinx (salpingos) – nay, truba] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, bachadon naychalari, Yevstaxiy naychasi ma’nolarini anglatadi. Mas.: **salpingolizis, salpingooforektomiya, salpingooforotsele, salpingostomatomiya, salpingostomiya, salpingotsele; salpingektomiya** [salping…+…ektomiya] – bachadon naychasini olib tashlash operatsiyasi; **salpingit** [salping…+…it] – bachadon naychalarining yallig‘lanishi; **salpingografiya** [salpingo...+...grafiya] – bachadon ichi inyeksiyasi yordamida kontrast modda kiritilib, fallopiy naylarining bittasi yoki ikkitasining rentgenografiyasini olish; **salpingooforit** [salpingo…+ ooforit] – bachadon naychasi va tuxumdonning bir paytda yallig‘lanishi; **salpingoskop** [salping(o)…+…skop] – halqum va Yevstaxiy naychasini tekshirish uchun ishlatiladigan maxsus asbob; **salpingotomiya** [salping(o)…+…tomiya] – bachadon naychalarini operatsiya yo‘li bilan kesish.

SAN... [*lot.* sanus – sog‘, sog‘lom] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, sog‘liq, sog‘lomlik ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **sanatoriy, sanitariya; sanatsiya** [*lot.* sanatio – davolash, sog‘lomlashtirish] – 1) sog‘lomlashtirish, sanitariya sharoitlarini yaxshilash; 2) og‘iz bo‘shlig‘i kasalliklarining oldini olish va ularni davolash chora-tadbirlari; 3) bank va korxonalarning sinishiga yo‘l qo‘ymaslikka yoki ularning raqobatbardoshligini kuchaytirishga qaratilgan tadbirlar; **sanitar** [*lot.* sanitas – sog‘lomlik, salomatlik] – davolash muassasalarida kasallarga qarovchi, tozalikni saqlovchi kichik tibbiyot xodimi.

SANGV... [*lot.* sanguis – qon] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, tez emotsiyaga beriluvchan, qoni qaynoq (odam) ma’nosini bildiradi. Mas.: **sangvinik** [sangv(i)...+ *rus.* **-**nik – shaxs oti yasovchi qo‘shimcha] – o‘z mizoji bilan boshqa odamlardan ajralib turuvchi, tez emotsiyaga beriluvchi shaxs.

SANTI... [*lot.* centum – yuz] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, o‘zi qo‘shilgan so‘z bildirgan asosiy o‘lchov birligidan 100 marta kichiklikni bildiradi. Mas.: **santigramm** [santi...+...gramm] – grammning yuzdan bir ulushiga teng og‘irlik o‘lchovi birligi; **santimetr** [santi...+...metr] – metrning yuzdan bir ulushiga teng uzunlik o‘lchovi birligi.

SAPRO... [*yun.* sapros – chirigan] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, chirish, irish, buzilish kabi ma’nolarni ifodalaydi. Mas.: **saproblar = saprobiontlar, saprogen** (bakteriyalar)**, saprolegnioz, sapropel, saprotroflar; saprobiontlar** [sapro...+...biont] – organik moddalar bilan ifloslangan suvlarda yashovchi o‘simlik va hayvonlar; **saprofaglar** [sapro...+...fag] – organizmlarning (yiringlagan) qoldiqlari, boshqa hayvonlarning ajralmalari bilan oziqlanadigan hayvon va o‘simliklar; **saprofillar** [sapro…+…fil] – o‘lgan yoki chirigan (yiringlagan) to‘qimada yashovchi mikroorganizmlar; **saprofitlar [**sapro…+…fit] – o‘lik organizmlar hisobiga ovqatlanadigan mikroblar; **sapropelitlar** [sapro...+ *yun.* pelos – balchiq, loy +...it] – suv havzalari tubida to‘planib qolgan organik moddalar qoldiqlarining o‘zgarishidan hosil bo‘lgan mahsulotlar; qazib olinadigan ko‘mirlar guruhi.

SARK(O)... [*yun.* sarx (sarkos) – et, go‘sht] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarning go‘shtga, yumshoq to‘qima va mushak tolalariga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **sarkazm, sarkoadenoma,**

sarkoblast, sarkoendotelioma, sarkoidoz, sarkomatoz, sarkomer, sarkopsillyoz, sarkospozidiyalar, sarkostoz, sarkotsele, sarkoz; sarkofag [sarko...+...fag] – tosh, marmar yoki yog‘ochdan yasaladigan ulkan tobut yoki sag‘ana; **sarkogen** [sarko…+…gen] – yumshoq to‘qima yoki mushak hosil qiluvchi; **sarkoid** [sarko…+…id] – 1) mushakka o‘xshash; 2) sarkomaga o‘xshagan o‘sma; **sarkolemma** [sarko...+...lemma] – silliq ko‘ndalang-targ‘il va yurak mushak tolalarini o‘rab turadigan yupqa parda; **sarkoliz** [sarko...+...liz] – ko‘ndalang-targ‘il mushak tolalarining, yumshoq to‘qimaning fermentlar ta’sirida erishi; **sarkologiya** [sarko...+...logiya] – tibbiyotning tanadagi yumshoq to‘qimalarni o‘rganuvchi bo‘limi; **sarkoma** [sark(o)...+...oma] – asosan, biriktiruvchi to‘qimadan, ba’zan suyak ko‘migidan paydo bo‘ladigan xavfli o‘sma; **sarkoplazma** [sarko…+…plazma] – mushak hujayralari va ko‘ndalang-targ‘il mushak tolalari sitoplazmasi.

SAXAR... [*rus.* сахар < *yun.* sakchar – qand, shakar < *sanskritcha* sakchara – qum] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, qand, shakar ma’nolarini bildiradi. Mas.: **saxaridlar, saxarimetr, saxaromikoz; saxaraza** [saxar…+…aza] – saxarozani glyukoza va fruktozaga parchalaydigan ferment; **saxarimetriya** [saxar(i)...+...metriya] – maxsus asbob – saxarimetrdan foydalanib, eritmadagi qand miqdorini aniqlash usuli; **saxarin** [saxar...+...in] – rangsiz, shirin ta’mli kristall modda; **saxaroza** [saxar...+...oza] – shakarqamish yoki lavlagi shakari (qandi); disaxaridlar guruhiga mansub uglevod: qattiq, rangsiz kristall modda.

SEB(O)... [*lot.* sebum – yog‘] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, yog‘ ma’nosini anglatadi. Mas.: **seboreid, seborragiya; sebolit** [sebo...+...lit] – yog‘ bezlarida tosh hosil bo‘lishi; **seboreya** [seb(o)...+...reya] – teridagi yog‘ bezlari funksiyasining buzilishi; kuchli darajada yog‘ ajralishi bilan kechadigan teri kasalligi.

SED... (tsed...) [*lot.* cedere – voz kechmoq, (birovga) bermoq, topshirmoq, ruxsat bermoq] – o‘zlashma yasama so‘zning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, biror narsadan voz kechish, uni boshqa birovga berish ma’nosini bildiradi. Mas.: **sedent** [sed...+...ent] – o‘zining talab qilish huquqini boshqa birov ixtiyoriga topshiruvchi kreditor.

SEFAL(O)... (tsefalo...), ...SEFALIYA [*yun.* kephale – bosh, kalla] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi va ikkinchi tarkibiy qismlari bo‘lib, shu so‘zlarning boshga, kallaga aloqadorligini ko‘rsatadi [Ushbu terminele-

mentning ikki xil o‘qilishidan uning **kefal(o)..., ...kefaliya** variantlari ham parallel qo‘llanadi; *q.* **kefal(o)...**]: I. Qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi sifatida umuman kallaga aloqadorlikni bildiradi. Mas.: **sefalgiya, sefalogematoma // kefalogematoma, sefalogidrotsele, sefalografiya // kefalografiya, sefalometr, sefalosporinlar, sefalosporioz, sefalotomiya, sefalotripsiya, sefalotsentez; sefalit** [sefal(o)…+…it] – bosh miya to‘qimasining yallig‘lanishi; **sefalizatsiya** [sefal...+...izatsiya] – bosh (kalla) ning shakllanishi; **sefalogemometr** [sefalo…+ gemo…+…metr] – kalla ichidagi qon bosimi o‘zgarishlarini aniqlash uchun ishlatiladigan asbob; **sefaloma** [sefal(o)...+...oma] – bosh miya to‘qimasida vujudga kelgan o‘sma; **sefalomeningit** [sefalo…+ meningit] – miya pardalarining yallig‘lanishi; **sefalometriya** [sefalo…+ metriya] – bosh o‘lchovlarini tekshirish haqidagi ta’limot; **sefalopodlar // kefalopodlar** [sefalo...+...pod] – boshoyoqli mollyuskalar; iliq dengizlarda yashovchi, baliq va boshqa mollyuskalar bilan oziqlanuvchi yirtqich mollyuskalar sinfi; **sefalotsele** [sefalo...+...sele] – ichida miya moddasi yoki uning pardalari bo‘lgan miya-kalla suyagi shishi. II. Qo‘shma so‘zlarning ikkinchi qismi sifatida kallaning tuzilishi, shakli, hajmi va boshqa omillar bilan bog‘liq nuqson va kasalliklarini bildiradi. Mas.: **akrotsefaliya // akrokefaliya, braxitsefaliya, makrotsefaliya // makrokefaliya, mikrotsefaliya // mikrokefaliya, nanotsefaliya, oksitsefaliya, paxitsefaliya // paxikefaliya, sfenotsefaliya // sfenokefaliya, sebotsefaliya; gidrotsefaliya // gidrokefaliya** [gidro...+...sefaliya] – bosh miya istisqosi; miya qorinchalarida orqa miya suyuqligining ko‘payishi bilan namoyon bo‘ladigan kasallik; **plagiotsefaliya** [*yun.* plagios – egri, qiyshiq +...sefaliya] – qiyshiqboshlik; kallaning bir yarmi kattalashib, asimmetrik bo‘lishi natijasida boshning qiyshayib qolishi; **shizotsefaliya** [shizo...+...sefaliya] – kallaning tug‘ma nuqsoni: kallada uzunasiga ketgan yoriq bo‘lishi bilan namoyon bo‘ladi.

SEKS... I [*lot.* sexus – jins] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, ushbu so‘zlarning jinsga, jinsiy aloqaga oidligini bildiradi. Mas.: **seksapil, seksolog, seksopatolog, seksual; seksologiya** [sekso...+...logiya] – jinsiy hayot to‘g‘risidagi bilimlar va ilmiy tadqiqotlar sohasi; inson jinsiy hayotining tibbiy-biologik, ijtimoiy-tarixiy va psixologik jihatlarini qamrab oluvchi turli xil tadqiqotlar majmuyidan iborat tibbiy-biologik soha; **seksopatologiya** [sekso...+ patologiya] – tibbiyotning inson jinsiy hayoti va xatti-harakati bilan bog‘liq kasalliklarni, ularning kelib chiqishini hamda oldini olish usullarini o‘rganuvchi, ularni aniqlash va davolash bilan shug‘ullanuvchi sohasi.

SEKS... II [*lot.* sex – olti; sexta, sextus – oltinchi] – o‘zlashma yasama so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, olti, oltinchi ma’nolarini bildiradi. Mas.: **seksta, sekstakkord, sekstant, sekstina; sekstet** [*nem.* Sextett < *ital.* sextetto < sekst...+...etto < *lot.* sex – olti] – 1) olti ijrochi (sozanda yoki xonanda) dan iborat ansambl; 2) shunday (olti kishilik) ansambl ijrosiga mo‘ljallangan musiqa asari; **semestr** [*fr.* semester < *lot.* sex + mensis – oy, vaqt o‘lchovi] – yarimyillik; olti oylik muddat.

SEK(T)... [*lot.* seco, secare – kesmoq, bo‘lmoq] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, kesish, bo‘lish, ajratish ma’nolarini bildiradi. Mas.: **sekans, sekta; sekator** [*fr.* secateur < *lot.* secare – kesmoq] – bog‘bonlar ishlatadigan qaychi; tokqaychi; **seksiya** [*lot.* sectio – kesma; kesish, qirqish] – 1) muayyan muassasa yoki tashkilotning bir qismi, bo‘linmasi; 2) biror mashina yoki texnik qurilmaning ko‘plab bir xil qismlaridan bittasi (masalan, isitish batareyasining seksiyasi); 3) turarjoylar yoki sanoat binolarining to‘liq rejalashtirilgan bir bo‘lagi; 4) savdo korxonalarining bir turdagi tovarlar sotishga mo‘ljallangan alohida bir bo‘limi; 5) tibbiyotda murdani (o‘likni) yorish; **sektor** [*lot.* sector – kesuvchi]: 1) ***yassi sektor*** – geometriyada egri chiziqli jism maydonining bir qismi bo‘lib, u figura ichidagi bir nuqtadan chiquvchi ikki to‘g‘ri chiziq va ular o‘rtasidagi egri chiziq kesmasi bilan chegaralangan bo‘ladi; 2) radial chiziqlar bilan chegaralangan joy, maydon; 3) muassasa yoki tashkilotning muayyan ixtisoslik yo‘nalishidagi bir bo‘lagi; bo‘lim, bo‘linma.

SEKUND... [*lot.* secundus – ikkinchi] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, minutning oltmishdan bir qismiga teng vaqt o‘lchovi birligini bildiradi. Mas.: **sekundant** [*lot.* secundantis – ikkinchi; ko‘mak, yordam beruvchi] – 1) duel ishtirokchisining ishonchli kishisi bo‘lib, u duel shartlari bo‘yicha muzokaralar olib boradi va shartlarga rioya qilinishini kuzatib turadi; **sekundomer** [sekundo...+...mer] – vaqt oralig‘ini sekundlar va sekundning ulushlarida, minutlar, soatlarda aniq o‘lchaydigan asbob.

SEKV... [*lot.* sequor – borish, ketish, ergashish; sequestrum < sequestro – tashqariga (alohida) qo‘yaman, ajrataman] – o‘zlashma yasama so‘zlarning o‘zak qismi bo‘lib, ajralish, ajralgan narsa ma’nolarini bildiradi. Mas.: **sekvensiya, sekvestrektomiya, sekvestrotomiya; sekvestr** [*lot.* sequestrum] – 1) muayyan mol-mulk yoki mablag‘dan foydalanishga davlat organlari tomonidan davlat manfaatlari uchun qo‘llanadigan taqiq yoki cheklov; 2) biron-bir a’zoning (ko‘pincha suyakning) tirik qismidan ajralib chiqqan o‘lgan qis-

mi; **sekvestratsiya** [*lot.* sequestrum +...atsiya] – o‘lgan to‘qima bilan tirik to‘qima chegarasida reaktiv yallig‘lanish ro‘y berib, o‘lgan to‘qimaning tirik to‘qimadan butunlay uzilib chiqishi; sekvestr ajralib chiqishi.

...SELE (...tsele) [*yun.* kele – shish, bo‘rtiq; shishish, qappayish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, biror a’zoda yoki uning atrofida paydo bo‘ladigan pufaksimon, xaltasimon bo‘shliqni, churrani, muayyan a’zoda paydo bo‘lgan shish, bo‘rtiqni bildiradi. Mas.: **gastrotsele, gidrotsele, miyelotsele, pnevmatotsele, rektotsele, sefalotsele, sistotsele, tirotsele, ureterotsele, urotsele, varikotsele; faringotsele** [faringo...+...sele] – yutqinning bir qismi kengayib, halqaga o‘xshab qolishi; **galaktotsele** [galakto...+...sele] – ko‘krak bezi sut yo‘llarining bekilishi natijasida paydo bo‘lgan xavfsiz pufakcha; **gematotsele** [gemato...+...sele] – qonli shish; moyak pardasi bo‘shlig‘iga qon to‘planishi; **iridotsele** [irido...+...sele] – ko‘z muguz pardasining nuqsoni tufayli ko‘z rangdor pardasi qismining shishishi; **omfalotsele** [omfalo...+...sele] – kindik churrasi; **orxeotsele** [orxeo...+ ...sele] – chov-yorg‘oq churrasi; **piotsele** [pio...+...sele] – bo‘shliq yoki nayda yiring to‘planib, ularning kengayishi; **proktotsele** [prokto...+...sele] – to‘g‘ri ichakning bo‘rtib chiqishi yoki unda g‘urra hosil bo‘lishi; **sarkotsele** [sarko...+ ...sele] – mushaklarda paydo bo‘ladigan kista; **spermatotsele** [spermato...+ ...sele] – urug‘don yoki urug‘ ortig‘ining kengayib, shaklan pufakka o‘xshab qolishi.

SELEN(O)... [*yun.* selene – Oy < selos – nur, yog‘du] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning Oyga, Oyning o‘rganilishiga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **selenidlar, selenit, selenograf, selenografik** (koordinatalar)**, selenoid, selenonim, selenotsentrik** (koordinatalar); **selen** [*yun.* selene] – Mendeleyev davriy sistemasining VI guruhiga mansub kimyoviy element; jigarrang-to‘q kulrang metalloid; **selenodeziya** [seleno...+ *yun.* daio – bo‘laman, ajrataman] – astronomiyaning Oy shakli va o‘lchamlarini o‘rganadigan sohasi; **selenografiya** [seleno…+…grafiya] – planetashunoslikning Oy sirti shakllari tavsifiga bag‘ishlangan sohasi; **selenologiya** [seleno...+...logiya] – planetologiya (sayyorashunoslik) ning Oy sirti tuzilishini va kimyoviy-mineralogik tarkibini o‘rganish bilan shug‘ullanadigan sohasi.

SEL(O)... (tselo...) [*lot.* caelum – osmon] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, osmon ma’nosini bildiradi. Mas.: **selostat** [selo...+ ...stat] – soat mexanizmi bilan aylanadigan va aylanish o‘qiga ega bo‘lgan yassi ko‘zguli yordamchi astronomik asbob (harakatdagi, ya’ni o‘rnini o‘zgartirib turadigan osmon yoritqichlarini kuzatishda ishlatiladi).

SELL(O)... (tsello...) [*lot.* cella, cellula – kichik xona, hujra; hujayra] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, shu so‘zlarning sellyulozaga, hujayraga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **sellon, sellyulaza, sellyulyar** (patologiya); **sellofan** [sello...+ *yun.* phanos – tiniq, shaffof] – viskozadan maxsus usul bilan hosil qilinadigan yupqa, suv o‘tkazmaydigan shaffof material; **sellyuloid** [sellyul(oza) +...oid] – sellyuloza nitratidan tayyorlangan, tez alangalanadigan elastik shaffof modda; **sellyuloza** [*fr.* cellulose < *lot.* cellula – hujayra +...oza] – glyukoza molekulalari qoldig‘idan hosil bo‘ladigan, o‘simlik hujayralari qobig‘ining asosiy tarkibiy qismi bo‘lgan yuqori molekulyar birikma; o‘simlik to‘qimalarining mexanik chidamliligi hamda elastikligini ta’minlaydi.

SEMA..., SEMIO... [*yun.* sema, semeion – belgi, ma’no] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, belgi, ma’no, mazmun kabi ma’nolarni anglatadi. Mas.: **sema, semasiolog, semema, semiografiya, semiologiya; semantika** [*yun.* semantikos – ifodalovchi, bildiruvchi] – 1) ayrim so‘zlar va so‘z qismlarining, so‘z birikmalarining ma’noviy (mazmuniy) tomoni; 2) tilshunoslikning til birliklari, eng avvalo, so‘z ma’nosini o‘rganadigan sohasi; **semasiologiya** [*yun.* semasia – belgi, ifoda +...logiya] – tilshunoslikning til birliklari ma’nosini va bu ma’nolarning o‘zgarishlarini o‘rganuvchi bo‘limi; **semafor** [sema...+...for] – 1) svetofor; chorrahalarda va piyodalar o‘tish yo‘llarida transport va odamlar harakatini avtomatik yoki mexanik tarzda tartibga soluvchi asbob; 2) temir yo‘llardagi statsionar signal qurilmasi; **semiotika** [*yun.* semeiotike – belgilar haqidagi fan < semeion – belgi] – 1) tibbiy diagnostikaning kasalliklarning belgilarini, ularning xarakterli qo‘shilmalarini o‘rganuvchi sohasi; 2) axborot uzatish usullarini, tabiiy va sun’iy tillardagi belgi va belgi tizimlarining xossalarini, fizikaviy, kimyoviy, diniy, afsonaviy (sehrli) va boshqa ramzlarni o‘rganuvchi fan.

SEMI... [*lot.* semi – yarim] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, yarim, yarimta ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **semisideratsiya; semifleksiya** [semi...+ *lot.* flexio – bukilgan] – qo‘l-oyoqlarning yarim bukilgan holda turishi.

SEM(IN)... [*lot.* semen (seminis) – urug‘, tuxum; sperma; ko‘chat] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning erkaklar urug‘iga, spermaga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **seminatsiya** [*lot.* seminatio – urug‘lantirish] – diloq (qin) yoki bachadonga urug‘ kiritish; urug‘lantirish; **seminoma** [semin...+...oma] – urug‘donning yetilmagan epiteliy hujayralari-

dan o‘sib chiqadigan xavfli o‘sma (ko‘pincha yosh erkaklarda); **seminuriya** [semin...+...uriya] – urug‘ning siydik bilan ajralishi.

SEN(O)..., ...SEN (tseno..., ...tsen) [*yun.* kainos – yangi] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi va ikkinchi tarkibiy qismlari bo‘lib, yangi; quyi, keyingi ma’nolarini bildiradi. Mas.: **ferrotsen, paleotsen, pleystotsen, pliotsen; eotsen** [eo...+...sen] – paleogen sistemaning o‘rta bo‘limi bo‘lib, Yer geologik tarixidagi paleogen zamonning o‘rtalariga to‘g‘ri keladi; **miotsen** [*yun.* meion – kichik, kichikroq; kamroq +...sen] – neogenning quyi bo‘linmasi; **oligotsen** [oligo...+...sen] – paleogenning yuqori bo‘linmasi; **senogenezlar** [seno...+...genez] – organizmda uning ilk rivojlanish bosqichlarida (embrional yoki lichinka holida) paydo bo‘ladigan va yetilgan organizmlarda saqlanib qolmaydigan moslashishlar.

SENS... // SENT... [*lot.* sensus – sezgi, tuyg‘u, his; sentio – sezaman, his qilaman] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning sezgi, his-tuyg‘u, idrok ma’nolariga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **sensatsion, sensibel, sensibilizator, sensitiv, sensitizatsiya, sensitogramma, sensitometriya, sensopatiya, sensor** (fiziologiya)**, sensualist, sentimental, sentimentalist, sentimentlar; sensatsiya** [*lot.* sensatio – taassurot; sezish, his qilish] – 1) biron-bir voqea, xabar bilan kishilarda qo‘zg‘atilgan kuchli taassurot; 2) ovoza, hayajon, kuchli qiziqishga sabab bo‘lgan ana shu voqeaning, xabarning o‘zi; **sensibilizatsiya** [*lot.* sensibilis – sezilarli, bilinarli +...izatsiya] – 1) hayvon organizmi yoki uning ayrim a’zolarining biron-bir (asosan, kimyoviy) qo‘zg‘atuvchilar ta’siriga sezuvchanligining ortishi; 2) tabiiy yorug‘sezuvchanlikni orttirish maqsadida fotografik emulsiyalarga maxsus organik bo‘yoqlar (sensibilizatorlar) qo‘shish; **sensillalar** [*lot.* sensilis – sezuvchan] – umurtqasiz jonivorlarda sezgi, maza, hid bilish a’zolari vazifasini bajaruvchi sezuvchan tuzilmalar; **sensimetr** [sens(i)...+...metr] – tananing turli sohalaridagi sezuvchanlik darajasini o‘lchaydigan asbob; **sensitometr** [*lot.* sensitivus – sezgir +...metr] – fotomateriallarning yorug‘sezgirlik va boshqa ko‘rsatkichlarini aniqlaydigan asbob; **sensoparalich** [sens(o)...+ paralich] – sensofalaj – tanadagi sezuvchi nervlarning falajlanishi; **sensorlar** [*lot.* sensus – his-tuyg‘u, sezish] – sezuvchan sun’iy tuzilmalar yoki tirik organizmlarning a’zolari; **sensualizm** [*lot.* sensualis – sezgiga oid, seziladigan, bilib bo‘ladigan +...izm] – bilish nazariyasida: sezgilarni bilishning asosiy manbayi deb e’tirof etuvchi yo‘nalish; **sentimentalizm** [*fr.* sentimentalisme < *lot.* sensus – his-tuyg‘u, sezgi] – XVIII asrning 2-yarmi va XIX asr boshlarida Yevropa va AQSh adabiyoti va san’atidagi oqim bo‘lib, unda hissiyot yax-

shilik va yomonlikni belgilovchi, insonning qadr-qimmatini aniqlovchi asosiy me'yor sifatida talqin qilinadi.

SENT...(tsent...) [*lot.* centum – yuz (100)] – o'zlashma so'zlarning tarkibiy (o'zak) qismi bo'lib, yuz (100) ma'nosini bildiradi. Mas.: **senturion, senturiya; sent** [*ingl.* cent < *lot.* centum – yuz] – AQSh, Kanada va boshqa bir qancha mamlakatlarda shu mamlakatlar asosiy pul birliklarining yuzdan bir ulushiga teng bo'lgan tanga pul; **sentner** [*nem.* Zentner < *lot.* centum] – 1) yuz qadoqqa teng og'irlik (massa) birligi; 2) xalqaro birliklar tizimida: 100 kilogrammga teng og'irlik (massa) birligi.

SENTR...(tsentr...) [*lot.* centrum – markaz < *yun.* kentron – o'tkir uch, cho'qqi; to'plangan joy, o'choq, markaz] – o'zlashma yasama va qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, markaz, o'rta nuqta ma'nolarini anglatadi. Mas.: **sentralizm, sentriola, sentrizm, sentromera; sentrifuga** [sentr(i)...+ *lot.* fuga – qochish, yugurish] – bir jinsli bo'lmagan birikmalarni (mas., suyuq aralashmalarni) markazdan qochma kuch ta'siri bilan tarkibiy qismlarga ajratadigan apparat; **sentroplan** [sentr(o)...+...plan] – samolyot qanotining ko'pincha fyuzelyaj bilan bir butunlikni tashkil qiluvchi markaziy qismi; **sentrosomalar** [sentr(o)...+ *yun.* soma – gavda, tana] – hayvonlar va ba'zi o'simliklar hujayralarida sentriolalarni o'rab turuvchi hujayra markazi, doimiy qo'shilma (organoid hamda sitoplazmaning bir qismi).

SEPT... I [*lot.* septem – yetti] – o'zlashma yasama so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, 7 sonini bildiradi. Mas.: **septakkord, septima** (musiqa terminlari); **septet** [*nem.* Septett < *ital.* septetto < sept...+...etto] – 1) yetti ijrochi (sozanda yoki xonanda) dan iborat ansambl, guruh; 2) yetti ijrochi yoki yetti xil musiqa asbobi uchun yozilgan musiqiy asar.

SEPT... II [*yun.* septis – chirindi, chirik; chirish; septikos – chirituvchi, irituvchi] – o'zlashma yasama so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, shu so'zlarning chirish, irish, aynish, yiringlashga aloqadorligini ko'rsatadi. Mas.: **septik, septikopiyemiya, septimetrit; sepsis** [*yun.* sepsis – chirish, irish] – odam va hayvonlarda yiring hosil qiluvchi mikroblarning infeksiya o'chog'idan qonga o'tib, qonning zaharlanishi natijasida kelib chiqadigan og'ir yuqumli kasallik; **septitsemiya** [*yun.* septikos – chirituvchi, irituvchi +...emiya] – sepsis turlaridan biri; bunda turli qo'zg'atuvchilar (mikroblar) qonda ko'payib, qonni eritrotsitlarni batamom o'ldiruvchi, qon va ajralmalar hosil qiladigan a'zolarni izdan chiqaruvchi zaharlar bilan to'ldiradi.

SEREBR(O)... (tserebro...) [*lot.* cerebrum – bosh miya; aql, idrok] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning bosh miya bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Mas.: **serebral, serebrin, serebrolizin, serebromalyatsiya, serebroskleroz, serebropatiya = ensefalopatiya, serebrospinal, serebrozidlar; serebrasteniya** [serebr...+ asteniya] – asteniyaning bosh og‘rig‘i, bosh aylanishi, xotiraning ozgina pasayishi va bosh miya shikastlanishining boshqa belgilari bilan bir vaqtda kechishi; kalla va bosh miyaning shikastlanishi natijasida psixik faoliyatning pasayishi, zararlanishi; **serebroma** [serebr(o)...+...oma] – bosh miya to‘qimasida vujudga kelgan o‘sma; **serebropsixoz** [serebro...+ psixoz] – bosh miya kasalligi tufayli fikrlash qobiliyatining buzilishi; **serebroz** [serebr(o)...+...oz] – bosh miyaning ayrim kasalliklari.

SER(O)... I **(tsero...)** [*lot.* cera – mum] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning mumga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **serezin** [*ingl.* ceresin] – molekulasida 36–55 ta uglerod atomi bo‘lgan qattiq, to‘yingan uglevodorodlarning mumsimon aralashmasi; **seroplastika** [*nem.* Zeroplastik < ser(o)...+...plastika] – mumdan yasalgan haykaltaroshlik buyumlari; mum haykaltaroshligi.

SER(O)... II [*lot.* serum – zardob] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarning zardobga, qon zardobiga, seroz pardaga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **seralbumin, serokonversiya, serolog, seropnevmotoraks, seroprofilaktika, seroprognoz, seroreaksiya, serotip, serotonin, seroxrom; serodiagnostika** [sero...+ diagnostika] – qon guruhini aniqlash; immun zardoblar yordamida yuqumli kasalliklarni aniqlash; **seroimmunitet** [sero...+ immunitet] – immun zardob yuborish yo‘li bilan hosil bo‘lgan immunitet; **serologiya** [sero...+...logiya] – immunologiyaning qon zardobi xossalarini va immun zardobidan foydalanish usullarini o‘rganuvchi sohasi; **seroskopiya** [sero...+...skopiya] – qon zardobini diagnostik maqsadlarda tekshirish; **seroterapiya** [sero...+...terapiya] – yuqumli kasalliklarni emlangan hayvonlar qonidan tayyorlangan maxsus zardob bilan davolash; **seroz** [ser(o)...+...oz] – zardobga oid, zardobli, qon zardobiga o‘xshash yoki undan hosil bo‘ladigan (masalan, ***seroz suyuqlik, seroz parda***); **serozit** [seroz...+ ...it] – seroz pardaning yallig‘lanishi.

SERPENT... [*lot.* serpens – ilon] – o‘zlashma yasama so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, ilon, ilonga oid, ilonga o‘xshash kabi ma’nolarni ifodalaydi. Mas.: **serpent, serpentina, serpentinit; serpantin** [*fr.* serpentin < serpent...+

...in] – 1) rang-barang qog‘ozlardan tayyorlangan, bal, maskarad, karnaval ishtirokchilariga irg‘itiladigan, shuningdek, yangi yil archalarini bezatishda ishlatiladigan uzun ensiz lenta; 2) tog‘lardagi aylanma ilonizi yo‘l; **serpentariy** [serpent...+...ariy] – zahar olish maqsadida zaharli ilonlar saqlanadigan bino; ilonxona; **serpentin** [*ingl.* serpentine < serpent...+...in] – suvli magniy silikatdan tashkil topgan qat-qat silikatlar kichik sinfiga mansub mineral.

SERV... [*lot.* servio, servire – xizmat qilmoq (ko‘rsatmoq)] – o‘zlashma yasama so‘zlarning birinchi (o‘zak) qismi bo‘lib, xizmat qilish (ko‘rsatish), xizmat qiluvchi, xizmatkor ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **serjant, servant, servil, servitut; servilizm** [*lot.* servilis – qullarga xos, qullarcha +...izm] – malaylik, xizmatkorlik; laganbardorlik, tiz cho‘kib sajda qilish; **servis** [*ingl.* service – xizmat ko‘rsatish] – kundalik hayotning turli sohalarida – magazinlar, mehmonxonalar, yonilg‘i quyish shoxobchalari va shu kabilarda sifatli xizmat ko‘rsatish; **serviz** [*fr.* service – xizmat ko‘rsatish; oshxona asboblari] – ma’lum miqdordagi kishilarga mo‘ljallangan, bir xil nafis bezakli oshxona yoki choy (ichish) idishlarining to‘liq yig‘indisi (to‘plami).

SEYSMO... [*yun.* seismos – yer silkinishi, qimirlashi; zilzila] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarning yer qimirlashiga, yerosti silkinishlariga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **seysmesteziya, seysmobardoshlik, seysmogen, seysmogeologiya, seysmografiya, seysmolog, seysmometriya, seysmonastiyalar, seysmotektonika; seysmograf** [seysmo...+...graf] – zilzila yoki portlash paytida vujudga keladigan yer tebranishlari va silkinishlari (seysmik signallar) ni qayd qilish uchun mo‘ljallangan asbob; **seysmogramma** [seysmo...+...gramma] – zilzila yoki portlash natijasida yuzaga keladigan yer tebranishlari yoki silkinishlarining maxsus asbob – seysmograf yordamida qayd etilgan grafik tasviri; **seysmologiya** [seysmo...+...logiya] – geofizikaning zilzilalar, ularning sodir bo‘lish sabablari va oqibatlarini o‘rganadigan bo‘limi; **seysmometriya** [seysmo...+...metriya] – seysmologiyaning zilzila paytida grunt, bino va inshootlarning tebranishlarini yozib oluvchi asboblar va usullarni yaratish bilan shug‘ullanuvchi bo‘limi; **seysmoterapiya** [seysmo...+...terapiya] – kasalni mexanik tarzda tebrantirish (vibratsiya) bilan davolash.

SFEN(O)... [*yun.* sphen – pona] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, pona, ponasimon, ponaga o‘xshash ma’nolarini bildiradi. Mas.: **sfenoidal, sfenopalatal, sfenotreziya; sfenoidit** [sfen(o)...+...oid +...it] – ponasimon suyak (asos suyak) bo‘shlig‘ining yallig‘lanishi; **sfenoidotomiya**

[sfenoid(o)...+...tomiya] – ponasimon suyak bo‘shlig‘ini ochish, kesish operatsiyasi; **sfenokefaliya // sfenotsefaliya** [sfeno...+ *yun.* kephale – bosh, kalla] – rivojlanish nuqsoni: kallaning pona shaklda bo‘lishi (peshona qismi keng, orqa qismi tor bo‘lgan kalla).

SFER(O)... [*yun.* sphaira – shar] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning geometrik shakllar – sharga, sferaga o‘xshashligini, ularga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **sferitlar, sferofiza, sferoid, sferokonus, sferokristall, sferosiderit, sferotsit, sferotsitoz; sferolit** [sfero...+...lit] – 1) ignasimon kristallarning shar shaklidagi, radial-nursimon tuzilishli aralashmasi (magmatik va cho‘kindi tog‘ jinslari tarkibiga kiradi); 2) yangi tug‘ilgan bolalarning buyraklarida topilgan cho‘kma; **sferometr** [sfero...+...metr] – sharsimon yuza (optik linzalar) ning egrilik radiusini o‘lchaydigan asbob; **sferosomalar** [sfero...+ *yun.* soma – jism; gavda, tana] – mikrosomalar; tarkibida lipid va oqsillar bo‘lgan hujayra donachalari (granulalari).

...SFERA [*yun.* sphaira – shar] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, sharga, sferaga o‘xshashlik, sharsimon shakl, shuningdek, sirt, sath, yuza ma’nolarini bildiradi. Mas.: **astenosfera, ekzosfera, fotosfera, gemisfera, kriosfera, magnitosfera, noosfera, xromosfera; atmosfera** [atmo...+...sfera] – ayrim osmon jismlarining gazsimon qobig‘i; chunonchi, ***Yer atmosferasi*** – Yer atrofida u bilan birga aylanuvchi havo muhiti; asosan, azot, kisloroddan iborat; ***litosfera, troposfera, gidrosfera, ozonosfera, stratosfera, ionosfera, mezosfera, termosfera, gomosfera, geterosfera*** – Yer atmosferasining 0 dan 100 va undan ortiq kilometr balandlikkacha bo‘lgan qatlamlarining nomlari; **biosfera** [bio...+..sfera] – Yer sharida hayot tarqalgan hudud; atmosferaning litosfera, troposfera, gidrosfera qatlamlarini qamrab oladi; **psevdosfera** [psevdo...+...sfera] – traktrisa (egri chiziq) ning tekislik o‘qi atrofida aylanishidan hosil bo‘ladigan tekislik.

SFIGM(O)... [*yun.* sphygmos – puls, yurak urishi] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, tezlashgan puls, yurakning tez urishi ma’nolarini bildiradi. Mas.: **sfigmobolometriya, sfigmograf, sfigmoid, sfigmokardiograf, sfigmomanometriya, sfigmotonograf, sfigmoxronograf; sfigmografiya** [sfigmo...+...grafiya] – arteriya devorlari tebranishlari (puls) ni maxsus asbob – sfigmograf yordamida yozib olish; **sfigmogramma** [sfigmo…+…gramma] – sfigmograf yordamida yozib olingan puls chizig‘i; **sfigmodinamometr** [sfigmo…+ dinamo…+…metr] – puls kuchini aniqlay-

digan asbob; **sfigmomanometr** [sfigmo...+ manometr] – arterial qon bosimini o‘lchaydigan asbob; **sfigmometriya** [sfigmo...+...metriya] – tomir urishi (puls) ni o‘lchash; **sfigmoskop** [sfigmo…+…skop] – yurak qisqarishlari yoki pulsni ko‘rinuvchi signallar tarzida qayd qiluvchi asbob; **sfigmotonometr** [sfigmo…+ tono…+…metr] – arteriya qon tomirlari devorining elastikligini o‘lchaydigan asbob.

SFINKTER(O)... [*yun.* sphinkter – siquvchi, qisuvchi] – o‘zlashma yasama va qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning siqilish, siqish, qisilish ma’nolariga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **sfinkterektomiya, sfinkterit, sfinkterizm; sfinkter** [*yun.* sphinkter] – ovqat hazm qilish va siydik yo‘llarida hamda ko‘z qorachig‘ining atrofida joylashgan halqasimon mushaklar: ovqat va siydikning bir joydan ikkinchi joyga o‘tishini boshqarib turadi; **sfinkteroplastika** [sfinktero…+…plastika] – chandiqlanib, qisilib, torayib qolgan sfinkterni operatsiya usuli bilan normal holatga keltirish; **sfinkterotomiya** [sfinktero…+…tomiya] – torayib qolgan sfinkterni operatsiya yo‘li bilan kesib kengaytirish.

SFRAG... [*yun.* sphragis – muhr] – o‘zlashma yasama so‘zning tarkibiy qismi bo‘lib, muhr va tamg‘a ma’nolarini bildiradi. Mas.: **sfragistika** [sfrag...+ ...istika] – tarix fanining muhrlarni o‘rganadigan yordamchi sohasi; sigillografiya.

SIAL(O)... [*yun.* sialon – so‘lak] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, so‘lak, so‘lak bezi degan ma’nolarni anglatadi. Mas.: **sialadenotomiya, sialodoxit, sialostaz, sialotsele; sialadenit** [sial...+ aden...+...it] – so‘lak bezlarining yallig‘lanishi; **sialaerofagiya** [sial...+ aero...+...fagiya] – so‘lak va havo (gaz) yutish; **sialoduktit** [sialo...+ duk(t)...+...it] – so‘lak yo‘lining yallig‘lanishi; **sialografiya** [sialo...+...grafiya] – so‘lak bezlari va yo‘llarini kontrast moddalar yuborib, rentgen nurlari yordamida tekshirish; **sialolit** [sialo...+...lit] – so‘lak bezi yoki uning yo‘llari (naychalari) dagi tosh; **sialolitotomiya** [sialo…+ lito…+…tomiya] – so‘lak bezlari va yo‘llaridagi toshlarni jarrohlik yo‘li bilan olib tashlash; **sialoma** [sial(o)...+...oma] – so‘lak bezlari o‘smasi; **sialoreya** [sialo…+ …reya] – haddan tashqari ko‘p so‘lak ajralishi.

SIAN(O)... (tsiano...) [*yun.* kyanos – havorang, ko‘k, moviy] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, havorang, ko‘k rangli; sian (rangsiz, zaharli gaz) ma’nolarini bildiradi. Mas.: **sian, sianamin, sianat-**

lar, sianeyalar, siangemoglobin, sianinlar, siankobalaminlar, sianofil, sianoguruh, sianoz; sianidlar [sian(o)...+...id] – vodorod sianid kislota tuzlari; **sianobakteriyalar** [siano…+ bakteriya] – ko‘k-yashil suvo‘tlar; **sianoderma** [siano...+...derma] – terining ko‘k rangli bo‘lishi, ko‘karishi, ko‘karib turishi; **sianogidroz** [siano...+ gidroz] – ko‘k rangga bo‘yalgan ter chiqarish; terning ko‘k bo‘lib chiqishi; **sianopsiya** [sian...+...opsiya] – atrof-muhitning ko‘kimtir rangda ko‘rinishi.

...SID (...tsid) [*lot.* caedere – o‘ldirmoq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, o‘ldirish, qirish, yo‘q qilish, yo‘qotish; qarshi kurashish ma’nolarini bildiradi. Mas.: **akaritsidlar, arboritsidlar, bakteritsidlar, fungitsidlar, gerbitsidlar, nematotsidlar, pestitsidlar, sporitsidlar, vermitsidlar, zootsidlar; algitsidlar** [algi...+...sid] – sholipoyalar, baliqchilik hovuzlarida suvo‘tlarga qarshi kurashda qo‘llanadigan kimyoviy vositalar; **genotsid** [geno...+...sid] – irqiy, milliy yoki diniy vaj-bahonalar bilan ayrim aholi guruhlarini qirish, yoppasiga o‘ldirish; **insektitsidlar** [*lot.* insecta – hasharotlar +...sid] – zararkunanda hasharotlarga qarshi kurashda qo‘llanuvchi kimyoviy vositalar; **larvitsidlar** [*lot.* larva – lichinka, qurt +...sid] – bir qator hasharotlarning tuxumdan chiqqan qurtlarini yo‘qotish uchun qo‘llanadigan insektitsidlar; **suitsid** [*lot.* sui – o‘zini o‘zi +...sid] – o‘zini o‘zi o‘ldirish.

SIDER... I [*yun.* sideros – temir] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, temirga, temirli birikmalarga aloqadorlikni bildiradi. Mas.: **sideratsiya, sideroblast, siderodromofobiya, siderolit, sideropeniya, siderotsit; siderit** [*ingl.* siderite < sider...+...it] – temir shpati – kulrang-qo‘ng‘ir rangli temir karbonatdan iborat mineral; **sideroderma** [sider(o)...+...derma] – temir almashinuvining buzilishi natijasida terining bronza rangga kirishi; **siderofil** [sider(o)…+…fil]: ***siderofil elementlar*** – temirni yutish (singdirish) ga moyil elementlar; **sideroz** [sider...+...oz] – temir oksid changlarining o‘pkaga ta’siridan kelib chiqadigan kasb kasalligi.

SIDER... II [*lot.* sidus (sideris) – yulduz, osmon yoritqichi; yulduzlar turkumi] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning yulduzga, osmon yoritqichlariga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **siderik oy** [sider...+...ik – sifat yasovchi qo‘shimcha] – Oyning osmonda to‘liq aylanib, yana tegishli yulduzlarga qaytib kelgunicha o‘tgan vaqt oralig‘i; **siderik yil** – Yerning Quyosh atrofida to‘liq aylanish davri; **siderostat** [sider(o)...+...stat] – joyi o‘zgarib turadigan yassi ko‘zguli yordamchi astronomik asbob.

SIGN... [*lot.* signum – belgi] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, belgi ma’nosini ifodalaydi. Mas.: **signal, signifika, signifikat; signalizatsiya** [*fr.* signalisation – belgini masofaga uzatish < *lot.* sugnalis – belgi bo‘lib xizmat qiluvchi +...izatsiya] – signallar sistemasi hamda signal beruvchi asbob va moslamalar; **signalogramma** [signal(o)...+...gramma] – signallar yozilgan axborot uzatish-saqlash vositalari (masalan, kompakt-disk, magnit lenta, disketa va boshqalar); **signatura** [*fr.* signature – imzo, yorliq < *lot.* signare – belgilamoq, ko‘rsatmoq] – 1) retseptning dorini qo‘llash usuli ko‘rsatilgan qismi va doriga qo‘shib beriladigan vrach retseptining nusxasi (yorliq); 2) kitoblarda har bir bosma taboqning arabcha raqamlar bilan belgilangan tartib raqami.

SIKK... [*lot.* siccus – quruq, qurigan] – o‘zlashma yasama so‘zning tarkibiy qismi bo‘lib, qurish; quritilgan, qoq ma’nolarini bildiradi. Mas.: **sikkativ** [*lot*. siccativus – quritadigan] – lok-bo‘yoqlarni tez quritadigan modda.

SIKL(O)... (tsiklo...) [*yun.* kyklos – doira, aylana] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning doira, aylana, doirasimon, halqasimon; muntazam takrorlanish; ko‘z soqqasi, kiprik ma’nolariga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **sikloalkanlar, siklodializ, siklofazotron, siklogeksan, siklogramma, siklop(lar), siklоplegiya, siklosomiya, siklotimiya; sikl** [*yun.* kyklos – doira, aylana; g‘ildirak] – 1) davra; ma’lum davr ichida takrorlanib turadigan ish, hodisa, jarayon va shu kabilar majmuyi; 2) muayyan bilim sohalari, o‘quv fanlari guruhi; 3) mazmunan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan, mas., qahramonlari yoki tasvirlangan muhiti bir bo‘lgan badiiy asarlar; turkum; 4) yopiq uglerod zanjiriga ega bo‘lgan organik birikma; **siklit** [sikl...+ ...it] – silindr tananing yallig‘lanishi; **siklofreniya** [siklo...+ *yun.* phren – yurak, qalb; aql, idrok] – psixoz (ruhiy kasallik) larning bir turi – asosan, emotsional beqarorlik, ruhiy holatning o‘zgarishlari va qaytalanishga moyillik bilan namoyon bo‘ladi; **siklogenez** [siklo...+...genez] – siklonning paydo bo‘lishi va rivojlanishi; **siklografiya** [siklo...+...grafiya] – inson harakati faza (bosqich) larini tananing harakatlanuvchi turli qismlariga mahkamlangan nurlanuvchi nishon va lampochkalarni suratga olish yo‘li bilan qayd etish; **siklogramma** [siklo...+...gramma] – obyektning alohida qismi harakatlanish sxemasini aks ettiruvchi tasvirlar turkumi; **siklon** [*yun.* kyklon – aylanuvchi] – 1) atmosfera girdobi; 2) havoni yoki gazni markazdan qochma kuch ta’sirida har xil qattiq jismlardan tozalaydigan apparat; **siklopiya** [sikl(o)...+...opiya] – embrional o‘sish davrida yuz va ko‘zning noto‘g‘ri rivojlanishi natijasida yakka ko‘z bilan tug‘ilish; bir ko‘z bilan tug‘ilgan bola; **siklotimiya** [siklo...+ *yun.* thymos – jon,

ruh] – ruhiy kasallik: maniakal-depressiv psixozning yengil shakli, koʻrinishi; **siklotron** [siklo...+...tron] – yadro tadqiqotlarida: zaryadlangan mikrozarralar (protonlar, ionlar) ni tezlatadigan qurilma.

SILIK... [*lot.* silex, silicis – chaqmoqtosh; kremniy] – oʻzlashma yasama soʻzlarning tarkibiy qismi boʻlib, shu soʻzlarning kremniyga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **silikatizatsiya, silikonlar, silitsidlar, silitsitlar, silitsiy = kremniy, siluminlar, silxrom; silikagel** [silik(a)...+ *lot.* gelu – sovuq, muz] – polisilikat kislota gelini (iviq choʻkmasini) qizdirib olinadigan mikrogʻovak jism; **silikatlar** [silik...+...at] – silikat kislotaning tuzlari; jins hosil qiluvchi eng muhim minerallar; **silikatoz** [silikat...+...oz] – nafas yoʻllarining silikatli changlar ta'siridan kelib chiqadigan kasb kasalliklari; **silikotermiya** [silik(o)...+ *yun.* therme – issiqlik] – kremniyning yoki kremniyga boy boʻlgan ferrosilitsiyning qaytaruvchi ta'siri bilan oksidlardan metallar va qotishmalar olish (bu jarayonda koʻp miqdorda issiqlik ajraladi); **silikotuberkulyoz** [siliko...+ tuberkulyoz] – silikoz bilan ogʻrigan kishilardagi ogʻirlashgan tuberkulyoz kasalligi; **silikozlar** [silik...+...oz] – nafas yoʻllari va oʻpkaga koʻmir changi, qum-tuproq, kvars changlari tushishi (yutilishi) oqibatida kelib chiqadigan kasb kasalliklari; **silitsium** [*lot.* Silicium] – kremniyning kimyoviy formulalarni oʻqish paytida aytiladigan nomi; **siloksanlar** [sil(ik)...+ oks(o)...+...an – yasovchi qoʻshimcha] – molekulasida oʻzaro almashinuvchi kremniy va kislorod atomlari boʻlgan birikmalar; **siloksid** [sil(ik)...+ *yun.* oxys – nordon] – laboratoriya idishlari tayyorlash uchun ishlatiladigan kvarsli shisha turi.

SILLAB... [*yun.* syllabe – boʻgʻin] – oʻzlashma yasama soʻzlarning tarkibiy qismi boʻlib, boʻgʻinga aloqadorlikni anglatadi. Mas.: **sillabema** [sillab...+ ...ema] – 1) sillabik yozuv belgisi; 2) ma'no farqlovchi birlik sifatida qoʻllangan boʻgʻin; **sillabik** [*yun.* syllabikos – boʻgʻinga oid]: ***sillabik yozuv*** – fonetik yozuvning bir turi boʻlib, bunda undosh va unlilar izchilligi bir belgi bilan ifodalanadi; ***sillabik she'r*** – har satrda boʻgʻinlar soni teng boʻlishiga asoslangan she'r tizimi.

SIM... *q*. **SIN...**

SIMIL... [*lot.* similis – oʻxshash < simulare – oʻxshatmoq, taqlid qilmoq; oʻzini biror holatga solmoq] – oʻzlashma yasama soʻzlarning tarkibiy (oʻzak) qismi boʻlib, oʻxshatish, taqlid qilish, mugʻombirlik kabi ma'nolarni bildiradi. Mas.: **simulyant; simulyatsiya** [*lot.* simulatio – mugʻombirlik] – oʻzini

yolg‘ondan biror ko‘yga solish, mug‘ombirlik qilish (mas., sog‘lom kishining o‘zini kasal, bemor qilib ko‘rsatishi).

SIMPATIKO..., SIMPAT(O)... [*yun.* sympathies – sezgir, sezuvchan; ta’sirga beriluvchan] – o‘zlashma yasama va qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, vegetativ nerv sistemasining simpatik qismi degan ma’noni bildiradi. Mas.: **simpatikoblast, simpatikotoniya, simpatin, simpatizm, simpatogonioma, simpatolitiklar, simpatomimetiklar; simpatalgiya** [simpat…+…algiya] – vegetativ nerv sistemasining simpatik qismi shikastlanishining belgilari: kuchli, achituvchi og‘riqlar va to‘qimalarning trofik tuzilishlari bilan ifodalanadi; **simpatektomiya** [simpat…+…ektomiya] – vegetativ nerv sistemasining simpatik qismida qanday bo‘lmasin nerv elementini kesib olib tashlash operatsiyasi; **simpatikoblastoma // simpatoblastoma** [simpatiko…+ blast(o)…+…oma] – yetilmagan yosh simpatik nerv hujayralaridan o‘sib chiqqan xavfli o‘sma; **simpatikotomiya** [simpatiko…+…tomiya] – simpatik ustunni kesish operatsiyasi.

SIN..., SIM... [*yun., lot.* syn – birga] – old qo‘shimcha; o‘zlashma yasama so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, birga, birgalikda ma’nolarini anglatadi. Mas.: **sinalgiya, sindesmologiya, sindrom, sineklaza, sinergetika, sinergizm, sinesteziya, singamlar, singenetik** (konlar)**, singoniya, sinkineziya, sinkretizm, sinonimiya, sinonimlar, sinoptik, sinorxizm, sinotiya, sinsitiy, sinxrofazotron, sinxronizm, sinxrotron, sinxrotsiklotron; simbiogenez, simbiont, simfiz, simfonika, simfoniya, simfonizm, simmetriya, simpatiya, simpatrik; sinantroplar** [sin…+…antrop] – hayoti odam, uning turarjoyi yoki u yaratgan landshaft bilan bog‘liq bo‘lgan o‘simlik va hayvonlar (uy sichqonlari, kulrang kalamush, to‘shak qandalasi, suvaraklar); **sinartroz** [sin…+ artroz] – bo‘g‘im boshlarining biriktiruvchi to‘qima, tog‘ay yoki suyak to‘qimasi yordamida bir-biri bilan birikib ketishi va shu bo‘g‘imda harakatlarning kamayishi yoki yo‘qolishi; **sindaktiliya** [sin...+ *yun.* daktylos – barmoq] – embrional rivojlanish nuqsoni: qo‘l yoki oyoqdagi barmoqlarning (masalan, o‘rta barmoq bilan ko‘rsatkich barmoqning) o‘zaro to‘liq yoki qisman qo‘shilib (birlashib) o‘sishi; **sindesmoz** [sin…+ desmo…+…oz] – suyaklarning o‘zaro bir-biri bilan biriktiruvchi to‘qima yordamida kamharakatli birikuvi; **sinekologiya** [sin…+ ekologiya] – ekologiyaning hayvonlar, o‘simliklar, mikroorganizmlarning har xil turlarini hamda ularning yashash muhiti bilan o‘zaro munosabatlarini qamrab oluvchi to‘da (turkum) lar hayotini o‘rganuvchi bo‘limi; **singamiya** [sin…+…gamiya] – urug‘lanish; yetilgan erkak va urg‘ochi jinsiy hujayralar (gametalar) ning qo‘shilishi va natijada zigota hosil bo‘li-

shi; **singarmonizm** [sin...+ *yun.* harmonia – ohangdoshlik, uyg‘unlik +...izm] – unlilar ohangdoshligi; so‘zning unlilar (ba’zan undoshlar) tarkibi bo‘yicha bir xil shakllanishi; **sinoptika** [*yun.* synoptikos – barcha narsani baravariga kuzata, ko‘ra oluvchi] – meteorologiyaning sinoptik xaritalar asosida obhavoni oldindan aytib berish maqsadida atmosferadagi keng ko‘lamli fizikaviy jarayonlarni o‘rganuvchi bo‘limi; **sinostoz** [sin...+ *yun.* osteon – suyak + ...oz] – sinartroz turlaridan biri – suyaklarning suyak to‘qimasi orqali o‘zaro qo‘shilib ketishi; **sinxeyliya** [sin…+ xeyl(o)…+…iya] – lablarning tug‘ilishdan birlashgan (bir-biriga yopishgan) bo‘lishi; **sinxondroz** [sin…+ xondr(o)…+ …oz] – suyaklarning tog‘ay to‘qimasi vositasida bir-biri bilan tutashib birlashishi; **sinxroniya** [sin...+ *yun.* chronos – vaqt, davr] – 1) bir yoki bir necha hodisa yoki jarayonlarning bir vaqtda va o‘zaro mos ravishda sodir bo‘lishi; 2) til hodisalarining muayyan bir tarixiy taraqqiyot bosqichida mavjudligi va o‘zaro bog‘langanligi; **sinzooxoriya** [sin…+ zooxoriya] – o‘simliklarning meva va urug‘larini zaxira qilish uchun boshqa, yangi joylarga olib borishi natijasida hayvonlarning ularni boshqa hududlarga tarqatishi; **simbioz** [*yun.* symbiosis – birga yashash < sin...+...bioz] – har xil turga mansub ikki organizmning uzoq vaqt birgalikda hayot kechirishi; **simmaxiya** [*yun.* summachia – harbiy ittifoq < sin…+ machomai – jang qilaman, urushaman] – qadimgi Yunonistonda alohida shahar-davlatlar o‘rtasidagi harbiy ittifoq; **simplast** [sim...+ *yun.* plastos – yasalgan, yasama] – hayvon va o‘simliklarda hujayralari o‘rtasida muayyan chegara bo‘lmagan to‘qima turi.

SIN(O)... [*lot.* Sina – Xitoy] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning Xitoy – Chin mamlakatiga, xitoyliklarga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **sinologiya; sinantroplar** [sin...+...antrop] – qazilma odamlarning eng qadimgi, pitekantropga yaqin turi; ilk bor Xitoyda, Pekin yaqinidan topilganligi sababli shunday nomlangan; **sinolog** [sino...+...log] – xitoyshunoslik (sinologiya) mutaxassisi.

SIRK(UM)... (tsircum...) [*lot.* circus – aylana, doira; circum – tevarak-atrof] – o‘zlashma yasama, qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, aylana, doira; biror narsaning atrofida, yaqinida kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **sirk, sirkorama, sirkulyator, sirkumantarktik, sirkumduksiya, sirkumpolyar, sirkumsiziya, sirkumtropik; sirkul** [*lot.* circulus – aylana, halqa] – aylanalar chizish, kesmalarni o‘lchash kabi ishlarda qo‘llanadigan asbob; **sirkulyar** [*nem.* Zirkular < *lot.* circularis – aylanma, aylanib yuradigan] – idoraviy bo‘ysunishdagi muassasalarga yoki tobe mansabdor shaxslarga tarqatiladigan (yuboriladigan) yozma farmoyish; **sirkulyatsiya** [*lot.* circula-

tio < sirkul...+...atsiya] – 1) doira bo‘ylab aylanish, aylanma harakat, aylanib turish; aylanib dastlabki joyiga qaytib kelish (masalan, qon sirkulyatsiyasi); 2) suyuqlik yoki gazning yopiq (aylanma) oqimi; **sirkumarktik** [sirkum...+ Arktika]: ***sirkumarktik organizmlar*** – yashash mintaqasi Yer sharining shimoliy qutb zonasini halqa bo‘lib qamrab oluvchi o‘simliklar va hayvonlar.

SIST(O)... (tsisto...) [*yun.* kystis – siydik pufagi, qovuq] – o‘zlashma qo‘shma, yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning pufakka, pufaksimon narsaga, siydik pufagiga, qovuqqa aloqadorligini ko‘rsatadi [Ushbu terminelementning ikki xil o‘qilishidan ba’zan uning **kist(o)...** varianti ham parallel qo‘llanadi; *q.* **kist(o)...**]. Mas.: **sistadenokarsinoma, sistadenoma, sistationin, sistektaziya, sistektomiya, sistein, sisterna, sistin, sistinoz, sistinuriya, sistitserkoid, sistitserkozlar, sistofibroma, sistoidealar, sistokarsinoma, sistokoloplastika, sistoma, sistomiksoadenoma, sistonevralgiya, sistopeksiya, sistoprostatografiya, sistoprostatovezikoektomiya, sistorafiya, sistosarkoma, sistoskop, sistostatik** (vositalar)**, sistotsele; sista** [*lot.* cista < *yun.* kystis – pufak] – ko‘plab bir hujayrali o‘simliklar va umurtqasiz hayvonlarning vaqtinchalik yashash shakli, shuningdek, ularning bir necha yil noqulay tashqi sharoitlarda yashashi mumkin bo‘lgan qattiq himoya qobig‘i; **sistalgiya** [sist...+...algiya] – qovuqda aniq kasallik alomatlari bo‘lmagani holda tez-tez qiynalib og‘riq bilan siyish; **sistit** [sist...+ ...it] – siydik pufagi (qovuq) ning yallig‘lanishi; **sistografiya** [sisto...+...grafiya] – qovuqning turli kasalliklarida paydo bo‘ladigan o‘zgarishlarni unga toza havo, kislorod yoki kontrast moddalar yuborib, rentgenologik tekshirish usuli; **sistolitiaz** [sisto...+ lit...+...iaz] – qovuqda toshlar paydo bo‘lishi; **sistometriya** [sisto…+…metriya] – hujayralar sonini aniqlash, hujayra va uning yadrosi hajmini o‘lchash usullarining yig‘indisi; **sistopiyelit** [sisto…+ piyel(o)…+…it] – qovuq va buyrak jomlarining bir vaqtda yallig‘lanishi; **sistoplegiya** [sisto…+…plegiya] – qovuqning falajlanishi; **sistoskopiya** [sisto...+ ...skopiya] – sistoskop yordamida qovuqni tekshirish; **sistospazm** [sisto…+ …spazm] – siydik pufagi silliq mushaklarining spazmi; **sistostomiya** [sisto...+...stomiya] – qovuqda sun’iy teshik ochish; **sistouretrografiya** [sisto…+ uretro…+…grafiya] – qovuqqa va siydik chiqarish yo‘liga kontrast modda to‘latib, bir vaqtda rentgenologik tekshirish.

SIT(O)..., ...SIT (tsito...) [*yun.* kytos – idish; ombor; hujayra] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi va ikkinchi tarkibiy qismlari bo‘lib, shu so‘zlarning hayvon va o‘simliklar hujayralariga (jonli hujayralarga) aloqadorligini ko‘rsatadi: I. Qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi sifatida. Mas.: **sitidin, si-**

toarxitektonika, sitobiologiya, sitodiagnostika, sitofotometriya, sitokinez, sitolimfa, sitomegaliya, sitomegalovirus, sitomembrana, sitometaplaziya, sitomorfologiya, sitopeniya, sitosporoz, sitostatiklar, sitotoksin, sitotrofoblast, sitoxromlar, sitoxromoksidaza, sitoxromreduktazalar, sitoz, sitozin; sitoblastoma [sito…+ blasto…+…oma] – kelib chiqishi noma'lum yetilmagan hujayralardan tuzilgan o'smalarning nomi; **sitofiziologiya** [sito…+ fiziologiya] – sitologiyaning hujayralar va ularning komponentlarida kechadigan fiziologik jarayonlarni o'rganadigan bo'limi; **sitogenetika** [sito...+ genetika] – genetikaning irsiyat va o'zgaruvchanlik qonuniyatlarini hujayra va subhujayra doirasida o'rganuvchi sohasi; **sitogenez** [sito...+...genez] – hujayralarning paydo bo'lishi va taraqqiyoti; **sitokimyo** [sito...+ kimyo] – sitologiyaning hujayra tuzilmalarining kimyoviy tarkibi, hujayrada kimyoviy birikmalarning sintezlanishi, taqsimlanishi va faolligini, o'zgarishlarini o'rganuvchi bo'limi; **sitoliz** [sito...+...liz] – hayvon va o'simlik hujayrasining butunlay yoki qisman erishi natijasida hujayraning yemirilishi; **sitolizin** [sito…+ liz…+ …in] – organizmdagi yog' hujayralarini erituvchi modda; **sitologiya** [sito...+ ...logiya] – hujayralarning tuzilishi va funksiyasini, ko'p hujayrali, shuningdek, bir hujayrali organizmlardagi a'zo va to'qimalarning o'zaro bog'lanishi va munosabatlarini o'rganadigan fan; **sitometriya** [sito…+…metriya] – hujayralar sonini aniqlash, hujayra va uning yadrosi hajmini o'lchash usullarining yig'indisi; **sitopatologiya** [sito…+ patologiya] – hujayralar patologiyasi: 1) hujayralarda yuzaga keladigan turli patologik jarayonlarni o'rganish; 2) patologiya fanining hujayralardagi patologik o'zgarishlarni o'rganuvchi bo'limi; **sitoplazma** [sito...+...plazma] – hujayraning yadro bilan plazmatik membrana oralig'ida joylashgan asosiy tarkibiy qismi; **sitotomiya** [sito...+ ...tomiya] – hujayralarning yadroviy bo'linishidagi oxirgi qismi; bunda ona hujayra ikkita qizlik hujayraga bo'linadi va ular o'rtasida to'siq paydo bo'ladi. II. Qo'shma so'zlarning ikkinchi qismi sifatida. Mas.: **eritrotsitlar**, **fagotsitlar, fibrotsitlar, gametotsitlar, gangliotsitlar, gistiotsitlar, granulotsitlar, iridotsitlar, leykotsitlar, limfotsitlar, melanotsitlar, mikrotsitlar, mukotsitlar, nematotsitlar, neyrotsitlar, ootsitlar, plazmotsitlar, spermatotsitlar, trofotsitlar, trombotsitlar, xondrotsitlar, xromotsitlar; astrotsitlar** [astro...+...sit] – markaziy nerv sistemasida joylashgan, yulduzsimon, uzun tolali yoki plazmatik hujayralar; **gonotsit** [gono...+...sit] – dastlabki jinsiy hujayra; **miotsitlar** [mio...+...sit] – odam va hayvonlar miokardining oraliq to'qimasida har xil miqdorda doim bo'ladigan bir yadroli hujayralar; **miyelotsitlar** [miyelo...+...sit] – ilik (ko'mik) hujayralari bo'lib, ulardan donador leykotsitlar – granulotsitlarning barcha turlari hosil bo'ladi; **megalotsitlar** [megalo…+ …sit] – bir tekis, to'q bo'lgan anomal katta eritrotsitlar; **monotsitlar** [mono...+

...sit] – leykotsitlarning fagotsitoz xususiyatiga ega bo‘lgan bir turi; **osteotsitlar** [osteo...+...sit] – umurtqali hayvonlar va odam suyak to‘qimasining osteoblastlardan hosil bo‘ladigan hujayralari; **planotsitlar** [plano…+…sit] – normal eritrotsitga qaraganda yassiroq hujayralar; **splenotsitlar** [spleno…+ …sit] –taloq pulpasigadi yadrosi uzunchoq, protoplazmasi kulrang bo‘yaladigan sinusoidal hujayralar.

SITR... (tsitr...) [*lot.* citrus – sitrus (limon) daraxti] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, shu so‘zlarning limonga, umuman, sitrus o‘simliklariga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **sitramon, sitrin, sitron, sitrovanilin; sitral** [*ingl.* citral < *lot.* citrus] – limon hidli sarg‘ish suyuqlik – limon va boshqa efir moylarining muhim tarkibiy qismi; **sitratlar** [sitr...+...at] – limon (sitrat) kislotaning tuzlari va efirlari; **sitrus** [*lot.* citrus] – rutadoshlar oilasiga mansub, ko‘p turlari yovvoyi tabiatda uchramaydigan daraxt va butalar turi.

SIV... (tsiv...) [*lot.* civis – fuqaro, grajdan] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, shu so‘zlarning fuqarolik, davlat, siyosat ma’nolariga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **sivil, sivilist, sivilizator; sivilistika** [*lot.* civilis +...istika] – fuqarolik huquqi haqidagi fan; **sivilizatsiya** [*lot.* civilis – fuqarolik, davlat, siyosatga oid +...izatsiya] – tamaddun: 1) ijtimoiy taraqqiyot, moddiy va ma’naviy madaniyat darajasi, bosqichi; 2) zamonaviy jahon madaniyati.

SKAF..., ...SKAF [*yun.* skaphe – qayiq; tog‘ora] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi va ikkinchi tarkibiy qismlari bo‘lib, qayiqqa o‘xshashlikni, qayiqqa oidlikni bildiradi. Mas.: **skafandr** [*fr.* scaphandre < skaf...+ *yun.* andros – odam] – odamning chuqur suv ostida, o‘ta balandlikda, kosmosda ishlashi uchun mo‘ljallangan germetik moslama (kostyum); **skafoidit** [skaf…+ …oid +…it] – qayiqsimon suyaklarning yallig‘lanishi; **skafokefaliya // skafotsefaliya** [skafo...+...kefaliya] – shaklan qayiqqa o‘xshaydigan kalla; **batiskaf** [bati...+...skaf] – chuqur suvosti tadqiqotlari uchun mo‘ljallangan o‘ziyurar apparat; **piroskaf** [piro…+…skaf] – kema (paroxod) ning eski nomi.

SKAT(O)... [*yun.* skor, skatos – axlat, najas] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, najas, axlat, fekal modda ma’nolarini bildiradi. Mas.: **skatakratiya, skatemiya, skatofagiya; skatol** [skato...+...ol] – oqsillar chiriganda, ularning yo‘g‘on ichakda parchalanishida tarqaladigan yoqimsiz (najas) hidli organik birikma; **skatologiya** [skato...+...logiya] – 1) najas, axlat-

ni tekshirish, o‘rganish; 2) najaslanish, ichni bo‘shatish bilan bog‘liq adabiyot va latifalar hamda ularga qiziqish; **skatoskopiya** [skato...+...skopiya] – najas, axlatni mikroskopda tekshirish, ko‘zdan kechirish.

SKIA... [*yun.* skia – o‘lik sharpasi, arvoh] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, sharpa, arvoh; soya, ko‘lanka kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **skiagramma, skiametriya, skiaskop, skiatron; skiagrafiya** [skia...+ ...grafiya] – *ayn.* **rentgenografiya; skialogiya** [skia...+...logiya] – rentgenologiyaning bir bo‘limi: rentgen nurlari ta’sirida ekran yoki plyonkaga odam a’zolarining soyasi tushiriladi va ana shu soyalarning holati, shakli, hajmi va qaysi kasallik uchun taalluqli ekanligi o‘rganiladi; **skiaskopiya** [skia...+ ...skopiya] – soya tushirish yo‘li bilan ko‘z refraksiyasini aniqlash; bu jarayon oftalmoskop yoki skiaskop yordamida bajariladi.

SKLERO... [*yun.* skleros – qattiq, berch] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarning qotish, qattiqlashish, zichlashish; ko‘zning oqi ma’nolari bilan aloqadorligini bildiradi. Mas.: **sklera, skleral, sklerederma, skelereidlar, sklerektomiya, sklerenxima, sklerifikatsiya, sklerofitlar, skleroftalmiya, sklerogen, skleromalyatsiya, sklerometriya, skleroplastika, skleroproteinlar, sklerostenoz, sklerotikopunktura, sklerotiniozlar, sklerotiniya, sklerotsiy; skleradenit** [skler(o)...+ adenit] – limfa bezlarining qattiqlashib yallig‘lanishi; **sklerektaziya** [skler(o)...+...ektaziya] – ko‘z oqining cho‘zilib, do‘ppayib chiqishi; **sklerit** [skler(a)...+...it] – ko‘z oqining qattiqlashib yallig‘lanishi; **sklerodermiya** [sklero...+...dermiya] – terining biriktiruvchi to‘qimalari va ichki a’zolarning taxtadek qotib qolishidan iborat kasallik; **sklerokeratit** [sklero...+ keratit] – ko‘z oqi va muguz pardalarining yallig‘lanishi; **skleroma** [skler(o)...+...oma] – badandagi biror qismning qattiqlashib, bezdek bo‘lib qolishidan iborat surunkali yuqumli kasallik; **sklerometr** [sklero...+...metr] – turli materiallarning qattiqligini tirnalish yoki bosilishga nisbatan chidamliligi bo‘yicha aniqlovchi asbob; **skleroskop** [sklero...+...skop] – metall va boshqa materiallarning qattiqligini o‘lchash uchun mo‘ljallangan asbob; **sklerotom** [sklero...+...tom] – ko‘z oqini kesib qilinadigan operatsiyada (sklerotomiyada) ishlatiladigan jarrohlik asbobi; **sklerotomiya** [sklero...+ ...tomiya] – glaukoma bilan og‘rigan kasallarda ko‘z oqining ozgina qismini olib tashlash operatsiyasi; **skleroz** [skler(o)...+...oz] – turli sabablarga ko‘ra to‘qima, a’zolarda yetilgan biriktiruvchi to‘qimaning o‘sib ketishi va natijada a’zo, to‘qimaning qattiqlashib burushib qolishi.

...SKOP, ...SKOPIYA [*yun.* skopeo – koʻraman, qarayman, kuzataman] – oʻzlashma qoʻshma soʻzlarning ikkinchi tarkibiy qismlari boʻlib, bulardan **-skop** terminelementi oʻzidan oldingi soʻzga qoʻshilib, kuzatish, vizual oʻrganish uchun moʻljallangan asbob, moslama, apparat ma'nolarini anglatadi. Lugʻatlarda ushbu terminelement bilan yasalgan 40 dan ortiq asbob nomi berilgan boʻlib, ularning yarmidan koʻprogʻi tibbiyot sohasida qoʻllanadigan asboblardir. -**skopiya** terminelementi esa biror narsani, tana a'zosini kuzatish, vizual oʻrganish, koʻrib tekshirish usullari nomlarini bildiradi. Mas.: **daktiloskop, diaskop, fonendoskop, galvanoskop, goroskop, kranioskop, laparoskop, otoskop, ovoskop, periskop, rektoskop, rinoskop, stetoskop, torakoskop; bronxoskopiya, defektoskopiya, gastroskopiya, keratoskopiya, oftalmoskopiya, rektoskopiya, skatoskopiya, skiaskopiya, somatoskopiya, spektroskopiya; bronxoskop** [bronxo...+...skop] – kekirdak va bronxlar ichki yuzasini vizual tekshirish uchun moʻljallangan asbob; **defektoskop** [*lot.* defectus – nuqson, kamchilik +...skop] – turli materiallar yoki buyumlardagi nuqson (defekt) larni aniqlash, tekshirish uchun ishlatiladigan asbob; **enteroskop** [entero...+...skop] – ingichka ichak boʻshligʻini tekshirish uchun ishlatiladigan optik asbob; **filmoskop** [film(o)...+...skop] – diafilmlar koʻrish uchun moʻljallangan asbob boʻlib, u kadrdagi tasvirni oq ekran yoki devorda aks ettiradi; **gastroskop** [gastro...+...skop] – oshqozon (me'da) ga ogʻiz va qizilo'ngach orqali kiritiladigan, optik va yoritish sistemalari bilan ta'minlangan, oshqozonning ichki yuzasini tekshiradigan naysimon asbob; **mikroskop** [mikro...+...skop] – oddiy koʻz bilan koʻrib boʻlmaydigan narsa-buyumlarni kattalashtirilgan holda koʻrib tekshirishga moʻljallangan optik asbob; **daktiloskopiya** [daktilo...+...skopiya] – kriminalistikaning jinoyatchini aniqlash, qayd etish va qidirish uchun qoʻl barmoqlari uchidagi teri izlari tuzilishini oʻrganadigan boʻlimi; **endoskopiya** [endo...+...skopiya] – kovak, ichi boʻsh, naysimon a'zolar (me'da, toʻgʻri ichak, qovuq, bronxlar va boshqalar) ni trubka, nayga oʻxshash optik asboblar yordamida koʻrib tekshirish usuli (qaysi a'zo tekshirilishiga qarab *bronxoskopiya, gastroskopiya, kolonoskopiya, sistoskopiya* va boshqa usullar farqlanadi); **kranioskopiya** [krani(o)...+...skopiya] – bosh (kalla) suyagini vizual oʻrganish, tekshirish; **laparoskopiya** [laparo...+...skopiya] – qorin boʻshligʻini endoskop bilan tekshirish; **torakoskopiya** [torako...+...skopiya] – plevra boʻshligʻini oʻrganish maqsadida uni maxsus optik asbob – torakoskop bilan koʻrib tekshirish.

SKOT(O)... [*yun.* skotos – qorongʻilik] – oʻzlashma qoʻshma soʻzlarning tarkibiy qismi boʻlib, qorongʻi, qorongʻilik ma'nolarini bildiradi. Mas.: **skotodiniya, skotometr, skotoskop, skotoskopiya; skotofiliya** [skoto...+...filiya]

– qorong‘ilikni sevish, yoqtirish; **skotofobiya** [skoto...+...fobiya] – qorong‘i (lik)dan qo‘rqish; **skotoma** [skot(o)...+...oma] – ko‘zning ko‘ruv maydonidagi chegaralangan xira dog‘lar (nuqsonlar); **skotometriya** [skoto...+...metriya] – ko‘zning ko‘ruv maydonidagi dog‘ni aniqlash usuli; **skotopiya** [skot(o)...+ ...opiya] – ko‘zning qorong‘ilikka moslashishi.

SOF... [*yun.* sophia – donolik; sophos – dono, donishmand] – o‘zlashma yasama so‘zlarning o‘zak qismi bo‘lib, donolik, donishmandlik; mug‘ombirlik, ayyorlik kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **sofist**(**lar**)**; sofistika** [*yun.* sophistike – munozarani ayyorlik bilan olib borish; uning yo‘nalishini o‘zgartirib yuborish mahorati] – mantiq qonunlarini atayin buzib, yolg‘on dalillarga asoslangan holda muhokama, munozara qilish; **sofizm** [*yun.* sophisma – ayyorlik; yolg‘on xulosa (chiqarish)] – rasman to‘g‘riga, haqiqatga o‘xshagan bo‘lsa-da, yolg‘on dalillarga asoslanib chiqarilgan xulosa.

SOL... I [*lot.* solus – bir] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, bir, yagona, yolg‘iz ma’nolarini bildiradi. Mas.: **solitarizm, solityor, solo-veksel; solipsizm** [sol(i)...+ *lot.* ipse – o‘zi, o‘zim +...izm] – 1) voqelikda faqat inson va uning ongi mavjud, obyektiv dunyo va boshqa odamlar shu individning ongidagina mavjuddir, deb hisoblovchi falsafiy nazariya; 2) etikada: o‘ta xudbinlik, egotsentrizm ma’nosida ishlatiladi; **solist** [sol...+...ist] – biror asarning bir qismini (partiya, ariya) yoki butun asarni yakka ijro etuvchi (yakkaxon) sozanda yoki xonanda; **solo** [*ital.* solo – yakka, yolg‘iz < *lot.* solus] – 1) bir sozanda yoki xonanda ijrosi uchun yozilgan musiqiy asar yoki uning bir qismi; 2) musiqiy yoki vokal asarning, raqsning bir kishi tomonidan ijro etilishi.

SOL... II [*lot.* sol – quyosh, quyosh nuri] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, quyosh, quyoshga doir ma’nolarini bildiradi. Mas.: **solyarizatsiya; sollyuks** [sol…+ *lot.* lux – nur, yog‘du] – issiqlik-nur bilan davolash uchun mo‘ljallangan, reflektorli (qaytaruvchi-akslantiruvchili) kuchli qizdirish lampasi; **solyarigraf** [*lot.* solaris – quyoshli +...graf] – Quyosh radiatsiyasini qayd qilib boradigan asbob; **solyariy** [*lot.* solarium – uyning janub tomonidagi yassi tom < sol] – bemorlar quyosh nurida toblanadigan, quyosh vannasini qabul qiladigan, maxsus jihozlangan ochiq maydoncha yoki bino.

SOM(AT)... [*yun.* soma (somatos) – tana, gavda] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, tanaga, gavdaga oid ma’nosini anglatadi. Mas.: **somatogamiya, somatomedin, somatoplevra, somatostatin, so-**

matotip, somatotropin; somatodidimus [somato...+ *yun.* didymae – egizaklar] – tanalari birlashib ketgan egizaklar; **somatologiya** [somato...+...logiya] – odam morfologiyasining inson tanasi o'lcham va shakllari hamda ularning o'zgarishlarini o'rganuvchi sohasi; **somatometriya** [somato...+...metriya] – somatologiyaning tarkibiy qismi – inson tanasi va uning qismlari o'lchamlari (kattaligi) ni o'lchash; **somatoskopiya** [somato...+...skopiya] – somatologiyaning tarkibiy qismi – odam gavdasi (qomati) tiplarini, gavda va a'zolar mutanosibligini tavsiflash.

SOMN... [*lot.* somnus – uyqu] – o'zlashma qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, uyqu, mudrash ma'nolarini bildiradi. Mas.: **somnopediya; somnambulizm** [somn...+ *lot.* ambulare – yurmoq, sayr qilmoq +...izm] – uyquda yurish; bunda bemor odatdagi harakatlarini uyquda g'ayriixtiyoriy bajaradi; **somnilokviya** [somni...+ *lot.* loquitare – ko'p gapirmoq; sergap bo'lmoq] – uyquda gapirish odati; **somnolensiya** [*lot.* somnolentia < somno...+ *lot.* lentere – sekin harakatlanmoq, bo'shashmoq] – uyqusirash, esankirash; ongning yengilgina o'zgarishi.

SON... [*lot.* sonus – tovush, ovoz, sado] – o'zlashma qo'shma, yasama so'zlarning tarkibiy (o'zak) qismi bo'lib, tovush, ovoz, jarang ma'nolarini bildiradi. Mas.: **sonar, sonatina, sonometr, sonorika, sonorizm, sonotopografiya; sonant** [*lot.* sonantis – ovoz (tovush) chiqaruvchi, jaranglovchi] – sonor undosh; **sonata** [*ital.* sonata – jarang, jarangli ovoz; o'yin, ijro < *lot.* sonare – yangramoq, jaranglamoq] – bir yoki ikki cholg'u asbobi uchun yozilgan, turli tezlikdagi 3 – 4 qismdan iborat musiqa asari; **sonet** [*ital.* sonetto < *lot.* sonus] – o'ziga xos qofiyalangan, ikkita 4 satrli, ikkita 3 satrli she'rlardan iborat 14 misrali she'r; **sonor** [*lot.* sonorus – jaranglagan, jarangdor, ovozdor]: ***sonor undosh*** – ovozning ishtirokiga va hosil bo'lish usuliga ko'ra alohida xususiyatlarga ega bo'lgan undoshlarning umumiy nomi.

SORB... [*lot.* sorbeo – yutaman] – o'zlashma yasama so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, yutuvchi, yutmoq ma'nolarini anglatadi. Mas.: **sorbat, sorbtiv; sorbentlar** [*lot.* sorbens (sorbentis) – yutuvchi] – gaz, bug' va erigan moddalarni yutish uchun qo'llanadigan qattiq yoki suyuq moddalar; yutuvchi modda *sorbent*, yutiladigan modda esa *sorbtiv* yoki *sorbat* deyiladi; **sorbsiya** [*lot.* sorbtio – yutish, shimish; yutilish] – atrof-muhitdagi moddalar, gaz yoki eritmaning qattiq jism yoki suyuqlik tomonidan yutilishi.

SOTSI(O)... [*lot.* societas – jamiyat, socialis – ijtimoiy] – o‘zlashma qo‘shma, yasama so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, jamiyatga, ijtimoiy sohalarga aloqadorlik ma’nosini anglatadi. Mas.: **sotsial, sotsial-demokrat, sotsialistlar, sotsializatsiya, sotsiogeografiya, sotsiolog, sotsiosfera, sotsium; sotsializm** [*lot.* socialis – ijtimoiy +...izm] – xususuy mulkni ijtimoiy (umumiy) mulkka aylantirish orqali erkinlik va tenglik, baxt va farovonlikka erishish mumkin deb hisoblovchi ta’limot; **sotsiobiologiya** [sotsio...+ biologiya] – fanlararo ilmiy yo‘nalish: genetika, ijtimoiy psixologiya, evolyutsion nazariya, ekologiya, etnografiya va boshqa fanlarning ma’lumotlari asosida hayvonlar va odamning ijtimoiy fe’l-atvorining biologik asoslarini o‘rganadi (XX asr 70-yillarida AQShda shakllangan); **sotsiolekt** [*ingl.* sociolect < sotsi(o)...+ (dia)lekt] – ma’lum ijtimoiy guruh nutqining o‘ziga xosliklari, muayyan tilning xarakterli so‘z qo‘llanishi, ifoda usullari va uslubiyati bilan ajralib turadigan ijtimoiy lahjasi; **sotsiolingvistika** [sotsi(o)...+ lingvistika] – ijtimoiy tilshunoslik – tilning ijtimoiy tabiati, uning ijtimoiy vazifalari, ijtimoiy omillarning tilga ta’sir ko‘rsatishi hamda tilning jamiyat hayotida tutgan o‘rni bilan bog‘liq ko‘plab muammolarni o‘rganuvchi ilmiy-nazariy soha; **sotsiologiya** [sotsi(o)...+...logiya] – bir butun tizim hisoblangan jamiyat haqidagi va ayrim ijtimoiy tartibotlar, jarayonlar, ijtimoiy guruhlar, shaxs va jamiyat munosabatlari to‘g‘risidagi fan; **sotsiometriya** [sotsi(o)...+...metriya] – ijtimoiy psixologiyaning kishilar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganuvchi bo‘limi.

SPAZM(O)..., ...SPAZM [*yun.* spasma, spasmus – (tomir, mushaklarda) tortishish, tirishish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi va ikkinchi tarkibiy qismlari bo‘lib, shu so‘zlarning qo‘l-oyoq mushaklarining yoki ichi bo‘sh, kovak a’zolar mushak devorining tortishib, vaqtincha torayishiga aloqadorligini bildiradi: 1. Qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi sifatida. Mas.: **spazmatik, spazmotoksin; spazmodermiya** [spazmo...+...dermiya] – terining tortishib qolishi; **spazmofiliya** [spazmo...+...filiya] – shaytonlash; uch yoshgacha bo‘lgan bolalarda qonda kalsiy miqdorining kamayishi natijasida paydo bo‘ladigan, vaqti-vaqtida shaytonlab qolish bilan kechadigan kasallik; **spazmolitiklar** [spazmo...+ *yun.* lysis – qutulish, xalos bo‘lish] – ichki va boshqa a’zolarning silliq mushaklari spazmasini yo‘qotuvchi dori moddalar. 2. Qo‘shma so‘zlarning ikkinchi qismi sifatida. Mas.: **angiospazm, kolospazm; bronxospazm** [bronxo...+...spazm] – mayda bronxlar va bronxiolalar teshiginin torayishi; bronx devori mushaklarining spastik qisqarishi; **enterospazm** [entero...+...spazm] – ingichka ichak spazmi, ichakning torayib turishi; **gemispazm** [gemi...+...spazm] – tananing bir tomoni (yarmi) dagi mushaklarning

vaqti-vaqti bilan tortishib qolishi; **laringospazm** [laringo...+...spazm] – hiqildoq (bo‘g‘iz) mushaklarining tortishib qisqarishi bo‘lib, tovush chiqaruvchi oraliqning torayishiga yoki butunlay berkilib qolishiga olib keladi.

SPEKT(R)... [*lot.* spectare – qaramoq, nazar solmoq; ko‘rib chiqmoq; tomosha qilmoq] – o‘zlashma yasama, qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, ko‘rish, kuzatish, nazar (nigoh) tashlash, tomosha qilish ma’nolarini bildiradi. Mas.: **spektral** (analiz)**, spektrobolometr, spektrofotometr, spektrofotometriya, spektrogeliogramma, spektrogoniometr, spektroizometr, spektrokolorimetr, spektrokomparator, spektrometr, spektropolyarimetr; spektr** [*lot.* spectrum – tasavvur, ko‘rish, xayolda gavdalantirish] – 1) muayyan sistema yoki jarayonni tavsiflovchi biron-bir kattalikning barcha qiymatlari yig‘indisi; 2) muayyan nurning shisha prizma va shu kabi sindiruvchi muhit orqali o‘tganida hosil bo‘ladigan rang-barang chiziqlar majmuyi; **spektroflyuorimetr** [spektro...+ *lot.* fluor – oqim +...metr] – lyuminessent nurlanishni o‘lchash uchun ishlatiladigan spektrometr; **spektrogeliograf** [spektro...+ gelio...+...graf] – biror kimyoviy elementning nurlanishiga mos spektr sohasi nurlarida Quyosh gardishini suratga olishga imkon beradigan spektral astronomik asbob; **spektrogelioskop** [spektro...+ gelio...+...skop] – Quyosh sirtini vizual kuzatishga imkon beradigan spektral astronomik asbob; **spektrograf** [spektr(o)...+...graf] – biror-bir manba nurlanishining to‘liq spektrini qayd etuvchi optik asbob; **spektrogramma** [spektr(o)...+...gramma] – osmon yoritqichi yoki kimyoviy modda spektrining fototasviri; **spektrometriya** [spektro...+...metriya] – spektrlarni o‘lchash nazariyasi va usullarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanadigan ilmiy soha; **spektroskop** [spektr(o)...+...skop] – nurlanish spektrini vizual kuzatishga mo‘ljallangan optik asbob; **spektroskopiya** [spektr(o)...+...skopiya] – fizikaning moddalarning elektromagnit nurlanish spektrlarini o‘rganadigan sohasi.

SPELE(O)... [*yun.* spelaion – g‘or, ungur] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning g‘or, ungurga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **speleofauna** [speleo...+ *lot.* Fauna – hayvonot olami] – g‘orlarda, tog‘ jinslari yoriqlarida yashovchi hayvonlar majmuyi; **speleolog** [speleo...+ ...log] – g‘orshunos, speleologiya mutaxassisi; **speleologiya** [speleo...+...logiya] – g‘orshunoslik; g‘orlarning kelib chiqishi, morfologiyasi, mikroiqlimi, suvlari, organik dunyosi, moddiy madaniyat qoldiqlari, hozirgi foydalanilishi kabi masalalarni o‘rganadigan fan; **speleonim** [spele...+...onim] – oronimlarning bir turi, har qanday yerosti tuzilmasi, xususan, g‘or, ungur, jarlik, quduq, labirint, yerosti daryosi, jilg‘a, sharshara, ko‘l kabilarning atoqli nomi; **spe-**

leonimiya – speleonimlar yig‘indisi; **speleoterapiya** [speleo...+...terapiya] – bemorlarni g‘orlar va ishlanib bo‘lgan konlarning mikroiqlimi ta’sirida uzoq vaqt davolash.

SPERM(O)..., SPERMAT(O)... [*yun.* sperma (spermatos) – urug‘, pusht, shahvat] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning erkaklar urug‘i (sperma) ga, u bilan bog‘liq kasalliklarga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **sperma, spermakraziya, spermat, spermatida, spermatoblast, spermatogonioma, spermatolizis, spermatotsele, spermatotselektomiya, spermatotsistit, spermatset, spermatsiyalar, spermiogenez, spermitsid, spermonevralgiya; spermatit** [spermat(o)...+...it] – urug‘ tizimchasining yallig‘lanishi; **spermatofor(lar)** [sperma(to)…+…for] – spermatozoidlar bilan to‘lgan kapsula; spermatozoidlarni saqlaydi va qurib qolishdan himoya qiladi; **spermatogenez** [spermato…+…genez] – hayvonlar, odam va ko‘pchilik o‘simliklarda erkak jinsiy hujayralar – spermatozoidlarning hosil bo‘lish jarayoni; **spermatogoniylar // spermogoniylar** [sperma(to)…+…goniya] – spermotogenezning 1-davridagi gaploid urug‘ hujayralari; **spermatogramma** [spermato...+...gramma] – shahvatning sifati va miqdori tarkibini tekshirish natijasida olingan ma’lumotlar; **spermatoreya** [spermato...+...reya] – ba’zi kasalliklarda, orqa miya jarohatlanganda shahvatning (urug‘ suyuqligining) oqib turishi (ba’zan qattiq kuchanganda ham ro‘y beradi); **spermatotsit** [spermato…+…sit] – spermatozoid taraqqiyotida oraliq bosqichlardan biri, shu bosqichda yuzaga keladigan hujayra; **spermatozoid** [spermato...+ zoo...+...id] – odam, hayvon va ko‘pchilik o‘simliklarning erkak jinsiy hujayrasi; **spermaturiya** [spermat(o)...+...uriya] – spermatozoidlarning siydik bilan ajralib turishi, siydik tarkibida bo‘lishi; **spermektomiya** [sperm(o)...+...ektomiya] – urug‘ tizimchasining bir qismini kesib olib tashlash operatsiyasi; **spermolitlar** [spermo...+...lit] – urug‘ yo‘lida hosil bo‘ladigan toshlar.

SPETSI... [*lot.* species – tur, jins, xil, ko‘rinish] – o‘zlashma yasama so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, ma’lum bir tur, jinsga, ko‘rinishga oidlik ma’nosini ifodalaydi. Mas.: **spetsializatsiya** [*fr.* specialization – maxsuslashish, maxsuslashtirish < *lot.* specialis – tur, jinsga oid, alohida, xususiy + ...izatsiya] – maxsuslash(tir)ish, ixtisoslash(tir)ish: 1) biron sohada maxsus bilimlarga ega bo‘lish; 2) faoliyatni biron kasb-hunar, ixtisoslikka qaratish; 3) korxona ishlab chiqarish faoliyatini muayyan mahsulot turlarinigina tayyorlash, ishlab chiqarish bilan cheklab qo‘yish; **spetsifika** [*lot.* specificus – turni, jinsni belgilovchi; turga oid] – biror narsa, hodisa uchungina xos, xarak-

terli xususiyatlar majmuyi; **spetsifikatsiya** [*lot.* specificatio < spetsi...+...fikatsiya] – 1) mashina, asbob-uskuna, qurilma va shu kabilarning batafsil tavsifi aks ettirilgan jadval shaklidagi texnik hujjat; 2) biror narsaning e'tibor qaratish zarur bo'lgan tafsilotlarini sanab chiqish, guruhlar bo'yicha taqsimlash.

SPID... [*ingl.* speed – tezlik] – o'zlashma qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, tezlik ma'nosini ifodalaydi. Mas.: **spidometr** [spid(o)...+...metr] – avtomobil, mototsikl harakat tezligini va qancha yo'l bosib o'tilganini ko'rsatuvchi asbob; **spidvey** [spid...+ *ingl.* way – yo'l] – 1) trekda yoki stadionning yaxmalak yo'lkalarida o'tkaziladigan mototsikl poygalari; 2) yuqori tezlikka mo'ljallangan avtomobil yo'li.

SPIRO... I [*lot.* spirare – nafas olmoq; puflamoq; esmoq] – o'zlashma qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, shu so'zlarning nafas olish-chiqarish bilan aloqadorligini ko'rsatadi. Mas.: **spiritizim, spiritualizm, spiroergometriya, spirografiya, spirometriya, spirt; spirant** [*lot.* spirans (spirantis) – puflovchi, nafas chiqaruvchi] – frikativ undosh – o'zaro yaqinlashgan nutq a'zolari o'rtasidagi tor oraliqda havoning siqilishidan hosil bo'ladigan tovush; **spirograf** [spiro...+...graf] – o'pka hajmining o'zgarishlarini qayd etish, nafas olish tezligi va chuqurligini, kislorod iste'molini aniqlash uchun mo'ljallangan asbob; **spirogramma** [spiro...+...gramma] – nafas olish-chiqarish hajmining spirografiya yo'li bilan olingan egri chiziqli tasviri; **spirometr** [spiro...+...metr] – nafas bilan o'pkaga kiradigan va undan chiqadigan havo miqdorini o'lchaydigan asbob.

SPIRO... II [*lot.* spiralis – egilgan, bukilgan < spira – egik, bukik < *yun.* speira – eshma arqon] – o'zlashma yasama va qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, egilgan, bukik narsa, shunga o'shash holat; o'ram, eshma kabi ma'nolarni ifodalaydi. Mas.: **spiral** (galaktikalar)**, spirallik, spirillalar** (kichik spira)**, spirogira; spirallar** [*lot.* spira – eshma, o'ram] – belgilangan nuqta atrofida ko'p marta o'ralib, unga borgan sari yaqinlashadigan yoki undan uzoqlashadigan yassi egri chiziqlar; **spiroxetalar** [spir(o)…+ *yun.* chaite – soch] – ingichka spiralsimon tanaga va o'ta harakatchanlikka ega bo'lgan, yuqumli kasalliklar qo'zg'atuvchi mikroorganizmlar; **spiroxetozlar** – odamlar va hayvonlarda spiroxetalar keltirib chiqaradigan yuqumli kasalliklar guruhi.

SPLANXN(O)... [*yun.* splanchna – ichki a'zolar] – o'zlashma qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, ichki (qorin bo'shlig'idagi) a'zolar va ularning kasalliklariga aloqador tibbiy terminlar hosil qiladi. Mas.: **splanxno-**

blast, splanxnodiniya, splanxnopeksiya, splanxnoplevra, splanxnoskelet, splanxnoskleroz, splanxnotom; splanxnektomiya [splanxn...+...ektomiya] – ichki a'zolar nervining bir qismini jarrohlik yo'li bilan olib tashlash; **splanxnografiya** [splanxno...+...grafiya] – ichki a'zolarning tasviriy anatomiyasi; **splanxnologiya** [splanxno...+...logiya] – anatomiyaning nafas olish, ovqat hazm qilish, siydik-tanosil sistemalaridagi ichki a'zolarni o'rganadigan sohasi; **splanxnomegaliya** [splanxno...+ *yun.* megale – katta, ulkan] – ichki a'zolarning me'yordagidan katta bo'lishi; **splanxnoptoz** [splanxno...+...ptoz] – qorin bo'shlig'idagi ichki a'zolarning – oshqozon, ichak, jigar kabilarning turli sabablarga ko'ra osilib pastga tushishi.

SPLEN(O)... [*yun.* splen – taloq, qorajigar] – o'zlashma qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, taloq (qorajigar) va uning kasalliklariga aloqador tibbiy terminlarni hosil qiladi. Mas.: **splenadenoma, splenizatsiya, splenogen, splenogepatomegaliya, splenopeksiya, splenoportografiya, splenoptoz, splenorenal, splenoskanerlash, splenotsitlar; splenalgiya** [splen...+...algiya] – taloq sohasidagi og'riq; **splenektomiya** [splen…+ …ektomiya] – taloq (qorajigar) ni olib tashlash operatsiyasi; **splenit** [splen…+ …it] – taloqning yallig'lanishi; **splenografiya** [spleno...+...grafiya] – taloq (qorajigar) ni rentgen nurlari bilan suratga olish; **splenokeratoz** [spleno...+ kerat(o)...+...oz] – taloqning qattiqlashishi; **splenoma** [splen(o)...+...oma] – taloq (qorajigar) o'smasi; **splenomegaliya** [spleno…+ megal(o)…+…iya] – taloqning kattalashuvi; **splenonefroptoz** [spleno…+ nefro…+…ptoz] – taloq bilan buyrakning o'z o'rnidan pastga tushib qolishi; **splenopatiya** [spleno...+...patiya] – taloqning ayrim kasalliklari. **splenopnevmoniya** [spleno…+ pnevmoniya] – o'pkaning qorajigarga o'xshab qolishi bilan davom etadigan pnevmoniya.

SPONDIL(O)... [*yun.* spondylos – umurtqa suyagi, umurtqa pog'onasi] – o'zlashma qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, umurtqa suyagi, umurtqa pog'onasi ma'nolarini bildiradi. Mas.: **spondiloliz, spondilolistez, spondilyoz; spondilit** [spondil(o)...+...it] – umurtqa pog'onasining surunkali yallig'lanishi; **spondiloartrit** [spondilo...+ artrit] – umurtqalararo bo'g'imlarning yallig'lanishi; **spondiloartroz** [spondilo…+…artroz] – umurtqalararo bo'g'imlarning surunkali kasalligi; **spondilotomiya** [spondilo...+...tomiya] – ko'ndalang turib qolgan homilani maydalab olib tashlashga to'g'ri kelganda umurtqa pog'onasini sindirish, qirqish.

SPOR... [*yun.* spora – ekish, sepish; urug', dona] – o'zlashma qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, o'simlik urug'i, murtagi, spora ma'nolarini

ifodalaydi. Mas.: **sporadon, sporoblast, sporoderma, sporogen, sporogoniya, sporotrixlar, sporotsista; spora** [*yun.* spora] – zamburug‘lar va o‘simliklarda noqulay sharoitlarda saqlanish va jinssiz ko‘payish uchun xizmat qiladigan maxsus hujayra; odatda, zich, tashqi ta’sirga bardoshli parda bilan qoplangan bo‘ladi; **sporangiy** [spor...+ *yun.* angeion – idish] – ko‘pchilik tuban o‘simliklarda – bir hujayrali yoki yuksak o‘simliklarda ko‘p hujayrali ko‘payish a’zosi bo‘lib, unda sporalar hosil bo‘ladi; **sporitsid** [spor(i)...+...sid] – sporalarni o‘ldiruvchi modda; **sporofill** [sporo...+...fill] – bir qator yuksak o‘simliklarning o‘zgargan bargi bo‘lib, unda jinssiz ko‘payish a’zolari – sporangiylar rivojlanadi; **sporofit** [sporo...+...fit] – o‘simliklarda diploid fazadan iborat va zigotadan o‘sib rivojlanadigan jinssiz avlod; **sporotrixoz** [sporo…+ trixo…+ …oz] – odamlarda zamburug‘ qo‘zg‘atadigan kasallik, teri ostida yiring to‘planishi bilan ifodalanadi; **sporulyatsiya** [*lot.* sporulatio] – sporalar hosil bo‘lishi.

...SPORA [*yun.* spora – ekish; urug‘, dona] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, urug‘, bir hujayrali tuzilma ma’nolarini bildiradi. Mas.: **androspora, apospora, arxespora, poronospora**; **aplanospora** [*yun.* aplanes – harakatsiz +…spora] – suvo‘tlarning jinssiz ko‘payishi uchun xizmat qiladigan harakatsiz sporalar (hujayralar); **askosporalar** [asko…+…spora] – xaltacha sporalar: askomitsetlarning jinsiy ko‘payishi natijasida hosil bo‘ladigan gaploid sporalar: **makrosporalar** [makro…+…spora] – *q. ayn.* **megasporalar**; **megasporalar** [mega…+…spora] – megasporangiylarda hosil bo‘ladigan yirik sporalar bo‘lib, ulardan ayollik kurtaklari rivojlanadi; makrosporalar; **mikrosporalar [**mikro…+…spora] – paporotniksimon va urug‘li o‘simliklarning sporangiylarda hosil bo‘ladigan mayda jinssiz gaploid sporalari; ulardan erkak gametofitlar hosil bo‘ladi.

STAFIL(O)... [*yun.* staphyle – boshoq; bir bosh, bir shingil (uzum)] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, to‘p-to‘p, bir bosh (shingil) uzumga o‘xshash, tilcha degan ma’nolarni bildiradi. Mas.: **stafilinidlar, stafilobotriotoksikoz, stafilodializ, stafilokokkozlar, stafilolizin, stafilorafiya; stafiloangina** [stafilo...+ *lot.* angina < angere – bo‘g‘moq] – stafilokokklar ta’sirida tomoqda og‘riq turib, soxta bo‘g‘ma pardasi paydo bo‘lishi; **stafilodermiya** [stafilo…+…dermiya] – stafilokokklar qo‘zg‘atgan piodermiya, odatda, soch follikulalarida va endokrin bezlarda joylashadi; **stafilokokklar** [stafilo...+...kokk] – ko‘payish chog‘ida uzum boshiga (shingilga) o‘xshash to‘dalar hosil qiluvchi sharsimon bakteriyalar turkumi; **stafiloma** [stafil(o)...+...oma] – biror a’zoda do‘ppayib chiqqan chandiq yoki bitgan yara o‘rni; **stafilotsid** [stafilo...+...sid] – stafilokokklarni o‘ldiruvchi (dori moddasi).

STANN... [*lot.* stannum – qalay] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, shu so‘zlarning kimyoviy element – qalay va uning birikmalariga aloqadorligini ifodalaydi. Mas.: **staniol** [*nem.* Stanniol < stann(i)...+ ...ol] – asosiy tarkibiy qismi qo‘rg‘oshin yoki qalay bo‘lgan qotishmalardan tayyorlangan yupqa metall taxta yoki lentalar; **stannin** [stann...+...in] – qalay kolchedani – sulfidlar sinfiga mansub mineral; kimyoviy tarkibi mis, temir, qalay va oltingugurtdan iborat; **stannum** [*lot.* Stannum] – kimyoviy formulalar tarkibidagi qalay simvoli (Sn) aynan shunday o‘qiladi.

STAT(O)..., ...STAT [*yun.* statos – tik turuvchi; qo‘zg‘almas, harakatsiz] – o‘zlashma yasama, qo‘shma so‘zlarning birinchi va ikkinchi tarkibiy qismlari bo‘lib, turish, tik vaziyatda bo‘lish, to‘xtab turish; holatning o‘zgarmas, doimiy bo‘lishi, o‘zgarmaslik, barqarorlik ma’nolarini, shu ma’nolarni ta’minlaydigan asbob, apparat, qurilmalar nomlarini bildiradi: I. O‘zlashma so‘zlarning birinchi qismi sifatida. Mas.: **statik, statist, statistika, statolitlar, statoskop, statotsistalar; stansiya** [*lot.* statio – to‘xtab turish; to‘xtash joyi] – 1) temir yo‘l poyezdlari yoki quruqlikdagi boshqa transport vositalari to‘xtaydigan joy; 2) muayyan soha bo‘yicha muntazam kuzatishlar va tadqiqotlar olib boriladigan yoki maxsus xizmat ko‘rsatiladigan muassasa yoki korxona; **statika** [*yun.* statike < statos] – 1) mexanikaning jismlarning muayyan kuchlar ostidagi muvozanat shart-sharoitlarini o‘rganadigan sohasi; 2) tinch, harakatsiz holat yoki muvozanat; **stator** [stat...+...or < *lot.* sto – tik turaman] – elektr mashinalarning aylanmaydigan, qo‘zg‘almas qismi (uning ichiga aylanuvchi qism – rotor joylashadi); **statsionar** [*lot.* stationarius – qo‘zg‘almas, harakatlanmaydigan] – 1) umuman, doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi muassasa (masalan, kutubxona); 2) bemorlar doimiy joy bilan ta’minlanib, bir qancha sutkalab yotadigan davolash muassasasi. II. O‘zlashma so‘zlarning ikkinchi qismi sifatida. Mas.: **aerostat, blefarostat, fotostat, geliostat, gnatostat, gomeostat, oftalmostat, reostat, selostat, siderostat, stratostat, termostat; filmostat** [film(o)...+...stat] – kinoplyonka o‘ramlari (rulonlari) ni uzoq muddat saqlashga mo‘ljallangan metall shkaf (quti); **gidrostat** [gidro...+...stat] – suvosti ishlari va tadqiqotlari uchun mo‘ljallangan, asosiy kemadan yo‘g‘on arqon bilan 300 metrgacha chuqurlikka tushiriladigan apparat; **gigrostat** [gigro...+...stat] – narsalar, moddalarni doimo namlikda tutib turuvchi laboratoriya qurilmasi; **kriostat** [krio...+...stat] – suyultirilgan yoki qotib qolgan azot, vodorod, geliy kabilar yordamida doimiy kriogen (o‘ta past) temperaturani ishchi hajmda saqlab turuvchi qurilma.

STAVR(O)... [*yun.* stauros – but] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, but, butga o‘xshash ma’nolarini bildiradi. Mas.: **stavrolit** [stavro...+...lit] – but tosh – silikatlar kichik sinfiga mansub mineral, kristallari donador agregatlar bo‘lib, butsimon qo‘shaloqlikka ega; **stavropigial** [stavro...+ *yun.* pegnymi – tasdiqlamoq, joriy qilmoq; tiklamoq]; ***stavropigial monastir*** – mahalliy cherkov hokimiyatiga tobe bo‘lmagan, bevosita patriarx boshliq bo‘lgan monastir; **Stavropol** [stavro... + *yun.* polis – shahar] – Rossiya Federatsiyasidagi o‘lka va shahar nomi.

... STAZ [*yun.* stasis – tik va tek turish, harakatsizlik] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, to‘siqqa uchrash, to‘xtab qolish, harakatsizlik; sekinlashish yoki to‘xtab qolish ma’nolarini bildiradi: Mas.: **flebostaz, galaktostaz, gipostaz, kolostaz, metastaz, proktostaz, trombostaz, xilostaz; bakteriostaz** [bakteri(o)…+…staz] – turli noqulay sharoitlar ta‘siri natijasida mikroblar ko‘payishining vaqtincha to‘xtashi; **gemostaz** [gemo…+…staz] – qon to‘xtashi; qon oqishining to‘xtashi, gavdaning ayrim qismlaridagi qon tomirlarida qon yurishining to‘xtab qolishi; **gomeostaz** [gomeo…+…staz] – organizmning o‘z ichki muhiti tarkibini doim bir xilda saqlab turish xususiyati; **koprostaz** [kopro…+…staz] – yo‘g‘on ichakda najasning uzoq muddat tutilib qolishi; kolostaz; **limfostaz** [limfo…+…staz] – limfa oqimining to‘xtab qolishi; **menostaz** [meno…+…staz] – oy ko‘rishning, hayz ko‘rishning to‘xtashi; klimaks; **sialostaz** [sialo…+…staz] – so‘lak ajralishining to‘xtashi; **venostaz** [veno…+…staz] – ma’lum sharoitlarda vena tomirlarida qonning yurishmasligi, to‘xtab qolishi; **xolestaz** [xole…+…staz] – o‘t (safro) ning dimlanib yurmay qolishi.

STEAR(O)..., STEAT(O)... [*yun.* stear (steatos) – yog‘, moy] – o‘zlashma qo‘shma (yasama) so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning yog‘, moyga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **stearatlar, steatadenoma, steatopatiya, steatopigiya, steatotsistomatoz, steatoz; stearin** [stear...+...in] – bir necha yog‘ kislotalarining aralashmasidan iborat, ushlaganda qo‘lga yog‘dek unnaydigan oq yoki sariq rangli yarimshaffof qattiq massa; **stearodermiya** [stearo…+…dermiya] – yog‘ bezlari kasallanishi bilan kechadigan teri kasalliklari; **steatit** [steat...+...it] – 1) yog‘ to‘qimasining yallig‘lanishi; 2) suvli magniy silikat – ushlaganda yog‘simon seziladigan, shaffof yoki yarimshaffof yumshoq mineral; **steatoliz** [steato…+…liz] – yog‘ to‘qimasining avval emulsiyaga o‘xshab suyuqlanib, keyinchalik so‘rilib kelishi; **steatoma** [steat(o)...+...oma] – yog‘ bezlarining kistasi (o‘smasi); lipoma; **steatonekroz** [steato...+ nekroz] – yog‘ to‘qimasining chirishi, o‘lishi; **steatoreya** [steato...+...reya] – yog‘ mod-

dalarining oshqozon-ichak yo‘lida hazm bo‘lmasligi natijasida ularning ko‘p miqdorda axlat (najas) bilan chiqishi; **steatotsele** [steato…+…sele] – yorg‘oqda (moyak xaltasida) yog‘ moddasi paydo bo‘lishi.

STELL... [*lot.* stella – yulduz; sayyora] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, yulduz, yulduzsimon ma’nolarini bildiradi. Mas.: **stellektomiya** [stell...+...ektomiya] – stenokardiya kasalligini davolash maqsadida yulduzsimon tugunchalar ustidagi bo‘yin simpatik tizimchasini kesib ajratish operatsiyasi; **stellit** [*ingl.* stellite < stell...+...it] – kobalt asosida quyilgan, tarkibida yana xrom, vanadiy, karbon (uglerod) va kremniy bo‘lgan qattiq qotishma.

STENO... [*yun.* stenos – tor, ensiz, kambar; zich, tig‘iz, siqiq, qisqa] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, tor (torayish), ensiz, tig‘iz, siqiq, qisqa ma’nolarini bildiradi. Mas.: **stenobatlar, stenoedafiklar, stenofagiya, stenogalinlar, stenograf, stenografist, stenokoriazis, stenop, stenosfizis, stenostomiya, stenotermlar, stenotoraks; stenobiontlar** [steno...+...biont] – atrof-muhitning nisbatan barqaror sharoitlaridagina yashay oladigan hayvon va o‘simliklar; **stenofaglar** [steno…+…fag] – uncha ko‘p bo‘lmagan, o‘z tarkibiga ko‘ra bir-biriga yaqin ovqat turlari bilan oziqlanadigan hayvonlar; **stenografiya** [steno...+...grafiya] – og‘zaki nutqni turli shartli belgilar va qisqartmalar bilan tez yozib olish usuli va shunday yozuvning o‘zi; **stenogramma** [steno...+...gramma] – og‘zaki nutqning stenografik usulda yozib olingan matni; **stenokardiya** [steno...+...kardiya] – yurak ishemik kasalligining ko‘krak qafasining markaziy yoki chap qismida to‘satdan paydo bo‘ladigan g‘ijimlovchi og‘riq bilan, qo‘rquv va vahima bilan kechadigan shakli; **stenokefaliya // stenotsefaliya** [steno…+…kefaliya] – boshning haddan tashqari tor, kichik bo‘lishi; **stenotoplar** [steno...+...top]: ***stenotop organizmlar*** – faqat ma’lum bir biotoplardagina yashaydigan va boshqa joylarda uchramaydigan organizmlar; **stenoz** [*yun.* stenos] – turli xil sabablar tufayli organizmdagi naychasimon a’zolarning (mas., ichak, qizilo‘ngach) torayib qolishi.

STEREO... [*yun.* stereos – qattiq, qat’iy; hajmiy, fazoviy] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib: 1) qattiqlik, qat’iylik, barqarorlik; 2) hajmdorlik, fazoviy taqsimlanish mavjudligi kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **stereoauskultatsiya, stereobat, stereofilm, stereofotografiya, stereofotogrammetriya, stereogeometriya, stereognoz, stereognoziya, stereografiya, stereoizomeriya, stereokartograf, stereokartografiya, stereokomparator, stereoproyektor, stereoradio, stereorentgenoan-**

giografiya, stereorentgenografiya, stereoskanerlash, stereoskopiya, sterinlar, steroidlar; stereoakuziya [stereo…+ *yun.* akuo – eshitaman] – har tomondan ikkala quloqqa ta’sir etayotgan ovozlar jamini bir butun ohang shaklida qabul qilish qobiliyati; **stereoartroliz** [stereo…+ artro...+…liz] – ankiloz kasalligida bo‘g‘im qotib qolganda, operatsiya yo‘li bilan yangi bo‘g‘im hosil qilish; **stereofoniya** [stereo…+…foniya] – tovush uzatish va qayta eshittirishda tinglovchilarda tovush manbalarining fazo bo‘ylab joylashganday tasavvur tug‘dirishi; tovushning butun hajmiy xususiyatlari bilan eshitilishi (eshittirilishi); **stereograf** [stereo...+...graf] – aerofotosuratlar bo‘yicha topografik xaritalar tuzish uchun mo‘ljallangan universal mexanik loyihalash asbobi; **stereokimyo** [stereo...+ kimyo] – molekulalardagi atomlarning fazoviy joylashishi, tuzilishi va uning fizik xossalarga, shuningdek, reaksiyalar yo‘nalishi va tezligiga ta’siri haqidagi fan; **stereometriya** [stereo...+ ...metriya] – geometriyaning bir tekislikda yotmagan, fazodagi geometrik shakllarni o‘rganadigan bo‘limi; **stereorentgenoskopiya** [stereo…+ rentgeno…+…skopiya] – tekshirilayotgan obyektning hajmiy rentgen tasvirlarini olish imkoniyatini beradigan rentgenoskopiya usuli; **stereoskop** [stereo...+...skop] – bir narsaning ikkita tasvirini birga qo‘shib, bo‘rttirib, hajmdor qilib ko‘rsatadigan binokulyar (ikki ko‘zli) optik asbob; **stereotelevideniye** [stereo…+ televideniye] – tomoshabinda kuzatilayotgan tasvirlar chuqurligi va hajmiyligi taassurotini paydo qiladigan televideniye tizimi; **stereotip** [stereo...+...tip] – 1) metall, rezina yoki plastmassadan qilingan yaxlit bosma qolip – kitob, gazeta, jurnal va shu kabilarni ko‘p nusxada nashr etish uchun terilgan matnning nusxasi; 2) bir xil so‘z, imo-ishora va harakat-holatlarning doimo takrorlanishi, qaytarilishi va unga javoban oliy nerv sistemasida yuzaga keladigan jarayon; **stereotipiya** [stereo...+...tipiya] – stereotip (1) lar tayyorlash va ulardan foydalanib, kitob va shu kabilarni bosish usuli, texnikasi; **stereotropizm** [stereo…+ tropizm] – qattiq jismlar bilan to‘qnash kelganda yoki fizik, kimyoviy va boshqa qo‘zg‘atuvchilar ta’sirida asosan o‘simlik, qisman odam va hayvon a’zolarining u yoki bu tomonga burilib, qayrilib o‘sishi.

STET(O)... [*yun.* stethos – ko‘krak] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, ko‘krak, ko‘krak qafasi ma’nolarini bildiradi. Mas.: **stetofonendoskop, stetografiya, stetoklip, stetoskopiya; stetofonograf** [steto…+ fono…+…graf] – odam va hayvonlar organizmida bo‘ladigan tovush hodisalarini eshitish va grafik qayd etish uchun mo‘jallangan tibbiy apparat; **stetograf** [steto...+...graf] – nafas harakatlarini qayd qiladigan asbob; **stetoskop** [steto...+...skop] – yurak tonlarini, shuningdek, o‘pkadagi shovqinlarni va boshqa tabiiy tovushlarni eshitishga mo‘ljallangan asbob.

STIGM(AT)... [*yun.* stigma (stigmatos) – dog‘, belgi; nuqta] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, dog‘, yara o‘rni, kichkina yara ma’nolarini bildiradi. Mas.: **stigmalar, stigmariyalar, stigmatik; stigmatlar** [stigm(a)...+...at] – 1) ayrim diniy mutaassib kishilarning badanida jazava paytlarida paydo bo‘ladigan qonli yara; 2) asabiy-ruhiy tutqanoq belgisi sifatidagi dog‘lar, yarachalar; **stigmatoz** [stigmat(o)...+...oz] – chegaralangan yaralar paydo bo‘lishi bilan davom etadigan teri kasalligi.

STOMATO..., **STOM(O)...,** [*yun.* stoma (stomatos) – og‘iz] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning og‘iz va og‘iz bo‘shlig‘iga, ayni a’zo kasalliklariga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **stomatolog, stomatopatiya, stomatorragiya; stomatit** [stomat(o)...+...it] – og‘iz bo‘shlig‘idagi shilliq pardaning yallig‘lanishi; **stomatologiya** [stomato...+ ...logiya] – klinik tibbiyotning og‘iz bo‘shlig‘i a’zolari va unga yondosh a’zolar kasalliklarini o‘rganuvchi sohasi; **stomatoplastika** [stomato...+...plastika] – og‘iz bo‘shlig‘ida qilinadigan plastik operatsiyalar; **stomatoskopiya** [stomato...+...skopiya] – og‘iz bo‘shlig‘ini maxsus optik asbob (stomatoskop) yordamida ko‘rib tekshirish, og‘iz bo‘shlig‘ining rasmini olish.

...STOMIYA [*yun.* stomia – sun’iy teshik ochish < stoma – og‘iz, teshik] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, og‘izga oid; biror a’zoda sun’iy tashqi teshik, yo‘l ochish, o‘zaro ulash ma’nolarini bildiradi. Mas.: **gastrostomiya, ileostomiya, kolostomiya, rinostomiya; kserostomiya** [kseros...+...stomiya] – so‘lak bezlari sekretsiyasining kamayishi tufayli og‘izning qurib qolishi; **nefrostomiya** [nefro...+...stomiya] – buyrakda operatsiya yo‘li bilan tashqariga teshik ochish; **stenostomiya** [steno...+...stomiya] – tomoq yo‘lining torayishi; **xoletsistostomiya** [xole...+ sisto...+...stomiya] – o‘t pufagini kesib, tashqariga yo‘l ochib qo‘yish operatsiyasi; **yeyunostomiya** [*lot.* jejunum – ingichka ichak +...stomiya] – ba’zi ichak kasalliklarida bemorni oziqlantirib turish uchun och ichakda qilinadigan operatsiya (sun’iy yo‘l ochish).

STRAB... [*yun.* strabos – egri, qiyshiq] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, qiyshiq, g‘ilay ma’nolarini bildiradi. Mas.: **strabizm** [strab...+...izm] – g‘ilaylik, ko‘z soqqasining noto‘g‘ri o‘rnashuvi.

STRAT... I [*yun.* stratos – qo‘shin] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, qo‘shin, armiya ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **strateg** [*yun.* strategos – qo‘shin boshlig‘i, bosh qo‘mondon < *yun.* stratos + ago – boshlab boraman] – yirik harbiy qo‘shilmalarning jangovar harakatlariga rahbarlik

qiluvchi sarkarda; **strategiya** [*yun.* strategia] – harbiy san'atning mamlakatni va qurolli kuchlarni urushga tayyorlash, uni rejalashtirish va olib borishning nazariy va amaliy masalalarini qamrab oluvchi sohasi.

STRAT... II [*lot.* stratum – yopqich, to'shama; qavat, qatlam] – o'zlashma qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, qatlam, qavat ma'nolarini bildiradi. Mas.: **stratifikatsiya, stratoizogipslar, stratonim, stratopauza, stratoplan, stratoplanyor, stratovulkan; stratigrafiya** [strat(i)...+ ...grafiya] – geologiyaning tog' jinslarining shakllanish izchilligini, ularning dastlabki makoniy munosabatlari hamda nisbiy yoshini o'rganuvchi sohasi; **stratisfera** [strat(i)...+...sfera] – Yer po'stining, asosan, cho'kindi va dastlab cho'kindi bo'lgan jinslardan tarkib topgan ustki qismi; **stratonavt** [strato...+...navt] – stratosferaga uchuvchi odam; **stratosfera** [strat(o)...+ ...sfera] – atmosferaning troposferadan 8 – 10 kilometrdan to 50 kilometr balandlikkacha bo'lgan oraliqda joylashgan qatlami; **stratostat** [strat(o)...+ ...stat] – odamni stratosferaga uchirish uchun mo'ljallangan, germetik berk va maxsus jihozlangan aerostat.

STREPTO... [*yun.* streptos – zanjir(cha)] – o'zlashma yasama va qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, zanjirchasimon, aylangan; streptokokklar va ularga oid degan ma'noni bildiradi. Mas.: **streptobakteriyalar, streptokinaza, streptokokkozlar, streptomitsetlar, streptomitsin, streptotrikslar, streptotrixoz; streptoangina** [strepto…+angina] – streptokokklar ta'sirida halqumning yallig'lanishi; **streptodermatit** [strepto + dermatit] – streptokokklar ta'sirida yuzaga keladigan dermatit; **streptodermiya** [strepto…+ …dermiya] – terining streptokokklar tufayli kelib chiqadigan yiringli yuqumli kasalligi; **streptokokklar** [strepto…+ *yun.* kokkos – don, donacha; sharcha] – zanjir shaklida joylashadigan, havo changi, odam terisi va boshqalarda bo'ladigan sharsimon harakatsiz bakteriyalar; **streptolizinlar** [strepto…+ lizin] streptokokklarning ba'zi guruhlari ajratadigan va gemoliz chiqaradigan toksinlar.

STRU(KT)... [*lot.* struo, structum – ustma-ust qo'yaman, to'playman, quraman, joylashtiraman] – o'zlashma qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, joylashish, tartib, tuzilish, qurilish ma'nolarini bildiradi. Mas.: **struktura** [*lot.* structura – tuzilish, qurilish; bog'lanish] – muayyan narsalarning tuzilishi, qurilishi; tarkibiy qismlarning o'zaro bog'liqligi; obyektning har qanday sharoitda ham (turli tashqi va ichki o'zgarishlarda) butunligini ta'minlovchi barqaror aloqalari majmuyi; **struktur(aviy)** [< *rus.* структурный – struk-

turaga oid, strukturaga ega, strukturaga asoslangan]: ***struktur formula*** – nafaqat kimyoviy birikmalar tarkibini, balki molekuladagi atomlar bog‘lanishini ham ko‘rsatuvchi formula; ***struktur tilshunoslik*** – til haqidagi qarashlar va uni o‘rganish usullari majmuyi (tilni aniq ajralib turuvchi tarkibiy elementlarga ega bo‘lgan belgilar tizimi sifatida tushunishga asoslanadi); **strukturalizm** [struktur(al)...+...izm] – tilshunoslik, adabiyotshunoslik, etnografiya, tarix va shu kabi ijtimoiy fanlarda struktur usullar va modellashtirishdan, semiotika elementlari va formallashtirish, matematikalashtirishdan foydalanish bilan bog‘liq yo‘nalish.

STUDI... [*ital.* studio – o‘qish, o‘rgatish < *lot.* studere – g‘ayrat bilan ishlamoq, shug‘ullanmoq; o‘qimoq, o‘rganmoq] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, o‘qish, o‘rgatish bilan mashg‘ullik ma’nosini bildiradi. Mas.: **student** [*nem.* Student < *lot.* studens (studentis) – o‘quvchi, o‘rganuvchi; qunt bilan shug‘ullanuvchi] – O‘zbekistonda: oliy o‘quv yurti, AQSh, Buyuk Britaniya kabi ayrim mamlakatlarda: oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurti o‘quvchisi; talaba; **studiya** [*ital.* studio – hafsala, qunt; o‘qish, o‘rganish; *nem.* Studio – mashg‘ulotlar xonasi] – 1) rassom yoki haykaltarosh ustaxonasi; 2) rassom yoki aktyorlar tayyorlaydigan maktab; 3) ijodiy faoliyat bilan bir qatorda sahna yoki tasviriy san’at asarlarini o‘rganadigan, asosan, yoshlardan tashkil topgan teatr (yoki rassomlar) jamoasi; 4) badiiy va boshqa filmlar yaratuvchi ijodiy va texnik xodimlar jamoasi; shu jamoa ishlaydigan joy, kinostudiya; 5) radioeshittirish va teleko‘rsatuvlar olib boriladigan maxsus bino; radiostudiya yoki telestudiya; 6) umuman, surat olish, ovoz yozish va boshqa maqsadlar uchun maxsus jihozlangan ish joyi.

SUB... [*lot.* sub – ostida, pastda, yonida] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib: I. Biror narsaning ostida, tagida, orasida, yaqinida joylashganlikni bildiradi. Mas.: **subakval** (suvosti)**, subaraxnoid, subaraxnoidit, subarktika, subatom, subdominanta, subekvatorial, subgigant, subkarlik, subkontinent, subkortikal** (teriosti)**, submaksillit, submikroskopik, submitti, suborbital** (parvoz)**, subpolyar, substrat, subyadro; sublitoral** [sub...+ *lot.* litoralis – qirg‘oqqa oid, qirg‘oqbo‘yi] – okean va dengizlar tubining litoraldan bevosita pastroqda joylashgan qirg‘oqbo‘yi qismi; **submarina** [*ingl.* submarine < sub...+ *lot.* marine – dengizga oid] – suvosti kemasi; **subtropik** [sub...+ tropik]: ***subtropik o‘simliklar*** – ma’lum mintaqalarda o‘suvchi, asosan, doimyashil, barg to‘kadigan ba’zi mevali daraxtlar hamda butalar (apelsin, mandarin, zaytun, xurmo kabi); **subtitr** [sub...+ titr] – kinofilm kadrlari ostidagi yozuv (talaffuz qilinayotgan matnning izohi, boshqa tilga

tarjimasi); II. Tobelik, bo‘ysunish ma’nolarini ifodalashga xizmat qiladi. Mas.: **subinspektor; subordinatsiya** [sub...+ *lot.* ordinatio – tartibga keltirish] – mansabi, ko‘rsatgan xizmatlari yoki unvoni bo‘yicha kichiklarning kattalarga bo‘ysunishi tizimi (xizmat intizomi qoidalariga asoslanadi). III. Ikkinchi darajalilik; asosiy, to‘liq emaslik ma’nolarini bildiradi. Mas.: **subarendator, subdelirium, subfebril, subinvolyutsiya; subarenda** [sub...+ *polyak.* arenda < *lot.* arrendare – ijaraga bermoq] – ijaraga olingan ko‘chmas mulkni yoki boshqa mol-mulklarni boshqalarga ijaraga berish; **subinfeksiya** [sub...+ infeksiya] – belgilari yaqqol (to‘liq) ifodalanmagan yuqumli kasallik.

SUDO(R)... [*lot.* sudor – ter; suyuqlik, namlik] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, ter ma’nosini ifodalaydi. Mas.: **sudogramma** [sudo...+...gramma] – ter bilan ajraladigan bo‘yoq moddalari organizmga yuborilganidan so‘ng, ter chiqqan sohalarning grafik tasviri; **sudoriferotsit** [sudor(i)...+ fero...+...sit] – ter bezining sekretor hujayrasi.

SULF(O)... [*lot.* sulphur, sulfur – oltingugurt] – kimyo, tibbiyotga oid o‘zlashma qo‘shma terminlarning tarkibiy qismi bo‘lib, ularning oltingugurtga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **sulfadimezin, sulfalen, sulfanilamidlar, sulfazin, sulfazol, sulfidin, sulfolan, sulfonal** (dori moddalar), **sulfatazalar, sulfitlar, sulfitatsiya, sulfitometr; sulfanemiya** [sulf...+ anemiya] – sulfanilamidlarni ko‘plab berish natijasida hosil bo‘lgan, kam uchraydigan o‘tkir gemolitik anemiya; **sulfanuriya** [sulf...+ anuriya] – sulfamid preparatlarini ishlataverish natijasida siydik chiqmay qolishi; **sulfatlar** [sulf...+...at] – sulfat kislotaning o‘rta va nordon kristall tuzlari va efirlari; **sulfidlar** [sulf...+...id] – oltingugurtning metallar, shuningdek, ayrim metallmaslar bilan hosil qilgan birikmalari; **sulfokislotalar** – tarkibida sulfoguruh bo‘lgan, suvda yaxshi eriydigan kislotalar; **sulfur** [*lot.* Sulphur] – ba’zi kimyoviy formulalarni o‘qishda S simvoli aynan shunday aytiladi.

SUPER..., SUPRA... [*lot.* super, supra – yuqori, oliy; yuqorida, ustida] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib: 1) biror narsaning oliy sifatli, yuqori darajali ekanligini yoki astoydil, zo‘r berib qilingan harakatni; 2) yuqorida, biror narsaning ustida joylashganlikni; 3) bosh, asosiy; katta degan ma’nolarni bildiradi. Mas.: **superaviatsiya, superfinish, supergeterodin, superguruh, supermen, supermodel, supernapalm, superoksidlar, superortikon, superovulyatsiya, superparamagnetizm, superregeneratsiya, supersimmetriya, superstrat, supervizor, supershon, suprematizm; superarbitr** [super...+ *fr.* arbitre < *lot.* arbiter

– kuzatuvchi, guvoh; vositachi] – hakamlik sudining boshqa arbitrlar saylagan arbitri (sudyasi); boshqa arbitrlar o‘rtasida murosa, kelishuv bo‘lmaganda, hal qiluvchi ovozga ega bo‘ladi; **superelita** [super...+ *fr.* elite – eng yaxshi, saylangan, saralangan] – eng yaxshi, sara o‘simliklarning muayyan navga xos barcha belgi va xossalarni to‘liq mujassam qilgan urug‘lari; **superfetatsiya** [super…+ fet(o)…+…atsiya] – homiladorlik boshlanganidan biroz vaqt o‘tgandan so‘ng ikkinchi bir tuxumhujayraning urug‘lanishi; **superfosfat** [super...+ fosfat] – apatit va fosforitlarga sulfat kislota bilan ishlov berib hosil qilinadigan yuqori sifatli fosforli o‘g‘it; **superinfeksiya** [super...+ infeksiya] – biror yuqumli kasallik to‘liq davolanmagan sharoitda yana shu kasallik mikrobi bilan kasallanish; kasallikning qaytalanishi; **superintendant** [super...+ *fr.* intendant – boshqaruvchi < *lot.* superintendentis – bosh, oliy nazoratchi] – 1) protestantlarda: cherkov okrugini boshqaruvchi ruhoniy; 2) AQShda: xalq ta’limi departamentining boshlig‘i; **supermarket** [super...+ *nem.* Markett – bozor] – turli xil oziq-ovqat va sanoat mollari sotiladigan katta do‘kon; **supermuqova** [super...+ muqova] – muqova ustidagi qo‘shimcha qoplama; **supermutagenlar** [super…+ muta(tsiya) + …gen] – o‘ta kuchli mutatsiya keltirib chiqaruvchi fizik va kimyoviy omillar, ular odatdagi mutatsiyalarga nisbatan yuz va undan ortiq marta kuchliroq bo‘lishi mumkin; **supralitoral** [supra...+ *lot.* litoralis – qirg‘oqqa oid, qirg‘oq-bo‘yi] – dengiz va quruqlik chegarasida litoraldan yuqoriroq joylashgan zona.

SURDO... [*lot.* surdus – kar, garang] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, kar, qulog‘i og‘ir yoki zaif eshituvchi ma’nolarini bildiradi. Mas.: **surdina, surdokamera, surdomutizm; surdologiya** [surdo...+ ...logiya] – karlik, qulog‘i og‘irlik va uning oqibatlari to‘g‘risidagi fan; **surdopedagogika** [surdo...+ pedagogika] – defektologiyaning kar yoki zaif eshituvchi bolalarni maxsus o‘qitish va tarbiyalash masalalari bilan shug‘ullanuvchi sohasi; **surdoterapiya** [surdo...+...terapiya] – qulog‘i o g‘irlik va garanglikni davolash usullari majmuyi; **surdotexnika** [surdo...+ texnika] – asbobsozlik tarmog‘i; eshitishdagi nuqsonlar va ular bilan bog‘liq nutq buzilishlarini tuzatish va asliga keltirish uchun mo‘ljallangan texnika vositalarini yaratish va ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadi.

T

TAB(U)L... [*lot.* tabula – doska, jadval; stol; surat] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, taxta (doska), jadval; surat, tasvir ma’nolarini bildiradi. Mas.: **tabletka, tablitsa, tabulyagramma, tabulyator; tabel** [*nem*. Tabelle – tablitsa < *lot.* tabella – taxtacha] – 1) biror narsaning ma’lum tartibdagi ro‘yhati; 2) ishchi va xizmatchilar ishga kelish va ketishini hisobga olish jadvali; 3) maktab o‘quvchilarining davomati yoki o‘zlashtirishlari yoziladigan qaydnoma; **tablitsa** [*polyak.* tablica < *lot.* tabula – doska, jadval] – ma’lumotlar va sonlarning chiziqlar bilan ustun va qatorlarga ajratilgan va ma’lum tartibda joylashtirilgan ro‘yxati; **tablo** [*fr.* tableau – surat, tasvir < *lot.* tabula] – axborot-ma’lumotlarni odamlar tushunadigan shaklda qulay aks ettirish vositasi: turli xil shartli tasvirlar, yorug‘lik va boshqa signallari bo‘lgan taxta, shchit yoki ekrandan iborat; **tabulatura // tabulyatura** [*nem.* Tabulatur < *lot.* tabula – doska, jadval] – harf yoki raqamlar orqali musiqa yozishning eskicha tizimi.

TAB(O)... [*lot*. tabes – erish, irish, chirish; ozib-to‘zish; sil; yiring; tabum – yuqumli kasallik, o‘lat] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, buzilish, aynish, chirish; yiringlash ma’nolarini bildiradi. Mas.: **taboparalich** [tabo…+ *yun.* paralyo – kuchsizlik, zaiflik] – tabofalajlik – zaxm rivojlanishining kechki bosqichida nerv sistemasining shikastlanishi natijasida paydo bo‘ladigan asorat. Bemorda orqa miya falaji va umumiy falaj belgilari bilan namoyon bo‘ladi; **tabofobiya** [tabo…+…fobiya] – orqa miya falaji (sholligi) ga yo‘liqishdan qo‘rqish, vahimaga tushish.

TAF(O)... [*yun.* taphos – go‘r, qabr, ko‘mish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, qabr, mozor yoki ko‘mish ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **tafotsenoz; tafofiliya** [tafo…+…filiya] – go‘r va mozorlarga odatdan tashqari qiziqish; **tafofobiya** [tafo...+...fobiya] – miyaga o‘rnashib qolgan qo‘rquv: o‘limdan, o‘limga oid narsalardan, tiriklayin ko‘milishdan qo‘rqish; **tafonomiya** [tafo...+...nomiya] – paleontologiyaning ko‘milish jarayonlarini yoki qazilma hayvon va o‘simliklar qoldiqlari joylarining shakllanishini o‘rganuvchi bo‘limi; **tafotsenoz** [tafo…+ *yun*. koinos – umumiy, bir-

galikda] – hayvonlar va o‘simliklar qoldiqlarining dastlabki ko‘milish bosqichida ularning tosh qotish (minerallashish) gacha bo‘lgan majmuyi.

TAKS(I)... [*yun.* taxis – tartib bilan joylashish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, tartib, tartib bilan joylashganlik ma’nolarini bildiradi. Mas.: **taksidermiya** [taksi…+…dermiya] – hayvonlar tulumini yasash (terining ichi yumshoq narsalar bilan to‘ldiriladi yoki teri hayvonning qattiq modeliga qoplanadi); **taksis** – sodda (bir hujayrali) o‘simliklar, hayvonlar va alohida hujayralarda bir tomonlama ta’sir ko‘rsatuvchi qo‘zg‘atuvchilarga nisbatan harakat reaksiyasi; **taksonomiya** [takso...+...nomiya] – butun borliqning, odatda, iyerarxik tuzilishga ega bo‘lgan, murakkab shakllangan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi.

...TAKSIS [*yun.* taxis – tartib bilan joylashish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, tartib bilan joylashishni, biror a’zoni to‘g‘rilashni, ayrim o‘simlik va sodda jonivorlarning qo‘zg‘atuvchilarga nisbatan harakat reaksiyalari turlarini bildiradi. Nisbiy (qarshi) harakat reaksiyalari qo‘zg‘atuvchilarning turiga qarab bir necha xil bo‘ladi. Mas.: **elektrotaksis, fillotaksis, galvanotaksis, geliotaksis, omfalotaksis, termotaksis; aerotaksis** [aero…+…taksis] – mikroorganizmlar, sodda jonivorlar va suvo‘tlar sporalarining kislorod manbayiga qarab harakat qilishi yoki undan uzoqlashishi; **fototaksis** [foto…+…taksis] – erkin harakatlanuvchi mikroorganizmlar, o‘simliklar va hayvonlar, shuningdek, ayrim hujayralarning bir tomonlama yorug‘lik qo‘zg‘atuvchilarga qarab harakatlanishi; **gidrotaksis** [gidro…+…taksis] – harakatchan mikroorganizmlar, o‘simlik va hayvonlarning yuqori darajadagi namlikka (musbat) yoki kamroq namlikka (manfiy) qarab intilishi (harakat qilishi); **xemotaksis** [xemo…+…taksis] – bir hujayrali organizmlar va erkin harakatlanuvchi hujayralarning kimyoviy ta’sirlar tufayli harakatga kelishi.

TAKS(O)... [*nem*. Taxe < *lot.* taxare – baholamoq, baho bermoq] – o‘zlashma yasama va qo‘shma so‘zlarning tarkibiy (birinchi) qismi bo‘lib, baho, narx, baho (narx) belgilash, baholash, to‘lov ma’nolarini bildiradi. Mas.: **taksa, taksi, taksimetr, takson, taksofon; taksator** [*lot*. taxatio – baholash] – baholovchi, taksatsiya bo‘yicha mutaxassis; **taksatsiya** [*lot.* taxatio – baholash, baho berish, narx belgilash] – 1) baholash, baho (narx) belgilash; 2) o‘rmon va undagi daraxtlarni hisobga olish va baholash (baholab hisobini chiqarish); **taksometr** [takso…+…metr] – taksiga o‘rnatilgan, yo‘lovchi yoki yuk tashilganligi uchun to‘lanadigan kira haqi miqdorini ko‘rsatuvchi hisoblagich; **taksomo-**

tor [takso…+ motor] – yo‘lovchilar va yuklarni taksometrda ko‘rsatilgan kira haqini to‘lash bilan tashiydigan yengil yoki yuk avtomobili; taksi.

TALASS... [*yun.* thalassa – dengiz] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning dengiz bilan aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **talassoid, talassokratik** (davrlar)**, talassokraton; talassemiya** [talass...+...emiya] – O‘rta yer dengizi kasalligi – dastlab O‘rta yer dengizi sohillarida yashovchi aholida topilgan irsiy kamqonlik (anemiya) kasalligi; **talassofobiya** [talasso…+…fobiya] – dengizdan, dengizga cho‘kishdan qo‘rqish; **talassoterapiya** [talasso...+...terapiya] – iqlim yordamida davolashning bir ko‘rinishi bo‘lib, dengiz iqlimi va dengizda cho‘miltirish bilan davolash usuli.

TALLO... [*yun*. thallos – novda, o‘simta] – o‘zlashma yasama va qo‘shma so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, novda, o‘simta ma’nolarini bildiradi. Mas.: **talliy** [*yun.* thallos – yashil novda; spektrning yorqin yashil chiziqlariga ko‘ra nomlangan; *lot*. Thallium] – Mendeleyev davriy sistemasining III guruhiga mansub kimyoviy element; zaharli, kumushrang-oq metall; **tallofitlar** [tallo…+…fit] – poya, barglar va ildizga ajralmagan tuban o‘simliklar; **tallom** [*yun*. thallos – yosh novda] – tuban o‘simliklar (suvo‘tlar, zamburug‘lar, mikromitsetlar, lishayniklar va boshqalar) ning novda va barglarga bo‘linmagan yaxlit tanasi.

TANAT(O)... [*yun.* thanatos – o‘lim, o‘lish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning o‘lim bilan, o‘lish jarayoni bilan aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **tanatofobiya** [tanato...+...fobiya] – miyada o‘rnashib qolgan qo‘rquv: o‘lib qolishdan qo‘rqish; **tanatogenez** [tanato…+ …genez] – o‘lish jarayonida kuzatiladigan, klinik biokimyoviy va morfologik o‘zgarishlar dinamikasi; **tanatologiya** [tanato...+...logiya] – tibbiyotning o‘lim, uning sabablari, mexanizmi va belgilarini, shuningdek, reanimatsiya va o‘limoldi azoblarini yengillashtirish masalalarini o‘rganadigan bo‘limi; **tanatotsenoz** [tanato…+ *yun*. koinos – umumiy, birgalikda] – turli xil hayvonlar va o‘simliklar qoldiqlarini o‘limidan keyin ko‘mishdan oldin to‘plash; **tanatopsiya** [tanat(o)…+…opsiya] – murdani yorib tekshirish.

TARZ(O)... [*yun*. tarsus – oyoqning beti, qovoq tog‘ayi] – o‘zlashma yasama va qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, oyoq kaftining orqasi; qovoq tog‘ayi degan ma’nolarni bildiradi. Mas.: **tarzorafiya, tarzoplastika; tarzalgiya** [tarz…+…algiya] – podalgiya – oyoq kafti orqasida, ya’ni oyoq betida rivojlanayotgan yassioyoqlikda yuzaga keladigan og‘riq; **tarzektomiya**

[tarz…+…ektomiya] – 1) oyoqning bet qismini kesishdan iborat jarrohlik operatsiyasi; 2) qovoq tog‘ayining bir bo‘lagini kesishdan iborat jarrohlik operatsiyasi; **tarzit** [tarz…+…it] – qovoq tog‘ayi qirrasining yallig‘lanishi.

TAUT(O)... *q.* **tavt(o)...** .

TAVT(O)..., TAUT(O)... [*yun.* tauto – aynan o‘xshash, bir xil, xuddi o‘zi] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, ayni bir narsaning o‘zi, takrorlanishi degan ma’nolarni bildiradi. Mas.: **tavtogramma** [tavto...+ ...gramma] – barcha so‘zlari bir xil harf bilan boshlanadigan she’r; **tavtologiya** [tavto...+...logiya] – 1) bir fikr, mazmunni boshqa so‘z yoki so‘zlar bilan takroran ifodalash, so‘zni ortiqcha takrorlash; 2) mantiqda: o‘ziga xos hukm bo‘lib, unda ta’riflanadigan tushuncha aynan o‘zi vositasida ta’riflanadi, ya’ni ta’rifning aniqlovchi qismi aniqlanuvchi qismida ifoda etilgan ma’noni takrorlaydi; **tautomeriya** [tauto...+...meriya] – qaytar izomeriya hodisasi: bunda izomerlar o‘zaro harakatchan muvozanatda bo‘ladi, ya’ni biri ikkinchisiga osongina o‘tib (aylanib) turadi.

TAXI... [*yun.* tachys (tacheos) – tez, tez bo‘ladigan, jadal] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, tez, jadal; tez amalga oshiriladigan, tezlik ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **taxeometriya, taxifilaksiya, taxinlar, taxionlar, taxisterinlar, taxistoskop, taxiteliya, taxogenerator, taxograf; taxeometr** [taxeo…+ metr] – teodolitning bir turi bo‘lgan, uzoqliko‘lchagich bilan ta’minlangan asbob; **taxifagiya** [taxi…+...fagiya] – ba’zi ruhiy kasalliklarda uchraydigan shoshib-pishib ovqatlanish holati; **taxikardiya** [taxi...+ ...kardiya] – yurak qisqarishlarining tezlashishi; **taxilaliya** [taxi…+…laliya] – bidirlab tez-tez gapirish, gapdonlik, so‘zamollik; **taxilit** [taxi…+…lit] – bazaltning shishasimon tuzilishga ega bo‘lgan bir turi; **taximetr** [taxi...+...metr] – suv oqimi tezligini o‘lchaydigan asbob; **taxipnoe** [taxi…+…pnoe] – halloslash, tez-tez nafas olish; **taxografiya** [taxo…+…grafiya] – suyuqlik harakati tezligini qayd qilish, yozish; qon tomirlarida qon oqish tezligini tekshirishning bir usuli; **taxogramma** [taxo…+…gramma] – qon aylanish (oqish) tezligini ifodalaydigan chiziq; **taxometr** [taxo...+...metr] – biror jismning, masalan, mashina va mexanizm vallarining aylanish chastotasini o‘lchaydigan asbob.

TAYM... [*ingl.* time – vaqt, davr] – ba’zi bir o‘zlashma va qo‘shma so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, vaqt, davr ma‘nolarini bildiradi. Mas.: **taymograf, taymtaktor; taym** [*ingl*. time – vaqt] – to‘p bilan o‘ynaladigan sport o‘yinlarida o‘yin vaqtining bosqichi, bir qismi (basketbol o‘yini har biri

20 minutlik, futbol o‘yini har biri 45 minutlik ikki taymdan iborat); **taym-aut** [*ingl*. time out – vaqtdan tashqari] – sport o‘yinlari qoidalariga ko‘ra, jamoa, uning ustozi yoki ayrim o‘yinchining iltimosi bilan ruxsat etiladigan qisqa muddatli tanaffus; **taymer** [*ingl.* timer < time – vaqtni belgilamoq, tayinlamoq] – ma’lum vaqt oralig‘i o‘tgandan keyin biror moslama, qurilmani avtomatik ravishda ulaydigan (uradigan, o‘chiradigan) yoki shunday vaqt kelganidan xabar beradigan asbob; **taymshit** [*ingl.* time…+ sheet – varaq, qog‘oz] – dengiz orqali xorijiy yuk tashish ishlarida yuk ortish-tushirish vaqtlari aniq qayd etib (yozib) boriladigan hujjat; **taym-charter** [*ingl*. time…+ charter – nizom, ustav] – savdo kemasini yoki uning bir qismini muayyan muddatga (odatda, 12 oydan oshmagan vaqtga) ijaraga olish (berish) shartnomasi.

TEA... [*yun.* thea – manzara, ko‘rinish; tomosha; ko‘rib chiqish, ko‘zdan kechirish] – o‘zlashma yasama so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, ko‘rib chiqish, ko‘zdan kechirish, tomosha qilish ma’nolarini bildiradi. Mas.: **teodolit, teorema; teatr** [*yun.* theatron – tomoshagoh] – 1) san’at turlaridan biri; aktyorlarning omma oldidagi ijrosi jarayonida yuzaga keladigan sahnaviy voqea; 2) teatr tomoshalari uchun mo‘ljallangan bino.

TEK(O)..., TEKA... [*yun.* theke – idish; xaltacha; tuxumdon] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, parda, g‘orsimon tuzilma ma’nolarini bildiradi. Mas.: **tekafollikuloma; tekablastoma** [teka…+ blastoma] – teka hujayralaridan tuzilgan, ko‘pincha keksa ayollarda uchraydigan tuxumdon o‘smasi; **tekoma** [tek(o)…+…oma] – asosan tekotsitlardan rivojlanadigan, ellik yoshdan oshgan ayollarda uchraydigan tuxumdon o‘smasi; **tekodontlar** [tek(o)…+ *yun*. odontus – tish] – trias davrida yer ustida sudralib yuruvchi umurtqalilar guruhi; tekodontlarning har bir tishi alohida milk uyachalarida joylashgan; **tekotsitlar** [tek(o)…+…sit] – tuxumdon follikulalarining biriktiruvchi to‘qima hujayralari.

...TEKA [*yun.* theke – biror narsa saqlanadigan idish, joy, ombor] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, o‘zi qo‘shilib kelgan so‘zdan anglashilgan narsaning to‘plami va ularni saqlash uchun mo‘ljallangan maxsus joy, idish, ombor ma’nolarini bildiradi. Mas.: **biblioteka** (kutubxona), **fonoteka, fototeka, gliptoteka, ikonoteka, sinemateka, videoteka; diskoteka** [disk(o)...+...teka] – 1) asosan, musiqiy yozuvlari bo‘lgan lazer disklar, gramplastinkalar to‘plami; 2) raqs zaliga ega bo‘lgan yoshlar klubi; **filmoteka** [film(o)...+...teka] – kinoarxiv yoki sinemateka: maxsus omborxonada ma’lum tartibda joylashtirilgan kinofilmlar to‘plami va shunday

omborxona joylashgan muassasa; **kartoteka** [kart(o)...+...teka] – 1) ma'lum sohaga oid ma'lumot yoki materiallar yozilgan va tartibga solingan kartochkalar yig'indisi; 2) shunday kartochkalar saqlanadigan maxsus qutilar; **pinakoteka** [pinako...+...teka] – tasviriy san'at asarlari ombori; suratlar galereyasi.

TEKS(T)... [*lot.* textus – to'qish, ulash, o'rish; tuzilish; gazlama; bog', bog'lanish] – o'zlashma yasama so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, to'qish, ulash, tuzilish, bog'lanish; gazlama ma'nolarini bildiradi. Mas.: **teksoprint, teksoxrom, tekst, tekstolog, tekstologiya; teks** [*lot.* texo – to'qiyman, o'rayman] – tola yoki ipning chiziqli zichligini ifodalaydigan kattalik, tola massasining tola uzunligiga nisbati; **tekstil** [*lot.* textile – gazlama] – tolalar va iplardan tayyorlanadigan mahsulotlar: gazlamalar, trikotaj, noto'qima materiallar, gilam, kigiz-namat mahsulotlari, momiq paxta, to'qimachilik-attorlik buyumlari, g'altak iplar, arqonlar va boshqalar; **tekstolit** [tekst(o)...+...lit] – ip-gazlama qatlamlariga sintetik smolalar shimdirish va 150°C temperaturada katta bosimda presslash yo'li bilan tayyorlanadigan plastik material; **tekstura** [*lot.* textura – gazlama; tuzilish] – amorf jismlardagi molekulalarning yoki polikristallar, kristallar va gazlamalarda tolalarning muayyan yo'nalishda joylashuvi.

TEKT(O)... [*yun.* tekto – quraman, barpo qilaman] – o'zlashma qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, qurish, yaratish, barpo qilish ma'nolarini anglatadi. Mas.: **tektonofizika, tektonosfera; tektogenez** [tekto…+ …genez] – Yerdagi tog' tuzilmalarining tarixiy shakllanish jarayoni; **tektonik** [*yun.* tektonikos – qurishga, bunyodkorlikka oid]: ***tektonik harakatlar*** – Yer po'stining biron-bir yo'nalishda tebranma, burmalanma, bukilma yoki yorilma harakatlari bo'lib, ular po'stning deformatsiyasiga yoki uning qatlamlari uzilishiga sabab bo'ladi; **tektonika** [*yun.* tektonike – qurish (qurilish), bunyodkorlik san'ati] – geologiyaning Yer po'sti (litosfera) ning yoki Yer yuqori mantiyasining strukturasi, harakati, deformatsiyasi va rivojlanishini o'rganuvchi bo'limi; geotektonika; **tektonitlar** [*yun.* tektonike] – boshlang'ich (asos) jinslarning tektonik harakatlar ta'sirida parchalanishi va ishqalanishi natijasida paydo bo'lgan metamorfik tog' jinslari.

TELE... [*yun.* tele – uzoq, uzoqda, uzoqqa] – o'zlashma qo'shma so'zlarning birinchi tarkibiy qismi bo'lib, uzoq masofadan turib harakat (ta'sir) qiluvchi yoki amalga oshiriluvchi degan ma'nolarni anglatadi yoki "televizion" so'zi ma'nosiga to'g'ri keladi. Mas.: **teleantenna, teleavtomatika, teleboshqarish, teledastur, teleekran, teleelektrokardiograf, teleelektrokar-**

diografiya, teleelektrostimulyator, teleeshittirish, telefilm, telefoniya, telefonogramma, telefotometr, telegammaterapiya, telejurnal, telekamera, telekanal, telekard, telekardiostimulyator, telekardiofon, telekinez, telekommunikatsiya, telekompaniya, telekonferensiya, teleko‘rsatuv, telemarkaz, teleminiatyura, teleminora, telenazorat, teleobyektiv, teleoperator, telepat, teleportatsiya, telerentgenografiya, teleretseptor, teleserial, telestudiya, teletomoshabin, televizion, teleyangiliklar; telalgiya [tel(e)…+…algiya] – og‘riqqa sabab bo‘lgan o‘choq (manba) dan uzoq yerda og‘riq sezilishi; **teleendoskopiya** [tele…+ endo…+ skopiya] – endoskopik tekshirish usuli, bunda surat television ekranga tushadi yoki magnit lentasiga videomagnitofon yordamida yoziladi; **telefaks** [*ingl*. telefacs < tele…+ *lot.* fac simile – aynan shunday bajar] – 1) axborotlarni, yassi tasvirlarni uzatishga mo‘ljallangan xalqaro telefon aloqa tarmog‘i; 2) shunday aloqani amalga oshirishga mo‘ljallangan apparat; 3) shunday aloqa yordamida yuboriladigan xabar; **telefon** [tele...+...fon] – 1) elektr signallarini tovush signallariga aylantirib beradigan elektr-akustik asbob; 2) telefon apparatining qisqa nomi; **telegraf** [tele...+...graf] – telegrammalarni yuborish, qabul qilish va egasiga yetkazib berish bilan shug‘ullanadigan aloqa turi; shu jarayonlar bilan shug‘ullanuvchi aloqa korxonasi; **telegramma** [tele...+...gramma] – telegraf orqali uzatiladigan hujjatli xabar; **teleks** [tele….+ *ingl.* ex(change) – almashinuvchi] – 1) abonentlar orasida ikki tomonlama bevosita telegraf xabarlar almashish uchun mo‘jallangan xalqaro telegraf aloqa tarmog‘i; 2) shunday aloqa uchun mo‘ljallangan apparat; **telemarafon** [tele…+ marafon] – uzluksiz, ko‘pincha sutka davomida ko‘rsatiladigan, odatda, xayriya maqsadlarini ko‘zlab uyushtiriladigan televizion ko‘rsatuv; **telemetriya** [tele...+...metriya] – kuchlanish, tok kuchi, quvvat, bosim, temperatura, sath, uchish balandligi, organizmning biologik ko‘rsatkichlari, meteorologik ma’lumotlar va boshqa kattaliklarni masofadan turib o‘lchash; **telemexanika** [tele...+ mexanika] – 1) axborotlarni masofadan turib boshqarish va nazorat qilish maqsadida ularni uzatish hamda qabul qilish usullarini va texnika vositalarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanadigan fan; 2) texnikaning axborotlarni kodlash, ularni simli aloqa va radioaloqa kanallari bo‘yicha uzatish vositalarini yaratish, ishlab chiqish va ulardan foydalanish bilan shug‘ullanadigan bo‘limi; **telepatiya** [tele…+…patiya] – ba’zi odamlarda fikr va his-tuyg‘ularni sezgi a’zolari ishtirokisiz muayyan masofaga uzatish qobiliyati; **teleradiografiya** [tele…+ radio…+…grafiya] – rentgen nurlanish manbayi bemordan ikki metr uzoqlikda turadigan rentgenografiya turi; **telerentgenoterapiya** [tele…+ rentgeno…+ …terapiya] – kasaldan ma’lum masofada joylashgan rentgen nayi yordamida bemorni rentgen nurlari bilan davolash; **teleskop** [tele...+...skop] – osmon

yoritqichlarini vizual, fotografik, fotoelektrik va spektral usullarda kuzatish uchun mo‘ljallangan astronomik optik asbob; **teletayp** [tele...+ *ingl.* type – mashinkada yozish] – axborotlarni uzatish va qabul qilish uchun mo‘ljallangan harf bosish apparati; **televideniye** [tele...+ *lot.* visio (> *rus.* видение) – ko‘rish] – fan, texnika va madaniyatning ko‘rinadigan axborotlar (harakatlanuvchi tasvirlar) ni radioelektron vositalar yordamida muayyan masofaga uzatish bilan bog‘liq sohasi; axborotlarni tarqatish vositalaridan biri; **televizor** [tele...+ *lot.* viso – qarayman] – telestudiyadan uzatiladigan teleko‘rsatuvlarning elektr signallarini qabul qilish, kuchaytirish hamda tasvir va tovushga aylantirish uchun mo‘ljallangan radioelektron qurilma; **teleshou** [tele…+ *ingl*. show – tomosha] – estrada, sirk, balet yulduzlari ishtirokida o‘tadigan, televideniye orqali namoyish etiladigan yorqin, rang-barang sahna tomoshasi.

TEL(O)..., TELEO... [*yun.* telos (teleos) – maqsad, niyat; eng oxiri] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, maqsad, niyat, istak; eng oxiri ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **telantrop** [tel(o)...+...antrop] – suyak qoldiqlari Afrika janubidan qazib olingan eng qadimgi odam; **teleologiya** [teleo...+...logiya] – dunyodagi, tabiatdagi barcha hodisa va jarayonlar maqsadga muvofiq tarzda qurilgan va har qanday o‘zgarishlar (tabiat hodisalari, inson xatti-harakati, tarixiy hodisalar) tabiat yoki Xudo tomonidan avvaldan belgilangan maqsad asosida ro‘y beradi, deb hisoblovchi falsafiy ta’limot; **telodendron** [telo…+ *yun.* dendron – daraxt] – nerv aksonidan chiqadigan bir talay nozik oxirgi shoxchalarning biri; **telofaza** [telo…+ *yun*. phasis – ko‘rinish; davra; bosqich] – hujayralarning mitoz yo‘li bilan bo‘linishidagi oxirgi bosqich.

TEMPER... [*lot.* temperare – aralashtirmoq, qo‘shmoq] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, kerakli nisbatda aralashtirish, o‘zaro teng nisbatda qo‘shish; to‘g‘ri nisbat, mutanosiblik ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **temperatsiya, temperament, temperatura; tempera** [*ital.* tempera – bo‘yoqlarni aralashtirish < *lot.* temperare] – 1) bo‘yovchi moddasi va bog‘lovchi moddasi suvli emulsiya va tuxum sarig‘idan tarkib topgan bo‘yoq; 2) tempera bo‘yoqlari yordamida yaratiladigan kartina (rangtasvir) turi.

TEND..., TENZ(O)... [*lot.* tendere (tensum) – tortmoq, cho‘zmoq, tarang qilmoq; yo‘naltirmoq] – o‘zlashma qo‘shma, yasama so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, ma’lum tomonga tortilish, cho‘zilish, intilish; taranglik, moyillik ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **tendensiya** [*nem.* Tendenz < *lot.* tendere] – 1) qarashlarda yoki ma’lum faoliyatda yo‘nalganlik; nimagadir intilish, moyillik, qiziqish; kimningdir qiziqishlari yo‘nalishi; 2) ma’lum ho-

disaning rivojlanib borishidagi yo‘nalish; oldindan tanlab olingan g‘oya, fikr; **tenzimetr** [tenz(i)...+...metr] – to‘yingan bug‘lar bosimini o‘lchaydigan asbob; **tenziometr** [tenzi(o)...+...metr] – suyuqliklarning sirt tarangligini o‘lchash uchun mo‘ljallangan asbob; **tenzometr** [tenz(o)...+...metr] – qattiq jismlarda (mashina detallarida, inshootlarda) mexanik bosimlar sababli yuzaga keluvchi deformatsiyalarni o‘lchash uchun mo‘ljallangan asbob; **tenzor** [*lot.* tendere – taranglamoq, tarang qilmoq] – vektor va matritsani rivojlantirgan va birlashtirgan alohida matematik kattalik, u har bir koordinata tizimida bir qancha son (miqdor) lar bilan tavsiflanadi; **tenzorezistor** [tenzo…+ rezistor] – mexanik kuchlanishlar natijasida ro‘y beradigan deformatsiya paytida elektr oqimiga o‘z faol qarshiligini o‘zgartiruvchi detal.

TEND(O)..., TENO... [*lot.* tendo (tendinis) – pay] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning payga, pay kasalliklariga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **tendobursit, tendomutsin, tendosinovit // tenosinovit, tenodez, tenofit, tenorafiya; tendinit** [tendin...+...it] – payning yallig‘lanishi, madda boylashi; **tendoplastika // tenoplastika** [teno...+...plastika] – shikastlangan payni qayta tiklash yoki rekonstruksiya qilishdan iborat jarrohlik operatsiyasi; **tendovaginit** [tendo...+ *lot.* vagina – qin +...it] – asosan, panja, bilak, boldirdagi pay qismlari (bo‘shliqlari) ning yallig‘lanishi; **tenoliz** [teno...+...liz] – chandiq bo‘lib, atrofdagi to‘qimalarga birikib qolgan paylarni operatsiya qilib ajratib bo‘shatish; **tenotomiya** [teno...+...tomiya] – g‘ilaylikda ko‘zning tashqariga harakatlantiruvchi mushaklarini kesish operatsiyasi.

TEO... [*yun.* theos – xudo] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning xudo ma’nosiga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **teobroma, teobromin, teoditseya, teofillin, teogoniya, teolog, teonimiya; teizm** [te(o)...+...izm] – Xudo olamdan tashqarida turadi, olamni o‘z irodasi bilan yaratgan va unda mavjud bo‘lgan mutlaq shaxs deb tushunuvchi diniy ta’limot; **teokratiya** [teo...+...kratiya] – davlat boshqaruvi shakli; bunda davlatning boshlig‘i bir vaqtning o‘zida diniy boshliq (rahnamo) ham hisoblanadi; **teologiya** [teo...+...logiya] – Xudoning mohiyati va irodasi haqidagi diniy ta’limotlar majmuyi; **teonim** [te(o)…+…onim] – mifonimlarning bir turi: hinduizmda, yunon va rim hamda bir qator diniy-an’anaviy tasavvurlarda xudo (ma’bud) larning atoqli nomi; **teonimika** [teonim +…ika] – onomastikaning teonimlarni, ularning paydo bo‘lish, rivojlanish va amal qilish qonuniyatlarini o‘rganuvchi bo‘limi; **teosofiya** [teo…+ *yun*. sophia – donolik] – ibodat, riyozat bilan Xudoga yetishish va undan kelgan vahiy tufayli “narigi dunyo”ni bilish mumkin degan ta‘limot.

...TERAPIYA [*yun.* therapeia – g‘amxo‘rlik, parvarish qilish, davolash] –o‘zlashma qo‘shma tibbiy terminlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, bemorlarni, muayyan kasallikni birinchi qismdagi so‘z anglatgan narsa bilan davolash ma’nosini bildiradi. Mas.: **ampeloterapiya, balneoterapiya, bazoterapiya, diyetoterapiya, elektroterapiya, farmakoterapiya, fitoterapiya, fizioterapiya, gammaterapiya, gelioterapiya, gemoterapiya, gidroterapiya, immunoterapiya, klimatoterapiya, krioterapiya, laktoterapiya, mexanoterapiya, radioterapiya, rentgenoterapiya, seroterapiya, seysmoterapiya, telerentgenoterapiya, termoterapiya, vibroterapiya; aeroterapiya** [aero...+...terapiya] – ba’zi kasalliklarning belgilangan vaqtlardagina ochiq havoda bo‘lish (havo vannalari) bilan davolash; **apiterapiya** [*lot.* apis – asalari +…terapiya] – davolash maqsadlarida asalari zahari hamda uning preparatlaridan foydalanish; **fototerapiya** [foto...+...terapiya] – nur bilan davolash; davolash maqsadida ultrabinafsha, infraqizil va boshqa nurlardan foydalanish; **gormonoterapiya** [gormon(o)...+...terapiya] – ba’zi kasalliklarni gormonal muvozanatni tiklash maqsadida gormonlar va ularning preparatlari bilan davolash; **ionoterapiya** [ion(o)...+...terapiya] – davolash maqsadlarida organizmga ionlar kiritish; **organoterapiya** [organo…+ …terapiya] – hayvonlardan olingan preparatlar, gormonlar bilan davolash; **radonoterapiya** [*lot.* Radon – Mendeleyev davriy sistemasining VIII guruhiga mansub radioaktiv inert gaz +…terapiya] – radon bilan davolash, davolash maqsadida radondan foydalanish; **refleksoterapiya** [*lot*. reflexus – qaytarilgan, akslangan +…terapiya] – tana sirtidagi nerv uchlariga (tolalariga) boy nuqtalarni qo‘zg‘atishga, ta’sirlantirishga asoslangan davo usullari va vositalari majmuyi; **termoterapiya** [termo...+...terapiya] – davolash maqsadlarida issiqlikdan foydalanish, issiqlik bilan davolash; **vaksinoterapiya** [vaksina + …terapiya] – yuqumli kasalliklarni davolashda vaksinalardan foydalanish; **ximioterapiya** [ximio…+…terapiya] – kasallik qo‘zg‘atuvchi (tarqatuvchi) bakteriyalarga qarshi kimyoviy vositalarni qo‘llash.

TERATO... [*yun.* teras (teratos) – mayib**-**majruh, badbashara] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning tug‘ma mayib**-**majruhlikka, rivojlanish nuqsonlariga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **teratogenez** [terato…+…genez] – homila rivojlanishida anomaliya mexanizmlarining paydo bo‘lishi; **teratogenlik** [terato…+…gen] – ayrim fizikaviy, kimyoviy yoki biologik omillarning murtak rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, bolaning nogiron tug‘ilishiga sabab bo‘lishi; **teratologiya** [terato...+...logiya] – botanika, zoologiya va tibbiyotda: o‘simliklar, hayvonlar va odamlar rivojlanishidagi tug‘ma mayiblik, majruhlik kabi nuqsonlarni o‘rganuvchi kichik so-

halar; **teratoma** [terat(o)…+…oma] – murtak rivojlanishi davrida to‘qimalar shakllanishining buzilishidan kelib chiqadigan o‘smasimon tuzilma; **teratoz** [terat(o)…+…oz] – homila ichki va tashqi a’zolarining patologik rivojlanishi.

TERI(O)... [*yun.* therion – yovvoyi, yirtqich hayvon] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning sutemizuvchi hayvonlarga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **teriodontlar** [teri(o)...+ odont] – qadimda yashagan yirtqich tishli hayvonlar guruhi; **teriologiya** [terio...+ ...logiya] – zoologiyaning sutemizuvchi hayvonlarni o‘rganuvchi sohasi; mammaliologiya.

...TERIY [*yun.* therion – yirtqich hayvon, yovvoyi hayvon] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, o‘zi qo‘shilgan so‘zlar bilan birgalikda qazilma sutemizuvchi yirtqich hayvonlarni bildiradi. Mas.: **akroteriy, emboloteriy, paleoteriy, titanoteriy; brontoteriylar** [*yun.* bronte – momaqaldiroq, gulduragan ovoz +…teriy] – paleogen davrida yashagan, bosh suyagida o‘ziga xos suyakli o‘simtalari bo‘lgan toq tuyoqli yirik sutemizuvchilar; **megateriy** [mega…+…teriy] – ilk to‘rtlamchi davrda qirilib bitgan, Shimoliy va Janubiy Amerikada yashagan, yer ustida sudralib yurgan, yalqovga o‘xshash sutemizuvchi; **trogonteriy** [*yun.* trogo – kemiraman, g‘ajiyman + …teriy] – ilk to‘rtlamchi davrda qirilib ketgan qazilma bobr, Azov dengizi sohillarida janubiy mamont qoldiqlari bilan birga topilgan.

TERM(O)... [*yun.* therme – issiqlik] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning issiqlikka aloqadorligini bildiradi. Mas.: **termal** (suvlar)**, termalgeziya, termanalgeziya, termistor, termoanemometr, termobarokamera, termobarometr, termobatareya, termobo‘yoqlar, termodiffuziya, termodinamika, termoelektr, termoelektron, termoelement, termoesteziometr, termoesteziya, termofor, termofosfatlar, termogiperesteziya, termoion, termokarotaj, termokarst, termokaustika, termokauter, termokauterizatsiya, termokoagulyatsiya, termonastiyalar, termopara, termoplegiya, termopsis, termoqarshilik, termoradioterapiya, termoregulyator, termoretseptorlar, termorezistor, termos, termosezgir, termosfera, termosintez, termoyadro, termoyelim; termalgiya** [term…+…algiya] – issiqlik yoki sovuqlik ta’sirida og‘riq paydo bo‘lishi; **termanesteziya** [term...+ anesteziya] – temperatura (harorat) ni sezishning yo‘qolishi; **termesteziya** [term…+…esteziya] – issiqlik va sovuqlikni sezish (his qilish) qobiliyati; **termit** [term(o)...+...it] – alyuminiy yoki magniyning ba’zi metallar oksidi bilan kukunsimon aralashmasi;

uning intensiv yonishi natijasida reaksiya mahsulotlari temperaturasi 2000^0 dan oshadi; **termlar** – harorati 35^0 va undan ortiq (yuqori) bo‘lgan tabiiy ma’danli (mineral) suvlar; **termofillar** [termo…+…fil] – faqat juda yuqori haroratlarda rivojlana oladigan bakteriyalar; **termofobiya** [termo…+…fobiya] – miyaga o‘rnashib qolgan qo‘rquv – issiqdan, issiq xonalardan qo‘rqish; **termograf** [termo...+...graf] – havo, suyuqlik va shu kabilar temperaturasini uzluksiz qayd qiluvchi asbob; **termografiya** [termo…+…grafiya] – haroratga oid egri chiziqlarni uzluksiz yozib boruvchi asbob – termograf yordamida tana haroratini tekshirish; **termogramma** [termo…+…gramma] – termograf yordamida olingan grafik tasvir, egri chiziq; **termoizolyatsiya** [termo…+ izolyatsiya] – jism haroratini bir me’yorda saqlash, issiqlikni o‘tkazmaslik uchun qo‘llanadigan choralar yig‘indisi; **termoliz** [termo…+ …liz] – 1) issiqlik yordamida yuz beradigan dissotsiatsiya; 2) radiatsiya, terlash va nafas olish yo‘li bilan organizm haroratini pasaytirish; **termometr** [termo...+...metr] – temperatura, haroratni o‘lchash uchun mo‘ljallangan asbob; **termometriya** [termo...+...metriya] – amaliy fizika va metrologiyaning temperaturani o‘lchash usullari va vositalarini o‘z ichiga olgan bo‘limi; **termoregulyatsiya** [termo... + *lot.* regulo – tartibga solaman, boshqaraman + ...atsiya] – odam va issiq qonli hayvonlar (qushlar va sutemizuvchilar) tana haroratining turg‘unligini ta’minlovchi fiziologik jarayon; **termorostlagich** [termo...+ rostlagich] – xona, pech va boshqalardagi temperaturani birday tutib turadigan qurilma; **termostat** [termo...+...stat] – temperaturani doimiy saqlash uchun mo‘ljallangan asbob; **termoterapiya** [termo…+…terapiya] – tananing biror sohasidagi og‘riqni, bo‘g‘im va mushaklarning qiyin harakatlanishini kamaytirish, shuningdek, qon aylanishini yaxshilash uchun issiqlikdan foydalanish, issiqlik bilan davolash.

…TERM(LAR) [*lot.* thermae < *yun.* thermos – issiq, qaynoq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, tegishli so‘zlar bilan qo‘shilib, issiq, issiqlik bilan aloqador terminlarni hosil qiladi. Mas.: **geliotermlar, geterotermlar, izotermlar; evritermlar** [evri…+…term] – evriterm hayvonlar – atrof-muhit haroratining sezilarli o‘zgarishlariga chiday oladigan, bardosh beradigan jonivorlar; **gomoyotermlar** [*yun.* homoios – bir xil, o‘xshash +…term] – gomoyoterm hayvonlar, issiqqonli hayvonlar – atrof-muhitning haroratiga deyarli bog‘liq bo‘lmagan, tana harorati doimiy barqaror bo‘lgan jonivorlar; **poykilotermlar** [*yun.* poikilos – xilma-xil, har xil, ola-bula +…term] – poykiloterm hayvonlar, sovuqqonli hayvonlar, tana harorati barqaror bo‘lmagan, atrof-muhit haroratiga qarab o‘zgarib turadigan hayvonlar; **stenotermlar** [steno…+…term] – stenoterm organizmlar –

atrof-muhitning uncha sezilmaydigan o‘zgarishlarigagina bardosh beradigan, chiday oladigan organizmlar.

TERR... I [*lot.* terra – yer, hudud; tuproq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, yer, zamin ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **terrarium // terrariy, terrenkur, terrigen, terrikon, territoriya, terronim; terrakota** [*ital.* terra kotta – qizdirilgan, kuydirilgan tuproq, loy < *lot.* terra] – rangdor loy va undan tayyorlanib, maxsus xumdonlarda qizdirilgan, badiiy va amaliy ahamiyatga ega, sirlanmagan sopol buyumlar; **terrasa** [*fr*. terrasse < *lot.* terra] – 1) daryo, ko‘l va dengiz qirg‘oqlari hamda tog‘ yonbag‘irlaridagi kelib chiqishi turlicha bo‘lgan, tik yonbag‘ir bilan chegaralangan gorizontal yoki nishabroq tabiiy sahn; 2) asosiy binoning umumiy tomi ostida qo‘shimcha qurilgan yo‘laksimon ayvon, peshayvon.

TERR... II [*lot.* terrare – qo‘rqitmoq, cho‘chitmoq, dahshat solmoq; ta’qib qilmoq] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, qo‘rqitish, cho‘chitish ma’nolarini bildiradi. Mas.: **terror** [*fr.* terreur < *lot.* terror – qo‘rquv, dahshat] – siyosiy raqiblarni qo‘rqitish, jazolash, yo‘q qilish, aholi o‘rtasida tartibsizliklar keltirib chiqarish maqsadidagi zo‘ravonlik harakatlari (qotillik, yong‘in chiqarish, portlatish, garovga olish va hokazo); **terrorizm** [*lot.* terror +...izm] – biror-bir niyatga erishish uchun aholi va hokimiyatni qo‘rqitish, vahimaga solish maqsadida olib boriladigan qo‘poruvchilik, qotillik siyosati.

TERSI... [*lot.* tertius – uchinchi; uchdan bir] – o‘zlashma yasama so‘zlar tarkibida kelib, shu so‘zlarning 3 (uch) soni bilan aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **tersinalar, tersiya; terset** [*ital.* terzetto] – 1) uch ijrochi, asosan, xonandadan tashkil topgan ansambl; 2) uch xonanda yoki uch sozanda ijrosiga mo‘ljallangan musiqiy asar; 3) uch satrdan iborat she’r bandi.

TETAN(O)... [*yun*. tetanus – tirishish, tomir tortish; talvasa] – o‘zlashma qo‘shma va yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, tirishish, akashak bo‘lish; qoqshol ma’nolarini bildiradi. Mas.: **tetaniya, tetanolizin, tetanospazmin; tetanizatsiya** [tetan(o)…+…izatsiya] – tetanik tirishish (talvasa) belgilarini vujudga keltirish; **tetanotoksin** [tetano… + *yun*. toxikon – zahar] – qoqshol tayoqchasining zaharli moddasi; **tetanus** [*lot*. tetanus < *yun.* tetanus – talvasa, tirishish] – tegishli ta’sirotlarning birin-ketin tez-tez ta’sir etishi natijasida mushakning uzoq vaqt qisqarishi; mushakning uzoq qisqarishi.

TETRA... [*yun.* tetra – to‘rt] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarning 4 soni bilan aloqadorligini bildiradi. Mas.: **tetraetilqo‘rg‘oshin, tetragidrofuran, tetragonal, tetramastiya // tetramaziya, tetrametr, tetraplegiya, tetrapodlar, tetrarx, tetrarxiya, tetratsiklin, tetraxloretan, tetrayodtironin; tetraedr** [tetra...+...edr] – hamma yoqlari uchburchaklardan iborat to‘rtyoqlik; uchburchakli piramida; **tetrakokklar** [tetra…+…kokk] – to‘rttadan alohida-alohida bo‘lib joylashgan sharsimon bakteriyalar; **tetralogiya** [tetra...+...logiya] – bir muallifning yagona g‘oya, mazmun asosida birlashtirilgan to‘rt badiiy, musiqiy yoki sahna asari; **tetraplegiya** [tetra...+...plegiya] – harakatlantiruvchi nervlar yoki mushaklarning zararlanishi natijasida qo‘l-oyoqlarning falaj bo‘lib qolishi; **tetraxord** [tetra…+ *yun.* chorde – tor, sim] – to‘rt torli tovushqator (kvarta doirasidagi to‘rtta tovush); **tetrod** [tetr(a)...+...od] – to‘rt elektrodli (katod, ikkita to‘r va anodli) elektron lampa.

TEXN(O)... [*yun.* techne – san’at, mahorat; hunar, bilim] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, biror ishni amalga oshirishdagi san’at va mahorat, bilim bilan aloqadorlikni bildiradi. Mas.: **texnik** (texnika mutaxassisi)**, texnik** (texnikaga oid, aloqador)**, texnikum, texnogen, texnokrat, texnolog, texnotron; texnetsiy** [*yun.* technetos – yasama, sun’iy] – Mendeleyev davriy sistemasining VII guruhiga mansub kumushrang-kulrang radioaktiv metall; sun’iy ravishda olingan birinchi kimyoviy element; **texnika** [*yun.* technikos – mohir, bilimdon] – 1) tovar va xizmatlar ishlab chiqarishda qo‘llanadigan moddiy vositalar va aqliy bilimlar majmuyi; 2) biror ish (hunar) yoki san’atda qo‘llanadigan usullar majmuyi va ularni egallash; 3) biror ishlabchiqarish sohasidagi mashina, mexanizm, qurilma va asbob-uskunalar majmuyi; **texnokratiya** [texno...+...kratiya] – 1) ijtimoiy tafakkkurdagi oqim; unga ko‘ra, jamiyat butunlay ilmiy-texnika tafakkuri tamoyillari bilan boshqarilishi mumkin; texniklar, muhandislar va olimlar (texnokratlar) ilmiy-texnika tafakkurining namoyandalari bo‘lib, korxonalar va umuman jamiyatdagi barcha hokimiyat tadbirkor va siyosatchilardan ularga o‘tishi kerak; 2) ishlab chiqarish va davlat apparatining yuqori malakali mutaxassislari (yuqori darajali olimlar, menejerlar, muhandislar) qatlami; **texnologiya** [texno...+...logiya] – xalq xo‘jaligining turli sohalarida mahsulotlar olish, ularga ishlov berish va ularni qayta ishlash usullari majmuyi; shu usullarni ishlab chiqish, o‘rganish, joriy qilish va takomillashtirish bilan shug‘ullanadigan fan; **texnopark** [texno…+ park] – fundamental ilmiy tadqiqotlar, tajribaviy ishlab chiqarishdan tortib, yangi mahsulotni sotishgacha bo‘lgan jarayonlarni qamrab oluvchi ilmiy-texnologik majmua; innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun

hududiy, ilmiy, texnologik, texnik baza; **texnopolis** [texno...+ *yun.* polis – shahar] – innovatsiya jarayonlarini jadallashtirish, texnik-texnologik yangiliklarni tez va samarali qo‘llashga yordam berish maqsadida tashkil etiladigan erkin iqtisodiy zonalar shakllaridan biri.

TIFL(O)... [*yun.* typhlos – ko‘r] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning ko‘rlarga, ko‘rlikka; ko‘richakka aloqadorligini bildiradi. Mas.: **tiflektaziya** [tifl...+...ektaziya] – ko‘richak devorlari qalinlashmasdan kengayishi; **tiflit** [tifl...+...it] – ko‘richakning yallig‘lanishi; **tiflopedagogika** [tiflo...+ pedagogika] – defektologiyaning ko‘r va zaif ko‘ruvchi bolalarni o‘qitish, tarbiyalash hamda ularni mehnatga tayyorlash masalalarini ishlab chiquvchi sohasi; **tiflostaz** [tiflo...+...staz] – axlatning ko‘richakda tutilib qolishi; **tiflostomiya** [tiflo...+...stomiya] – ko‘richakda tashqariga oqadigan yo‘l ochish operatsiyasi; **tiflotexnika** [tiflo...+ texnika] – ko‘rlar, ko‘zi ojizlar va ko‘r-karlarni o‘qitish, mehnat faoliyatiga tayyorlash, ko‘zi ojizlarning ko‘rish qobiliyatini kuchaytirish va tiklash uchun mo‘ljallangan maxsus asbobsozlik sohasi.

TIM(O)... [*yun.* thymus – ayrisimon bez] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, ayrisimon bez, buqoq bezi ma’nolarini bildiradi. Mas.: **timol, timoleptiklar, timopatiya, timotoksin, timotropizm; timektomiya** [tim...+...ektomiya] – ayrisimon bezni jarrohlik yo‘li bilan olib tashlash; **timit** [tim(o)...+...it] – ayrisimon bez (timus) ning yallig‘lanishi; **timoma** [tim(o)...+...oma] – ayrisimon bezdan hosil bo‘ladigan o‘sma; **timotsit** [timo...+...sit] – ayrisimon bez hujayralarining umumiy nomi; **timus** [*yun*. thymus] – ayrisimon bez – odamning ko‘krak bo‘shlig‘ida joylashgan va o‘sishni boshqarish, mineral almashinuvi, shuningdek alohida o‘ziga xos immunitetni shakllantirishda ishtirok etuvchi ichki sekretsiya bezi.

TIMPAN(O)... [*yun.* tympanon – nog‘ora, baraban] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, nog‘ora; nog‘ora parda, nog‘ora bo‘shlig‘i ma’nolarini bildiradi. Mas.: **timpanal** (a’zo), **timpaniya, timpanoplastika; timpanit** [timpan...+...it] – perkussiya qilinganda, havoli bo‘shliqlar ustida eshitiladigan jarangli tovush; **timpanopunksiya** [timpano...+ *lot.* punctio – sanchib teshish] – o‘rta quloq bo‘shlig‘ida yig‘ilgan suyuqlikni chiqarish maqsadida quloq pardasini nina bilan teshish; **timpanoskleroz** [timpano...+ ...skleroz] – o‘rta quloqning ayrim joylarida biriktiruvchi to‘qimaning o‘sib ketishi, ba’zan ohaklanishi va suyaklanishi; **timpanotomiya** [timpano...+ ...tomiya] – nog‘ora bo‘shlig‘ini ochishdan iborat jarrohlik operatsiyasi.

TIO... [*yun.* theion – oltingugurt] – ayrim kimyoviy birikmalarning nomlarini bildiruvchi o‘zlashma qo‘shma terminlarning birinchi qismi bo‘lib, shu birikmalar tarkibida oltingugurt borligini anglatadi. Mas.: **tiatseton, tiazol, tiofen, tiofenollar, tioguanin, tiokislotalar, tiollar, tionilxlorid, tionin, tiotsianatlar; tiamin** [ti(o)...+...amin] – B_1 vitamini; asab tizimining bir tekis ishlashi uchun kerak bo‘ladigan, suvda eruvchan vitamin; **tioefirlar** [tio...+ *yun.* aither – havo] – organik sulfidlar: organik radikallarning oltingugurt bilan birikmalari; **tiofen** [*ing*. thiophene] – geterotsiklik qatorga mansub, toshko‘mir va slanes smolalari tarkibida bo‘ladigan rangsiz suyuqlik; **tiofil** [tio...+...fil]: ***tiofil organizmlar*** – oltingugurt va uning birikmalari muhitida yaxshi o‘sadigan bakteriyalar; **tioindigo** [tio...+ indigo] – tarkibida oltingugurt bo‘ladigan nilrang organik bo‘yoq; **tiokol** [*ingl.* thiokol] – tarkibida oltingugurt bo‘lgan sintetik kauchuk; **tiospirtlar** [tio...+ spirt] – tarkibida sulfgidril guruh bo‘lgan o‘ta sassiq organik birikmalar; merkaptanlar; **tiosulfatlar** [tio...+...sianatlar] – tiosulfat kislota tuzlari va efirlari.

TIP(O)... [*yun.* typos – iz; nusxa; qolip; tasvir] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy (birinchi) qismi bo‘lib, matbaa, nashr ishlari, qiyosiy tadqiqotlarga aloqadorlikni bildiradi. Mas.: **tipograf, tipolitografiya, tipolog, tipometriya, tipoofset; tipaj** [tip...+...aj] – 1) bir turli mahsulotlarning modellari, tiplari, namunalari majmuyi; 2) biror obraz yaratish uchun andoza yoki namuna bo‘lib xizmat qiladigan shaxs; **tipografiya** [tipo...+...grafiya] – kitob, gazeta va boshqa turli xil nashrlarni bosib chiqaradigan korxona; bosmaxona; **tipologiya** [tipo...+...logiya] – 1) narsalar yoki hodisalar tizimini qismlarga ajratish va ularni umumiy alomatlariga qarab ilmiy asosda tiplarga – guruhlarga ajratish, tasnif qilish; 2) til tuzilishining muhim belgilarini ayrim olingan tillar qurilishini o‘rganish, ularni har tomonlama taqqoslash asosida aniqlovchi va umumlashtiruvchi tilshunoslik bo‘limi; **tipometr** [tipo...+ ...metr] – 1) tipografik harflar o‘lchamlari (balandligi, eni) ni tekshirish uchun qo‘llanadigan asbob; 2) terilgan tipografik harf qatorlari sonini o‘lchashda foydalaniladigan chizg‘ich.

...TIP, ...TIPIYA [*yun.* typos – iz; nusxa; shakl, qolip; tasvir, obraz; o‘xshashlik] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismlari bo‘lib: 1) poligrafiya, matbaa, nashr (chop) etish bilan bog‘liq terminlar (**alfatip, linotip, monotip, paleotip, stereotip** – bosma mashinalar; **akvatipiya, avtotipiya, fototipiya, monotipiya, stereotipiya, xromotipiya** – bosish, chop etish usullari); 2) fotografiya, suratga olish, tasvir hosil qilish bilan bog‘liq terminlar (**dagerrotipiya, diazotipiya, kontratip, mikrotipiya**); 3) tasvir,

obraz bilan bog‘liq ijtimoiy-siyosiy, adabiyotshunoslik terminlari (**arxetip, prototip, stereotip**); 4) organizmlarning o‘zaro munosabatlari, ular o‘rtasidagi bir xillik, o‘xshashlik ma’nolaridagi biologik terminlar (**biotip, ekotip, fenotip, genotip, gomotipiya, kariotip, somatotip**) hosil qiladi.

TIREO..., TIRO... [*yun.* thyreos – qalqon, thyreoeides – qalqonsimon] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, qalqonsimon bez ma’nosini bildiradi. Mas.: **tireoglobulin, tireoidizatsiya, tireoidizm, tireoidin, tireokalsitonin // tirokalsitonin, tireokrin, tireoplaziya, tireostatik** (vositalar), **tireotrofin, tireotrop** (gormonlar), **tireotropin, tiroksin, tironin, tirozin; tireoidektomiya** [tireo(id)...+...ektomiya] – qalqonsimon bezni kesib tashlashdan iborat jarrohlik operatsiyasi; **tireoidit** [tireod(o)...+...it] – qalqonsimon bezning yallig‘lanishi; **tireokardit** [tireo...+...kardit] – gipertireoidizm tufayli yurak mushaklarining shikastlanishi, yallig‘lanishi; **tireoptoz** [tireo...+...ptoz] – qalqonsimon bezning ko‘krak qafasida joylashishi, pastga tushishi; **tireotoksikoz** [tireo...+ toksikoz] – qalqonsimon bez faoliyatining haddan tashqari oshib ketishi natijasida yuz beradigan kasallik; **tireotomiya** [tireo...+...tomiya] – 1) qalqonsimon tog‘ayni kesish operatsiyasi; 2) qalqonsimon bezni kesish operatsiyasi; **tirotsele** [tiro...+...sele] – qalqonsimon bez shishi; **tirotsit** [tiro...+...sit] – epitelial hujayra; qalqonsimon bez follikulalarining devori tirotsitlardan tuzilgan.

TOK... [*yun.* tokos – avlod, urug‘] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, avlod, nasl ma’nolarini bildiradi. Mas.: **tokoferol** [toko...+ fer(o)...+...ol] – tirik organizmning hayot faoliyati va normal modda almashinuvi uchun zarur bo‘lgan organik birikmalardan biri – E vitamini: hayvonlar bepushtligiga qarshi qo‘llanadi.

TOKSIK(O)..., TOKS(O)... [*yun.* toxikon – zahar] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, zahar, zaharlanish ma’nolarini anglatadi. Mas.: **toksalbumin, toksigen, toksikoinfeksiyalar, toksikolog, toksinemiya, toksinoderma, toksinogen, toksoplazmoz; toksemiya** [toks(o)...+ ...emiya] – qonda tashqaridan kirgan yoki organizmning o‘zida ishlab chiqarilgan toksinlarning aylanib yurishidan paydo bo‘lgan zaharlanish; **toksikodermiya** [toksiko...+...dermiya] – zaharlar ta’sirida vujudga kelgan teri kasalligi; **toksikofobiya** [toksiko...+...fobiya] – miyaga o‘rnashib qolgan vahima – zaharlanishdan qo‘rqish; **toksikologiya** [toksiko...+...logiya] – tibbiyotning zaharli moddalarning fizik va kimyoviy xususiyatlari, ularning tirik organizmlarga ta’siri mexanizmi, zaharlanish alomatlarini o‘rganuvchi sohasi; **toksi-**

komaniya [toksiko...+...maniya] – mastlik, qisqa muddatli xursandchilik, kayf paydo qiluvchi turli xil moddalar (spirtli ichimliklar, narkotiklar, ba'zi dorilar, maishiy kimyo vositalari) ni iste'mol qilishga moyillik bilan namoyon bo'luvchi kasalliklarning umumiy nomi; **toksikoz** [toksiko…+…oz] – organizmga tashqi muhitdan tushgan yoki uning ichida hosil bo'lgan zaharli moddalar (toksinlar) ta'siri natijasida kelib chiqadigan kasallik holati; **toksinlar** [toks…+…in] – zaharlar; ayrim hayvonlar va o'simliklar hosil qiladigan bakteriyalardan ajralib chiqadigan zaharli moddalar; **toksinoterapiya** [toksin…+…terapiya] – zahar bilan (mas., ilon zahari bilan) davolash; **toksoplazmalar** [toksо…+…plazma] – sodda hayvonlar turining xivchinlilar sinfiga kiruvchi bir hujayrali organizmlar; ular odam va sutemizuvchilarda parazitlik qilib, turli kasalliklar keltirib chiqaradi.

TOM(O)... [*yun.* tomos – bir bo'lak; qavat, qatlam] – o'zlashma qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, bir bo'lak, bir parcha, qavat, qatlam degan ma'nolarni bildiradi. Mas.: **tomograf** [tomo…+…graf] – tomografiya uchun mo'ljallangan, maxsus konstruksiyali rentgen qurilmasi; **tomografiya** [tomo…+…grafiya] – rentgen nurlari yordamida odam a'zolarining qavatma-qavat soya tasvirini olish usuli; **tomogramma** [tomo…+…gramma] – odam a'zosi ayrim qavatlarining rentgenologik tasviri, rentgen surati.

...TOM [*yun.* tome – kesilgan, kesuvchi; kesma] – o'zlashma qo'shma so'zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo'lib: 1) tanadagi biror a'zoni kesuvchi, qirquvchi (asbob) degan ma'noni bildiradi. Mas.: **adenotom, dermatom, farinotom, kapsulotom, mikrotom, sklerotom, tonzillotom; gistotom** [gisto...+...tom] – mikroskop ostida tekshirish uchun juda yupqa kesma tayyorlaydigan asbob; mikrotom; **osteotom** [osteo...+...tom] – suyakni teshuvchi maxsus asbob; **vitreotom** [*lot.* vitrum – shisha +...tom] – shishasimon tanani kesadigan asbob; 2) biron-bir a'zo rivojidagi murtak (embrional) holatni ifodalaydi. Mas.: **dermatom, miotom, nefrotom, splanxnotom.**

...TOMIYA [*yun.* tome – kesish, qirqish] – o'zlashma qo'shma so'zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo'lib, birinchi qism (so'z) dan anglashilgan tana a'zosini kesish, qirqish, teshish, yorib (ochib) ko'rish, kesib olib tashlash kabi ma'nolarni bildiradi. Mas.: **avtotomiya, blefarotomiya, dixotomiya, embriotomiya, flebotomiya, gepatotomiya, keratotomiya, laringotomiya, litotomiya, nefrotomiya, orxeotomiya, plevrotomiya, pnevmotomiya, sklerotomiya; adenotomiya** [adeno...+...tomiya] – yutqinning burun qismidagi kattalashgan limfoid to'qimani olib tashlash; **artrotomiya** [artro...+

...tomiya] – bo‘g‘im xaltasini operativ yo‘l bilan ochish; **gastrotomiya** [gastro...+...tomiya] – oshqozonni kesib ochish; **laparotomiya** [laparo...+...tomiya] – qorin bo‘shlig‘ini unda joylashgan a’zolarni operatsiya qilish yoki tashxisni aniqlashtirish maqsadida yorib ochish; **osteotomiya** [osteo...+...tomiya] – tug‘ma yoki orttirilgan nuqsonlarni to‘g‘rilash uchun suyakni osteotom yordamida kesish yoki teshish operatsiyasi; **torakotomiya** [torako...+...tomiya] – o‘pka, yurak, qon tomirlar, oshqozon shikastlanganda, ko‘krak qafasini operatsiya yo‘li bilan ochish; **traxeotomiya** [traxeo...+...tomiya] – nafas olishni tiklash maqsadida traxeya (kekirdak) ni ochish va uning tirqishiga maxsus naycha kiritish; **venotomiya** [veno...+...tomiya] – trombni olib tashlash uchun yoki boshqa maqsadda vena qon tomirini kengroq ochish.

TON(O)... [*yun.* tonos – taranglik; kuchlanish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, ton, tonus (taranglik) ma’nolarini anglatadi. Mas.: **tonikum, tonofibrlillalar; tonografiya, tonometriya, tonoplast; tonograf** [tono...+...graf] – tonusni chiziq bilan qayd qiladigan, yozadigan asbob; **tonometr** [tono...+...metr] – 1) qon bosimini, shuningdek, ko‘zning ichki bosimini o‘lchaydigan apparat; 2) ikki kamertonning tebranishlar chastotasini taqqoslash uchun mo‘ljallangan asbob; **tonus** [*lot.* tonus < *yun.* tonos – taranglik] – nerv markazlari yoki mushak to‘qimalarining charchamay, uzoq vaqt davomida qo‘zg‘algan holatda bo‘lishi.

TONZILL(O)... [*lot*. tonzilla – bodomcha, bodomchasimon bez] – o‘zlashma yasama va qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, bodom (cha)simon bez, tanglay murtagi degan ma’nolarni ifodalaydi. Mas.: **tonzillalar, tonzillotomiya, tonzillyar; tonzillektomiya** [tonzill…+…ektomiya] – bodomchasimon bezni operatsiya yo‘li bilan butunlay olib tashlash; **tonzillit** [tonzill…+…it] – bodomcha bezlarining yallig‘lanishi; angina; **tonzillotom** [tonzillo…+…tom] – bodomchasimon bezni qisman olib tashlashda ishlatiladigan asbob.

TOP(O)..., ...TOP [*yun.* topos – joy, o‘rin] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi va ikkinchi tarkibiy qismlari bo‘lib, shu so‘zlarning muayyan joy, o‘ringa aloqadorligini bildiradi: I. Qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi sifatida. Mas.: **topoasos, topograf, topoleksema, topolog, topoonomastika; topalgiya** [top(o)...+...algiya] – terining qat’iy chegaralangan qismida og‘riq paydo bo‘lishi; **topofobiya** [topo...+...fobiya] – miyaga o‘rnashib qolgan qo‘rquv – ma’lum joy yoki xonadan qo‘rqish; **topografiya** [topo...+...grafiya] – 1) geodeziyaning biror joyning, yer sathining geografik va geometrik elementlarini tasvirlash

va shu asosda topografik xaritalar yaratish usullarini o‘rganuvchi bo‘limi; 2) tibbiyotda anatomik zonalar yoki maxsus qismlar tasviri; **topologiya** [topo...+ ...logiya] – matematikaning geometrik shakllarning eng umumiy xossalarini o‘rganuvchi bo‘limi; **toponimlar** [topo...+...onim] – joy nomlari, geografik nomlar; **toponimika** [topo...+ onim(a)...+...ika] – 1) biror joyning, hududning geografik nomlari majmuyi; 2) leksikologiyaning geografik nomlarni o‘rganadigan bo‘limi. II. Qo‘shma so‘zlarning ikkinchi qismi sifatida. Mas.: **izotop, xronotop; biotop** [bio...+...top] – hayvonlar, o‘simliklar va mikroorganizmlar (biotsenoz) nisbatan bir xil yashash sharoitlariga ega bo‘lgan quruqlik qismi yoki suv havzasi; **evritoplar** [evri...+...top] – turli xil yashash sharoitlarida yashay oladigan o‘simliklar va hayvonlar; **stenotoplar** [steno...+...top] – faqat muayyan bir (tor) hududda yashovchi o‘simliklar va hayvonlar.

TORAK(O)... [*yun.* thorax (thorakos) – ko‘krak] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, ko‘krak, ko‘krak qafasi ma’nolarini bildiradi. Mas.: **torakal** (ko‘krakka, ko‘krak qafasiga oid), **torakoabdominal** (ko‘krak-qorin bo‘shlig‘iga oid), **torakofagus, torakokaustika, torakomelus, torakoplastika, torakoskopiya, torakotsentez, toraks; torakobronxotomiya** [torako...+ bronxo...+...tomiya] – ko‘krak qafasi devori orqali bronxlarni kesish; **torokolaparotomiya** [torako...+ laparo…+…tomiya] – ko‘krak qafasi va qorin bo‘shlig‘ini jarrohlik yo‘li bilan ochish; **torakometr** [torako...+...metr] – ko‘krak qafasi yoki qorinning aylanma o‘lchovini aniqlaydigan asbob; **torakoskop** [torako...+...skop] – plevra bo‘shlig‘ini tekshirish uchun ishlatiladigan maxsus optik asbob; **torakotomiya** [torako...+...tomiya] – operatsiya yo‘li bilan ko‘krak qafasini ochish.

TOT... [*lot.* totus, totalis – to‘la, to‘liq, butunicha, butunlay, hammasi] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, butun, to‘liq, butunlay ma’nolarini anglatadi. Mas.: **total** [*lot.* totalis – butun, butunlay, barcha] – beistisno barchaga baravar, taalluqli, yalpi, umumiy (masalan, *total urush*); **totalitar** [*fr.* totalitaire < *lot.* totaliter – butun, barcha, butunlay] – zo‘ravonlik bilan xarakterlanadigan, demokratik ozodlik va shaxs erkinligini cheklash yoki yo‘qotishga qaratilgan (mas., *totalitar davlat* – totalitarizm); **totalitarizm** [*fr.* totalitarisme < totalitar +...izm] – davlat boshqaruvi shakllaridan biri: bunda jamiyat hayotining barcha sohalari ustidan davlatning yalpi (total) nazorati o‘rnatiladi, konstitutsion huquq va erkinliklar yo‘qotiladi, bir shaxs yoki ijtimoiy guruh (siyosiy partiya) ning yakkahokimligiga bo‘ysuniladi, muxoliflar va o‘zgacha fikrlovchilarga nisbatan qatag‘on uyushtiriladi.

TRA(NS)... [*lot.* trans – orqali, ichidan, o‘rtasidan, ustidan; bilan] – old ko‘makchi, old qo‘shimcha; o‘zlashma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib: 1) qandaydir joy, fazo, maydon orqali harakatlanish, uni (oralab, ichidan) kesib o‘tish (mas., *transatlantik*); 2) biron narsa izidan, ortidan borish, ergashish; biron narsaning narigi (orqa) tomonida, undan keyin joylashish (mas., *transalpik, transuranlar*); 3) biror narsa vositasida ifodalash, belgilash yoki ko‘chirish, uzatish (mas., *transduksiya, transliteratsiya, transplantatsiya*) kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **transfeksiya, transferazalar; transferensiya, transfer(t), transfokator, transformatsiya, transgressiya, trans’himolay** (tog‘lari), **transkontinental** (qit’alararo), **translokator, translyator, translyatsiya, transmigratsiya, transmilliy** (korporatsiya), **transmissiya, transplantolog, transport, transportyor, transpozitsiya, transseksualizm; transsudatsiya, transverzit, transvestit, transvestizm, tranzistor, tranzitivizm; transduksiya** [*lot.* transductio – joyni o‘zgartish, joydan ko‘chirish] – irsiy ma’limotni bir hujayradan ikkinchi hujayraga o‘tishi; **transfuziya** [*lot.* transfusio – (biror narsa ichiga) quymoq, quyib kirgizmoq] – qon va shunga o‘xshash suyuqliklarni qon tomiriga yoki suyak ichiga quyish; **transkripsiya** [*lot.* transcriptio (trans-scriptio) – ko‘chirib yozish] – 1) biror tildagi nutq tovushlarining talaffuzini shartli belgi va harflar vositasida aniq aks ettirish; shu maqsad uchun xizmat qiladigan belgilar tizimi; 2) biror soz yoki ovoz uchun mo‘ljallab yozilgan musiqa asarini boshqa soz yoki ovoz ijrosi uchun moslashtirish yoki uni ustalik bilan qayta ishlash; **transliteratsiya** [trans...+ *lot.* lit(t)era – harf +...atsiya] – biror alifbo asosida yozilgan matnlar yoki alohida so‘zlarni boshqa bir alifbo vositalari bilan harfma-harf aks ettirish; **translokatsiya** [trans...+ *lot.* locatio – joylashish] – xromosomalar bir qismining o‘sha xromosomaning boshqa qismiga yoki ikkinchi xromosomaga o‘tib qolishi, xromosomalarning qayta qurilishi; **transpiratsiya** [trans...+ *lot.* spirare – nafas olmoq va chiqarmoq] – o‘simlik barglarining suv bug‘latishi; o‘simlikning to‘xtovsiz nam olib turishiga yordam beradigan, tuproqdan mineral tuzlarning kelib turishini ta’minlaydigan, to‘qimalar haroratini boshqarib turadigan muhim fiziologik jarayon; **transplantat** [*lot.* transplantare] – transplantatsiya qilish uchun bir yerdan ikkinchi yerga ko‘chirib o‘tkaziladigan to‘qima yoki a’zo; **transplantatsiya** [*lot.* transplantare – ko‘chirib boshqa joyga o‘tkazmoq] – odam va hayvonlarda patologik jarayon natijasida shikastlangan yoki olib tashlangan to‘qima va a’zolar o‘rniga sog‘lomini ko‘chirib o‘tkazish; **transplantologiya** [transplantatsiya +...logiya] – biologiya va tibbiyotning transplantatsiya masalalarini o‘rganadigan, a’zo va to‘qimalarni konservatsiya qilish (saqlash), sun’iy a’zolarni yaratish va tatbiq qilish usullarini ishlab chiqadigan sohasi; **transuran** [trans...+ uran]: ***transuran elementlar*** – Mendeleyev davriy sistemasida urandan so‘ng joylashgan kimyoviy elementlar.

TRAVMA(TO)... [*yun.* trauma – yara, jarohat, shikast] – o‘zlashma yasama va qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning yara, jarohat(lanish), shikast(lanish) ma’nolariga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **travmatolog, travmatopneya; travma** [*yun.* trauma] – odam va hayvon organizmi to‘qimalarida tashqi (mexanik, kimyoviy, termik va boshqa) ta’sirlar natijasida vujudga keladigan jarohat yoki shikast; **travmatizm** [*ingl.* traumatizm < travmato…+…izm] – muayyan davr (oy, yil) ichida aholining ma’lum guruhida ro‘y bergan jarohatlarning jami; **travmatologiya** [travmato…+ …logiya] – tibbiyotning jarohat va shikastlarni – travmalarni o‘rganish, ularni davolash hamda oldini olish bilan shug‘ullanadigan sohasi.

TRAX(I)... [*yun.* trachys – dag‘al, g‘adir-budur] – o‘zlashma yasama so‘zlarning birinchi (o‘zak) qismi bo‘lib, dag‘allik, g‘adir-budurlik ma’nolarini bildiradi. Mas.: **traxit** [trax(i)...+...it] – tarkibi bo‘yicha siyenitlarga mos keluvchi effuziv magmatik tog‘ jinsi; **traxoma** [trax(i)...+...oma] – ko‘zning rangdor pardasi va muguz pardasining kuchli shikastlanishi bilan ifodalanadigan surunkali yuqumli ko‘z kasalligi.

TRAXE(O)... [*yun.* tracheia – nafas olish; tomoq, kekirdak, bo‘g‘iz] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, nafas olish yo‘llari, nafas olish naychalari, tomoq, bo‘g‘iz kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **traxeidlar, traxeobakterioz, traxeomikoz, traxeoskopiya, traxeostomiya, traxeotomiya; traxeit** [traxe...+...it] – nafas yo‘li (traxeya) shilliq pardasining yallig‘lanishi; **traxeobronxit** [traxeo...+ bronx(o)...+...it] – kekirdak va bronxlarning bir paytda yallig‘lanishi; **traxeobronxoskopiya** [traxeo…+ bronxo…+…skopiya] – traxeya va bronxlarni maxsus asbob – bronxoskop yordamida tekshirish; **traxeoplastika** [traxeo...+...plastika] – kekirdakning yorilgan yoki olib tashlangan qismini jarrohlik yo‘li bilan tiklash, yamash; **traxeostenoz** [traxeo…+ stenoz] – kekirdak oralig‘ining torayishi; nafas yetishmasligiga sabab bo‘ladi; **traxeya** [*yun.* tracheia] – 1) kekirdak va bronxlar orasida joylashgan nafas olish yo‘li, naychasi; 2) o‘simlikning suv o‘tkazuvchi naychalari (to‘qimalari).

TRAXELO... [*yun*. trachelos – bo‘yin] – ayrim o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, bachadon bo‘yni degan ma’noni bildiradi. Mas.: **traxelorafiya** [traxelo…+…rafiya] – bachadonning shikastlangan bo‘ynini tikish; **traxelotomiya** [traxelo…+…tomiya] – bachadon bo‘ynini kesish.

TREM(O)... [*lot.* tremere – titramoq, qaltiramoq, zirillamoq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, titrash, qaltirash ma’nolarini

anglatadi. Mas.: **tremograf, tremolo; tremogramma** [tremo...+...gramma] – tana qismlarining titrashini tremograf asbobi yordamida chiziqlar shaklida yozib olish; tremorning grafik tasviri; **tremor** [*lot.* tremor – titrash, qaltirash] – nerv sistemasi shikastlanganda qo‘l va oyoqlarning, bosh, til va boshqa a’zolarning ritmik holda titrashi.

TREM(AT)... [*yun.* trema – yoriq, teshik, tuynuk, tirqish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, teshik, tirqish ma’nolarini bildiradi. Mas.: **trematodalar** [*yun.* trematodes – so‘rg‘ichlar bilan ta’minlangan < trema] – so‘rg‘ichli chuvalchanglar; og‘iz va qorin sohasida so‘rg‘ichlari bo‘lgan yassi parazit chuvalchanglar sinfi; **trematodozlar** [trematod(a) + ...oz] – odam va hayvonlarda so‘rg‘ichli chuvalchanglar – trematodalar keltirib chiqaradigan gijja kasalliklari guruhi.

TRI... [*yun.* tri – uch, 3 soni] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, uch (3) soni bilan bog‘liq so‘zlar, terminlar hosil qiladi; uchlikka, uch kishi yoki narsaga aloqadorlikni bildiradi. Mas.: **triada, triangulyatsiya, tribxariy, tridermoma, triedr, trifol, trifoliata, triglif, triglitseridlar, trigonit, trilogiya, trimaran, trimetilamin, trinitrofenol, trinitrotoluol, triola, tripleks, triplet, triploid, trirema, triseksiya, trisomiya, tristix, tritiy, triton** (musiqada)**, tritseps, triumvirat, trivium, trixromat; triatlon** [tri...+ ...atlon] – uzluksiz sport uchkurashi: ochiq suv havzasida suzish, velopoyga, yengil atletika yugurishi; **triftong** [tri...+...ftong] – bir bo‘g‘inda uchta unli tovushning birikishi; **trigonokefaliya // trigonotsefaliya [**tri...+ goni(o)...+ ...kefaliya] – kallaning ponasimon shakli: peshonasi toraygan va ensasi (orqa tomoni) kengaygan bo‘ladi; **trigonometriya** [tri...+ gono...+...metriya] – matematikaning trigonometrik funksiyalarning xossalarini, uchburchakning tomonlari bilan burchaklari orasidagi munosabatlarni o‘rganuvchi bo‘limi; **trimestr** [*lot*. trimestris – uch oyli] – 1) ayrim mamlakatlar oliy o‘quv yurtlarida o‘quv yilining uch oydan iborat bir qismi; 2) akusherlikda homiladorlikning uchdan bir davrini tashkil qiladigan uch oylik vaqt; **trio** [*ital.* trio] – 1) uch xonanda yoki sozandadan tashkil topgan ansambl; 2) shunday ansamblga mo‘ljallab yozilgan musiqa asari; **triod** [tri...+...od] – katod, boshqaruvchi to‘r va anoddan iborat uch elektrodli elektron lampa; **triplan** [tri...+...plan] – bir-birining ustida parallel joylashgan uchta qanotga ega bo‘lgan samolyot; **triplegiya** [tri...+...plegiya] – bir qo‘l va ikkala oyoqning harakatdan qolishi, falaj bo‘lishi; **triptix** [*yun.* triptychos – uch qavat; uch buklangan] – umumiy badiiy g‘oya, mavzu yoki syujet bilan birlashgan, 3 qismdan tashkil topgan tasviriy san’at asari; **trivaksina** [tri...+ vaksina] – ichterlama, A paratifi va

B bakteriyalaridan iborat vaksina, emdori; **trixord** [*yun.* trichordos – uch torli] – tersiya yoki kvarta hajmidagi uchta tovushdan iborat tovushqator; **triyennale** [tri…+ *lot.* annus (annalis – yil, yilnoma)] – har uch yilda bir marta o‘tkaziladigan san’at asarlari ko‘rgazmasi.

TRIB(O)... [*yun.* tribo – ishqalamoq, uqalamoq; surtmoq; ezmoq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, ishqalash, ishqalish, uqalash, ezish ma’nolarini bildiradi. Mas.: **triboelektr, tribologiya; tribolyuminessensiya** [tribo...+ lyuminessensiya] – ba’zi kristall moddalarning ishqalanishi va parchalanishida ro‘y beradigan lyuminessensiya; **tribometriya** [tribo...+...metriya] – ishqalanuvchi sirtlarning ishqalanish kuchi va yeyilishga chidamliligini o‘lchash usullari.

TRIPS... [*yun.* thrypsis – parchalash; suyultirish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, maydalash, suyultirish, parchalash ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **tripsin** [trips...+...in] – odam va hayvonlarning oshqozonosti bezida sintezlanib, ichaklarda oqsillar parchalanishida ishtirok etuvchi, gidrolazalar sinfiga mansub, ovqat hazm qiluvchi modda.

...TRIPSIYA [*yun.* thrypsis, thripsia – parchalash, maydalash; suyultirish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, maydalash, parchalash, sindirish, suyultirish ma’nolarini bildiradi. Mas.: **sefalotripsiya** [sefalo...+…tripsiya] – zarurat tug‘ilgan hollarda bosh (kalla) suyagini parchalash, sindirish operatsiyasi; **litotripsiya** [lito…+…tripsiya] – buyrakda, o‘t pufagida joylashgan toshni maxsus uskuna – litotriptor yordamida maydalash operatsiyasi; **nevrotripsiya** [nevro…+…tripsiya] – nevrinomaning qaytadan o‘sishiga yo‘l qo‘ymay kesilgan nerv uchiga 5% li karbol kislota yoki formalin surtish.

TRIX(O)... [*yun.* trix (trichos) – qil, soch, tuk] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, qil, soch, tuk ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **trixatrofiya, trixina // trixinella, trixinellyoz // trixinoz, trixobakteriya, trixobazalioma, trixobezoar, trixodinozlar, trixoepitelioma, trixofitlar, trixofiton, trixoklaziya, trixomalar, trixomatoz, trixomatrioma, trixomonada, trixomonotsid, trixonodoz, trixoreksiya, trixosporiya, trixosporon, trixosporoz, trixotsefalyoz, trixotsistalar; trixalgiya** [trix(o)...+...algiya] – jazavalangan kishilarda sochni silaganda og‘riq sezish; **trixiaz**(**is**) [trix(o)...+...iaz] – kipriklarning ichkariga qarab, ko‘z soqqasi tomon noto‘g‘ri o‘sishi (traxoma va blefarit kasalliklarida); **trixofitiya** [trixo...+...fit]

– qirma temiratki; terining (shuningdek, soch va tirnoqlarning) zamburug‘lar qo‘zg‘atadigan yuqumli kasalligi; **trixoglossiya** [trixo...+ *yun.* glossa – til] – til so‘rg‘ichlarining dag‘allanishi natijasida til yuzasida tuklar hosil bo‘lishi; **trixokardiya** [trixo…+…kardiya] – tukli yurak; ekssudativ perikardit natijasida yurak yuzasining tukli bo‘lib ko‘rinishi; **trixologiya** [trixo…+…logiya] – dermatologiyaning soch va uning kasalliklarini o‘rganadigan bo‘limi; **trixomikozlar** [trixo...+...mikoz] – o‘simlik parazitlari tufayli kelib chiqadigan turli soch kasalliklari; **trixopatiya** [trixo…+…patiya] – sochdagi patologik o‘zgarishlarning umumiy nomi; **trixoreya** [trixo…+…reya] – patologik soch to‘kilishi; **trixotrofiya** [trixo...+...trofiya] – sochlarning oziqlanishi; **trixoz** [trix(o)...+...oz] – sochlarning nonormal o‘sib ketishi bilan bog‘liq kasallik.

...TRIXIYA, ...TRIXOZ [*yun.* trix (trichos) – soch, tuk] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning sochga, sochning xususiyatlari va kasalliklariga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **geterotrixoz, gipertrixiya, gipotrixiya, paratrixoz, politrixiya; atrixiya** [a…+…trixiya] – sochsiz tug‘ilish, tug‘ma sochsizlik; **gipertixoz** [giper…+…trixoz] – sertuklik; badanning tukli, ba’zan tuk chiqmaydigan joylarida ham tuklarning haddan tashqari o‘sib ko‘payib ketishi; **gipotrixoz** [gipo…+…trixoz] – badanning soch va tukli joylarida ularning sust o‘sishi; **leykotrixiya** [leyko…+…trixiya] – albinizm, vitiligo va boshqa kasalliklarda bo‘ladigan soch oqarishi; **streptotrixoz** [strepto…+…trixoz] – muayyan mikroorganizmlar (streptotrikslar) qo‘zg‘atadigan soch kasalliklari; **ulotrixiya** [*yun*. oulos – butunlay, tamoman +…trixiya] – haddan tashqari sertuklik.

TROF(O)... [*yun.* trophe – oziq-ovqat] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning oziq-ovqat, oziqlanish, ovqatlanishga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **trofedema, trofeziya, trofika, trofoblast, trofoblastoma, trofoderma, trofodermatonevroz, trofollaksis, trofoterapiya; trofobioz** [trofo...+...bioz] – simbiozning bir ko‘rinishi bo‘lib, bunda ba’zi jonivorlar boshqalarining modda almashinuvidan hosil bo‘lgan mahsulotlari bilan oziqlanadi (hasharotlarda kuzatiladi); **trofologiya** [trofo...+...logiya] – tirik organizmlarning oziqlanishi haqidagi fan; **trofonevroz** [trofo...+ nevroz] – to‘qima va a’zolarning oziqlanishini buzuvchi (izdan chiqaruvchi) kasallik; **trofotsit** [trofo...+...sit] – boshqa hujayralarga oziq moddalari va qurilish materiallari yetkazib beruvchi hujayra; oziqlantiruvchi (boquvchi) hujayra.

...TROF, ...TROFIYA [*yun.* trophe – oziq-ovqat] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismlari bo‘lib, shu so‘zlarning oziq-ovqat,

oziqlanish, ovqatlanishga aloqadorligini bildiradi. Bulardan **-trof** terminelementi oziqlanish tarzi va ozuqa turi har xil bo‘lgan organizmlar nomini hosil qilsa,

-trofiya terminelementi biron to‘qima, a’zo yoki butun organizmning oziqlanishidagi nuqson (buzilish) lar va buning oqibatlarini anglatuvchi terminlar yasaydi. Mas.: **auksotroflar, ekzotroflar, mikotroflar, miksotroflar, prototroflar; avtotroflar** [avto...+...trof] – hayot uchun zarur bo‘lgan barcha organik moddalarni noorganik moddalardan sintezlab oluvchi organizmlar; **geterotroflar** [getero...+...trof] – o‘zining ozuqasi sifatida tayyor organik moddalardan foydalanuvchi organizmlar (odam, barcha hayvonlar, ayrim o‘simliklar, aksar bakteriyalar va zamburug‘lar); **mezotroflar** [mezo...+ ...trof] – tuproq yoki boshqa muhitda ozuqa moddalarning mo‘tadil (o‘rtacha) bo‘lishini talab qiluvchi o‘simliklar; **oligotroflar** [oligo...+...trof] – qurg‘oqchil dasht va chala sahrolardagi oziq moddalar juda kam bo‘lgan tuproqlarda o‘sa oladigan o‘simliklar; **atrofiya, eytrofiya, gipertrofiya, trixotrofiya; gipotrofiya** [gipo...+...trofiya] – 1) atrofiya: a’zo yoki uning biror qismining kichrayishi; ziddi – gipertrofiya; 2) bolalarda ovqatlanishning surunkali kasalligi bo‘lib, u haddan tashqari ozishga, tananing yaxshi rivojlanmasligiga yoki butunlay o‘sishdan to‘xtashiga olib keladi.

TROMB(O)... [*yun.* trombos – quyqa, laxta (qon)] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, qon yoki limfa tomirlarida quyulib, tiqilib qolgan qon (limfa) quyqasi, laxtasi ma’nosini bildiradi. Mas.: **tromb, trombangiit, trombasteniya, trombinogen, tromboagglyutinatsiya, tromboelastogramma, tromboemboliya, tromboendokardit, trombogen, trombokinaza, trombokinez, tromboliz, trombopatiya, tromboplastin, trombotsitemiya, trombotsitopatiya, trombotsitopeniya, trombotsitopoez, trombotsitoz, trombovaskulit; trombarteriit** [tromb...+ arteriit] – arteriyaning yallig‘lanishi va shu arteriya ichida tromb hosil qilishi; **trombektomiya** [tromb...+...ektomiya] – trombni operatsiya yo‘li bilan qon tomiridan ajratib olish; **trombin** [tromb...+...in] – fibrinogenni fibringa aylantirib, qonning ivishiga olib keladigan, qonda mavjud bo‘lgan ferment; **tromboelastograf** [trombo...+ *yun.* elastos – cho‘ziluvchan; yopishqoq +...graf] – qon ivishi jarayonini ko‘z bilan kuzatish hamda qonning yopishqoqligi va hosil bo‘ladigan qon laxtasi siqilish xususiyatining chiziqli tasvirini beradigan asbob; **trombofiliya** [trombo...+...filiya] – tromb hosil bo‘lishiga moyillik; **tromboflebit** [trombo...+ fleb(o)...+...it] – vena devorining tromb hosil bo‘lishi bilan yallig‘lanishi; **trombogenez** [trombo...+...genez] – tromb paydo bo‘lishi jarayoni; **trombopeniya** [trombo...+...peniya] – trombotsitlar sonining kam

bo‘lishi, kamayishi; **trombopoez** [trombo…+…poez] – trombotsitlarning hosil bo‘lishi; **trombostaz** [trombo…+…staz] – tomir ichida qon ivib, yo‘li bekilib qolganda, qon oqimining to‘xtalib qolishi; **trombotsitlar** [trombo...+...sit] – odam va sutemizuvchilar qonidagi yadrosiz hujayralar – qon ivishida ishtirok etuvchi qon plastinkalari; **tromboz** [*yun.* trombos] – tirik organizmda tomir ichida paydo bo‘ladigan qon laxtasi; eritrotsit, trombotsit va fibrindan iborat laxta tomir devoriga yopishib, qon oqimiga xalaqit beradi.

...TRON [***elektron*** so‘zining qisqargan shakli] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, ba’zi elektrvakuumli asbob-uskunalar, qurilma va jihozlarning nomini hosil qiladi. Mas.: **amplitron, dekatron, fazotron, girotron, ignitron, kenotron, magnetron, mexanotron, mikrotron, siklotron, sinxrotron, vibrotron; alfatron** [alfa +...tron] – elektron vakuummetr; gaz bosimini o‘lchovchi asbob; **fantastron** [fantastika +...tron] – elektrik tebranishlarning relaksatsion generatori; **plazmotron** [plazma +...tron] – plazmali generator; past temperaturali plazma olish uchun mo‘ljallangan gaz-razryadli qurilma; **sinxrotsiklotron** [sinxro...+ siklo...+ ...tron] – og‘ir zaryadlangan zarra (proton, deytron va boshqa) larning tezlatkichi; **xaraktron** [*yun.* character – shakl, ko‘rinish +...tron] – dastlabki hisoblash mashinalarida monitor vazifasini bajargan elektron-nurli asbob.

TROP(O)... [*yun.* tropos – aylanish; burilish, yo‘nalish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, biror tomonga, biron obyektga qarab aylanish, burilish, yo‘nalish ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **tropik(lar)** [*yun.* tropikos (kyklos) – burilish doirasi] – 1) Yer yuzasida ekvatordan $23^0\ 27'$ shimolda va janubda unga parallel ravishda o‘tkazilgan ikki faraziy doiraviy chiziqlar; 2) shu ikki chiziq o‘rtasida, ekvatorning ikki tomonida joylashgan eng issiq yerlar, mamlakatlar, o‘lkalar; **tropizm** [trop...+...izm] – fizik, kimyoviy va boshqa qo‘zg‘atuvchilarning bir yoqlama ta’sirida o‘simlik a’zolarining ko‘pincha qo‘zg‘atuvchilar tomon burilib o‘sishi; **tropometr** [tropo...+...metr] – 1) ko‘z soqqasining aylanishini o‘lchaydigan asbob; 2) uzun suyaklarning buralish va taranglanishini o‘lchaydigan asbob; **tropopauza** [tropo...+ *yun.* pausis – to‘xtash, tugash] – troposfera va stratosfera orasidagi o‘tish qatlami; **troposfera** [tropo...+...sfera] – atmosferaning Yer yuzasi ta’siri yaqqol seziladigan quyi, asosiy qismi.

...TROP, ...TROPIYA [*yun.* tropos – burilish, o‘zgarish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismlari bo‘lib, burilish, o‘zgarish, biror tomonga yo‘nalganlik; muayyan xossa ma’nolarini bildiradi. Bunda o‘zlash-

ma so‘zdagi **-trop** terminelementi, asosan, tegishli ma’nodagi sifatlar yasaydi: **azeotrop** (eritma), **girotrop** (muhit), **gonadotrop** (gormon), **liotrop** (qator), **politrop** (jarayon), **psixotrop** (moddalar); ayrim hollarda esa ot yasaydi. Mas.: **geliotrop** [gelio...+...trop] – triangulyatsiyada gorizontal burchaklarni aniq o‘lchash uchun ishlatiladigan geodezik asbob; uning asosiy qismi – yassi ko‘zgu quyosh nurlarini bir geodezik nuqtadan ikkinchisi yo‘nalishida qaytaradi. Qo‘shma so‘zlardagi **-tropiya** terminelementi esa tegishli so‘zlarda harakat, holat, o‘zgarish, xossa ma’nolarini hosil qiladi. Mas.: **anizotropiya, entropiya, morfotropiya; allotropiya** [allo...+...tropiya] – kimyoviy elementlarning ikki yoki undan ortiq ko‘rinishda bo‘lishi; **izotropiya** [izo...+ ...tropiya] – fizik obyektlar xossalarining barcha yo‘nalishlarda bir xil bo‘lishi; **liotropiya** [lio...+...tropiya] – erigan moddalarning erituvchining turli fizik xossalariga ko‘rsatadigan ta’siri; **tiksotropiya** [*yun.* thixeis – tegish, teginish +...tropiya] – dispers sistemalarning mexanik ta’sir tufayli buzilgan asl strukturasini qayta tiklay olish qobiliyati.

...TROPIZM [*yun.* tropismus < trop…+…izm] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, o‘simliklarning qo‘zg‘atuvchilar ta’sirida o‘sish holatini bildiradi. Mas.: **adrenotropizm, aerotropizm, akvatropizm, galvanotropizm, gaptotropizm, geotropizm, stereotropizm, termotropizm, timotropizm, xemotropizm; avtotropizm** [avto…+ …tropizm] – qo‘zg‘atuvchining ta’sir kuchi tugagandan so‘ng o‘simlik a’zolarining egilgan, ezilgan holatidan asl holatiga qayta olish qobiliyati (mas.: shamol yoki yomg‘ir ta’siridan egilgan g‘alla ekinlarining qayta tiklanishi); **fototropizm** [foto…+…tropizm] – tuban organizmlar yoki o‘simliklarning yorug‘lik tomon harakat qilishi yoki undan qochishi; **geliotropizm** [gelio…+ …tropizm] – o‘simliklarning quyosh yorug‘i (nuri) ta’siri ostida muayyan holatda (ko‘rinishda) bo‘la olish qobiliyati; **gidrotropizm** [gidro…+…tropizm] – o‘simliklarning o‘suvchi (vegetativ) a’zolarining ular atrof-muhitida namlikning teng taqsimlanmaganligi ta’sirida egilish (qayrilish) qobiliyati; **ortotropizm** [orto…+…tropizm] – o‘simliklar yon a’zolarining qo‘zg‘atuvchilar yo‘nalishiga parallel holda o‘sish qobiliyati; **reotropizm** [reo…+…tropizm] – suvo‘tlarining suv oqimiga nisbatan muayyan holatga ega bo‘lish qobiliyati; **tigmotropizm** [*yun.* thigma – teginish +…tropizm] – ba’zi o‘simliklar a’zolarining o‘sish jarayonlarida qattiq jism(lar)ga teginishda egilishi (qayrilishi); gaptotropizm; **xromotropizm** [xromo…+…tropizm] – obyektning rang yoki pigment tomonga qarab burilishi yoki intilishi.

TUBER... [*lot.* tuber – o‘simta, do‘mboq, shish, o‘sma; tuberculus – o‘simta, do‘mboqcha] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, shu so‘zlarning sil, sil kasalliklariga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **tuberkulin, tuberkuloid, tuberoz, tuberoza; tuberkullar** [*lot.* tuberculus – o‘simta, g‘uddacha] – sil kasalligida turli a’zolarda hosil bo‘ladigan bo‘rtmalar, do‘mboqchalar; **tuberkulid** [tuberkul...+...id] – sil kasalligida paydo bo‘ladigan toksik yoki allergik tabiatli teri shikastlarining umumiy nomi; **tuberkuloma // tuberkulyoma** [tuberkul...+...oma] – kazeoz do‘mboqning kattalashuvi natijasida hosil bo‘lgan o‘smasimon massa; **tuberkulyoz** [tuberkul...+ ...oz] – organizmning umumiy yuqumli kasalligi: sil mikroblarining biror a’zoga tushib, uni shikastlantirishi natijasida vujudga keladi.

TURB(O)... [*lot.* turbe (turbinis) – quyun, uyurma; shiddatli aylanish] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarda aylanma harakat ma’nosi mavjudligini ko‘rsatadi. Mas.: **turbina, turbobur, turbodetander, turboreaktiv** (motor; samolyot); **turbogenerator** [turbo...+ generator] – gaz yoki bug‘ turbinasi yordamida aylanma harakatlantiriladigan elektr generator; **turbokompressor** [turbo...+ kompressor] – turbina bilan harakatga keltiriladigan markazdan qochma havo kompressori.

U

U... [*yun.* ou – yo‘q, mavjud emas] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, inkor ma’nosini ifodalaydi. Mas.: **utopist, utopizm; utopiya** [u...+ *yun.* topos – joy, makon] – 1) ilmiy asosga ega bo‘lmagan ideal ijtimoiy tuzum tasviri; 2) ijtimoiy qayta qurishlarning har qanday noreal, xayoliy rejalari; 3) amalga oshmaydigan orzu, xomxayol.

...UL(A) [*lot.* -ula] – kichraytish otlari yasaydigan qo‘shimcha. Izohi va misollar haqida **...kula, ...ula** terminelementlariga qarang.

UL(O)... [*yun.* ul – milk] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning milk va uning kasalliklariga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **ulatrofiya, uleritema; ulalgiya** [ul...+...algiya] – milk og‘rig‘i; **uloglossit** [ulo...+ gloss...+...it] – milk va tilning yallig‘lanishi.

ULTIM... [*lot.* ultimus – eng oxirgi, so‘nggi] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, oxirgi, so‘nggi, qat’iy degan ma’nolarni bildiradi. Mas.: **ultimativ, ultimo; ultimatum** [*lot.* ultimatum – oxirigacha yetkazilgan] – xalqaro huquqda: biron masala yuzasidan bir davlatning boshqa davlat oldiga qo‘ygan, diplomatik hujjatda yoki og‘zaki shaklda bayon qilingan, bajarilishi shart bo‘lgan qat’iy talabi.

ULTRA... [*lot.* ultra – ortiqroq, ko‘proq, yanada; chegaradan (haddan) tashqari] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, miqdor va sifat belgilariga ko‘ra me’yordan, haddan tashqari; eng chetki, oxirgi, o‘ta kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **ultrabazitlar, ultrabinafsha // ultragunafsha** (nurlanish)**, ultrafagotsitoz, ultrafiltratsiya, ultrametamorfizm, ultramikroanaliz, ultramikroblar, ultramikronlar, ultramikroskopiya, ultraqisqa** (to‘lqinlar)**, ultratovush, ultratsentrifuga, ultratseroz, ultraviruslar, ultrayuksak, ultrag‘ovak; ultraabissal** [ultra...+ *yun.* abyssos – tubsiz, juda chuqur] – okean tubining anchagina – 6000 metrdan chuqurroq qismi; **ultraakustika** [ultra...+ akustika] – o‘ta yuqori chastotali tovush to‘lqinlarining xususiyatlari va qo‘llanish imkoniyatlarini o‘rganuvchi fan; **ultramarin**

[ultra...+ *lot.* marinus – dengizga oid +...in] – kaolin, soda, oltingugurt, ko‘mir aralashmasini eritib olinadigan, yashil rangdan binafsha ranggacha bo‘lgan pigmentlar; **ultramikroskop** [ultra...+ mikroskop] – oddiy mikroskop bilan ko‘rib bo‘lmaydigan juda mayda zarralarni kuchli yorug‘lik oqimi yordamida ko‘rish imkonini beradigan optik asbob; **ultramikrosomalar** [ultra…+ mikro…+ *yun.* soma – tana] – juda kuchli mikroskop yordami bilan ham ko‘zga ko‘rinmaydigan eng kichik tanachalar; **ultramikrotom** [ultra…+ mikro…+ …tom] – juda yupqa to‘qimalar tilimini tayyorlaydigan, avtomatik ravishda ishlaydigan maxsus moslama; **ultratovush** [ultra...+ tovush] – odam qulog‘i qabul qila olmaydigan, faqat maxsus asbob bilan eshitsa bo‘ladigan, to‘lqinlarining tebranish chastotasi 20 kilogersdan yuqori bo‘lgan tovush; **ultratuzilma // ultrastruktura** [ultra…+ tuzilma (struktura)] – hujayra va uning kiritmalarining oddiy mikroskoplarda ko‘rinmaydigan, elektron mikroskop bilangina ko‘rinadigan eng nozik tuzilmasi; **ultratsentrifuga** [ultra...+ sentrifuga] – rotorining haddan tashqari tez aylanishi hisobiga Yerning tortish kuchidan yuz minglab, hatto million marta ortiq markazdan qochma kuch hosil qiladigan apparat.

…UM, …US [*lot.* -um, -us] – lotin tilidan o‘zlashtirilgan so‘zlarda birlik sondagi bosh kelishik qo‘shimchalarini anglatadi. Bulardan **-um** qo‘shimchasini olgan so‘zlar, asosan, ot turkumiga, ba’zan esa sifat va sifatdoshlarga mansub so‘zlardir; **-us** bilan tugallangan so‘zlar esa faqat ot turkumidagi so‘zlardir. Har ikkala qo‘shimcha bilan tugallangan so‘zlar rus tiliga, binobarin, o‘zbek tiliga ham aynan, quyida yozilganidek qabul qilingan va tor sohalardagina qo‘llanadi. Mas.: **dekorum, kondominium, medium, memorandum, opium** (*yun.*), **plenum, podium** (*yun.*), **postskriptum, sotsium, unikum; kazus, koitus, lokus, modus, polyus, tonus** va boshqalar.

UNI… [*lot.* unus, uni – bir] – o‘zlashma yasama so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, bir, yagona, umumiy; birlik kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **uniforma, uniformizm, unionizm, unipolyar** (uniqutbiy), **univalentlar, universal, universaliyalar, universiada, universitet, uniya; unifikatsiya** [uni...+ ...fikatsiya] – yagona tizimga, shaklga, bir xillikka keltirish; **unikal** [*lot.* unicus – yagona, bitta] – ma’lum jihatdan yagona, o‘ziga xos; **unikum** [*lot.* unicum – boshqalarga o‘xshamagan, boshqacha] – 1) betakror, yagona, alomat narsa; 2) biron jihatdan noyob, betakror odam; **union** [*lot.* unio (unionis) – birlik] – ittifoq, birlashma; **unison** [*ital.* unison < uni...+ *lot.* sonus – tovush] – bir xil balandlikdagi bir necha ovoz (tovush) ning ayni bir vaqtdagi o‘zaro mosligi

yoki ohangdoshligi; **unitar** [*fr.* unitaire < *lot.* unitas – birlik] – yagona, birlashgan, bir butunlikni tashkil etuvchi (mas., *unitar davlat, unitar korxona*); **unitarizm** [*fr.* unitarisme < *lot.* unitas – birlik] – davlat tuzilishining uni tashkil etuvchi hududlarni markazlashtirishga asoslangan tamoyili.

...URA [*lot.* -ura] – lotincha so‘z yasovchi qo‘shimcha bo‘lib, o‘zi qo‘shilgan so‘zlar bilan, asosan, jamlik, ko‘plik va boshqa ma’nolardagi otlar hosil qiladi: 1) turli darajadagi ta’lim va amaliyot bosqichlarini bildiruvchi otlarni (**adyunktura**, **aspirantura, doktorantura, internatura, magistratura, ordinatura**); 2) o‘zakdan anglashilgan shaxslarning jamini, ko‘pligini anglatuvchi otlarni (**agentura, advokatura, dotsentura, kandidatura, kliyentura**); 3) narsa, buyum, asbob-jihoz, belgi va shu kabilarning majmuyini, qatorini, ko‘pligini ifodalovchi otlarni (**apparatura, arkatura, armatura, garnitura, klaviatura, konyunktura, kubatura, ligatura, muskulatura, titulatura, retseptura, signatura**); 4) o‘rinjoy otlarini (**komendatura, registratura**); 5) musiqaga oid otlarni (**koloratura, partitura**) hosil qiladi.

URAN(O)... [*yun.* uranos – osmon; tanglay] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, asl ma’nosida – osmon, ko‘chma ma’noda – tanglay degan ma’nolarni bildiradi. Mas.: **uranofobiya** [uran(o)...+...fobiya] – miyaga o‘rnashib qolgan qo‘rquv – osmonga qarashdan qo‘rqish; **uranoplastika** [uran(o)...+...plastika] – tanglay plastikasi; tanglaydagi nuqsonlarni yo‘qotish uchun qo‘llanadigan plastik operatsiyalarning umumiy nomi.

UR..., URAT... [< *lot.* urina – siydik] – o‘zlashma yasama va qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning siydikka, siydik kislota tuzlariga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **urakratiya, uratlar, uraxus, ureaza, ureidlar, uremiya, urgidroz // uridroz; uratemiya** [urat...+...emiya] – qonda uratlar bo‘lishi; **uratoliz** [urat(o)...+...liz] – uratlarning buzilishi yoki parchalanishi; **uratoma** [urat(o)...+...oma] – siydik yo‘llarida siydik kislota tuzlari (uratlar) yig‘ilib, o‘smaga o‘xshab turishi; **uraturiya** [urat...+...uriya] – uratlarning siydik bilan ko‘p miqdorda ajralishi.

URB... [*lot.* urbs – shahar] – o‘zlashma yasama so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shahar, shaharga oid, mansub kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **urbanizatsiya** [*fr.* urbanisation < *lot.* urbanus – shaharga oid +...izatsiya] – sanoatning va aholining shaharlarda to‘planishi hamda jamiyat hayotida shaharlar rolining ortib borishidan iborat ijobiy jarayon; **urbanizm** [*fr.* urbanisme < *lot.*

urbanus +...izm] – 1) san'at va adabiyotda yirik shaharlarning va shaharliklar hayotining tasviri, tavsifi; 2) me'morlikda: XX asr shaharsozligida yuzaga kelgan oqim, yo'nalish.

URETER(O)... [*yun.* ureter – siydik yo'li] – o'zlashma qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, shu so'zlarning siydik yo'li va uning kasalliklari bilan aloqadorligini ko'rsatadi. Mas.: **ureterektomiya, ureleroenterostomiya, ureterokolostomiya, ureteroliz, ureteropiyeloneostomiya, ureterorragiya, ureterosigmoidostomiya, ureteroskop, ureterostomiya, ureterotsistoneostomiya; ureterit** [ureter...+...it] – siydik yo'lining yallig'lanishi; **ureterografiya** [uretero...+...grafiya] – yuqori siydik yo'liga kontrast modda yuborib, rentgen nurlari vositasida uning rasmini olish; **ureterolitiaz** [uretero…+ lit(o)…+…iaz] – siydik yo'lida toshlar paydo bo'lishi; **ureterolitotomiya** [uretero...+ lito...+...tomiya] – yuqori siydik yo'lida paydo bo'lgan toshni olib tashlash operatsiyasi; **ureteronefrektomiya** [uretero…+ nefr…+ …ektomiya] – buyrakni va siydik yo'lini kesib olib tashlash; **ureteroskopiya** [uretero...+...skopiya] – siydik yo'lini (naylarini) uretereskop (siydik nayi va buyrak jomiga kiritiladigan qattiq va egiluvchan asbob) yordamida tekshirish; **ureterotomiya** [uretero...+...tomiya] – siydik yo'lini kesish operatsiyasi; **ureterotsele** [uretero…+…sele] – siydik yo'li teshigi torayishi natijasida qovuq ichidagi oxirgi ureter qismining xaltacha shaklida kengayishi.

URETR(O)... [*yun.* urethra – siydik chiqarish yo'li, nayi] – o'zlashma qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, shu so'zlarning siydik chiqarish yo'li (kanali, nayi) bilan aloqadorligini ko'rsatadi. Mas.: **uretra, uretral**, **uretraplaziya, uretratreziya, uretrometr, uretropoez, uretrorafiya, uretroskopiya, uretrostenoz, uretrostomiya, uretrotsele, uretrosistografiya, uretrovaginal, uretrovizikal; uretralgiya** [uretr...+...algiya] – siydik chiqarish yo'lida og'riq sezilishi; **uretrektomiya** [uretr…+…ektomiya] – siydik chiqarish yo'li yoki uning bir qismini kesib olib tashlash; **uretrit** [uretr...+...it] – uretra (siydik chiqarish yo'li) ning yallig'lanishi; **uretrizm** [uretr...+...izm] – siydik chiqarish yo'lining ortiqcha ta'sirlanishi va surunkasiga spazm bo'lib turishi; **uretrografiya** [uretro…+…grafiya] – siydik chiqarish yo'liga kontrast modda kiritib, uni rentgenologik yo'l bilan tekshirish; **uretrometriya** [uretro...+...metriya] – siydik chiqarish yo'li diametrini uretrometr yordamida o'lchash; **uretroplastika** [uretro...+...plastika] – siydik chiqarish yo'lining shakli va funksiyasini tiklash uchun qilinadigan operatsiyalarning umumiy nomi; **uretrorragiya** [uretro…+…rragiya] – siydik chiqarish yo'lidan qon oqishi; **uretroskop** [uretro…+…skop] – siydik chiqarish yo'lining ichki yuzasini ko'rish va ba'zi tibbiy

muolajalarni o‘tkazish uchun qo‘llanadigan tibbiyot endoskopi; **uretrospazm** [uretro...+...spazm] – siydik chiqarish yo‘lining qisilib qolishi; **uretrotomiya** [uretro...+...tomiya] – siydik chiqarish yo‘lini jarrohlik yo‘li bilan ochish; **uretrotsistit** [uretro…+ sistit] – siydik chiqarish yo‘li va qovuqning bir paytda yallig‘lanishi.

...URG, ...URGIYA [*yun.* ergon – ish, amal, faoliyat] – so‘z yasovchi qo‘shimcha; o‘zlashma yasama so‘zlarning oxirgi qismlari bo‘lib, **-urg** qo‘shimchasi biror soha ishchisi, mutaxassisi ma’nosidagi shaxs otlarini, **-urgiya** qo‘shimchasi esa biror fan, ish-faoliyat, ishlabchiqarish sohasi, ular bilan bog‘liq ta’limot, jarayonni ifodalovchi otlarni hosil qiladi. Mas.: **dramaturg, metallurg, xirurg; galurgiya, desmurgiya, dramaturgiya, metallurgiya, mikrurgiya, petrurgiya, xirurgiya.**

...URIYA [*yun.* uron – siydik] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning siydikka, siydik ajralishiga aloqadorligini bildiradi; bu qo‘shimcha qo‘shilganda; 1) biror moddaning siydikda mavjud ekanligini yoki siydik bilan ajralib chiqishini ifodalaydigan terminlar (**azoturiya, bakteriuriya, fenoluriya, fosfaturiya, gematuriya, gemoglobinuriya, glikozuriya, melanuriya, piuriya, proteinuriya**); 2) siydik ajralishidagi nuqsonlarni (siydik tutilishi, oz yoki ko‘p ajralishi) ifodalaydigan terminlar (**anuriya, dizuriya, ishuriya, oliguriya, poliuriya**) hosil bo‘ladi.

URO... [*yun.* uron – siydik] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarning siydik, karbamid va siydik-tanosil a’zolariga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **urobakteriyalar, urobilin, urobilinemiya, urobilinogen, urobilinogenuriya, urobilinuriya, urodinamika, urogematin, urogenital, urokinaza, urolagniya, urolesan, urolit, urolitiaz, urolog, uronefroz, uropeniya, uropepsin, uropepsinogen, uropioureter, uropiyelonefrit, uroproteinogramma, urorragiya, urosepsis, uroskop, urotsele, urotsistit; urofobiya** [uro...+...fobiya] – noqulay sharoitda (mas., dars paytida) siyish ehtimoli tug‘ilishidan qo‘rqish; **urogastron** [uro…+ *yun.* gaster – oshqozon] – teri ostiga yuborilganda oshqozon harakatlari va sekretsiyasini kamaytiradigan, siydikdan olingan modda; **urogematoma** [uro…+ gemat(o)…+…oma] – siydik yo‘llarining biror qismi shikastlanishi sababli qon aralash siydik to‘planishi; **urografiya** [uro...+...grafiya] – siydik a’zolariga kontrast modda yuborib, rentgen nurlari vositasida ularning rasmini olish; **urologiya** [uro...+...logiya] – klinik tibbiyotning siydik a’zolari sistemasini, jinsiy a’zolar kasalliklarini, ularning kelib chiqish sabablarini o‘rganuvchi,

shuningdek, bu kasalliklar diagnostikasi, davosi hamda oldini olish usullarini ishlab chiquvchi sohasi; **urometr** [uro...+...metr] – siydikning solishtirma og‘irligini aniqlaydigan asbob; **uropionefroz** [uro…+ pio…+ nefroz] – buyrak jomida siydik va yiring bo‘lishi; **uroreya** [uro...+...reya] – siydikning beixtiyor, o‘z-o‘zidan ajralib chiqishi; **uroskopiya** [uro...+...skopiya] – diagnostik maqsadlarda siydikni tekshirish; **urostaz** [uro…+…staz] – siydik yo‘llarida siydikning siqilib to‘xtashi; **uroterapiya** [uro...+...terapiya] – ba’zi kasalliklarni teri ostiga siydik yuborish bilan davolash; **uroxrom** [uro…+ *yun.* chroma – rang, tus, bo‘yoq] – siydikka sariq rang beruvchi amorf pigment moddasi.

...US, ...UM [*lot.* -us, -um] – **...um, ...us** terminelementiga qarang.

UTER(O)... [*lot.* uterus, uterum – qorin, qursoq; bachadon] – o‘zlashma qo‘shma va yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning bachadonga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **uterotservikal** (bachadon bo‘yniga aloqador), **uterovaginal** (bachadon va qinga aloqador), **uterovezikal** (bachadon va siydik pufagiga – qovuqqa aloqador); **uterit** [uter…+…it] – bachadonning yallig‘lanishi; **uterolit** [utero…+…lit] – bachadonda hosil bo‘lgan tosh; **uterosalpingografiya** [utero…+ salping(o)…+…grafiya] – bachadon bilan tuxumdonga kontrast modda kiritib, bachadon naychalarini rentgen nuri bilan suratga olish.

UZ(U)... [*lot.* usus – qo‘llash, ishlatish, foydalanish] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, qo‘llash, foydalanish ma’nolarini bildiradi. Mas.: **uzual** [uzu...+...al – nisbiy sifat yasovchi qo‘shimcha] – umumqo‘llanishga oid, umumqo‘llanishga xos (mas., ***uzual ma’no*** – so‘zning odatdagi, hammaga tushunarli, hamma qo‘llaydigan ma’nosi); **uzus** [*lot.* usus – qo‘llash, foydalanish; urf-odat, odatlanish] – til birligining (so‘z, frazeologizm kabilarning) odatiy, hamma tomonidan qo‘llanishi.

V

VAGIN(O)... [*lot.* vagina – qin, diloq] – o‘zlashma yasama va qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, qin, diloq ma’nolarini bildiradi. Mas.: **vaginal, vaginalektomiya, vaginodiniya, vaginofiksatsiya, vaginopeksiya, vaginoperineotomiya, vaginoskop, vaginotsele; vaginit** [vagin…+…it] – diloqning, qinning yallig‘lanishi; **vaginizm** [vagin(o)…+…izm] – qin va chanoq tubi mushaklarining reflektor og‘riqli qisqarishi bilan kechuvchi kasallik holati; **vaginografiya** [vagino…+…grafiya] – qin ichiga kontrast moddalar yuborib, rentgen nurlari bilan uning tasvirini olish; **vaginomikoz** [vagino…+ mikoz] – diloq (qin) ning zamburug‘li yallig‘lanishi; **vaginoplastika** [vagino…+…plastika] – diloqning plastik operatsiyasi.

VAGO... [*lot.* vagus – adashgan, daydi, darbadar] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, adashgan nerv ma’nosini ifodalash uchun xizmat qiladi. Mas.: **vagomimetik, vagosimpatik, vagotoniya; vagonevroz** [vago…+ nevroz] – adashgan nerv nevrozi; **vagotomiya** [vago...+...tomiya] – adashgan nervni olib tashlash yoki qisman kesib tashlash.

VAKK... [*lot.* vacca, vaccula – sigir; vaccinus – sigirga oid] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarning sigirga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **vaksiniya, vaksinoid, vaksinoterapiya; vaksinalar** [*lot.* vaccinus] – o‘ldirilgan yoki kuchsizlantirilgan mikroorganizmlardan, ularning zararsiz toksinlaridan tayyorlangan, yuqumli kasalliklar oldini olish uchun ishlatiladigan, dastlab sigir chechagidan olinganligi uchun shunday nomlangan emdorilar; **vaksinatsiya** [*lot.* vaccinatio – emlash; vaksinalash] – odam yoki hayvon organizmiga vaksina yuborib, yuqumli kasalliklarga qarshi faol immunitet hosil qilish usuli; **vaksinoprofilaktika** [vaksino…+ profilaktika] – vaksina yordamida kasallikning oldini olish; **vaksinoterapiya** [vaksino…+ …terapiya] – vaksina bilan davolash.

VAKU... [*lot.* vacuum – bo‘shliq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, bo‘sh, bo‘shliq degan ma’noni ifodalash uchun xizmat qiladi. Mas.: **vakuum-ekstraktor, vakuum-filtr; vakuolalar** [*fr.* vacuole < *lot.* vacu-

us +...ola] – o‘simlik va hayvonlar hujayralari yoki bir hujayrali organizmlar sitoplazmasida ichi hujayra suyuqligi (shirasi) bilan to‘lgan bo‘shliqlar; **vakuolizatsiya** [vaku(ol)…+…izatsiya] – hujayralarda pufakchalar (vakuolalar) paydo bo‘lishi; **vakuum** [vaku...+...um] – 1) tamoman bo‘sh joy, bo‘shliq; 2) siyraklashtirilgan gazning atmosfera bosimidan past bosimdagi holati; **vakuummetr** [vakuum +...metr] – siyraklashtirilgan gazlar bosimini o‘lchaydigan asbob.

VARI(O)... [*lot.* varia – har xil, turli-tuman; har xil qilmoq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, o‘zgarish, harxillik ma’nolarini bildiradi. Mas.: **variativ, variator, varistor, variyetet; variant** [*fr.* variante < *lot*. varians (variantis) – o‘zgaruvchan] – loyiha, reja, ilmiy, badiiy, adabiy, musiqiy asar, mashina va shu kabilarning boshqacha ishlangan turi, boshqa xil ishlangan nusxasi; **variatsiya** [*lot.* variatio – o‘zgarish, o‘zgartirish] – 1) juz’iy o‘zgarishlar natijasida yuzaga kelgan yangi ko‘rinish, variant; 2) bir musiqiy mavzuning ayrim elementlari o‘zgarishi natijasida yuzaga kelgan ko‘rinishlari; 3) o‘zgartirilgan, qayta ishlangan musiqiy asar; **varikap** [*ingl.* varikap < vari(able) – o‘zgaruvchan + kap(asity) – sig‘im] – elektron qurilmalarda o‘zgaruvchan sig‘im sifatida qo‘llanadigan yarimo‘tkazgichli elektrasbob; **varikond** [*ingl.* varikond < vari(able) + kond(enser) – kondensator] – tashqi elektr maydoni ta’sirida sig‘imi o‘zgaradigan kondensator; **variometr** [vario...+...metr] – 1) uchish apparatlarida uchish balandligining o‘zgarish tezligini aniqlovchi asbob; 2) biror geofizik kattalikning o‘zgarishini, mas., Yer magnetizmi o‘zgarishini aniqlaydigan asbob.

VARIK(O)... [*lot.* varix (varicis) – venaning kengayishi] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, kengayish, vena tomirlarining kengayishi degan ma’noni bildiradi. Mas.: **varikografiya** [variko…+…grafiya] – kengaygan qon tomirlarini biron kontrast modda bilan to‘ldirib, rentgen nuri yordamida rasmini olish; **varikotomiya** [variko…+…tomiya] – kengaygan venaning bir qismini kesib olib tashlash; **varikotsele** [variko…+…sele] – og‘ir jismoniy ish qilganda erkaklar urug‘i tizimchasi venalarining varikoz kengayishi va uzayishi; **varikozlik** – asosan, oyoq va urug‘ tizimchasi, to‘g‘ri ichak venalarining tugun-tugun bo‘lib kengayish holati.

VATER... [*ingl.* water – suv] – muayyan so‘zlarga qo‘shilib, suvga aloqador, suv bilan bog‘liq ma’nolarini ifodalovchi qo‘shma so‘zlar hosil qiladi. Mas.: **vaterjaket** (pech) [vater...+ *ingl.* jacket – kurtka; g‘ilof] – suv ko‘ylagi; rudalardan turli metallarni eritib ajratib olish uchun mo‘ljallangan shaxta pe-

chi; yuqori qismi olovbardosh g‘ishtdan, quyi qismi suv bilan sovitiladigan ichi bo‘sh po‘lat qutilardan iborat bo‘ladi; **vaterklozet** [vater...+ *ingl.* closet – hojatxona] – unitazi quvur suvi bilan yuviladigan hojatxona; **vaterliniya** [vater...+ *ingl.* line – chiziq] – harakatlanayotgan kemaning tinch holatdagi suv sathi bilan kesishish chizig‘i; **vaterpolo** [vater...+ polo] – suvda to‘p bilan o‘ynaladigan jamoaviy sport turi.

VAZ(O)... [*lot.* vas – tomir; yo‘l] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, tomirga oid, urug‘ tizimchasiga aloqador kabi ma’nolarni ifodalaydi. Mas.: **vazelin, vazodepressorlar, vazodilatatorlar, vazoepididimostomiya, vazoganglion, vazogen, vazoingibitor, vazokonstriksiya, vazokonstriktorlar, vazoligatura, vazoparez, vazopunktura, vazorafiya, vazorezeksiya, vazospazm, vazostomiya, vazotrombin, vazovazostomiya; vazektomiya** [vaz...+...ektomiya] – urug‘ chiqarish yo‘lini kesishdan iborat jarrohlik operatsiyasi; **vazodepressiya** [vazo...+ *lot.* depressio – tushkunlik; pasayish] – qon bosimining pasayishi; **vazodilatatsiya** [vazo...+ *lot.* dilatatio – kengaytirish] – qon tomirlarining kengayishi, kengaytirilishi; **vazogipertoniya** [vazo...+ gipertoniya] – tomirlardagi qon bosimining ortishi; **vazogipotoniya** [vazo...+ gipotoniya] – tomirlardagi qon bosiming pasayishi; **vazomotorlar** [vazo...+ motor] – tomirlarni harakatlantiruvchi nerv tolalarining umumiy nomi; **vazopressin** [vazo...+ *lot.* pressus – bosish, ezish +...in] – aslida gipotalamusda hosil bo‘lib, gipofiz (miya ortig‘i) da to‘planadigan, keyin qonga o‘tadigan neyrogormon; **vazoseksiya** [vazo... + *lot.* sectio – kesish, qirqish] – qon tomir devorini kesib (yorib), unga qon yoki dori quyish; **vazotomiya** [vazo...+...tomiya] – qon tomirlarini kesish; **vazotrof** [vazo...+...trof]: ***vazotrof vosita*** – qon tomirlarini kengaytirib, to‘qimalarning oziqlanishiga ta’sir qiluvchi vosita; **vazotrop** [vazo...+ ...trop]: ***vazotrop vosita*** – faqat qon tomirlariga spetsifik tanlab ta’sir qiluvchi vosita; **vazovezikulit** [vazo...+ vezikul...+..it] – urug‘ yo‘li va urug‘ pufakchalari yallig‘lanishi.

VEB... [*ingl.* veb – to‘r, tarmoq; o‘rgimchak to‘ri (uyasi)] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning internetga aloqadorligini, butun jahon bo‘ylab tortilgan (cho‘zilgan) o‘rgimchak to‘ri, tarmoq ma‘nolarini bildiradi. Mas.: **veb, vebdastur, vebdizayner, vebilova, vebinar (= vebseminar), vebkamera, vebmanzil, vebportal, vebtelevizor, vebuzel; vebanjuman** [veb...+ anjuman] – internet orqali real vaqt rejimida onlayn uchrashuvlar o‘tkazish va birgalikda ishlash uchun zarur texnologiyalar va vositalar; vebkonferensiya; **vebdasturchi** [veb...+ dasturchi] – in-

ternet tarmoqlari uchun maxsus dasturlar yaratuvchi mutaxassis; **vebdizayn** [veb…+ dizayn] – vebsahifalarni bezash; vebdizayn qog‘oz nashrlar uchun poligrafik dizayn va sahifalash qanday vazifani bajarsa, sayt uchun ham xuddi shunday vazifani bajaradi; **vebhujjat** [veb…+ hujjat] – internet tarmog‘iga joylashtirish uchun tayyor bo‘lgan hujjat; **vebmijoz** [veb…+ mijoz < *ingl.* veb-client] – internetdan foydalanuvchi; **vebsahifa** [veb…+ sahifa] – elektron resurs ko‘rinishida tayyorlangan, veb orqali keng, erkin foydalanish mumkin bo‘lgan hujjat; vebsayt sahifalaridan biri; **vebsayt** [veb…+ *ingl.* site – turgan joyi, o‘rni] – ma’no jihatdan birlashtirilgan, umumiy tuzilma va o‘rin almashtirish (navigatsiya) larga ega bo‘lgan vebsahifalar majmuyi; internetdagi barcha axborotlar vebsaytlarda joylashgan; **vebserver** [veb…+ server] – internetda internetprotokollardan biriga muvofiq holda axborot almashinishini ta’minlovchi tarmoq kompyuteri; **vebusta** [veb…+ usta < *ingl.* veb-master] – Internetda (Butunjahon o‘rgimchak to‘rida) axborot sahifalari (saytlar) ni, ularni dizaynini yaratish, axboriy yangilanishlar va modalar bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis.

VEGET... [*lot.* vegetare – o‘stirmoq, jonlantirmoq; o‘smoq] – o‘zlashma yasama so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, o‘sish, rivojlanish, o‘simlik kabi ma’nolarni ifodalaydi. Mas.: **vegetonevroz; vegetarianlik** [*ingl.* vegetarian < *lot.* vegetarius – o‘simlikka oid] – ovqatlanishda hayvon mahsulotlaridan tiyilib, asosan, meva va sabzavotlar tanovul qilish; **vegetativ** [*lot*. vegetativus – o‘sish va oziqlanishga doir]: ***vegetativ a’zolar*** – o‘sish va oziqlanish a’zolari (o‘simliklarda – ildiz, poya, barglar; hayvonotda – ovqat hazm qilishda ishtirok etuvchi va boshqa a’zolar; ***vegetativ ko‘payish*** – jinssiz ko‘payishning bir turi, ya’ni avlodning tana hujayralaridan yoki vegetativ a’zolardan hosil bo‘lishi; **vegetatsion** [*lot.* vegetatio – jonlanish, o‘sib chiqish]: ***vegetatsion davr*** – meteorologik sharoitlarga ko‘ra yilning o‘simliklar o‘sishi va rivojlanishi mumkin bo‘lgan davri; **vegetatsiya** [*lot.* vegetatio – uyg‘onish, jonlanish] – o‘simliklardagi faol hayot jarayonlari (ko‘karish, o‘sish, yetilish).

VELO... [*lot.* velox (velocis) – jonli, chaqqon; tez] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, ularning tezlikka, velosipedga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **velokross, velomobil, velopoyga, veloriksha, velosimetr, velosport, velotrek; velodrom** [velo...+...drom] – velosiped sporti bo‘yicha musobaqa va mashqlar o‘tkaziladigan (ochiq yoki yopiq) sport inshooti; **velosiped** [velo(s)...+ *lot.* pes (pedis) – oyoq] – oyoq bilan harakatga keltiriladigan, 2 yoki 3 g‘ildirakli transport vositasi.

VENE..., VEN(O)... [*lot.* vena – qon tomiri turi] – ayrim qo‘shma so‘zlarning tarkibida kelib, shu so‘zlarning venaga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **venalar, venografiya, venoz** (qon), **venula; venepunksiya** [vene...+ *lot.* punctio – sanchish, ukol] – qon quyish yoki olish hamda dori-darmonni venaga kiritish uchun venani havol (ichi bo‘sh) nina bilan sanchib teshish; **veneseksiya** [vene...+ *lot.* sectio – tilish, kesib ochish] – qon quyish, qon chiqarish va dori kiritishda venepunksiyaning iloji bo‘lmagan hollarda venani tilish, kesib ochish; **venostaz** [veno…+…staz] – ma’lum sharoitlarda vena tomirlarida qonning yurishmasligi, to‘xtab qolishi; **venotomiya** [veno…+ …tomiya] – trombni olib tashlash uchun yoki boshqa maqsadda vena qon tomirini kengroq teshish, ochish.

VENT(IL)... [*lot.* ventilare – puflamoq, esmoq, havo haydamoq, silkitmoq] – o‘zlashma yasama so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarning shamol, shamollatish; nafas ol(dir)ish bilan bog‘liqligini bildiradi. Mas.: **ventilyator** [*lot.* ventilatio – shamollatish, havo haydash] – 1) havo yoki gazlarni haydovchi yoki so‘ruvchi, havo almashtiruvchi qurilma; 2) nafas olish funksiyasi buzilgan bemorlarda o‘pkani sun’iy shamollatish uchun qo‘llanadigan dastaki yoki mexanik qurilma; **ventilyatsiya** [*lot.* ventilatio – shamollatish, havo haydash] – 1) xonalarning havosini almashtirib turish hamda shu jarayonni amalga oshirishga mo‘ljallangan qurilmalar majmuyi; 2) sun’iy nafas oldirish turi – bunda nafas olmayotgan odamning o‘pkasiga uni kengaytirish uchun havo puflanadi; nafas chiqarish esa ixtiyorsiz bo‘ladi.

VENTR(I)..., VENTRIKUL(O)... [*lot.* vent(e)r – qorin, qursoq; ventrikulus – qorincha (miyada va yurakda)] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning qoringa, yurak yoki miya qorinchalariga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **ventral** (qoringa oid)**, ventrikulalar, ventrikulopunktura, ventrikulostomiya, ventrikulotomiya, ventrofikatsiya; ventrikulit** [ventrikul...+...it] – odatda, miya qorinchalarining infeksiya sababli rivojlanadigan yallig‘lanishi; **ventrikulografiya** [ventrikulo...+...grafiya] – bosh miya qorinchalariga igna bilan havo yuborib, kontrast rentgenologik usul bilan tekshirish (suratini olish); **ventrikulometriya** [ventrikulo...+ ...metriya] – miya qorinchalarining hajmini o‘lchash; **ventrikuloskopiya** [ventrikulo...+...skopiya] – miya qorinchalarini optik tolali asboblar yordamida tekshirish.

VER... [*lot.* verus – haqiqiy, ishonchli] – o‘zlashma yasama so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarda haqiqiy, chin, ishonchli semalarini hosil qiladi. Mas.: **verdikt** [*ingl.* verdict < *lot.* vere dictum – to‘g‘ri aytilgan] –

1) sud maslahatchilarining sud jarayonida aybdorning aybi bor yoki yo‘qligi haqida qabul qilgan qarori; 2) hal qiluvchi qaror, qat’iy fikr; **verifikatsiya** [*fr.* verification < *lot.* verus +...fikatsiya] – nazariy qoidalar haqiqiyligini tekshirish, ishonchlilikni tajriba yo‘li bilan aniqlash; **verizm** [*ital.* verismo < vero – haqiqiy, chin, to‘g‘ri] – XIX asr 2-yarmida, asosan, Italiya adabiyoti, tasviriy san’ati va opera musiqasidagi bir oqim; kambag‘allarning kundalik turmush tarzini, bu hayotning qora tomonlarini haqqoniy tasvirlash verizmning asosiy belgisi hisoblangan.

VERM(I)..., VERMIKUL(O)... [*lot.* vermis – chuvalchang; qurt, shilliqqurt; vermiculus – kichkina qurt, chuvalchang] – o‘zlashma yasama so‘zlarning o‘zak (asos) qismi bo‘lib, o‘zi qo‘shilgan elementlar bilan chuvalchangga, qurtga aloqador terminlar hosil qiladi. Mas.: **vermikulitobeton** (g‘ovak, yengil beton), **vermikulit** (mineral); **vermitsidlar** [vermi...+...sid] – ichakda yashovchi gelmintlarni yo‘qotish uchun foydalaniladigan kimyoviy moddalar; **vermishel** [*ital.* vermicelli < vermicello – kichkina chuvalchang < *lot.* vermiculus] – ingichka silindr shaklidagi lapsha (ugra).

VETER... [*lot.* vetus – keksa, qari] – o‘zlashma yasama so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, keksa, qari ma’nosini bildiradi. Mas.: **veteran** [*fr.* veteran < *lot.* veteranus – keksa, sinalgan, tajribali] – 1) qadimiy Rimda armiya xizmatini o‘tab bo‘lib, muayyan imtiyozlar olgan askar; 2) biror sohada uzoq yil ishlagan yoki xizmat qilgan kishi; faxriy.

VEZIK(O)..., VEZIKUL(O)... [*lot.* vesica – siydik pufagi, qovuq; koptok; qavarchiq, po‘rsildoq; vesikula – pufakcha; qo‘zoq, urug‘ qobig‘i] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning pufak, pufakcha, siydik pufakchasi (qovuq), urug‘ pufakchasiga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **vezikostomiya, vezikulektomiya; vezikulalar** [vezik(o)...+...ula] – 1) teri toshmalarining elementlari – ichida tiniq yoki loyqa suyuqlik to‘plangan yarimsharsimon pufakchalar; 2) odam va hayvonlar organizmida (urug‘, o‘pka, prostatada) paydo bo‘lgan pufakchasimon hosilalar; **vezikulit** [vezikul(o)...+...it] – urug‘ pufakchalarining yallig‘lanishi; **vezikulografiya** [vezikulo...+...grafiya] – urug‘ pufakchalarini rentgen nurlari bilan rasmga olish; **vezikulotomiya** [vezikulo...+...tomiya] – urug‘ pufakchalarini yorish.

VIA... [*lot.* via – yo‘l] – o‘zlashma qo‘shma so‘zning tarkibiy qismi bo‘lib, o‘tkazish joyi, yo‘l kabi ma’nolarni ifodalaydi. Mas.: **viaduk** [*fr.* viaduk < *lot.* via + duco – o‘tkazaman] – yo‘lo‘tkazgich; yo‘lning daryo, jarlik, dara, botqoq-

lik hamda boshqa yo‘llar bilan kesishgan joylarida quriladigan ko‘priksimon inshoot.

VIBR(O)... [*lot.* vibro – titrayman, tebranaman] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlar tarkibida kelib, titrash, tebranish ma’nolarini ifodalaydi. Mas.: **vibrato, vibrator, vibratsion** (kasallik; mashina)**, vibrobolg‘a, vibrokardiografiya, vibrokardiogramma, vibroskop, vibrotravma, vibrotron, vibroto‘qmoq, vibrog‘alvir, vibroshtamplash; vibrafon** [vibro...+...fon] – o‘ziga xos titrama tovush chiqaradigan urma cholg‘u asbobi; **vibratsiya** [*lot.* vibratio – uloqtirish; tebratish; titrash] – qattiq jismlarning mexanik tebranishi, silkinishi; **vibrograf** [vibro…+…graf] – tebranuvchi jismlarning siljishini o‘lchash uchun mo‘ljallangan o‘ziyozar asbob; **vibroizolyatsiya** [vibro…+ *fr.* isolation – ajralish, ajratish, uzish] – odamlar va inshoot, mashina, asboblarni vibratsiyaning zararli ta’siridan himoya qilish; **vibrometr** [vibro...+ ...metr] – tebranish (vibratsiya) larni aniqlaydigan elektromexanik asbob; **vibroterapiya** [vibro...+...terapiya] – ayrim kasalliklarni, xususan, periferik nerv sistemasi kasalliklarini maxsus apparatlar bilan hosil qilingan vibratsiya yordamida davolash usuli; **vibrotexnika** [vibro…+ texnika] – vibratsiya qo‘zg‘atishning usul va vositalari, vibratsiyani boshqarish va uni nazorat qilish, shuningdek, zararli vibratsiyaga qarshi kurash usullari majmuyi.

VIDEO... [*lot.* video – qarayman, ko‘ryapman] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning tasvir haqida axborot uzatuvchi elektrsignallarga, shuningdek, tasvir uzatish tizimida qo‘llanuvchi qurilmalarga aloqadorligini anglatadi. Mas.: **videoaloqa, video-art, videobar, videodars, videodisk, videoimpuls, videokamera, videokanal, videokarta, videoklip, videoklub, videokonferensiya, videokuzatuv, videomuloqot, videopleyer, videoqaroqchilik, videoreklama, videorolik, videoselektor, videosignal, videotasvir, videoyozuv, videozal; video** [*lot.* video] – 1) videoyozuvli axborotlarni saqlash va qayta aks ettirish, videofilmlar yaratish va ularni namoyish qilish bilan bog‘liq madaniyat (fan, texnika, san’at) tarmog‘i; 2) videofilm, umuman, har qanday videoyozuv; 3) videomagnitofon; **videoapparatura** [video...+ apparatura] – videofilmlarni yozib olish, montaj qilish, ko‘rib chiqish va ommaviy namoyish qilish uchun mo‘ljallangan texnika jihozlari (videomagnitofon, videokamera va boshqalar); **videobiznes** [video...+ biznes] – videofilmlar yaratish va ularni prokatga chiqarish (pullash) bilan bog‘liq xususiy ishbilarmonlik; **videofilm** [video...+ film] – videotexnika, videoapparaturalar yordamida yaratilgan va namoyish etiladigan film; shunday videoyozuvli kasseta; **videokasseta** [video...+ *fr.* kassette – qu-

ticha < *lot.* kapsa – quti] – ichida tovush va tasvirni yozib olish va uni televizor orqali qayta koʻrsatishga moʻljallangan magnit lentasi boʻlgan plastmassa kasseta; **videokuchaytirgich** [video...+ kuchaytirgich] – videoimpulslarni kuchaytirib beruvchi elektron qurilma; **videomagnitofon** [video...+ magnitofon] – televizion tasvirni tovush (ovoz) joʻrligida magnit lenta (disk) ga yozib olib, uni teleekranda qayta koʻrsatish va eshittirish uchun moʻljallangan apparat; **videoprokat** [video…+ prokat] – videofilmlarni tijoriy maqsadlarda namoyish qilish, prokatga berish; **videosalon** [video…+ salon] – videofilmlar koʻrsatishga moslash(tiril)gan xona, joy; videozal; **videoteka** [video...+...teka] – 1) videokasseta va videodisklar toʻplami; 2) ular saqlanadigan joy, ombor; **videotelefon** [video…+ telefon] – abonentlar bir-birini koʻrib gaplashadigan, shuningdek, rasm, fotosurat va matnlar namoyish qilinadigan aloqa turi; **videotexnika** [video…+ texnika] – turli maqsadlarda voqea va hodisalarni magnit lentasiga yozib olib, qayta namoyish qilishga moʻljallangan texnik jihozlar majmuasi.

VIRIL... [*lot.* virilis – erkakcha, erkakka xos < vir – erkak] – oʻzlashma yasama soʻzning birinchi qismi boʻlib, erkak, erkakka xos maʼnosini bildiradi. Mas.: **viraginitas, virilizatsiya; virilizm** [viril...+...izm] – endokrin kasallik; ayollarda erkaklarga xos ikkilamchi jinsiy belgilarning (mas., soqol, moʻylov) paydo boʻlishi.

VISK(OZ)... [*lot.* viskosus – yopishqoq] – oʻzlashma qoʻshma va yasama terminlarning tarkibiy qismi boʻlib, yopishqoq, qovushqoq maʼnolarini ifodalaydi. Mas.: **viskoza, viskozin; viskozimetr** [viskozi...+...metr] – suyuqlik va gazlarning yopishqoqligini aniqlaydigan asbob; **viskozimetriya** [viskozi...+ ...metriya] – suyuqlik va gazlarning yopishqoqligini oʻlchash usullari (kapillyar, ultratovush, rotatsion usullar) majmuyi.

VIT... [*lot.* vita – hayot < vivo – yashayman] – oʻzlashma yasama soʻzlarning tarkibiy (oʻzak) qismi boʻlib, hayot, yashash maʼnolarini bildiradi. Mas.: **vitaminizatsiya, vitaminol, vitaminoz, vitasfera; vitalizm** [< *lot.* vitalis – hayotiy +...izm] – biologiyada: organizmlarda hayotiy hodisalarni boshqaradigan nomoddiy, gʻayritabiiy kuchlar bor, deb tushuntiradigan oqimlar majmuyi; **vitaminlar** [vita...+ aminlar – ammiakli organik birikmalar] – tirik organizmlarning hayot faoliyati va normal modda almashinuvi uchun zarur boʻlgan organik birikmalar; **vitaminologiya** [vitamin…+…logiya] – vitaminlar haqidagi fan; **vitaminoterapiya** [vitamino…+…terapiya] – vitaminlarni davo maqsadlarida ishlatish.

VITELL(O)... [*lot.* vitellus – sariqlik] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, sariq rangga aloqadorlik ma’nosini ifodalaydi. Mas.: **vitellin** [vitell…+…in] – tuxum sarig‘ida bo‘ladigan fosforli protein; **vitellogenez** [vitello...+...genez] – sariqlik hosil bo‘lishi; ootsitlarning tez o‘sish fazasida ularda sariqlik sintezlanishi va to‘planishi.

VITR... [*lot.* vitrum – shisha] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, ma’lum qo‘shimchalar bilan birgalikda shishaga aloqador ma’nosini bildiradi. Mas.: **vitreotomiya, vitreoshvartektomiya, vitrina; vitraj** [vitr...+...aj] – shisha parchalaridan terib yoki shaffof materiallardan foydalanib, deraza, eshiklarga har xil ranglarda ishlangan naqsh, tasvir; **vitrektomiya** [vitr…+…ektomiya] – ko‘zning qon quyilgan shishasimon tanachasini butunlay yoki uning biron-bir qismini qon quyilgan joy bilan birga olib tashlash; **vitreofag** [vitreo…+…fag] – shishasimon tananing bir qismini so‘rib oladigan asbob; **vitreotom** [vitreo…+…tom] – shishasimon tanani kesadigan asbob; **vitrifikatsiya** [vitri...+...fikatsiya] – temperaturaning pasayishi natijasida suyuqlikning shishasimon holatga o‘tishi.

VITSE... [*lot.* vice – o‘rniga, uchun] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, yordamchi, o‘rinbosar; sobiq ma’nolarini anglatadi. Mas.: **vitse-admiral, vitse-direktor, vitse-gubernator, vitse-kansler, vitse-konsul, vitse-qirol; vitse-prezident** – 1) ayrim davlatlarda davlat boshlig‘ining ayni u bilan bir paytda saylanadigan o‘rinbosari; 2) turli milliy va xalqaro tashkilotlarda prezident o‘rinbosari; **vitse-chempion** [vitse…+ chempion] – muayyan sport turida avval bo‘lib o‘tgan musobaqalarda chempionlikni qo‘lga kiritgan sportchi; sobiq chempion.

VIVI... [*lot.* vivus – tirik] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, tirik, jonli ma’nolarini bildiradi. Mas.: **vividiffuziya, vivifikatsiya; vivariy** [viv(i)...+...ariy] – tajriba va namoyish uchun turli hayvonlar asraladigan va ko‘paytiriladigan bino; hayvonotxona; **vivipariya** [vivi...+ *lot.* pario – tug‘aman] – 1) tirik tug‘ilish, tug‘ish; homila (murtak) ning ona organizmi ichida rivojlanishidan iborat, odamga va ko‘plab sutemizuvchilarga xos nasl qoldirish usuli; 2) urug‘ning pishib yetilmagan meva ichida ona o‘simlikning o‘zidan o‘sib chiqishi; **viviseksiya** [vivi…+ *lot.* sectio – kesish, yorish] – biror-ta a’zoning faoliyatini o‘rganish maqsadida tirik hayvon organizmini kesish, yorish operatsiyasi.

VIZ... [*lot.* visere – qaramoq, sinchiklab qaramoq, tekshirmoq; bormoq, tashrif buyurmoq] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, qarash, sinchiklab tekshirish; tashrif, (yuzma-yuz) ko‘rishish kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **vizavi, vizir, vizit, vizitatsiya; viza** [*fr.* visa < *lot.* visus – ko‘rilgan, ko‘rib chiqilgan, ko‘zdan kechirilgan] – 1) fuqarolarning boshqa biron-bir davlatga kirishi, undan chiqishi, qisqa muddat yashashi yoki davlat hududidan o‘tishi uchun mas’ul idoralar tomonidan fuqaro pasportiga qo‘yiladigan maxsus rasmiy ruxsat belgisi; 2) biron-bir hujjat ustidagi yozuv – mansabdor shaxsning ushbu hujjatning haqiqiyligini tasdiqlovchi yoki unga (qonuniy) kuch beruvchi rozilik belgisi; **vizual** [*lot.* visualis – ko‘rishga oid, ko‘riladigan] – oddiy, qurollanmagan ko‘z bilan yoki biror optik asbob yordamida ko‘riladigan; mas., *vizual kuzatish, vizual reklama*; **vizualizatsiya** [vizual +...izatsiya] – muayyan fizik jarayon yoki hodisani ko‘rish uchun qulay bo‘lgan shaklda gavdalantirish (taqdim etish); **vizus** [*lot.* visus – ko‘rilgan] – ko‘rish o‘tkirligi, ko‘zning ko‘rish darajasi.

VOKAL(I)... [*lot.* vokalis – ovozga, tovushga oid; ovozli] – o‘zlashma qo‘shma va yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning tovushga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **vokal** (kuylash san’ati)**, vokal** (kuylashga, ashula aytishga oid)**, vokalist, vokaliz, vokalizatsiya; vokaligramma** [vokali…+…gramma] – tovush amplitudasi va chastotasining vaqtga bog‘liqligini ko‘rsatuvchi grafik tasvir; **vokaliskopiya** [vokali…+ skopiya] – tovush (ovoz) ni tanib olish, aniqlash; so‘zlovchining tovush xususiyatlarini aniq belgilovchi alomatlarni vokaligrammalarni taqqoslash yo‘li bilan ajratib olish; **vokalizm** [vokal...+...izm] – muayyan til, lahja, tillar oilasi yoki guruhining unli tovushlari, ularning belgi va munosabatlari tizimi; **vokoder** [vo(kal)...+ *lot.* kode – shifr, kod] – so‘zlashuv nutqi kodlangan tarzda uzatiladigan telefon aloqa turi (uzoq masofali aloqa liniyalarida ularning uzatish qobiliyatini orttirish uchun qo‘llanadi).

VULV(O)... [*lot.* vulva – ayollarning tashqi jinsiy a’zolari] – o‘zlashma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning ayollarning tashqi jinsiy a’zolariga va ularning kasalliklariga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **vulva, vulvizm, vulvovaginit; vulvektomiya** [vulv(o)...+...ektomiya] – ayollarning tashqi jinsiy a’zolarini jarrohlik yo‘li bilan olib tashlash; **vulvit** [vulv...+ ...it] – ayollar tashqi jinsiy a’zolarining yallig‘lanishi.

X

XALK(O)... [*yun.* chalkos – mis] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning misga, mis birikmalariga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **xalkofil** (elementlar), **xalkogenidlar, xalkozin; xalkogenlar** [xalko...+...gen] – Mendeleyev davriy sistemasining VI guruhiga mansub elementlar: kislorod, oltingugurt, selen, tellur va poloniy; **xalkopirit** [xalko...+ pirit] – mis kolchedani; tarkibi asosan mis va temir sulfididan, qisman selen, rux, tellur, kumush, oltin sulfidlari aralashmasidan iborat bo‘lgan mineral; **xalkoz** [xalk(o)...+...oz] – a’zo va to‘qimalarda mis zarrachalarining yig‘ilib qolishi.

XEMI..., XEMO... [*ingl.* chemi < *lot.* alchimia – alkimyo; kimyo] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, kimyo, kimyoviy; kimyoviy jarayonlarga oid degan ma’nolarni bildiradi. Mas.: **xemilyuminessensiya, xemodektoma, xemogen** (yotqiziqlar), **xemoprofilaktika**, **xemoretsepsiya, xemoretseptorlar, xemosorbsiya, xemosterilizatorlar, xemotronika; xemorefleks** [xemo...+ refleks] – kimyoviy ta’sirlar natijasida vujudga kelgan refleks; **xemosintez** [xemo...+ sintez] – tarkibida xlorofill pigmenti bo‘lmagan mikroorganizmlar tomonidan turli anorganik birikmalardan ularning oksidlanishi natijasida hosil bo‘lgan energiya hisobiga organik moddalarning biosintezlanish jarayoni; **xemotaksis** [xemo...+...taksis] – eng sodda organizmlar va oliy hayvonlardagi harakatchan hujayralarning ma’lum kimyoviy qo‘zg‘atuvchilarga tomon harakat qilishi yoki ulardan uzoqlashishi; **xemoterapiya** [xemo...+...terapiya] – kasallikka sabab bo‘lgan mikroorganizmga zararli ta’sir ko‘rsatadigan, ammo bemorni zaharlamaydigan kimyoviy dorilar berish yo‘li bilan kasallikni davolash; **xemotropizm** [xemo...+...tropizm] – kimyoviy moddalarning bir yoqlama ta’sirida o‘simlik a’zolarining burilib o‘sishi (o‘suv yo‘nalishini o‘zgartirishi).

XEYL(O)... [*yun.* cheilos – lab, dudoq] – o‘zlashma yasama, qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, labga oid degan ma’noni bildiradi. Mas.: **xeylomegaliya, xeyloshizis; xeylit** [xeyl...+...it] – lablarning terisi, shilliq pardasi va qizil hoshiyasining yallig‘lanishi; **xeyloplastika** [xeylo...+...plastika] – lab-

lardagi nuqsonni plastik operatsiya yo‘li bilan tuzatish; **xeyloz** [xeyl...+...oz] – lablarning shish, qizarish va yorilish bilan namoyon bo‘ladigan jarohatlanishi.

XEYR(O)... [*yun.* cheir – qo‘l] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, qo‘l ma’nosini bildiradi. Mas.: **xeyrologiya** [xeyro...+...logiya] – logoped va kar-soqovlar o‘rtasida maxsus imo-ishoralar, mimik harakatlar vositasida fikr bildirish va muloqotga kirishish usuli; **xeyromegaliya** [xeyro...+ *yun*. megale – katta +...iya] – qo‘llar, ko‘krak va bo‘gimlarning shishib chiqishi bilan kechadigan psevdoakromegaliya; **xeyrospazm** [xeyro...+...spazm] – qo‘lpanja mushaklarining to‘satdan titrab qisqarishi; **xeyroteriy // xiroteriy** [xeyro...// xiro...+...teriy] – trias davrida yashagan, tekodontlarga mansub va yer ustida yuruvchi umurtqali jonivor; tuproqda (yerda) yurganda qoldirgan va odam qo‘li nusxasini eslatadigan izlari bilan ma’lumdir [Ushbu (**xeyro...**) terminelement **xiro...** terminelementining fonetik varianti hisoblanadi].

XIL(O)... [*yun.* chylos – limfa suyuqligi] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning limfaga, limfa suyuqligiga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **xilangioma, xilomikron, xiloperikard, xilopnevmotoraks; xilektaziya** [xil...+...ektaziya] – limfa tomirlarining turg‘un kengayishi; **xilostaz** [xilo...+...staz] – limfa yo‘llarida limfa suyuqligining to‘planib qolishi; **xilotoraks** [xilo...+ *yun.* thorax – ko‘krak] – ko‘krak limfa yo‘li devorining zararlanishi natijasida plevra bo‘shlig‘iga limfa to‘planishi; **xiluriya** [xil...+...uriya] – siydikda limfa bo‘lishi, bunday siydik xuddi sutga o‘xshaydi; **xilus** [*yun.* chylos – limfa suyuqligi] – ovqat hazm bo‘lishida ichak, limfa tomirlari va ko‘krak limfa yo‘lida hosil bo‘ladigan sutsimon suyuqlik.

XIMO... [*yun.* chymos – shira] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, oshqozon shirasi ma’nosini bildiradi. Mas.: **ximotripsin, ximotripsinogen; ximozin** [ximo(z)...+...in] – odam va hayvonlar oshqozoni shirasida uchraydigan ferment; **ximus** [*yun.* chymos] – ovqat hazm bo‘lishi jarayonida oshqozon yoki ingichka ichakda hosil bo‘ladigan yarimsuyuq, gomogen yoki suyuq bo‘tqaga o‘xshash mahsulot.

XION(O)... [*yun.* chion – qor] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, qor ma’nosini bildiradi. Mas.: **xionofobiya** [xiono...+...fobiya] – ayrim ruhiy kasalliklarda qordan qo‘rqish vahimasi; **xionosfera** [xiono...+ ...sfera] – troposferaning yer sirtida qorliklar va muzliklar hosil bo‘lish ehtimoli bo‘lgan bir qismi.

XIR(O)... [*yun.* cheir – qo‘l, kaft, panja] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, qo‘l, kaft ma’nolarini anglatadi. Mas.: **xiromant, xirot, xiroteriy // xeyroteriy, xirotoniya; xiromantiya** [xiro…+ *yun.* manteia – fol ochish, bashorat] – qo‘l kaftidagi chiziq va g‘uddalarga qarab fol ochish, kelajakni bashorat qilish; **xiropraktika** [xiro...+ praktika] – qo‘llar yordamida turli kasalliklarni, xususan, umurtqa kasalliklarini davolash usuli; xiroamaliyot; **xirurg** [xir...+...urg] – xirurgiya mutaxassisi, jarroh; **xirurgiya** [xir...+...urgiya] – jarrohlik; klinik tibbiyotning davolashda operatsiya usullari qo‘llanishi lozim bo‘lgan kasallik va shikastlanishlarni o‘rganadigan hamda operatsiya qilish yo‘llari, usullari va texnikasini ishlab chiqadigan bo‘limi.

XLOR(O)... [*yun.* chloros – yashil-sariq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, xlor, xlorga oid (***xlor*** – Mendeleyev davriy sistemasining VII guruhiga mansub yashil-sariq rangli, o‘tkir hidli bo‘g‘uvchi gaz) ma’nolarini bildiradi. Mas.: **xloraminlar, xlorangidridlar, xlorargirit, xloratlar, xloratsetofenon, xlorbenzol, xlorenxima, xloridin, xloridlar, xlorin, xloritlar, xlorkauchuklar, xlorlash** (suvni)**, xlorleykoz, xlorofitin, xloropeniya, xloropren, xlorosarkoma, xlorsian, xlorsirka** (kislota)**, xlorvinil; xlorator** [*ingl.* chlorinator < *yun.* chloros] – xlorni ma’lum dozalarga bo‘lish, uning suvli eritmalarini tayyorlash va xlorlash uchun xizmat qiladigan apparat; **xlorella** [xlor…+…ella] – bir hujayrali mikroskopik suvo‘tlarining bir turi; suvda yomon eriydi; **xloremiya** [xlor...+...emiya] – qonda ko‘p yoki oz miqdorda xloridlarning mavjud bo‘lishi; **xloretil** [xlor... + etil] – mahalliy og‘riqsizlantirish va qisqa vaqtli narkoz uchun qo‘llanadigan rangsiz, yengil, uchuvchan tiniq suyuqlik; **xlorodontiya** [xlor...+ *yun.* odontos – tish +...iya] – sut tishlarining ko‘kimtir rangda bo‘lishi; **xlorofill** [xloro...+...fill] – o‘simliklarning barglar, novdalar rangini belgilovchi yashil pigmenti; birinchi marta yashil rang sifatida o‘simlik bargidan ajratib olingan; **xloroform** [xloro...+ *lot.* forma – shakl, ko‘rinish] – o‘ziga xos hidli, rangsiz suyuqlik; maxsus usulda tozalangan xloroform narkoz uchun qo‘llanadi; **xloroformomaniya** [xloroform(o) +…maniya] – xloroformni hidlash yoki ichish bilan bog‘liq toksikomaniya; **xlorofos** [xloro...+ fos(for)] – paxta va boshqa o‘simliklarga zarar yetkazuvchi hasharotlarga qarshi ishlatilgan fosfororganik birikmalarning juda zaharli bir turi; **xloroma** [xlor...+...oma] – limfadenoid to‘qimadan va ko‘mikdan chiqadigan o‘ziga xos o‘sma; **xloromiyeloma** [xloro…+ miyel(o)…+...oma] – suyak ko‘migi (iligi) o‘smalari bilan birga uchraydigan xloroma; **xloroplastlar** [xloro...+ *yun.* plastos – yasalgan] – o‘simliklarning fotosintez qiladigan ichki organoidlari (plastidalari); **xloropsiya** [xlor...+...opsiya] – ko‘rish buzilishining bir turi: bunda atrofdagi narsalar yashil rangda ko‘rinadi; **xloroz**

[xlor...+...oz] – kamqonlikning bir turi: organizmda temirning yetarli darajada bo‘lmasligi va shu sababli eritrotsitlardagi bo‘yovchi pigmentning sezilarli darajada kamayishidan kelib chiqadi; **xlorpikrin** [xlor...+ *yun.* pikros – achchiq +...in] – bo‘g‘uvchi zaharlovchi modda; xlorli ohak yoki xlorni pikrin kislota va uning tuzlariga ta’sir ettirib olinadigan suyuq organik modda.

XOLE... [*yun.* chole – o‘t, safro] – o‘zlashma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning o‘t (safro) ga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **xolangiografiya, xolangiogramma, xolangiokarsinoma, xolangiolit, xolelitotomiya, xolera, xoleretiklar, xolerez, xolesteatoma, xolesterin, xolesterinemiya, xolesterinuriya, xolesterol, xolesteroz, xoletsistektomiya, xoletsistolitiaz, xoletsistopatiya, xoletsistotomiya, xolinesteraza, xolinoretseptor, xolinuriya, xoluriya; xolangioma** [xol(e)…+ angio...+…oma] – jigar ichidagi o‘t yo‘llarining hujayralaridan o‘sib chiqqan rak, o‘sma; **xolangit** [xol(o)...+ angi(n)...+...it] – o‘t (safro) yo‘llarining yallig‘lanishi; **xolegrafiya** [xole...+...grafiya] – o‘t (safro) sistemasini rentgen nurlari bilan tekshirish; **xolelitiaz** [xole…+ lit…+...iaz] – o‘t pufagida tosh bo‘lishi yoki tosh hosil bo‘lishi; **xolemiya** [xol(e)...+...emiya] – qonda o‘t bo‘lishi, o‘tning qonga o‘tishi; **xolepatiyalar** [xole...+...patiya] – o‘t pufagi va o‘t yo‘llarining kasalliklari; **xolerik** [*lot.* cholericus < *yun.* chole] – mizoj (temperament) turlaridan biri; ishga shiddat bilan kirishuvchi, tez paydo bo‘luvchi his-tuyg‘ularga ega, lekin qiziqqonligi, serjahl va serzardaligi xatti-harakatlarida, nutqida, mimikasida yaqqol ko‘rinib turadigan, kayfiyati tez o‘zgaradigan shaxs; **xolestaz** [xole…+ …staz] – o’t (safro) ning dimlanishi, to’silib qolishi; **xoletsistektomiya** [xoletsist…+…ektomiya] – o‘t pufagini olib tashlash operatsiyasi; **xoletsistit** [xole...+ sistit] – o‘t pufagining o‘tkir yoki surunkali yallig‘lanishi; **xoletsistografiya** [xoletsisto..+...grafiya] – organizmga maxsus kontrast moddalar yuborib, o‘t pufagini rentgenologik tekshirish; **xoletsistogramma** [xoletsisto...+…gramma] – o‘t pufagining rentgen tasviri; **xolin** [xol(e)...+...in] – dastlab o‘t (safro) da topilgan, B guruhiga mansub vitamin; organizmda yog‘lar almashinuvida muhim ahamiyatga ega.

XOLEDOXO... [*yun.* choledochos – umumiy o‘t yo‘li] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, umumiy o‘t yo‘li ma’nosini bildiradi. Mas.: **xoledoxoduodenostomiya, xoledoxolitotomiya, xoledoxoyeyunostomiya; xoledoxolitiaz** [xoledoxo…+ lit(o)…+…iaz] – o‘t-tosh kasalligida, umumiy o‘t yo‘llarida tosh bo‘lishi; **xoledoxoplastika** [xoledoxo…+…plastika] – umumiy o‘t yo‘llarini tiklash maqsadida o‘tkaziladigan operatsiya; **xoledoxostomiya** [xoledoxo…+…stomiya] – umumiy o‘t yo‘lini unga qo‘yilgan drenaj

nay vositasida vaqtincha tashqariga – qorin devoriga chiqarib qo‘yish operatsiyasi; **xoledoxotomiya** [xoledoxo…+…tomiya] – umumiy o‘t yo‘lini ochish operatsiyasi.

XONDR(O)... [*yun.* chondros – tog‘ay] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning tog‘ayga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **xondralar, xondrilla, xondriosomalar, xondroblastoma, xondrodermatit, xondrodisplaziya, xondroendotelioma, xondrofit, xondrogenez, xondrokalsinoz, xondrokarsinoma, xondroklast, xondromatoz, xondromiksoma, xondromukoproteidlar, xondroosteodistrofiya, xondroplast; xondrektomiya** [xondr...+...ektomiya] – bo‘g‘im tog‘ayini olib tashlash operatsiyasi; **xondrin** [xond…+…in] – tog‘ay to‘qimasining hujayralararo tolalari tarkibiga kiruvchi kollagen; **xondrit** [xondr...+...it] – tog‘ay to‘qimasining yallig‘lanishi; **xondroblast** [xondro…+…blast] – tog‘ay hosil qiladigan embrional hujayra; **xondrodistrofiya** [xondro…+ distrofiya] – tog‘ay to‘qimasi shakllanishining buzilishi bilan bog‘liq irsiy kasallik; **xondroma** [xondr...+ ...oma] – tog‘ayning xavfsiz o‘smasi; **xondromalyatsiya** [xondro…+ *yun.* malakos – yumshoq] – tog‘aylarning odatdan tashqari yumshoq bo‘lishi, yumshab qolishi; **xondronekroz** [xondro…+ nekroz] – tog‘ay yoki uning bo‘laklarining nekrozi; **xondrosarkoma** [xondro…+ sarkoma] – suyaklarda tog‘ay to‘qimasidan vujudga keladigan xavfli o‘sma; **xondrotsitlar** [xondro...+...sit] – tog‘ay to‘qimasining yetilgan hujayralari.

XOR(O)... [*yun.* choros – mamlakat; joy, makon] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, mamlakat, makon ma’nolarini bildiradi. Mas.: **xorologiya** [xor(o)...+...logiya] – o‘simlik va hayvonlarning alohida turlari, oilalari va boshqa sistematik guruhlari (taksonlari) ning tarqalish hududlari (areallari) ni o‘rganuvchi fan; areologiya; **xoronim** [xor(o)…+…onim] – toponimlarning muayyan bir sinfi: hudud, viloyat, tumanning, jumladan, ma’muriy, shahardagi, tabiiy joylarning atoqli nomi; **xoronimiya** – xoronimlar majmuyi.

XORD(O)... [*yun.* chorde – tor, ip, tola] – o‘zlashma qo‘shma va yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, tor (musiqa asbobida), ip, ipsimon, tola ma’nolarini bildiradi. Mas.: **xordalilar, xordoma, xordotsentez; xorda** [*yun.* chorde] – 1) biron-bir egri chiziqning (mas., aylananing) ikki nuqtasini birlashtiruvchi to‘g‘ri chiziq kesmasi; 2) orqa miya tolasi – bo‘ylama skelet kamari (tasmasi); **xordektomiya** [xord(o)…+…ektomiya] – tovush boylamini yoki ko‘pincha uning ma’lum qismini jarrohlik yo‘li bilan olib tashlash; **xor-**

dometr [xordo…+…metr] – torning yo‘g‘on-ingichkaligini o‘lchash uchun mo‘ljallangan asbob (musiqada); **xordotomiya** [xordo…+…tomiya] – orqa miyadagi o‘tkazuvchi nerv yo‘llarini qirqish operatsiyasi.

XORE(O)... [*yun.* choreia – raqs, o‘yin] – o‘zlashma qo‘shma va yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning raqsga, o‘yinga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **xoral, xoreograf, xoriyamb, xormeyster; xoreografiya** [xoreo...+...grafiya] – 1) raqs harakatlarini alohida belgilar tizimi yordamida yozib olish; 2) raqs san’ati; 3) balet yoki raqs tarkibidagi barcha elementlar majmuyi; **xorey** [*yun.* choreios – o‘yinga oid; sho‘x, o‘ynoqi] – rus she’r tuzilishida birinchi hijosiga urg‘u tushadigan, antik she’r tuzilishida esa cho‘ziq yoki qisqa hijolardan iborat ikki hijoli she’r vazni; **xoreya** [*yun.* choreia – raqs, o‘yin] – ***avliyo Vitt raqsi*** – nerv kasalligi bo‘lib, yuz, qo‘l, oyoq mushaklarining betartib, g‘ayriixtiyoriy qisqarishi, titrab qaltirashi bilan namoyon bo‘ladi (bunday harakatlar faqat uyqu vaqtida to‘xtaydi).

...XORIYA [*yun.* choreo – tarqalaman, olg‘a yuraman, siljiyman] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, o‘simliklarning tarqalishidagi holatlarni anglatadi. Mas.: **anemoxoriya, antropoxoriya, avtoxoriya, baroxoriya, zooxoriya; alloxoriya** [allo…+…xoriya] – o‘simliklarning turli xil tashqi omillar (odam, hayvonlar, shamol, suv kabilar) yordamida tarqalishi; **epizooxoriya** [epi…+ zooxoriya] – o‘simlik urug‘lari va mevalarining hayvonlar juniga o‘z tuklari, igna va tikanaklari bilan ilashib olib tarqalishi; **gidroxoriya** [gidro…+…xoriya] – o‘simliklar sporalari, urug‘lari va mevalarining suv oqimlari yordamida tarqalishi; **sinzooxoriya** [sin…+ zooxoriya] – hayvonlarning yemish g‘amlash maqsadida so‘ta, yong‘oq, don kabilarni yangi joylarga ko‘chirishi orqali o‘simlik mevalari va urug‘larining tarqalishi.

XRESTO... [*yun.* chrestos – yaxshi, foydali] – o‘zlashma qo‘shma so‘zning tarkibiy qismi bo‘lib, yaxshi, foydali, ahamiyatli degan ma’nolarni bildiradi. Mas.: **xrestomatiya** [*yun.* chrestomatheia < chrestos + manthano – o‘qiyman, o‘rganaman] – yozuvchilar yoki olimlarning muayyan mavzu bo‘yicha tanlangan asarlari yoki ulardan olingan parchalar to‘plamidan iborat o‘quv qo‘llanmasi.

XRIZ(O)... [*yun.* chrysos – oltin, tilla] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning oltin, oltinga o‘xshash, oltinrang (tillarang) ma’nolariga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **xrizantema, xrizoberill, xrizolit, xrizomonadalar, xrizopraz; xriziaz** [xriz...+...iaz] – to‘qimalarda

oltin to‘planib qolishi; **xrizoderma** [xrizo...+...derma] – organizmga kirib qolgan oltin ta’siri tufayli terida yo‘qolmaydigan dog‘ paydo bo‘lishi; **xrizokolla** [xrizo...+ *yun.* kolla – yelim: qadimda oltinni payvand qilishda yelimdan foydalanganlar] – suvli mis silikat; yopiq kristalli, mo‘rt, ko‘k-yashil rangli mineral; **xrizoterapiya** [xrizo...+...terapiya] – ba’zi kasalliklarni oltin preparatlari bilan davolash; **xrizotil** [xrizo...+ *yun.* tilos – tola] – serpentin guruhiga mansub mineral; odatda, ingichka tolali, ipakdek yaltiroq, och tillarang bo‘ladi.

XROM(O)..., XROMATO... [*yun.* chroma (chromatos) – rang, tus; bo‘yoq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning rang-tusga, bo‘yoq va bo‘yalishga, kimyoviy element – xrom va uning birikmalariga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **xromaffinoma, xromatidlar, xromatin, xromatograf, xromobakteriyalar, xromoblastomikoz, xromodakrioreya, xromodermatoz, xromodiopsid, xromofotografiya, xromogen, xromogenez, xromolipoid, xromolitografiya, xromomagnezit, xromometr, xromomikoz, xromonema, xromoplastlar, xromoproteidlar, xromoradiometr, xromosfera, xromoskop, xromosomalar, xromotipiya, xromotropizm, xromotsistoskopiya, xromotsitoz; xromal** [xrom...+ al(yuminiy)] – temir, xrom va alyuminiy qotishmasi; **xromansil** [xrom...+ man(gan) + sil(itsiy)] – tarkibida xrom, mangan (marganes) va silitsiy (kremniy) bo‘lgan legirlangan po‘lat; **xromatizm** [xromat(o)...+...izm] – 1) tanada rangli dog‘lar paydo bo‘lishi; 2) rangli nurlar ko‘rinishiga oid gallyutsinatsiya, yo‘q narsalarning ko‘zga ko‘rinishi; **xromatlar** [xrom...+...at] – xromat va xromit kislotalarning tuzlari – kuchli va zaharli oksidlovchilar; **xromatofiliya** [xromato….+…filiya] – osonlik bilan bo‘yalish xususiyati, rang oluvchanlik; **xromatofobiya** [xromato…+…fobiya] – biror rang yoki bo‘yalgan buyumdan miyaga o‘rnashib qolgan qo‘rqish hissi; **xromatoforlar** [xromato...+...for] – teriga rang beradigan pigment donachalariga ega bo‘lgan hujayralar; **xromatografiya** [xromato...+ ...grafiya] – gaz, suyuqlik yoki erigan moddalar aralashmalarini adsorbsiya yo‘li bilan ajratib olish va tahlil qilish usuli; **xromatogramma** [xromato...+ ...gramma] – xromatografiya natijalarining grafik tasviri; **xromatoliz** [xromato...+...liz] – 1) hujayra yadrosi tarkibidagi xromatinning erib parchalanishi; 2) neyron tarkibidagi xromatofil moddaning erib yo‘q bo‘lib ketishi; **xromatopsiya** [xromat(o)...+...opsiya] – 1) rangli ko‘rish, rangsiz obyektlarning rangli ko‘rinishi; 2) rangga nisbatan qisman yoki taxminiy ko‘rlik; **xromel** [xrom…+ (nik)el] – nikelning 9 – 10 % li qotishmasi; yuqori haroratga nisbatan barqarorlikka ega; **xromidroz** [xrom…+ (g)idroz] – odamlarda kobalt, mis va ba’zi boshqa moddalar bilan ishlaganda chiqadigan rangli ter; **xromofil** [xromo…+…fil]: ***xromofil hujayralar*** – rangli moddalarni, bo‘yoqlarni o‘zi-

ga yaxshi oladigan, to‘q bo‘lib bo‘yaladigan hujayralar, tuzilmalar; **xromofob** [xromo…+…fob]: ***xromofob hujayralar*** – rangli moddalarni o‘ziga yaxshi olmaydigan yoki mutlaqo bo‘yalmaydigan hujayralar, tuzilmalar; **xromogenlar** [xromo...+...gen] – o‘simlik va hayvon to‘qimalari hujayralarida bo‘ladigan, oksidlanganda bo‘yalish xususiyatiga ega bo‘lgan rangsiz moddalar; **xromolimfografiya** [xromo…+ limfo…+…grafiya] – to‘qimalarga bo‘yovchi modda kiritish bilan limfa tomirlarini aniqlash usuli, bo‘yoq to‘qimalardan limfa tomirlariga o‘tadi; **xromoskopiya** [xromo...+...skopiya] – 1) rang ko‘rish qobiliyatini tekshirish; 2) organizmga turli bo‘yoq moddalarni yuborib, siydik rangining o‘zgarishiga qarab buyrak faoliyatini tekshirish; **xromoterapiya** [xromo…+…terapiya] – rang yoki rang sezuvchi yorug‘lik vositasida davolash; **xromotsitlar** [xromo...+...sit] – organizmda biriktiruvchi to‘qima tarkibiga kiradigan, pigment hujayralarini yemiradigan sayyor hujayralar.

XRON(O)... [*yun.* chronos – vaqt, davr, zamon] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zlarning vaqt, zamon ma’nolariga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **xronaksimetr, xronaksimetriya, xronaksiya, xronik** (kasal; kasallik)**, xronikal, xroniosepsis, xronizator, xronofarmakologiya, xronofotogramma, xronognoziya, xronoskopiya, xronoterapiya, xronotrop** (ta’sir)**, xronotropiya; xronika** [*yun.* chronikos – vaqtga, zamonga oid] – 1) tarixiy voqea-hodisalarning davriy izchillikdagi yozma bayoni; solnoma; 2) ijtimoiy yoki oilaviy voqea-hodisalarning izchil bayonidan iborat adabiy asar; 3) davriy matbuot, radio, televideniye va kinoda: kundalik voqea-hodisalar haqidagi axboriy ma’lumotlar; 4) kundalik voqea-hodisalarga bag‘ishlangan hujjatli film; **xronobiologiya** [xrono...+ biologiya] – biologiyaning muayyan davrda kechgan (o‘tgan) biologik jarayonlarni o‘rganuvchi bo‘limi; **xronofotografiya** [xrono…+ fotografiya] – harakat qilib turgan obyektni bir-biriga teng qisqa vaqt oralatib rasmga olish; **xronograf** [xrono...+...graf] – qisqa vaqt oraliqlarini o‘lchash yoki qandaydir voqea-hodisalar bo‘lib o‘tgan vaqtni aniq qayd etish, yozish uchun mo‘ljallangan asbob; **xronologiya** [xrono...+...logiya] – 1) vaqtni o‘lchash va uni yozib olish usullari haqidagi fan; 2) tarixiy voqea-hodisalarning davriy izchilligi, ketma-ketligi; 3) muayyan voqea-hodisalarning davriy ketma-ketlikdagi ro‘yxati; **xronometr** [xrono...+...metr] – 1) yuqori aniqlikka ega bo‘lgan prujinali ko‘chma soat; 2) o‘ta aniq yuradigan soat; **xronometraj** [xrono...+...metr + ...aj] – muayyan takrorlanuvchi mehnat jarayonlari yoki boshqa harakatlarni bajarish uchun sarflangan vaqtni o‘lchash usuli (bunda ularning davomiyligi o‘lchanadi va bajarilish shart-sharoitlari tahlil qilinadi); **xrononim** [xro-

no…+…onim] – kishilik jamiyati uchun muhim bo‘lgan muayyan vaqt oralig‘ining atoqli nomi (*Mustaqillik kuni, Xotira va qadrlash kuni*); **xronoskop** [xrono...+...skop] – ikki(ta) soat ko‘rsatkichlarini taqqoslash hamda juda qisqa vaqt oraliqlarini aniq o‘lchashga mo‘ljallangan asbob; **xronotop** [xrono...+...top] – muayyan estetik hodisaning, masalan, romanda bayon etilgan voqealarning makoniy-zamoniy tavsiflari majmuyi; asar qahramonlari va muallifining makoniy-zamoniy munosabatlari.

...XTON [*yun.* chton – zamin, tuproq, yer] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lib, biron yerga, joyga mansub, mahalliy; ayni joyga mansub bo‘lmagan, begona kabi ma’nolarni bildiradi. Mas.: **alloxton** [allo...+...xton] – hozirgi o‘rnashgan yeridan boshqa joyda paydo bo‘lgan (mas., *alloxton tog‘ jinslari, alloxton organizmlar*); **alloxtonlar** – hozir muayyan bir joyda yashovchi, lekin organizmlar tarixiy taraqqiyoti jarayonida qandaydir boshqa joyda paydo bo‘lgan organizmlar; **avtoxton** [*yun.* autochton – mahalliy, tub joyli] – hozir joylashgan yerda, zaminda paydo bo‘lgan, mahalliy (mas., *avtoxton tog‘ jinslari, avtoxton organizmlar*); **avtoxtonlar** – 1) mamlakatning dastlabki, tub aholisi; 2) evolyutsiya jarayonida muayyan bir yerda shakllangan yoki qadimdan shu yerda yashagan va hozirda ham yashab kelayotgan o‘simlik va hayvon organizmlari; aborigenlar.

Y

YATRO... [*yun.* iatros – shifokor, vrach] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning vrachga, shifokorga, davolashga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **yatrofizika, yatrogeniya, yatromexanika; yatrogen** [yatro...+...gen]: ***yatrogen kasalliklar, yatrogeniyalar*** – vrach yoki boshqa tibbiyot xodimlarining ehtiyotsizlik bilan aytgan noo‘rin gaplari, xatti-harakatlarining, o‘qilgan tibbiy adabiyotning bemor ruhiyatiga salbiy ta’sir etishidan kelib chiqadigan kasalliklar; **yatrokimyo** [yatro...+ kimyo] – tibbiyot va kimyoning nemis tabiatshunosi T.Paratsels asos solgan yo‘nalishi (XVI asr) bo‘lib, uning namoyandalari barcha kasalliklar kimyoviy muvozanatning buzilishidan kelib chiqadi deb bemorlarni davolashda faqat kimyoviy moddalarni ishlatishni buyurganlar.

YOD(O)..., IOD(O)... [*yun.* iodes – binafsha] – o‘zlashma yasama va qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, yod, yodga oid (**yod** – Mendeleyev davriy sistemasining VII guruhiga mansub kimyoviy element; galogenlar oilasidan bo‘lgan, metalldek yaltiroq qora-kulrang kristtall metallmas) degan ma’nolarni bildiradi. Mas.: **yododerma, yodoform, yodopsin, yodtireoglobulin, yodtirozinlar; yodargirit** [yod...+ *lot.* Argentum – kumush] – sariq rangli nodir mineral, kumush yodid; **yodidlar** [yod...+...id] – yodning boshqa elementlar bilan kimyoviy birikmalari; **yodizm** [yod...+...izm] – yod preparatlarini ko‘p miqdorda va uzoq muddat ishlatilishi natijasida mazkur element ajraladigan joylarda (nafas yo‘llarida, so‘lak bezlarida) bo‘ladigan yallig‘lanish holati; **yodometriya** [yodo...+...metriya] – titrlashda o‘rganilayotgan moddani yod bilan oksidlashga asoslangan analiz (tahlil) usuli.

YUR(IS)... [*lot.* jus, juris – huquq; odillik, adolat] – o‘zlashma qo‘shma, yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning huquqqa, huquqshunoslikka, huquq masalalariga aloqadorligini bildiradi. Mas.: **yuridik** [*lot.* juridicus – sudga, sudlovga oid] – huquqqa, huquqshunoslikka oid: *yuridik institut, yuridik maslahatxona, yuridik fanlar;* ***yuridik shaxs*** – fuqarolik huquq va majburiyatlarining mustaqil obyektlari hisoblanuvchi korxona, muassasa yoki tashkilot; **yuridizatsiya** [yuris...+...izatsiya] – biron-bir

voqea-hodisaga yoki faktlarga huquqiy tus berish; masala yoki hodisaning huquqiy tomonlarini bo‘rttirib ko‘rsatish; **yurisdiksiya** [*lot.* jurisdictio – sudda ishlarni ko‘rish, sud jarayoni < yur(is)...+ *lot.* dictio – gapiraman, aytaman] – 1) biror sud idorasiga oidlik, sudda ko‘rish huquqi; 2) sud yoki ma’muriy organning muayyan faktlarga yuridik baho berish, shu jumladan, nizolarni hal qilish va qonunda ko‘zda tutilgan sanksiyalarni qo‘llash bo‘yicha vakolatlar doirasi; **yuriskonsult** [*lot.* jurisconsultus – huquqshunos < yur(is)...+ *lot.* consultus – qonunshunos, huquqshunos] – huquq maslahatchisi; muassasa, tashkilot, idora yoki jamoat tashkiloti yuridik xizmatining mansabdor xodimi; muassasa faoliyatidagi qonuniylikni ta’minlaydi, sud va ma’muriy organlarda korxonaning huquq va manfaatlarini himoya qiladi; **yurisprudensiya** [*lot.* jurisprudentia – huquqshunoslik < yur(is)...+ *lot.* prudentia – bilim, fan] – huquqshunoslik; yuristlarning amaliy faoliyati; huquq to‘g‘risidagi fanlarning, huquq normalarining amaliy qo‘llanishi bilan aloqador bo‘lgan bilimlar majmuyi; **yurist** [*nem.* Jurist < yur(is)...+...ist] – yuridik ma’lumotga ega bo‘lgan kishi, huquqshunos, yuridik soha amaliyotchisi.

YUST... [*lot.* justus – adolatli, odil, to‘g‘ri, aniq; qonuniy, qonunlashtirilgan] – o‘zlashma yasama so‘zlarning tarkibiy (o‘zak) qismi bo‘lib, shu so‘zlarning odillik, to‘g‘rilik, aniqlikka, qonuniylikka aloqadorligini bildiradi. Mas.: **yustirovka** [< *rus.* < *nem.* justieren – aniq tekshirmoq, rostlamoq, to‘g‘rilamoq < *lot.* justus – to‘g‘rilik, aniqlikka oid] – 1) o‘lchov-me’yorning, optik va o‘lchov asboblarining aniq, to‘g‘ri va ishonchli ishlashini ta’minlovchi, ularni ishchi holatga keltiruvchi amallar majmuyi; 2) poligrafiyada: harflarning, bosma qolipning past-balandligini aniq tekshirish, ularni o‘zaro moslashtirish; **yustitsiya** [*lot.* justitia – adolatlilik, haqqoniylik, qonuniylik; qonunlar majmuyi] – 1) adolat, adliya; 2) adliya, sud, tergov idoralari; sud idoralari tizimi.

Z

ZAUR(O)..., ...ZAVR [*yun.* sauros – kaltakesaksimon ulkan yirtqich hayvon; kaltakesak] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi va ikkinchi tarkibiy qismlari bo‘lib keladigan, qadim zamonlarda sudralib yoki o‘rmalab yurgan, keyinchalik qirilib bitgan qazilma hayvonlarning (yanglish holda ularga mansub deb hisoblangan amfibiyalarning ham) nomlarini hosil qiluvchi affiksoid (bunday nomlar 20 dan ortiq va ular, odatda, ko‘plik shaklida qo‘llanadi). Mas.: **zaurolofalar, zauropterigiylar; zauropodlar** [zauro…+…pod] – yura va bo‘r davr (era) larida yashagan, tos suyagi va qo‘l-oyoqlari sudralib yuruvchilarnikiga o‘xshash, to‘rt oyoqli o‘simlikxo‘r dinozavrlar guruhi; **ankilozavrlar, antarktozavrlar, apatozavrlar, arxozavrlar, braxiozavrlar, brontozavrlar, dolixozavrlar, gadrozavrlar, ixtiozavrlar, kotilozavrlar, mastodonzavrlar, mozazavrlar, pareyazavrlar, pleziozavrlar, pterozavrlar, skutozavrlar, stegozavrlar, tarbozavrlar; dinozavrlar** [*yun.* dinos – qo‘rqinchli +... zavr] – mezozoy davrida yashab, bo‘r davrida qirilib ketgan ko‘p sonli sudralib yuruvchilar sinfi; **karnozavrlar** [*yun.* karo (karnis) – go‘sht +...zavr] – mezozoy davrida yashagan, xanjardek baquvvat tishlari bo‘lgan, kallasi xumday, oldingi oyoqlari kalta, uzunligi 15 metrgacha bo‘lgan eng yirik yirtqich dinozavrlar; **mezozavrlar** [mezo…+…zavr] – chuchuk suvlarda yashagan, uzunligi bir metrgacha, kurakoyoqli, jag‘ida ko‘plab ignasimon tishlari bo‘lgan kaltakesaksimon reptiliyalar guruhi; **selurozavrlar** [*yun.* koilos – kovak + *lot.* ura – dum +...zavr] – yupqa devorli g‘ovak suyaklardan iborat skelet tuzilishining yengilligi, kalla suyagining kichikligi bilan ajralib turuvchi yirtqich dinozavrlar guruhi; **tarbozavrlar** [*yun.* tarbos – qo‘rqinch, vahima +…zavr] – bo‘r davrida yashagan ulkan yirtqich dinozavrlar; **tiranozavrlar** [*yun.* tyrannos – shafqatsiz +...zavr] – Shimoliy Amerikada bo‘r davrining oxirida yashagan, karnozavrlar guruhiga mansub oxirgi va eng yirik yirtqich dinozavrlar.

ZIGO...[*yun.* zygon – juft, qo‘sh, qo‘shaloq; ikkita] – o‘zlashma yasama va qo‘shma so‘zlarning birinchi (o‘zak) qismi bo‘lib, juft, qo‘sh, qo‘shaloq; er-xotin ma’nolarini bildiradi. Mas.: **zigogenez, zigomitsetlar, zigomorf, zigomorfizm, zigotena; zigogamiya** [zigo…+…gamiya] – zamburug‘lar va suvo‘tlardagi jinsiy jarayon turi; bunda tashqi ko‘rinishdan erkak yoki urg‘ochi

ekanligi farq qilmaydigan ikki hujayra qo‘shiladi; **zigospora** [zigo…+…spora] – ba’zi zamburug‘lar va suvo‘tlarda tashqi ko‘rinishdan bir xil jinsiy hujayralar qo‘shilishidan hosil bo‘lgan spora; **zigota** [*yun.* zygote – juft qilib qo‘shilgan, juftlashtirilgan] – hayvonlar va o‘simliklarda urug‘lanish jarayonida ikki jinsiy hujayra (gameta) ning qo‘shilishi natijasida hosil bo‘ladigan hujayra; zigotadan yangi zot (organizm) rivojlanadi.

ZIM(O)... [*yun.* zyme – achitqi, xamirturush] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, bu so‘zlarning achitqi; ferment ma’nolariga daxldorligini ko‘rsatadi. Mas.: **zimaza** [zim(o)...+...aza] – achitqi ta’sirida ajraladigan spirtli bijg‘ish fermentlarining majmuyi; zimazalar uglevodlarni spirt va karbonat kislotaga parchalaydi hamda shakarni spirtga aylantiradi; **zimogenlar** [zimo...+...gen] – fermentlarning nofaol shakllari; **zimoliz** [zimo…+…liz] – ovqat hazm qilish paytidagi fermentatsiya jarayoni yoki fermentativ parchalanish jarayoni; **zimoz** [zim(o)…+…oz] – 1) achitqilar ta’sirida o‘tadigan fermentatsiya jarayoni; 2) ba’zi yuqumli kasalliklarda organizmda yuzaga keladigan, go‘yo fermentatsiya natijasi deb hisoblanadigan o‘zgarishlar.

ZOO... [*yun.* zoon – jonivor, hayvon] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, o‘zi qo‘shilgan so‘zlar bilan birgalikda hayvonlarga, hayvonot olamiga daxldorlik ma’nolarini bildiradi. Mas.: **zo(o)antropiya, zooantroponoz, zoobaza, zoobotanika, zooerastiya, zooerotiya, zooferma, zoofiliya, zoogametangiy, zoogeografiya, zoogigiyena, zoografiya, zookimyo, zookumarin, zoolatriya, zoolit, zoolog, zoomassa, zoominimum, zoomorfizm, zoomorfoz, zoonimiya, zoopaleontologiya, zoopark, zoopatiya, zoopatolog, zoopazitlar, zooplankton, zoopsixolog, zoosporangiy, zoosporozlar, zootexnik, zootoksinlar, zootsenoz, zooveterinar, zooveterinariya, zooxirurg, zooxlorellalar; zoobentos** [zoo…+ *yun.* benthos – chuqurlik, chuqur joy] – bentosning tarkibiy qismi – dengiz va qit’alardagi suv havzalarining tubida yashovchi hayvonlar majmuyi; **zoofaglar** [zoo...+...fag] – faqat boshqa hayvonlar bilan oziqlanadigan jonivorlar; **zoofiliya** [zoo…+…filiya] – 1) o‘simliklarning jonivorlar yordamida, asosan, hasharotlar, qisman qushlar va sutemizuvchilar yordamida chetdan changlanishi; 2) jonivorlarga ishqibozlik; **zoofobiya** [zoo…+…fobiya] – hayvonlarni ko‘rganda, hatto ular haqida eslatilganda haddan tashqari kuchli g‘ayritabiiy qo‘rquv paydo bo‘lib, vahimaga tushish; **zoogamiya** [zoo...+...gamiya] – gulli o‘simliklarning hasharotlar yordamida changlanishi; **zoologiya** [zoo...+...logiya] – biologiyaning hayvonlar to‘g‘risidagi, ularni kompleks o‘rganuvchi sohasi; **zoonim** [zoo…+…onim] – har qanday: xonaki, zooparkdagi yoki sirkdagi, qorovul yoki

qo‘riqchi, yovvoyi hayvonlarning atoqli nomi (laqabi); **zoonozlar** [zoo...+ *yun.* nosos – kasallik] – faqat hayvonlar uchun xos bo‘lgan, lekin ulardan odamlarga o‘tishi mumkin bo‘lgan yuqumli kasalliklar guruhi; **zoopatologiya** [zoo...+ patologiya] – hayvonlarning kasalliklarini o‘rganadigan fan; **zoopsixologiya** [zoo…+ psixologiya] – hayvonlar psixologiyasi; psixologiyaning hayvonlar psixikasini, uning ko‘rinishlari, kelib chiqishi va rivojlanishini o‘rganuvchi sohasi; **zoopsiya** [zoo…+...opsiya] – xilma-xil jonivorlar (hasharot, qush va boshqalar) obrazi tarzida namoyon bo‘ladigan ko‘rish gallyutsinatsiyasi; **zoospora** [zoo…+…spora] – ko‘plab suvo‘tlar va ba’zi tuban zamburug‘larda jinssiz ko‘payishga xizmat qiluvchi va xivchinlari bilan harakatlanuvchi alohida hujayra; **zootexnika** [zoo…+ *yun.* techne – mahorat, ustalik] – qishloq xo‘jalik hayvonlarini kam mehnat va mablag‘ sarflagan holda ulardan katta miqdorda yuqori sifatli mahsulotlar (go‘sht, sut, jun, teri kabilar) olish uchun ko‘paytirish, oziqlantirish, asrash va to‘g‘ri foydalanish haqidagi fan; **zootomiya** [zoo...+...tomiya] – zoologiyaning hayvonlar ichki tuzilishini o‘rganuvchi sohasi; **zootsidlar** [zoo...+...sid] – qishloq xo‘jalik zararkunandalari, asosan, kemiruvchilar va qushlarga qarshi kurashda qo‘llanadigan o‘ta zaharli kimyoviy moddalar; **zooxoriya** [zoo…+…xoriya] – o‘simliklarning mevalari, urug‘lari va boshqa murtak a’zolarining hayvonlar yordamida tarqalishi.

...ZOY [*yun.* zoe – hayot] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlar tarkibidagi affiksoid: o‘zi qo‘shilgan so‘z bilan birgalikda Yerning geologik tarixidagi turli jinslar, jonli mavjudotlar paydo bo‘lishi bilan ajralib turadigan eralar (juda katta tarixiy davrlar) ning nomlarini bildiradi. Mas.: **fanerozoy, kriptozoy, mezozoy, paleozoy, proterozoy; arxeozoy** [arxeo...+...zoy] – Yer geologik tarixidagi eng qadimgi era; arxey; **azoy** [a…+…zoy] – Yer geologik tarixidagi eng qadimgi era bo‘lib, uning qatlamlarida tirik organizmlar qoldiqlari kuzatilmagan; **kaynozoy** [*yun.* kainos – yangi +...zoy] – Yer geologik tarixida bundan 66 million yil avval boshlanib, hozirgacha davom etib kelayotgan era.

SH

SHISTO... [*yun.* schistos – egatcha, yoriqcha] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, tananing muayyan a’zosidagi egatcha, yoriqcha ma’nosini bildiradi. Mas.: **shistosomalar, shistosomatoslar // shistomozlar; shistosomiya** [shisto…+ *yun.* soma – tana, gavda] – rivojlanish anomaliyasi, qorinda va oyoqlarda rudimental yoriqlar bo‘lishi bilan ifodalanadi; **shistotoraks** [shisto…+ *yun.* thorax – ko‘krak] – rivojlanish anomaliyasi, ko‘krak qafasida yoriq bo‘lishi.

SHIZO... [*yun.* schizo – bo‘laman, maydalayman, parchalayman; yoraman, yanchaman] – o‘zlashma qo‘shma, yasama so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning maydalanish, bo‘linish, parchalanish va umuman buzilishlarga aloqadorligini ko‘rsatadi. Mas.: **shizobuliya, shizofaziya, shizofrenik** (**=shizik**), **shizoid, shizomikoz, shizomitsetlar, shizotipik; shizofrenik** [*lot.* schizophrenicus < shizo...+ *yun.* phren] – shizofreniya bilan kasallangan odam; **shizofreniya** [shizo...+ *yun.* phren – o‘y, fikr; aql] – alohida yoki uzluksiz xurujlar shaklida shaxsning o‘zgarishi bilan kechadigan ruhiy kasallik; uning turli bosqichlarida ruhiy faoliyat buzilishining har xil alomatlari – vasvasa, alahlash, gallyutsinatsiya, asabiy-ruhiy qo‘zg‘aluvchanlik, harakatsizlik, bemor shaxsining o‘zgarishi kabilar kuzatiladi; **shizogoniya** [shizo...+...goniya] – ba’zi eng sodda organizmlar va ayrim suvo‘tlarning jinssiz ko‘payishi; bunda yadroning takror-takror bo‘linishi ro‘y beradi, keyin organizm ko‘plab organizmlarga ajraladi; **shizomaniya** [shizo...+ ...maniya] – shizofreniyaning irsiy moyillik asosidagi yengil ko‘chish turlarining umumiy nomi; **shizotsefaliya** [shizo…+…sefaliya] – kallaning tug‘ma nuqsoni: kallada uzunasiga ketgan yoriq bo‘lishi; **shizotsit** [shizo…+…sit] – 1) segmentatsiya davrini boshdan kechirayotgan qon tanachasi; 2) qizil qon tanachalarining degeneratsiyalanishi yoki parchalanishi oqibatida paydo bo‘lgan gemoglobinga ega ferment.

MUNDARIJA

So‘zboshi .....
Lug‘at materiallarini to‘plash va izohlashda foydalanilgan manbalar .....
Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi .....
Lug‘atda qo‘llangan shartli qisqartmalar ro‘yxati .....
Xalqaro terminelementlarning ayrim xususiyatlariga doir .....
A .....
B .....
D .....
E .....
F .....
G .....
I .....
K .....
L .....
M .....
N .....
O .....
P .....
R .....
S .....
T .....
U .....
V .....
X .....
Y .....
Z .....
Sh .....

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

O‘ZBEK TILINING DAVLAT TILI SIFATIDAGI NUFUZI VA MAVQEYINI TUBDAN OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

Xalqimizning ko‘p asrlik madaniy, ilmiy-ma’rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo‘lgan o‘zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biridir.

O‘zbekistonda 1989-yil 21-oktabrda el-yurtimiz asrlar davomida orzu qilib, intilib va kurashib kelgan davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinishi mamlakat suvereniteti va mustaqilligi sari qo‘yilgan dastlabki dadil qadam edi. Aynan ana shu tarixiy hujjatga binoan o‘zbek tili mustahkam huquqiy asos va yuksak maqomga ega bo‘ldi.

Istiqlol yillarida ona tilimiz tom ma’noda davlat tiliga aylanib, xalqimizni yurtimizda erkin va ozod, farovon hayot qurishdek buyuk marralarga safarbar etadigan beqiyos kuch sifatida maydonga chiqdi.

Bugun O‘zbekistonimiz “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning yangi, yanada yuksak bosqichiga ko‘tarilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida davlat tilining hayotimizdagi o‘rni va nufuzi tobora oshib bormoqda.

O‘zbek tili siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy jabhalarda faol qo‘llanib, xalqaro minbarlarda baralla yangramoqda. Xorijiy mamlakatlarda tilimizga e’tibor va uni o‘rganishga qiziqish kuchaymoqda.

Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada avvalo o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir.

O‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini tubdan oshirish, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug‘ ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta’minlash maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, Madaniyat vazirligi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi, O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi, “Taraqqiyot strategiyasi” markazi va keng jamoatchilikning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun — 21-oktabr sanasini “O‘zbek tili bayrami kuni” deb e’lon qilish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida xodimlarining umumiy cheklangan soni 9 ta shtat birligidan iborat Davlat tilini rivoj-

lantirish departamenti tashkil etilsin va uning tuzilmasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Quyidagilar Davlat tilini rivojlantirish departamentining asosiy vazifalari etib belgilansin:

davlat tilini rivojlantirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan monitoringni amalga oshirish, ushbu sohada jamoatchilik nazoratining samarali shakllarini joriy etish;

davlat organlari va tashkilotlari, jumladan, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining davlat tilini rivojlantirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini tashkil qilish bo‘yicha faoliyatini muvofiqlashtirish;

davlat tilining amal qilishi bilan bog‘liq muammolarni aniqlash va bartaraf etish yuzasidan, shuningdek, uni rivojlantirish sohasida yagona davlat siyosatini yuritish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

o‘zbek tilining yozma nutqi me’yor va qoidalarini ishlab chiqish bo‘yicha hamda lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini to‘liq joriy etish borasidagi ishlarni jadallashtirish;

davlat tilini rivojlantirish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish;

davlat tilini rivojlantirish bo‘yicha dasturlar va “Yo‘l xaritalari”ni ishlab chiqish, ularning amalga oshirilishini nazorat qilish, shuningdek, “O‘zbek tili bayrami kuni”ni nishonlash bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtirish;

ilmiy asoslangan yangi so‘z va atamalarni iste’molga kiritish, zamonaviy atamalarning o‘zbekona muqobillarini yaratish va bir xilda qo‘llanishini ta’minlash, geografik va boshqa toponimik obyektlarga qonun hujjatlariga muvofiq nom berilishi borasidagi faoliyatni monitoring qilish va muvofiqlashtirish;

davlat tilini rivojlantirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash, bu sohada xalqaro hamkorlikni amalga oshirish.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

a) uch oy muddatda:

“O‘zbek tili bayrami kuni”ni belgilash bo‘yicha qonun loyihasini;

“Davlat tili haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini bugungi kun talablari nuqtayi nazaridan takomillashtirgan holda uning yangi tahrirdagi loyihasini ishlab chiqsin va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga kiritsin;

b) ikki oy muddatda xorijiy davlatlar tajribasini chuqur o‘rgangan holda ilmiy asoslangan yangi so‘z va atamalarni rasmiy iste’molga kiritish bo‘yicha Atamalar komissiyasini tashkil etish va uning faoliyatini tartibga solish to‘g‘risida qaror qabul qilsin;

v) 2020-yil 1-iyunga qadar quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan 2020 — 2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi va davlat dasturi loyihalarini kiritsin:

mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida, jumladan, davlat boshqaruvi, zamonaviy va innovatsion texnologiyalar, sanoat, bank-moliya tizimi, huquqshunoslik, diplomatiya, harbiy ish, tibbiyot va boshqa sohalarda davlat tilining imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishish;

ta’lim muassasalarida davlat tilini o‘rgatish va uni bilish darajasini baholash tizimini yanada takomillashtirish, davlat tilining ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish;

davlat tili sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish;

davlat tilining axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, Internet jahon axborot tarmog‘ida munosib o‘rin egallashini ta’minlash, o‘zbek tilining kompyuter dasturlarini yaratish;

davlat tili qoidalarining buzilishi bilan bog‘liq holatlarni muntazam va har tomonlama o‘rganish, ularni bartaraf etishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

mamlakatimiz hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlar tillarining rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratish, ularga davlat tilini o‘rganish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish;

davlat tilining xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzi, uning boshqa tillar bilan aloqalari istiqbollarini belgilash, xorijda istiqomat qiluvchi vatandoshlar va o‘zbek tilini o‘rganish istagida bo‘lgan chet el fuqarolari uchun o‘zbek tili darsliklari va elektron dasturlarni ishlab chiqish va ularni keng miqyosda tarqatish, o‘zbek tilini o‘rgatish bo‘yicha maxsus kurslarni tashkil etish.

5. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o‘zgartish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

6. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Z.Sh. Nizomiddinov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2019-yil 21-oktabr,
PF-5850-son

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining
Davlat tilini rivojlantirish departamenti

Abduvahob Madvaliyev, Ne’mat Mahkamov,
Zuhra Mirahmedova, Akmalxo‘ja Saidno‘monov

XALQARO TERMINELEMENTLARNING IZOHLI-ILLYUSTRATIV LUG‘ATI

Muharrir
Badiiy muharrir — D. Mulla-Axunov
Texnik muharrir — R. Ahmedov
Sahifalovchi — G. Ahmedova

Noshirlik faoliyati to‘g‘risidagi xabarnoma
6.11.2023-yil qabul qilingan, tasdiqnoma № 156149.
Bosishga 2023-yil 1-dekabrda ruxsat etildi.
Bichimi 70x100 1/16. Bosma tabog‘i 27. Adadi 1000.
Buyurtma № 59-60.

“Donishmand ziyosi” MChJ nashriyotida nashrga tayyorlandi.
Toshkent shahar, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

“Kamalak-PRESS” MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahar, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.